O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

B. ALIEV, I. ERGASHEV, O.YULDASHEV, T. HOSHIMOV.

P O L I T O L O G I Y A

D A R S L I K

TOSHKENT – 2010

Ma’sul muharrirlar: s.f.d., professor I.Ergashev,
s.f.d. M.Qirg’izboev.

Taqrizchilar: f.f.d., professor T.Jo’raev
s.f.d., U.Idirov

Mazkur darslik davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq tavsiya etilgan namunaviy dastur va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Politologiya” fanini o’qitish bo’yicha ishlab chiqilgan ishchi dasturlar asosida tayyorlangan bo’lib, unda “Politologiya” fanining mavzui, tadqiqot usullari, qonun va kategoriyalari, siyosiy g’oyalar va ta’limotlarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari, jamiyat siyosiy tizimining ilmiy nazariyasi, uning yetakchi qism-bo’lagi bo’lgan davlat hokimiyati mehanizmining amaliyoti, siyosiy partiyalar va partiya tizimlarining o’rni, shuningdek, siyosiy madaniyat asoslari – siyosiy ong, siyosiy mafkura siyosiy hayotning muhim omillari sifatida bayon etilgan.

Darslikda davlat hokimiyati tashqi siyosati faoliyatining dolzarb muammolariga alohida o’rin ajratilgan. Unda ichki va tashqi siyosat o’zaro mutanosibligi, xalqaro tizim va xalqaro siyosat, xalqaro terrorizm, mintaqaviy mojarolar, jahon siyosatida xalqaro tashkilotlarning ahamiyati, hozirgi insoniyat sivilizatsiyasi jarayonlarining o’ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Darslik iqtisodiyot yo’nalishi bo’yicha oliy o’quv yurtlari o’qituvchilari, talablari va boshqa “Politologiya” fani bilan qiziquvchi mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Bakalavriat 5340100 – 5341100 yo’nalishlariga mo’ljallangan.

(Iqtisodiyot, menejment, marketing, bojxona ishi, moliya, bank ishi, biznes, soliqlar va soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va audit, mintaqashunoslik, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, kasb-hunar fanlarini o’qitish metodikasi).

Данный учебник разработан в соответствии с государственным стандартом образования и программой Ташкентского Государственного университета по предмету «Политоглогия». В отражены содержание, законы и котегории, политические идеологии и теории, этапы становление и развитие, методы государственного управление, политические партии и теории политических элит, основы политической культуры, политическое идеологие как важные элементы политической жизни общества.

Особое внимание уделено значению государственной власти в разрезе внешнеполитической деятельности. В учебнике раскрыты вопросы взаймосвязи и взоймодействие внутренней и внешней политики, международной политики и международной системы, межденародного терроризма, региональных проблем, мировой политики, роли и значение международных организаций.

Учебник предоставлен для изучения студентами высших учебных заведений, а также для широкого круга читателей, интересующихся политологией.

The present textbook was elaborated in accordance with the state standard of education and the program of Tashkent State University on the subject of Political Science. The textbook embraces the areas of context, laws and categories, political ideologies and theories, stages of formation and development, methods of governmental regulation, political parties and theories of political elites, foundations of political culture, and political ideologies as essential elements of political life of the society.

Special attention is paid to the importance of the state power in the activities of external policy. The textbook uncovers the issues of interrelation and intercommunication of internal and external policy, international policy and international system, international terrorism, regional problems, global politics, the influence and significance of international organizations.

The textbook is intended for the students of higher educational establishments, as well as other readers interested in political science.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan "Politologiya" fanidan yangi dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Sababi, bu yo'nalishda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirmay turib, yoshlarning zamonaviy siyosiy dunyoqarashini shakllantirish, ularning intellektual kamolotga erishuvini ta'minlash mushkuldir.

Qadimgi grek mutafakkiri Arastu (Aristotel) ta'kidlaganidek: - "Siyosat inson faoliyatining ajralmas qismiga aylangan holda u tirik jon sifatida inson tabiatida joy olgan bo'lib, jamoada, davlatda yashashi va boshqa odamlar, davlat institutlari bilan o'zaro harakat qilmoqlikka mahkum etilgan".[1]

O'tgan asrlar va yangi davrda davlat boshqaruv unsurlariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar, shuningdek, so'nggi davrlarda G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya politolog va ijtimoiy fanlar olimlari tomonidan amalga oshirilgan politologiyaning nazariy va amaliy jihatlari qamrab olingan ilmiy kashfiyotlar, rivojlangan mamlakalatlar tajribasi chuqur tahlil etilgan monografiyalar, oliy ta'lim tizimi talabalari uchun darsliklar yaratildi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatining kelib chiqishi, uning rivojlanishiga doir nazariy qarashlar va xorijiy tajribalar, fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanish tamoyillarini o'rganish va tadqiq etish, bu sohadagi o'z yechimini kutayotgan masalalar va muammolar yuzasidan ilmiy tahlillar qilinib, amaliy hayotga tadbiq etilmoqda.

Demak siyosat, siyosiy hayot, xalqaro siyosiy munosabatlar masalasi demokratik huquqiy davlat fuqarolik jamiyatini qurayotgan davlatlar va ularning liderlari, shuningdek keng fuqarolar jamoalarini qiziqtirayotgan muammoga aylangan. Bu masala erkin, odil, adolatli fuqarolik jamiyatini qurayotgan O'zbekiston uchun ham bevosita taalluqlidir. Yangilanish, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, modernizatsiyalashtirish jarayoni barcha sohalar kabi ijtimoiy fanlarni o'qitish,

[1] Михайлова В.А. История политических и правовых учений. Санкт-Петербург, 2000. - С. 16.

ularning mazmun-mohiyatini davr talablari asosida qaytadan o’zgartirish vazifasini qo’ydi.

“Politologiyani o’qitish davlat dasturi”da ta’kidlanganidek, siyosiy bilim berish – hozirgi davr kishisining siyosiy hayotda qatnashuvi va siyosiy madaniyatni shakllantirish demokratik qadriyatlarda qatnashtirish usullaridan biridir. Politologiya fani talabaga siyosiy voqelik, siyosiy xulq-atvor qoidalari, siyosiy qadriyatlar haqida eng zarur bilimlarni berishga qaratilgan. Hayot siyosiy hodisalarni xolisona va tanqidiy baholashga, siyosiy yo’lni tanlashga qodir bo’lgan, siyosiy bilimdon kishilarni kamol toptirishni taqazo etadi. Bo’lajak mutaxassislar ma’lum bilimlarni egallashlari bilan birga, jadallik bilan o’zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tezda anglab, unga moslashib, mustaqil holda shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, faol va ijodiy ravishda hayot tomonidan ilgari surilgan muammolarni hal etish kabi mahorat va malakani egallashlari darkor.

Talabalar fanni o’rganish jarayonida “Politologiya”ning mazmuni va vazifalari, davlatlarning asosiy ichki va tashqi siyosatining tamoyillari, siyosiy institutlar va siyosiy jarayon, jamiyat siyosiy tizimi, siyosiy hokimiyat, uni amalga oshirish shakllari, demokratik va huquqiy davlat, siyosiy partiyalar va siyosiy harakatlar, iqtisodiy va ijtimoiy siyosat, milliy munosabatlar rivolanishining siyosiy jihatlari, ijtimoiy guruhlar, demogratik jarayonlar haqida siyosiy bilimlarni to’liq o’zlashtiradilar. Shu bilan birga, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, milliy g’oya, milliy mafkura, xalqaro tizimlar va umumbashariy taraqqiyotning siyosiy muammolari, xalqaro terrorizm demokratiya kushandasi ekanligi, xalqaro xavfsizlik: barqarorlik va taraqqiyot masalalarini ham o’rganibgina qolmay, maskur siyosiy jarayonlarga o’z munosabatlarini bildiradigan, davlatimiz va boshqa mamlakatlardagi demokratiyalashuvning, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining o’ziga xos tomonlarini anglab oladigan mutaxassis kadrlar bo’lib etishadilar.

Politologiya fanini o’rganish jarayonida talabalar xorijiy va mamlakatimiz ichki va tashqi faoliyatlarida, siyosiy hokimiyat va siyosiy munosabatlarda yuz

berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning murakkabligi va xilma-xilligini o'rganadilar.

Fanni o'rganish, ko'plab sohalar bo'yicha bozor iqtisodiyoti sub'ektlari faoliyatiga ongli munosabatda bo'lib, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga foyda keltiradilar, siyosiy boshqaruvda faol ishtirok etadilar.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - "Eng muhimi, bugun odamlarimizning dunyoqarashi, ongu shuurui va tafakkuri, hayotga va mehnatga munosabati, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik tuyg'usi, o'z Vatanidan g'urur va iftixori, kelajakka ishonchi kundan-kunga tobora oshib borayotganini ko'rmaslik, sezmaslik, anglamaslik mumkin emas".[1]

Shubhasiz, "Politologiya" fani boshqa ijtimoiy fanlar kabi bo'lajak mutaxassislarni ana shunday shaxs bo'lib etishishlariga yordam beradi.

Politologiya fani bo'yicha ushbu darslikni tayyorlashda, Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, risolalari, nutqlari, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida, shuningdek, Rossiyada so'nggi yillarda nashr qilingan darsliklardan, o'quv-uslubiy adabiyotlardan, o'quv qo'llanmalardan tavsiya va ilmiy asarlardan jumladan: I.Ramazonov, E. Muminovlarning "Siyosatshunoslik" darsligi (-T.: "Adolat", 1997), S.Otamurodov, I.Ergashev, I.Akromov, A.Qodirovlarning "Siyosatshunoslik" (-T.: "O'zbekiston", 1999), "Siyosatshunoslik kursi bo'yicha ma'ruzalar matni" 1-2-qismlar (-T.: M.Ulug'bek nomli O'zMU, 2000), "Siyosatshunoslik". O'quv qo'llanma (-T.: A.Qodiriy nomli Xalq merosi nashryoti "O'AJBNT" markazi, 2002), V.P.Pugachev, A.I.Salovevlarning "Siyosatshunoslikka kirish" (-T.: "Yangi asr avlodi", 2004), V.V. Dubkovning "Siyosatshunoslik" (-T.: "Mehnat", 2004), B.Aliev, A.Boboevlarning "Siyosatshunoslik". O'quv qo'llanma (-T.: TDIU, 2007), X.T.Odilqoriev, D.X.Razzaqovlarning "Siyosatshunoslik". (-T.: "O'qituvchi", 2008), S.Nosirxujaev, B.Aliev, T.Sultonov, D.Hojimuhamedovalaring "Politologiya" (-T.:

[1] Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. -T.: "O'zbekiston", 2009. 10-b.

“Fan”, 2009), “Politologiya”. (-M.: “Yurayt-izdat”, 2008), A.I.Kravchenkoning “Politologiya” (-M.: “TK Velbi”, 2008) darsliklaridan keng foydalanildi.

Mazkur darslik Davlat ta’lim standartlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy kompleksining maxsus metodologik komissiyasi bayonnomasi va O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, oliy o’quv yurtlari ilmiy-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash Prezidiumining 2003 yil 1 iyul qarori bilan tavsiya etilgan “Politologiya” fanidan namunaviy dastur asosida tayyorlangan. Kitobda fanga oid bo’lgan katta hajmdagi nazariy materiallarni umumlashtirish va tizimlashtirishga harakat qilingan. Shuningdek, hozirgi davr siyosiy jarayonlarida yuz berayotgan voqealar umumlashtirilgan hamda ushbu sohada fikr yuritayotgan mutaxassislarning xulosalari jamlangan. Bundan tashqari darslik O’zbekiston siyosiy hayotidan olingan dalillar va misollar bilan to’ldirilgan va unda o’quv-uslubiy, ko’rgazmali namunalar keltirilgan.

Ushbu darslikda barcha muammolar o’z echimini topgan deb bo’lmaydi. Unda ba’zi bir kamchiliklar va nuqsonlar bo’lishi tabiiy. Shu boisdan darslik mualliflari taklif va istaklarini bildirgan o’rtoqlarga chin dildan minnatdorchilik bildiradilar.

BIRINCHI BO’LIM. POLITOLOGIYA FANI, SIYOSIY TA’LIMOTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1-MAVZU: POLITOLOGIYANING SIYOSIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O’RNI VA ROLI

1.1. Politologiya fani predmeti, maqsadi va vazifasi

Politologiya – yunoncha *politika* – davlat, *logos* – tushuncha, ta’limot so’zlarining birligidan tashkil topgan bo’lib, u siyosat, siyosiy munosabatlarni o’rganuvchi ilmiy bilimlar sohasi demakdir.

Politologiya fan sifatida XX asr o’rtalarida shakllangan bo’lsada, siyosiy g’oyalar tarixi ming yilliklarni o’z ichiga oladi. Politologiya mustaqil ilmiy fan sifatida rasmiy jihatdan 1948 yilda YUNESKO ekspertlari tomonidan siyosiy fanlarning ob’ekti, predmeti, tuzilishi va vazifalarini belgilab bergan maxsus hujjatni qabul qilinishi bilan e’tirof etildi.

Politologiyaning ob’ekti davlat va siyosiy partiyalar, siyosiy tizim va saylov tizimi, siyosiy munosabatlar va aloqalar, siyosiy madaniyat va axloq kabi siyosatning serqirrali manzarasini tashkil etadi. Ammo, politologiya predmetini aniqlashda bir muhim fikrga kelingan emas. Yonma-yon ikki muqobil qarashlar mavjud bo’lib, ulardan biri politologiya predmetiga keng ma’noda yondashsa, ikkinchisi tor ma’noda qaraydi.

Fransuz faylasufi M.Fukoning politologiya kontseptsiyasi yaxshi ma’lum bo’lib, uning aytishicha siyosat hozirgi zamon kishisini har taraflama qo’rshab olgan, yashirin va oshkora ravishda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga so’ralmagan holda kirib kelmoqda. Hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari siyosiy jarayonni nihoyatda faollashtirib reklamaga o’xshash hamma yerda hoziru manzur. Shuning uchun politologiya predmetini turlicha izohlash mumkin: Politologiya fanlararo fan bo’lib siyosat sotsiologiyasi, siyosiy falsafa, siyosiy madaniyatshunoslik, siyosiy etika bo’lishi kerak, degan g’oyani rossiyalik politolog ilgari surgan bo’lsa, unga muqobil ravishda amerikalik olim G.Bekker quyidagicha yondashadi.

G.Bekker qarashlariga binoan siyosiy hokimiyat sohasi tor doirasida taqsimlashga asoslangan – faqat davlat munosabatlari doirasida chegaralangan bo'lib, boshqa sohalarga – iqtisodiyotga, madaniyat va fuqarolik jamiyatiga aralashmasligi kerak. Shuning uchun bu fan siyosiy hokimiyatining aynan o'ziga tegishli tor sohasini o'rganishi kerak.

Ammo ko'pchilik hozirgi siyosatshunoslar politologiya fani predmetini aniqlashga bo'lgan tor va keng yondashuvdagi chegaradan chetga chiqib harakat qiladilar. Hozir turli siyosiy fanlarni o'z predmeti doirasida farqlash qabul qilingan. Misol uchun K.S.Gadjiev va I.S.Panarin: - Siyosat sotsiologiyasi fuqarolik jamiyatidagi odamlarning o'zaro munosabatlarini o'rgansa, politologiya – ularning davlat doirasidagi munosabatlarini ya'ni hokimiyat xususidagi masalani o'rganadi - deydi.

Siyosiy antropologiyaning predmeti siyosiylashgan shaxsning faoliyatini tahlil etsa, siyosiy geografiyaning predmeti davlatlar o'rtasidagi makoniy, masofaviy munosabatlarini o'rganadi. Boshqa siyosiy fanlardan ajralmagan holda politologiya ham o'ziga xos predmetiga ega. Agar politologiyaning predmet doirasini aniqlashga urinib ko'rilsa, aytish mumkinki, politologiya siyosat dunyosi, siyosiy institutlar, jamiyatdagi hokimiyatga bo'lgan munosabatlarning umumlashtirilgan, tizimlashgan bilimlarni beruvchi fan ekanligini ko'ramiz.

Shunday qilib, politologiya siyosiy tadqiqotlarga urg'u va yo'nalish beradi. Politologiyaning xulosalari esa o'z navbatida boshqa siyosiy fanlarning rivojlanishi uchun muhim metodologik asos bo'ladi.

Politologiya fani odamlarning huquq va erkinliklari, odobliligi va adolatliligi, ijtimoiy hayotning qadriyatlari va normalari, demokratik istiqboli haqidagi masalani qay darajada hal qilinganligiga qarab, siyosiy sotsiologiya va siyosiy antropologiya, siyosiy psixologiya va siyosiy geografiya rivojlanishining asosiy yo'nalishini belgilaydi.

Ammo, muammoning boshqa tomonini ham ta'kidlash lozim. Shubhasiz, barcha siyosiy fanlar bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Siyosiy rivojlanish muammolarini sotsiologik va psixologik doiradan tashqarida, siyosiy

antropologiya tadqiqotlaridan tashqarida, statistik ma’lumotlarga hozirgi zamon siyosiy geografiya yutuqlariga murojaat etmau qarash mumkin emas. Hozirda uyg’un birlikda rivojlanayotgan siyosiy fanlar tizimida politologiya markaziy o’rinni egallaydi.

YUNESKO ekspertlari hozirgi zamon politologiyasining to’rt asosiy yo’nalishinini tasniflaydilar:

1. Siyosiy nazariya:
   a) siyosiy nazariya;
   b) g’oyalar tarixi.
2. Siyosiy institutlar:
   a) konstitutsiya;
   b) markaziy hokimiyat;
   v) mintaqaviy va mahalliy boshqaruv;
   g) davlat muassasalari;
   d) hokimiyatning iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalari.
3. Partiyalar, guruglar va ijtimoiy fikr:
   a) siyosiy partiyalar;
   b) guruglar va birlashmalar;
   v) fuqarolarning hukumatda va ma’muriyatda qatnashishi;
   g) jamoatchilik fikri.
4. Xalqaro munosabatlar:
   a) xalqaro siyosat;
   b) xalqaro tashkilotlar;
   v) xalqaro huquq.

Politologiya – bu mustaqil fan. U o’zining ob’ekti va o’ziga xos o’rganish predmetiga ega. Politologiyaning ob’ekti bo’lib, jamiyat siyosiy sohasi, unda sodir bo’ladigan hamma hodisa va jarayonlar hisoblanadi. Politologiyadan bo’lak ijtimoiy hayotning bu sohasini falsafa, sotsiologiya, huquq, tarix va boshqa fanlar o’rganadi, ammo ularning har biri o’zlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, uni tadqiq etadilar.

Politologiya fanining predmeti (1.2-chizmaga qarang, 8-bet.) bu siyosiy hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi, uning amal qilish shakllari, usullarini va jamiyat tuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Bizningcha, politologiya fani predmetiga berilgan quyidagi tarif keng qamrovligi bilan ahamiyatga loyiq.

1.1- chizma



1.2- chizma



1.3- chizma



Politologiya – jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy jarayonlar va siyosiy hokimiyat, uning asosiy tarkibiy qismlari, davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, siyosiy tashkilotlar va siyosiy harakatlar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar, fuqarolarning o'rni va roli, hokimiyatga munosabat, uni saqlab turish mehanizmi va vositalari, jarayonlari hamda amaliyotini o'rganadigan fan.[1]

Politologiya fanining o'ziga xosligi shundan iboratki, u hamma jarayonlarni siyosiy hokimiyatga munosabat nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Aynan "siyosiy hokimiyat" kategoriyasi "siyosat" haqidagi so'zning mohiyat va mazmunini o'zida to'liq aks ettiradi. Siyosat hokimiyat bor joyda yuzaga keladi, u (ya'ni siyosat) davlat tashkilotlariga suyangan holda mavjud jamiyatning qoida va qadriyatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Hokimiyatsiz siyosatning bo'lishi mumkin emas, sababi, aynan hokimiyat uni amalga oshirishning vositasi hisoblanadi. "Siyosat sohasidagi fan haqida gapiradigan bo'lsak, - deb ta'kidlaudi G.Lassuel, - biz hokimiyat haqidagi fanni nazarda tutamiz".[2]

Hokimiyat, siyosat va davlat ifodasini aks ettirib, o'ziga xos mezonni ifodalaganligi tufayli politologiya mustaqil ijtimoiy fan hisoblanadi.

Politologiya boshqa siyosiy fanlardan farqli ravishda siyosiy hayotning xilma-xil masalalarini siyosiy hokimiyat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar va harakatlarning faoliyati bilan bog'liq holda tadqiq etadi. Negaki, bu tashkilotlar va harakatlar siyosiy ahamiyatni kasb etadi. Ular har qanday ijtimoiy tuzumda ham jamiyatning rivojlanishiga, ularda vujudga keladigan muammolarni hal etishga ta'sir ko'rsatadi.

Politologiyaning o'rganish markazida quyidagilar turadi:

1. Siyosiy hokimyatni tashkil etish, unga amal qilish shakli va uslublari.

2. Mavjud siyosiy tizimlar, siyosiy hayot, siyosiy ong, siyosiy sub'ektlarning manfaatlari va xatta-harakatlarini, shuningdek, g'oyaviy-siyosiy ta'limotlar va nazariyalarni o'rganish.

[1] Odilqoriev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. - T.: "O'qituvchi", 2008. 18-b.
[2] Лассуди. Современная западная социология. Словарь. Политиздат. 1990. –С. 152-153.

Politologiya fan sifatida amaliy va nazariy jihatdan o’zaro bog’liqlikda bo’ladi. U ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, huquqiy va ijtimoiy yondashuvlarni tahlil etib o’z predmeti doirasida ish tutadi.

Politologiya ilmiy va o’quv fani sifatida quyidagilarni tadqiq etadi va o’rganadi:

Birinchidan, u siyosiy tafakkur tarixi; siyosiy tizim, jarayonlar, siyosiy ong va madaniyat, xalqaro keng qamrovli siyosiy muammolarni tadqiq etadi.

Ikkiinchidan, muhim amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Uchinchidan, jamiyatning siyosiy sohasi, uning rivojlanish qonuniyatlari haqida tushuncha beradi.

To’rtinchidan, hozirgi davr siyosiy institutlari, ularning o’rnatilishi va amal qilinishi, demokratik jamiyatdagi fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlari, ularda siyosiy jarayonlarning o’zgarish sur’atlari, turlari, shakllari, uning sub’ekti haqida bilimlar tizimini beradi.

Beshinchidan, talabalarda siyosiy madaniyatni, ijtimoiy-siyosiy voqelikni tahlil etishda hozirgi zamon siyosiy tafakkur tamoyillarini qo’llash mahoratini shakllantirishga yordam beradi.

1.2. Politologiya fani qonun va tushunchalari, kategoriyalari, hamda uning uslublari

Politologiya fani o’zining qonuniyatlar majmuiga ega. Bu qonuniyatlar ularning namoyon bo’lish xususiyatlariga qarab uchta asosiy guruhga bo’linadi.

Birinchi guruh qonuniyatlar – (1.4-chizmaga qarang, 12-bet.) bu siyosiy-iqtisodiy qonuniyatlar bo’lib, u jamiyat iqtisodiy bazasi va siyosiy hokimiyat o’rtasidagi nisbatni aks ettiradi.

Siyosat tegishli ravishda siyosiy va davlat hokimiyati tizimi hamda iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi bilan bog’langan. Iqtisodiy manfaatlar siyosiy faoliyatning ijtimoiy sababchisi hisoblanadi. Siyosiy hokimiyat iqtisodiy hokimiyatni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi. Shuning bilan birga siyosiy hokimiyat iqtisodiyotga nisbatan hosila bo’lib, iqtisodiy jarayonlarga siyosiy ta’sir ko’rsatish uchun keng imkoniyat yaratadi. Siyosiy hokimiyatga sig’inish,

ma’muriy ta’sir ko’rsatish yo’li bilan iqtisodiy qonunlarni “cheklab” o’tish, qo’yilgan maqsaddan chetga chiqishga olib keladi.

Ikkinchi guruh qonuniyatlar – (1.5-chizmaga qarang, 13-bet.) siyosiy-ijtimoiy qonuniyatlar bo’lib, siyosiy hokimiyatni rivojlantirishni xarakterlaydi.

Siyosiy hokimiyat tizimning asosiy qonuniyati bo’lib, barqarorlikni mustahkamlash hisoblanadi. Bu qonuniyat siyosiy hokimiyatning turli tizimlarida turlicha amalga oshiriladi. Masalan, avtoritar sistemada barqarorlikni mustahkamlash uchun hokimiyatni yuqori darajada markazlashtirish hamda keng ko’lamdagi zo’ravonlikni talab etadi. Unga qarama-qarshi o’laroq demokratik tizim hokimiyatni taqsimlashni sud, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyatlarni ko’zda tutadi, manfaatlar va kelishuvchilik printsiplariga suya **chizma** nadi.

Uchinchi guruh qonuniyatlar – ularni shartli ravishda siyosiy-psixologik deb atash mumkin. U shaxs bilan hokimiyat o’rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Siyosiy-psixologik qonuniyatlar ichida eng xarakterlisi siyosiy rahbarning hokimiyatni qo’lga kiritishi hisoblanib, bu ko’zlangan maqsadga erishishda eng qadrlisi va qimmatlisi hisoblanadi. Bu qonuniyat birinchi marotaba N.Makiavelli tomonidan ta’riflab berilgan.

Ba’zi adabiyotlarda[1] politologiya qonuniyatlari ikki guruhga ajratib ko’rsatilgan.

Birinchi guruhga davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy hayotida amal qiladigan qonunlar bo’lib, u o’z ichiga:

1) Jamiyat siyosiy jarayonlarida siyosiy hokimiyat mexanizmlaridan samarali foydalanish;

2) Jamiyat siyosiy hayotining demokratiyalashishi;

3) Siyosiy boshqaruv jarayonlari;

4) Siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy hayot munosabatlari;

5) Shaxs, jamiyat va davlat tizimida inson manfaatining ustivorligi va boshqalar.

[1] Mualliflar hamkorligida: Politologiya. Toshkent davlat yuridik instituti. 2006. 10-11- b.

Ikkinchi guruh qonunlari xalqaro munosabatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy aloqalar bilan bog’liq bo’lib, ular:

1) Xalqaro xavfsizlik va o’zaro ishonchni rivojlantirish;
2) Xalqaro va davlatlararo ixtiloflarni bartaraf etishning siyosiy vositalari;
3) Umumbashariy muammolarni bartaraf etishning siyosiy yo’llari;
4) Turli siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, tashkilotlar va harakatlar bilan siyosiy hamkorlikni yo’lga qo’yish;
5) Jamiyat siyosiy hayotida siyosiy yetakching o’rni va rolini tahlil etish va h.k.

1.4-chizma



1.5- chizma



1

Politologiya fanining ob’ektiv qonuniyatlari

1. Siyosiy munosabatlarda tomonlar manfaatdorligi qonuni.
2. Jamiyat siyosiy tizimining uyg’un amal qilish qonuni.
3. Siyosiy munosabatlarda siyosiy madaniyat zarurligi.
4. Iqtisod va siyosatning birligi.

Politologiyaning mohiyati va mazmunini ifodalashda uning kategoriyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

1. 6- chizma



“Kategoriya” tushunchasi siyosiy fanlarda, jumladan politologiyada narsa va hodisalarning eng umumiy belgi va bog’lanishlarini ifodalaydi.

Politologiya fanining asosiy kategoriyalari.

1. Siyosiy hokimiyat.
2. Jamiyat siyosiy tizimi.
3. Davlat va davlatlashtirilmagan birlashmalar.
4. Siyosiy partiyalar.
5. Siyosiy tartibot.
6. Siyosiy munosabat.
7. Siyosiy ong.
8. Siyosiy madaniyat.
9. Demokratiya.
10. Xalqaro siyosiy muammolar.
11. Xalqaro munosabatlar.

12. Siyosatning ob’ekti, sub’ekti va boshqalar.

Bu kategoriyalar politologiya fanini boshqa siyosiy fanlardan farqlashga hamda uning mohiyatini tushunishga xizmat qiladi.

Politologiyada muhim o’rinni ilmiy tushunchalar tizimi egallaydi, unda “siyosiy hokimiyat” asosiy hisoblanadi. Politologiya kategoriyasi va o’ziga xos tushunchasi shunda ifodalanadiki, ular siyosiy hokimiyatning turli tomonlari va munosabatlarini ochib beradi. Masalan, “siyosiy tizim” kategoriyasi siyosiy hokimiyat turli tashklotlari faoliyati jarayonidagi o’zaro munosabatlarini xarakterlaydi; “siyosiy jarayon” ijtimoiy sub’ektining faoliyat majmuini aks ettirib, uning yordamida siyosiy hokimiyatning shakllanishi, rivojlanishi va ifodalanishi yuz beradi: “siyosiy sotsializatsiya” deganda jamiyatdagi mavjud hokimiyat tizimi tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan qoida va qadriyatlarni shaxs tomonidan o’zlashtirib olish jarayoni tushuniladi: “davlat” siyosiy hokimiyatning asosiy tashkiloti sifatida qaraladi; “armiya” – uning bir butunligini qurolli yo’l bilan himoya etishda, siyosiy hokimiyatning o’ziga xos qurolidir.

Politologiyada bir necha guruhdagi usullari1.

7- chizma



Nazariy usulda siyosiy voqelik va siyosiy xulq-atvor murakkab mavxumiya tuzilma hisoblanadi. Bevosita kuzatilishi qiyin bo’lgan siyosat haqidagi bilimlarni olishga qaratilgan.

Nazariy uslublar dunyoni anglashga yordam beribgina qolmay u fanining kategorialar muassasasini shakllantiradi ham.

Hozirgi kunda asosiy yondashish usuli sinergetik (birlikda, hamkorlikda, hamoxang harakatda) usul bo’lib, mazkur usul fanlararo ilmiy tadqiqot olib borish yo’llarini anglatib, uning mohiyatini o’z-o’zidan uyushish, vujudga kelish, amal qilishni tashkil etadi.

Ularning asoslashlaricha, hozirgi dunyoning ilmiy manzarasi ko’p tomonlamalik, tez sur’atli xaqiqat va murakkablik tomon keskin o’zgarmoqda. O’zining xususiyatiga ko’ra bizning koinot uyg’un birlikka ega.

Hozirda ko’pchilik olimlar sinergetik yondashuv tabiiy-ilmiy va gumanitar yondashuvni yaqinlashtirishga yordam beradi deb hisoblaydilar.

Sotsiologik usul ichki va tashqi siyosat yuritishning jamiyat taraqqiyoti mushtarak qonuniyatlari bilan uzviy bog’liq ekanligini, shuningdek, iqtisodiy munosabatlar, sinfiy tuzilma, mafkura va madaniyatning siyosiy tizimga ta’sirini aniqlaydi. Sotsiologik usul siyosiy fanda yetakchi mavqeni egallab, siyosiy sotsiologiyaning o’ziga xosligini belgilaydi.

Empirik usulga quyidagilar kiradi: statistikadan foydalanish, birinchi navbatda elektronik hujjatlarni tahlil etish, anketali so’rov, labarotoriya tadqiqotlari; kuzatishlar, aniq siyosiy voqelikni bevosita ishtirokchisi tomonidan amalga oshirilayotgan kuzatuvchilar yoki odamlarning ekspremintal sharoitda bo’lgan xatti-harakatini kuzatish va hokazolar..

Politologlar aholi fikrini aniqlash, siyosiy yetakching haqiqiy maqsadini, ijtimoiy guruhlarning qadriyatli yo’nalishi va siyosiy ko’rsatmalarini, ommaning, davlat boshqaruv qarorlariga bo’lgan munosabatini aniqlash maqsadida kuzatish va so’rov usullaridan keng foydalanadilar.

Kulturalogik usul siyosiy jarayonlarning siyosiy madaniyatga bog’liqligini aniqlashni talab qiladi.

Me’yoriy-qadriyat usuli – siyosiy voqelikni jamiyat va shaxs uchun ahamiyatini ularning umummanfaat yo’lida, adolat, erkinlik, inson xaq-huquqlarini hurmat qilishni aniqlashni talab etadi.

Institutlashtirilgan usul – siyosiy faoliyatni ya’ni davlat, partiya, boshqa tashkilot va birlashmalar, huquq, hukumat dasturlari va siyosiy tashkilotning boshqa muassasalari bo’lgan institutlarni o’rganishni talab qiladi.

Antropologik usul – siyosatni sotsial omillar bilan bog’liqligida emas balki ibtidoni jamiyat sifatidagi tabiatiga asos bo’lgan extiyojlarni yig’indisini (ovqatga, kiyimga, uy-joyga, xavfsizligi, erkin faoliyat ko’rsatishi, ma’naviyat rivojlanishi va hokazolar) tadqiq etishni talab etadi.

Psixologik usul – siyosiy xulq-atvor, individual xis-tuyg’u va xislatlarning sotsial jihatlarini tadqiq etadi.

Umummilliy (mantiqiy) usul – umummilliy nazariyalarni rivojlanishi jarayonida, avvalo falsafiy an’analar chegarasida hamma fanlar uchun ob’ektiv reallikni anglash va aniqlash usulidir.

Mantiqiy usul – ommabop qoidani o’zida ifodalab maqsadga muvofiq xulosalarni qaror toptirishni nazarda tutadi. Bunga quyidagi usullar kiradi.

1. Aniqlash va tasniflash, fanning asosiy kategoriyalari bo’yicha kelishuvga erishish va ularni ma’lum bir tartibga solish.

2. Taqqoslash bir tartibdagi jarayonlar, voqea va xodisalarni solishtirish, xususan turli mamlakatlar va mintaqalarda amal qilayotgan va rivojlanayotgan siyosiy hodisalar o’zaro nisbatida ixtisoslashayotgan solishtiruvchi politologiya asosida amalga oshirishadi.

3. Tahlil va sintez, xodisalarni o’zaro bog’langan, bir butun holda tekshirish usuli murakkab siyosiy tuzilmalarini va ichki tuzilishini ko’rishga imkon beradi.

4. Tarixiy tahlil orqali siyosiy voqea-xodisalarni, siyosiy jarayonlar oqimi bilan o’lchab, o’tmish saboqlari, hozirgi hayot muammolari, istiqbol rejalari kabi masalalarni mujassamlashtirib, mantiqiy va uzviy bir-biriga aloqadorlikda mushoxada qilish hamda in’ikos etish imkonini vujudga keltiradi.

5. Tizimli yondoshish – politologiya barcha qismlarini o’zaro mantiqiy bog’lash, ular o’rtasidagi aloqadorlik va mazmunli bog’liqlik munosabatlarini ochib berish, siyosiy voqea-xodisalarni qiyosiy tahlil qilish, har bir politologiya muammosini yahlit birlik tizimi tarzida mushoxada etib, uning ichki o’zaro mutanosibliklarini aniqlab olish muqarrardir.

Siyosiy institutlar haqidagi nazariyaga birinchi o’rinda jamiyat siyosiy tashkilotlari, davlat va huquq, siyosiy partiyalar va boshqa institutlar nazariyalari kiradi va uning chegarasida ko’plab mustaqil fanlar mavjud. Masalan, davlat va huquq nazariyasi, davlat haqidagi umumiy nazariya bilan birga yana bir qator yuridik fanlarni o’z ichiga olgan.

Siyosiy institutlar an’anaviy holda siyosiy tashkilotlarning markazida turadi va hozirgi kunda markaziy o’rinlardan birini egallaydi.

Xalqaro siyosat nazariyasi – siyosiy tashkilotlar sohasi bo’lib – uning predmeti xalqaro tashkilotlar, birlashmalari (BMT, NATO, Xalqaro Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Xalqaro amnitsiya va h.k.), davlatlarning, partiyalarning, ijtimoiy tashkilotlarning tashqi siyosiy faoliyati hisoblanadi. Shuningdek, u urush va tinchlik muammosi, xalqaro ixtiloflarni oldini olish va bartaraf etish, yangi xalqaro tartibni shakllantirish masalalarini ham tadqiq etadi.

Siyosiy tarix siyosat haqidagi nazariyani, qarashlarni, institutlarni va voqealarni xronologik tartib asosida o’rganadi. Tarixni bilmay turib kelajakni anglash va tushunish qiyin. Shuning uchun siyosiy tadqiqotlarning darajasi siyosiy tarix xulosalariga bog’liq.

Oraliq siyosiy fanlar ichida siyosat sotsiologiyasi – jamiyat va siyosat o’rtasidagi munosabatlarni, sotsial tuzilma va siyosiy institutlar hamda jarayonlarni tadqiq etadi. Aniq empirik siyosiy-sotsiologik tadqiqotlar amaliy politologiyaning asosi bo’lib xizmat qiladi.

Amaliy politologiya amaliy yo’nalishiga ega bo’lib davlat, partiyalar, sotsial guruh va individlar faoliyatidagi aniq voqea va xodisalarni o’rganadi.

Amaliy politologiya siyosiy faoliyatda qatnashayotganlar uchun amaliy maslaxatlar va tavsiyalar ishlab chiqadi va ularga u yoki bu siyosiy qarorlarni qabul qilishda xizmat qiladi.

1.3. Politologiyaning boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan o’zaro munosabati

Politologiya fani boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlardan farqli ravishda jamiyatning siyosiy jarayonlari to’g’risida fikr yuritadi. Jamiyat hayotida siyosiy hokimiyat muhim o’rin tutadi. Jamiyatning siyosiy hokimiyati, bu hokimiyatning mohiyati va tuzilishini aniqlash, uning jamiyatda taqsimlanishi hamda uning mexanizmlarini bilish politologiya fanining muhim ob’ektidir.

Politologiya faninging ijtimoiy-gumanitar fanlardagi o’rnini belgilab beradigan nazariy va amaliy shart-sharoitlar mavjud. Bu avvalo, amaliy xarakterdagi ehtiyojlar, qolaversa, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar va o’zgarishlar bilan bog’liq. Tajriba shuni ko’rsatmoqdaki, politologiya siyosiy jarayonlarga ta’sir ko’rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Siyosiy jarayonlarni borishi, unda ishtirok etayotgan siyosiy kuchlar, ular tomonidan siyosatning idrok etilishi, ularning maqsad va maslaklari, tashabbuslari, faollik darajalari siyosatda o’z ifodasini topadi. Shuningdek, politologiya jamiyat hayotining siyosiy sohasini o’rganar ekan, unda jamiyatni boshqarishning asosiy institutlari, davlat, partiyalar va boshqa siyosiy-ijtimoiy tashkilotlarning o’zaro munosabatlari mazmunini, xarakterini ham hisobga oladi. Chunki siyosiy munosabatlar natijasi ko’proq unga bog’liq bo’ladi.

Politologiya faninging boshqa siyosiy fanlar bilan bog’liqligini yana shu bilan izohlash mumkinki, u ijtimoiy siyosiy fanlarda ishlab chiqilgan nazariy xulosalarga, amaliy tajribalarga asoslangan holda ish olib boradi.

Politologiya o’z ahamiyatiga ko’ra bir butun yaxlit hisoblangan politologiya ichki nuqtai nazardan tabaqalashtirilgan bo’lib siyosatning alohida jihatlarini, tomonlarini va jamiyat bilan o’zaro aloqasini ifodalovchi bir qator boshqa xususiy fanlarni ham o’z ichiga oladi.

Siyosat ilmiy tahlil ob’ekti sifatida o’zining xususiy bilimlaridan tashqari, chegara doirasida kam deganda yana sakkiz turdagi jumladan, falsafa, huquqshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik va iqtisodiy fanlar tomonidan ham o’rganiladi.

Siyosiy falsafa – siyosatni bir butun holda, uning tabiati, inson uchun uning ahamiyati, shaxs, jamiyat va davlat hokimiyati o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni, davlat qurilishi, shuningdek, siyosatni baholashning umumiy mezonlarini o’rganuvchi bilimlar sohasidir.

Siyosiy falsafa siyosiy tadqiqotlarning umumiy metodologik asosi bo’lib xizmat qiladi, turli kontseptsiyalarning mazmun-mohiyatini belgilaydi, inson, jamiyat va hokimiyat munosabatlarining universal (turli) tamoyillari va qonuniyatlari, uning ahloqiy mezonlari va daliliy asoslarini aniqlaydi, davlat hokimiyatining chegara va printsiplarini belgilaydi.

Siyosiy nazariya individ va jamiyat hayotiy faoliyatiga tegishli bo’lgan siyosiy sohani tadqiq etadi. Siyosat nazariyasi davlatshunoslik va huquqshunoslikdan ajralgan. U davlat va huquq nazariyasi, konstitutsion huquq, xalqaro huquq va h.k. va boshqa yuridik fanlar bilan tutash.

Ushbu masalalar doirasida siyosat nazariyasi davlatning kelib chiqishi va uning roli, uni tashkil etishning huquqiy asoslari va printsiplari, huquqiy ong va boshqalarni tadqiq etadi.

Siyosat nazariyasining markaziy muammolaridan biri – bu siyosiy hokimiyat, uning mohiyati, o’ziga xosligi, manbalari, asoslari, rasmiylashganligi hisoblanadi. Shuningdek, siyosat nazariyasi siyosiy tizimni, davlat institutlari, siyosiy tartibotlar, siyosat sub’ekti kabilarni ham tahlil etadi.

Siyosat nazariyasini ishlab chiqishda, politologiya doirasida turli mamlakatlar va mintaqalarning siyosiy madaniyati, siyosiy tizimlar, tashkilotlar, siyosiy antropologiya va psixologiya ustida tadqiqotlar o’tkaziladi.

Siyosiy psixologiya siyosiy fe’l-atvor mexanizmining sub’ektiv jihatlarini, odamning ongi va tafakkuri, extiroslari, ishonchlari, qadriyatli yo’nalishlari va ko’rsatmalarni tadqiq etadi.

Bu fan insoniy fe’l-atvorni individ bilan muxit o’rtasida o’zaro ta’sir etishning jarayoni va natijasi sifatida qaraydi.

Siyosiy-psixologik tadqiqotlar siyosiy fe’l-atvor, siyosiy yetakchi, siyosiy umumlashuv (sotsializatsiya), siyosiy ixtiloflar va hamkorlik sohallarida keng qo’llaniladi.

Siyosiy antropologiya insonning oddiy sifatlariga siyosatning qarashligini, biologik, intellektual, ijtimoiy, madaniy, diniy, shuningdek, siyosiy tartibotning shaxsga aks ta’sirini o’rganadi.

Siyosiy geografiya siyosiy jarayonlarning, ularning masofaviy holati o’rtasidagi aloqani, (masalan, okeanga yaqinligi bilan bog’liq ravishda qudratli davlatlar va h.k.) teritorial, iqtisodiy-geografik, iqlim va boshqa tabiiy omillarni tadqiq etadi.

Siyosiy astrologiya kosmosning, yulduzlarning joylashuvi, quyoshning faollashuvi, siyosiy voqealar va siyosiy fe’l-atvorga ta’sirini o’rganish bilan shug’ullanadi. Biz politologiyaning fanlararo xususiyatini ochish orqali siyosiy fanlar va unga yaqin gumanitar va ijtimoiy fanlar: falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya fanlarning o’zaro ta’sir va aloqalrning xarakterini ko’rsatib berdik.

Politologiya fani boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilah bog’liqligini yana sh bilan izohlash mumkinki, u ijtimoiy –siyosiu fanlarda ishlab chiqilgan hazariy xulosalarga, amaliy tajribalarga asoalangan holda ish olib boradi. Masalan, milliy munosabatlar bilan bog’liq masalalar faisafa, siyosiy tarix, siyosiy psixologiya, siyosiy sotsiologiya kabi fanlarda ham o’rganiladi. Falsafa millatlarning vujudga kelishi va rivojlanishini umumijtimoiy qonunlar asosida o’rgansa, siyosiy tarixda asosiy e’tibor, u yoki bu siyosiy partiyalarning milliy munosabatlari sohasidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan nazariya va amaliy faoliyatini o’rganadi. Sotsial psixologiyada esa, millatlarning kayfiyati, ularning davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar va harakatlarda olib boradigan milliy siyosatga bo’lgan munosabatlari o’rganiladi.

Politologiya boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlardan farq qilib, davlatning ijtimoiy munosabatlarini tashkil etishdagi roli va ahamiyatini nazariy jihatdan asoslab beradi

1.4. Mustaqillik va O’zbekistonda “Politologiya” fanining shakllanishi va rivojlanishi

Politologiyaning fan sifatida vujudga kelishi uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasidir. Uning dastlabki asoslari birinchi marta Yunonistonda shakllangan bo’lsa, keyinchalik siyosiy fikr Sharqda, so’ng G’arbda taraqqiy etgan.

XVII-XVIII asrlarga kelib Yevropa va Shimoliy Amerikada siyosiy hayot jonlana boshladi. Bu davrda burjua revolyutsiyalari yuzaga keldi, siyosiy partiyalar va harakatlar tashkil topa bordi va jamiyatda demokratik o’zgarishlar ro’y bera boshladi. Bu kabi o’zgarishlar siyosiy nazariyalarning vujudga kelishi va shu orqali XIX asrning oxirlariga kelib, politologiya faniga bo’lgan extiyoj paydo bo’ldi. Natijada, politologiyaning xilma-xil ilmiy maktablari, tadqiqot yo’nalishlari shakllandi va ularning ayrimlari asta-sekin ilmiy-tadqiqot markazlariga aylana bordi.

Birgina misol: 1795 yilda Frantsiyada “Etika va siyosiy fanlar akademiyasi” ta’sis etildi.

1872 yilda siyosiy fanlar maktabi vujudga keldi, uning zimmasiga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy fanlar bo’yicha mamlakat uchun rahbar kadrlarni tayyorlash yuklatildi.

1945 yilda chiqarilgan qarorga muvofiq maktab o’rniga ikkita o’quv yurti tashkil etildi: birinchisi – siyosiy tadqiqot instituti, ikkinchisi – siyosiy fanlar milliy instituti.

1949 yilda siyosiy fanlar assotsiatsiyasi tashkil etildi. Assotsiatsiya Amerika, Kanada, Hindiston bilan birgalikda Xalqaro siyosiy fanlar Assotsitsiyasini ta’sis etuvchilari bo’ldilar. Har uch yilda Xalqaro kongress chaqirilib, unda siyosiy tadqiqotlar natijalari tahlil etildi, yangi rejalar tuzildi.

XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlab siyosiy hayot muammolariga bo’lgan ilmiy-amaliy qiziqish avj olib ketdi. Siyosiy hokimiyat va uning faoliyat

yo’nalishlari, siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlari, siyosiy madaniyat va uning turlari, ko’rinishlari, jahon siyosati va xalqaro tashkilotlar masalalari jiddiy ilmiy izlanishlar, tadqiq va tahlil ob’ekti bo’lib qoldi.

Hozirgi kunda dunyoning turli mamlakatlarida politologiya masalalarini o’rganuvchi yuzlab ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat ko’rsatmoqda. Ularning ko’pchiligi xalqaro siyosiy fanlar Assotsiatsiyasiga birlashgan, G’arbdagi deyarli hamma o’rta va oliy o’quv yurtlarida politologiya fani majburiy fanlardan biri sifatida o’qitilmoqda.

Sobiq Ittifoqdagi barcha jumxuriyatlarda politologiya fanini o’rganish va o’qitish masalasiga uzoq yillar davomida o’ta e’tiborsizlik bilan qarab kelindi.

Sobiq Sho’ro tuzumining parchalanishi, uning o’rnida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi fuqarolar davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faollik ko’rsatishga intilayotganligi va shu munosabat bilan siyosiy ong va siyosiy madaniyatni shakllantirish, politologiya fanini oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zaruriyatini vujudga keltirdi.

Mustaqillik va o’zlikni anglashning kuchayishi jarayonida ijtimoiy hayotning turli sohalarida siyosiy faoliyat, davlat, siyosiy partiyalar, nodavlat, nohukumat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va inson, davlat va jamiyatning o’zaro munosabatlarini, siyosatshunoslikning asosiy tushunchalarini anglashga bo’lgan extiyoj kuchaymoqda. Shu bois siyosatshunoslikni o’rganish inson kamolotining, mamlakatda demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning zarur shartiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda – siyosatchi, iqtisodiyot haqida-iqtisodchi bo’lib fiqr yuritishni, ma’naviyat va ma’rifat haqida ma’rifatchi, hayotiy-falsafiy muammolar xususida faylasuf bo’lib baxsga kirishish – mana shunday yuksak qobiliyat va mahoratga ega bo’lishni hayotning o’zi kun tartibiga qo’ymoqda”[1].

Mamlakatimizda ushbu fanning joriy etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiya etgan jahon amaliy standartlari talab va tajribasiga javob beradigan uyg’un

[1] Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish.- T.: “O’zbekiston”. 2009. 23-b.

malakali mutahassislar tayyorlashni yaxshilashga olib kelmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan uning oliy tizimda o'qitilishi qonun ustivorligiga asoslangan adolatli demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mustaqillik sharofati bilan 1991 yilning kuzida oldingi O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetiga tegishli Oliy partiya maktabi Politologiya va boshqaruv instituti etib tashkillashtirildi. 1992 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan Politologiya va boshqaruv instituti tugatilib, uning bazasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi.

Prezident xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining tashkil etilishi, I. Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti qoshida Siyosatshunoslik bo'limining, oliy o'quv yurtlarida o'nlab siyosatshunoslik kafedralarining faoliyat yuritayotganligi fikrimizga asos bo'la oladi.

Politologiya fanining bugungi kundagi ahamiyati va rolining o'sib borishi quyidagilar bilan izohlanadi:

Ushbu fanni o'rgatish va o'rganish hozirda jadal kechayotgan yangilanish harakati davrida ijtimoiy zaruriyatgina emas, balki hayotiy extiyojga aylangan. Bu extiyoj milliy, ma'naviy, mafkuraviy, siyosiy uyg'onish, madaniy va iqtisodiy yuksalishlarga bo'lgan ehtiyojlarning bosh mezoni hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi davrda har bir fuqarolarning siyosat bilan shug'ullanishga bo'lgan extiyoj, siyosatni anglash, unda ongli faoliyat ko'rsatishga bo'lgan extiyojlarning ortishi, jadal ravishda yuz berayotgan demokratik jarayonlar bilan belgilanadi.

Uchinchidan, jamiyat siyosiy hayotida, siyosiy munosabatlarida, siyosiy tizimida bo'layotgan tub o'zgarishlarni anglab etish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligini ortishiga bo'lgan extiyoj;

To'rtinchidan, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog'liq jarayonlarning mazmun mohiyatini chuqur ilmiy-nazariy va amaliy

jihatdan o’rganishiga bo’lgan qiziqishining ortishidir. Ushbu jarayonni atroflicha siyosiy tahlil etib borishni taqazo etadi.

Beshinchidan, O’zbekiston jahon hamjamiyati safidan munosib o’rin olishi, xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishi, terrorizmning o’ta xavfli xalqaro siyosiy hodisaga aylangani ushbu hodisani atroflicha o’rganishini taqozo etadi.

Oltinchidan, fuqarolarning siyosiy madaniyati va faolligini oshirish, jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy sohalarida bo’layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini siyosiy jihatdan anglab yetish, demokratik jamiyatga xos bo’lmagan holatlarning oldini olish uchun asosiy kafolatlaridan biri mamlakatimizda fuqarolarning huquq va siyosiy faoliyatini rivojlantirish extiyojlarining ortishi.

Hozirda oliy ta’lim tizimida umumkasbiy va ihtisoslik fanlarini o’qitish, ayniqsa Politologiya ta’lim yo’nalishi bo’yicha o’quv-uslubiy, moddiy texnika-ta’minoti masalalari bo’yicha katta ishlar qilinishiga kirishildi.

Shunday qilib, politologiya bilim sohasi sifatida tobora mustaqil fan va o’quv darsi darajasida shakllanib, mustaqil O’zbekiston fuqarolari siyosiy tafakkurining vujudga kelishiga, ular qo’rayotgan jamiyatning ilg’or, rivojlangan va jahon hamdo’stligi doirasidan o’ziga munosib o’rin egallab olishiga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda politologiya fanining ahamiyatini oshiruvchi omillar

1.8- chizma



Qisqa xulosalar.

Siyosat haqidagi fan (politologiya), maqsad, vazifa, qonuniyatlar, harakatga keltiruvchi kuchlar, shaxslar, fuqarolar, davlatlar, sinflar, millatlar o’rtasidagi faoliyatning siyosiy mazmunini tashkil etadi, boshqacha qilib aytganda, siyosat jamiyat siyosiy hayoti haqidagi izchil, mantiqan asoslangan bilimlar tizimidir.

Politologiya ijtimoiy-siyosiy fan sifatida biz yashab turgan jamiyatga har taraflama va ob’ektiv ta’rif berish uchun keng imkoniyatlarga ega. Shundan kelib chiqib politologiya fani zimmasiga ijtimoiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil etish, uni harakatga keltiruvchi kuchlarini aniqlash va dunyoqarashni shakllantirish vazifasi yuklangan.

Politologiya ijtimoiy hayot siyosiy sohasining nazariy ifodasi sifatida shu sohani tushuntirishga xizmat qiladi, hamda uning qonuniyatlarini ochib beradi. Yuqoridagilarga suyanib siyosiy faoliyatning aniq tarixiy sharoitlarini va mavjud

siyosiy kuchlarni joylashuvini hisobga olgan holda eng maqbul bo'lgan qoidalarni ishlab chiqadi.

Tayanch so'zlar.

Politologiya fani predmeti, ob'ekti, qonuniyatlari, kategoriyalari, usullari, politologiya va boshqa siyosiy fanlar, hozirgi zamon va politologiya fani, O'zbekistonda politologiya fanini o'qitilishi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Politologiya fan sifatida qachondan o'qitila boshlandi?
2. Nima uchun siyosatga ko'p hollarda san'at imkoniyati sifatida qaraydilar?
3. Politologiyaning mohiyati nimada?
4. Politologiyaning qanday usullarini bilasiz?
5. Politologiyaning kategoriyalari qaysilar?
6. Politologiya qonuniyatlarini qanday turkumlash mumkin?
7. Politologiya fanining ob'ekti va sub'ekti deganda nimalar nazarda tutiladi?
8. Politologiya fanining maqsad va vazifalari qanday?
9. O'zbekistonda oliy o'quv tizimida qachondan boshlab politologiya fani o'qitila boshlandi?

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2009. 3-35- b.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. –T.: "O'zbekiston". 2003. T. 11. 3-55, 214-265- b.
3. Karimov I.A, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008. 110-118 - b.
4. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: "O'zbekiston". 2009. 23-b.

5. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. -T.: "O'zbekiston", 2009. 32-b.
6. Kameneskaya E.N.. Politologiya. Uch.posobiya. –M.: 2006. - C. 3-54.
7. Aliev B., Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. – T.: 2006. 6-18 -b.
8. Aliev B.,Boboev A. Politologiya. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 5-30- b.
9. Odilqoriev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. "O'qituvchi". –T.: 2008, 6-31- b.
10. Nosirxujaev S. va boshqalar. "Politologiya" –T.: "Fan". 2009,11-29-betlar.

2-MAVZU: SIYOSIY QARASHLAR VA TA'LIMOTLAR: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

2.1. Qadimgi dunyo va o'rta asrlardagi siyosiy qarashlar

"Siyosat" – yunoncha "polis", "politicos" so'zlarining tarjimasi bo'lib, u davlatni boshqarish san'ati, "davlat ishlari" degan ma'nolarni anglatadi.

Qadimgi yunon faylasufi Demokratning fikricha, "siyosat davlatni idora etish, boshqarish mahoratidir"[1]. Aflotun siyosatni hukmdorlarning san'ati sifatida, ya'ni shohning odamlarni (jamiyatni) boshqarish sohasidagi bilimi va qobiliyati sifatida ta'riflaydi. "Siyosat san'atining mohiyati, - deydi u, - davlatning umumiy hayotini oqilona tashkil etish va olib borish qobiliyatida, siyosiy "matoni" to'qish qobiliyatida namoyon bo'ladi"[2].

"Siyosat" iborasi amaliyotda Arastuning "Siyosat" risolasi chop etilgandan keyin keng foydalanishga kiritilgan. Arastu aytadiki: "Siyosat har bir fuqaroga eng yaxshi hayot tarzini ta'minlab beradigan boshqaruv uslubi". U paytida bo'lganidek hozirgi kunga qadar "siyosat" tushunchasi haqidagi tasavvurlar ancha kengaydi.

Bugungi kunda siyosat davlat ishlarida ishtirok etish, davlatni yo'naltirib turish, uning shakli, vazifalari, faoliyati mazmunining belgilanishi (ifodalanishi)

[1] Faylasuf lug'ati. – T.: "O'zbekiston". 1976. 135 - b.
[2] O'sha joyda, 178 - b.

sifatida talqin qilinadi. Aslida siyosat turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyatiga munosabatining ifodasidir.

Demak siyosat deganda, biz davlat hokimiyati ishlarida qatnashib, uning faoliyatini yo'naltirib turishga, u yoki bu darajada ta'sir o'tkaza olish, davlat hokimiyati faoliyatining shakllari, burch-vazifalari va tub mazmunini belgilab berishda u yoki bu tarzda ishtirok etishni anglaymiz. Shu jihatdan olganda "Siyosiy fikrlar tarixi"[1] ni o'rganish doimo muhim bo'lib kelgan.

Siyosiy ta'limotlar – davlat tuzilishi, siyosiy hokimiyat va ijtimoiy (sinfiy, millatlararo, xalqaro va boshqalar) munosabatlarga oid nazariyalardir.

Siyosiy nazariyalar ular vujudga kelgan u yoki bu jamiyat hayotining ijtimoiy-sinfiy sharoitlari bilan bog'liqdir. Siyosiy nazariyani siyosatning asosiy bo'laklari (hokimiyat, siyosiy munosabatlar va muassasalar, siyosiy faoliyat, siyosiy hayot normalari, siyosiy ong va h.k.) to'g'risidagi bir-biri bilan bog'langan tasavvurlar tashkil qiladi. Siyosiy nazariya rivojlanishi silliq va tekis amalga oshmaydi. Har qanday siyosiy nazariyani o'rganishning asosiy talablaridan biri uning davr sharoitlari bilan aloqasini aniqlashdir. Mutafakkirlar fikricha davr muammolarini qay darajada yoritilganini ham aniqlash zarurdir. Siyosiy g'oyalar siyosiy kurash vositasidir. Uning davomida kurashayotgan sinflar o'z oldilariga ma'lum maqsadlarni qo'yadilar. Davlat faoliyatining shakllari, vazifasi va mazmunini belgilash siyosatning muhim elementlaridan biridir. Jamiyat va davlatning siyosiy tuzilishi, siyosati, hamda hokimiyatning xarakteri to'g'risidagi tasavvurlar har qanday siyosiy nazariyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Siyosiy ta'limotlar ijtimoiy munosabatlarning ifodasi sifatida jamiyatning sinflarga ajralishi natijasida ularning manfaat va maqsadlari o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqqan. Ularni hal etish uchun esa, qandaydir tashkilot zarur bo'lgan. Bunday tashkilotning siyosiy namoyondasi sifatida davlat vujudga kelgan va u siyosat tushunchasini anglatgan.

Demak, siyosiy qarashlar avval boshda afsona, keyin esa falsafiy bilimlarning bir qismi sifatida amal qilib kelingan bo'lsa, Uyg'onish davriga kelib

[1] Aliev B., Hoshimov T. Siyosiy fikrlar tarixi. –T.: 2009. 4 - b.

siyosiy tadqiqotga nisbatan mustaqil fan sifatida amal qila boshladi. Yangi tarixiy davrda fanning mazmuni davlatning maqsadlari va unga erishish vositalari, shuningdek, davlatda amal qilayotgan ijtimoiy kuchlarni o'rganishga qaratilgan. Hozirgi siyosiy tadqiqot adolatlilik, hokimiyat, qonun, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy va siyosiy tashkilotlarning rivojlanish strategiyasi, siyosiy targ'ibot, siyosiy tizim, siyosiy madaniyat kabilarni o'rganishga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkin: siyosiy ta'limotning vujudga kelishi uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lib, u jamiyatning rivojlanishi bilan birga takomillashib, tadqiqot doirasi kengayib borgan. Demak, siyosat, siyosiy nazariyaning rivojlanishi - g'oyalar tarixi, g'oyalarning o'rin almashuvi va g'oyalar kurashi tarixidir.

Har bir tarixiy davrning, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tub tabiatini asl maqsad-manfaatlarini, unda sodir bo'layotgan turli yo'nalishdagi ijtimoiy siyosiy va ma'naviy-ahloqiy harakatlarni aynan va unga yaqin tarzda ifoda eta oladigan siyosiy g'oyalarning mazmuni shakllanadi va amaliyotga tatbiq etiladi. Ko'pincha biror ob'ektiv xususiyatli siyosiy g'oyalar va uning zaminida yotgan ijtimoiy-siyosiy tuzumning o'ziga xos va o'ziga mos keladigan, uning mohiyatini anglatadigan siyosiy g'oyalarga amal qilishini kuzatamiz. Ana shu xususiyatlarni e'tiborga olgan holda, qadimgi sharq va g'arb mutafakkirlarning jamiyat va inson, siyosat va davlat to'g'rsidagi nazariy qarashlariga e'tibor qaratiladi.

Konfutsiy (miloddan oldingi 551-479 yillar) xitoylik mutafakkir. Uning qarashlari o'limidan so'ng shogirdlari tomonidan ustozlarining qoldirgan qo'lyozmalari asosida tuzilgan "Suhbatlar va mulohazalar" kitobida bayon etilgan.

Konfutsiyning falsafiy va ahloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagi va jamiyatdagi o'rni, vazifasi muammolari turadi. Uning fikricha, olamdagi hamma mavjudot singari insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog'liq, shuning uchun odamlarning "oliyjanobligi" yoki "tubanligi", "oliy, past" tabaqaga mansubligini o'zgartirib bo'lmaydi. "Podshox-podshoxligicha, fuqaro-fuqaroligicha, ota-otaligicha, farzand-farzanligicha qolishi

kerak”[1]. Bunday g’oya shubhasiz mavjud tuzumni saqlashga qaratilgan edi. Shu bilan birga u ideal, oliy inson (Szyun tszi), asl, mard kishi kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Bu kontseptsiyaga ko’ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi va jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatgo’ylik, xaqgo’ylik, samimiylik, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma’naviy fazilatlarga erishish tufayli Yuksak kamolotga yetishuvlari mumkin. Davlatni Konfutsiy katta oila sifatida talqin qiladi. Imperator hokimiyatini ota hukmronligiga, hukmronlar va tobe’lar o’rtasidagi munosabatlarni esa kichiklarning kattalarga qaramligiga asoslangan munosabatlarga o’xshatadi. Konfutsiy aks ettirgan ijtimoiy-siyosiy tabaqalanish, kishilarning tengsizlik printsipiga asoslangan qora kishilar, qichiklar oliy katta kishilarga bo’ysunishlari lozim. Oddiy xalq davlatni boshqarishdan butunlay chetlashtirib qo’yilgan. Mutafakkir esa tabaqa tuzumi tarafdori sifatida namoyon bo’ldi.

Biroq, Konfutsiy hukmdorlar va tobe’lar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni ezgulik asosida qurishga chaqiradi. Bu chaqiriq, birinchi navbatda hukmdorlarga qaratilgan, chunki ularning ezgulik shartlariga amal qilishlari tobe’lar xulq-atvorida ahloq normalarining hukmronlik qilishlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zo’rlikni inkor etib, Konfutsiy yozadi, - “Davlatni boshqara turib, odamlarni o’ldirish nega kerak. Agar siz (“hukmdor”) yaxshilik qilsangiz, xalq ham “Kichik” kishining ahloqi o’t o’langa o’xshaydi. O’t shamol yo’nalishi tomonga ergashadi” - diydi.

Mutafakkirning ta’limoti ziddiyatlidir. Uning reaktsion va konservativ g’oyalari ayrim ilg’or fikrlar bilan yonma-yon turadi.

Miloddan avvalgi II asrda konfutsichilik Xitoyda rasmiy mafkura sifatida tan olindi va davlat dini vazifasini o’tay boshladi.

Qadimgi grek faylasuflarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ularning ma’naviy qadriyatlari, ilmiy haqiqat mantiqini, kuchini ulug’lash, inson aql-zakovati qudratini ko’rsata olish san’ati, yuz yillar davomida kishilar e’tiborini o’ziga tortib

[1] Qirg’izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. 13-b.

kelgan. Chunki insoniyat tarixida ilk bor buyuk allomalar matematikani, siyosat va falsafani, tarix va tabiatni, o'rganish ilmini kashf etdilar.

Ularning dunyoviy, siyosiy va madaniy bilimlari ahloqiy va ma'naviy hayot haqiqati bilan uzviy bog'liq edi.

Qadimgi yunon siyosiy falsafasi adolat, aql-zakovat, yaxshilik, hayotiy haqiqat bo'lib, u doim hamma razil narsadan ustun turishini ko'rsata olgan. Shulardan biri Suqrotdir. (Miloddan avvalgi 469-399 yillar). Uning shogirdi Plotonning fikricha Suqrot tirikligidayoq o'z nomi, falsafiy va siyosiy merosi abadul-abad yashashini aytadi. Bu ulug' insoniylik belgisidir. Suqrot siyosatidagi "demokratiya" bu haqiqiy xalq irodasi, xalq xoxishidan iborat, bu fikr bugun ham ahamiyatlidir. Haqiqatda ham xalqqa xizmat qilmagan, uning xoxish-istagini ro'yobga chiqarishga xizmat qila olmagan demokratiya, demokratiyaning aksidir, albatta. Yoki Suqrotning ikkinchi fikri: majlis ahli, faqat son uchun emas, balki sifat uchun, majlisning bosh maqsadini – xalq maqsadini tushina oladigan va uning uchun kurashga qodir bo'lgan bilimli kishilar bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Masalan, faqat sut sog'uvchi yoki tikuvchidan iborat bo'lgan hokimiyat nimaga olib kelishini sobiq SSSRning yaqindagi tarixidan ko'rish mumkin. Istiqlol tufayli O'zbekiston Oliy Majlisi tarkibida ziyolilar, iqtisodchi, huquqshunos olimlar, ishbilarmonlar ko'paydi.

Suqrot odil qonunlar hukm suruvchi shahar-davlatning e'tiqodli tarafdoridir. U siyosiy erkinlikni aqlga tayanib ishlab chiqilgan va adolatli qonunlarning hukmronligi bilan bog'lagan. Insonning jamiyat oldidagi majburiyatlari to'g'risida gapirar ekan Suqrot, aqlga asoslangan va adolatli ravishda tartibga solingan davlat sharoitidagi ozod va teng fuqarolarning qonuniy majburiyatlarini nazarda tutgan. Uning fikricha, faqatgina shu yo'l bilangina "Inson uchun ham, davlat uchun ham go'zal va buyuk boylik bo'lgan" erkinlikka erishish lozim. Suqrot qonunsizlik va zo'rlik tuzumi bo'lgan istibdodni keskin inkor etadi. Demokratiyaning kamchiligini ko'rsatish bilan bir qatorda uni mukammalroq hokimiyat shakli tomon rivojlantirish to'g'risida fikr yuritadi. Xulosa qilib aytganda, Suqrotning nazariy qoidalari o'z davrida mavjud bo'lgan u yoki bu tuzumni ma'qullash yoki

inkor etish bilan tavsiflanmagan, shuningdek uning qarashlarini reaktsion davlat tuzumini oqlashga yo'naltirilgan deb ham bo'lmaydi.

Qadimgi Yunonistonda siyosiy falsafaning vujudga kelishi Aflotun (Platon miloddan oldingi 427-347 yillar) nomi bilan bog'liq. Uning siyosiy falsafasi, siyosat, davlat va huquq to'g'risidagi ta'limoti u falsafasining ajralmas qismidir. Aflotunning siyosiy dasturi "Davlat", "Qonunlarga", "Politik" asarida bayon etilgan. Aflotun o'z siyosiy sistemasida quldorlik tuzumini eng buyuk jamiyatning asosiy sharti sifatida aks ettiradi. Shuning uchun ham u faqatgina quldorlar sinfi doirasidagi munosabatlarinigina tahlil qiladi. Aflotun o'zining "Ideal davlat" utopiyasi - hayolotida jamiyatda uch tabaqa: hokimlar va faylasuflar, harbiylar, dehqonlar va hunarmandlar bo'lishini taxminlaydi. Davlat hokimiyati oqsuyaklar - faylasuflar qo'lida bo'lishi shart. Harbiylar – yollanma qo'riqchilar davlat boshqaruvi xodimlarini – quldorlar hokimiyatini himoya qilishlari darkor.

Dehqonlar va hunarmandlar davlatga zarur hamma narsa, mahsulotlarni tayyorlashi shart. Har bir tabaqa o'z vazifasini bajarish bilan cheklanishi va boshqa ishlarga aralashmasliklari zarurdir. Aflotun qullarni hatto odamlar qatoriga qo'shmaydi, ularni ma'naviy hayotdan mahrum mahluqlar deb haqorat qiladi. Umuman, demokratiyaga, ayniqsa Afina demokratiyasiga butunlay dushman bo'lgan Aflotun quldor aristokratlar hokimiyati haqida hayol surgan. Mutafakkir quldorlar aristokratlari respublikasini eng oliy davlat shakli deb hisoblab, uni ilohiylashtirgan. Aflotun davlat tuzilishining besh turini ajratgan: Aristokratiya, demokratiya, oligarxiya va istibdod. Aristokratiya Aflotun fikricha, eng ideal davlatdir. Demokratiyani u yoqimli va rang-barang, lekin yetarli boshqarishga ega bo'lmagan tuzum sifatida baholaydi. Erkinlik demokratiyani gangitib qo'yadi va undan qonunsizlik, zo'rlik va zulm hukmron bo'lgan eng yomon davlat tuzilishi istibdod o'sib chiqadi. Shu o'rinda talabalar bizning jamiyatimizda borayotgan demokratiyalashtirish jarayonini Aflotun qarashlari bilan aloqadorlikda fikrlashga harakat qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Arastu (Aristotel miloddan oldingi 384-322 yillar) qadimgi grek faylasufi va entsiklopedik olimi bo'lib, mustaqil siyosat ilmiga asos solgan. Uning siyosiy

qarashlari “Siyosat”, “Afina politiyasi”, “Etika” asarlarida bayon etilgan. Arastu siyosat to’g’risidagi fanni har taraflama ishlab chiqishga harakat qildi. Uning ta’limotida siyosat fan sifatida etika bilan bog’langan. Siyosiy fanning ob’ektlari go’zallik va adolatdir, chunki siyosat inson va davlatning oliy farovonligi to’g’risidagi fandir. Davlat Arastu fikricha, hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiiy yo’l bilan vujudga keladi, biroq uning mavjudligining maqsadi - kishilar farovonligiga erishishdir[1]. Arastu davlat hokimiyatining eng oliy formalari deb shunday formalarni hisoblaydi, undan hokimiyatdan ta’magirlik maqsadida foydalanish istisno qilinadi va bunda hokimiyat uyushmasining oliy shaklidir va unda boshqa uyushmalar o’z maqsadlariga erishadilar.

Arastu davlatning to’g’ri va noto’g’ri shakllarini farqlaydi: to’g’ri shakllarda hokimlar umum foydasini, noto’g’ri shakllarda esa faqat o’z foydasini nazarda tutadilar. Monarxiya, Aristokratiya, Politiya – davlatning to’g’ri shakllaridir. Politiya davlatning eng to’g’ri shaklidir (“politiya” – umumiy davlat tuzumini bildiruvchi atamadir), Chunki unda ko’pchilik umumiy manfaatini ko’zlagan holda jamiyatni boshqaradi. Qonunchilik Arastu fikricha, siyosatning bir qismidir. Shuning uchun qonunchi san’ati davlat tuzumining xususiyatlarini qonunlarda to’g’ri aks ettirishdan va shu orqali mavjud munosabatlar tizimini turg’unlashtirishdan iborat. Siyosiy hukmronlik – insonlarning emas, qonunlarning hukmronligidir. Insonlarning hukmronligi hokimiyatni suiste’mol qilishga va istibdod olib kelishi mumkin. Qonun oqilonadir, Chunki unda huquq g’oyasi to’g’ri aks etgan. Qonunlarning normal amal qilishi kishilarning rivojlanganligi, ezgulikka tayyor ekanligini, oqilona, turmush va hulq atvorga ega ekanligini nazarda tutadi. Arastu siyosiy ta’limotiga baho berganda shuni ta’kidlash zarurki, aynan inson va uning siyosiy hodisalarning ob’ektiv asoslarini va ildizlarini ko’radi.

Arastu qarashlari siyosiy muammoga o’zidan avvalgi yondoshuvlarning o’ziga xos sintezi bo’ldi. Xulosa qilib aytganda siyosiy fikrlarning vujudga kelishi

[1] Гутов В.А. История политических и правовых учений. Санкт-Петербург. 2000. – С. 19.

ijtimoiy ishlab chiqarish usuli rivojining, jamiyatning sinflarga bo'lishini va davlatning vujudga kelishi bosqichi bilan bog'liq bo'ldi. Qadimgi mutafakkirlar siyosiy qarashlar rivojiga, davlat va huquq muammolarini nazariy asoslashga katta hissa qo'shdilar. Bu esa o'z navbatida keyingi bosqichlarda ijod qilgan faylasuflar, jamiyatshunoslarga va ularning siyosiy fikr tarixidagi roliga ta'sir etdi.

Qadimgi Yunoniston mutafakkirlarining siyosiy qarashlaridan foydalangan holda Qadimgi Rim siyosiy tafakkuri ham vujudga keldi va rivojlandi.

Sitseron Mark Tulliy (eramizdan oldingi 106-43 y.y.) – Qadimgi Rim notig'i, faylosufi va siyosiy arbob, u o'zining "Davlat haqida", "Qonunlar haqida"gi asarlarida davlat tuzumining eng yaxshi formalari masalasini qarab chiqadi.

Uning fikricha, davlat hokimiyati tabiiy holda vujudga kelgan bo'lib, u qadimgi oiladan o'sib chiqqan, uning asosiy maqsadi esa fuqarolarning mulkiy manfaatlarini mulohaza qilishdan iboratdir. Davlat hokimiyatiga bo'lgan aristokratik tasavvurlar bilan birga Sitseron siyosiy qarashlarida yangicha siyosiy aqidalar mavjudligini ko'ramiz. Uning fikricha, davlat hokimiyati nafaqat tabiiy xosila, ayni vaqtda u suniy tizim "xalq irodasining ifodasi" hamdir, shuning uchun Sitseron davlat "xalq ishi" atamasini belgilaydi.

Sitseronning siyosiy orzusi – aristokratik senat respublikasidir. Mazkur siyosiy g'oya yunon mutafakkirlarining siyosiy hokimiyatining aralashma shakllari ma'qulligi haqidagi ta'limotlardan kelib chiqqan bo'lib, Sitseron bunday davlat boshqarishini uning quyidagi uch shaklida: 1) podsho hokimiyati – monarxiya; 2) optimatlar hokimiyati – aristokratiya; 3) xalq hokimiyati - demokratiya shakllarida amal qilishi maqsadga muvofiq kelishini uqtiradi[1]. Bunday aralash davlat turi uning fikriga Rim respublikasida mujassamlashgan bo'lib, unda monarxiya ko'rinishlari – konsullar hokimiyatida, aristokratiya belgilari – senat boshqarishda, demokratiya – xalq majlisi va tribunlar hokimiyatida ifoda topgandir.

[1] Гутов В.А. История политических и правовых учений. Санкт-Петербург. 2000. – С. 19.

O’zbekiston hududida vujudga kelgan siyosiy qarashlar uzoq tarixiy o’tmishga ega. Bunday siyosiy qarashlar eramizdan avvalga tahminan to’rt minginchi yillarda vujudga kelgan bo’lib, bu hukmron siyosiy g’oyalar-diniy siyosiy mifologiya shaklida rivojlanadi. Dastlabki diniy ta’limotlar “Avesto”da yoritilgan. Avesto (asli) Ovasto – zardushtiylik (zoroastrizm) dinining muqaddas kitobi. Avesto O’rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to’g’risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma’naviy madaniyatini o’rganishda muhim va yagona manbadir.

Avesto tarkibiga kirgan materiallar olimlarning isbotlaricha qariyb 2000 yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og’zaki qo’chib borgan. Avestoning ko’p qismlari yo’qolib ketgan, uning tahminan yettidan bir qismi saqlanib qolgan va miloddan oldingi 3 asr Arkashiylar davrida to’planib kitob shakliga keltirilgin. Avestoda tarix, etika, meditsinaga oid ma’lumotlar ham bor. Unda podshoh, oliy tabaqa, dindorlar va diniy urf-odatlarga katta o’rin ajratilgan, ularning jamiyat hayotida yuqori o’rin egallaganliklari alohida ta’kidlanadi, ruxoniylar muqaddas kishilar deb ta’kidlanadi.

2.1-chizma



2.2. O’rta asr (Sharq Uyg’onish davri) siyosiy qarashlari

IX-X asrlar O’rta Osiyoda feodalizm rivojlanishida muhim bosqich bo’ldi. Aynan shu davrda Somoniylarning markazlashgan mustaqil davlati tashkil topdi, qishloq xo’jaligi va hunarmandchilik rivojlanib borishi bilan birga xalqni ekspluatatsiya qilish kuchaydi, ozodlik, tenglik adolat to’g’risidagi qarashlar shakllanib keng tarqalib bordi. Bu davrning buyuk allomalaridan biri Farobiy (asl ismi Abu Nosir Muhammad Farobiy, 873-950 milodiy yillar) Farob – Turkiston shahrida yashab va ijod etgan. Farobiy 160 dan ortiq tarjimalar, turli hajmdagi asarlar, yozishmalar qoldirgan[1]. O’zining siyosiy ta’limotida Farobiy o’z davrining dolzarb masalalarini, xususan davlatning jamiyatga bo’lgan munosabati masalasini qo’ygan va hal qilgan. U davlatga insoniy ehtiyojlarni hamjihatlik bilan ijtimoiy asosda hal qilishga mo’ljallangan tashkilot sifatida qaraydi.

Farobiy adolatli va adolatsiz davlatlarni farqlaydi. Uning fikricha davlat yaratuvchilikka yo’naltirilgan bo’lsa, u adolatli. Bunday davlatda insonning hatti-harakati islom qoidalari bilan cheklanmaydi. Adolatli jamiyatning vujudga kelishi uning boshlig’iga bog’liq. Davlat boshlig’i qobiliyatli, aqlli, irodali va fanni sevuvchi bo’lishi lozim.

U o’zining asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo’lishi, uning shakli, davlat arboblari va ularning vazifasi, ular oldiga qo’yilgan asosiy talablar, davlatni idora etish usullari haqida o’zining chuqur falsafiy-siyosiy qarashlarini bayon qiladi. Farobiy inson tomonidan jamiyatda yashash uchun sodir qilinadigan harakatlarni ikkiga bo’ladi:

1. Adolatli, aqlga muvofiq harakatlar. Bu harakatlar, ularga baxtlik keltiradi.

2. Adolatsiz, maqsadga muvofiq bo’lmagan harakatlar, ularga baxtsizlik keltiradi.

Farobiy urush va tinchlik masalasida urush ikki xil bo’lishi, ya’ni adolatli va adolatsiz urushlar haqida fikr yuritadi. Farobiy o’rta asr Sharq ilg’or ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga katta ta’sir ko’rsatdi.

[1]“Baxt-saodatga erishish yo’llari haqida risola”. (“Risola fit tanbex ala asbob as-soati”), “Shaharni boshqarish” (“As-siyosat an-madaniya”), “Urush va tinch turmush haqida kitob” (“Kitob fi maoyshi va-l xurud”), “Fazilatli hulqlar” (“As-siyrat al-fazilat”), “Fozil odamlar qarashlari” va h.k.

O’rta asrlarda ko’pchilik mutafakkirlar o’z ijodlarida jamiyatda hukmron bo’lgan yovuzliklardan ozod qila olishi mumkin bo’lgan qandaydir odil va dono hukmdorlarga iltijo qilganlar. Ana shundaylardan biri 360-xijriy (973-1048-milodiy) yilida Xorazmda tug’ilgan Abu Rayhon Beruniydir. Beruniy tug’ilgan va ijod etgan davr keskin sotsial to’qnashuvlar, qonli feodal janglar borgan davr edi. Shuning uchun ham u katta tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan hodisalarni o’z ko’zi bilan ko’rgan va ularda bevosita ishtirok etgan edi. Beruniy Somoniylar hukmronligi kuchaygan davrining oxirgi yillarida tug’ilib, ikki boshlang’ich feodal imperiya – qoraxoniylar va g’aznaviylarning kuchayishi va yiqilishi davrini boshidan kechirdi. Shu vaqtlarda Sirdaryoga yaqin dashtlarda yashovchi varvarlar – og’uz saljuqiylarning Yangi kuchli imperiyasining tashkil etilishiga shohid bo’ldi. O’z vatani Xorazmda Afrig’ xonadonining halokati va qisqa vaqt ichida tiklanib gullagan, lekin Mahmud G’aznaviyning daxshatli hujumi bilan tor-mor keltirilgan. Mavshuniylar davrini ko’rgan. U yana 3 Xorazm sulolasi – Oltintosh va Xorun sulolasining halokatini boshdan kechirdi.

Beruniy yashagan va ijod etgan davr voqealarga eng boy davrlardan biri bo’libgina qolmay, O’rta Osiyo xalqlari tarixidagi burilish davrlaridan biri ham edi. Bu davrda jamiyatning progressiv va reaktsion kuchlari orasida keskin kurash davom etardi. Bu kurash ijtimoiy hayotning hamma sohalarini o’z ichiga qamrab olgan bo’lib, ruhiy hayotda, fan, adabiyot va ilmning boshqa sohalarida ham o’z ifodasini topgan edi. Shavqatsiz suratda ekspluatatsiya qilish va qashshoqlik, huquqsizlik, shuningdek, hokimiyatlarning zulmi, feodal va ruhoniylarning o’zboshimchaligi, ularning bema’ni fitnalari va o’zaro olib borgan talonchilik urushlari bularning hammasi xalq ommasini rahmsiz suratda ezar, qiynar va bug’ar edi.

Ibn Sino (1980-1037) – jahon madaniyatiga katta hissa qo’shgan qomusiy olim. Avitsenna tufayli Frantsiya – g’arb Aristotel asarlarini o’rgandi. 200 dan ziyod asar qoldirgan. «Tib qonunlari» o’sha davrdayoq tezda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa, qator Sharq mamlakatlarida darslik bo’lib xizmat qilib kelgan va kelmoqda. Shuningdek, uning «Najot kitobi», «Donishmandlik kitobi», «Ishorat va

tanbeh» asarlari muhim ahamiyatga ega. Siyosiy qarashlarida Ibn Sino ideal jamiyat aholisida kishilarni bajaradigan vazifasiga ko'ra uch tabaqaga bo'ladi:

1) boshqaruvchilar – ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar;

2) mehnatkashlar – ishlab chiqaruvchilar;

3) harbiylar – jangchilar.

Davlatsiz qonun-qoidalar bo'lmaydi. Agar odamlar faqat shohu - sultonlardan yoki oddiy mehnatkashlardan iborat bo'lsa, barchalari halok bo'ladi. U moddiy tenglikni e'tirof etadi, lekin odamlarning boyib ketishlari tarafdori, hamma a'zolari uchun bir xil bo'lgan qonun o'rnatilgan jamiyatda adolatsizlik bo'lmaydi. Adolatsiz kishilar jazoga loyiqdirlar. Agar hukmdorning o'zi adolatsiz bo'lsa, unga qarshi qo'zg'alishni oqlamoq kerak, deydi u.

Ibn Sino fikricha, inson jamiyatdan ajralgan holda yashashi mumkin emas. Kishilar yashash uchun bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari zarur. Lekin bu munosabatlari dono, fanni e'zozlovchi, odil shox tomonidan amalga oshiruvchi adolat normalariga mos kelishi shart. Agar qonun chiqaruvchi adolatsiz bo'lsa, unga qarshi qo'zg'olon jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.[1]

Ibn Sino uy va oila tadbirlariga oid masalalarga ham to'xtalgan. Chunonchi, er-xotinning bir-biriga bo'lgan munosabati, bir-birini hurmat qilishning bola tarbiyasidagi muhim roli, ayollarning oila va jamiyatdagi roli to'g'risidagi bahs yuritadi.

U ahloq haqida qimmatli fikrlarini ilgari suradi. "Insonparvar bir-birlari bilan do'st bo'lib yashashlari uchun ularda insonparvarlik ruhini rivojlantirish kerak. Ularda muhabbat, halollik kabi ahloqiy hislatlar mujassamlashgan bo'lmog'i lozim"[2] – deydi. U aytgan ajoyib fikr-mulohazalar, uning ahloqiy qarashlari hozirgi davrda ahamiyat kasb etmoqda.

O'rta Osiyodagi siyosiy fikrni o'rganishda o'rta asr saljuqiylar davlati arbobi Nizom-ul-Mulkning (Abu Ali at-Tusiy 1017-1092 y.y.) "Siyosatnoma" asari alohida o'rin tutadi. Alp-Arslon va Malik-Shox dargohida vazirlik qilgan Nizom

[1] Odilqoriev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008, 74-b.
[2] Aliev B., Hoshimov T. Siyosiy tafakkur tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan", 1999.19-b.

ul-Mulk haqiqatda davlatga hokimlik qilgan. Davlat homiyatini markazlashtirish siyosatini yurgizgan. Bog'dodda musulmon dini ulamolarini, qozilar va davlat xizmatchilarini tayyorlash uchun mo'ljallangan "Nizomiy" ilmiy-diniy maktabini tashkil qilgan. "Siyosatnoma" asari nasixat shaklida yozilgan bo'lib, tarixiy va kundalik hayotni aks ettiruvchi misollar bilan mustahkamlangan iqta sistemasi va feodal tarqoqlikka qaratilgan.

Iqta – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida feodal tomonidan harbiy xizmatni o'tash sharti bilan vaqtincha ma'lum miqdordagi yerga egalik qilish. Iqta egalari-iqtadorlar natura va pul to'lovlari undirib olish orqali o'z yerlarida yashagan dehqonlarni ekspluatatsiya qilganlar, o'z iqtalarini meros bo'lib qoluvchi yer mulkiga aylantirishga harakat qilganlar. Viloyatning ko'p sonli iqtalariga bo'linishi yer egalari orasidagi to'qnashuvlar va urushlarga olib kelardi, natijada dehqonlar xonavayron bo'lardilar. Iqtadorlarning markaziy hokimiyat bilan kurashi ularning foydasiga hal bo'ldi, bu esa o'z navbatida saljuqiylar davlatining zaiflashuvi va parchalanishiga olib keldi.

"Siyosatnoma"da muallif hokimlar va fuqarolarni adolatga, qonunlarga amal qilishga undaydi. Nizom-ul-Mulk tomonidan olg'a surilgan g'oyalar o'z davrida amalga oshmagan bo'lsa ham yuqorida bayon etilgan sharoitni hisobga olganda davlat va fuqarolar manfaatlariga mos keladigan g'oyalar ekanligi ko'rinib turibdi.

Yana bir O'rta Osiyo mutaffakkirlardan biri -Yusuf Xos Xojib bo'lib, uning bizgacha etib kelgan birdan-bir kitobi "Qutadg'u bilig" asaridir. U XI asrning eng muhim yozma adabiy yodgorliklaridan bo'lgan bu yirik asarni 1069 yilda yozgan. Asarda davlat obro'sini ko'tarish sohasidagi tadbirlar, davlat obro'siga halaqit beruvchi holatlardan tiyish haqida ko'rsatmalar, tiklash haqida ko'rsatmalar va turmushga doir boshqa qator masalalarni muallif alohida boblarda keng izohlab berdi. Natijada, 73 bobdan iborat siyosiy, ilmiy, adabiy asar maydonga keldi.

Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotida, siyosiy tarixida juda katta o'rinni olgan buyuk asarlardan biri bu Amir Temurning (1336-1045) "Temur tuzuklari"dir. Bu asar 1967 yilga qadar, ya'ni hozirgi o'zbek tilida ilk bor nashr etilguncha, necha yuz yillar davomida turk, fors, arab, ingliz, frantsuz, nemis va

boshqa o’nlab tillarda nashr etilib kelingan. Ko’plab yirik davlat arboblari uchun maxsus nusha ko’chirtirganlari ma’lum.

Kitob ikki qismdan iborat bo’lib, I - qismida Amir Temurning 1342 yil, ya’ni 7 yoshdan to vafotigacha qadar bo’lgan hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, markazlashgan davlat tuzish uchun qilgan harakati va harbiy yurishlari bayon etilgan. II-qism esa Amir Tumurning o’z vorislari, farzandlariga atalgan vasiyatlari, ahloq-odob qoidalaridan iborat. “Temur tuzuklari”ning ham ilmiy, ham tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini aytishga hozirga qadar bizda andisha qilingan. Hattoki bu asarni tilga olgan olimlar gunohkor hisoblanganlar. Balki, bu Amir Temurning buyuk davlat arbobi ekanligini sobiq Ittifoq tomonidan tan olishlikni o’ziga ep ko’rilmaganligi bo’lsa kerak.

“Temur tuzuklari”ning ahamiyati haqida fikrimiz quyidagicha:

1. Asarda XIV asr o’rtalarida XV asr boshlariga qadar O’rta Osiyoda bo’lgan ijtimoiy-siyosiy hayot o’z aksini topgan.

2. Odamlar va davlatlararo bo’lgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ko’rsatilgan.

3. Asar siyosat nazariyasigagina emas, shuningdek, amaliy nazariyaga ham bag’ishlangan. Davlatni idora etishning o’z davriga xos qoidalari tahlil etilganki, uni hozirgi zamon uchun ham ahamiyati katta.

4. “Temur tuzuklari” faqat shoxning tarjimai xoli emas, balki xalqning tarixi, XIV asrdagi feodal munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy hayot tarixidir.

“Temur tuzuklari”da davlatni idora qilishning o’z davriga xos bo’lgan 12 qoidasi izchillik bilan bayon etilgan. Asosiy qonun vazifasini bajargan Temur tuzuklari (qonunlari) Temuriylar davlatining barcha siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini ifodalab beradi va unga ko’ra ish yuritadi.

Sohibqiron har bir ishda siyosatni adolat bilan amalga oshirishga va bunda turli vositalar asosida uning izchilligini ta’minlashga erishdi. Masalan, u nafaqat davlat hizmatchilarining qanday sifatga ega bo’lishini, balki shunday sifatlarni qanday qilib davlat boshqaruviga kelishini ta’minlashning yo’nalishi tomonlarini ishlab chiqdi. Bu borada u shunday deydi: - “Agar har narsani va har kimni o’z

martabasida saqlay olmasang saltanatinga bunday ko'p halol va ziyon yetgay. Demak, har kimning qadr-qimmatini, tutgan maxsimi va har bir narsaning o'lchovini belgilab olishning va shunga muvofiq ish yuritishing kerak"[1]- deb, u davlat hizmatida salohiyatli shaxslarning ishtirokini amaliy tartibga aylantirdi. Jumladan, "Kimning aqli va shijoatini sinov tarozisida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim, so'ngra ko'rsatgan hizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim"[2] - deydi.

Temuriylar sulolasining juda yirik namoyondasi, XIV asr oxiri va XV asr birinchi yarmida yashagan ulug' siymo, bu Ulug'bekdir. Ulug'bek bobosi Amir Temur va otasi Shohrux saltanatini obod qilish va saqlashda, osoyishtalik o'rnatishda katta xizmat ko'rsatgan buyuk shaxsdir.

Ulug'bek Samarqandni 1417 yildayoq 100 dan ortiq olimlarni to'plab, ilm-fan markaziga aylantirdi. Uning eng yaqin xodimlaridan biri G'iyosiddin Jamshid Ulug'bekning mantiq, hisob, yulduzshunoslik, Qur'oni Karimning bilimdoni deb ta'riflaydi. U o'zining "Zich Kurag'oniy" ("Zich Ulug'bek") asarining bosh qismida podshohliklar, davlatlarning o'tkinchi ekanligini, fan yutuqlarning, ilmiy haqiqatning saqlanib qolishi, ilmli bo'lish inson uchun oliy fazilat ekanligi haqida fikrlar olg'a surilgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) o'zbek adabiyotining asoschisidir. Uning ijtimoiy, chuqur ziddiyatli va o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga qaram bo'lgan davlat arbobi o'rtasidagi kurash ko'zga tashlanadi. Bu kurashda insonparvarlik yengib chiqadi va Navoiy o'z davrining ilg'or kishisi sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatdagi zulm, reaktsiya hukmronligi Navoiyni ko'p marotaba davlat, boshqarish sistemasi to'g'risidagi masalalarga qaytishga majbur qiladi. Bu masalalarni hal etishda u tarixiy tajriba va o'z davridagi hayotga asoslanadi. Navoiy fikricha, "davlat, hukmdorlar, aholi va mamlakat osoyishtaligi uchun zarur bo'lgan tartibni o'rnatish va nazorat qilish uchun yaratilgan va mavjuddir: ular

[1] Temur tuzuklari. –T.: 2006, 37-b.
[2] O'sha joyda. 37-b.

xalqni va mamlakatni xonavayron qiluvchilarni jilovlashlari; fuqarolarni oliyjanoblik ruhida tarbiyalashlari lozim; insonparvarlik g'oyalariga zid keluvchi narsalarga o'rin qoldirmasliklari kerak. Fuqarolar to'g'risida, mamlakat farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari, jamiyat a'zolarining adolatli tinchlik va kelishuvda yashashlari uchun barcha sharoitlarini yaratishlari lozim"[1].

Navoiy odil shox to'g'risida, adolatli qonunoar hukmronlik qiluvchi davlat to'g'risida orzu qilgan edi. U o'z orzusini "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar timsolida bayon etgan. Navoiy fikricha, shox Iskandar odillar orasida eng odil, adolatlisi, olimlar sifatida eng dono va allomasidir. A.Navoiy o'z faoliyatida monarxiya (yakka podshox hukmronligi) tarafdori edi. Uning fikricha monarxiya anarxiyaga, o'zaro nizolar hamda urushlarga chek qo'yadi.

Navoiy siyosiy hayotda, ta'limotida o'sha davr ziddiyatlari o'z aksini topgan. Ular mutafakkir ijodida chuqur iz qoldiradi. Lekin shunga qaramay, Navoiy feodal-klerikal zulmat davrida insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqsevarlik, haqiqat va tinchlik bayrog'ini baland ko'tardi. U shunday ma'naviy qadriyatlar yaratdiki, ular dunyoviy madaniyat durdonalari safidan o'rin oldilar.

"Bitta o'tmakni ikki bo'lib, yarim bir ochga berganni saxiy de, o'zi yemay barini muhtojga berganni saxiy de"[2] – deb yozadi. Navoiy fikricha, muhtojlarga hech qanday g'arazsiz, yomon niyatsiz yordam berishni, ularning hojatini chiqarishni saxiylik desa bo'lidi.

O'rta Osiyo, ayniqsa Samarqanddagi ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat siyosatiga doir ma'lumotlarga boy meros Shayboniyxonning (1451-1510 yy.) "Shayboniynoma" asaridir. Bu asar hozirga qadar Turkiyada Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda va turk olimlari tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Lekin o'zbek olimlari totalitar siyosat tufayli Shayboniy merosini o'rganishdan cho'chib keladilar. Olmoniyada yashovchi o'zbek professori Temur Xo'janing ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 1991 yil 20 dekabr) "Turk saroyidagi nodir asar" nomli maqolasini o'qigan kishi "Shayboninoma" tarixchi,

[1] Aliev B., Hoshimov T. Siyosiy tafakkur tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: 1999, 27-b.
[2] O'sha joyda, 28-b.

adabiyotshunos, falsafa va siyosatshunoslar e’tiboriga loyiq, darhaqiqat nodir asarligini tushunib yetadi. Asarda Samarqand, Buxoro, Urganch, Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir ma’lumot borligi ahamiyatlidir.

Shunday qlib, Markaziy Osiyo xalqlarining buyuk arboblari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yassaviy, Ulug’bek, Navoiy va boshqalar jahon falsafiy, adabiy va ijtimoiy-siyosiy fikri rivojiga hissa qo’shish bilan cheklanmaydilar. Markaziy Osiyo xalqlarida ijtimioy hayotga, haqiqiy bahtga erishish yo’l-yo’rqlarini izlashga jonli qiziqish mavjud bo’lgan. Ular o’zlaridan oldin o’tgan mutafakkirlar g’oyalariga tayangan holda jahon fanini yangi qoidalar bilan boyitdilar va rivojlantirdilar.

Prezident I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta’kidlaganidek: -“Buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo xalol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi”[1].

2.2-chizma



2.3. XVI-XIX asrlarda G’arb siyosiy qarashlari.

Siyosiy qarashlar G’arbiy Yevropada uyg’onish davri va feodalizmga o’tish davrida o’z taraqqiyotining yangi yanada yuksak bosqini boshidan kechirdi. Ushbu davrda mutafakkirlari tenglik, adolat, davlat tuzilishi, siyosat ilmi sohasida ko’p qirrali faoliyat ko’rsatdilar.

[1] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 21-b.

Uyg’onish–qadimiy sivilizatsiyaning o’z davrida yo’qotib yuborilgan yutuqlarning tiklanishi, yangilanishi demakdir. Uyg’onish davri mutafakkirlari qadimgi sivilizatsiya ma’naviy madaniyatiga murojaat qilibgina qolmay, balki mavjud hukmron siyosiy-huquqiy tartiblarni feodal jamiyat qoidalariga norozilik bildirdilar, ularni tanqid qildilar. Xuddi ana shu uchta ijtimoiy mavqe – uyg’onish davri allomalari oldida turgan tarixiy vazifalarni hal qilish uchun zarur bo’lgan davlatshunoslik g’oyalarini tadqiq etilishining asosiy yo’nalishini belgilab berdi. Bu esa o’z navbatida o’sha davrdagi siyosiy ta’limotlarning mazmunini belgilaydi.

Uyg’onish davrining buyuk mutafakkirlaridan Nikolo Makiavellidir (1469-1527 yy). Makiavvelli yangi, yuqori tabaqalarning manfaatlarini aks ettiruvchi siyosiy fanga asos soldi. U yuqori davlat lavozimlarida ishlagan va shu boy siyosiy tajriba unga o’z mazmuniga ko’ra chuqur imperik nazariyani yaratishga ko’maklashdi.

Makiavellini siyosiy qarashlarini yoritishda uning adabiy merosidan “Hukmron”, “Tit Liviyaning birinchi o’n kunligi haqida mulohazalar”, “Florensiya tarixi” asarlari alohida ahamiyatga ega.

Uning fikricha, siyosiy xatti-harakat asosida xristian ahloqi emas, balki ahloqning foydaliligi va kuchi yotadi. Shuning uchun ham siyosiy san’at qoidalarini diniy aqidalardan emas, real insoniy sifatlardan, insonning tabiatidan, jamiyatdagi kurashayotgan kuchlarning joylashuvi va harakatidan, qiziqishlaridan kelib chiqarishga intiladi. Boshqacha qilib aytganda mavjud borliqni bilish asosida amaliy kuchga ega bo’lgan siyosiy qoidalarni ishlab chiqadi va unga bog’liq holda siyosiy tarixni yaratadi. Makiavelli metodologiyasining ilg’orligi, novatorligi shu bilan belgilanadi.

XVI asrda ma’lum bo’lgan siyosiy atamalar – “Jumhuriyat”, “Knyazlik”, “Qirollik”, “Hokimiyat”, “Monarxiya” kabilar bilan bir qatorda “Davlat” atamasini qo’lladi. Davlat uning fikricha, jamiyatning siyosiy holatini, yoki bo’lmasa hukmronlik va tobelik munosabatlarini, siyosiy hokimiyatning (davlat boshlig’i,

senat, konsullar va boshqalar), shuningdek, huquq va qonunlarning mavjudligini anglatadi.[1]

U davlatni kelib chiqishini o'ziga xos, yangichasiga ko'rsatib beradi: avval boshida kishilar ozchilik bo'lganlar va tarqoq yashaganlar. So'ngra ular kurashdilar, birlashdilar va himoya uchun eng dovyurak kishini saylab "boshliq" qildilar, unga bo'ysuna boshladilar. O'zaro xafagarchilik bo'lmasligi uchun qonunlarni va ularni buzuvchilar uchun jazo choralarini ishlab chiqdilar. Bundan esa adliyaning zarurligini anglash vujudga keldi. Shuning uchun ham, hukmdorni saylashda kishilar kuchga emas, balki aql va adalatga ahamiyat bera boshladilar. Uning qarashlaridan davlatning tarkibiy qismi sifatida boshqaruvchilarni tobelarga majbur qiluvchi kuch sifatida siyosiy hokimiyat ko'rsatiladi.

Uning davlat shakllari to'g'risidagi mulohazalari e'tiborga loyiq. Bu davlatning to'g'ri (monarxiya, aristokratiya, demokratiya) va noto'g'ri (tiraniya, oligarxiya, anarxiya) shakllarini ko'rsatadi. Bu davlat shakllarining har biri hokimiyat uchun kurashayotgan kuchlar nisbati bilan bog'liq holda o'rnatiladi.

Davlatni inqilobiy yangilanish vositasi sifatidagi diktatura to'g'risidagi nazariya Makiavelli siyosiy merosida muhim o'rin tutadi: favqulodda holatlarda ham, shunchalik zarurlidir. Mutloq hokimiyat hukmron tabaqalarni ham, boshqariluvchi tabaqalarni ham juda tez yo'ldan chiqaradi. Shuning uchun ham yangilangan davlatning muvafaqqiyatli rivojlanishi, uning fikricha, davlatchilikning respublika shakli bilan bog'liqdir. Makiavelli siyosatning hokimiyat va yetakchilik, inqilob va turg'unlik, ozodlik va mazlumlik, taraqqiyot va reaktsion kabi muammolarini ko'targan.

XVI asr mafkurasining rivojiga xalq ommasi ahvolining yomonlashuvi, shu bilan bog'liq holda yuzaga kelgan dehqonlar qo'zg'olonlari va xalq qo'yi tabaqalarining harakatlari katta ta'sir o'tkazdi. Ma'lumki, mehnatkashlar ommasining mafkurasi hayoliy sotsializm nazariyotchilarning asarlarida o'z aksini topdi. Ana shundaylardan biri ingliz mutafakkiri Tomas Mor (1478-1535) dir. U shox saroyida katta lavozim egasi bo'lishiga qaramay, oddiy xalq hayotini yaxshi

[1] Makiavelli N. Tanlangan asarlar. M. 1982. 18-b.

bilgan, ijtimoiy muammolar bo'yicha o'z qarashlarini "Utopiya" nomli kitobida bayon etgan.

Uning kitobida tenglik, adolatli mehnat va taqsimot, ilm-fanni o'rganish kabi masalalar dadil ko'tarilgan. Ideal erkin utopiya davlatining asosiy xo'jalik yacheykasi – oiladir: ishlab chiqarish hunarmandchilikka asoslangan bo'ladi. Utopiyachilar demokratik idora usuli sharoitida yashab, teng mehnat qiladilar, unda shahar bilan qishloq o'rtasida, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasida qarama-qarshilik bo'lmadi.

Odamlar kuniga 6 soatdan ishlab, qolgan vaqtlarini ilm-fan va san'atga bag'ishlaydilar. Shaxsning har tomonlama rivojlanishiga katta ahamiyat beriladi: bu esa tarbiya sohasidagi ilg'or fikrdir.

Italiya mutafakkiri Tomazo Kompanella (1568-1639) ham sotsial-siyosiy g'oyalarning jo'shqin targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. U o'zining "Quyosh shahri" nomli asarida Morning "Utopiya" asariga yaqin g'oyalarni ilgari surgan. Inson uchun aqliy va jismoniy qobilyatini o'stirish zarurligi va bunda olimlarning yuqori rolini ko'rsatishga intiladi. Kompanella insoniyatning birligini va rohat-farog'atda yashashini orzu qiladi. 1599 yilda Kompanella Italiyani ispanlar istibdodidan ozod qilish maqsadida qo'zg'olon ko'tarishga urindi. Kompanella xususiy mulk bo'lmaydigan, ya'ni mehnat mo'l-ko'lligi ta'minlanadigan, ammo turmushning qat'iy ilmiy tarkibi mavjud bo'lgan koxonlar hokimiyati, aslida ideal jamiyat haqida yozgan. Masalan, "Quyosh shahri"ni olimlar kollegiyasi boshqarishni aytadi.

Yevropada XVII-XVIII asr ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojida Angliyada Jerard Uinstenli "Ozodlik qonuni" kitobi, Frantsiyada Jan Mele "Vasiyat" asari va Gabriel Mabli "Siyosiy jamiyatning tarkibiy va zaruriy tartibi xususida, iqtisodchi, faylasuflarga taklif va shubhalar" kitoblarii bilan maydonga chiqdilar. Ularning ilgari surgan g'oyalari tenglik, adolat uchun kurashish g'oyasi bo'ldi.

Insoniyat taqdirida XVII asr ko'rinarli davr hisoblanadi. Negaki feodalizmdan kapitalizmga o'tish jarayonining boshlanishi xuddi shu asrga to'g'ri keladi. Kapitalistik formatsiyaning shakllanishi insonning yangi hayotiga, yangi

dunyoqarashiga bo’lgan qiziqishini uyg’otadi. Burjua davlatchiligining g’oyaviy asosi bo’lgan siyosiy ta’limotlarni vujudga keltiradi.

Mutloq monarxiyaga qarshi kurashda burjua mutafakkirlari davlat va huquq muammolarini dindan ajratgan holda tadqiq etishga harakat qildilar. Bu intilish tabiiy huquq nazariyasida o’z aksini topadi. Shu munosabat bilan burjua siyosiy fikrining keyingi rivojiga katta ta’sir o’tkazgan G.Grotsiy va B.Spinozalarning ta’limotlari ahamiyatlidir.

Gollandiya burjuaziyasining mafkurachisi Gugo Grotsiy (1584-1645) tabiiy huquq maktabining birinchi nazariyotchisi edi. Grotsiy nazariyasiga ko’ra, tabiiy va huquqning mavjud inson tabiati, uning aql-idroki huquqning manbaidir. Ixtiyoriy huquqqa oila, fuqaro huquqlari ta’lluqlidir. Grotsiy o’z siyosiy ta’limotida davlatning kelib chiqishi va mohiyatini din va “xudolarning nasihatlariga” emas, aqlga bog’ladi.

Grotsiy fikricha, qachonlardir – davlat ham xususiy mulk ham yo’q davrda “tabiiy holat” mavjud bo’lgan. Lekin insoniyatning rivojlanishi va dastlabki “tabiiylikni” yo’qolishi mol-mulkning bo’lishiga va davlatning vujudga kelishiga olib keldi. Qonunlar ishlab chiqarish, odil sudlash, mansabdor shaxslarni tayinlash, soliq undirish, urush va tinchlik masalalari, xalqaro shartnomalar tuzish, Grotsiy fikricha oliy hokimiyatning xususiyatidir.

Ijtimoiy shartnoma har qanday shakldagi davlatning manbaidir. Uning roziligisiz hokimiyat shaklini o’zgartirish mumkin emas, chunki shartnomalar tabiiy huquqqa asosan bajarilishi shart. Shu nuqtai nazardan, Grotsiy mavjud hokimiyatining har qaysisini, shu jumladan mutloq monarxiyani ham haqqoniy deb hisoblaydi.

Umuman Grotsiyning siyosiy ta’limoti yetarlicha mo’tadil tabiatga ega. Bu ta’limot siyosiy hokimiyatga ergashib bo’lgan va xalq ommasining har qanday inqilobiy faolligidan qo’rquvchi Gollandiya yirik burjuaziyasining ahvolini aks ettiradi.

Tabiiy huquq nazariyasi golland materialistik – faylasufi Benedikt Spinozaning (1632-1677) asarlarida o’z rivojini qatiyan tanqid qiladi; uning

fikricha hokimiyatning bunday shaklida podshox o’z fuqarolaridan qo’rqadi va ularga qarshi fitnalar uyushtiradi. Shu sababli ham monarxiya qullik, vaxshiylik va kimsasizlik hukmron bo’lgan saxroga o’xshaydi.

Spinoza demokratiyani davlatning eng yaxshi shakli deb hisoblaydi. Boshqarishning bunday shaklida umum manfaatlari, aql va erkinlik hukmronligi ko’proq ta’minlanadi. Aql va erkinlik hukmronligi, agarda oliy hokimiyat fuqarolar majlisiga berilgan bo’lsa, boshqa davlat shakllarida ham mavjud bo’lishi mumkin. Yetarli darajadagi ko’p sonli majlisning qarori har doim umumiy baht-saodatni ta’minlashga yo’naltirilgandir, chunki bunday majlisning hohish-irodasi aql bilan belgilanadi. Shunday qilib, Spinoza tabiiy huquq nazariyasidan o’z o’tmishdoshlariga nisbatan radikalroq xulosalar chiqaradi. Birinchi qatorda u demokratiya, inson huquqlari va erkinliklarini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Kapitalizm shakllanishi davrida siyosiy ta’limotlarning keyingi rivojlanish jarayonining farang ma’rifatparparlaridan biri Shral Lui Monteskdir (1699-1775). Uning siyosiy ta’limoti yuqorida amalga oshiriladigan islohat vositasida jamiyatni yangilashga qaratilgan. Uning siyosiy ozodlik, hokimiyatning taqsimlanishi (qonun chiqaruvchi, ijroiya hokimiyati va sud) to’g’risidagi g’oyalari tahsinga loyiqdir.

Montesksning hokimiyatni bo’linishi to’g’risidagi g’oyasi butun bir nazariyagacha rivojlanib borgan va bu nazariyaning maqsadi qonuniylik printsipini asoslashdan, siyosiy erkinlikni ta’minlashdan, hamda huquqni davlat va fuqarolar o’rtasidagi munosabatlarini amalda tartibga soluvchi vositaga aylantirishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, hokimiyatning bo’lishini – fuqarolarni qonunsizlik va hokimiyatni suiste’mol qilishdek illatlardan himoya etuvchi omildir.[1]

Qonunlarning amaldagi ustivorligini ta’minlagan dunyodagi eng ilg’or davlat bu Amerika Qo’shma Shtatlaridir. Shu tufayli hozirgi dunyodagi ko’pgina davlat arboblari, jamiyatshunos olimlar, siyosatshunoslar ushbu davlatda barqaror bo’lgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy normalarni tarixiy o’rganishga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Shuning uchun biz talablarning e’tiborini qisqacha bo’lsada,

[1] Гутов В.А. История политических и правовых учений. Санкт-Петербург. 2000. – С. 39.

Amerika Qo’shma Shtatlari mustaqilligi, inqilobiy demokratik va huquqiy o’zgarishlarning otaxonlari, dastlabki qabul qilingan Konstitutsiyaning asoschilari bo’lmish Tomas Djefferson, Tomas Peyinlarning siyosiy qarashlariga jalb etishni lozim topdik. Tomas Djefferson (1743-1826) nomi Amerika xalqining demokratiya uchun kurashi bilan bog’liq. U o’sha davrning buyuk inqilobiy hujjati bo’lgan AQShning Mustaqillik Deklaratsiyasining muallifidir. Djefferson davlatning monarxiya shaklini tanqid qiladi. U podshox hokimiyatini xalq hokimiyatining hosilasi deb hisoblaydi. Xalq mustaqilligi g’oyasini himoya qiladi. Hech bir kimsa, uning fikricha davlat hokimiyatini barpo qilish va uni nazorat etishda ishtirok etish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. Agar hokimiyat xalq huquqlarini toptasa, hukumatni o’zgartirish va o’rniga o’z manfaatlariga sodiqlik bilan xizmat qiladiganini saylash huquqiga ega.[1] Bu g’oya bilan Djefferson zolim podshoxlarga qarshi xalqning qo’zg’olon qilish huquqini asoslaydi.

Djefferson AQShning 1787 yilgi Konstitutsiyasini bir qator g’ayri demokratik holatlari uchun uni jiddiy tanqidga oladi. So’z, matbuot erkinliklari to’g’risidagi moddalarning yo’qligi, uning fikricha Konstitutsiyaning asosiy kamchiligidir. Djefferson va boshqa siyosiy arboblar tashabbusi bilan Konstitutsiya matniga qo’shimcha qabul qilingan. Ular 1791 yilda kuchga kirdi va ayni demokratik huquq va erkinliklarini e’lon qildilar.

AQSh asoschi otaxonlaridan biri Tomas Peyn (1737-1809) insonning so’z, matbuot, vijdon erkinligi, bahtga erishish huquqi kabi tabiiy erkinliklarni va huquqlarning tengligi g’oyasini ilgari surdi. Shu huquqlar asosida fuqaro huquqi, ya’ni xalq mustaqilligi, xalqning inqilob huquqi shakllanadi. Inqilob, Peyn fikricha, qonuniyatlar va bu qonuniyatsiz insoniyat jamiyati taraqqiy etishi mumkin emas.

Peyn birinchi qatorda jamiyat va davlat o’rtasidagi farq borligini ko’rsatadi, u agar odamlar nuqsolariga ega bo’lmaganlarida edi, hukumatlar kerak bo’lmas edi deb biladi. Nuqsonlar bor ekan, xavfsizlik va erkinlikni saqlash maqsadida

[1] Aliev B., Hoshimov T. Siyosiy tafakkur tarixi. O’quv qo’llanma. – T.: 1999. 37-38-b.

hukumatlar tayinlash maqsadga mavofiqdir. Peyn monarxiyaga qarshi chiqqan. Umumiy saylov huquqi amal qiluvchi demokratik respublika uning ideali edi.

Shunday qilib, Djefferson va Peyn mayda burjuaziya, erkin fermerlar va manufaktura ishchilarining manfaatlarini aks ettirgan siyosiy fikr, ilg'or burjua-demokratik yo'nalishlarning namoyondalaridir. Siyosiy fan nemis klassik faylasuflari Kant, Fixte, Gegellar ham o'zlarining qimmatli ulushlarini qo'shdilar. Ulardan Vilgelm Fridrix Gatlat Gegel (1770-1831) qarashlari diqqatga sazovordir. Davlat va huquq muammolari Gegel qarashlari ijodiy rivojining barcha bosqichlarida uning diqqat markazida bo'lgan. Gegelning davlat to'g'risidagi ta'limoti siyosiy ta'limotlar tarixidan muhum o'rin olgan "Huquq falsafasi" asarida dadil hamda izchil ravishda bayon etilgan.

Gegel fuqarolar jamiyati va siyosiy davlatlarni farqlaydi. Fuqaro jamiyati deganda burjua jamiyati nazarda tutiladi. Fuqaro jamiyati xususiy mulk hukmronligi va odamlarning umumiy, rasmiy tengligiga asoslangan ehtiyojlar tizimidir. Qadimgi dunyoda va o'rta asrlarda mavjud bo'lmagan bunday jamiyatni shakllanishi burjua jamiyatining qaror topishi bilan bog'liq.

Siyosiy davlat – shaxsiy davlatdir. O'zining takomillashgan ko'rinishida bunday davlat hokimiyatining bo'linishiga asoslangan konstitutsion monarxiyadan iboratdir.

Gegel ta'limotida siyosiy davlat qonun chiqaruvchi hokimiyat, hukumat hokimiyatda podshox hokimiyatlarga bo'linadi. Gegel ta'limotida xalqning mustaqilligi to'g'risidagi demokratik g'oya tanqid qilinadi va konstitutsion podshox (monarx) mustaqilligi asoslanadi. Hukumat hokimiyatining vazifasi podshox qarorlarini bajarish, mavjud qonun va idoralarni himoya qilishdan iborat. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hammasi va hamma narsa uchun amal qiluvchi qonunlarni aniqlovchi va o'rganuvchi hokimiyatdir. Gegel tabaqa jamoalari palatalardagi munozaralarning oshkoraligi printsipining tarafdori bo'ladi.

Burjua siyosatshunosligining rivojiga Aleksis Tokvil (1805-1859) katta hissa qo'shdi. U o'z davri uchun yangi demokratiya nazariyasini yaratdi va "Amerikadagi demokratiya haqida" asarini yozdi. Bu kitob siyosiy tartiblarni

qiyosiy tahlil usulida yozilgan. Amerika to’g’risidagi aniq bayoni Tokvilga oz tuyildi va u Britaniya orollariga maxsus safar qildi. Angliya siyosiy tashkilotini o’rganish uningcha jiddiy qiyosiy tahlilsiz amalga oshirish mumkin bo’lmagan umum nazariy qoidalarini ifodalash uchun zarur edi.

Tokvil asosiy siyosiy g’oyalari quyidagilardan iborat: birinchidan, Tokvil fikricha, butun dunyoda aristokratiyaning to’xtatib bo’lmaydigan darajada zaiflashuvi va demoktariyaning mustahkamlash jarayoni kuzatilmoqda; ikkinchidan, demokratiya aristokratiyaga qaraganda qisqa rivojlanish tarixiga ega bo’lsa ham, u foydalanadigan vositalar yetarlicha mukammal bo’lmasa ham, shunga qaramay uning afzalliklari ravshan ko’rinib turibdi. Kamchiliklarining mavjudligiga qaramay demokratiya yordamida boshqarish jamiyatning rivojlanishiga ko’proq ta’sir o’tkazadi; uchinchidan, demokratiya o’zining eng yorqin aksini AQSh siyosiy hayotida, Amerika konstitutsiyasida, davlat organlarining tuzilishida; to’rtinchidan, Amerika demokratiyasi to’g’risida gapirar ekan, Tokvil uning kamchiliklarini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. AQSh konstitutsiyasi faqatgina o’zining yaratuvchilari uchun shuxrat va boylik keltirishga mo’ljallangan, boshqalar ko’lida esa u mevasiz daraxtdir.

Shunday qilib, uyg’onish va kapitalizmning shakllanishi davrida davlat va huquq to’g’risidagi juda ko’pgina qiziqarli va foydali g’oyalar olg’a surildi, sinfiy jamiyat davlat va huquqni ishonchli, to’g’ri tadqiq etishda mazmunli metodologik yondashuvlar namoyon bo’ldi.

2.3-chizma



2.4. XIX asr va yangi davrdagi siyosiy qarashlar

Ahmad Donish (1827-1897). U o’qimishli ilg’or ziyolisi edi. Uning dunyoqarashidagi xalqparvarlik va ma’rifatparvarlik mayllari rus adabiyoti va madaniyati ta’siri ostida shakllanadi. U Buxoro amirining elchilari qatorida uch marta (1857, 1869, 1874) Peterburgga safar qildi. Shu safar vaqtida u Rossiyadagi ijtimoiy hayot, rus podsholarining hokimiyatni idora etish usullari, xususan, rus yozuvchilarining ijodi bilan feodal Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayotni taqqoslash imkonini berdi. Taraqqiyparvar shoir va ma’rifatchi o’z vataniga qaytgach Buxoro amiriga maktub yozib, davlat idora usulini, yashashni ruslardan o’rganish lozimligini uqtiradi.

Uning siyosiy qarashlari Buxoro amirligida davlat tuzilishini isloh qilish zarur deb hisoblaydi, o’zi tuzgan loyihada davlat bir guruh kishilarga emas, balki butun xalqqa ltegishliligini ta’kidlaydi.

Avaz O’tar – (1884-1919 yy) – Xorazmning isyonkor shoiri ijodida xalqni uyg’otish, uning o’zligini tanishtirish, ozodlik yo’lida zulmu sitam ustunlariga qarshi bosh ko’tarishga da’vat etdi. Avaz O’tar ijod etgan davr Xiva xoni Muhammad Raximxon II vafotidan so’ng o’rniga uning o’g’li Isfandiyorxon hukmronlik qilgan davrga to’g’ri keldi. Hamma xonlar singari Isfandiyorxon davrida ham xalq og’ir, kulfatli kunlarni boshdan kechirdi. Bu davrda qora guruhlar-ruhoniylar, mulla-eshonlar, amaldorlar xalqni istagancha talaydilar. Avaz O’tar o’zining tanqidiy-satirik asarlarida hokim guruhi vakillarining sirlarini fosh qiladi. Shuning uchun shoir Avaz Isfandiyorxon tomonidan bir necha marta jazolanadi. Shunga qaramay u o’z ijodiy faoliyatini va zulmga qarshi kurashishni davom ettirdi. Xon, ruxoniylarni hayvon qiyofasida ko’radi, ularni jallod deb ataydi. U xalqdan ajramaydi, o’zini xalq bilan deb biladi, chinakam xalqparvar shoir ekanligini isbotlaydi. U mazmundor satirik she’rlar yozib, xalqparvar, ma’rifatparvarlik g’oyalarini xormay-tolmay targ’ib qiladi. U o’zining “Til” she’rida insonga barcha tillarni bilish zarurligini o’qtirib, ota-onalarni o’z bolalarini maktabga yuborishga undaydi.

Furqat – (1859-1909) ma’rifatparvar shior edi. U Qo’qonda tug’ilib, shu erda ta’lim olgan. Uning “Suvorov”, “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida” she’rlarida rus madaniyatiga muhabbat tasvirlangan.

Furqat otashin vatanparvar shior edi. U o’z xalqini, o’z vatanini cheksiz muhabbat bilan sevar, uning istiqboli, baht-saodati haqida qayg’urar edi. Furqat uzoq muddat chet ellarda yashagan davrida ham o’z vatanini, xalqini unutmagan, garchi Xitoy tuprog’i Furqat uchun ikkinchi vatanga aylanib qolgan bo’lsa ham u o’zining g’urbatda ekanini sezmasligi mumkin emas. Chunki shoir o’z vatani bag’rida yayrash, ijodi bilan xalqiga xizmat qilish bahtidan mahrum etilgan edi. Hokim guruhlar, ularning fitna va ig’volari shoirni o’z vatanini tashlab chiqishga majbur etgan va uning qaytib kelish yo’llarini to’sib qo’ygan edi.

Ona Vatan dardini Furqatga o’xshab chuqur his etgan va o’z ijodida mukammal yoritib, vatan muhabbati haqida ko’p va ajoyib asarlar yaratgan shoirlarni kam uchratamiz.

Furqat o’tmishdagi hamma ma’rifatparvarlar singari, xalq baxt-saodatini ilm-madaniyatni egallashda ko’radi. U xalq fojiasining, og’ir va musibatli hayotining birdan-bir sababini nodonlik, jaxolat deb biladi. Shuning uchun zo’r ehtiros va g’ayrat bilan xalq o’rtasida ilm-ma’rifat va madaniyatni targ’ib qilishga kirishadi.

Muqimiy – (1850-1903) o’zining jamiyatga bo’lgan munosabatini tematik jihatdan rang-barang, mazmun jihatdan boy bo’lgan satira va hajvlarda aks ettirgan. Muqimiy satrlari jamiyat hayotining hamma asosiy tomonlarini qamrab oldi. Ekspluatator sinflarga xos bo’lgan hamma ijtimoiy tabaqalarning tipik obrazini yaratdi. O’zbek demokratik adabiyotida yaratilgan ajoyib ijtimoiy turlar galereyasi orasida ekspluatatorlar sinfining hamma tabaqalarini mustahkamlovchi amaldorlarni, mahalliy boylarni, rus kapitalistlarni, tekinxo’r ruxoniylari, mustamlakachilarning yuvindixo’r malaylarini va boshqalarni uchratamiz.

Muqimiy o’z satrlarini, tanqid ob’ektiga qarab shartli ravishda uch guruhga bo’lishi mumkin:

1. Chor chinovniklari va mahalliy amaldorlar zulmini ko’rsatishga, ularning jirkanch obrazlarini yaratib fosh etishga qaratilgan asarlar (“Tanobchilar”, “Saylov”, “Axtaring”).

2. Mahalliy boylar, mustamlakachilarning kirdikorlarini ochib tashlashga, ularning pastkashliklarini ko’rsatishga qaratilgan satiralar (“Moskovchi boy ta’rifidan”, “Xajvchi Viktor”, “Gap to’g’risida gap” va boshqalar).

3. Jamiyatda tekinxo’rlik bilan kun kechiruvchi ba’zi din ahllarini tanqid qilishga, ularning fe’l-atvoridagi iflosliklarini, kulgili hollarini tasvirlashga bag’ishlangan satiralar (“Avliyo va boshqalar”). Bu satrlarda mustamlakachilik tartiblari hukmronlik qilgan davrda chor amaldorlarining mehnatkash xalqqa tipik shaxslar faoliyatida tasvirlangan.

Jadidchilik. Yaqin tariximizdagi ijtimoiy-madaniy harakatlarda jadidchilikdek muhim o’rin egallagan, ayni paytda uningdek xilma-xil baho va talqinga sazovor bo’lgan ikkinchi bir hodisani topish qiyin.

Jadid – arabchadan olingan bo’lib, “Yangi usul” deb nomlanadi. Ular jamiyatni ruslashtirishga qaratilgan rus-tuzem maktablariga qarshi chiqib, unga qarama-qarshi holda turk tili va dinshunoslikni o’rganuvchi, “Yangi usuldagi maktab”larni tashkil etish dasturi bilan chiqdilar. Jadidchilik maktabdan, maorifdan boshlangan, so’ng matbuot, teatr, siyosatga o’tgan. Jadidchilikning tamal toshlaridan bo’lgan yangi maktab-maorif kontseptsiyasi o’tgan asrning 80-yillarida Qrimda paydo bo’lgan edi. Uning asoschilaridan biri boqchasaroylik Ismoil Gaspirali edi. U ko’zga ko’ringan qrim-tatar siyosiy arbobi hisoblangan. Gaspirali yuqori aristokratik doiraga mansub bo’lib, diniy ma’lumotni Qrimda, har biy ma’lumotni Moskva kadetlar korpusida olgan. U o’z e’tiqodiga ko’ra monarxist, Romanovlar xonadonining sodiq xizmatkori edi.

Jadidlar dasturi maktabni isloh qilishga qaratilgan Gaspirali yangi usuldagi maktablarni tashkil etish uchun Buxoro amiri Abdullaxonga (1893) murojaat etadi, ammo rad javobini oladi. Shundan so’ng u Qozon tatarlaridan yordam olib shunday maktablarni ochadi. 1910 yil bunday maktablar 50 tani tashkil etadi. Jadidlar maktabining yirik markazi Toshkentda 20 ta, Qo’qonda 16 ta maktab

bo’lgan. 1905 yil revolyutsiyasi jadidlarni ajralib ketishga olib keldi. Bular radikal oqim – modernistlar maorifda chuqur islohatlar o’tkazish tarafdori edi. Ular o’z faoliyatining markazi etib teatrni tanladilar. Aholining asosiy qismi savodsiz, butun bosma adabiyot ular uchun yiroq bo’lgan. Bu erda Bexbudiy, Fitrat, Cho’lpon, A.Qodiriy, A.Avloniy, X.Shukurillo va boshqalar faoliyat ko’rsatganlar.

Shunday qilib, XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O’rta Osiyo, Kavkaz, O’rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy ko’tarilish madaniy-ma’rifiy oqim-jadidchilik sifatida namoyon bo’ldi.

Shuni aytish kerakki, jadidchilik harakati tarixidan dastlab maktab va maorif, ta’lim va tarbiyani isloh qilishdan boshlangan bo’lsada, shakl va mohiyatiga ko’ra boshidan boshlaboq to’la ma’noda ijtimoiy-siyosiy mazmun va xarakterga ega bo’lgan. U o’sha mustamlakachilik va mutaasiblik muhit, ijtimoiy iqtisodiy turmush shart-sharoiti va hayoti asosida shakllanadi.

Mustamlakachilik zulmi va siyosatning XIX asr oxiriga kelib Turkistondagi mahalliy musulmon xalqlari uchun “yo hayot, yo mamot” masalasi yuzaga keltirdi. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo falokat masalasidir”[1] – deb aytishi bejiz emas edi. Jadidchilik tarbiyasi millatni halokatdan “saodatga” olib chiqishga, unda milliy erk va mustaqillik mafkurasini tarbiyalashga qaratilgan edi.

Mustamlakachilik millat qalbi va ongini asir qilish va egallash uchun kurash davlat miqyosida kuchaytirilgan bir paytda, milliy maorif va madaniyatning taraqqiy etishi, diniy mutaasiblikni tanqid qilish, millatda o’zligini anglovchi madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy siyosiy ongni shakllantirish ob’ektiv zaruriyatga aylangan. Bu o’ta muhim ma’suliyatli ishni ilk bor jadidchilik asoschilari Maxmudxo’ja Bexbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jaev, Toshpo’latbek Norbo’tabekov va boshqa o’nlab millat fidoiylari qalban to’la his etib, buning uchun o’zlarini mas’ul deb bildilar.

[1] Falsafa qomusiy lug’at. – T.: 2004. 11-12-b.

Xulosa shuki, jadidchilik ma’rifatparvarligi ham diniy, ham dunyoviy qarashlarga asoslangandir.

Jadid maktablari darsliklar va ularda o’qitish jarayoni milliy ruh va milliy ozodlik mafkurasi asoslariga milliy g’ururigagina emas, balki umuminsoniy qadriyat va baynalminalchilikni ham singdira boshladi.

Siyosatni tadqiq etishga bo’lgan turli yondashuvlar, yo’nalishlar, mavzular, nazariyalar hozirgi davr siyosiy bilimlarining manzarasini aks ettirayotgan holatlardan biridir.

Bir qator politologlarning fikriga qaraganda hozirgi davrdagi siyosiy kontseptsiyalar marksizmning bevosita ta’sirida yoki unga qarshi kurashda shakllanadi.

Sotsiologik yo’nalishlar ichida o’ziga xos o’rinni nemis sotsiologi Marks Veber (1864-1920) egallaydi. Boshqa klassiklar kabi Veber siyosatni hokimiyat haqidagi ijtimoiy munosabatlar sohasi yoki u davlatlar o’rtasida, hokimiyat ichida, guruh odamlar o’rtasida bo’lmasin hokimiyatni taqsimlishga ta’sir ko’rsatish vositasi deb hisoblaydi.

Moris Dyuverje (05.06.1917 yil) frantsuz sotsiologi, siyosiy hokimiyat, huquq, demokratiya tushunchalari mohiyatini AQSh siyosiy sotsiologiyasi darajasida turib tahlil etadi. Uning siyosiy qarashlariga ko’ra hozirgi rivojlangan mamlakatlarda davlat hokimiyati uchun turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy jamoat tashkilotlari, jumladan, kasaba uyushmalari faol kurash olib borish imkoniyatlariga ega bo’lib, siyosiy xilma-xillik demokratiyasida o’z ifodasini topgandir.

Hozirgi davr politologiyasida davlat hokimiyatining turlari va ko’rinishlari muammolarini atroflicha va teran ishlab chiqishga intilish kuchaygan bo’lib, ayniqsa uning bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan turlari hamda ko’rinishlarini tahlil qilish katta metodologik ahamiyatga molikdir. Mana shunday bir-biriga zid bo’lgan yalpi (totalitar) turlari tadqiqotiga, ularning qiyosiy tahliliga diqqat-e’tibor kuchaydi.

Demokratiya bilan yalpi (totalitar) tuzum o’rtasidagi nisbat va munosabat darajalarini aniqlab berish va ta’riflash frantsuz politologi Raymon Aron (1905-

1983 yillar) siyosiy qarashlarida asosiy yo'nalishlardan birini tashkil etadi. "Industrial jamiyat" haqidagi g'oyalarning asoschilaridan biri Aron hisoblanadi.

Siyosiy hokimiyatning tuzilishi – amal qilishi jarayonlarini siyosatshunoslikda birinchi tahlil qilganlardan amerikalik Talkot Persyans Lidir. U M.Veber siyosiy qarashlariga tayangan holda insonning siyosiy munosabatlarga kirishish sabablarini, birinchidan til va boshqa qadriyatlar ramziy belgilari orqali sodir bo'ladigan, ikkinchidan, ko'pchilik inikos etib maqullagan qonun-qoidalarga qarab yakka hakarat qilishdan, uchinchidan, bu harakatlarning faqat shaxs ifodasiga bog'liq ekanligidan keltirib chiqaradi. Siyosiy hokimiyatning tuzilishi – amal qilishi Persons ta'limotining bosh yo'nalishini amaliy muammolarning o'zgarmas yig'indisi tashkil etadi.

Garlz Rayt Milles (1912-1962 yillar) siyosiy g'oya va qarashlarini siyosiy hokimiyat taqsimoti muammolariga qarab ishlab chiqqan ta'limotida "Hukmron sinf" tushunchasiga "hukmronlik qiluvchi zodagonlar (elita) yoki zodagonlar boshqarishi" tushunchasini qarama-qarshi qo'yadi va bu bilan siyosiy hokimiyatning sinfiy tabiatini inkor etadi. U "zodagonlar boshqarishi"ni sanoat, siyosiy, harbiy boshliqlardan tarkib topgan ijtimoiy guruhdan iborat siyosiy hokimiyat sifatida ta'riflab, hukmron sinf tushunchasini ijtimoiy guruh tushunchasi bilan almashtiradi.

Saymur Martin Lipest (18.03.1922 yil)ning asosiy tadqiqot ishlari, hozirgi dunyoda demokratiya muammolariga bag'ishlangan. U siylovlar va jamoatchilik so'rovlari xulosalaridan kelib chiqib demokratik va antidemokratik harakatlarining sharoitlari, sabablari va harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga harakat qiladi.

U ijtiomoiy taraqqiyotning quyidan yuqoriga rivojlanib borishi va jamiyat iqtisodiy faoliyatining tobora yuksakroq texnologik darajada amal qila borishini o'ziga xos qonuniyat tarzida baholaydi, insoniyatning taraqqiyot istiqboli ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan tobora mustahkam bog'lanib ketayotganligini uqtiradi.

Mishel Krozs, Xanna Yarend, Rolf Dorendorf, Gabriel Almond va boshqa hozirgi zamon politologlari siyosiy hokimiyat va uning faoliyat yo'nalishlari, hokimiyatning tarkibiy qismlari o'rtasidagi nisbat va mustahkam bog'langanlik.

Siyosiy sistema tarkibiy qismlari, - davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, shirkatlar, turli-tuman uyushmalar va ular o’rtasidagi o’zaro bog’lanish masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda siyosiy ta’minotlar ayrim mamlakatlar siyosiy muammolari bilan bog’liq holda vazifali yo’nalishlarda takomillashdi.Amerikada Bixeviorizm siyosiy fanlar usuli sifatida qaror topdi.

2.4 - chizma



Amerika politologlari ijtiomiy boshqaruv va siyosat, qiyosiy siyosat, xalqaro siyosiy munosabatlar, siyosat nazariyasi va falsafasi yo’nalishlarida tadqiqot ishlari olib borib, politologiyaning xalqaro fan sifatida qaror topishiga muhim xissa qo’ydilar. Frantsiya politologlari siyosiy institutlar va munosabatlar, saylov tizimi, ijtimioy boshqaruv, demokratiya masalalari kabi ko’pgina muammolarni atroflicha tahlil qilib, fanni naziriy va amaliy ahamiyatga ega xulosalar bilan boyitdilar.

So’ngi o’n yillikda texnokratik nazariyalar xalqaro maydonga yoyildi. Texnokratik naziriyalar tarixida ko’zga ko’rinarli o’rinni Djozfa Barixamaning

(1905-1987) kontseptsiyasi egallaydi. Uning nuqtai nazaricha, jadal texnologik jarayonlar natijasida siyosiy hokimiyat va davlat boshqaruvida menedjerlar sinfini vujudga keltirgan “inqilob” yuzaga keldi.

Davlatsizlashtirilgan iqtisodiyot ularning siyosiy hukmronligining asosi hisoblanadi. Berixama ta’kidlaganidek, davlat tobora menedjerlarning mulkiga aylanib bormoqda. O’zining nazoratchilik mavqeidan kelib chiqib ular jamiyatning imtiyozli, o’zini qayta ishlab chiqaruvchi bo’lib bormoqdalar. Kelajakda, deb hisoblaydi Barixam texnokrat direktorlar komiteti rahbarligida yagona texnokratik davlat o’rnatiladi.

Texnokratik g’oyalar tobora sotsial nazariyalar chegarasidan chiqib boshqa yetakchi g’oyalar bilan qirishib (konvergentsiya, elitizim, va h.k) ketmoqda.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi Amerika politologlari: Margentau, Nikolas Spaykien, Zbignev Bjesjinskiy, Fransuz fiaylasufi Raylgan Aron tomonidan tadqiq etilgan.

XX asr 80 yillariga kelib, fuqarolik jamiyati muammosi sotsiolog va politolog olimlar tomonidan o’rganilayotgan masalalardan biriga aylanadi. Bu davrda avj olgan demokratiyalashtirish jarayonlari natijasida alohida mazmun kasb eta boshladi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo’lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi. Olimlar diqqat markazida endilikda fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari institutlari, huquqiy davlatning unsurlari masalalari bo’yicha keng ko’lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

2.5-chizma



2.6-chizma



2.7-chizma



Qisqa xulosalar.

Siyosiy fikrlarning vujudga kelishi ijtimoiy ishlab chiqarish usuli rivojining, jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'ldi. Qadimgi mutafakkirlar siyosiy qarashlar rivojiga, davlat va huquq muammolarini nazariy asoslashga katta xissa qo'shdilar.

Siyosat, siyosiy hokimiyat, adolatli jamiyat haqidagi g'oyalar SHarq mutafakkirlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Ular o'z davrlarida erkin farovonlikka assolangan davlatni qurish muammoalari, ularni echimlari, shuningdek davlat tuzilishi, davlatlararo ijtimoiy-siyosiy munosabatlar xususida keng mushoxada yuritganlar.

Uyg'onish va kapitalizmning shakllanishi davrida davlat va huquq to'g'risida ko'pgina qiziqarli va foydali g'oyalar olg'a surildi, sinfiy jamiyat, davlat va huquqni ishonchli, to'g'ri tadqiq etishda mazmunli metodologik yondashuvlar bo'ldi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik g'oyalari, jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

Hozirgi davrda politologiyaning umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarini ustivor darajada ulug'lash inson huquqlarini muhofaza qilish, huquqiy davlat barpo etish, davlat hokimiyatining zo'ravonlikka asoslangan barcha turlarini qoralash, siyosiy xilma-xillikni yoqlash kabi ilmiy-metodologik xulosalari va erishgan yutuqlari insoniyat siyosiy tafakkurini yanada boyitishga, uni barcha illatlardan halos etishga qo'shgan ulkan xissasidir.

Tayanch so'zlar.

Dastabki davlatchilik nazariyalari, Sharq uyg'onish davri, XVII-XVIII asr G'arb uyg'onish davri, XIX asr oxiri XX asrdagi ijtimoiy-siyosiy fikrlar, jadidchilik, yangi davrdagi siyosiy qarashlar va oqimlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Xitoyda adolatli jamiyat haqidagi daslabki g'oyalar kim tomonidan yaratilgan?
2. Ahloqiy falsafaga asos solgan qadimgi yunon mutafakkiri kim?
3. Farobiy kim va uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari qanday?
4. Nima uchun IX-XI asrlar Uyg'onish davri deb nom olgan?
5. Nima uchun XV-XVII asr G'arbiy Yevropa uyg'onish davri deb nomlanadi. Ularning o'xshash tomonlari nimada?
6. Amir Temur va uning siyosiy qarashlarini aks ettirgan asar qanday nomlanadi?
7. XIX asr siyosiy qarashlarining rivojlanishida yangi bosqich, uning farqli tomonlari nimada?
8. Jadidchilik – bu qanday harakat?
9. Hozirgi davr siyosiy g'oyalarining o'ziga xos jihatlari nimada?
10. O'tmish siyosiy g'oyalarining O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini kurashdagi ifodasi qanday?

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.:"O'zbekiston",2009.3-35 b.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: "O'zbekiston" 2003. T. 11. 3-55, 214-265 - b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. 32-48-b.
4. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: "O'zbekiston", 2009, 16-78-b.
5. Aliev B, Hoshimov T. Va boshqalar Politologiya, O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. 2006. 21-44 b.
6. Aliev B., A. Boboev. Politologiya fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. -T.: TDIU, 2006, 31-40 b.
7. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: "Fan". 2009, 29-65-betlar.

IKKINCHI BO’LIM. SIYOSIY INSTITUTLAR VA SIYOSIY JARAYONLAR

3-MAVZU. SIYOSIY HAYOT VA JARAYONLAR

3.1. “Siyosiy hayot”, “siyosat” tushunchalari hamda siyosat davlatni boshqarish san’ati ekanligi

Jamiyat siyosiy hayoti – bu davlat hokimiyati, uning funktsiyalari, institutlari, amalga oshirish usullariga taalluqli bo’lgan jamiyat sotsial hayotining o’ziga xos tomondir. U turli sinflar, ijtimoiy guruhlar, partiyalar va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati va manfaatlarini o’z ichiga oladi. Siyosiy hayot ko’p o’lchovli, jo’shqin hamda sotsial makon va zamonda keskin o’zgarib turuvchi siyosiy munosabatlar, institutlar va odamlarning siyosiy ongini rivojlanishi bilan bog’liq murakkab jarayondir.

Bu makon va zamonda turli tashkilotlar, ittifoqlar, qarama-qarshi guruhlar kabi xilma-xil siyosiy kuchlar qatnashadi. Ularning sotsial muammolarini hal etish doirasida o’zaro ta’siri siyosiy hayotni mazmuni, shakli va murakkabliklarini belgilab beradi.

Inson o’z siyosiy huquqlarini siyosiy hayotda ishtirok etishning vazifali shakllaridan foydalanib amalga oshiradi. Jamiyat qanchalik demokratik bo’lsa shaxsning siyosiy hayotdagi ishtiroki shunda xilma-xil bo’ladi.

Siyosiy munosabatlar – bu jamiyatning siyosiy hayoti va uning siyosiy jarayonlarida uzluksiz harakatda bo’lgan siyosat sub’ektlari va ularning ob’ektiga qiladigan ta’sirini ifoda qiluvchi harakatlarning umumiy ifodasi yoki ularning birligidir.

Davlatning jamiyat ichida va xalqaro maydondagi siyosiy yo’li bir sinfning, ijtimoiy guruhning, millatning va qatlamning manfaatlarini ifoda etish va ximoya qilishdir. Natijada bir sinf, ijtimoiy guruh hokimiyatga egalik qiladi. Ular o’rtasida o’ziga xos alohida munosabatlar ya’ni siyosiy munosabatlar, davlat hokimiyati masalalari bilan bog’liq faoliyat paydo bo’ladi. Masalan, Shvetsariyaning qayta ishlash sanoati ishchilari kasaba uyushmalari orqali ayrim tadbirkorlar bilan muzokara olib borib mehnatga soatbay xaq to’lashning juda katta xajmiga

erishganlarida bu iqtisodiy munosabat hisoblanadi. Agar kasaba uyushmalari ishchilar nomidan davlat oldida bu to'lovchi mamlakatdagi hamma qayta ishlash korxonalariga joriy etish tashabbusi bilan chiqsa, davlat hokimiyatidan foydalanib uni qonunlashtirilsa bu endi siyosiy munosabatlar sohasiga kiradi.

Demak, siyosiy munosabatlar ijtimoiy hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, negaki barcha sohalar ijtimoiy boshqaruv va hokimiyat bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Endi e'tiborni siyosat tushunchasini izohlashga qaratamiz. Mashxur nemis sotsiologi Maks Veber "Kim siyosat bilan shug'ullansa, u hokimiyatga intiladi" degan ekan.

Siyosat – xalqaro maydonda keng tarqalgan sermazmun tushunchalardan biri. Hozirda siyosatni aniqlashning o'nlab bir-biridan farqli bo'lsada hanuzgacha fanda xilma-xil tasniflari mavjud. Ushbu kategoriyaning umum e'tirof etilgan ta'rifi yo'q.

Siyosat (grekcha politika) davlat va ijtimoiy ishlar, odamlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar, partiyalar, millatlar va davlatlar o'rtasidagi hukumatli munosabatlar bilan bog'langan faoliyat sohasidir.

M.Veber ushbu tushunchani aniqlashga urinar ekan, siyosat mustaqil boshqarishga asoslangan faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olishini ko'rsatib o'tadi. Davlatning ichki va tashqi siyosati, banklarning valyuta siyosati, kasaba uyushmalari siyosati, madaniy siyosat, byudjet va korporatsiyalar siyosati haqida shunday gapiriladi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Siyosiy hokimiyat sohasi haqida gap ketganda siyosat so'zi tor ma'noli mohiyatni nazarda tutadi. Ta'kidlash lozimki "Siyosat" so'zining kelib chiqishi hokimiyatli sohaga qaratilgan: politika grekcha so'zni anglatib davlatni boshqarish san'ati, davlat va ijtimoiy ishlar ma'nosini anglatadi.

Shuning uchun ham M.Veber siyosatni xoh davlatlar o'rtasida bo'lmasin, xoh davlat ichidagi guruhlar o'rtasida bo'lmasin hokimiyatni taqsimlashga ta'sir ko'rsatish sifatida tasniflaydi..

Boshqacha aytganda, siyosat inson faoliyatining o’ziga xos formasi bo’lib, uning chegarasida odamlar o’zlarining hayotiy muammolarini siyosiy hokimiyat mexanizmi yordamida hal etadilar. Siyosat sub’ekti bo’lib alohida siyosiy yetakchilar va oddiy fuqarolar, shuningdek siyosiy elita, partiyalar, tashkilotlar, institutlar, davlat va xalqaro tashkilotlar bo’lishi mumkin.

Hozirgi zamon jamiyatida muammolarni hal etishda siyosatni yetakchi rol o’ynashi haqida mutafakkirlar o’zlarining asarlarida bir necha bor ta’kidlaganlar. Fransuz filosofi, sotsiolog va politologi Raymon Aronning ta’kidlashicha, siyosat insoniy faoliyatning boshqa turidan shu jumladan iqtisodiyotdan ustunligi shu bilan izohlanadiki, siyosat inson mavjudligining mazmun mohiyatini tashkil etadi.

Angliyalik politolog va sotsiolog Karl Popper o’zining, “Ochik jamiyat va uning dushmanlari” asarida Politologiyani siyosat haqidagi jiddiy fan ekanligini asoslab beradi. Aynan siyosat hozirgi davrda iqtosodiy kuch-qudratni, barcha ijtimoiy, madaniy va harbiy dasturlarni nazorat etadi. Siyosiy hokimiyat va unga xos bo’lgan nazorat uslubi, - deydi K.Pepper, - jamiyat hayotining asosidir. Aynan siyosiy dasturlar jamiyatining iqtisodiy ojiz a’zolarini ximoya qilishga, ekspluatatsiyani cheklash, ishsizlar sonini kamaytirish, milliy madaniyatni qo’llab-quvvatlash, ekologiyani ximoya qilishga qodir.

Shunday qilib siyosat insoniyat yashashi uchun zarur bo’lgan muammolarni hal etishda asosiy rolni o’ynadi. Shuning uchun ham bu tushuncha qanday ilmiy mazmunni o’z ichiga olishini aniqlash zarur.

Hozirgi zamon siyosiy fanida siyosat institutsional, me’yoriy, protsessual darajalarda sharxlanadi. Siyosatning instituttsional o’lchovi asosiy siyosiy institutlar bo’lgan konstitutsiya, hokimiyatni taqsimlash tizimi, huquqiy tartibot saylov va partiyaviy tizim bilan aniqlanadi.

Siyosatning normativ yoki mazmuniy o’lchovi uning maqsad va vazifalariga bog’liq. Hozirgi zamon demokratik davlatlarida siyosiy fikrlar xilma-xilligi sharoitida siyosiy partiyalar ko’pincha qarama-qarshi maqsadlarni qo’zlaydi, qaysiki ixtilofli qarama-qarshi, ko’pqirrali holatga olib keladi.

Siyosat – bu mavjud bo’lgan san’atdir – degan so’zni qachonlardir Bismark payqagan, va bu ibora tezda dunyo bo’ylab qanot bog’lagan. Haqiqatdan ham siyosat qilishi mumkin bo’lmagan xolatda san’at siyosatni o’rnini to’ldiradi: siyosiy kelishuv san’ati, ustamonlik san’ati deganda o’z ifodasini topadi.

Amaliyotdagi siyosatchi o’ylab qo’yilgan siyosiy yo’lni hayotga joriy etish uchun nozik sezgi va yuqori maxoratga ega bo’lish zarur.

Ilmiy adabiyotlarda siyosatning turli jihatlari va uning tarkibiy qismlari ajratiladi. Siyosiy taqsimotining keng bo’lingan ko’rinishlari – bu undagi shaklning mazmun va jarayonning chegaralanganligidir.

Siyosat shakli – bu turg’unlik, barqarorlikni ta’minlovchi va odamlarning siyosiy xulq-atvorini tartibga solishga imkoniyat beradigan, uning tashkiliy tuzilma, institutlaridir.

Siyosat shakli davlatda, partiya va guruhlar manfaatlari shuningdek qonunlarda, siyosiy va huquqiy normalarda mujassamlashadi.

Siyosatning mazmuni uning maqsadi, qadriyatlari va muammolarida ifodalanadi va ular mavzui, tizimi va qabul qilingan qarorlari orqali yechiladi.

Siyosiy jarayonda turli sotsial guruhlar, tashkilotlar va individlar ko’rinishidagi munosabatlarda murakkab, ko’p qirrali va ixtilofli xususiyatga ega bo’lgan siyosiy faoliyat o’z aksini topadi.

Siyosatda asosiy tarkibiy qismlarni ajratib ko’rsatish mumkin.

1. Siyosiy ong, mentalitet, qadriyatli yo’nalish va individlar ko’rsatmasi shuningdek siyosiy qarashlar va nazariyalar;

2. Normativ g’oyalar: dasturlar, siyosiy partiyalarning saylov oldi platformasi, guruh manfaatlarini ifodolovchi maqsadli ko’rsatmalar, siyosiy-huquqiy normalar;

3. Hokimiyat institutlari va uning uchun kurash;

4. Hukmronlik munosabatlari – hukmronlik va bo’ysunish, shuningdek siyosiy kurash va hamkorlik.

Siyosatning tarkibiy qismlari: Siyosiy qarashlar, g’oyalar, nazariyalar, dasturlar, qadriyatli yo’nalishlar, ko’rsatmalar, andozalar va boshqalar, odatlar va

qadriyatlar, xulq-atvor namunalari, jamoatchilik fikri, o’ziga xos siyosiy til, odamlar psixologiyasi, davlat, partiya, guruhlar manfaatlari va harakatlar, qonunlar, inson huquqlari va boshqa huquqiy normalar, siyosiy yetakchilik munosabatlari, elita, guruhlar va hokazolar hisoblanadi.

Siyosatning asosiy qismlari va bo’laklaridan tashqari siyosatga amal qilishning darajalari ko’rsatib o’tiladi.

Misol tariqasida Y.U.Gulanovning siyosatining to’rt darajasiga ega qarashlarini ko’rsatib o’tish mumkin.

1. Quyi daraja mahalliy muammolarni hal etish (uy-joy sharoiti, maktab, jamoatchilik transporti va h.k.). Bu darajadagi siyosiy faoliyat asosan individlar tomonidan amalga oshiriladi, shuningdek bir qism masalalar mahalliy assotsiatsiyalar tomonidan hal etilishi mumkin.

2. Mahalliy daraja davlatning aralashuvi talab etiladi. Aktiv siyosiy faoliyat, guruhlar, assotsiatsiyalar mintaqani iqtisodiy rivojlantirishdan manfaatdor bo’lganlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Milliy daraja siyosat nazariyasida markaziy o’rinlardan birini tashkil etadi va resurslarni taqsimlovchi asosiy institut bo’lgan davlatning mavqei bilan belgilanadi.

4. Xalqaro daraja, unda siyosiy faoliyatning asosiy sub’ekti milliy davlat hisoblanadi.

Siyosatning xususiyati quyidagilardan iborat:

1. U o’zida jo’shqin faollikni saqlaydi. Birinchi navbatda u yoki bu ijtimoiy sub’ektlarning siyosiy e’tiyojlari va manfaatlarini qondirishga yo’naltirilgan siyosiy faoliyatni olib borish sifatida chiqadi.

2. Siyosat qoidaga ko’ra ikki ko’rinishda namoyon bo’ladi. Ob’ektiv va sub’ektiv. Siyosatning ob’ektiv tomoni – bu odamlarning ongi irodasiga bog’liq bo’lmagan siyosiy faoliyat. Siyosatning sub’ektiv tomoni (siyosiy ong) – siyosiy xarakterni kasb etgan nazariyalar yig’indisi, g’oyalar, qarashlar, kontseptsiyalar, nuqtai nazarlar va h.k.

3. Siyosat – bu katta va kichik ijtimoiy guruhlar va siyosiy partiyalar o’rtasidagi munosabatlarni nazarda tutgan faoliyat sohasi. O’z manfaatlarini qondirish maqsadida ular siyosiy hokimiyat, siyosiy huquq va erkinliklar masalasida o’zaro munosabatga kirishadilar. Ushbu munosabatlar doirasida sinflar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar va alohida shaxslarning siyosiy manfaatlari yuzaga keladi. Siyosiy munosabatlarni tartibga solish talab etiladi, busiz siyosiy jarayonlarni, bir butun holda jamiyatni barqaror va izchil rivojlantirish mumkin emas.

4. Siyosatning muhim hususiyatlaridan biri – bu siyosiy hokimiyatni saqlab turish va mustahkamlash, yoki hokimiyatni qo’lga kiritish, hokimiyatli vakolatga ega bo’lish yo’lida siyosat sub’ektlarining faoliyati.

Siyosatning asosiy funktsiyalari:

1. Murakkab sotsial tuzilma bo’lgan jamiyat yaxlitligini ta’minlash va mustaxkamlash, ijtimoiy tartib va uyushqoqlikni ta’minlash. Jamiyat va uning sub’ektlarining maqsadlarini belgilash, ommani va resurslarni maqsadga erishishga safarbar etish;

2. Kamyob qadriyatlar va boyliklarni hamma uchun taqsimlashni majburiy ekanligi;

3. Guruhiy ixtiloflarni bartaraf etish va tartibga solish.

Demak, siyosat deganimizda biz davlat hokimiyati, ishlarida qatnashib, uning faoliyatini yo’naltirib turishga, u yoki bu darajaga ta’sir o’tkaza olish, davlat hokimiyati faoliyatining shakllari, burch-vazifalari va tub mazmunini belgilab berishda u yoki bu tarzda ishtirok etishni anglaymiz.

Siyosat – davlatni boshqarish san’ati. Siyosat turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o’rtasidagi munosabatlar bilan bog’liq. Uning mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi.

Siyosat keng ma’noda jamiyatlarning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning

hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustivor yo’nalishlarini o’zida ifoda etadi.

Shunga ko’ra adolatli va adolatsiz, xolis va noxolis, insonparvar yoki inson manfaatlariga zid, demokratik va avtoritar siyosat ko’rinishlarini boshqaruvda kuzatish mumkin.

Qadimda siyosatga jamiyat va shahar-davlat (polis)ni boshqarish to’g’risidagi fan (Platon va Aristotel) sifatida qaralgan bo’lsa, hozirgi vaqtda siyosat deganda davlatni boshqarishning vazifa va maqsadlari hamda u maqsadlarni amalga oshirish uchun mavjud yoki zarur bo’ladigan ijtimoiy-siyosiy institutlar, jamoat boshqaruvidagi ishtiroki tushiniladi.

3.1-chizma



3.2-chizma



3.2. Siyosiy jarayon tushunchasi, xususiyati va mazmuni. Unda siyosiy institutlarning ishtiroki.

“Siyosiy jarayon” tushunchasi politologiyaga oid adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Bu o’rinda u “Siyosat” kategoriyasi bilan bir ma’noda qo’llansa, boshqa adabiyotlarda siyosiy hayotni xarakterlovchi kategoriya sifatida tahlil etiladi. G’arb politologiyasida siyosiy jarayon individlar, guruhlar, ularning madaniyatlari munosabati tarzida ifodalanadi.

O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasida jarayon tushunchasi biron narsaning rivojlanishida hodisa, harakatlarning birin-ketin almashuvi sifatida talqin etiladi.

Hozirgi vaqtda “Siyosiy jarayon” kategoriyasi ko’proq avtoritorizmdan demokratiyaga o’tayotgan jamiyatlardagi rivojlanish xususiyatlarini aks ettirish uchun qo’llaniladi.

3.3-chizma



Siyosiy hayotning muhim tarkibiy qismi barcha siyosat sub'ektlari faoliyatining yig'indisi – siyosiy jarayondir. Siyosiy jarayonni o'rganish, baholash, tizimini aniqlash uchun xodisalarning qandaydir izchilligini anglash zarur. Xodisalar qismlarining bog'lanish tartibini, bir-biriga o'xshash vaziyatlarni farqlash, vaziyatni (hamkorlik, kelishuv, konflikt, kurash va h.k.) bilish zarur.

3.4-chizma



Yagona siyosiy jarayon quyidagi bosqichga bo’linadi:

1. Siyosiy tizimning qonuniylashuvi bir vaqtda va doimiy bo’lib, amalga oshish vazifalari, usullari ko’pdir. Siyosiy tizimni tan olish jarayoni faol yoki passiv, ochiq va yashirin, ixtiyoriy va majburiy, anglangan va anglanmagan bo’lishi mumkin.

2. Siyosiy tizim belgilari va tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish – tizimning qaror topgan unsurlarini takrorlash, ularning shaklan o’zgarishi va Yangilanishi. Bunda vorislik bilan birga Yangi xususiyatlar ham bo’ladi.

3. Siyosiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish – qayta ishlab chiqarish dastagining ichki tomoni.

4. Siyosiy tizim rivojining yo’nalishi va amalga oshishini nazorat qilish – nazorat ilgari o’zlashtirilgan shakllar (saylovlar, referendum xisobot, normativ hujjatlar) yordamida amalga oshadi.

Siyosiy jarayonlar – jamiyat siyosiy hayotining barcha sohalarida ro’y beradigan voqea-xodisalar va o’zgarishlarning birligidan iborat. Bu birlik siyosiy munosabatlar va ularning borishini ham o’zida ifoda etadi. Davlatlarning ichki hayoti va xalqaro siyosiy munosabatlarning kechishi va siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Siyosiy jarayon tushunchasi siyosiy munosabatlar tushunchasiga qaraganda mazmunan keng ma’noga ega. Agar siyosiy munosabatlar tushunchasi turli sub’ektlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni ifodalansa, siyosiy jarayonlar esa, ham sub’ekt, ham ob’ekt o’rtasidagi munosabatlar va ularning har birida ro’y beradigan o’zgarishlar tushuniladi. Ammo, bunda siyosiy jarayonlar tushunchasining ta’sir kuchini cheklab qo’yish mumkin emas, u jamiyatning iqtisodiy, madaniy va sotsial hayot sohalari bilan bog’liq ravishda rivojlanib boradi. Siyosiy jarayonlarda bo’ladigan o’zgarishlar jamiyat hayotining boshqa sohalarida ro’y beradigan o’zgarishlarga u yoki bu darajada sabab bo’ladi. Masalan, siyosiy tizimning isloh qilinishi jamiyat hayotining boshqa sohalarida biron-bir darajadagi o’zgarishlarning ro’y berishiga sabab bo’ladi. Biron-bir mamlakatda siyosiy hokimiyatning almashinishi shu mamlakatning ijtimoiy hayotida amalda bo’lgan tartiblarning o’zgarishiga olib keladi. Yangi hokimiyat mamlakatning siyosiy yo’lini o’zgartirish, mavjud muammolarning yangicha usullar yordamida hal etishga harakat qiladi.

Jamiyat hayotida siyosiy jarayonlar qanday kechganligi masalasi mutafakkirlarni doimo qiziqtirib kelgan. Arastu o’zining “Politiya” asarida quldorlik jamiyatining siyosiy tuzilishi, unda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning tashkil topish xususiyatlari, xususan, davlat tuzilishi va uning shakllariga doir masalalarni tahlil qilib bergan.

O’rta asr mutafakkirlarining siyosiy qarashlarida ham o’z davrida siyosiy jarayonlar qanday kechganligi haqida fikr bildirganlar. Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida markazlashgan davlat qanday qilib tashkil topgani, unda boshqarish ishlari amalga oshirilganligi, mamlakatni boshqarish kabi ko’plab tadbirlar haqida qiziqarli ma’lumotlar bor.

Siyosiy jarayonlar har bir mamlakatning ichki siyosiy hayotida hamda xalqaro maydonda ro’y beradigan o’zgarishlarni aks ettiradi.

Siyosiy jarayonlar har bir mamlakatda o’ziga xos xususiyatlar asosida namoyon bo’ladi. Ammo bu degani bir mamlakatda davom etayotgan siyosiy jarayon boshqa mamlakatlardagidan batamom farq qiladi degan ma’noni

anglamay. Bir mamlakatda ro’y beradigan siyosiy o’zgarishlar dunyoning boshqa mamlakatlarida ham bo’lishi tabiiy. Masalan, hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida demokratiyalash jarayonining davom etishi, ularning ijtimoiy hayotida ko’p partiyaviylik tizimning qaror topganligi dunyoning boshqa mamlakatlarida bundan bir necha o’n yillar avval ro’y bergan, bu uning umumiy tomoni hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlarning bosh manbai va yetakchi kuchi xalq ommasining onli faoliyatidir. Agar kishilar jamiyatning siyosiy hayotida faol ishtirok etmasalar siyosiy jarayonning kechishi sustlashadi, siyosiy tashkilotning har qanday faoliyati o’zining samarali natijalarini bermaydi.

Jamiyatdagi ijtimoiy o’zgarishlar o’z-o’zidan yuzaga kelmaydi, u odamlar tomonidan maqsadga muvofiq ravishda tayyorlanadi, ammo jamiyat maqsad qilib unga intilayotgan har bir yangilikni yaratish uchun doimo inson tomonidan ishlab chiqarilishi, qilinishi, ixtiro etilishi, ochilishi, o’ylanishi va aytilishi kerak. Qayta kurish talab etilganidek, xalqning ijtimoiy tashabbusini yuqori darajaga olib chiqish uchun har bir fuqaro zarur yangilikni bilishi kerak yoki javobgarlikni xis etgan holda harakat qilishi uchun amal qilayotgan qafolatlarni kengaytirish, bunday imkoniyatlar, odatda inson huquqlarining mohiyatini tashkil etadi.

Siyosiy jarayonlarning borligini, uning darajasini belgilab beradigan yetakchi kuch siyosatning xilma-xil sub’ektlaridir. Siyosiy jarayonlarda siyosat sub’ektining faoliyat ko’rsatishi har bir mamlakatning siyosiy tuzumi uning tarixiy-milliy sharoitlariga ko’ra turlicha darajada bo’ladi.

Masalan, dunyoning ayrim mamlakatlarida siyosiy partiyalar va harakatlarning jamiyatning siyosiy hayotidagi mavqei kuchli bo’lsa, ba’zilarida esa sust bo’ladi. Huddi shunday holat davlatga ham tegishli. Lekin shunga qaramay davlat hamma mamlakatlarda yetakchi siyosiy kuch sifatida faoliyat ko’rsatadi.

3.3. Siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni.

Siyosiy jarayonlarda ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlari ham faol qatnashadilar. Jamiyat siyosiy hayotida bu tashkilotlar u yoki bu darajada faollik ko'rsatadilar.

Dunyoning barcha mamlakatlarida siyosiy partiyalar, ijtimoiy va ommaviy tashkilotlar, nodavlat, notijorat tashkilotlarining jamiyat siyosiy hayotidagi roli turlichadir.

Siyosiy qaror – hokimiyat amal qilishi bilan bog'liq vazifalar, bosqichlar, vositalarni belgilab beruvchi jarayon. Siyosiy hokimiyatning xususiyati shundaki, unda siyosiy talab aniq ifodalanmagan bo'lsa va shu talabni ifodalovchi sub'ektlar doimiy tazyiqi sezilmasa, tizim bunday talab va ehtiyojlar jamiyat hayoti uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lsa ham javob bermaydi. SHuning uchun turli darajadagi siyosiy jarayonlar ishtirokchilarning bosh vazifasi – o'z manfaatlari va talablarini davlat hokimiyati ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga aylantirish texnologiyasidir. Siyosiy qarorlarni qabul qilishning 3 bosqichi mavjud:

1) Tayyorgarlik bosqichi (xalq ommasi faol ishtirok etadi).
2) Qarorlarni qabul qilish bosqichi (dalat, uning organlari, partiyalar).
3) Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bosqichi.

Ikkinchi bosqichdagi siyosiy qarorlarni qabul qilishning bir necha usullari mavjud:

1) Kompromiss – o'zaro yonbosishlar natijasida erishilgan bitm.
2) Konsensus (kelishuv) – qaror ovoz berish yo'li bilan emas, kelishuv yo'li orqali qabul qilinadi.
3) Ustunlik – siyosatda biror siyosiy kuch yoki davlatning boshqa kuch yoki davlatlarga nisbatan mavqeini egallashi.

Uchinchi bosqichda hokimiyat qabul qilgan qarorlarni hayotga tatbiq etadi. Bu qarorlar siyosatning barcha sub'ektlarini qoniqtirmaydi, lekin ularning amal qila boshlashini ta'minlash zarur.

Siyosiy ishtirok – ijtimoiyg'siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligi.

Siyosiy ishtirok: 1) to’g’ridang’to’g’ri (bevosita) va bilvositaamalga oshirilishi mumkin; 2) umumiy va cheklangan; 3) ixtiyoriy va majburiy; 4) an’anaviy, faol va passiv; 5) legitim va kolegitim; 6) qonuniy va qonunga xilof bo’lishi mumkin.

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha:

1) Axborot qilish va uzatish.

2) Siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqat.

3) Saylov va boshqa siyosiy kompaniyalarda ishtirok.

4) Namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlari va inqiloblari.

5) Boshqaruv va o’z o’zini boshqaruvda.

6) Qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilish.

7) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy siyosiy harakatlar faoliyatida ishtirok etish kiradi.

Siyosiy ishtirok quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) turli manfaatlar, talablar, umidlarni ifodalash, muvofiqlashtirish, amalga oshirish;

2) siyosatchilar va boshqaruv apparati hodimlarini tanlash va ular faoliyatini nazorat qilish;

3) boshqaruvga doir qarorlar va siyosat yo’nalishini belgilashga aholini jalb etish;

4) siyosiy ijtimoiylashuv;

5) ixtiloflarning oldini olish va bartaraf etish;

6) byurakratiya bilan kurashish, fuqarolarni siyosat va boshqaruvdan begonalashuviga qarshi kurashish.

Qarorlarni amalga oshirishning bir necha asosiy turlari mavjud:

1. Populizm (jamoatchilik fikriga to’g’ridan – to’g’ri murojat qilish).

2. Elitizm (elektrot bilan munosabatlarni vositachi shakllarda rag’batlantirish).

3. Konservatizm (boshqaruvning eski an’anaviy usullarini saqlab qolish).

4. Demokratizm (xalq, elita, fuqaro fikrlari asosida boshqarish).
5. Radikalizm (ahvolni tubdan o’zgartirish, istaklarni hisobga olish).

Hozirgi zamon politologlari va sotsiologlari A.Takvil qoldirgan merosdan kelib chiqib, AQSh va Yevropadagi siyosiy tashkilotlar tabiatidagi farqlanishlarni ko’rsatar ekanlar, turli mamlakatlar va mintaqalar fuqarolari ixtiyoriy tashkilotlar faoliyatiga turlicha tarzda jalb qilinishini ta’kidlamoqdalar. Masalan, AQShda ularni “ishtirokchilar millati” deb atasalar, ba’zi Yevropa mamlakatlarida (misol uchun, Frantsiya va Italiyada) xususan Yaponiyada nodavlat tashkilotlarga fuqarolarni jalb qilinish qo’lami ancha torligi sezilmoqda.

Bu xolat mazkur mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari bir qadar cheklanganligi natijasida sodir bo’lmoqda. Masalan, Italiyada fuqarolar uyushmalari faoliyat ko’rsatadigan huquqiy kengliklarning noizchilligi sezilmoqda. Binobarin, fuqarolarning ixtiyoriy tashkilotlari jamiyatning samarali omillari bo’lishi uchun davlat tomonidan har tomonlama qo’llabg’quvvatlanmaganligi bois ixtiyoriy uyushmalar o’z zimmalariga mas’uliyatni olmayaptilar. Oqibatda davlat an’anaviy tarzda hokimiyatning barcha jabhalarida ustivor o’rinni egallamoqda.

Lekin Yaponiyada keyingi o’n yillikda nodavlat tashkilotlarini rivojlantirishga muhim ahamiyat berildi. Ayniqsa xayriya tashkilotlari uyushmasini tashkil etilishi bilan mamlakatda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishda yangi imkoniyatlar barpo etildi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida siyosiy partiyalar, ijtimoiy va ommaviy tashkilotlar, nodavlat, notijorat tashkilotlarining jamiyat siyosiy hayotidagi roli turlichadir.

Hozirgi zamon politologlari va sotsiologlari A.Takvil qoldirgan merosdan kelib chiqib, AQSh va Yevropadagi siyosiy tashkilotlar tabiatidagi farqlanishlarni ko’rsatar ekanlar, turli mamlakatlar va mintaqalar fuqarolari ixtiyoriy tashkilotlar faoliyatiga turlicha tarzda jalb qilinishini ta’kidlamoqdalar. Masalan, AQShda ularni “ishtirokchilar millati” deb atasalar, ba’zi Yevropa mamlakatlarida (misol

uchun, Frantsiya va Italiyada) xususan Yaponiyada nodavlat tashkilotlarga fuqarolarni jalb qilinish qo'lami ancha torligi sezilmoqda.

Bu xolat mazkur mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari bir qadar cheklanganligi natijasida sodir bo'lmoqda. Masalan, Italiyada fuqarolar uyushmalari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy kengliklarning noizchilligi sezilmoqda. Binobarin, fuqarolarning ixtiyoriy tashkilotlari jamiyatning samarali omillari bo'lishi uchun davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanmaganligi bois ixtiyoriy uyushmalar o'z zimmalariga mas'uliyatni olmayaptilar. Oqibatda davlat an'anaviy tarzda hokimiyatning barcha jabhalarida ustivor o'rinni egallamoqda.

Lekin Yaponiyada keyingi o'n yillikda nodavlat tashkilotlarini rivojlantirishga muhim ahamiyat berildi. Ayniqsa xayriya tashkilotlari uyushmasini tashkil etilishi bilan mamlakatda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishda yangi imkoniyatlar barpo etildi.

3.4. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlarning o'ziga xosligi

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, siyosiy jarayonlarning asosiy yetakchi kuchi, xalq ommasining siyosiy ongining yetukligi, ijtimoiy va ommaviy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, nodavlat, notijorat tashkilotlarining aktiv harakati, davlatning islohatchilik roli va faol siyosat olib borishi bilan harakterlanadi.

Jamiyatni yangilash barcha imkoniyatlardan to'la foydalanish, mamlakat ichidagi barcha zaxiralarni ishga solish orqaligina erishiladi, hal qiluvchi zaxira odamning o'zida joylashgan bo'lib, uning ongliligi, saranjom-sarishta va tashabbuskorligi, o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishiga qobilligi, intizom talablarini vijdonan bajarilishi eng asosiy hisoblanadi. Xalqning o'z-o'zini boshqarishni chuqurlashtirishga qarata yo'l tutish demokratiyani faollashtiradi. O'z-o'zini boshqarish – bu o'z-o'zini ifodalashning yangi formalarini muntazam ishlash jarayonidir. Shu sharoitda odamlarning ongi va irodasini tarbiyalash, uning tabiiy iste'dodini silliqlashtirishi, aql-zakovatini rivojlantirish uchun yo'l ochishi lozim. Fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash va rivojlantirish sohasida qilinayotgan ishlar jamiyatni yangilash, siyosiy va huquqiy tizimni

rivojlantirish zarur. Siyosiy huquq va erkinliklar tizimini kuchaytirish demokratizimning muhim jihati hisoblanadi va bu faqat ichki nuqtai nazaridangina emas, shuningdek tashqi jihatdan ham bizning munosabatlarimizning shakllanishiga, davlatimizning xalqaro maydonda obro’-e’tiborining ortishiga ham xizmat qiladi.

Hozirda mehnatkashlarning siyosiy faolligi oshganligi, ular siyosiy etuk, tajribali, tashabbuskor bo’lib qolganliklari mustaqillik bergan buyuk ne’mat deb qarash mumkin. Ko’p odamlar hozirgi vaqtda, demokratiya va oshkoralik sharoitida o’zining shaxsiy qobiliyat boyligiga ega bo’lsa siyosatda to’g’ri qarorlarni topish qanchalik oson ekanligini, bunday qaror qilish uchun bilim va yuqori madaniyatni egallash kerak ekanligini, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohatlarni amalga oshirishda hamma fuqarolar zimmasiga katta mas’uliyat yuksalganligini xis etmoqdalar.

Davlat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida fuqarolarning ijtimoiy birlashmalari – jamoat tashkilotlarining roli katta. Ommaviy tashkilotlar xatti-harakatlari qanchalik faol va ta’sirgan bo’lsa, jamiyat a’zolarining, fuqarolarning islohatlar jarayonidagi bevosita ishtiroki ham shuncha ortadi.

Shu boisdan nohukumat tashkilotlarini O’zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi tamoyillariga mos ravishda yanada takomillashtirish, ularning islohatlardagi va umummilliy masalalarni hal etishdagi, fuqarolarning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishdagi ishtirokini kuchaytirish ustivor vazifa hisoblanadi.

O’zbekistondagi mavjud ommaviy tashkilotlar faoliyat qo’lami va yo’nalishiga ko’ra jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. (Xayriya, ijtimoiy-iqtisodiy, inson huquqlari himoyasi, sport, ekologiya, madaniy-ma’rifiy, kasaba uyushmalari va boshaqalar).

Jamoat tashkilotlari o’z maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda respublikada o’tkazilayotgan keng qo’lamli islohatlarga munosib xissa qo’shib kelmoqdalar. Masalan: atrof-muhit muxofazasida “Ekosan”, extiyojmand kishilarga va nogironlarga ijtimoiy yordam ko’rsatishda “Navro’z” jamg’armasi,

onalik va bolalikni muxofaza qilish, xotin-qizlar jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga xotin-qizlar qo’mitalari, mehnatkashlarning qonuniy manfaatlarini ifoda etishda kasaba uyushmalari, iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlashda “Iste’dod” jamg’armasi faoliyatini alohida ta’kidlab o’tish mumkin.

Aholining siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy jarayonlarga jo’shqinlikni bahshida etish, jamiyatda ko’p partiyaviylik tizimini shakllantirish va uning faoliyatini chuqurlashtirish bilan ham belgilanadi. Ayni paytda mamlakatimizda “Jamoat birlashmalari to’g’risida”, “Siyosiy partiyalar to’g’risida” qonunlar amal qilmoqda. Hozir ana shu qonunlar doirasida mamlakatimizda to’rtta siyosiy partiya, xalq birligi harakati, kasaba uyushmalari, jami ikki yuzdan ortiq jamoat tashkilotlari faoliyat ko’rsatmoqda.

Prezident va Oliy Majlis quyi va yuqori palatalari uchun o’tkazilgan saylovlarning nechog’lik yuksak saviyada o’tkazilganligi demokratik tamoyillar hayotimizga qanchalik kirib kelyotganligi, aholining siyosiy saviyasi nechog’lik yuksalayotganligini butun dunyoga namoyish etdi.

Hech shubha yo’qki jamiyatimiz taraqqiyotining bundan buyongi bosqichida demokratiya yanada chuqurlashadi, fuqarolarning ijtimoiy ongi teranlashadi. Joylarda mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari ishi bevosita barcha fuqarolarning ishtiroki asosida takomillashib boraveradi. Natijada fuqaro va jamiyat o’rtasidagi bog’liqlik kuchayadi. Odamlar o’zlarini jamiyatning muhim, yo’naltiruvchi kuchi ekanligini chuqurroq anglay boshlaydilar. Ularning dunyoqarashi, maqsad va intilishlari bevosita jamiyat istiqbolini belgilaydi. Uning kelajagidan bashorat beradi. Ana shu qarashlardan kelib chiqib Prezident I.A.Karimov O’zbekistonda islohatlar muqarrar tus olganligini, endi ularni ortga qaytarib bo’lmasligini qat’iy ishonch bilan aytadi. “Eng asosiysi va eng muhimi, yurtimizda yashayotgan odamlar, ularning tafakkuri, hayotga, o’z atrofida yuz berayotgan barcha voqealarga bo’lgan munosabati o’zgarmoqda. Avvalambor, kishilarning ongini, hayot tarzini shakllantiradigan ijtimioy munosabatlar butunlay yangicha ma’no-mazmun kasb etmoqda.

Mulkdor va tadbirkorlarning, kichik va o’rta biznes egalarining nufuzi va ta’siri kun sayin ortmoqda”.[1]

Demak, O’zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayon siyosiy munosabatlar sub’ektlari barcha faoliyatining yig’indisi, siyosiy tizimni shakllanishi, o’zgarishi, yangilanishi kabi jarayonlarni o’z ichiga olgan holda chuqurlashib bormoqda.

Qisqacha xulosalar.

Siyosiy hayot ijtimoiy-siyosiy manfaatlarni amalga oshirish bilan bog’liq barcha jarayonlarni o’z ichiga oladi. Siyosiy munosabatlar, ya’ni kishilar, ularning birliklari, tashkilot va birlashmalari o’rtasidagi hokimiyat va ijtimoiy boshqarish bilan bog’liq munosabatlar siyosiy hayotning mohiyatini tashkil qiladi.

Siyosiy munosabatlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, negaki barcha sohalar ijtimoiy boshqaruv va hokimiyat bilan o’zaro ta’sirda bo’ladi. Demak siyosiy hayot siyosiy munosabatlarning jami ekan, kompleks, ko’p tomonlama tushuncha sifatida ko’p unsurlarni o’zida birlashtiradi.

Siyosatning o’nlab talqinlari bo’lib, eng umumiy tarzda kishilar va ular guruhlarining manfaatlari asosida hokimiyatga yondashuv, jamiyat uchun majburiy qarorlarni ishlab chiqish uchun kurash va uni amalga oshirish jarayoni deyish mumkin.

Siyosiy jarayonlar jamiyat siyosiy hayotining barcha sohalarida ro’y beradigan voqea-xodisalar va o’zgarishlarning birligidan iborat.

Demokratik jarayonlarni hayotga joriy etilishida davlatning islohatchilik roli siyosiy jarayonlarning xususiyatlaridan biridir. Hozirda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o’tish jarayoni jadallashmoqda.

Tayanch so’zlar.

Siyosat, siyosiy hayot, siyosiy munosabatlar, siyosat sub’ekti, siyosat ob’ekti, siyosat turlari, siyosat yuritish vositalari, usullari, siyosiy jarayon, siyosiy jarayon bosqichlari, siyosiy jarayon sub’ektlari.

[1] Karimov I.A.. O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari -T.: “O’zbekiston”, 2002. 78-b.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Fan va san’at sifatida siyosatning ahamiyati nimada?
2. Nima uchun siyosatni imkoniyatlar san’ati deb ataydilar?
3. Hozirda siyosiy munosabatlarning asosiy ishtirokchilari kimlar?
4. Siyosiy hayot nima, uning o’ziga xos mohiyati va ahamiyati nimada?
5. Siyosiy jarayon nima, siz uni qanday izoxlaysiz?
6. Siyosiy jarayon va siyosiy tizim o’rtasida qanday farq bor?
7. Siyosatning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o’rni qanday?
8. O’zbekistonda siyosiy jarayonlar qanday kechmoqda, uning o’ziga xos xususiyatlari nimada deb hisoblaysiz?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O’zbekiston”, 2009. 3-35 b.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalash va Yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.–T.: “O’zbekiston”, 2005. 96 -b.
3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. “Xalq so’zi”, 2008 yil 6 dekabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. 171-173-b.
5. Odilqoriev X.T., Razzaqov D.X.. Siyosatshunoslik. “O’qituvchi” nashriyoti. – T.: 2005. 106-130-b.
6. Smirnov G.N. va boshqalar. Politologiya. M. 2006, 153-167-b.
7. Aliev B., Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya o’quv qo’llanma. – T.: 2006,114-139 b.
8. Aliev B., Boboev A. “Politologiya” fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. – T.: TDIU, 2006. 81-87 b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 66-83-b.

4-MAVZU: SIYOSIY TIZIM

4.1. Siyosiy tizim tushunchasi. Siyosiy tizim elementlari.

Jamiyat siyosiy tizimi xilma-xil ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etib, ular bevosita yoki o'zlarining tashkilotlari orqali siyosiy hokimiyatga ta'sir ko'rsatadi. Bu manfaatlar e'tirof etilsa siyosiy-boshqaruv tuzilmasi yordamida siyosiy jarayonlar orqali, siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish ro'yobga chiqarildi.

Siyosiy tizimning ahamiyati, uni o'rganishning maqsadga muvofiqligi shundan iboratki, bu erda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining tomiri joylashgan bo'lib, aynan shu erda turli ijtimoiy kuchlarning to'qnashuvi va o'zaro kelishuvi orqali jamiyat hayotining hamma sohalariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qarorlar qabul qilinadi.

Siyosiy tizim o'zida zaruriy mehanizmni ifoda etib, faqat uning yordamida xalqning suvereniteti va xalq hokimiyatchiligi amalga oshiriladi. Ayrim hollarda amaliyotda xalq vakolatligi funktsiyasini ayrim siyosiy guruhlar yoki arboblar, partiyalar va harakatlar o'zlashtiradilar. Bu holda hokimiyat xaqiqiy egalaridan begonalashadi. Turli tashkilotlarni, munosabat va qoidalarni anglab etish orqali demokratik boshqaruvning ta'minlanishi muhim nazariy va siyosiy ahamiyatga ega.

Har qanday jamiyatning siyosiy tizimi ma'lum dastakning mavjudligi bilan xarakterlanib, u barqarorlik va hayotiylikni bag'ishlaydi. Ushbu dastaklar yordamida ijtimoiy ziddiyatlar va ixtiloflar bartaraf etiladi, turli ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar va harakatlar intilishlari muvofiqlashtiriladi, ijtimoiy munosabatlar uyg'unlashtiriladi, asosiy qadriyatlar, maqsad va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarida kelishuvga erishiladi.

Ushbu dastakka suyangan holda jamiyat yoki hukmron elita yot ijtimoiy kuchlarga qarshilik ko'rsatadi, ijtimoiy tuzum asoslari va prinsiplariga qarshi xujumlarini bartaraf etadi. Shuning uchun siyosiy savodxon, ijtimoiy faol shaxs jamiyat siyosiy tizimi nimani anglatadi va qanday amal qiladi, uning tashqi

bo’laklari va yashirin alomatlari qanday ekanligini, uning jo’shqinligiga ta’sir ko’rsatuvchi xaqiqiy omillar nimalardan iborat ekanligini bilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat siyosiy tizimi – bu davlatni boshqarish dastagi bo’lib, uning yordamida ma’lum bir sinf, ijtimoiy guruh-qatlam, millatning manfaatlarini ro’yobga chiqarish maqsadida siyosiy hokimiyat amalga oshiriladi.

U davlat muassasalari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar, ularning jamiyat bilan qaror topgan faoliyat mexanizmlari, o’zaro ta’siri va aloqasi haqidagi murakkab munosabatlar majmuasidir.

Siyosiy tizimning alomatlari. Siyosiy tizim – bu qoidalar, qadriyatlar, institutlar, tashkilotlarning amal qilishi va siyosiy hokimiyatni qo’llash bilan bog’liq munosabatlar yig’indisidir.

Siyosiy tizimni shakllantirish siyosiy munosabatlar orqali qator muhim funktsiyalarni o’zlashtirish bilan bog’liq.

Birinchidan, siyosiy hayot turli bo’laklarining barqaror bir-biriga bog’liqligi. Agar bunday o’zaro bog’liqlik bo’lmas ekan qarama-qarshi vaziyat yuzaga kelishiga jamiyatni tarkibiy qismlarga ajratishiga olib keladi.

Ikkinchidan, siyosiy munosabatlarni tartibga solinganligi, barqarorlik va rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan eng maqbul vaziyatning mavjudligi.

Uchinchidan, siyosiy tizim madaniy asosga ega: bu qadriyatlar birligi, siyosiy ramzlar majmui, e’tiqod, siyosiy birlik tomonidan qabul qilingan qoidalar.

To’rtinchidan, siyosiy sistema va uning barcha elementlariga bir vaqtda munosabat bildirish. U yoki bu muammoni tezlikda birgalikda hal qilishga yordam beradi.

Siyosiy tizimning tuzilishi:

- Institutsiyaviy – uni davlat, siyosiy tashkilotlar va ular o’rtasidagi munosabatlar tashkil etadi.
- Tartibga soluvchi – bu sohaga xos bo’lgan siyosiy va boshqa qoida, an’analar kiradi.
- Amal qilish – Siyosiy faoliyat usullari, siyosatda qo’yilgan maqsadga erishish.

- Ma’naviy – siyosiy ongning asosiy bo’laklari tashkil etadi: Mafkura va psixologiya.

Siyosiy tizimning funktsiyalari. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatni integratsiyalash, uning tuzilmalarini tashkil etgan turli tarkibiy qismlari o’zaro aloqa va birlikni ta’minlash.
- Siyosiy jarayonlarni tartibga solish.

Adabiyotlarda yana shunday funksiyalar ko’rsatiladi: ijtimoiy zaxiralarni ishga solish, hokimiyatni legitimlashtirish, siyosiy rahbar bilan ifodalash, odamlarning siyosatdagi faoliyatini shakllantirishga qaratilgan ishorlar, qoidalar, ramzlar va h.k.

Siyosiy tizimning samaradorligi. Samarali faoliyat ko’rsatayotgan siyosiy hokimiyat siyosiy tizimning barqaror rivojlanishini ta’minlashi kerak. Bunday vaziyatni bo’lmasligi siyosiy tizimda ko’plab noxush holatlarni keltirib chiqaradi. Siyosiy tizimning samarali faoliyatini ta’minlovchi omillar.

- Harakat dasturini aniqlashga hizmat qiladigan axborotning to’la va sifatli ekanligi.
- Tizimning tashqi muhitga ta’sirining tezkorligi. Unga o’z vaqtida va tezkor javob bermaslik uning samaradorligini pasaytiradi, inqirozli holatning yuzaga kelish alomatlarini anglatadi.
- Jamoaviy faoliyat natijasi, hamda ilgari surilgan maqsad o’rtasida farq qancha oz bo’lsa, demak siyosiy tizim shunchalar samarali harakat qiladi.

Siyosiy tizim turlari. Siyosiy tizimning xilma-xil turlari haqida gapirish mumkin. Albatta siyosiy hayotni tashkil etish usullari o’rtasida farq bo’lganidek siyosiy tizimni turlari ham xilma-xil bo’ladi. Boshqaruv usulidagi xokimlikka va siyosiy qarama-qarshiliklarni hal etishga qarab ularni quyidagilarga bo’lish mumkin.

- hukmronlik, majburlash, kuch ishlitishga yo’naltirilgan boshqaruv.
- musobaqali, turli siyosiy va ijtimoiy kuchlarning qarama-qarshi turishi va qarshilik ko’rsatish uchun asos bo’lgan yetakchilikning mavjudligi.

- sotsial murosasozlik, sotsial kelishuv va ihtiloflarni bartaraf etishga yo'naltirilgan.

- ibtidoiy (rollarning va patriarhal madaniyatning eng kam darajalash).

- an'anaviy (yuqori bo'lmagan hukumatli tabaqalash va feodal davlatlariga xos sust fuqarolik madaniyati).

- zamonaviy (davlat infra tuzilmasi va nodavlat institutlarning hamda siyosatda qatnashuvning tabaqalashtirilganligi).

Siyosiy tartibot – siyosiy tizimni amal qilish va rivojlanishni ta'minlovchi sharoitlar majmuasi:

- uning asosiy vazifasi va qadriyatlarini izchillik bilan amalga oshirilishi.

- boshqaruv tizimi bo'laklarining uyg'unlikdagi harakati.

- xavfsizlik barcha jihatlarining samarali kafolati va saqlab turishning vositalari: harbiy, huquqiy, ekalogik, texnologik, iqtisodiy.

- favqulodda vaziyatda jamiyatni yuqori darajadagi mustaqilligini ta'minlash.

Siyosiy taraqqiyot. Siyosiy tizimga berilgan ob'ektiv bahoning mezoni ikkiga bo'linadi: ichki va tashqi.

- Siyosiy munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'lmagan, ammo uning mezonlarini, samaradorligini, siyosiy tizim hayotining davomiyligini, moddiy farovonlik, iqtisodiy o'sish, tengsizlik darajasini ko'rsatuvchi omillar.

Siyosiy tizim rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi ichki hollar:

Birinchidan, siyosiy tizimning tuzilmaviy darajasi, funktsiyalarining xilma-xilligi.

Ikkinchidan, siyosiy faoliyatni rag'batlantirishning xarakteri.

Uchinchidan, xususiy holatni ko'r-ko'rona emas balki aniq, tanqidiy baholashga qaratilgan qobiliyat.

To'rtinchidan, siyosiy funktsiyalarni amalga oshuvining ratsionallashuvi, bilimlar rolini ortishi.

Siyosiy tizimning rivojlanish qonunlari – bu jamiyat hayotining turli bosqichlarida siyosiy voqelik jo’shqinligini va mohiyatli birligini xarakterlovchi ob’ektiv, barqaror, takrorlanuvchi aloqalardir.

Fan tomonidan ishlab chiqilgan umumiy mezonlar siyosiy qonunlarni turkumlarga ajratish imkonini beradi. Shunga binoan quyidagi qonunlarni ajratib ko’rsatish mumkin. Bular, umum tarixiy qonuniyatlar insoniyat siyosiy tarixi chegarasida amal qilib siyosiy harakat shakllarining o’tmishi, hoziri va kelajagini ifodalaydi.

2. Formatsiyalararo qonuniyatlar bir yoki bir nechta formatsiyalarga xos. Masalan, siyosiy tizimning hamma shakllariga sotsial sinfiy, milliy, irqiy to’qnashuvlar va bir turdagi tizimdan boshqasiga sotsial revolyutsiyalar orqali o’tishga xos.

3. Bir ijtimoiy – iqtisodiy formatsiya doirasida amal qiluvchi qonuniyatlar – bir turdagi barqaror aloqaga ega siyosiy tizim.

4. Planetar xarakterga ega bo’lgan siyosiy tizimlar. Ma’lum tarixiy vaqt oralig’iga tegishli. Masalan, yadroviy xavf mavjud bo’lgan davrda ikki qarama-qarshi siyosiy tizimlarning tinch-totuv yashash siyosati va boshqalar.

Mustaqil O’zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov o’zining “O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li” asarida uqtirib o’tganidek 1991 yil 31 avgustda yurtimiz mustaqil davlat deb e’lon qilindi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi mustaqil davlat hokimiyatining amaliyoti huquqiy-qonuniy asoslarini o’zida mujassamlashtirdi.

Milliy davlat mustaqilligi e’lon qilingandan buyon o’tgan vaqt ichida o’zbek milliy davlatchiligining shakllanib qaror topish jarayonlari tez samarali sodir bo’lib bormoqda.

Davlat hokimiyati tizimlarini yangilab ishga solish, bosqichma-bosqich eski ma’muriy buyruqbozlik davlat hokimiyati tizimlarini xalq hokimiyatchiligi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tish jarayonlari bilan xamoxang tarzda qayta qurib, zamonaviy, davr talablariga, mustaqil siyosiy faoliyat olib borish va mustaqil

siyosat yuritish aqidalariga javob bera oladigan, yangi davlat hokimiyati tizimlari – siyosiy boshqaruv muassasalari va idoralari yaratila boshlandi.

Konstitutsiyada aks ettirilganidek, O'zbekiston Prezidentlik Respublikasi ko'rinishidagi davlat hokimiyati tizimiga ega bo'ldi. Unda Prezident davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi shaxobchasi – Oliy Majlis tomonidan tayinlanmay, balki umumiy teng, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylab qo'yilishi belgilandi. Shuning uchun ham O'zbekiston davlat hokimiyati tizimini kuchli prezidentlik respublikasi turiga mansub deb ta'riflanadi. Zero unda Prezident Oliy Majlisdan mustaqil maqomga ega bo'lib, ham davlat boshlig'i, ham ijro etuvchi hukumat rahbari lavozimlari faoliyatini birlashtirib turadi.

Yangi qonun chiqaruvchi davlat hokimiyati Oliy Majlis tarkibiga yangi Konstitutsiya asosida o'tkazilgan demokratik saylovlar birinchi bor ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazildi. Bu O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat hokimiyatini vujudga keltirish yo'lida siyosiy faoliyatning eng salmoqli, eng ahamiyatli natijasi bo'ldi, chunki parlament faoliyati vositasida tubdan yangilangan davlat hokimiyati tarmoqlarini siyosiy boshqarish tamoyillari va yo'nalishlarini qonuniy-huquqiy asarlarda belgilab berish mumkin bo'ldi.

Demokratik davlatlarda qaror topgan va muvaffaqiyatli amal qilib kelayotgan demokratik huquqiy davlat tizimlari ikki asosiy jihati bilan belgilanadi: 1) Jamiyat hayotining barcha jabxalarida qonun ustivorligi, qonun oldida barcha fuqarolarning istesnosiz tarzda teng barobar mas'ulligidir; 2) Davlat hokimiyatining uch asosiy shaxobchalari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari bir-biriga qaram bo'lib qolmagan, mustaqil amal qilishidir.

Hozir O'zbekiston jamiyatida mavjud bo'lib amal qilayotgan siyosiy tizim tarkibiga shunday yangi mohiyatli va yuksak sifatli qism-bo'laklar kirib borayotganligi, endi ularning omilkor va samarador faoliyat olib borishlari uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarning yaratilishini taqazo etmoqda. Bundan asosiy maqsad, butunlay, tubdan yangilangan, mustaqil O'zbekiston Respublikasining muvaffaqiyatli taraqqiyotini, to'la mustahkamligini,

yuksak darajada ravnaq topib, gullab-yashnashini ta’minlay oladigan siyosiy tizimni vujudga keltirib, samarali amal qilishiga erishishdir.

O’zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining mohiyati – xalq hokimiyatchiligining amalga oshirilish, hokimiyatning xalq manfaatlariga bo’ysundirilganligi bilan bevosita bog’liqdir. Zero, uning ijtimoiy bazasini xalq tashkil etadi. Mamlakatimiz siyosiy tizimining maqsadi O’zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish; demokratik huquqiy davlatchilikni barpo etish; ijtimoiy siyosiy barqarorlikni, millatlar o’rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni ta’minlashdan iborat. O’zbekiston Respublikasining siyosiy tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi: O’zbekistonda davlat mustaqilligini mustahkamlash; mamlakatdagi siyosiy kuchlarni yuqoridagi maqsadlar yo’lida birlashtirish; jamiyatga siyosiy rahbarlikni amalga oshirish; unda demokratik printsiplarni qaror toptirish; bozor iqtisodiyoti munosabatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish; milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va shu asosda yangi avlodni – komil insonni tarbiyalash.

O’zbekiston Respublikasi siyosiy tizimiga, birinchidan, siyosiy, iqtisodiy va g’oyaviy manfaatlarning birligi; xalqni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga safarbar qilish; ikkinchidan, o’zbek xalqining milliy, ma’naviy va madaniy qadriyatlari, tarixiy merosi bilan zamonaviy demokratik qadriyatlar va printsiplarni hamoxang birlashtirish va shu yo’l bilan rivojlanishining ma’rifiy darajasiga erishish kabi xususiyatlar xosdir.

Mamlakatimizdagi siyosiy tizim o’z faoliyatida davlat suvereniteti, inson huquqlarining ta’minlanishi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, xalq manfaatlarining birinchi o’ringa qo’yilish, ijtimoiy adolat va demokratiya talablariga qat’iy rioya etish, hokimiyatlar taqsimlanish printsipiga rioya etish, xurfikrlilik va ko’ppartiyaviylik, oshkoralik va boshqa asosiy konstitutsiyaviy printsiplarga tayanadi.

4.2. Siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlari

Quyida shu tarkibiy qismlarning har biriga to’xtalsak siyosiy tizim haqida yaxlit, muntazam tasavvurga ega bo’lamiz.

Siyosiy tizimga avvalo siyosiy hokimiyatning faoliyat ko’rsatishi bilan bog’liq bo’lgan siyosiy tashkilotlar, muassasalar kiradi. Ularning siyosiy hayotga, hokimiyatni amalga oshirishga jalb etilganligiga qarab uch turdagi tashkilotga ajratish mumkin:

1. Asosiy siyosiy tashkilotlar.
2. Asosiy bo’lmagan siyosiy tashkilotlar.
3. Siyosiy bo’lmagan tashkilotlar.

Asosiy siyosiy tashkilotlar to’g’ridan-to’g’ri va bevosita siyosiy hokimiyatni amalga oshiradilar, yoki unga to’liq erishishga intiladilar. Hokimiyatni amalga oshirish yoki hokimiyat uchun kurash – ular faoliyatining asosini tashkil etadi. Haqiqiy siyosiy tashkilotlar bo’lib davlat va siyosiy partiyalar hisoblanadilar.

Asosiy bo’lmagan siyosiy tashkilotlarning faoliyati siyosiy hokimiyatni amalga oshirish bo’lsada, ammo bu ularning amal qilishining bir tomoni hisoblanadi.

Siyosiy tizimning ushbu tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog’langan yaxlit bir tizimni tashkil etadi.

Siyosiy bo’lmagan tashkilotlar alohida guruhni tashkil etadi. O’z funktsiyalarining o’ziga xosligidan kelib chiqib ular asosan siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda qatnashmaydilar. Bularga ko’ngilli sport tashkiloti, suvda cho’kayotganlarni qutqarish jamiyati va h.k.

Ammo oxirgi yillarda hamma bosqichlardagi hokimiyatlar oliy organlariga ijtimoiy tashkilotlar nomzodlarining saylanishi bunday ijtimoiy birlashmalarning ham siyosatlashuvini jadallashtirdi.

4.1-chizma



Siyosiy hokimiyat jamiyat siyosiy tizimida asosiy o'rinni egallaydi. U jamiyat hayotining hamma sohalariga iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va harbiy ta'sir ko'rsatuvchi qudratli qurol bo'lganligi uchun siyosiy tizimning boshqa bo'laklaridan tamomila ajralib turadi.

Asosiy siyosiy tashkilotlar ichida ko'zga ko'ringan rolni siyosiy partiyalar o'ynaydi. Partiya odatda ma'lum sinf va qatlamning manfaatlari va qiziqishlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi nisbatan faol hamda tashkiliy qismi sifatida yuzaga kelgan. Ammo XX asrning o'rtalariga kelib partiyalar siyosiy kurashining asosiy formasi sifatida parlament faoliyatining qaror topishi bilan sinfiylikni ifoda etgan partiyalar o'rniga "umumxalq" partiyalari kela boshladi. Umumxalq terminini qat'iy ma'noda tushunish kerak emas, chunki biror bir partiya

hammaning qiziqishlarini to’la qondira olmaydi. Ammo har bir partiya o’z dasturida ma’lum bir sinf yoki qatlamning qiziqishlarinigina emas, shuningdek ijtimoiy kuchlarning butun bir katta bo’lagining manfaatlarini hisobga olishga harakat qiladi. Masalan, sotsial-demokratik partiyalar qo’shma iqtisodiyotni tartibga solish, sotsial adolatlilik qadriyatlariga erishish, birdamlik, mehnatkashlarni himoya etishga o’z faoliyatlarini yo’naltirmoqdalar. Tabiiy bunday siyosatdan ishchilar ham, mayda va o’rta burjuaziyaning bir qismi, pensionerlar va ishsizlar ham manfaatdor.

Asosiy bo’lmagan siyosiy tashkilotlarga kasaba uyushmalari, yoshlar tashkiloti, kooperativ tashkilotlar va mehnat jamoalari hamda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi turli uyushmalar kiradi.

Bu tashkilotlar ijtimoiy xarakterni kasb etgan bo’lishiga qaramay demokratiya va oshkoralik tufayli siyosiy hayotga keng tortilmoqdalar.

Shaxs siyosiy tashkilotning a’zosi bo’lib, u o’z manfaatlarini ma’lum sotsial qatlam, guruh, sinf, millat manfaatlari bilan bir deb hisoblaydi, o’zini ma’lum tashkilot bilan bog’laydi, unga o’zining manfaatlarini davlat darajasida ifoda etish va himoya qilishni ishonib topshiradi.

Siyosiy tashkilotlarning ta’siri ma’lum siyosiy tartib asosida yuz beradi. Eng muhimi huquqiy tartibot hisoblanadi. Konstitutsiyalarda belgilangan qonun va boshqa qoidalardan chetga chiqish hollari yuz bergan taqdirda uning ustidan davlat sanktsiyasi amalga oshiriladi. Shuningdek siyosiy faoliyatni amalga oshirishda ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va ishlarni tartibga soluvchi qoidalar (normalar) ham katta rol o’ynaydi. Bu ushbu tashkilotlarning ustav qoidalaridir.

Siyosiy tashkilotlar bilan bir qatorda siyosiy tizim tarkibiga siyosiy munosabatlar kiradi. Ular xilma-xil ijtimoiy munosabatlarni tashkil etadi va siyosiy hokimiyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi. Siyosiy munosabatlar uch guruhga bo’linadi.

Birinchidan, sinflar, millatlar va davlatlar o’rtasidagi munosabatlar. Sinflar o’rtasidagi, sinflar ichidagi va millatlar o’rtasidagi mavjud siyosiy tashkilotlarning amal qilishi va ular o’rtasidagi munosabatlarga ta’sir ko’rsatadi.

Ikkinchi guruhga jamiyatda amal qilayotgan, siyosiy tashkilotlarning bir tomonini tashkil etuvchi munosabatlar kiradi. Tik yo’nalishga (vertikal) ega bo’lgan munosabatlar siyosiy hokimiyatni amalga oshirish, rahbar va boshqaruv tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarga ta’sir etishi davomida shakllanadi.

Uchinchi guruhga siyosiy tashkilotlar va muassasalar o’rtasida qaror topgan munosabatlar kiradi.

Siyosiy tizimning boshqa bir bo’lagi siyosiy qarashlar (printsip) va qoidalar hisoblanadi. Siyosiy tartibotlarning bir-biridan farq qilishi masalan totalitarizm va siyosiy fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm) mavjud siyosiy tizim amal qilishi zaminida yotgan qarashlar va qoidalar asosida yuz beradi va siyosiy munosabatlarni tartibga solib, unga izchillik bag’ishlaydi.

Siyosiy qarashlar va qoidalar orqali ma’lum siyosiy manfaatlar va siyosiy zamin tan olinadi va mustahkamlanadi.

O’z navbatida aynan shu qarashlar va qoidalar yordamida siyosiy tuzilma siyosiy hayotning hamma qatnashchilari amal qilishi zarur bo’lgan asoslangan siyosiy qarorlar, belgilangan xatti-harakatning o’ziga xos andozasini o’z ichiga olgan maqsadni jamiyatga, ijtimoiy guruhlarga, alohida yakka shaxslarga etkaziladi.

Siyosiy tizim bo’laklariga shuningdek siyosiy ong va siyosiy amaliyot ta’sirida shakllanib siyosiy hayotda qatnushuvchilar ongida hosil bo’lgan taasavvurlar, qadriyatlar, hissiyotlar, ularning fe’l-atvoriga va butun siyosiy hayotiga kuchli ta’sir ko’rsatadi.

Jamiyatda rahbarlik qilish va uni boshqarishda xalq ommasining siyosiy ruhiyatini hisobga olish nihoyatda zarur.

Ommaning siyosiy ruhiyatini e’tiborga olmaslik siyosiy tizimning yashovchanligi va barqarorligiga ta’sir ko’rsatadi va u o’z navbatida salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shuningdek siyosiy-ruhiy omilga yuqori baho berish, ommaning bir daqiqali hissiyot va kayfiyatlari orqasidan ko’r-ko’rona ergashish ham xavflidir. Bu stixiyalilik oldida tiz cho’kish, haqiqiy demokratik hokimiyatni o’zgartirishga olib kelishi mumkin.

Siyosiy ongni shakllantirish, siyosiy ruhiyat sohasini o’zgartirish va rivojlantirishda yetakchi rolni siyosiy mafkura egallaydi. Siyosiy mafkura ijtimoiy birliklarning haqiqiy ehtiyojlarini aks ettiradi, ularning ijtimoiy rivojlanishida tutgan o’rni va rolini asoslaydi.

Siyosiy mafkura hozirgi kunda ijtimoiy kuchlar tomonidan ilgari surilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlar dasturini asosi hisoblanadi.

Siyosiy hayot axloq-odob qoidalari bilan ham tartibga solinadi. Axloqiy qoidalar ijtimoiy hayotning turli sohalariga, shuningdek, siyosatga ham turlicha ta’sir ko’rsatadi. Haqiqatga erishish, uni himoya etish uchun fuqarolik or-nomusi kamlik qiladi. Buning uchun chuqur bilimdonlik ham kerak. Siyosatda halollik va bilimdonlik qanday namoyon bo’ladi? Siyosiy arbob uchun halollik – avvalo so’z va ishning birligidir; olijanoblik – sabr-toqat va boshqaning fikrini hurmat qilish, o’z faoliyati uchun yuqori darajada shaxsiy javobgarlik eng asosiy xislat bo’lishi kerak.

Odamlar siyosatga (siyosat sub’ekti – shaxs, ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va h.k.) doimo o’zlarining ichki hissiyotlari, umid, intilish, qiziqishlarini olib kiradilar. Bu siyosiy madaniyat (siyosiy, qarashlar, g’oya, nazariya, siyosiy maslak va dastur, siyosiy qarorlar, siyosiy normalar) siyosiy axloqda namoyon bo’ladi. Siyosiy madaniyat – siyosiy sistemaning muhim elementi hisoblanadi. Chunki siyosat insondan tashqarida amal qilmaydi. Siyosatning ta’sirchanligi shaxsning o’z siyosiy faoliyati davomida qanday siyosiy va axloqiy printsiplarni qabul qilganligiga qarab jamiyat hayoti va taraqqiyoti belgilanadi. Bejiz emas, siyosiy madaniyatni siyosiy tizimning “sub’ektiv tomoni” deb hisoblaydilar.

Siyosiy madaniyat bu mavjud ijtimoiy guruh uchun xos bo’lgan siyosiy tasavvurlar, qadriyatlar, ko’rsatmalar va siyosiy fe’l-atvor kabi qadriyatlardir.

Siyosiy madaniyatni ahamiyati shundan iboratki, u siyosiy tizimni barqarorligini ta’minlaydi. Shu ma’noda yetakchi hisoblangan siyosiy madaniyat himoyalovchi rolni o’ynaydi.

Siyosiy madaniyat shaxsning har taraflama rivojlanishiga ta’sir ko’rsatib, qaror topgan va qayta qabul qilingan siyosiy bilimlar asosida uning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. O’zlashtirib olingan bilimlar siyosiy hayotga qat’iy qiziqishni shakllantirish bilar bir vaqtda olib borilsa siyosiy madaniyat shaxsga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko’rsatgan bo’ladi.

4.3. Jahondagi davlat hokimiyatini idora etish shakllari: monarxiya, respublika va ularning ko’rinishlari

Siyosiy tizimning barcha bo’laklari o’rtasidagi munosabat tufayli jamiyatda ma’lum siyosiy tartib shakllanadi. Idora etish shakllari demokratik, monarxiya, avtoritar va totalitar bo’lishi mumkin. **Demokratik tartibot –** bu eng progressiv siyosiy tartib, chunki u shaxsning o’z faoliyatini hamma sohalarda to’la erkinligi ta’minlangan. Hozir demokratik tartibot dunyoning ko’pchilik mamlakatlarida amal qiladi. Biz bu haqda keyingi ma’ruzalarimizda suhbatlashamiz. Shu tufayli uning xarakterli alomatlarini aytib o’tamiz xolos. Davlat hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi sud hokimiyatlariga bo’linishi; fuqarolarning keng miqyosli huquq va erkinliklarga ega bo’lishi, ularni himoya etilganligi va kafolatlanganligi; davlatlashtirilmagan ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyatining davlat bilan teng huquqli raqobatchi ekanligi; siyosiy fikrlar xilma-xilligi, oshkoralik, siyosiy qarorlarni qabul qilishda shaxsga keng imkoniyatlar yaratilganligi va h.k.

Monarxiya – boshqarishning qadimgi shakllaridan bo’lib, odatda avloddan-avlodga o’tadigan yakka hokimiyatchilikdir. Monarxiyaning tarixda siyosiy sharoitga ko’ra ko’rinishlari mavjud.

4.2-chizma



Mutloq monarxiya. Bunda monarx – hokimiyatning manbai, qonunlar chiqaradi, hukumatni tuzadi, xalqdan soliq oladi va daromadni o’z xoxishiga sarflaydi. Xalq huquqsiz, siyosiy hayotda ochiq ishtirok etmaydi. Hozirda Saudiya Arabiston, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklarida saqlanib qolgan.

Dualistik monarxiya. Bir vaqtda monarxik tashkilotlar va parlament mavjud bo’ladi. Monarx katta ijro hokimiyatini egallaydi, o’z oldida mas’ul hukumatni shakllantiradi, parlamentga ta’sir qiladi, veto huquqiga, parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega. Hozirgi vaqtda Iordaniya, Quvayt, Marokkoda saqlanib qolgan.

Konstitutsion (parlamentar) monarxiya. Bunda monarx rasman hukumat boshlig’i, biroq asosan vakillik, qisman ijro vazifalarini bajaradi. Hukumat parlament tomonidan shakllantiriladi va unga hisobot beradi. Monarxning veto huquqi bo’lsada, undan deyarli foydalanilmaydi. Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Norvegiya, Shvetsiya shuningdek, boshqa davlatlarda ham bor. Konstitutsion monarxiya an’analariga hurmatning oqibati bo’lib, monarx demokratik shaxs sifatida maydonga chiqadi. Amalda konstitutsion monarxiya parlamentar respublikaga juda yaqin.

Avtoritar tartibot – u yoki bu shaxsning yakka hokimligiga asoslangan. Bunday tartibot sharoitida ijro etuvchi hokimiyat cheklanmagan hukmronlikka ega. Parlament mavjud bo’lsa ham uning asosiy ko’pchiligi saylanmaydi balki tayinlanadi. Davlat hokimiyatining xalqali sohalarini o’z qo’lida jamlagan davlat

boshlig’i sharoitida u maslahat ovoziga ega bo’lgan muassasaga aylanadi. Davlat faoliyatining asosiy metodi ma’muriy va buyruqbozlikka asoslanadi. Shaxs mustaqil fikrlash va faoliyat ko’rsatishdan yiroqlashtiriladi.

Totalitarizm – o’ta reaktsion tartibot turlaridan biridir. U zo’rlikka asoslangan hukmron siyosiy saylangan guruhning, shaxsning (fyurer va h.k.) hokimiyati hisoblanadi. Bu tartibotning asosiy alomatlari: demokratik tashkilotlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari poymol etilgan bo’ladi; ta’qib etish va jazo, ijtimoiy hayotni harbiylashtirish; umumbashariy mafkuraning yagonaligi.

Totalitarizm sharoitida shaxs hukmron guruhga tamomila bo’ysundirilgan bo’ladi.

Jamiyat siyosiy tizimini to’liq tasavvur etish boshqa jihatlarni hisobga olishni ham nazarda tutadi.

Dunyoda hali birorta siyosiy tizim ijtimoiy bo’shliqda, sinflar va boshqa ijtimoiy guruhlar manfaatlaridan ajralgan holda yashagan emas. Axir, siyosiy tizimning yuzaga kelishi chuqur ijtimoiy sabablar bilan izohlanadi va avvalo sinflar manfaatlarini himoya etish zururatidan kelib chiqadi.

Har qanday siyosiy tizim va uning tarkibiga kirgan bo’lak ijtimoiy mazmunni kasb etib, ma’lum ijtimoiy manfaatlarini aks ettiradi. Uning mohiyati ana shunda.

Siyosiy tizimning mohiyati uning printsiplarida namoyon bo’ladi. Umumlashgan holda u quyidagilardan iborat: siyosiy tizim, uning yashashining iqtisodiy shart-sharoitlari, sotsial va milliy tuzilishi, demografik va ekologik jarayonlar, aholining ma’lumotlilik darajasi, ijtimoiy ongning holati, jamiyat ma’naviy-mafkuraviy hayoti, xalqaro ahvol kabilarni o’z ichiga olib jamiyatning holatini aks ettiradi.

Siyosiy tizim orqali ijtimoiy manfaatlarning asosiy guruhi aniqlanadi va jamlanadi, ijtimoiy ustivor tomonlari sarflanadi, ular keyin siyosatda mustahkamlanadi. Masalan: hozirgi sharoitda bizning jamiyatimizda siyosiy

hokimiyat tuzilmasi uchun eng murakkab vazifalardan biri bozor munosabatlariga o’tish sharoitida turli ijtimoiy manfaatlar muvozanatini topishdan iborat.

Shunday qilib, biz siyosiy sistemaning bo’laklarini ko’rib chiqdik, ularning o’zaro aloqasi tufayli siyosiy tartibot qaror topadi va siyosiy hokimiyatning to’la qonli mehanizmi yuzaga keladi.

4.4. Davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ularning munosabatlari

Siyosiy tizimning markaziy o’zagini davlat tashkil etadi. Davlat siyosatni shakllantiruvchi, amalga oshiruvchi va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarni boshqaruvchi tashkiliy tuzilmadir. Davlat siyosiy tizim elementlarini muvofiqlashtiruvchi, ularning harakatiga (faoliyatiga) siyosiy mazmun bahsh etuvchi tizimni tashkil etuvchi bo’g’indir.

Davlat siyosiy partiyalarning, jamoat birlashmalarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Bundan tashqari, davlatning zimmasiga siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining huquqlariga rioya etilishini ta’minlash, ularga ijtimoiy hamda siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berish vazifasi ham yuklatilgan.

Jamiyat siyosiy tizimida juda ko’p, xilma-xil ijtimoiy-jamoat tashkilotlari amal qiladi. Lekin ularning siyosiy tizim tarkibidagi turlari, ko’rinishlari, shakllari, siyosiy mavqei amal qilayotgan davlat hokimiyatining zamini bo’lgan siyosiy tuzum tarkibi bilan uzviy bog’liqdir. Undan tashqari, ijtimoiy jamoat tashkilotlari bir turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitida amal qilayotgan siyosiy tizimning tarkibida turli mamlakatlarda turli shakllarda, turli mavqeda o’rin egallaydi va turlicha nomlanib faoliyat olib boradi. Masalan, AQSh da Institutlashgan ijtimoiy guruhlar shaklini olgan manfaatlar guruhlari fuqarolik institutlari, volontyorlar tashkilotlari, umumiy manfaatlar guruhlari, bosim o’tkazish guruhlari, deb atalsa, G’arbda nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, jamg’armalar kabi nomlar bilan ataladi. Shuningdek, AQSh va G’arb sotsiologiyasida esa bu tashkilotlar “manfaatlar guruhlari” nomi bilan keng tarqalgan. O’zbekistonda esa mustaqillikning ilk davridan boshlab bu tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, nodavlat

notijorat tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar, jamg’armalar, uyushmalar kabi nomlar bilan keng ommalashgan.

Rivojlangan mamlakatlarda ishchilar, dehqonlar, fermerlar, ishbilarmonlar, turli kasblarga doir uyushmalar, xotin-qizlar, yoshlar, faxriylar birlashmalari kabi yuz minglab jamoat tashkilotlari bo’lib, ular o’zlariga a’zo bo’lgan individlarning manfaatlari va extiyojlarini qondirishning o’ziga xos zaruriy faoliyat ko’rsatish maydonidir.

Ijtimoiy fanlarning so’nggi natijalariga muvofiq, manfaatlar guruhlari – bu unga a’zo bo’lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o’zaro munosabatlarida, shuningdek, o’z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ihtiyoriy tashkilotlardir. Aytib o’tilgan manfaatlar guruhlari barcha demokratik davlatlarda nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida nomlanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari individlarning ihtiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko’rsatish bilan shug’ullanmaydilar. Lekin, ular huqumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta’sir qilish uchun harakat qiladilar. Ularning harakat usullari siyosiy organlarni ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarning extiyojlarini etkazish, o’z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o’tkazish bilan cheklanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ma’lum bir ijtimoiy guruhning turli manfaatlari bir tizimga solinib, ularni keng jamoatchilikning xoxish-irodasi sifatida davlat va hukumat organlariga yetkazishi – siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozir AQSh da 1 mln. dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadilar. Ularda AQSh aholisining 7,8 foizi xizmat qiladi. AQSh da aynan jamoat tashkilotlari sog’liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, san’at va fuqarolarni ijtimoiy ta’minlash va muhofazalash sohalarida davlatning asosiy hamkorlari hisoblanadilar. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari hukumatlari ham tuzilmalariga, birinchi navbatda nodavlat notijorat tashkilotlariga suyanadilar.

Rivojlangan 22 ta mamlakatda ish bilan band aholining 4,9 foizi bevosita nodavlat sohada mehnat qiladilar. Bu ko'rsatkich Niderlandiyada 12,4, Irlandiyada 12,5, Belgiyada 10,5, Isroilda 9,2, Avstraliyada 7,2, Buyuk Britaniyada 6,2 foizga tengdir.[1]

Sobiq totalitar tuzumdan xalos bo'lgan Polshada ham keyingi o'n yillikda nodavlat notijorat tashkilotlari tezlik bilan rivojlanib bordi: "Klon-Javoz" axborot markazining ma'lumotiga ko'ra uyushma va jamg'armalar 18,5 mingdan 48 mingtaga ko'paygan. Mamlakat bo'yicha har 10 ming aholiga 6,14 ta nodavlat tashkiloti to'g'ri keladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining hozirgi davr jamiyat siyosiy tizimidagi maqomi va mavqei ularning xilma-xilligi, jamiyat hayotining barcha jihatlarini keng ko'lamda qamrab olganligi, ular faolliklarining benixoya darajada oshlganligi, chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga qodirligi va boshqa ko'plab omillar bilan belgilanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining hozirga qadar tashkil topgan turlari va shakllari ularning kundalik faoliyatlarida millionlab fuqarolarning muntazam ishtirok etishlari bilan ifoda etmoqda. Bu hol esa jamiyat siyosiy hayotining barcha jabxalarini yanada uyg'unlashtirish va takomillashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Ma'lumki, jamiyat siyosiy hayotini izdan chiqarishga intiladigan, o'zining g'arazki, tor, shaxsiy yoki guruhiy manfaatlarini ko'pchilik maqsad-manfaatlaridan ustun qo'yadigan odamlar, to'dalar, guruhlar ham vujudga kelishi sir emas. Ular jamiyatda amal qilayotgan qonun-qoidalarga butunlay zid ishlarga bel bog'laganliklari uchun ham oshkora harakat qila olmaydilar.

Bunday daxshatli xavfdan jamiyatni qudratli iqtisodiy zaminga, keng ijtimoiy-siyosiy kuchlarga ega bo'lgan siyosiy hokimiyatgina barcha siyosiy, ijtimoiy-jamoat, ommaviy va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda keskin choralar ko'rish vositasida xalos qilish mumkin. Demak, buning uchun jamiyat tarkibida demokratiya bilan axloq-odob qoidalariga rioya qilishni, siyosiy hamda ijtimoiy xilma-xilliklarni oqilona olib borishni, jamiyatning

[1] Qirg'izboev M.. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: "Yangi asr avlodi", 2006. 140-141-b.

barcha sog’lom kuchlarini iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy ma’naviy-ahloqiy jihatlardan mustahkam tarzda jipslashtirishni taqazo etadi.

Qisqacha xulosalar.

Siyosiy tizim murakkab, ko’pqirrali ijtimoiy xodisa. Siyosiy tizim siyosiy hokimiyatni jamiyat miqyosida tashkil etish, uyushtirishni, jamiyat bilan davlat hokimiyati barcha bo’laklarining o’zaro aloqadorlik munosabatlarini, siyosiy hokimiyatning muassasalarini, siyosiy faoliyatning holati, siyosiy ijodkorlikning darajasini, fuqarolarning siyosiy munosabatlariga kirishuvi shart-sharoitlarini, siyosiy bo’lmagan yoki muassasaviy uyushmagan munosabatlar tabiatini qamrab oladi. Siyosiy tizim barcha qism-bo’laklarinig mushtarak, uyg’un amal qilib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir o’tkazish va uning istiqboliga salmoqli xissa qo’shish imkonini beradi.

Tayanch so’zlar.

Jamiyat siyosiy tizimi, siyosiy tizim xususiyatlari, siyosiy tizim tuzilishi, siyosiy tizim funktsiyalari, siyosiy tizim samaradorligi, siyosiy tizim turlari, siyosiy tartibot, jamiyat siyosiy tizimi rivojlanish qonuniyatlari, boshqarish shakllari, siyosiy qaror, demokratiya, monarxiya, O’zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayonlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Siyosiy hayot tahliliga tizimiy yondashuv mazmunini nimada deb ko’rasiz?
2. Siyosiy tizimning asosiy bo’laklarini sanab bering?
3. Siyosiy institut nima?
4. Siyosiy tizimning samaradorligi qanday omillarga bog’liq?
5. Hozirgi davr O’zbekiston siyosiy tizimining o’ziga xos xususiyatlariga izoh bering?
6. Siyosiy tizimni shakllantirishda qadriyatlarning roli qanday?
7. Siyosiy tizimning inqirozli holati nimada o’z ifodasini topadi?
8. Siyosiy tizimni normal amal qilishida huquq va huquqshunoslik faoliyatining roli qanday?

9. Siyosiy hayot – jamiyat ijtimoiy hayotining o'ziga xos tomonini tashkil etadi. Shu to'g'rimi? O'z javobingizni asoslang?
10. Diniy muassasalar siyosiy tizim tashkilotlariga kiradimi? O'z munosabatingizni bildiring?

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2009. 4-6, 17-33- b.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: "O'zbekiston", 2005. 5-50 b.
3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishni ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. "Xalq so'zi", 2008 yil 6 dekabr.
4. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma. TDIU. 2006. 45-56 b.
5. Aliev B., Boboev A. Politologiya fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. T. TDIU. 2006. 51-63 b.
6. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. – M.: Infra-M. 2007.-C. 22-31.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. – M.: Prospekt, 2008.-C. 99-129.
8. Odilqoriev X.T. Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. – T.:"O'qituvchi", 2008. 106-130-b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: "Fan". 2009, 83-120-b.

5-MAVZU: DEMOKRATIYA. DEMOKRATIYANING ASOSIY KONTSEPTSIYALARI

5.1. “Demokratiya” tushunchasi. Demokratiya va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar

Demokratiya (qadimgi yunon tilida “demos” – xalq va “kratos” - hokimiyat) – “xalq hokimiyati” ma’nosini anglatadi. Demokratiya – bu hukumat shakli, bu hayot yo’li, bu maqsad yoki ideal, ya’ni eng yuksak orzu va bu siyosiy falsafa. Bu termin hukumatning demokratik shakliga ega mamlakatlar uchun tegishlidir. AQSh Prezidenti Abram Linkoln “demokratiyani” ya’ni “xalq hokimiyatini” quyidagicha tasvirlagan: “Demokratiya – bu xalq hukumati, bu xalq tomonidan boshqariladigan hukumat, bu xalq uchun xizmat qiladigan hukumat” [1].

Ijtimoiy hayotni tashkil etishning demokratik me’yorlari juda qadim zamonlarda paydo bo’lib, jahondagi ko’plab rivojlangan mamlakatlarda asosiy va yetakchi tamoyilga aylanguncha insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida murakkab, ziddiyatli, ko’pincha fojiali o’zgarishlarga uchradi.

Demokratiya jamiyatdagi siyosiy hokimiyatning davlat shaklining amalda umumxalq siyosiy boshqaruvidagi tartibotga xos eng qadimgi shakli hisoblanadi.

Demokratik tizimga qarama-qarshi bo’lgan avtoritarizm esa yakka xokimlikning turli shakllarini, shaxsiy hokimiyat tartibotlarini, diktatura va mustabid boshqaruv shaklini o’z ichiga oladi.

Umuman avtoritar boshqaruv davlatning eng yuqori bo’g’inidagi siyosiy hokimiyatni yakka shaxsning qo’lida marakazlashuvi (avtokratiya – yakka shaxs tomonidan boshqarish) yoki jamiyatdagi eng obro’li tor doiradagi guruh tomonidan (oligarxiya – ozchilik tomonidan boshqarish) boshqarishni anglatadi.

Istibdod yoki istibdodga asoslangan boshqaruv ustida gap ketar ekan, bunda avtoritar tartibot haqida so’z ketadi, unda yakka hokim yoki tor doiradagi guruh xalqqa nisbatan zo’ravonlik siyosatini olib boradi, fuqarolarning to’la huquqsizligi sharoitida nazoratsiz cheklanmagan hokimiyat xuddi shunday boshqaruv shakliga kiradi.

[1] Гутов В.А. История политических и правовых учений. Санкт-Петербург. 2000.-С. 58-59.

Shuro davrida qamoq, jabr-sitam, tazyiq o’tkazish, qo’rquv-vaxima tarqatish, shubha ostiga olish, odamlarning milliy o’zligini tahqirlash, milliy g’ururini oyoq-osti qilish, shaxsni olomonga aylantirish, odamlarni jismonan va ruxan mayib-majruh qilish – bularning hammasi mustabid tuzumning amaliy siyosati edi.

Insoniyat tarixining hamma davrlarida va hozirgi davrda amal qilayotgan siyosiy boshqaruvning barcha shakllari orasida demokratiya alohida o’rinni egallaydi.

Demokratiya tsivilizatsiyali jamiyatda tabiiy va muqarrar bo’lgan siyosiy munosabatlarni tashkil etuvchi shakli sifatida madaniyatning eng buyuk yutug’i hisoblanib, umuminsoniy qadriyat hisoblangan xalq hokimiyati asosini tashkil etadi.

Qanday ishlab chiqarish usuliga ega bo’lishidan qat’iy nazar, qaysi ijtimoiy tizimga ta’luqli bo’lmasin barcha demokratik hokimiyatga xos bo’lgan alomatlar majmuasi aniqlangan. Ushbu alomatlarning asosiylarini ko’rsatish uchun yuqorida keltirilgan: demokratiya – bu xalq manfaatlari yo’lida va xalqning o’zi tomonidan amalga oshiriladigan xalq hokimiyatidir, degan qoidaga murojaat etamiz.

Aslida u qanday ifodalanadi?

Siyosiy hokimiyat xalqdan kelib chiqadi, unga mansub – bu demokratik jamiyatning birinchi, qat’iy qoidasi. Tarixda monarxlar, diktatorlar, hokimiyatni qonunga xilof ravishda tortib olgan shaxslar ko’pincha xalq nomidan kelib chiqib o’zlarini ularning haloskorlari, “g’amxo’r otaxonlari” deb e’lon qilib xalqlar taqdiri ustidan ixtiyor etish huquqini o’zlariga o’zlashtirganlar.

Demokratiya og’izdagina xalq siyosiy hokimiyat manbai deb e’tirof etilgan joyda emas, aksincha fuqarolarga u yoki bu darajada hokimiyatda va uni nazorat etishda uyushgan holda qatnashuvini ta’minlash maqsadida siyosiy institutlar tizimi, qoidalar, tuzilmalar va muassasalar tashkil etilgan joyda boshlanadi.

Har qanday demokratik jamiyatda davlat hokimiyatining oliy vakolatli organi saylov yo’li bilan tuzilib, unga mamlakatning katta yoshdagi aholisining hammasi yoki ko’pchiligi qatnashadi.

Xalq irodasini ifoda etishning shakli bo’lgan referendum (muhim masalani hal qilishni umumxalq ovoziga qo’yish), so’rov va boshqa usullari demokratik institutning dastlabki bug’ini hisoblanadi. Uning yordamida xalq rasman bo’lsada ijro etuvchi hokimiyatning hisobotini talab etish, uning ishlarini erkin matbuot orqali ochiq muhokama qilish, mansabdor shaxsning xatti-harakatini sudda muhokama etish va shu kabi huquq bilan kafolatlanadi. Old ko’rinishdan buning hammasi ochiq va dabdabali ko’rinsada, haqiqatda hisobat, erkin matbuot, mustaqil sud va boshqalar demokratik institutlarni parda orqasidan, shuningdek ochiq boshqarayotgan jamiyatning hukmron qatlami ixtiyori bilan bog’liq.

Demokratiyaning zarur shartlaridan biri – bu davlat tuzumini konstitutsiyaviy rasmiylashtirilgan bo’lishi, demokratiyaning ramzi hisoblangan va hayotga joriy etilgan yozma konstitutsiyaning mavjudligi hisoblanadi.

Demokratiya va qonunning bir-biri bilan borliq ekanligini tarixiy tajriba isbotlaydi. Birorta-bir demokratik boshqaruv hox u burjuaziyagacha, burjua, hattoki sotsialistik boshqaruv bo’lmasin zo’ravonlik va qonunsizlik sharoitida yashay olmaydi, qaerda bunday muhitga amal qilinsa o’sha erda demokratiya cheklanadi, inqirozga uchraydi, o’z o’rnini avtoritar boshqaruv usuliga bo’shatib beradi. Buning uchun tarixda misollar ko’plab topiladi.

Demokratiyaning muhim va zaruriy alomatiga huquq va erkinliklar majmuini kiritish mumkin, bu avvalo mavjud demokratik tizimning sotsial-sinfiy tabiatidan kelib chiqadi. Huquqiy tenglikni tantanali ravishda e’lon qilgan, ya’ni fuqarolarning qonun oldida tengligi, shuningdek, jamiyat a’zolarining hammasi davlat boshqaruvida va jamoat ishlarida, qonunlarni yaratish va muhokama etishda teng qatnashuvi demokratik davlatning muhim xususiyatidir. Demokratik tuzum turli uyushmalarning erkinligini, ijtimoiy tashkilotlar va ittifoqlarning erkin faoliyat ko’rsatishini nazarda tutadi.

Qoidaga ko’ra demokratik boshqaruv shakli sotsial bir xil bo’lmagan turli to’qnashuv va muloqatli jarayonlarga tortilgan xilma-xil va jo’shqin sotsial manfaatlarni ifodalaydigan sinfiy jamiyatga mo’ljallangan. Agar qati’y ma’noda aytadigan bo’lsak, bunday sharoitda turli sinflar, millat va ijtimoiy guruh mavjud

bo’lgan sharoitda xalqning “umumiy irodasini” qanday aniqlash mumkin? Demokratik jamiyatdagi bunday qiyinchilik, kelishmovchilik, kelib chiqqan taqdirda ko’pchilikka yon bosishi, uning irodasiga bo’ysunishi kerak tamoyili yordamida bartaraf etiladi. Bu demokratiyaning asosiy tamoyili hisoblanib busiz birorta kapitalistik, sotsialistik jamiyat yashay olmaydi.

Albatta, ko’pchilik tomonidan tanlangan hokimiyat doimo ozchilikning noroziligini majbur etish yo’li bilan “umumiy irodasiga” bo’ysundirish uchun imkoniyatiga ega, ammo buni ishontirish usuli orqali, ixtiyoriy ravishda demokratik intizom talablarini qabul qilish, o’z nuqtai-nazarini himoya qilayotgan ozchilik huquqini hurmat qilish yo’li bilan hal etsa bo’ladi. Aslida, ozchilikning ko’pchilikka bo’ysunishi tamoyili bir qator omillarning ta’siri, siyosatga kirib keluvchi turli tasodifiy holatlar tufayli buziladi.

Yuqoridagi tafsilotlardan kelib chiqib demokratiyani mutlaq, eng barkamol siyosiy munosabatlarni boshqaruv shakli deb aytish mumkinmi? Albatta uning afzalliklari shubhasiz, e’tirozga o’rin qoldirmaydi, ammo siyosiy munosabatlarni takomillashtirish jarayonini ushlab turuvchi kamchiliklar, ojiz tomonlari bormi? Bu savol qadimdan zo’r ixlos bilan muhokamada bo’lib kelmoqda.

Qadimgi mutafakkirlar o’zlari yashagan davrdagi davlatlarning rivojlanishida yuz bergan demokratiya nishonlariga asoslanib uning ijobiy tomoniga nisbatan salbiy jihatlarini ko’rsatishga harakat qilganlar. Aflotun demokratiyani yoqimli va rang-barang, lekin etarli boshqarishga ega bo’lmagan tuzum sifatida baholaydi. Erkinlik demokratiyani gangitib qo’yadi va undan qonunsizlik, zo’rlik va zulm hukmron eng yomon davlat tuzilishi-tiraniya (istebdod) o’sib chiqadi. Eng yangi davr mutafakkirlari bo’lgan A. De. Tokvil, R. Mixelos, V. Pareto, G. Moska va boshqalar demokratiyani tanqid qilish orqali siyosiy obro’ orttirganlar. Ularning fikricha demokratik tuzumning nuqsonlari nimalardan iborat?

Masalan, ular demokratiyani barqaror tartibot bo’lmay, doimo siyosiy chegara o’rtasida o’zgarib jamiyatning anarxik va yarim anarxik holatidan odamlarning siyosiy mustaqilligini cheklash tomon harakatlanadi. Aynish, ularning

hisoblashlaricha, o’rtacha demokratiya xilma-xil safsatabozlarning ta’sirida va quyidagilarni ortiqcha kengayib ketganligi oqibatida u olomonlar hokimiyatiga aylanadi, keyin esa diktator yoki diktatura paydo bo’lib zo’rlik yo’li bilan tartib o’rnatib jamiyatda avtoritar tartibotni tiklaydi.

Tokvil demokratiyani “tenglikka tomon aynish” deb ayblaydi. Demokratik ko’rsatmalar odamlarni tenglashtirishga olib keladi. Qobiliyatsiz, faoliyat ko’rsatmaydigan odam xizmat qilib topmagan narsaga ega bo’ladi va qobiliyatli, buyuk shaxs o’z mehnatidan samara ko’rmaydi. Shu tufayli yaxshiroq natijaga erishish ishtiyoqi unda so’nadi.[1]

Demokratik boshqaruv kamchiliklari haqida nima deyish mumkin? Yuqorida keltirilgan voqelik haqiqatda demokratik jamiyatda sodir bo’ladi, ammo ular demokratik bo’lmagan, avtoritar tizimlarda ko’proq uchraydi. Yakka shaxsning boshqaruviga asoslangan hokimiyat tartiboti demokratiyaga nisbatan barqaror deyish mumkin. Juda bo’lmagan taqdirda yangi va eng yangi tarixdan bir oz bo’lsada xabardor bo’lgan shaxs siyosiy barqaror bo’lmagan vaziyatni demokratiya emas, aksincha mustabid tartibotlar yuzaga keltirishi mumkinligi haqida rozi ekanligini bildiradi, chunki unday tartibot o’ta ketgan zo’ravonlikka asoslangan bo’lib, u o’z amrini o’tkazish bilan ijtimoiy beqarorlik va tartibsizlik xavfi yuzaga keladi. Bunday tartibotlar boshida “tartibni o’rnatish” shiori ostida chiqib, so’ngida chuqur tartibsizlikni vujudga keltirish bilan yakunlanadi va keyinchalik jamiyatga uzoq vaqt davomida o’zini-o’zi tiklashga to’g’ri keladi.

Etarli bo’lmagan qarorlarni qabul qilish, hokimiyat tepasida o’rtamiyona, ba’zida past aqliy va axloqiy sifatlarga ega odamlarning kelishi demokratiya orqali yuz bermagan.

Albatta demokratiya yuksak darajadagi boshqaruv shakli emas – bunga umuman amal qilmaydi, ammo insoniyat tarixida sinash va kamchiliklarni aniqlash usulida topilgan eng yaxshi sinash davom etmoqda.

Bizning zamonamizda kamchiliklarni eng quyi darajaga olib kelish mumkin bo’lsada, ammo u takrorlanmoqda. Buning uchun siyosiy voqelikni shakllantirish

[1] Современная западная социология. Словарь. Изд-во политической литературы. -М.: 1990. –С. 349.

va yo’naltirish orqali odamda “barcha buyumlar o’lchovi” tomon harakat qilish, insonparvar talabni qaror toptirish kerak. Demokratiyaning gullab yashnashi omilkorsizlikni, tenglashtiruvchilikni, odamlarning egasizligi, hokimiyatni suiste’mol qilish kabilarni supurib tashlash uchun yuksak siyosiy madaniyat zarur.

Shunday qilib demokratiya boshqaruv shakli sifatida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni insonparvarlik yo’nalishida rivojlanishi uchun katta imkoniyatga ega. Aynan mana shunda uning umuminsoniy qimmati mavjud. Sivilizatsiyaning ulkan tajribasi demokratik tuzum boshqalarga nisbatan xalqning sotsial ijodiyoti uchun keng imkoniyat yaratishini to’la-to’kis ochib berishi mumkin ekanligini tasdiqlaydi.

Ammo demokratik boshqaruv shakli qadimdan amal qilib kelayotganligiga qaramay xanuzgacha o’zini keng namoyish etgan emas. Spunga qaramay uning kelajagi katta. Insoniyat tsivilizatsiyasining va dunyoning demokratik rivojlanish istiqboli yangicha siyosiy tafakkur nuqtai-nazardan qaraganda ajralmasdir.

Demokratiya, uning qonun-qoidalari va madaniyati ustida fikr yuritganda uning G’arbga nisbatan Sharqda farq qiladigan jihatlarini aytmasdan bo’lmaydi. Demokratik jarayonlar G’arbda ko’proq qonun ustivorligiga asoslansa, bu jarayon asrlar davomida shakllangan an’analar asosida kechadi. G’arb namunasi ko’p hollarda individualizm falsafasiga tayangan va ommani xaddan tashqari siyosatlashtirilishiga olib kelgan bo’lsa, Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g’oyasi, jamoatchilik fikrining ustivorligi zaminida shakllanadi. Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o’ziga xos xususiyati bor, ya’ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin noxush, katta fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G’arb olimlari ham “ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli” deb ataganlar. “Tabiiyki, bunday yo’l bizga aslo to’g’ri kelmaydi”. Demokratiya har bir mamlakatning tarixiy an’analari, milliy xususiyatlarini, milliy qadriyatlarini o’ziga singdirilgandagina xaqiqiy ijtimoiy kuchga aylanadi. O’zbeklarning milliy axloqi, uzoqni ko’rib ish qilishi va andishasi, insoniy munosabatlar borasidagi samimiyati, xalolligi, oqko’ngilligi,

oilaviy munosabatlar, mehr-muhabbati, yoshlar va kattalarga bo'lgan hurmati sharqxona demokratiyaning muhim o'ziga xos tomonidir.

5.2. Demokratiya shakllari va uni e'tirof etish tamoyillari

Demokratiya (ya'ni hukumatning demokratik shakliga ega mamlakat) fuqarolari hukumat ishida yoki bevosita, yoki bilvosita qatnashadilar. Bevosita demokratiyada, bu ko'pincha "sof demokratiya" deb ham ataladi, odamlar o'z jamoalari uchun zarur qonunlarni ishlab chiqish maqsadida bir joyda uchrashadilar. Bunday demokratiya qadimiy Yunonistondagi Afina shahar ko'rinishidagi davlatda amalda tadbiq etilgan va hozirgi kunda "Yangi Angliya shahar majlisi"da ham ko'llanib kelinmoqda.

Hokimiyat demokratik jamiyatda xalq manfaatlari va xalqning o'zi tomonidan amalga oshiriladi deganda vakillik va bevosita demokratiyaning xilma-xil shakllarini amalga oshirish nazarda tutiladi. Ularning mavjudligi va birgalikda uyg'unlashganligi turli demokratik tizimdagi davlatlarga xos. Tashqaridan qaraganda ular quyidagicha namoyon bo'ladi: xilma-xil o'z-o'zini boshqarish bo'g'inlarida odamlar yuzaga kelgan muammalarni o'zlari mustaqil hal qiladilar shuningdek, umumiy ishlarni boshqarish, jamiyat manfaati yo'lida harakat qilish uchun davlat va uning tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Ammo davlat hokimiyati organlari xalqdan yoki uning ko'pchiligidan kelib chiqib umumiy ishlarni olib borishi, uning nomidan hokimiyatni amalga oshirishi uchun vakolat beruvchi guvohnoma (mandatga) ega bo'lishi kerak. Saylovlarda tuzilgan vazifasini bajaradi, shuningdek, barcha davlat ishlarini boshqarishni tashkil etish tashabbuskori bo'lib chiqadi. Xullas, siyosiy vakillik institutini boshqaruv turi sifatida demokratiyaning yana bir alomati deyish mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, bu institut-sinfiy, u ko'p sonli odamlarning sotsial-sinfiy istaklarini ifodalash zaruriyatidan kelib chiqadi. Shu tufayli bu istaklar siyosiy manfaatlarga ega bo'lgan fuqarolarning bevosita va to'g'ridan-to'g'ri harakatlari orqali amalga oshmaydi.

Eng zamonaviy demokratiya bo'lib vakillik demokratiyasi hisoblanadi. Ma'lumki, katta jamoalarda, ya'ni shaharlarda, shtatlarda, provintsiyalarda, yoki

mamlakatlarda, barcha xalqni bir joyda yig'ib masala hal etishga imkon yo'q. Shuning uchun shunday jamoalarning fuqarolari qonunlar va boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda ular tomonidan ishtirok etish uchun o'zlarining hamshaharlari yoki hamjihat bir guruhini saylaydilar. Fuqarolar tomonidan saylangan vakillik birlashmasi kengash, (council), qonun chiqaruvchi hokimiyat (legistature), parlament (parliament), yoki kongress (bangress) kabi nomlar bilan ataladi. Xalq tomonidan mustaqil tarzda saylangan vakillik orqali boshqariladigan xalq hokimiyati ba'zida respublika hukumati yoki demokratik rempublika deb ataladi.

Siyosiy vakillik zaminida nodavlat, ijtimioy-siyosiy hayot sohalarida ma'lum munosabatlar yuzaga keladi. Katta bo'lmagan ijtimoiy guruhda, odatda uning a'zolarining har birining ishtirokida qarorlar ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Bu erda o'z xohishini erkin ifoda etishni ta'minlaydigan oddiy o'z-o'zini boshqarish jarayoni amalda bo'ladi. Ammo guruh qanchalik katta va uning tarkibi keng bo'lsa demokratik usulni ishlab chiqish shunchalik qiyinlashadi. Bu erda ma'lum shaxs yoki bir nechta shaxslarga guruh manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish uchun ishonch bildirish extiyoji tug'iladi. Shunday qilib mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi yoki boshqa guruh bilan hamkorlikda yirik masalalarni hal etish maqsadiga qaratilgan ittifoqlar, qo'mitalar, boshqaruv tarmoqlari, byurolar va hokazolar yuzaga keladi. Alohida shaxsga yoki kishilar guruhiga ko'pchilikning manfaatlarini ishonib toptirish o'zaro ishonch, yuqori darajadagi hamjihatlikni ifolaydi.

Davlat hokimiyatida vakillik muassasalari tizimi mustahkam o'z-o'zini boshqarish asosiga qurilgan bo'lishi kerak, shu tufayli bevosita demokratiya oldinda turib unga kuch va obro' bag'ishlaydi. Saylov organlarining mavjudligi, ularning ishini olib borish va qarorlar qabul qilish qobiliyati xalqning unga bergan vakolati orqali yuz beradi. Shubhasiz, siyosiy vakolatli shaxsda – saylov yo'li bilan saylangan noib, ma'suliyati turadi. Saylovda ovoz berish orqali saylangan vakilga ishonch bildirish orqali har bir fuqaro o'z vakilini yuborgan hokimiyatni hurmat qilishdek siyosiy ma'suliyatni o'z zimmasiga yuklaydi, uning qarorlariga

bo’ysunadi, uni sitqidildan bajaradi. Mana shuning uchun demokratiya fuqarolar tomonidan ixtiyoriy qabul qilingan qat’iy siyosiy majburiyat tizimi, intizom hisoblanadi.

Demokratiya xususiyatlari har bir mamlakatda o’ziga xos tarzda o’zgarib turadi. Biroq demokratiyaning quyidagi asosiy xususiyatlari barcha demokratik davlatlar uchun bir xildir.

1. Erkin saylovlar. Xalqqa o’z liderlarini tanlash huquqini hamda liderlar va xalqqa o’z fikrlarini bahsli masalalarda erkin bildirish huquqini beradi. Saylovlar saylangan shaxslar chindan ham xalqning vakillari ekanligiga ishontirish uchun vaqti-vaqti bilan o’tkazib turadi. Saylanish imkoniyati bunday vakillarni xalq fikr-irodasiga e’tibor berishlarini kafolatlash uchun ko’mak bo’ladi. Ko’plab demokratik davlatlarda, ovoz berish uchun yoki saylanish uchun qo’yiladigan qonuniy talabnomalar fuqarolarning yoshi, yashash joyi va fuqarolarga e’tiborni qaratdi. Demokratik jarayon fuqarolarga hech qanday tazyiqsiz yoki porasiz, erkin tarzda yashirin ovoz berish yo’li orqali ovoz berishga imkon yaratadi. Bu ham saylov natijalarini adolatsizlikka qarshi himoya qilishini talab qiladi.

2. Siyosiy partiyalar. Demokratik hokimiyatning eng muhim qismi hisoblanadi. Raqobatchi partiyalar saylovlarni ta’sirli va g’oyatda qiziqarli qilib o’tkazadilar. Ular bunga saylovchilarga turli xil g’oya va dunyoqarashlarga ega nomzodlar orasidan keraklisini tanlab olishlariga imkon yaratish orqali erishadilar. AQSh va Buyuk Britaniya asosan ikki partiyali tizimga ega. Ko’plab demokratik davlatlar ikkita asosiy partiyadan ko’proq partiyaga ega bo’lgan multi-partiyali tizimga egadirlar. Odatda, bunday davlatlarda biror-bir partiya qonun chiqaruvchi kengashda ko’pchilikni tashkil etmaydi. Natijada, ikki yoki undan ortiq partiyalar shunday ko’pchilikni tashkil etish uchun birlashishga majbur bo’ladilar. Koolitsion hukumat bunday partiyalar shakliga asoslanadi. Demokratik mamlakatlarda, hukumatga bo’ysunmaydigan, ya’ni uning doirasidan tashqarida bo’lgan partiya yoki partiyalar “Sobit muxolifat” sifatida harakatlanadi. Sobit muxolifat hukumatdagi partiya siyosati va harakatlarini tanqid qiladi. Turli xil diktaturalarda, hukumatdagi partiyani tanqid qilish xoinlik deb baholanadi va faqatgina hukumat

partiyasiga faoliyat ko’rsatishga ruxsat etiladi. Bunda, kishilar nomzodlarni haqiqiy tanlab olish va davlat siyosatiga qarshi fikr yuritish huquqiga ega bo’la olmaydilar.

3. Davlatning nazorat etilishi. Demokratik davlatlar biror-bir shaxs yoki hukumatning biror-bir tarmog’ini juda kuchli bo’lib ketishini oldini oladigan turli xil tartibga solish ishlarini amalga oshiradi. Masalan, AQSh Konstitutsiyasi siyosiy hukumatni shtatlar va federal hukumat o’rtasida taqsimlagan. Hokimiyatning ma’lum qismi faqat shatatlarga, ma’lum qismi faqat federal hukumatga va ma’lum qismi ikkalasiga ham tegishlidir. Shuningdek, Konstitutsiya AQSh hukumatni Prezident, Kongress va federal sudlar har birini hokimiyati bir-birlarining hokimiyatini tekshirish va muvozanatlash uchun mo’ljallangandir.

Barcha demokratik davlatlarda, hukumat amaldorlari qonunga bo’ysunadilar va xalq oldida mas’ul shaxs hisoblanadilar. Amaldorlar noqonuniy xatti-harakatlari yoki boshqa bir qator sabablar tufayli ishdan bo’shatiladilar.

4. Konstitutsion hukumat. Demokratik hukumat qonunga va ayniqsa yozma hujjat-konstitutsiyaga asoslanadi. Konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta’kidlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanish va hayotga tadbiq etilishini ham o’zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsilar xalqning ozodligini o’zida aks ettirgan va hukumatni fuqarolar huquqlarini buzishga yo’l qo’ymaslikni o’zida aks ettirgan batafsil yozilgan huquqlardan iboratdir.

Konstitutsiyalar o’zida yozilmagan rasmiy marosimlarni ham aks ettiraverishi kerak. Chunki, bunday rasmiy marosimlar yozilgan qonunlarga qaraganda mavjud favqulodda holatlarga tezda moslasha oladi. Britaniyada biror-bir “konstitutsiya” deb atalishi yozilgan hujjat mavjud emas. Bu mamlakatda, aniq konventsilar, asosiy hujjatlar va ko’plab qonunlar “tizimning asosiy qoidalari”ga kiritiladi va foydalaniladi xolos.

Demokratik hukumatning eng muhim xususiyati – bu mustaqil sud tizimidir. Bu xaqqoniyat tizimi bo’lib, u hukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni fuqarolar huquqlari bilan yaxlitligini tekshirish bilan shug’ullanadi.

Ba’zi holllarda, diktaturalar juda puxta ishlab chiqilgan konstitutsiyalarni va fuqarolarning asosiy huquqlari ko’rsatilgan hujjatlarni tayyorlaydilar. Masalan, 1977 yillarda tuzilgan Sovet Ittifoqning konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari aniq va qat’iy belgilab qo’yilgan.

5. Xususiy tashkilotlar. Demokratik davlatlarda, individual va xususiy tashkilotlar mustaqil ish yuritishga harakat qiladilar. Masalan, ro’znoma va oynomalar xususiy tarzda boshqariladi. Davlat maktablari bilan xususiy maktablar ham faoliyat ko’rsatadi. Ko’plab korxonalar xususiy tarzda boshqariladi. Britaniya, Shvetsiya va boshqa ko’plab davlatlarda (ya’ni demokratik davlatlarda) sanoat va xizmat ko’rsatishni, ayrim tarmoqlariga davlatning o’zi egalik qiladi. Diktatorial davlatlarda esa hukumatini o’zi aksariyat uyushmalar va tashkilotlarni shakllantiradi va nazorat qiladi. Bu davlatlarda odamlar davlatning ruxsatisiz biror-bir tashkilotni bunyod ham eta olmaydilar, biror-bir guruhlarga birlasha ham olmaydilar.

5.3. Saylov – davlat hokimiyatini demokratik asosda shakllantirish vositasi va jahon tajribasi

Jamiyat a’zolari tomonidan davlat hokimiyatini shakllantirish maqsadida o’tkaziladigan saylovlar nafaqat demokratiyaning belgisi yoki ko’rinishi, shu bilan birga, uning zaruriy sharti hamdir. BMT Bosh Assombleyasining 1948 yil 10 dekabrida qabul qilingan “Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi”ning 21-moddasida demokratik tamoyillar asosidagi saylovlarning inson huquqlari sifatidagi o’rni quyidagicha ta’riflanadi: “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o’z mamlakat boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo’lishi kerak, bu ifoda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta’minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatga ega bo’lgan umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanish lozim”.[1]

Saylov tizimi – huquqiy me’yorlarda mustahkamlab qo’yilgan, shuningdek, davlat va jamiyat institutlari faoliyatlari tajribasida shakllangan vakillik organlari

[1] Местное самоуправление: теория и практика. Под обш. ред. Г. Люхтерханьт. – М.: 1996.-С. 10-11.

yoki ayrim rahbarlik vakilini saylashni o'tkazish va tashkil etishga doir tartibotdir. Saylovlar tizimi – siyosiy tizimning tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, saylovlar tizimining o'zi ham boshqa tizimlar kabi tuzilmaviy qismlarga bo'linadi: ularning ichida ikkitasi alohida ajralib turadi: birinchisi, fuqarolarning saylov huquqi - nazariy -huquqiy komponent; ikkinchisi esa – saylov jarayonlari – amaliy-tashkiliy komponentlar.

Fuqarolarnig saylov huquqi ularning saylovlardagi ishtirokini, saylovchilar va saylanuvchi organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, keyinchalik saylovchilar ishonchini oqlamagan vakillarni chaqirib oluvchi tartibotlarning huquqiy me'yorlari majmuasidir.

Jamiyat a'zolarinig davlat hokimiyati organlariga bo'lgan saylovlardagi keng ishtiroki demokratik siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Demokratik saylovlar davlat va ularning takomillashgan modellarini shakllantirish maqsadidagi tarixiy rivojlanishning ziddiyatli izlanishlari natijasi o'laroq paydo bo'lgan institutdir. XX asrga kelib davlat hokimiyati organlarini vujudga keltirish bilan bog'liq bo'lgan demokratik saylovlar jahondagi aksariyat mamlakatlar siyosiy hayotidagi tabiiy bir jarayonga aylandi.

Umum e'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillardan biri quyidagicha ifodalanadi: "Demokratik idora etish erkin va adolatli saylovlar davomida mustaqil ifodalanib boradigan xalq irodasiga asoslanadi"[1].

Saylovlar quyidagicha o'tkazilishi mumkin: umumiy-chegaralangan (tsenzil); teng-noteng; to'g'ri-bilvosita; yashirin-ochiq ovoz berish saylovlar tasniflangan har bir juftlikning har tomonidagi tushunchalarga amal qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar asosidagi saylovlar o'tkazilishini bildiradi.

Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatiga bo'ysundirilgan mamlakatlarda avtoritar tartibotga xos saylovlar amal qiladi.

Saylovlarning uchinchi turi – demokratik tartibotlardagi – ya'ni, davlatlar fuqarolik jamiyatiga bo'ysungan mamlakatlar uchun xosdir. Fuqarolik jamiyati qurishni rivojlantirishning muhim sharti – davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi

[1] Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 1998. 30 - b.

o’zaro muvozanat, tenglik bir maromdagi rivojlanishning mavjudligidir. Ularning o’rtasidagi yuz berishi mumkin bo’lgan ziddiyatlar, qo’rqitishlar va hukmronlik usullari bilan emas, balki qonun oldida mas’ul bo’lgan davlat hokimiyat, huquqiy va siyosiy vositalar bilan muvofiqlashtiriladi.

Hozirgi dunyoning ko’plab demokratik mamlakatlari o’zlarining konstitutsiyalari yoki maxsus saylovlarga doir qonunlarida fuqarolarni yashirin ovoz berish orqali umumiy va teng saylovlar huquqlarini e’lon qilgan.

Demokratik jamiyatda saylovlardagi kurashlar siyosiy partiya faoliyatining asosiy kurash maydoni hisoblanadi. Har bir partiya o’z elaktratini (lot. “dektor”-saylovchi) ko’paytirishga intiladi. Elektorat saylovlarda u yoki bu partiyaga ovoz beradigan saylovchilardir.

Hozirgi zamon davlatlarida ovoz berish nafaqat fuqarolik huquqi, balki, fuqarolik majburiyati hamdir. Ba’zi mamlakatlarda saylovda qatnashmaganlik uchun ham jazo choralar belgilangan. Masalan, Belgiya, Niderlandiya, Avstraliya kabi mamlakatlarda jarima to’lanadi. Pokistonda xattoki qamoq jazosi ham qo’llaniladi.

Ovoz berish yakunlari bo’yicha saylovlar natijalarini aniqlash asosan ikki katta saylov tizimi asosida kechadi: mojaritar va proportsional tizimlar. Mojaritar tizimda nomzod yoki nomzodlar ro’yxati qonunda belgilanganidek, eng ko’p ovoz olgandagina u yoki bu saylanadigan vakillik organiga saylangan, deb hisoblanishi bilan tavsiflanadi.

Saylovning proportsional tizimida berilgan ovozlarning miqdoridan kelib chiqib, barcha mandatlarning ana shu berilgan ovozlar o’rtasida aniq proportsional taqsimlanishi ro’y beradi. Masalan, G’arbiy Yevropa, Yaponiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida saylovlar ko’pincha proportsional tizimda o’tkaziladi.

Proportsional tizim ikki xil ko’rinishga ega: birinchisi – umumdavlat darajasidagi proportsional saylovlar tizimi (saylovchilar butun mamlakat doirasida siyosiy partiyalar uchun ovoz beradilar, unda saylov okruglari belgilanmaydi), ikkinchisi – ko’p mandatli okruglarga asoslangan proportsional saylov tizimi

(deputatlik mandatlari partiyalarning saylov okruglariga nisbatan ta’siri asosida taqsimlanadi).

Mojaritar va proportsional tizimlar o’zlarining yutuq va kamchiliklariga egadir. Mojaritar tizimning ijobiy tomoni shundaki, unda samarali faoliyat yurituvchi va barqaror hukumatni shakllantirish imkoniyati borligi bilan izohlash mumkin. U katta va yaxshi takomillashtirilgan siyosiy partiyalarga saylovlarni muvoffaqiyatli o’tkazish imkoniyatlarini beradi.

Mojaritar tizimning salbiy tomoni: Mamlakat saylovchilarining ko’pchilik qismi (ba’zan 50 foizga yaqin) hokimiyat organlarida o’z vakillariga ega bo’lmay qoladilar.

Proportsional tizimning ustun tomonlari to’g’risida quyidagilarni keltirish mumkin: uning yordamida jamiyat siyosiy kuchlarni joylashishining real va aniq manzaralarini ko’rish mumkin. U fikrlar xilma-xilligi va ko’ppartiyaviylikni rivojlanishi, davlat bilan fuqarolar o’rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta’minlab beradi.

Proportsional tizimning asosiy kamchiliklari esa quyidagilardir: hukumatni shakllantirishda murakkabliklar yuzaga keladi (sababi: biron-bir ustunlik qiladigan partiyaning yo’qligi, har xil maqsad va muddaolardagi partiyalarning ko’ppartiyaviylik asosdagi koalitsiyasini beqarorligini keltirib chiqaradi).

Hozirgi davr demokratik saylovlar tamoyillaridan biri – teng saylov huquqi hisoblanadi. Uning amaldagi ifodasi shundan iboratki, qonun chiqaruvchi organdagi har bir deputat deyarli teng miqdordagi fuqarolar vakili hisoblanadi, shuningdek, har bir saylovchi umumiy saylov qarorlariga bir hilda ta’sir etish darajalariga ega bo’ladi.

Demokratik saylovlarning yana bir mezonlaridan biri – saylovlarni to’g’ridan- to’g’ri o’tkazish qoidasi hisoblanadi. Parlament demokratiyasi rivojlangan mamlakatlarning ko’pchiligida saylovchilar to’g’ridan-to’g’ri (delegatlar yoki vakillar vositasisiz) prezident, parlament va boshqa siyosiy hokimiyat organlarini saylaydilar.

Demokratik saylovlarning yana bir muhim qoidasi musobaqadoshlik yoki o’zaro raqobatboshlik hisoblanadi. Ya’ni u saylovlarda turli xil ijtimoiy guruhlar

yoki qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli partiyalar va nomzodlarni ishtiroki asosidagi raqobatdoshlik demokratik rivojlangan mamlakatlar uchun xos.

Barcha demokratik mamlakatlar tomonidan tan olingan qoidalardan yana biri, bu – yashirin ovoz berish usulidir. Saylovlarda yashirin ovoz berish natijasida saylovchilarga tashqaridan tazyiq yoki ta’sir o’tkazishning oldi olinadi, har bir saylovchining erkin bo’lishi, o’z xoxish-ihtiyorini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Saylovlar o’tkazishdagi yana bir demokratik qoida – saylovlar ustidan xalq nazoratini o’rnatishdir. Qolaversa saylovlar marosimlarida milliy va xorijiy kuzatuvchilarning ishtirok etishi saylov o’tkazilayotgan davlatning obro’-e’tiborini oshiradi.

Demokratik mamlakatlardagi saylovlar o’tkazish qoidalaridan biri – saylovchilarning ishtirok etishini ixtiyoriyligi hisoblanadi. Bu qoidaning mohiyati shundaki, hech kim fuqaroning saylovda erkin o’z xoxishini bildirishga yoki saylovda ishtirok etish va etmasligiga ta’sir o’tkaza olmaydi.

Demokratik saylovlarning yana bir qoidasi – nomzodlarning saylovoldi kurashi uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Bu qoida nomzodlarga turli moddiy yoki siyosiy imkoniyatlar ularninng ba’zilariga ustunliklar va imtiyozlar paydo bo’lishini oldini olib, barcha nomzodlar uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, BMT ning “Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi”da ifodalangan “xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo’lishi kerak” degan demokratik qoida asosan saylovlar vositasida amalga oshirilib, unda jamiyat a’zolarinig xoxish-istaklari asosida siyosiy hokimiyatning izchil vujudga kelishi ro’y beradi.

5.4. O’zbekistonda parlament tuzilishi. Bir palatali va ikki palatali parlament tajribasi

Oliy Majlis qonun chiqarish vazifasini bajaruvchi konstitutsiyaviy organdir.

Oliy Majlis – oliy davlat vakillik organi. Uning 250 nafar deputati O’zbekiston tarixida birinchi marta 1994 yil dekabrida ko’ppartiyaviylik asosida

saylanadi. Bu mustaqil davlatchilik shakllanishida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyani, qonunlarni qabul qilish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash, boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish, soliqlarni joriy qilish Oliy Majlisning mutloq vakolatlari doirasiga kiradi.

O'z faoliyati davomida (1994 yil dekabridan buyon) Oliy Majlis 300 dan ziyod qonun va qarorlar qabul qildi. Ilgari qabul qilingan qonunlarning 1/3 qismidan ko'prog'i, o'zgarib borayotgan vaziyat taqozosi bilan, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi. Ular jamiyatda hamjihatlikni saqlashga, iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, tadbirkorlikning erkinligiga, fuqarolarning moddiy farovonligiga, inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishiga, O'zbekiston Respublikasining jahon miqyosidagi obro'sini oshirishga xizmat qilmoqda. Oliy Majlis ishida asosiy e'tibor jamiyatga Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligini qaror toptirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishiga qaratildi. Oliy Majlis deputatlari umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirish ovoz berish orqali saylanadilar. Oliy Majlis deputati o'z saylovchilarning, shuningdek, o'zini deputatlikka nomzod deb ko'rsatgan tegishli siyosiy partiyaning yoki tegishli hokimiyatning vakillik organning vakili hisoblanadi. Bugungi kunda saylov so'zi yurtdoshlarimiz ongida o'zgacha ma'no kasb etmoqda. Ular saylovlar xalq xoxishi irodasini to'g'ridan-to'g'ri bildirish, davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etish shakli ekanligini teran anglab etmoqdalar. 1999 yil 5 va 19 deakbr kuni bo'lib o'tgan siyosiy tadbirlarda fuqarolarimiz faollik ko'rsatganliklari bunga yorqin misoli bo'la oladi.

Yangi turdagi parlament ishining dastlabki kunlaridanoq qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishga, islohatlarni huquqiy jihatdan ta'minlashga o'ziga xos yondashuvlar shakllana bordi. Bu boshqa mamlakatlar hokimiyat vakillik organlarining xatolarini takrorlamasdan mamlakatimizdagi o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlarini, o'zbek xalqining aql-zakovatini, uning an'analari va odatlarini

hisobga olgan holda qonun yaratishning o’zimizga xos mexanizmini ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Qonun loyihalari hech qaerda bizda bo’lganidek, ommaviy axborot vositalarida, mehnat jamoalarida, deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarida keng umumxalq muhokamasidan o’tmaydi. Bu mehanizm qonun chiqaruvchilarga huquqiy hujjatlarni uzil-kesil takomiliga etkazishda va ularni qabul qilishda aholini turli qatlamlari, mutaxassislar fikrini imkoni boricha ko’proq hisobga olish imkoniyatini beradi. Ulkan tayyorgarlik ishlari parlament sessiyalarini ortiqcha tortishuvlarsiz, ishchanlik muhitida o’tkazish, har tomonlama puxta ishlab chiqilgan qonunlarni qisqa muddatlarda qabul qilish imkonini beradi.

Qonun yaratish – har bir so’z, tushuncha, tarif ustida teran va izchil mushoxada qilishni talab etadigan murakkab jarayon. Shu tufayli bu sohaga katta nazariy bilimga ega bo’lgan mutaxassislar jalb etilmoqda. Qonunlarni aksariyati oldindan xalqaro ekspertizadan o’tkazildi va chet el huquqshunoslarining yaxshi baholariga sazovor bo’ldi. Bu O’zbekiston qonun hujjatlari umumiy qabul qilingan jahon andazalari, huquqiy jihatdan etuklik darajasiga qadam-baqadam intilayotganligini bildiradi. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi tarmog’i O’zbekiston mustaqilligi bilan barobar boshlanib, bugungi kunda mamlakat yanada taraqqiy etishning muhim asosiga aylandi.

2004 yilga kelib, kun tartibiga 2 palatali parlament tuzish masalasi qo’yildi. Buning uchun barcha shart-sharoitlar etildi. Birinchidan, 2 palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo’lgan omil yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi bor. Ikkinchidan, jamiyatda huquqiy madaniyat ortdi. Uchinchidan, davlat hokimiyatini tashkil etishning sovet totalitar tizimining rasmiy-yuridik jihatdangina emas, ijtimoiy tarixiy jihatdan ham barham topdi. 10 yil davomida mustaqil qonun chiqaruvchi hokimiyat organi mustahkamlandi. Endilikda milliy davlatchiligimizning muhim institutlarni rivojlantirish, jumladan parlamentni 2 palatali qilib tuzish imkoniyati vujudga keldi.

Qonun chiqaruvchi organ Parlamentning necha palatadan iborat bo'lishi bugungi kunda zamonaviy parlamentarizmning muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Parlament institutlarining turfa xilligi siyosatchilar, olimlar, siyosatshunoslar uchun doimo baxs-munozara mavzusi bo'lib kelgan. Parlamentning qay shaklida bo'lishi ko'p jihatdan o'sha davlatdagi mavjud siyosiy vaziyat hamda konstitutsion tizimning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liqdir.

Ho'sh bugungi kunda dunyo miqyosidagi parlamentlar tarkibi qanday shakllanmoqda?

Ma'lumki, ayni paytda zamonaviy qonun chiqaruvchi idoralarning bir yoki ikki palatali shakli keng tarqalgan. Ko'pchilik ikki palatali parlamentlar faqat federativ modelli davlatlardagina bo'lishi mumkin degan fikrni bildiradi. Lekin tajriba bunday emas, chunki qator yirik, rivojlangan demokratik tizimli mamlakatlarda davlat tuzilishiga qaramay (xox federativ, xox unitar bo'lsin) asosan ikki palatali parlamentlar faoliyat ko'rsatmoqda. Hozir esa dunyo miqyosida ikki palatali parlamentlarni tashkil etish tendentsiyasining kuchayishi ko'zga tashlanmoqda. Bu jarayonni katta va kichik bo'lgan unitar davlatlarda ham kuzatish mumkin. Agar XX asrning 70-yillarida atigi 45 ta davlat parlamentining tarkibi ikki palatali bo'lgan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib, ularning soni 70 taga etdi va ayni paytda yana undan ziyod davlatlarda ikki palatali parlamentni tashkil etish borasida tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Bugungi kunda federatsiya shaklidagi yirik davlatlardan tashqari Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Ispaniya, Belgiya, Gollandiya, Yaponiya, Shvetsariya, Polsha, Chexiya, Belarusiya, Ruminiya kabi unitar davlatlarda ikki palatali parlament tizimi joriy etilgan.

Jahon tajribasida palatalar soni ikkitadan ko'p bo'lgan parlamentlar ham uchraydi. Masalan, JARda uch palatali, Yugoslaviya parlamenti esa bir paytlar olti palatali bo'lgan. Yuqorida aytganidek, parlamentning qay shaklda bo'lishi har bir davlatning tarixi, an'analari hamda o'sha paytdagi mavjud vaziyatga bog'liqdir. Endi O'zbekistonning yaqin o'tmishdagi parlamentchilik faoliyatiga nazar

tashlaylik. Sobiq SSSR davrida O’zbekiston parlamenti O’zbekiston SSR Oliy Kengashi, deb atalardi. Lekin uning faoliyati parlamentarizm talablariga javob bermasdi. U asosan ratifikatsiya va tashviqot organi vazifasini o’tagan.

Mustaqillik erishgach, O’zbekiston Oliy davlat vakillik organi mazmun va mohiyatdan mutlaqo yangi bo’lgan parlamentni shakllantirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ydi va shu bois 1994 yil ilk bor ko’ppartiyaviylik asosida bo’lib o’tgan saylovlar natijasida bir palatali, 250 nafar deputatdan iborat Oliy Majlis tashkil topdi.

Ayni paytda O’zbekistondan tashqari MDHga a’zo bo’lgan 12 ta davlatning oltitasida (Tojikiston, Turkmaniston, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Moldava)da bir palatali parlament faoliyat ko’rsatyapti.

Gap mamlakatimizda ikki palatali parlamentni joriy etish haqida ketayotgan paytda yana bir savol tug’ilishi mumkin: xo’sh, O’zbekiston nega mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ana shunday yo’ldan bormadi, ya’ni ikki palatali parlamentga asos solinmadi?

Taraqqiyotning bosqichma-bosqich tamoyilini ma’qul topgan O’zbekiston Parlament islohotida ham ana shunday tanladi. Qolaversa, biz hammamiz Hamdo’stlik davlatlaridagi parlamentni shakllantirish jarayonining bevosita guvoxlarimiz.

Islohotlar endigina boshlangan, davlatchilikning huquqiy poydevori yaratilayotgan mas’uliyatli bir pallada lobbizm, siyosiy o’yinlar va ba’zi shaxslarning manfaatlari ustuvor bo’la olishi mumkinmidi? Yo’q albatta. O’zbekiston o’z taraqqiyotining dastlabki bosqichida parlamentchilikning bir palatali modeliga asoslanib to’g’ri yo’l tutdi. Parlament xususida o’sha paytda ham, hozir ham ko’plab fikrlar bildirildi va bildirilmoqda. Ularni ijobiylari ham bor, tanqidiylari ham bor. Xususan, doktor Levitin so’nggi kitobida Oliy Majlis doimiy ishlamaydigan organ, unda deputatlar professional tartibda ishlamaydilar, deb yozadi.

To’g’ri deputatlarning barchasi Parlamentda doimiy ishlamasada, ularning ma’lum qismi muntazam faoliyat ko’rsatuvchi yaxlit organ – Oliy Majlisning

qo’mita va komissiyalari tarkibida; ishchi organ-sessiyalar oralig’ida xodimlar bilan birgalikda qonun chiqarish jarayonini boshqaradilar. Bundan tashqari, yil davomida Oliy Majlisning kollegial rahbar organi – Kengash turli sohalarga ixtisoslashgan 13 ta qo’mita va 3 ta komissiyasi muntazam faoliyat yuritadi. Turli masalalar xususan, qonun yaratish jarayonlari bo’yicha Oliy Majlisda uchrashuv, muzokaralar, majlislar, muhokamalar, fraktsiyalar yig’ilishlari bo’lib o’tadi.

Xulosa qilib aytganda, bir palatali parlament hali etarli huquqiy bazasi shakllanmagan, turli sohalarda qonun tanqisligi sezilayotgan yosh davlat uchun muhim ahamiyat kasb etishi, shubxasiz. Chunki bunda, birinchidan, qonun yaratuvchilik jarayoni tezlashadi va o’ziga xos jo’shqinlik yuzaga keladi. Shu bois Oliy Majlisning dastlabki 5 yillik faoliyati unumli bo’ldi. 138 ta qonun, 468 ta qaror, 10 ta Kodeks, 2 ta milliy dastur qabul qilindi.

Endilikda parlament islohotlarining yangi bosqichiga qadam qo’yildi. Prezident I.A. Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida milliy parlamentarizmni rivojlantirish xususida to’xtalib, yaqin istiqbolda ikki palatali qonun chiqaruvchi organ yaratilishi lozimligi haqidagi g’oyani ilgari surdi.

Prezidentning fikricha, parlament quyi palata qonunchilik palatasi hamda yuqori palata senatdan iborat bo’lishi kerak. Quyi palata doimiy, professional asosda ishlovchi turli partiyalar vakillari ish yuritadilar. Yuqori palata esa mintaqalar, Toshkent shahri viloyatlar va Qoraqalpog’iston Respublikasidagi mahalily kengashlar tomonidan teng miqdorda olti kishidan saylanadi.

Quyi palata mahalliy hokimiyat vakillaridan butunlay bo’shatiladi, uning shakllanishini siyosiy partiyalarning o’zlari amalga oshiradi. Quyi palata o’z saylovchilari, jamiyatning turli qatlamlari fikrini ifodalaydi. Qonunlarning yaratilish jarayoni ham ana shundan kelib chiqadi. Yuqori palata esa, asosan tajribali hayotni ko’rgan kishilar bo’ladi. Ular ham xalq manfaatini ko’zlab, keng jamoatchilik fikrini inobatga olib ish yuritadilar. Qonunlarni qabul qilishning yakuniy jarayonida palatalar orasida baxs-munozara paydo bo’ladi va ana shu yo’l bilan har tomonlama ma’qul, turli illatlardan xoli bo’lgan mukammal qonunlar yaratiladi.

Ikki palatali parlament bir qancha o’ziga xos afzalliklarga ega. U, eng avvalo ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmoqlari o’rtasidagi muvozanat yanada barqaror bo’lishini ta’minlaydi va ikkinchidan, “nazoratchi” palataning mavjudligi tufayli Parlamentning yanada uyg’un ishlashiga erishiladi.

Ikki palatali parlamentning yana afzal tomonlari, ikki palatali parlament mintaqalarining, kichik tuzilmalarning, mamlakatning uzoqda joylashgan qismlarining manfaatlariga rioya etilishiga olib keladi. Ikkinchi palata qonunlar chiqarish jarayonida uchraydigan populizm, lobbizm va engil-elpi, tor doiradagi manfaatlarga qarshi turuvchi qo’shimcha filtr sifatida ish tutadi.

Ikki palatali parlamentning O’zbekiston uchun afzal jihatlari quyidagilardan iborat:

❖ Garchand O’zbekiston federativ davlat bo’lmasada lekin mavjud mintaqalar – viloyatlarning o’ziga xos tomonlari va u erda isteqomat qiluvchi xalqining o’zgacha jihatlari borligini e’tirof etish lozim;

❖ O’zbekiston hududi kattaligi bois parlamentda mintaqalar manfaatlarini himoya qilish;

❖ Mintaqalar shart-sharoiti, iqlimi, salohiyati va potentsiali darajasi har xilligini inobatga olsak, bu juda muhimdir. Chunki parlament nafaqat qonun chiqaruvchi, balki oliy vakillik organi hamdir. Shuning uchun ham unda barcha hududlarning teng taqsimlangan vakillari o’z o’rniga ega bo’ladilar;

❖ Shu bilan birga, ikki palatali parlamentga o’tish jamiyatni yanada liberallashtirish, professional deputatlar, yuqori saviyali siyosatchilar sinfining paydo bo’lishida muhim o’rin tutadi.

Tabiiyki, Oliy Majlisning mazkur chaqirig’i tugashiga xali vaqt borku, ikki palatali parlament to’g’risidagi referendumni nima uchun hoziroq o’tkazishimiz kerak? degan savol tug’ilishi mumkin. Referendumga kiritish mo’ljallangan masalaga saylovchilar ijobiy munosabat bildirganlari taqdirda, mavjud huquqiy bazani jiddiy o’zgartirish, saylovlarga oid hamma yangi parlament ishiga taalluqli qator qonun hujjatlarini qayta ko’rib chiqish zarur bo’ladi.

❖ Birinchidan, ikki palatali parlamentni tuzishning yangi tartibini yaratish kerak bo’ladi;

❖ Ikkinchidan, yangi parlamentning huquqiy maqomini uning vakolatini aniqlab olish talab etiladi;

❖ Uchinchidan, har ikkala palataning vakolatlarini qonuniy tarzda taqsimlab qo’yish;

❖ To’rtinchidan, bo’lajak ikki palatali parlament faoliyatini tashkil etishni yo’lga qo’yish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o’ninchi sessiyasida “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to’g’risida” va “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to’g’risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Ular Oliy Majlis palatalarning maqomini, ularni shakllantirish tartibini, vakolatlarini, o’zaro hamda boshqa hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish asoslarini belgiladi.

Qonunchilik palatasi Oliy Majlisning quyi palatasidir. U saylov okruglari bo’yicha ko’ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat. Ikki palatali parlamentning vakolat muddati tugaganligi sababli 2009 yil 27 dekabrda saylovlar bo’lib o’tdi. Oldingi saylovlardan farqli deputatlar soni 30 taga ko’paydi. Yangi saylovda “Ekologik harakat”dan 15 nafar deputat saylandi. Senatning o’n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo’lgan hamda alohida xizmat ko’rsatgan eng obro’li fuqarolar orasidan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O’tgan muddat davomida odamlarning siyosiy ongi, madaniyati, vatanimizning kelajak taqdiri uchun qayg’urish xissi qanchalik oshganligini sinovdan o’tkazadi.

5.1- chizma

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tuzilishi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati		O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi
Senatorlar soni 100 nafar, shundan 84 nafar senator yashirin ovoz berish natijasida Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan, Qoraqalpog’iston Jo’qori Kengesi, viloyat,t uman va shaharlar davlat hokimiyat vakillik organlari deputatlari orasidan saylanadi. 16 nafar senator O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq tayinlanadi		Deputatlar soni 150 nafar, shundan siyosiy partiyalardan 135 nafar hamda “Ekologik harakat”dan 15 nafar deputat yashirin ovoz berish yo’li bilan 5 yil muddatga saylanadilar. Qonunchilik palatasi qonunlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etlish, qonun ustuvorligini ta’minlash ularning asosiy vazifasi

Qisqacha xulosa.

Demokratiyaning asosiy tamoyillari – teng huquqlilik, erkin, demokratik saylovlar, xur fikrlilik, siyosiy plyuralizm (har xillik), ko’ppartiyaviylik, hokimiyatning saylab qo’yilishi va xalq oldida xisobdorligi, ozchilikning ko’pchilikka bo’ysunish, ozchilikning fikrini hisobga olish. Bu shart-sharoitlarsiz demokratiya quruq gap.

Har qanday davrning, har qanday jamiyatning, har qanday xalqning o’ziga xos demokratiyasi bo’ladi. Ya’ni demokratiya tamoyillarini belgilashda, jamiyatning ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlari asosida shakllangan, xalqning, millatning ijtimoiy ongi, psixologiyasi xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak

demokratiya insoniyatning madaniyati, idroki, bilim doirasi, ishbilarmonlik qobiliyati, uning jamiyatda erkin yashash va mehnat qilish ko'nikmasi bilan birgalikda shakllanib, rivojlanib boradigan tabiiy tarixiy jarayondir.

Tayanch so'zlar.

Demokratiya, bevosita demokratiya, vakillik demokratiyasi, xalq hokimiyati, xalq uchun xizmat qiladigan hokimiyat, demokratiya xususiyatlari, erkin saylovlar, siyosiy partiyalar, koalitsion hukumat, sobit muxolifat, davlatning nazorat etilishi, konstitutsion hukumat, xususiy tashkilotlar, yangilangan parlament.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Demokratiyaning lug'aviy ma'nosi qanday?
2. Demokratiyaning qaysi shaklini eng zamonaviy deb hisoblaysiz?
   a. Bevosita demokratiyanimi, yoki
   b. Vakillik demokratiyasinimi
3. Demokratiya va saylovlar ma'nodosh so'zlarmi?
4. Tushuntirib bering. Nima uchun demokratiya jami jamiyat hayotini tashkil etishni eng maqbul usuli hisoblanadi?
5. Nima uchun demokratiyani dushmanlari bor? Ular ko'pmi? Demokratiyani himoya qilish usullari qanday?
6. Parlament demokratiyasida partiyalarning roli qanday?
7. Parlament a'zolari – "xalq xizmatkori" ekaniga siz qo'shilasizmi. O'z fikringizni asoslang?
8. Sharqxona demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar.
9. Demokratiyaning umumiy tamoyillarini ta'riflab bering?
10. Siyosiy xilma-xillik nima? Siz uni qanday tushunasiz?

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2009. 4-12- b.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va Yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishdir. –T.: "O'zbekiston", 2005. 3-29- b.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 108-b.
4. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. “Xalq so’zi”, 2008 yil 6 dekabr.
5. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: “O’zbekiston”, 2009, 18-23-b.
6. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O’quv qo’llanma. –T.: TDIU, 2006. 57-75- b.
7. Aliev B. Boboev A. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. –T.: TDIU, 2006. 55-66 b.
8. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. –M.: Infra-M. 2007. 185-208 b.
9. Odilqoriev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: “O’qituvchi”, 2008, 106-130-b.
10. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 122-153-b.

6-MAVZU: SIYOSIY HOKIMIYAT

6.1. “Hokimiyat”, “siyosiy hokimiyat” tushunchalari va uning sub’ektlari

Hokimiyat – hozirgi zamon siyosiy fanida markaziy tushunchalardan biridir. Hokimiyat xodisasi faqat siyosiy sahifagina emas u ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham uchraydi. U iqtisodiyotda, madaniyatda, fanda, ta’limda, oilaviy munosabatlar sohasida, shungdek ijtimoiy hayotdan tashqarida hayvonot dunyosida ham to’qnash keladilar. Siyosiy hokimiyat politologiyaning o’rganish predmeti hisoblanida. Shuning uchun asosiy e’tiborni siyosiy hokimyatning o’ziga xos tomonlarini ochib berishga qaratamiz.

Hokimiyat jamiyatning hamma sohalarini qamrab oladigan murakkab tushunchadir. Uning manbai kishilar holatining har xilligidir. Odamlar mutloq teng bo’lgan joyda hokimiyat ham yo’q. Jamiyatda bo’ysunish va hukmronlik,

boshqarish va nazorat, o’zaro bog’liqlik munosabatlari muqarrar ravishda hokimiyatni vujudga keltiradi.

Siyosiy hokimiyat – bu alohida sinf, katta ijtimoiy guruh yoki mavjud jamiyatning ko’pchiligining o’z ifodasini boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarga o’tkazish qobiliyati va imkoniyati bo’lib, odamlarning faoliyatlariga, xulq-atvoriga o’z obro’si, xulqi, zo’ravonligi vositalarida ta’sir o’tkazishni anglatadi.

Boshqa hokimiyat shakllaridan farqli ravishda u o’ziga xos xususiyatga ega. Uning farq qiluvchi alomatlari quyidagicha:

1) Uning qarorlarining jamiyat barcha a’zolari va barcha turdagi hokimiyatlar uchun ustivorligi va majburiyligidir. U boshqa hokimiyat shakllarining ta’sirini cheklashi, ularni oqilona yo’lga solishi, yoxud ularni yo’q qilishi mumkin;

2) Ommaviyligi, ya’ni oshkoraligi. Bu degan so’z, siyosiy hokimiyat huquq asosida, butun jamiyat nomidan ish ko’radi;

3) Mamlakat doirasida kuch ishlatish va hukmronlik qilishning boshqa vositalaridan foydanishining legitimlashganligi (qonuniyaligi);

4) Markazlashganlik, ya’ni qarorlarni qabul qilishning umumdavlat markazining (hokimiyat organlari tizimining) amal qilishi;

5) Hokimiyatni egallash, ushlab turish va amalga oshirish uchun keng qamrovli vositalarni ishga solish imkoniyatining mavjudligi.

Shunday qilib, siyosiy hokimiyat uni egallab turgan, butun jamiyat (davlat)ga raxbarlik qilib boshqarayotganlarning davlat ihtiyoridagi vositalar yordamida xalq ommasining xatti-harakatiga belgilovchi ta’sir o’tkazish, odamlarning ko’pchiligini qo’yilgan maqsad va dasturlarni amalga oshirishga safarbar etish, barqarorlik va ijtimoiy kelishuv maqsadiga alohida guruhlar munosabatlarini tartibga solish qobiliyati va imkoniyatini ifodalaydi.

Siyosiy hokimiyatning asosiy tarkibiy qismlari – bular uning ob’ekti, sub’ekti, asosi hokimiyat manbalari va jarayon, harakatga keltiruvchi uning barcha bo’laklari hisoblanadi.

Sub’ekt va ob’ekt – hokimiyatning bevosita sohibi va gumashtasidir.

Hokimiyat – hokimiyat sub’ektlarining (individ, guruh, ijtimoiy qatlam va shu kabi) kishilar faoliyati, xulqi, harakatiga ta’sir qilish layoqati bo’lgan xolati. Bunda sub’ekt o’z ifodasini ob’ektga singdiradi, zo’rlik yoki ixtiyorlik vositalari orqali faoliyatga, harakatga undaydi.

6.1-chizma



Sub’ekt hokimiyatining faol, yo’naltiruvchi omili, ibtidosidir. Sub’ekt bo’lib alohida shaxs, tashkilot, odamlar birlashmalari, masalan xalq, xattoki BMTga birlashgan hamjamiyat hisoblanadi.

Hokimiyatli munosabatlarning paydo bo’lishi uchun sub’ekt bir qator sifatlarga ega bo’lishi kerak. Avvalo u farmoyish yoki buyruqlari ifodalangan hukmronlik qilish, hokimiyatga intilish istaklardir.

Hokimiyatning asosi – bu uning tayanchi, boshqaruv manbalari bo’lib uning yordamida qo’yilgan maqsadga erishish yo’lida ob’ektga ta’sir ko’rsatadi.

Hokimiyat manbalari – bu xaqiqiy va yashirin imkoniyatlar bo’lib ular hokimiyatni mustahkamlash yo’lida foydalaniladi yoki foydalanishi mumkin.

Boshqacha gapirganda hokimiyatning asosi – bu uning poydevori, hokimiyat manbalari esa uning imkoniyatlari va texnologiyasidir.

Hokimiyatning mavjud hamma asosi va manbalarining yig’indisi birgalikda uning potensial imkoniyatlarini ochib beradi. Hokimiyat sub’ekti ixtiyorida bo’lgan hokimiyat zamini va hokimiyat irodasiga ob’ekt tomonidan qarshilik ko’rsatuvchi manbalarni bir-biriga solishtirish hokimiyat kuch-qudratini aniqlashga yordam beradi.

Siyosiy fanda asos va manbalar turlicha turkumlanadi. Jamiyat hayotiy faoliyatining sohalarida zamin va manbalar qanday turkumlanishini ko’rib chiqaylik:

Iqtisodiy asos mulkchilik shakllarining hukmronligi, yalpi milliy mahsulotning aholi jon boshiga taqsimlanish, tuzilmaviy ishlab chiqarish (sanoat va davlat sektorlarining nisbati), strategik muhim tabiiy boyliklar. Oltin zaxirasi, ishlab chiqishning texnologik darajasi bilan izoxlanadi.

Shuningdek, iqtisodiy manbalarga (resurslarga): investitsiya, ilmiy texnika, soliq, bojxona siyosati, shuningdek kapital, tovar va boshqa moddiy boyliklar kiradi.

Sotsial (ijtimoiy) asos – hokimiyatning sotsial bazasi, hokimiyat suyanadigan ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning darajasi va boshqalar kiradi.

Sotsial asos – bu sotsial bazani kengaytirish usullari, hokimiyatning ijtimoiy guruh va qatlamlarning ijtimioy sohadagi o'rnini o'zgartirishi, sotsial maqomning ortishi yoki pasayishi, shuningdek davlatning sotsial, ijtimoiy siyosat sohalarida amalga oshirilayotgan bir butun yaxlit tadbirlari demakdir.

Huquqiy asos – bu qonunchilik, shuningdek uni tatbiq etishini ta'minlab beruvchi institut va tashkilotlar. Huquqiy manbalar va turli xildagi qo'llanmalar va boshqa mahkamaviy hujjatlar kiradi.

Ma'muriy kuch ishlatuvchi asos – davlat hokimiyati va uning boshqarmasi hayotiy faoliyatini ta'minlab beruvchi hokimiyatli muassasalarining majmui. Bunga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning muhim tuzilmalari, shuningdek xavfsizlik organlari, razvedka va ichki ishlar vazirligi kiradi.

Mos ravishda ma'muriy kuch ishlatish manbalariga maxsus kasbkorlik sifatlariga ega bo'lgan hokimiyatli muassasalarni qurol bilan, maxsus texnika bilan ta'minlash, kadrlar tanlash tizimi kiradi.

Madaniy-muassasaviy (axborotlashgan) asosga – mamlakat madaniy saloxiyatini saqlash va jamlashga oid tashkilotlar tizimi: ommaviy axborot vositalari, razvetka ma'lumotlarini qabul qilish, to'plash va qayta ishlash, milliy va xalqaro kompyuter tarmog'i. Shuningdek madaniy axborotli manbalari – ma'naviy qadriyatlar, bilim, axborot kiradi.

Turli ijtimoiy tizimlarda, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida hokimiyatning u yoki bu asoslari va manbalari hokimiyat tizimida o'zining ahamiyatini o'zgartirishi mumkin.

Hozirgi davr postindustrial mamlakatlarida politoglarning ta'kidlashlaricha madaniy axborotli asosning roli keskin ko'tarilgan.

Hokimiyat manbalari asosning xosilasi xisoblansada, u nisbiy mustaqildir. Odatda manbalar hokimiyatni amal qilishi va uni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Odamlar extiyojlari va qiziqishlarini qondirishning turli vositalari bo'lgani kabi hokimiyat manbalari ham turlichadir.

Manbalar politologlar tomonidan turlicha tasniflanadi. A.Ettsion qarashlariga ko'ra ular ya'ni manfatli manbalar:

Majburlash manbalari;

Normativ (belgilangan) manbalar.

Manfatli manbalar – bu odamlarning kundalik manfaatlari bilan bog'liq moddiy va boshqa sotsial boyliklardir. Ular yordamida hokimiyat, ayniqsa davlat alohida siyosatchilarni, xattoki aholining turli qatlamlarini sotib olishi mumkin. Bu manbalar rag'batlantirish uchungina emas, shuningdek, jazolash (Masalan: noinsof xodimlarni ish xaqini pasaytirishda) foydalaniladi.

Majburlash manbalari manfaatli manbalar ish bermay qolgan taqdirda ma'muriy jazolash choralari sifatida chiqadi. (Masalan: iqtisodiy jarimadan qo'rqmay ish tashlagan xodimlarni sud tomonidan ta'qib etilishi va boshqalar).

Normativ (belgilangan) manbalar – odamlarning ichki dunyosi, qadriyatli mo'ljallari va xatti-harakat qoidalariga ta'sir etuvchi vositalardir. Ular qo'l ostidagilarni raxbar va ijrochi manfaatlari umumiyligiga ishontirish, hokimiyat sub'ekti tomonidan qabul qilingan qarorlarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan.

Siyosiy hokimiyat aholi tomonidan vazifaligicha baholanishi mumkin. Aholining hokimiyatga ijobiy baho berishi, uning qonunga muvofiqligini, boshqarish huquqini tan olishiga va bo'ysunishiga roziligi hokimiyatning

qonuniyligini bildiradi. Legitim hokimiyati odatda qonunga muvofiq va adolatli sifatida tasniflanadi.

Siyosiy hokimiyani egallagan elita ommaning ixtiyoriy ravishda mavjud hokimiyatni tan olishlari uchun barcha vositalarni ishga soladi. Omma hokimiyatni ma’lum bir ishonch asosida qabul qilish mumkin. Bu legitimlik printsiplari deyiladi. Ular siyosiy hokimiyatni tan olib, bo’ysunishini asoslovchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan sabablardir. Legitimlik[1] (6.2-chizmaga qarang) printsipining manbalari qadimdan mavjud an’analarda, amaldagi qonunchilikda yoki xukmdorlarning katta avtoritetida bo’lishi mumkin.

6.2-chizma



[1] Legetimlik – biror huquq va vakolatning qonuniy ekanligini e’tirof etish, tasdiqlash.

Legitimlik urnologiyasini Maks Veber ishlab chiqqan ideali.

6.3-chizma



.

U har bir rivojlangan siyosiy tizimlardagi legitimlik printsipini tasvirlamasdan, ularni uch asosiy o'ringa joylashtiradi. Ya'ni, siyosiy voqelikda asosiy holda uchramaydigan ideal o'rinlarni tushuntiradi. Ular an'anaviy, qonun va xarizm printsiplariga asoslangan o'rinlardir. Aniq siyosiy tizimlarda bu uch o'rin o'zaro aralashib ketadi, ularning har biri asosiy, ustun ekanligiga ko'ra siyosiy hokimiyatning legetimlik turi aniqlanadi.

An'anaviy shakli – hukmronlikning oila darajasidagi ko'rinishi bo'lib jamiyat miqyosida amal qiladi. U urf odatlar, qadriyatlar, qoidalarning muqaddasligiga ishonishga, asrlar davomida hayotni, odamlarning xatti-harakatini tartibga solib turgan, hokimiyatning amal qilishi patriarhal asoslar va diniy odatlar orqali muqaddaslashtirilganligiga asoslanadi. Misol sifatida an'anaviy hokimiyatga Qadimgi Sharq jamiyatlarini (Misr, Eron, Xitoy) o'rta asr Yevropasi, hozirga davrda Saudiya Arabistoni, Baxreyn, Quvayt, Omon va boshqalarni keltirish mumkin.

Hozirgi Yaponiyada, Angliyada an'anaviy tarzda mamlakat, davlat, millat birligi, yakdilligi ramzi hisoblangan imperatorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ochiq hokimiyat shakli huquq va qonunning ustunligiga, hukmronlik va tobelik munosabatlarini tartibga soluvchi umum qabul qilingan qoidalarni tan

olishga asoslangan. Bunday hokimiyat turining xarakterli xususiyati konstitutsiyaviy davlat bo'lib, uning amal qilishning qoidalarini belgilasa, ikkinchi tomondan uning o'zi ko'rsatilgan tadbirlar asosida o'zgarishining ob'ektiga aylanadi. Bu erda hokimiyatning legitimligi qonuniga asoslangan.

Xorizmatik (ilohiy talat) hokimiyat

6.4-chizma



Alohida xususiyatlarga ega deb hisoblangan yetakching shaxsiga asoslanadi. Omma yetakchi doxiy deb biladi. Omma va yetakchi o'rtasidagi intensiv xis-tuyg'uga asoslangan aloqa o'rnatiladi. Xarizmatik yetakchi hokimiyati kundalik xolatdagi urf-odatlar bilan aloqani uzadi. Yetakchi o'zining "Tarixiy vazifasi" borligini, shuning uchun unga shartsiz bo'ysunishi lozimligini uqtiradi. Xarizmatik yetakchi mo''jizaviy jasoratlar ko'rsatib, o'zining buyukligini doimo isbotlab borishi kerak. Muvaffaqiyatsizlik, uning takrorlanishi xarizmatik yetakchiga ishonchni yo'qotadi. Shuning uchun xarazmatik hokimiyat nisbatan beqarordir.

Siyosiy hokimiyatning bunday turi an'anaviylikdan aql-idrokka asoslangan turga o'tish sifatida qaraladi. Ushbu turdagi hokimiyat ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar bilan bog'liq bo'lmagan holda turli tirixiy davrlarda amal qilib, bunga Rim imperiyasidagi Yuliy Sezor, Frantsiyadagi Napoleon, Germaniyadagi Gitler, SSSRdagi Stalin siyosiy tartibotlarini misol keltirish mumkin. Hozirgi kunda legitimlikning xarizmatik turi an'anaviy turdan aql-idrok va oshkoralikka

(industrial va postinbustrial jamiyatga) asoslangan jamiyatlarga o'tayotgan mamlakatlarga xos. Bunga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining ba'zilari kiradi.

Siyosiy hokimiyat ma'lum bir boshqaruv tarzida amalga oshadi. Siyosiy boshqaruv tarzi siyosiy tizimning amalga oshish usuli, uning faoliyat sharoiti va tartibidir. Siyosiy boshqaruv tarzi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik, tarixiy an'analar omili ta'sirida bo'ladi. Hokimiyatning legitimligiga boshqa davlatlar siyosiy boshqarish usullari ham ta'sir ko'rsatadi.

6.2. Davlat hokimiyati – idora etishning o'ziga xos vositasi va uning shakllari

Davlatning jamiyatni boshqarish faoliyati uning hokimiyatni amalga oshirishi orqali ifoda topadi. Shuning uchun ham davlat bilan davlat hokimiyat tushunchalari o'rtasida nazariya bilan amaliyot o'rtasidagiga o'xshagan farq bor deb aytish mumkin. Davlat hokimiyatining amaliy faoliyati dastur-rejalarda oldindan belgilangan, navbatma-navbat ishga solinadigan siyosiy mehanizmlar tizimini anglatadi. Mazkur ma'noda "davlat hokimiyati mehanizmi", "davlat apparati", "davlat mashinasi" va shu kabi atamalar, tushunchalar qo'llaniladi. Demak, davlat hokimiyati – bu davlatning amal qilish jarayonini yo'naltirib, uyg'unlashtirib turish faoliyatida namoyon bo'ladi va ifoda topadi.

Davlat jamiyatda amal qilayotgan hokimiyatning markaziy muassasasi sifatida mazkur hokimiyat tomonidan mujassamlashtirilgan, mushtaraklashtirilgan siyosatni amalga oshirish vositasi – quroli bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham davlat, hokimiyat, siyosat ham naziriy, ham amaliy jihatlardan o'ziga xos mutanosiblik, birlik sifatida in'kos etiladi. Aslida ular har birining aniq belgilangan amaliyot sohalari mavjud bo'lib, yagona ijtimoiy-siyosiy jarayonning turli tomonlarini turlicha ifoda topishi mazkur mutanosiblik doirasida amal qilishni ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat o'zining ichki va tashqi siyosat yuritish faoliyatini hokimiyat vositasida amalga oshiradi.

Davlat hokimiyatining tub mohiyatini anglab olish jarayonida unda mavjud bo'lgan mushtarak qonuniyatlarni ham, ijtimoy-guruhiy jihatlarini ham bazis-

ustkurma mutanosibligini ham bo’rttirib yuborishdan saqlangan ma’qul, aks holda uning asl mohiyati mazmuniga etib bo’lmaydi.

Umuman davlat, xususan davlat hokimiyati haqidagi tushunchalar turli davlat-siyosiy sistemasi – jamiyat o’zaro mutanosiblik dinamikasining, amal qilish muammolarining ob’ektiv echishiga imkoniyat tug’diradi.

Davlat hokimiyatining amal qilish jarayonlari turli tarixiy davrlarda, turli shart-sharoitlarda, turli ijtimoiy-siyosiy makon doirasida, turli vositalik darajasida sodir bo’lishi o’z navbatida uning o’ziga xos turlari, ko’rinishlari, shakllarini ham keltirib chiqaradiki, politologiya uchun ular teran tahlil etilishi ham nazariy-ilmiy, ham dolzarb amaliy kasb etadi.

Jahon siyosiy adabiyotlarida hokimiyatning “amalga oshish usuli” mezoni bo’yicha boshqaruv ikki asosiy ko’rinishi bilan farqlanadi.

6.5-chizma



Avtokratik boshqaruv tarzi totalitar va avtoritar ko’rinishda bo’ladi.

Totalitar siyosiy boshqaruv tarzi hukmron elita va uning doxiysi hokimiyatning jamiyatni to’la o’ziga bo’ysundirishi, zo’rlikka asoslangan siyosiy hukmronligi tizimidir. Bu jamiyat va har bir kishining butun faoliyati mutloq belgilab qo’yiladi, ochiq va yashirin nazorat qilinadi. Demokratik tashkilotlar taqiqlanadi, progressiv kuchlarga qarshi qatag’on uyushtiriladi, hokimiyat barcha darajasida bir kishi yoki guruh tomonidan yopiq holda shakllantiriladi, fuqarolik jamiyati bo’lmaydi.

Avtoritarizm – totalitarizmga yaqin bo’lib, oliy hokimiyatni egallagan bir kishi yoki guruh faoliyati ma’lum darajada chegaralanadi. Totalitarizmdan farqi

shundaki, mamlakatdagi o’tmish ijtimoiy tartiblarni yo’q qilinishi, jahon inqilobini amalga oshirishni maqsad qilib qo’ymaydi. Siyosiy hayotdan boshqa sohalarda kishilarning erkin faoliyatiga ma’lum darajada yo’l qo’yadi.

Demokratik boshqaruv tarzi – xalq hokimiyatining manbai bo’lgan keng fuqaro huquqlarini ta’minlagan jamiyatning siyosiy davlat tuzilishidir. Bunda barcha fuqarolarning teng huquqliligi, umumiy saylov huquqi, vazifali siyosiy partiya va harakatlarning erkin faoliyati, fikr, so’z, e’tiqod erkinligi ta’minlanadi davlat organlari yuqori va quyidan nazorat qilinadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanadi.

Biz yuqorida qisqacha tanishib chiqqan davlat hokimiyatining uchta asosiy shakllari avtoritor, totalitar, demokratik siyosiy tuzumlar turli tarixiy davrlarda va turli mamlakatlar shart-sharoitlarida, turli ko’rinishlarda va shakllarda namoyon bo’lishi mumkin.

6.3. Siyosiy hokimiyatning siyosiy va ijtimoiy institutlar bilan munosabatlari

Siyosiy hokimiyat siyosiy institutlar, siyosiy tashkilotlar, nodavlat va jamoat tashkilotlari, guruh va qatlamlar, shaxs faoliyatlari bilan uzviy bog’langan jarayondir.

Siyosiy institutlarga quyidagilar kiradi:

1. Davlat instituti.
2. Prezidentlik instituti.
3. Parlament (Oliy Majlis).

a) Senat boshqaruvi instituti.

b) Qonunchilik palatasi instituti.

4. Vazirlar Mahkamasi (hukumat) instituti.
5. Sud instituti.
6. Lobbizm instituti (davlat hokimiyati organlariga ta’sir ko’rsatishning qudratli quroli, xususiy va ijtimoiy tashkilotlarning uyushmasi).
7. Ommaviy axborot vositalari instituti.
8. Siyosiy partiyalar va jamoatchilik harakatlari institutlari.

9. Yarashish instituti – odil sudlovning yangi shakli va h.k.

Siyosiy hokimiyat jamiyatda ijtimoiy institutlar bilan ham uzviy aloqada. Ijtimoiy institutlar jamoatchilik asosida faoliyat olib boradigan hamda jamiyatning demokratiyalashib borishida, fuqarolarni jamiyat hayotida ishtirokini ta’minlashda muhim rol o’ynaydigan birlashmalardir. Ijtimoiy institutlar jamiyatning ayrim birlashmalaridan, “ijtimoiy institut” va “jamoat birlashmalari” tushunchalari bir-biriga yaqin.

Ijtimoiy institutlar turlari:

1. Qarindoshlik instituti.
2. Nikoh instituti.
3. Oila instituti.
4. Ta’lim (maktab, o’rta, oliy ta’lim va h.k.) instituti.
5. Kommunikatsiya (informatsion texnologiya) instituti.
6. Din instituti.
7. Mehnat instituti.
8. Iqtisodiyot instituti va h.k.

“Jamoat birlashmalari” keng tushuncha bo’lib, o’zida ijtimoiy hamda siyosiy institutlarni ifoda etishi bilan farq qiladi. “Ijtimoiy institutlar” ko’pchilik amal qiladigan me’yorlar va qadriyatlarni ham qamrab oladi. Xulq-atvorning instituttsionlashgan barcha usullari qat’iy sanktsiyalar bilan himoya qilinadi va qo’llab-quvvatlanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlangan mamlakatlarda hokimiyatga daxldor maqsadlari, parlament vositasida hal qilinishi lozim bo’lgan muammolari faqat partiyalar bilan hamkorlikda bajarilishi yoki hal bo’lishi mumkin.

Aslida dunyodagi barcha mamlakatlarda 3 ta sektor mavjud:

Birinchi sektor – davlat.

Ikinchi sektor – tijorat sektori yoki shaxsiy sektor.

Uchinchi sektor – nodavlat notijorat tashkilotlari deb nomlanadi. Ana shu uchinchi sektorni rivojlantirish natijasida dunyodagi rivojlangan mamlakatlar fuqarolik jamiyati qurishga erishdilar. Bu jamiyat fuqarolar huquq va manfaatlarini

himoya qilish, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularni siyosiy qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirokining muhim omili bo'lib kelmoqda[1].

6.6-chizma

6.4. Davlatning tuzilishi shakllari, printsiplari va uni shakllantirish yo'llari

Davlat jamiyatining siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlaridan bir qator o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Davlatning belgilari haqida turli fikrlar mavjud. Bir qator politologlar, jumladan G.F.Shershenevich asarida davlatning asosiy belgilari sifatida aholining hududiy bo'linishi, ommaviy hokimiyat hamda soliqlar tizimining tashkil etilishini ko'rsatib o'tgan:

A) odamlarning birlashuvi;

B) ular ustidan hukmronlik qiluvchi hokimiyat;

V) shu hokimiyat ta'siri doirasidagi "hudud"ni sanab o'tgan.

Hozirgi kunda davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

1. Davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

[1] Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Т.: "Янги аср авлоди", 2006.-110-бет.

2. O’ziga xos ommaviy hokimiyat – davlat hokimiyatining mavjudligi, ya’ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi;

3. Aholining hududlar bo’yicha uyushganligi (fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma’muriy-hududiy birliklarda yashishi);

4. Davlat-suveren hokimiyatining yagona sohibidir;

5. Davlat yuridik kuchga ega bo’lgan va huquq normalarini aks ettiruvchi qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi;

6. Davlat-qonuniylik va huquq tartibot posboni bo’lishga maxsus da’vat etilgan huquqni muxofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, ichki ishlar organi va boshqalar)ga bo’lgan yagona tashkilot;

7. Faqat davlatgina o’z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo’la oladi.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan birgalikda olingan davlat belgilarining jami jamiyat siyosiy tizimida davlatning alohida o’rni va yetakchi rolini to’la izoxlaydi. Bunda albatta har bir tarixiy davrda, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda davlatning bu belgilari ham ichki mazmuni, ham tashqi ko’rinishi bilan farq qilishini xisobga olish zarur.

Davlat shakli deganda, davlatdagi siyosiy hokimiyatni uyushtirishning uch asosiy belgilari tushiniladi. Bular:

Boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli

Boshqaruv shakli – muayyan davlatda hokimiyatni uyushtirish usulining majmuidir. Bu ta’rifni yanada aniqlashtirsak, u oliy davlat hokimiyatini tashkil etish, ayni paytda davlatning oliy va markaziy idoralari, mazkur Qadimgi Yunon faylasufi Arastuning fikricha, “oliy hokimiyat yakka shaxs tomonidan amalga oshirilganda respublika, barcha xalq tomonidan amalga oshirilganda demokratiya bo’ladi”.[1]

1 Михайлова В.А История политических и правовых учений. Санкт-Петербург, 2000. - С. 17.

Tuzilish shakli: Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turidir. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi. Unga uch narsa ta’sir etadi:

1) muayyan davrda jamiyat va davlat oldida turgan iqtisodiy vazifalar va siyosiy maqsadalar;
2) davlatdagi millatlarning soni va o’zaro munosabatlari;
3) Davlat hududining katta kichikligi.

Davlat tuzilishi – davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishi, uning bo’laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlari bilan o’zaro aloqalarining xususiyatlaridan iborat.

Milliy davlat tuzilishi – davlatning tuzilishi, uning ma’muriy-hududiy bo’linishi, davlat bilan uning tirkibiy qismlari o’rtasidagi o’zaro munosabatlari, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlaridan iborat.

a) oddiy – unitar; (frantsuzcha – unitaire – yagona, degani) davlat oddiy va yaxlit davlatdir. Markaziy hokimiyat mahalliy idoralari ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga qarab unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo’linadi.

b) murakkab – federativ (lotincha – feodus – ittifoq degani) davlat bo’lib, uning sub’ektlari davlat mustaqilligiga ega bo’ladi. Federatsiyalarning ikki turi ittifoq va avtonomiya mavjud.

Konfederetiv – davlatning muyyan ittifoq bo’lib, iqtisodiy, siyosiy, harbiy maqsadlar uchun shartnoma va bitim asosida tuziladi.

Milliy davlat tuzilishi ma’lum printsiplar asosida amalga oshiriladi:

- millatning suverenligi va teng huquqligi;
- millat va elatlarning erkin, ozod rivojlanishi;
- baynalminallik, millatlarning hamkorligi, do’stligini ta’minlash.

Bu printsiplar har bir milliy davlat tuzilishiga asos bo’lishi kerak. Idoralar tarkibi, vakolatlari, paydo bo’lish tartibi, shuningdek, ularda xalqning ishtirok etish

darajasi, mazkur idoralar vakolatlarining muddatini nazarda tutadi. Insoniyatga davlat boshqaruvining azaldan ma’lum bo’lgan:

Respublika – lotincha so’zdan olingan bo’lib, (jamoa ishi) shaklida davlat hokimiyatini aholi muayyan muddatga saylab qo’yadigan idoralar amalga oshiradi. Yangi davrda respublikaning parlamentar va prezidentlik turlari paydo bo’lgan.

Boshqaruvning respublika shaklida uch xil ko’rinishi ajralib turadi

6.7-chizma



Prezident bevosita xalq yoki saylovchilar kengashi tomonidan saylanadi. Prezident bir vaqtning o’zida ham davlat, ham hukumat boshlig’i hisoblanadi. Hukumat a’zolarini prezident tasviya qiladi. Hukumat parlament oldida emac, prezident oldida mas’uldir. Vazirlar prezident o’rnatgan siyosatni amalga oshiradilar. Parlament hukumatga ishonchsizlik bildira olmaydi, hukumat parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega emas. Hozirda prezidentlik respublikasi keng tarqalib bormoqda.

Parlament respublikaning ham o’ziiga xos belgilari bor. Davlat siyosiy tizimda parlamentning ustivorlik printsipi amal qiladi. Prezident davlat boshlig’i sifatida ko’p vakolatlarga ega bo’lsada, hukumat tasdig’isiz mustaqil faoliyat ko’rsata olmaydi. Prezidentning faoliyati hukumatning roziligi bilan amalga oshadi. Konstitutsiyada parlamentning ustivorligi ta’kidlanadi va uning oldida hukumatning ma’sulligi o’rnatiladi, amalda ma’lum sharoitda parlament hukumatni tarqatib yuborishi mumkin. Prezident parlament yoki u tuzgan kengash tomonidan saylanadi. Parlamentar respublikada vazirlar kengashi raisi mansabi (kantsler) bo’lib, uning rahbarligida hukumatning ichki va tashqi siyosati amalga

oshiriladi. Hozirgi vaqtda Parlamentar respublikalar Germaniyada, Italiyada, Hindistonda, Turkiya, Isroil kabi mamlakatlarda mavjud.

Aralash shakli Prezidentlik va parlamentar respublikalarning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Frantsiya bunga eng xarakterli misoldir.

Huquqiy davlat

6.8-chizma



Huquqiy davlat belgilari

Huquqiy davlat – huquqning hukmroniligi va qonunning ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanadigan, huquqni muxofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo'lgan xaqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir. Huquqiy davlatning quyidagi bir qator asosiy belgilari mavjud:

1. Huquqning hukmronligi.
2. Konstitutsiya va qonun ustunligi.
3. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni ximoya qilish va ta'minlash.
4. Davlat va fuqarolarning o'zaro ma'suliyati.
5. Hokimiyat vakolatlarining bo'linishi.

6. Sudning mustaqilligi.

7. Huquqni muxofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi.

8. Huquqiy madaniyatning yuksak darajasi.

9. Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Jamiyatda huquqiy davlatning roli quyidagilarda ifodalanadi:

1. Jamiyatda faoliyat ko'rsatuvchi demokratik institutlarning rivojlanishi va barqarorligini rag'batlantira oladigan huquqiy hujjat chiqarish va joriy etish.

2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muxofaza qilish, ularning ijtimoiy ximoyalanganligiga doir amaliy choralar qabul qilish.

3. Fuqarolarning huquq va erikinliklariga tajovuz qiluvchi mansabdor shaxslarni tegishli shaklda huquqiy javobgarlikka tortishning huquqiy mehanizmlarini ishlab chiqish va joriy eitash.

Jamiyat hayotida huquqiy davlat quyidagilarni ta'minlaydi:

- davlat mehanizmining burcha bo'g'inlari aniq va bir maqomda ishlashini;
- huquqiy davlat organlari faoliyatida huquqiy ijodkorlik va huquqni qo'llashning samaradorligi;
- hokimiyat vakolatlarini taqsimlash printsiplarini turmushga joriy etishni;
- davlat-huquqiy va siyosiy institutlarni barqarorligini;
- erkin bozor iqtisodiyotini.

Huquqiy davlat barqarorligining huquqiy asosi–jamiyatda fuqarolarning irodasiga, ularning huquq va erkinliklarining ximoyalanganligiga asoslangan qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamligidir.

Huquqiy davlat barqarorligining siyosiy asosi–siyosiy plyuralizmga asoslangan demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va barqaror faoliyat ko'rsatishidir.

Huquqiy davlat barqarorligining ijtimoiy asosi – aholining davlat tomonidan teng ximoyalanishida ko'rinadi.

Huquqiy davlat barqarorligining iqtisodiy asosi – erkin tadbirkorlikka va xilma-xil mulk shakllarini rivojlantirishga qaratilgan bozor munosabatlarining mavjudligidir.

Insonparvar huquqiy davlatning belgilari:

1. Konstitutsiya va qonunning ustivorligi.
2. Davlat hokimiyati tizimining taqsimlanish printsipi.
3. Insonning huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni ximoyalanish.
4. Oliy qadiryat sifatida inson huquq va erkinliklarini joriy etish shart-sharoitlarning yaratilishi.
5. Demokratlilik.
6. Siyosiy va huquqiy madaniyat darajasini yuksalishi.
7. Adolatli fuqarolik jamiyatini yaratilish.
8. Sud – huquqiy islohatlarning o’tkazilishi.
9. Sudning mustaqilligi.
10. Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash va huquqiy davlat tizimini yaratish maqsadida qonunlarni chiqarish va takomillashtirish.

Yurtborishiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlashidir.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning boshqaruv jarayonida real ishtirokini, davlat faoliyati ustidan ularning nazoratini ta’minlashga layoqatli nodavlat ijtimoiy tashkilotlarning yig’indisidir. Hozirgi davr fuqarolik jamiyati qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Fuqarolik jamiyatining 5 belgisi

6.8-chizma



Qisqa xulosalar.

Siyosiy hokimyat aniq tarixiy sharoitlarda namoyon bo'ladi va g'oyatda xilma-xildir. Tarixiy taraqqiyot tajribasidan monarxiya va respublika, demokratik va g'ayridemokratik tartibotlar va ularning xilma-xil shakllari ma'lum.

Davlat o'zining mukammal maqomiga ega bo'lib, ma'lum hududga, o'z aholisiga va ma'lum bir tashkilotlarga, hokimiyatga ega bo'ladi. U ihtiyoriy, majburiy, ijtimoiy-siyosiy tashkilot hisoblanadi.

Davlat hokimiyatning amal qilish jarayonlari turli tarixiy maqsadlarda, turli ijtimoiy-siyosiy makon doirasida, turli vorisiylik darajasida sodir bo'lish o'z navbatida ularning o'ziga xos turlari, ko'rinishlari, shakllarini ham keltirib chiqaradiki, politologiya uchun u teran tahlil etilishi ham siyosiy, nazariy, ham dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy davlat unsurlarining rivojlanishi bilan bir vaqtning o'zida fuqarolik jamiyatini qurishda bo'lgan kuchli zaruriyat paydo bo'ladi. Chunki huquqiy davlat

qurish jarayonlari fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan uyg’un holda kechadi.

Hozirgi davrda rivojlangan va demokratik mamlakatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarini har tokonlama rivojlantirish va takomillashtirish natijasida kuchli fuqarolik jamiyati kurishga erishildi.

Tayanch so’zlar.

Hokimiyat ta’rifi, hukmronlik qilish, rahbarlik qilish, boshqarish, tashkil etish-uyushtirish, nazorat qilish. Hokimiyat turlari, ko’rinishlari, shakllari, davlat hokimiyati tushunchasi, davlat hokimiyatining turlari, ko’rinishlari, shakllari, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, nodavlat, notijorat tashkilotlari.

Nazorat va muxokama uchun savollar.

1. Hozirgi zamon fanida siyosiy hokimiyat kanday tushunchani anglatadi?
2. Hokimiyat xodisasi ijtimoiy hayotning boshqa sohalarda ham uchraydimi?
3. Davlat hokimiyati qanday shakllarda namoyon bo’ladi?
4. Davlat tuzilishini shakllantirish yo’llari qanday?
5. Dalvat hokimiyatini manbalari qanday?
6. Hokimyaitni amalga oshirish usullariga ko’ra boshqaruv turlari qaysilar?
7. Davlat boshqaruvining azaldan ma’lum bo’lgan shakllari qanday?
8. Huquqiy davlat o’ziga xos qanday belgilarga ega?
9. Boshqaruvning respublika shaklining uch xil ko’rinishini ajratib ko’rsating?
10. Boshqaruvning Prezidentlik shakli Parlament boshqaruv shaklidan qanday farqi qiladi?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O’zbekiston”, 2009.3-35 b.
2. O’zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini Yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizaiya qilishda siyosiy

partiyalarning rolini kuchaytirish to’g’risida”gi 2007 yil 11 aprel Konstitutsiyaviy qonuni. “Xalq so’zi”, 2007 yil 12 aprel.
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat.–T.: “O’zbekiston”, 2006. T. 14. 61-91, 213-260 -b.
4. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O’quv qo’llanma. –T.: TDIU, 2006. 98-113- b.
5. Aliev B., Boboev A. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. –T.: TDIU, 2006. 67-80 - b.
6. Kravchenko A.I. Politologiya. Uchebnik. – M.: 2008.-C. 129-150.
7. Odilqorev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: “O’qituvchi”, 2008. 140-151-b.
8. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 173-196-b.

7-MAVZU: SIYOSIY HAYOT VA KO’PPARTIYAVIYLIK.

7.1. Siyosiy hayot va ko’ppartiyaviylik omili. “Ko’ppartiyaviylik” tushunchasi.

“Siyosiy hayot va jarayon” mavzuidagi ma’ruzada “siyosat”, “siyosiy hayot”, “siyosiy jarayon” tushunchalari ustida batafsil fikr yuritgan edik, ta’kidlaganimizdek, kishilar ularning birliklari, tashkilot va birlashmalari o’rtasidagi hokimiyat va ijtimoiy boshqarish bilan bog’liq munosabatlar jamiyat siyosiy hayotining mazmunini tashkil etadi.

Demokratik jamiyatda kishilar va ularning birliklari siyosiy hayotda faol ishtirok etish orqali o’z manfaatlari, orzu-umidlarini ro’yobga chiqarishga erishadilar. Jamiyat tarixidagi vazifali siyosiy tizimlarda kishilar o’zlarining alohida manfaatlarini ximoya qilish maqsadida uyushadilar va o’z irodalarini jamiyatga o’tkazishga uringanlar. Bular siyosiy partiyalar va tashkilotlar harakatida namoyon bo’ladi.

Hozirgi davrdagi siyosiy partiyalarning ilk o’tmishdoshlari yangi davrga kelib shakllandi. XIX asrga kelib G’arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi siyosiy partiyalar siyosiy vakillik instituti xarakterini kasb eta

boshladilar. Partiyalar paydo bo'lishining muhim sabablaridan biri – davlat hokimiyatini shakllantirishda adolat tamoyillariga amal qilish jamiyatni demokratiyalashtirish zaruriyatlariga bo'lgan talabning oshib borganligidir.

Albatta, siyosiy partiyalarga dastlabki davrlarda salbiy munosabatni bildirganlar. Hattoki, XVIII asrda yashagan mashxur Tomas Gobbe ham siyosiy "patiyalarni davlatga nisbatan jinoiy fikrlovchi tashkilot", deb atab, ularga qarshi kurashish lozimligini uqtirgan bo'lsa, AQSh "otaxonlaridan va asoschilarining ba'zilari partiyalar xalq suvereniteti tamoyilini amalga oshirishga qarama-qarshi ravishda biron-bir guruhning davlat hokimiyatini suiste'mol qilishga qaratilgan quroli ham bo'lishi mumkin", degan qarashlarni bildirganlar. Lekin, XIX asr oxiri XX asrdagi mutafakkirlar jamiyat hamda davlat boshqaruvi uchun muhim bo'lgan demokratik institut sifatida talqin eta boshladilar.[1]

"Partiya" so'zi lotincha, "parz qism" "guruh" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u yoki bu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, katlamlarning bir qismini, odatda ularning ilg'or va eng faol qismini birlashtiradigan siyosiy tashkilotni anglatadi.

XX asrning so'nggi davriga kelib J.Lapalambara va J.Anderson "Boshqaruv va siyosat entsiklopediyasi" nomli asarida quyidagi ta'rifni berganlar. Partiya rasmiy maqomga ega bo'lish va rasmiy tashkilot bo'lish bilan bog'liq markazni perferiya bilan bog'lovchi va davlat organlariga o'z nomzodlarini saylovlar vositasida o'tkazishga qabul bo'lgan har qandiy guruhdir.[2]

G'arb politolog olimlari siyosiy partiyalarni quyidagi belgi va funktsiyalari asosida ta'riflaydilar. Siyosiy partiya – rasmiy va tashkiliy tizimiga ega huquqiy maqomga ega bo'lgan va saylov jarayonlariga qo'yilgan nodavlat institut turi va guruhiy birlashmadir.

Ispaniya qirolligi, GFR Konstitutsiyalarida siyosiy partiyalar jamiyat instituti ya'ni xalq siyosiy manfaatlari ifodachisi sifatida talqin etiladi.

[1] Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. –T.: "Yangi asr avlodi", 2006. 105-b.
[2] O'sh joyda, 106-b.

Siyosiy Partiya umumiy g’oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar, maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi turg’un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog’lovchi eng muhim vositalaridan biri, hozirgi zamon demokratik davlati hayotining zururiy omilllaridan biridir.

Siyosiy partiyalarning shakllanishi uch yo’l bilan sodir etiladi.

7.1-chizma



“Yuqoridan” shakllanish yo’li parlament guruhlari siyosiy elita, partiya byurokratlari faoliyatlari asosida amalga oshirilishi mumkin. “Quyidan” shakllanish ijtimoiy harakatlar, yoki aniq mafkura, yetakchi tarafdorlarining birlashuvlari asosida bo’lishi mumkin. Partiya shakkilanishining “aralash” usuli elitar guruhlar va oddiy fuqarolarning birgalikdagi harakatlari asosida ro’yobga chiqadi.

XX asrga kelib politolog olimlar tomonidan demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritadigan siyosiy partiyalarning asosiy funktsiyalari quyidagilaridan iborat ekanligi aniqlandi:

1. Nazariy: Jamiyat istiqbolini tahlil etish va nazariy jihatdan baholash, turli ijtimoiy gurug’lar manfaatlarini aniqlash, jamiyatni yangilash strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish. .

2. G’oyaviy: Ommaning dunyoqarashini, ahloqiy qadriyatlarini ximoya qilish, o’zlarining dasturiy maqsadlari va siyosatini tashviq qilish, fuqarolarni o’z partiyasi saflariga jalb etish.

3. Siyosiy: Hokimiyat uchun kurash, davlatning ichki va tashqi siyosiy yo’lini ishlab chiqish va amalga oshirish; muqobil takliflarni tayyorlash, saylovoldi dasturini bajarish.

4. Tashkiliy: Dasturiy ko’rsatma va qarorlarni amalga oshirish, saylov yo’lini ishlab chiqish va amalga oshirish; saylov kompaniyasini o’tkazish; saylanadigan lavozimlar uchun nomzodlarni tanlash; hukmron elita uchun kadrlarni tayyorlash, hukumatni tuzim.

Demak siyosiy partiyalar alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko’taradi, o’z tayanuvchi ijtimoiy tabaqalar vakolatlarini siyosiy tizimda ifoda etadi; Partiya fuqarolar xoxish-irodasini va tanlov asosidagi hokimiyatni saylovlar vositasida shakllantirishning muhim va asosiy vositasidir; Partiyaviylik bajarilishi shart bo’lgan siyosiy qarorlarning demokratik legitimlashtirish, jamiyat tomonidan tan olinishini ta’minlash vositasidir; Partiyalar jamiyatning o’zlari qamrab olgan ijtimoiy-siyosiy kengliklarida fuqarolar siyosiy ongi shakllanishi va siyosiy madaniyatini yuksaltirshga xizmat qiladigan tashkilotlar; partiya demokratik saylovlarda saylangan deputatlar, shuningdek, partiyaviy fraktsilar vositasida o’z muqobil dasturlarini amalga oshirish, xalq ommasining e’tiboriga erishish maqsadida parlament va hukumatga ta’sir ko’rsata olish qobiliyatiga ega institutdir; partiya o’z siyosiy maqsadlarini “davlat idorasi bilan uyg’unlashtira oluvchi” siyosiy kuchdir.

Siyosiy partiyalar jamiyatda tutgan mavqeini uning belgilariga qarab aniqlash mumkin

7.2-chizma



Siyosiy partiyalarning jamiyat siyosiy tizimi tarkibida egallab turgan mavqei va jamiyat siyosiy hayotidagi ahamiyatini mana shu belgilarning kuchliligi va zaifligi bilan baholanadi.

Siyosiy partiyalarning turlari ham turli-tumandir.

Arxaiq turdagi partiyalar (Amerika turi): aniq tashkiliy tuzilmaning yo'qligi, faoliyatining doimiy emasligi (saylovlar davrida), tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan, parlament faoliyatiga qaratilgan islohatchilar partiyasi.

Parlament turidagi partiyalar: (Yevropa turi) ijtimoiy tuzumni o'zgartirmay harakat qilib keluvchi, tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan, parlament faoliyatiga qaratilgan, islohatchilar partiyasi.

Avangard turdagi partiyalar (Marksga, Leninga) ular aniq tashkiliy tuzilmalari bo'lgan, ijtimoiy hayotning hamma sohalarini qamarb olgan, davlat tuzilmasiga kirgan, tashkil topish va faoliyati markazlashgan printsipga asoslangan, a'zolik badaliga ega bo'lgan, revolyutsionerlar partiyasi.

Qo'shma ittifoqli partiya sistemalari. Masalan, GFR umumfederativ-Xristian – demokratik partiyasi hamda Xristian-ijtimoiy uyushma partiyasi hamkorligida o'z ifodasini topgandir.

Qo’shma ittifoqli partiya sistemalari, shuningdek, ayrim tarixiy davrlarda, ayniqsa, saylovlar o’tkazish munosabati bilan tuziladigan milliy yoki xalq frontlarida namoyon bo’lishi mumkin. Bunday partiya sistemalari turi ilgari ham bo’lgan, hozir ham mavjud va kelajakda ham amal qilishi extimoldan xoli emas.

Demokratik jamiyatning muhim omillaridan biri bu ko’ppartiyaviylikdir. Qonuniy hokimiyat uchun kurashda imkoniyatlari taxminan bir xil bo’lgan bir qancha partiyalar mavjud bo’lganda qo’ppartiyaviy tizim vujudga keladi.

7.3-chizma

Ko’ppartiyaviylik umuman jamiyat uchun foydalidir, Chunki partiyaning hokimiyatga kelishining madaniy mehanizmlariga ega bo’ladi. Jamiyat rivojlanishining muqobil variantlari olg’a suriladi.

Hozirgi G’arb jamiyati ijro hokimiyati masalasini hal qilishda ko’partiyaviylik sharoitida partiyaviyalar o’zaro munosabatlarining aniq mehanizmilarini ishlab chiqdi.

7.4-chizma



G’alaba qozongan hech bir partiya qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentda ko’pchilikni tashkil qila olmasa, koalitsion tizim vujudga keladi. Natijada g’alaba qozongan partiya boshqalari bilan hamkorlikda koalitsion hukumat tuzishga majbur (Italiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya). Ammo bunday hukumat barqaror bo’la olmaydi.

Hukmron partiya ustunligi tizimi parlamentda bir partiyali mutloq ko’pchilik bo’lganda va bir partiyali hukumat tuzilganda vujudga keladi. Hukmron partiya partiyaviy tizimda ustivor mavqeini egallaydi, jamiyatga mafkuraviy ta’sir o’tkazadi. Bunday davlatda kuchli va uyushgan muhalifat bo’lmaydi, hukmron partiya uzoq vaqt mavqeini saqlab qoladi. (Shvetsiya, Yaponiya).

Siyosat maydonida ikki partiya hukmronlik qilsa, biri hukmron, ikkinchisi muhalifat partiyaga aylansa ikki partiyali ko’rinishi o’zgargan tizimdir. Ikki partiyadan birortasi ham parlamentda ko’pchilik bo’la olmasa va biri uchinchi partiya bilan koalitsiya tuzsa vujudga keladi. Siyosiy hokimiyatga yakka egallikni qat’iy turnatish va ko’ppartiyali tizimga o’tish hozirgi amalga oshirilayotgan siyosiy islohatlarning asosiy mazmunini tashkil etishiga, amaliy demokratiyaning ravnaq topishiga keng yo’l ochib beradi.

7.2. Siyosiy hayotni erkinlashtirishda siyosiy partiyalarning o’rni va roli

Hozirgi zamon jamiyatlarida davlatning turli ommaviy jamoat tashkilotlari bilan o’zaro aloqalarini kuzatish shuni ko’rsatadi. Mavjud siyosiy tizimda ishtirok etadigan partiyalar davlat va jamiyat munosabatlari tizimida markaziy o’rinni egallab kelmoqda.

Siyosiy partiyalar siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida davlat organlarining shakllanishi va faoliyatida davlat qarorlarini qabul qilishida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Qolaversa, siyosiy partiyalarning mavjudligi – demokratik tizimlar rivojlanishining zaruriy shart-sharoitlaridan biridir. Demokratiya tamoyillari nuqtai nazaridan yondashganda esa siyosiy partiyalar davlat organlari tizimiga kirmaydi va bevosita davlat ishlarida ishtirok etmaydi. Ammo siyosiy partiyalar bir vaqtning o'zida ham davlat sohasiga, ham fuqarolik jamiyatiga taalluqli institut ekanligi bilan ajralib turadi.

Partiyalarning siyosiy tizimidagi o'rnining kuchayib borishi bilan ularning huquqiy maqomi darajasi har bir mamlakatda turlicha shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Partiyalarga doir qoidalar har bir mamlakat huquqiy manbalarida turlicha shakllarda talqin qilinadi: Konstitutsiya va qonunlar, konstitutsiyaviy me'yorlar, hukumat dekretlari va qarorlari, parlament reglamentlari, sud qarorlari va boshqalar.

Rivojlangan mamlakatlarda aksariyat partiyalari o'zlarida sotsial-demokratik, liberal va konservativ unsurlarning o'ziga xos sintezi sifatida namoyon bo'la boshladi.

AQSh va Britaniya kabi mamlakatlar konstitutsiyalarida siyosiy partiyalarga doir modda uchraydi.

Rivojlangan mamlakatlarda ikkinchi jahon urushidan keyin qabul qilingan konstitutsiyalarda siyosiy partiyalar to'g'risidagi maxsus qoidalar kiritilgan.

Ba'zi mamlakatlarda uyushmalar, jamoat birlashmalari, jamoat tashkilotlari to'g'risidagi qonunlarda o'z ifodasini topgan.

Ko'pchilik mamlakatlarda esa siyosiy partiyalarga doir alohida qonunlar ham qabul qilingan.

GFR (1967 yil), Portugaliya (1975 yil), Ispaniya (1978 yil), - 1981 yil qaytadan to'ldirildi. O'zbekiston (1996 yil). Shvetsiya (1956 yil), Finlandiya (1969 yil), AQSh (1917 yil), O'zbekiston (2004 yil) kabi mamlakatlarda siyosiy partiyalarni moliyalashtirishga doir maxsus qonunlar qabul qilindi.

Ayrim mamlakatlarda partiyalarning ommaviy axborot vositalaridagi ishtiroki maxsus qonunlar bilan muvofiqlashtirildi. M: Frantsiyada radio va televideniе to'g'risidagi qonun.

AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida saylovchilarning u yoki bu partiyaga ovoz berish ularning ma'lum ijtimoiy guruhga aloqadorligi asta-sekin buzilib bormoqda.

Konstitutsiyaviy nazorat ustun bo'lgan mamlakatlarda siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi kuch – bu sud qarorlaridir. AQShda partiyalar sud qarorlari vositasida o'z maqomlarini qabul qilganlar.

Germaniyadagi "Xristian – demokratik partiya" "Xalq partiyasi" mavqeiga erishish uchun da'vogarlik qilmoqda.

AQSh Respublikachilar va Demokratik partiyalari ham o'zlarining dastlabki faoliyatlarini "Hammaning partiyasi" sifatida boshlaganlar.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turganidek siyosiy partiyalar asosan, jamiyat a'zolarining siyosiy irodalarini shakllantirish institutidir.

O'zbekistonda ham siyosiy partiyalarning jamiyat instituti sifatidagi huquqiy maqomi shakllanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida siyosiy partiyalar "Jamoat birlashmalari" sifatida e'tirof etiladi. Mazkur konstitutsiyaning 58-moddasida "davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishga xaqqi yo'q".

Siyosiy partiyalarning o'z funktsiyalarini to'la bajara olish, ularni demokratik qoidalar asosida faoliyat ko'rsatishlarning kafolati, bularning davlat organlaridan mustaqilligidir. Partiya o'zining boshqaruv qadrlarini shakllantirishda, deputatlikka nomzodlar ko'rsatishida, nizom va dasturiga oid hujjatlarni ishlab chiqishda mutloq mustaqildir. Partiya raxbariyati uchun "yuqori organ" faqat partiya a'zolari irodasi bo'lishiga erishgandagina uning to'la mustaqilligini ta'minlay olish mumkin.

Partiya o'z saloxiyati, qobiliyati, saylovchilar xayr-xoxishiga erishishi uchun o'zi kabi boshqa partiya bilan musobaqalashishi va raqobatlashishi lozim. Aks holda partiyaning ichki islohati, mafkuraviy va tashkilotchilik qobiliyati ro'yobga

chiqmaydi va saylovlar jarayonlaridagi oddiy va rasmiy ahamiyatga ega bo'lgan sust tashkilot darajasida yuqoriga ko'tarila olmaydi.

Partiyalarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faoliyat ko'rsatishlarining kafolati bu – ularning moliyaviy asoslarga ega bo'lishidir.

Partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish siyosiy partiyalar to'g'risidagi hozirgi davr qonunchiligidagi asosiy tamoyillardan biriga aylandi. Bu kabi moliyalashtirish amaliyoti XX asrning 50-yillari o'rtasidan boshlandi. Bu turdagi amaliyot dastlab uchta mamlakatda 1954 yilda Kosta Rikada, 1955 yilda Argentinada, 1959 yilda GFRda boshlangan bo'lsa, 80-yillarga kelib davlat tomonidan moliyalashtirish 21 mamlakat qonunchiligida ifodalandi.

Hozirgi davr qonunchiligida siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirishning turlicha xillari va shakllari mavjuddir: umumiy, maxsus, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita. Umumiy (maqsadsiz) moliyalashtirish – subsidiyalarini siyosiy partiyalarning joriy faoliyatining tashkiliy xarakterini (Partiya apparatini saqlash, qurultoy va konferentsiyalarni o'tkazish, binolar ijara xaqini to'lash, jixoz va turli uskunalar olish va boshqalar) qoplash uchun ishlatiladi. Maxsus moliyalashtirish – partiyalar faoliyatining ma'lum bir yo'nalishiga (saylov kompaniyalarini o'tkazish kabilar) subsidiyalar ajratishdir.

XX asrning 90-yillariga kelib partiyalarning davlat tomonidan moliyalashtirish tamoyili umumdunyoviylik xarakterni kasb eta boshladi. 112 mamlakat milliy parlamentlari vakillari ishtirok etgan Parlamentlararo Kengash (Parij, 1994 yil 26 mart) 154-sessiyada qabul qilingan "Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'g'risida"gi Deklaratsiyada o'z ifodasini topgan.

7.3. O'zbekistonda siyosiy partiyalar tizimi. Partiyalarninng siyosiy maqsadlari

Mustaqil O'zbekiston jumxuriyatining davlat hokimiyati tomonidan amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va siyosiy islohatlar o'tkazish siyosati natijasida mulkchilik shakllarining xilma-xilligi qonuniy kafolatlandi, mulkni davlat tasarrufidan chiqarib xususiylashtirish jarayonlari tobora tez sur'atlarda sodir etilmoqda,jamiyat siyosiy tizimida ham tub mohiyatli chuqur islohatlar o'tkazildi.

Bularning hammasi O’zbekiston jamiyati siyosiy hayoti oqimida siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va faoliyatining jadallashuviga qulay shart-sharoitlar yaratib berdi.

O’zbekistonda ko’ppartiyaviy tizim shakllanmoqda. Hozirgi kunda to’rtta parlamentar partiya mavjud. Hukmron va muholifat partiyasi shakllanishi uchun asta-sekin sharoit yaratilmoqda. 2004 yilda qonunchilik palatasini shakllantirishda ikki hukmron partiya aniqlandi. Qonunchilik palatasida eng ko’p o’rin olgan LDP va Fidokorlar hukmron partiyalari maqomini, qolganlari esa parlamentar partiyalar maqomini oldi. Bu esa ko’p sabablar qatori siyosiy madaniyat va siyosiy ongning rivojlanishi bilan ham bog’liqdir.

Mamlakatimizda siyosiy hayotni demokratiyalashtirish borasida konstitutsiyaviy huquqiy asoslar yaratildi. Bunga misol qilib, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Siyosiy partiyalar to’g’risida”, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to’g’risida”, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratiyalashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarining rolini kuchaytirish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlarni keltirish mumkin.

O’zbekistondagi siyosiy partiyalarning mavqei hozirgi kunda etarli emas, ta’sir doirasi hali ko’p jihatdan yuzaki va tor. “Siyosiy partiyalarimizning, –deb ta’kidlaydi Prezident I.A.Karimov,– faoliyati hali-beri real hayot muammolaridan uzoq bo’lib turgani haqida ko’p chiqishlarimizda ilgari ham aytilgan”[1].

Ana shu holatlarning echimini topish uchun “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli to’g’risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun (2007 yil 11 aprel)da siyosiy partiyalarning huquq va vakolatlari yanada kengaytirish, ularni qonunchilik va davlat boshqaruvi idoralari faoliyatiga, mamlakatimizda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga amaliy ta’sirini kuchaytirish yo’lida yangi imkoniyatlar ochildi. Qonunga muvofiq, Konstitutsiyamizning 93-moddasining 15-bandi hamda

[1] “Xalq so’zi” gaзetasi, 2006 yil 8 dekabr.

102-moddasiga o’zgartirislar kiritildi[1]. Takidlash lozimki, ushbu qonun siyosiy partiyalarini hayotimizdagi roli va amaliy ta’siri keskin kuchayishining yaqqol isbotidir.

7.5-chizma



[1] O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O’zbekiston”. 2008, 24,28-betlar.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega – faoliyat to’g’risidagi axborotni erkin tarqatish, o’z g’oyalari va qarorlarini targ’ib qilish;

- Saylab quyiladigan davlat organlaridagi o’z vakillari tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- Qonunda belgilab qo’yilgan tartibda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

- Partiya faoliyati bilan bog’liq yig’inlar, konferentsiyalar va boshqa tadbirlarni o’tkazish;

- Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini tavsiya etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- O’zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalari bilan ittifoq tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o’rnatish.

Har bir partiyaning o’z dasturi mavjud bo’lib, uncha ko’ra ular siyosiy maydonda ushbu dasturlarda nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun faoliyat olib boradilar. Masalan, O’zbekiston xalq demokratik partiyasi O’zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat qurish, mamlakatning har bir fuqarosiga munosib turmush sharoitlari va uning farovonligini ta’minlay oladigan siyosatni olib borishni o’z faoliyatining bosh vazifalari deb hisoblaydi. “Adolat” partiyasida barqarorlikning va O’zbekiston bozor islohatlari modelini ro’yobga chiqarishning kafolati sifatida fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, “Milliy tiklanish” partiyasida xalq ma’naviyatini, tarixiy xotirasini va madaniyatini tiklash va milliy demokratik partiya dasturida mulkdorlar sinfining iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy mavqeini oshirib borish, Liberal demokratik partiyasida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat olib borishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning ertangi kunini ta’minlashdek maqsad partiyaviy dastur sifatida ilgari surilgan.

O’zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi qonunda partiyalarning tashkil topishi, faoliyatlarining kafolatlari, ular faoliyatini to’xtatib turish va faoliyatini tugatish bilan bog’liq qoidalar o’z aksini topgan.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko’rsatish taqiqlanadi:

1. Konstitutsiyaviy tuzumni zo’rlik bilan o’zgartirishini maqsad qilib quyuvchi;.

2. O’zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;

3. Urushni, ijtimoiy, millat, irqiy va diniy adovatni targ’ib qiluvchi;

4. Xalqning sog’ilig’i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi;

5. Milliy va diniy ruxiyatdagi partiyalar.

Demokratik tartibotdagi ikki partiyaviy yoki ko’p partiyaviy tizimga ega bo’lgan davlatlarda hukmron partiyalar va muxolif partiyalar o’rtasida sog’lom raqobat mavjud bo’ladi. Muxolif partiyalar milliy taraqqiyot uchun muqobil dasturlar ishlab chiqadi va jamoatchilik muhokamasiga o’z takliflarini beradi, amaldagi hukumat faoliyatida mavjud bo’lgan xato, nuqsonlar, suiste’molchiliklarni tanqid qiladi, bu bilan esa hukumatni jamiyatdagi mavjud muammolarni muvaffaqiyatli hal etish usullarini izlab topishga majbur qiladi.

Hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasining siyosiy hayoti oqimida bunday siyosiy kuchlar, bunday siyosiy muxolifat vujudga kelib shakllanayotganligini 2007 yil 23 dekabr Prezidentlikka saylov hamda 2009 yil 27 dekabrda saylovlar natijalari yaqqol ko’rsatdi.

Masalan, O’zbektiston Liberal demokratik partiyasi Oliy Majlis quyi palatasida 41 deputatdan iborat o’z fraktsiyasiga, Xalq demokratik partiyasi 26 deputatdan iborat o’z fraktsiyalariga ega bo’lgan holda yetakchi siyosiy kuch sifatida o’rin egallab turibdi. Qolgan siyosiy partiyalar oz sonli parlament turdagi partiyalar hisoblanadilar. Bu dastlabki qo’yilgan qadamdir. O’zbekistonda xaqiqiy yaratuvchi (konstruktiv) istiqbol burch-vazifalariga yo’nalgan siyosiy muxolifat demokratik, ochiq vositalarda amaliy siyosiy kurash olib borib, O’zbekiston istiqloliga, uning to’la mustaqil davlat sifatida qaror topib gullab-yashnagan, ravnaq topgan mamlakatga aylanishi uchun o’zining munosib xissasini qo’sha oladi.

7.4. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati, nodavlat, jamoat tashkilotlari bilan munosabati

Dunyoda har xil partiyalar faoliyat ko’rsatmoqda, ularning birg’biri bilan, shshuningdek davlat hokimiyatining boshqa muassasalar bilan aloqalari, munosabatlari partiyaviy tizimlarni tashkil etadi. Partiyalar birg’biri va davlat bilan o’zaro aloqada bo’lgan holda qarorlarni qabul qilinishida u yoki bu darajada ta’sir etadi, shu bilan siyosiy hayotdagi o’rinlarini aniqlaydi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining asosi bo’lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar tobora rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda 306 ta respublika ahamiyatiga molik jamoat birlashmalari faoliyat ko’rsatmoqda. Ulardan 64 tasi xalqaro tashkilotlar maqomiga ega, 48 tasi jamg’arma, 78 tasi jamiyat, 4 tasi siyosiy partiya, 42 tasi federatsiya, 16 tasi kasaba uyushmalari, 2 tasi harakat, 20 tasi markaz, 48 tasi assotsiatsiya, 20 tasi uyushma, 5 tasi qo’mita, shu bilan bir qatorda yana 22 tasi turli nomlarda ro’yxatdan o’tganlar. Bulardan tashqari, Qoraqalpog’iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda mahalliy ahamiyatga ega 2237 ta jamoat birlashmalari faoliyat yuritmoqda.

Respublikamizda faoliyat ko’rsatayotgan siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati, nodavlat va jamoat tashkilotlari bilan munosabatlarinifuyidagicha izohlash mumkin:

9. Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning siyosiy manfaatlarini ifodalab, astag’sekin fuqarolik jamiyati manfaatlarini ifodalovchi institutlarga shakllanib o’tadi. Ayniqsa, saylovlar davrida saylov institutlarining siyosiy hokimiyat mas’ulligini oshirish mexanizimi sifatida o’rni oshib bormoqda.

10.Siyosiy partiyalar siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida, davlat organlarining shakllanishi va faolliyatida , davlat qarorlarining qabul qilishdida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

11.Fuqarolik jamiyati sharoitida siyosiy partiyalar mintaqaviy va mahalliy tizimlar hamda jamoaviy birlashmalar bilan mustahkam aloqada bo'lib, ular umummilliy maqsadlar ruhinidastlab shu hududlardagi fuqarolardan oladilar.

12.Nodavlat notijorat tashkilotlar orasida faqat siyosiy partiyalargina siyosiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanib, davlat bilan xalq ommsi o'rtasidagi qatlam va guruhlarning siyosiy manfaat va irodalarini ifoda etadi.

13.Nodavlat notijorat tashkilotlarning hokimiyatga daxldor maqsadlari, parlament vositasida qilinishi lozim bo'lgan muammolari faqat partiyalar bilan hamkorlikda bajarilishi yoki hal bo'lishi mumkin. O'z navbatida, siyosiy partiyalarning ham manfaatlar guruhlarisiz saylov kompaniyalarida muvafaqiyatga erishishi, jamiyatni anglashi qiyin kechadi.

14.Siyosiy partiyalar nodavlat notijorat tashkilotlarning turli manfaatlarini birlashtiradi, o'zida ifoda etadi. SHu bilan birga o'z manfaatlari yo'lida bu guruhlardan foydalanadi va hamkorlik qiladi.

15.Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatini shakllantirishda 3 ta sektorning maqsad va vazifalarini, funktsiyalarini uyg'unlashtiradi, bu sektorlar:

1) Birinchi sektor – davlat[1].
2) Ikkinchi sektor – tijorat sektori yoki shaxsiy sektor.
3) Uchinchi sektor – nodavlat notijorat tashkilotlari.

Hozirgi vaqtda "uchinchi sektor" tushunchasi dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida keng tashabbus ko'rsatayotgan nodavlat tashkilotlariga nisbatan qo'llanilmoqda.

Fuqarolik jamiyatining asosi – jamoat birlashmalaridir. Bunday tashkilotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki – ularga a'zolikning ixtiyoriy bo'lishidir. Bu qoidada birinchidan, shu jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Qolaversa, har bir fuqaro o'zi kirmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'zining manfaatlari va ehtiyojlariga mos maqsadlarga

[1] Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Т.: "Янги аср авлоди", 2006.-131-бет.

erishishga ishonch hosil qilganidan so’nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a’zo bo’la oladi.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o’rnatadilar, davlatning ko’pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralar daxlsizligini, uning suverenitetini ta’minlash, pulg’moliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi.

Fuqarolik jamiyatini qurish “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” bosqichmag’bosqich o’tish orqali ruy beradi. Agar kuchli davlatda jamiyatdagi barcha bo’g’inlar boshqarilsa, fuqarolik jamiyatida voqelikning asosiy tashabbuskori xalqning o’zi bo’lib, jamiyatning har bir fuqarosi o’z huquqlarini bmlgan holda, boshqa fuqarolar huquqini kamsitmagan, poymol qilmagan holda jamiyat ishlarida faol qatnashadi.

Hozirgi kunda O’zbekistonda 5 mingdan ortiq hukumatga qarashli bo’lmagan tashkilotalr faolitya ko’rsatmoqda[1]. Bularda, 900 tadan ortig’i mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari, 40 dan ziyodi mustaqil tele va radiokanallardir. Faqat Toshkent shahrining o’zida qariyib 15 ta nodavlat radiostantsiyalari tashkil etilgan[2].

Qisqacha xulosa.

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining muhim institutidir. Fuqarolar siyosiy partiyalar vositasidagi o’z siyosiy manfaatlarini integratsiya qilish va ularni davlat organlariga etkazish imkoniyatlariga ega bo’ladilar. Siyosiy partiyalar u yoki bu ijtimoiy qatlamning manfaatlari va muammolarini o’zida ifoda etadi, ularni siyosiy kengliklarda ximoya qiladi. Siyosiy partiya ijtimoiy qatlam yoki qatlamlar siyosiy manfaatlari ifodachisi sifatida hokimiyat uchun kurashadi, hokimiyatni egallagan taqdirda esa o’zi mansub bo’lgan ijtimoiy qatlam

[1] Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007.-38-бет
[2] Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2008 йил, № 1 18-бет.

muammolari, shuningdek saylovlarda o’ziga xayrixonlik qilgan saylovchilar xoxish-irodalarini amalga oshirishga intiladi.

Ko’ppartiyaviylik jamiyat madaniyatining ko’rsatkichidir. Ko’ppartiyalilik madaniyati deganda, biz siyosiy partiya nima, uning qanday dasturi va harakat usuli to’g’ri, qaysinisi esa noto’g’ri, siyosiy partiyaga a’zo bo’lish kishiga qancha burch va huquqlar beradi, siyosiy partiya davlatga, jamiyatga, mamlakat raxbariga, mavjud hukumatga, ijtimoiy guruhlar va turli ommaviy tashkilotlarga qanday munosabatda bo’lish kerakligini anglatadi.

O’zbekiston siyosiy hayotmda munosib o’rinni siyosiy xilma-xillik ramzi bo’lgan ko’ppartiyaviylik aqidalari egallab bormoqda. Jamiyat siyosiy tizimidagi bu siljishlar mamlakat barqarorligini ta’minlash, uning siyosiy hayotini mo’’tadillashtirish, osoyishta taraqqiyotni qafolatlaydi. Eng muhimi jamiyat barcha jabhalarini chuqur demokratiyalashtirish imkoniyatini oshiradi.

Tayanch so’zlar.

Siyosiy partiya, partiya funktsiyalari, partiyaning ichki tuzilishi, siyosiy partiyalarning asosiy turlari, partiyaviy tuzim, bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik, ko’ppartiyaviylik, hukmron partiya, parlament partiya, partiyalarning moliyaviy ta’minoti.

Nazorat va muxokama uchun savollar.

1. Dastlabki siyosiy partiyalar qachon va qaerda paydo bo’lgan?
2. Partiyaning harakat, ittifoq, uyushmalardan farqi nimada?
3. Qaysi partiya turlarini bilasiz?
4. Partiyaviy tizim nima?
5. Tushuntirib bering, nima uchun ko’pfikrlilik xilma-xillikning ajralmas bo’laklaridan biri hisoblanadimi?
6. O’ylab ko’ring qaysi holatlarda partiyaviy siyosiy xilma-xillik jamiyatda tartibsizlikni kuchayishiga olib kelishi mumkin? Misollar bilan isbotlashda harakat qiling?

7. Siz qanday o’ylaysiz, bizning oshkora hayotimizda o’z dasturida kuch ishlatmasdan ijtimoiy tuzumni o’zgartirishga chaqiruvchi tashkilotlar siyosiy partiyalar uchun yo’l ochish kerakmi?
8. O’zbekiston Respublikasida kelajakda yangi siyosiy partiyalar vujudga kelish mumkinmi? Agar vujudga kelsa, siz uni qanday dalillarga asoslanib isbot qilgan bo’lar edingiz?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2009.
2. “Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi qonun. –T.: “O’zbekiston”, 1996.
3. O’zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratiyalashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to’g’risida”gi konstitutsiyaviy qonun. “Xalq so’zi” 2007 yil 12 aprel.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni moderinizatsiya va isloh etishdir. –T.: “O’zbekiston”, 2005. 96-b.
5. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O’quv qo’llanma. –T.: TDIU, 2006, 114-119- b.
6. Aliev B. Boboev va boshqalar. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. –T.: TDIU, 2006. 81- 87- b.
7. Кравченко А.И. Политология. Учебник. –М.: 2008.-С. 250-267.
8. Odilqoriev X.T. Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik.–T.:“O’qituvchi”, 2008. 151-161-b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 197-229-b.

8-MAVZU: SIYOSIY ELITA VA SIYOSIY YETAKCHI (LIDER)

8.1. Siyosiy elita. Siyosiy yetakchi tushunchasi hamda siyosiy boshqarish va siyosiy rahbarlik

Sotsial – siyosiy fanlarda va unga tegishli lug'atlarda doxiy, arbob, elita, yetakchi (lider), rahbar kabi tushunchalar mavjud. Ular bir ma'nodagi turdosh so'zlarmi?

Doxiy favqulodda zexn va zakovat, eng yuqori va har taraflama inteliktual rivojlangan iste'dodli qishilardir. Ular odatda qomusiy bilm egalari bo'lishadi, lekin ular ko'p sohalarning bittasida quyoshdek yarqirab turadi. M: Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Mirzo Udug'bek, Alisher Navoiy.

Arbob – davlat arbobi, xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Amir Temur buyuk davlat arbobi va h.k.

"Elita" – lotinchadan olingan bo'lib – "eng yaxshi", "saralangan", "tanlangan" degan ma'nolarni anglatib, u har qanday ijtimoiy tuzilmaning hokimiyatni monopoliya qilishga qobil bo'lgan yuqori qismi, imtiyoz qatlami, boshqaruvchi ozchilik demakdir.

XX asr boshlarida politolog olimlar G.Moska, R.Mixele siyosiy jarayonlarda yuqori tabaqaning roli masalasini tizimlashtirishga harakat qilganlar. Elitizimning qoidasi shundaki barcha turdagi jamiyat o'zining ichki tuzilishiga ko'ra ikkita sinfga bo'linadi, boshqaruvchi kamchilikka (hukmron elita, hukmron sinf, siyosiy sinf) va ko'pchilik boshqariladigan (olamon, omma, xalq). Ko'pchilik G'arb sotsiologlari elita tarkibidagi hokimiyatli – siyosiy guruhlarni kiritadilar.

Siyosiy yetakchi (lider) – mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan, siyosiy jarayonlarga va vaziyatlarga ta'sir ko'rsata oladigan jamiyatning, muayyan ijtimoiy guruhning, tashkilotning obro'li shaxsidir.

Hozirgi zamon siyosiy fani siyosiy elita deganda son jihatdan ko'p bo'lmagan imtiyozli guruhni ya'ni faol siyosiy faoliyatni olib borish uchun zarur imkoniyatga ega bo'lgan va siyosiyo hokimiyat yordamida qarorlarni qabul

qilishga va amalga oshirishga to’g’ridan to’g’ri yoki bilvosita ta’sir ko’rsatishga qodir guruhni tushunadi.

Elita nazariyasiga munosib xissa ko’shgan olimlardan biri G.Moskadir.U XIX asrning oxirida siyosiy fanni shakllanish davrida ushbu jarayonga munosib xissa qo’shganlar bilan bir safda bo’lgan. Moska “Siyosiy fan asoslari” asarida o’zining siyosiy kontseptsiyani bayon etgan. SHu kontseptsiyaga ko’ra jamiyat ikki sinfga bo’linadi: boshqaruvchi sinf va boshqariladigan sinf. Boshqaruvchi sinf har qanday jamiyatni ozchilikni tashkil etsada, barcha asosiy siyosiy funktsiyalarni bajaradi, hokimiyatni monopoliya qilgani holda, u bergan imtiyozga egalik qiladi. Boshqariladigan sinf har qanday mamlakatda ko’pchilikni tashkil etishi etarli darajada uyushmagan holda boshqaruvchi sinf qo’li ostida bo’lib, uning hukmronligini qonuniyligi, shuningdek zo’ravonlik xarakterini kasb etilishini tan oladi.

Moska “Elita” terminini hali ishlatmagan. Uning o’riniga u “boshqaruvchi sinf” va “boshqariladigan sinf” tushunchasini qo’llagan.

Siyosiy (boshqaruvchi sinf)ga mansublikni G.Moska quyidagi alomatga ya’ni boylikka, kelib chiqishga, cherkov isrorxiyasiga munosabati, shaxsiy sifati, harbiy jasorati, boshqaruv san’atini egallaganligi kabilarga qarab aniqlanadi.

Moskadan farqli o’laroq V. Pereto “elita” so’zini keng qo’llagan. Uning tushunchasicha elita – bu tanlab olingan jamiyatning ozchilik qismi bo’lib, unga barcha uning a’zolari moslashishi kerak. Pereto fikriga ko’ra elita o’zini tutishi va tadbirkorligi, uni o’rab turganlarning ojiz va ta’sirchan tomonlarni ko’ra bilish va ulardan o’zining manfaatlari yo’lida foydalanish qobiliyati bilan xarakterlananishi kerak.

Moska va Peretto hamda Mixelening g’oyalari ko’p jihatdan o’xshash bo’lgani holda elita haqida yagona qontseptsiyani tashkil etadi. Ushbu kontseptsiyaning asosiy qoidalari shunday: - jamiyat har doim imtiyozli, ijodkor, hukmron ozchilikka va passiv, ijodsiz ko’pchilikka bo’linadi:

- Elita o’ziga xos psixologik sifatga ega, unga tabiiy iste’dod va tarbiyaga mansublik xos;

- Elitaga guruhiy birdamlik xos, u sotsial holatining umumiyligi, kasbkorlik maqomi, o’z-o’zini anglash, jamiyatni boshqarishga bo’lgan qobiliyati kabilar bilan birlashgan;

- Elitaga legitimlik xos, ya’ni siyosiy rahbarlikka bo’lgan huquqini ko’pchilik omma tomonidan tan olinishi;

- Elitaning tuzilmaviy hokimiyatga munosabatining doimiyligi, tarix davomida uning tarkibiy qismining o’zgarishi yuz bergan taqdirda ham uning hukmronlik holati o’zgarmasdan qoladi;

- Elitaning almashinishi hokimiyat uchun kurash davomida yuz beradi. Alohida psixologik va sotsial sifatlarga ega bo’lgan ko’p odamlar hukmronlik holatini saqlab qolishga harakat qiladilar, ammo ularnig hech biri o’zlarining imtiyozli ijtimoiy holatidan voz kechishni xoxlamaydilar, shuning uchun ushbu imtiyozli o’rin uchun yashirin yoki ochiq kurash muqarrar.

Amerikalik politolog Margarit Xarmani yetakchi (lider)ni quyidagicha ta’riflaydi: Yetakchi – ko’p qirrali tushuncha, uning namoyon bo’lishini ko’rayotganda, quyidagilarga e’tibor berish kerakligini aytadi.

a) Rahbarning o’z xarakteri.

b) Unga muxolifatda bo’lgan rahbarning xislatlari (unga ta’sir ko’rsatuvchi barcha siyosat sub’ektlari).

v) Rahbarlar va unga raqobat qilayotganlar o’rtasidagi o’zaro aloqa.

g) Rahbarlikni amalga oshirish chog’idagi aniq vaziyat.

Yetakchi (liderni) anglab etishda quyidagi uch xildagi yondashuvni farqlash kerak: psixologik, sotsiologik va politologik.

Psixologlarni olomandan tabaqalashgan birlikka o’tish bilan bog’liq bo’lgan psixologik jarayonlar qiziqtiradi. Sotsiologlarni ushbu jarayonlarni sotsial mehanizmi (dastagi) masalasi tashvishlantiradi (Norasmiy guruhlar ishlab chiqarish jamoalariga yetakchilik va h.k.).

Amerikalik politolog Robert Takker siyosiy yetakchi uch turini ajratib ko’rsatadi.

Bular:

- Konservatorlar – jamiyatni asl holda saqlab qolishga qaratilgan faoliyat;
- Reformatorlar – hokimiyat tarkibini keng qamrovli islohatlar vositasida tubdan o’zgartirishga intiladilar;
- Inqilobchilar – odatda qurol kuchi bilan va pala-partish islohatlar o’tkazish yo’li bilan boshqa ijtimoiy tuzumga tez sakrash orqali o’tishni rejalashtiradi.

Mashxur nemis sotsiologi M.Veber hokimiyat fenomenini tahlil qilar ekan, u uch ko’rinishda amal qiladi degan xulosaga keladi.

8.1-chizma



An’anaga asoslangan hokimiyat – arbobga (patriarxga, knyazga) – “kechagining doimiylik” nufuziga tayanadi. U yoki bu shaxs xislati, qobiliyati, obro’si ko’pchilik irodasini mazkur raxnamolar irodasiga bo’ysundirilishiga olib keladi.

Hukmronlikni xarizmatik shakli “xudo nazar qilgan” nodir xislat-fazilatlarga ega bo’lgan shaxslar faoliyati bilan bog’liq. Bunday shaxslar odatda shaxsiy xislat-fazilatlari, odamlarga bo’lgan cheksiz mehribonliklari tufayli inson ongi qalbini ixtiyoriy tarzda bo’ysundira oladilar. (Iso, Muso Muhammad payg’ambar va h.k.).

Ochiq shakli eng mustabid – zo’ravonlik (diktatura) jamiyatlaridan eng demokratik jamiyatlargacha davrni qamrab oladi. Odamda u tub o’zgarishlar pallasi ob’ektiv pishib etilgan, ammo sub’ektiv omillar hali shakllanmagan paytda sodir bo’ladi. Shuning uchun u shartli ravishda “ochiq hukmronlik” iborasi bilan atalashi mumkin.

Siyosiy professionallik nuqtai nazaridan tan olishning eng maqbuli xarizma xodisasi deb hisoblaydi M.Veber.

Yetakchi faoliyatning xajmi va xarakteriga qarab uchga bo'linadi. SHaxslar kichik guruh darajasining yetakchisi (Prezident atrofidagilar, parlament rahbariyati guruhlari) guruh faoliyatini tashkil qiladigan, yo'naltiradigan eng obro'li shaxsdir. Unda tez qaror qabul qilish qobiliyati, ma'suliyatni o'ziga olish, guruh qatnashchilari manfaatlarini qondirishga erishish talab qilinadi. Bu darajada yetakching rahbarlik usuli, shaxsiy sifatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Katta ijtimoiy guruhning (qatlam, partiya) siyosiy harakatida yetakchilikda yetakching shaxsiy fazilatlari emas, aholining bu qismi manfaatlarini ifodalash layoqati birinchi o'ringa chiqadi. Strategiyani, maqsadga erishish yo'llarini ishlab chiqish, bu manfaatlarni qondirish yetakching bosh xususiyatidir. Yetakchi shaxsi guruhning asosiy kayfiyati va umidlarning ramziga aylanadi. Bunday yetakchida faqat integrativ emas pragmativ vazifa ham bo'lishi kerak.

Elita o'z maqomidan qat'iy nazar xalq ommasidan o'zining intellektual va ahloqiy ustunligiga ega bo'lgan shaxs. Hozirgi zamon elitasining tuzilishi qanday? Bu savolga shunday javob beradi va guruhlarga ajratadi. Oliy elita – yuqori strategik siyosiy lavozimni egallagan odamlar: Ular hukumatda, partiya va kasaba uyushmasida muhim siyosiy qarorlarni qabul qiladilar.

O'rta elita saylovlar orqali shakllangan obro'li odamlar: Parlament a'zosi, deputat, gubernator, xokim. Odatda bu mamlakat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatning besh foiz yuqori qatlamini tashkil etadi. Ma'muriy elita boshqaruv apparatida xalqali mavqeni egallagan xizmatchilar kiradi.

Jamiyat uchun eng maqbul, siyosiy muholifatlarni tushunishga imkon beruvchi hamda barcha uchun maqbul bo'lgan murosali qarorlarni topuvchi, xalq bilan mustahkam aloqalarni yuqori darajadagi guruhiy kooperatsiyalash bilan qo'shib olib beruvchi barqaror demokratik elita hisoblanadi.

Demokratik jamiyatda elitani to’rt asosiy turga ajratish keng tarqalgan.



Elita ochiq va yopiq bo’ladi. Agar jamiyat turli tabaqalari safiga kirish ochiq bo’lsa ochiq shakldagi elita. Bu tendentsiya demokratik davlatlarga xos. Yopiq elita u o’zining tor sotsial muhitida o’zini-o’zi takror ishlab chiqarsa.

Jamiyatda siyosiy elitani tanlash qanday yo’l bilan amalga oshiriladi. Elitani shaklantirishda tanlovning uch tamoyili ajratib ko’rsatiladi: O’nga ko’ra (Aristokratik holatiga va mavqeiga); egalik qilish (mulkiy va pul aristokratiyasi); erishilgan yutuqlariga (aql va qobiliyat aristokratiyasi).

Siyosiy elita jamiyatda izchillikni tashkil qiluvchi, ichki tabaqalanish nisbiy uyushgan boshqaruvchilik vazifasini bajarishga tayyorlangan shaxslar guruhidir. U quyidagi omillar tufayli mavjud bo’ladi.

- Kishining psixologik, ijtimoiy, malakaviy salohiyati;
- Mehnat taqsimoti qonuni;
- Boshqaruv mehnatining ahamiyati;
- Siyosiy rahbarlar ustidan to’la nazorat o’rnatishning imkonsizligi;
- Siyosatdan chetda turuvchi keng aholining siyosiy sustkashligi.

8.2. Siyosiy yetakching ko’rinishlari va unga yondashuvning xilma-xilligi

Elita bilan bir qatorda siyosiy jarayonlarning eng muhim sub’ekti bo’lib siyosiy liderlar (yetakchilar) hisoblanadi.

Lider – rahbar, raxnamo, yo’lboshchi degan ma’nolarni anglatadi.

Siyosiy yetakchilik – siyosiy guruhiy faoliyat integratsiyasining dastaklaridan biri bo’lib, individ yoki ijtimoiy guruhning bir qismi siftida yetakchi rolni bajaradi. Ya’ni o’z harakatini qabul qilgan va qo’llab-quvvatlagan guruh faoliyatini birlashtiradi va yo’naltiradi.

Lider (yetakchi) ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, biznesda, fanda, san’atda, oila va maktabda amal qiladi. Lug’atni ochib qaraganimizda lider (ang. leader – yetakchi, rahbar) – bu qandaydir birgalikdagi faoliyatni tashkil etish maqsadida boshqalarga ta’sir etishga qobiliyatli shaxs. Siyosiy yetakchilik aniq namoyon bo’ladi. Siyosiy yetakchi – bu siyosiy faoliyat va harakatning tashkilotchisigina emas, shuningdek, siyosat tarixini borishini o’zgartira oladigan, siyosiy jarayonlarning yo’nalishini aniqlash, istiqbolga qaratilgan siyosiy maqsadlarni belgilashga qodir shaxsdir.

Yetakchilik faoliyatini tushuntiruvchi qo’plab nazariyalar mavjud. Bular:

8.1-chizma



1. Xislatlar nazariyasi qahramonlarga xos bo’lgan sifatlarni aniqlash asosida yaratiladi. Siyosiy yetakchiga xos bo’lgan xislatlar orasida odatda o’tkir aql, kuchli iroda va maqsadga intiluvchanlik, kuch-quvvat, tashkilotchilik qobiliyati, vakolatga egalik va o’ziga xos ma’suliyatni olishga tayyorgarlik kabilar ko’rsatiladi. Ammo intelektual va ahloqiy sifatlar yetakchi bo’lishiga to’siq ham

bo’lar ekan. Ba’zan kishilarning ajoyib qobiliyatlari butun hayoti davomida talab etilmasdan qolaverishi mumkin.

2. Vaziyatlar nazariyasi yetakchilikning ma’lum bir ijtimoiy sharoitlarga bog’liqligi g’oyasiga asoslandi. Bunga ko’ra, aynan vujudga kelgan aniq shart-sharoitlar yetakchi saralaydi va xulq-atvorini beligilaydi. Vaziyatlar nazariyasi shaxs individual sifatlarining muhim rolini inkor etmaydi, biroq ularni mutlaqlashtirmaydi ham. Biroq bu tamoyil yetakching faolligini, uning vaziyatni o’z vaqtida to’g’ri baholash va o’zgartirish, o’tkir muammolar echilishini topa olish qobiliyatini etarlicha aks ettirmaydi.

3. Konstituentlar nazariyasi yetakchilik qobilyatini izdoshlar va konstituentlar orqali tushuntiradi. Ayni izdosh – deb yozadi F. Etenford, - yetakchi va vaziyatni o’zgartiradi, oxir oqibatda yetakchilikni qabul qiladi yoki rad etiladi. Ancha afzalliklarga ega bu nazariya yetakching Yangiliklarga intiluvchanligi, mustaqilligi va faolligini etarli hisobga olmaydi.

4. Psixologik tomonlar va interfaol tahlil etarlicha murakkab va qat’iy talqinga bo’ysunmaydigan yetakchilik tabiatining sub’ektiv dastaklarini yoritadi. Freyd fikricha yetakchilikning asosida tushkunlik holatidagi vaziyat – asosan shahvoniy xarakterdagi ongsiz qiziqish yotadi. Bu jarayonda u ijodkorlikka, yetakchilikka intiladi. Fromm, Aderno avtoritarizmga moyil va hokimiyatga intiluvchi shaxs turini aniqladilar. Boshqalar ustidan cheksiz hokimiyatga ega bo’lish, ularni to’liq bo’ysundirish bunday odamga alohida roxat bag’ishlaydi.

M.Veber o’zining “siyosat iste’dod va kasb” (1919 yil) asarida hloqiy siyosiy yetakchi to’g’risida savol qo’yar ekan shunday deydi: Tarixni rivojlantirish uchun yo’l tutishda inson qanday bo’lishi kerak. Siyosiy yetakching muhim sifatlaridan biri: extiros, javobgarlikni xis etish va ko’z bilan chamalash.

Siyosiy ishni amal qilishi uchun extiros bilan yondashish, ishga bor kuchini safarbar qilish, - mana bu yetakching birinchi qonuni. Ammo bir extirosning o’zi etarli emas. Agar extiros bilan xizmat qilish javobgarlik asosida bo’lmasa u holda siz siyosiy yetakchi bo’la olmaysiz. Javobgarlik – yetakchilikning yo’lchi yulduzi

hisoblanadi. Ammo eng asosiy psixologik sifat extiros va javobgarlik birga qo’shilgan – ko’z bilan chamalashdir.

Siyosiy yetakchi siyosiy jarayonlar bilan birga butun jamiyat, siyosiy tashkilot yoki harakatga rahbarlik qiladi, voqealarning borishi va siyosiy jarayonlar yo’nalishini belgilaydi va o’zgartira oladi.

Rahbar qanday xislatlarga ega bo’lishi kerak?

Shaxsiy xislat:

1. Ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo’yish.
2. Adolatparvarlik.
3. Qo’l ostidagilarga hurmat va g’amxo’r bo’lish.
4. Kamtar va ochiq chexrali bo’lish.
5. Qulay ruxiy muhitni yuzaga keltirish.
6. Odamlar bilan osonlikcha til topisha olish.
7. Mustaqil fikr egasi bo’lish.
8. Umumiy madaniyat saviyasining yuksakligi
9. O’ziga ishonch.
10. Bilimdonlik.
11. Tashkilotchilik.
12. Rahbarlikka xos xotirali bo’lish.

Amaliy xislat:

1. Fikrning tiniqligi.
2. Tashkilotchilik qobiliyati.
3. O’z so’zi ustidan chiqa bilish.
4. Tashabbuskorlik.
5. Ishbilarmonlik.
6. Tadbirkorlik.
7. Ob’ektivlik.
8. Kasbiy o’z-o’zini tarbiyalash.

Kasbiy xislat:

1. Ishlab chiqarishni bilish.
2. Kadrlarga e’tibor.
3. Ishbilarmonlik.
4. Ongli intizom.
5. So’z erkinligini qaror toptirish.
6. Tejamkorlik.
7. Shaxsiy madaniyat.
8. Oila oldidagi mas’uliyat.
9. Vatan va oila oldidagi mas’uliyat.
10. Insoniyat oldidagi mas’uliyat.

Hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy rahbarlarga xusshsur’atlilik, notiqlik xususiyati ham asosiy talablar sifatida qo’yiladi.

8.3. Siyosiy yetakchi ma’suliyati, vazifalari va boshqarishning asosiy tamoyillari

Siyosiy yetakchi ma’suliyati quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy madaniyat – bu eng avvalo insonning o’ziga nisbatan bo’lgan talabchanligidir.

2. Oila oldidagi ma’suliyat – madaniyat va ma’suliyat asoslari avvalo oilada shakllanadi.

3. Jamao oldidagi mas’uliyat. Jamaodagt rahbar xodim mas’uliyati.

1) Mutaxassislikni to’g’ritanlash.
2) Ularning vazifasini bajarish uchun sharoit yaratib berish.
3) Ish jarayonini muntazam nazorat qilib turish.
4) Ish natijalariga odil, xolisona baho berish, taqdirlash va jazolash kabi.
5) Vatan va millat oldidagi mas’uliyat.
6) Insoniyat oldidagi mas’uliyat[1].

Yurtboshimiz O’zbekiston Respubliksi Oliy Majlisining sessiyalarida, Vazirlar Mahkamasi yig’ilishlarida, viloyatlar kengashlarining sessiyalaridagi

[1] “Мулоқат”, 2001, № 3, 5-6 бетлар.

nutqlarida mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning taqdiri ko'p jihatdan rahbar kadrlar masalasiga bog'liqligini uqtirib o'tgan. Agar ma'sul kadrlar bu islohotni teran anglaydigan, jonkuyar, vatanparvar bo'lsalar, yurtni, xalqni o'ylasalar, islohat kim uchun, nima uchun qilinayotganligini tushunsagina niyatlarimiz amalga oshadi.

"Hokim faqat o'zining va urug'-aymoqlarining manfaatlarini ko'zlash, dang'illama uy qurish, boylik orttirish bilan band bo'lib, odamlar ko'rib turgan qing'ir-qiyshiq ishlarni xuddiki sezmasdan yuradigan bo'lsa, tuman va qishloqlarda ko'pchilikni qiynaydigan muammolar surunkasiga echilmasdan qolaversa, buning oqibatida joylarda norozilik paydo bo'lishini guyoki bilmagandek yuraversa, bunday noma'qul holatlar bizning olib borayotgan siyosatimizga qarshi chiqadigan g'animlarimiz qo'liga bamisoli qurol berib qo'ygandek bo'lmaydimi? Buning natijasida hokimiyatning obro'siga putur etmaydimi?[1]" – deb ta'kidlaydi Islom Karimov.

Yetakchining funktsiyalari: yetakchilar faoliyatining asosiy bosqichlarini xarakterlashda ularning uch asosiy funktsiyasining ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Vaziyatni tahlil etish va baholashni mo'ljallovchi siyosiy tashxis.

2) Ijtimoiy muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi faoliyat yo'nalishi va dasturni aniqlash.

3) Maqsadlarni amalga oshirish uchun ijrochilarni (amaldor shaxslar, byurakratiya va ommani) safarbar etish.

Yetakchi funktsiyasining yanada aniqroq mazmunini tavsifiga taaluqli jihati - uning faoliyatinin bosh yo'nalishidir.

Siyosiy yetakchining funktsiyalari:

1. Jamiyatni jipslashtirish va birlashtirish, integratsiyalash.
2. Eng maqbul siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

[1] Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т.: "Ўзбекистон", 2007. 15-бет.

3. Ijtimoiy hakamlik va patronajlik, qo’riqchilik, ommanin qonunsizlikdan, amaldorlarning o’zboshimchaligidan himoya qilish, tartibot va qonunchilikni nazorat, rag’batlantirish va jazolash choralari bilan saqlab turish.

4. Hokimiyat va ommani muloqati, siyosiy va hissiy aloqa yo’llarini mustahkamlash va shu bilan fuqarolarning siyosiy rahbarlikdan begonalashuvining oldini olish.

5. Yangilanish tashabbuskori bo’lgan optimizm va ijtimoiy energiyani to’plash, omma siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga safarbar qilish.

6. Tizimli legitimlashtirish. Bu asosan totalitar va avtoritar yetakchilarga xos.

Siyosiy boshqaruvning samarali bo’lishi ko’p jihatdan boshqarishni amalga oshirishga mas’ul bo’lgan kadrlar, ularning siyosiy yetakchiligi va tashkilotchilik qobiliyatiga bog’liqdir. Sobiq sho’ro davrida kadrlar siyosatida bir-biriga zid ikki tendentsiya mavjud bo’lgan:

1) Kadrlar korpusida turg’unlik holatlari.
2) Milliy rahbar kadrlarga ishonmasdan, tez-tez almashtirish tendentsiyasi.

Bugungi kunda siyosiy elita va siyosiy yetakchilik haqidagi qarashlar siyosiy boshqarishning asosiy tomoyillari bilan uzviy bog’liq. Siyosiy boshqarishning samarali olib borilishi va uning muvaffaqiyati ko’p jihatdan bu sohada mavjud bo’lgan tamoyillarga og’ishmay amal qilishga va uning natijalariga bog’liqdir. Bunday tamoyillar turlicha bo’lib, ularning har biri siyosiy boshqarishning tashkil etilishi, uni amalga oshirishning zarurligi va muqarrarligi bilan talablarga qat’iy rioya qilish zarurligini ifoda qiladi. Siyosiy boshqarishda amal qiladigan tamoyillarga asoslanish natijasida boshqaruv ishining to’g’ri tashkil etilishiga muvaffaq bo’linadi. Siyosiy boshqarishning asosiy 5 ta tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ob’ektivlik va sub’ektivlik tamoyili. Siyosiy boshqarishning bu tamoyili qaysi mamlakatda va qanday sharoitda amalga oshirilishidan qat’iy nazar, u jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun ob’ektiv ehtiyoj bo’lib hisoblanadi.

Siyosiy boshqarishda ob’ektivlik tamoyilining mohiyati jamiyat rivojlanishining ob’ektiv qonuniyatlari kuchini hisobga olishni bildiradi.

Siyosiy boshqarishda sub’ektivlikning mohiyati siyosat sub’ektarining faoliyati bilan belgilanadi. U siyosiy boshqarishda sub’ektiv yondoshishni bildiradi. Sub’ektivizm – siyosiy boshqarish jarayonida ob’ektiv qonuniyatlar kuchini mensimaslik yoki ularga e’tibor bermaslikdan iborat. Sub’ektivizm boshqarishni izdan chiqarishga, jamiyat hayotida stixiyalilikning avj olishiga sabab bo’ladi.

2. Asosiy zveno tamoyili. Jamiyat hayotida ro’y beradigan muammolarning barchasini bir vaqtning o’zida bajarish mumkin emas. Bu muammolarni hal etishuchun zarur bo’lgan vazifalarni aniq belgilab olish lozim. Siyosiy boshqarishda belgilangan vazifalarning ketma-ketligini, birinchi va ikkinchi navbatda bajarilishi zarurligini e’tiborga olish lozim.

Asosiy zveno tamoyili, bir tomondan, siyosiy boshqarish va uni tashkil etishga doir vazifalarni, ikkinchi tomondan esa, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilishi zarur bo’lgan vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bunda dolzarb vazifadan asosiysini birinchi navbatda hal etilishi ko’zda tutiladi.

3. Hududiy tarmoq tamoyili. Boshqarishning barcha turlari kabi siyosiy boshqarish ham hududiy-tarmoq tamoyili talablariga qat’iy amal qilishni talab etadi. Bu tamoyilning mohiyati jamiyat hayotiga siyosiy rahbarlikni amalga oshirishda hududlar va tarmoqlarning o’ziga xosxususiyatlarini hisobga olishni taqoza etadi. Bunda har bir hududning o’ziga xos sharoitlari, ularda mavjudbo’lgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy hayot sohalarining turli tarmoqlarda ishni tashkil qilish va uning samarali bo’lishiga erishishni bildiradi. Boshqarishning bu ikki tomoni o’zaro bog’liq holda tashkil qilinishi va amalga oshirilishi lozim.

4. Mas’uliyatni his qilish tamoyili. Siyosiy boshqarishning bu tamoyilining mohiyati rahbar kadrlar va keng jamoatchilik oldidaga qo’yilgan vazifaga o’ta mas’uliyat bilan yondoshish zarurligini ifodalaydi. Bu zaruriyat, avvalo, jamiyat rivojlanishining ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Jamiyat o’z-o’zicha rivojlanmagani

singari, unda boshqarish ishlarining tashkil etilishi va olib borilishi ham unga mas'uliyat bilan yondoshishni taqoza etadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rahbarning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishining ahamiyati haqida gapirib: ".... biz kadrlarning topshirilgan vazifa uchun javobgarligini qattiq nazorat ostiga olishimiz kerak. Toki, har bir rahbar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar uchun mas'ul ekanini teran his etsin"[1]. Umuman mas'uliyatni his etish rahbar kadrlarning jamiyat oldidagi javobgarligini chuqur anglashini aks ettiradi. Har bir rahbar xodim jamiyat oldida o'ziga topshirilgan ish uchun shaxsan javobgardir.

5. Vorislik tamoyili. Bu tamoyilining mohiyati siyosiy boshqarish jarayonida bo'ladigan o'zgarishlarda uzviylik bo'lishni taqozo etadi. Siyosiy boshqarishdagi uzviylik, bir tomondan boshqaruv organlari va tashkilotlari tizimida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, siyosiy boshqarishga mas'ul bo'lgan rahbar kadrlar faoliyatida aks etadi.

Vorislik tomayili siyosiy hokimiyatlarning o'zgarishi, boshqarish tizimidagi kadrlarning almashinishi bilan jamiyatda amalda bo'lib kelgan boshqarish tizimini yoki boshqarish uslublarini batamom o'zgartirib, uni yangidan boshlashni emas, balki boshqarish sohasida qo'llanib kelingan yo'lni davom ettirishni, unga ayrim o'zgarishlar kiritib borishni ifodalaydi. Vorislik tamoyilining bu talablariga amal qilmaslik jamiyatda ko'plab noxushliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Vorislik tamoyilining mohiyati va uning zarurligini Prezident Islom Karimov quyidagicha ta'riflaydi: - "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma, deyishadi bizda. Har qanday holda ham biz o'zimizni boqib, to'ydirib kelgan narsalarni vayron qilishga berilib ketishga haqimiz yo'q".

[1] Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. 13-14-бетлар

8.4. Siyosiy yetakchi va mamlakat istiqboli.

Hozirgi dunyoda siyosiy yetakchining mavqeini ko’tarishga qaratilgan ob’ektiv va sub’ektiv omillar ulkan ahamiyat kasb etib bormoqda. Dunyo mamlakatlari yetakchilari zimmasiga yuklatilayotgan mas’uliyat qanday omillarga bog’liq? degan savolni qo’yish barobarida uni internet tizimi, axborot vositalari orqali olingan so’ngi ma’lumotlarga asoslanib, fikrimizni tasdiqlovchi muammoli savollarning suvereniteti shubxasiz bo’lgani holda ularning hozirgi kunda bir-birlari bilan har qachongiga qaraganda yanada mahkamroq bog’langan. Bu xol jahon siyosatchilari oldiga shu paytga qadar mutlaqo boshqacha talablar qo’ymoqda. Uning vazifasi insoniyatning jahonshumul muammolarni hal qilishda butun dunyo hamjamiyatining kuch-qudratini birlashtirishdan iborat.

Davlatlarning, ular rahbarlarning birgalikdagi kuch-g’ayratini bilangina ochlik, qashshoqlik, oilaviy epidemiyalar, giyohvandlik, xalqaro terrorizmni tanglikka olib boruvchi nomutanosibliklar kuchayishini to’htatib qolish mumkin. Birgalikda harakat qilish bilangina ekologik falokatning oldini olish mumkin. Fan-texnika hamkorligi yo’lidagi barcha to’siqlarni olib tashlash, dunyo xo’jaligiga aylantirish yo’li bilangina tsivilizatsiyani tinch rivojlanishi uchun moddiy asosni yaratish mumkin.

Hozir ko’pgina siyosiy arboblar davlatlar ichidagi va xalqaro maydondagi muammolarni hal etishining Yangi oqilona yo’llarini taklif etmoqdalar. Bu yo’lning mohiyati har ikki tomonning roziligi bilan bitmga kelishuvi, siyosiy axdlashuvdan iborat bo’lib, uning insonparvarligini belgilaydi.

Murosaga kelish jamiyatda mavjud bo’lgan hamma nuqtai-nizolarni aniqlash, muhokama etish va hisobga olishni nazarda tutgan bo’lib, u orqali shunday takliflarni ishlab chiqish kerakki, qachonki, unga hamma va ko’pchilik qarshilik qilmasin.

Umumiy axdlashuvga qaratilgan yo’lni tutish Yangi siyosiy tafakkurni qaror toptiradi.

Hozir xalqaro maydonda quyidagi tendentsiya shakllanganlini yaqqol namoyon bo’layotganligini quyidagilarda ko’rish mumkin:

1. Milliy yetakchilar global muammolarni endilikda chetlab o’ta olmaydilar;
2. Norasmiy yetakchilarning roli va ta’siri ortib borishi;
3. Yetakchilar faoliyati iqtisodiy va ijtimoiy muammoalarni hal qilishga ko’proq jalb qilinyapti;
4. Yetakchi – qaxramon va yetakchi – antiqaxramon kabi siyosatchilarning paydo bo’lish extimoli kamaymoqda;
5. Hokimiyatlar bo’linishi hisobiga siyosiy yetakchi hokimiyati ham cheklanmoqda.

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta’siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo’llarini izlashda dunyo yetakchi davlatlari yetakchilari zimmasiga Yuksak ma’suliyatni yuklamoqda.

Moliyaviy inqirozdan qutilishning eng maqbul yo’li, “dunyo yetakchi rahbarlarining yagona yondashuvga kelishlari, global moliyaviy inqirozning jiddiy va uzoq davom etadigan oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan umumiy va samarali dastur ishlab chiqish”[1] zarurdir.

Demak dunyodagi barcha katta va kichik davlatlar yetakchi (lider)lari zimmasiga jahon xamjamiyati taqdiri topshirilganligini xis etishlari zarurligi, dunyoda mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi global muammolarni bartaraf etishda birgalikda umumiy echimga kelishdek mas’uliyat yuklangan.

Qisqacha xulosalar.

Siyosiyo elita va siyosiy yetakchilik to’g’risida qadimdan ko’plab nazariyalar mavjud.

Urug’chilik tuzumi emirilayotgan davrdayoq, jamiyatni oliy va quyi, aslzodalar va xalqqa bo’luvchi qarashlar paydo bo’ladi. Bu g’oyalarni Konfutsiy, Platon izchil asoslashgan. Ammo XX asr boshidagina siyosiy fanda Sorel va Poretolarning xizmati tufayli tarqala boshlangan. Elitaning dastlabki zamonaviy

[1] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T. “O’zbekiston”, 2009. 6-b.

klassik kontseptsiyasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Ular Moska, Pareta va Mixael nomlari bilan bog'liqdir.

Yetakchilikni anglashga intilish qadimgi davrdayoq bo'lgan. Gerodot va Plutarx ularni tarix ijodkorlari deb atashgan. Sharqda ham ana shunday qarashlar hukmron bo'lgan. Jamiyatning, xalqning holati xukmdorga bog'liq ekanligini ta'kidlashgan. A.Navoiy xukmdorni dengizga, xalqni esa undan suv oladigan daryoga qiyos qiladi.

Hozirgi zamon jahon tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki fuqarolik jamiyatini qurish yuqori bilmga ega bo'lgan, zamonaviy axborot texnologiyasini egallagan boshqaruv fani asoslarini yaxshi biladigan Yangi tipdagi rahbarlar zarur. Bunday siyosiy rahbarlar mamlakatda tub ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy islohatlarning barqaror rivojlanishga ta'sir etadi.

Tayanch so'zlar.

Siyosiy elita, siyosiy elita mohiyati, tuzilishi, siyosiy elita funktsiyalari, siyosiy yetakchi, siyosiy yetakchi turlari, siyosiy yetakchi funktsiyalari, yetakchi xislatlari, yetakchi – rahbarga qo'yiladigan talablar, hozirgi dunyoda yetakchilik rivojlanishi tendentsiyalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Siyosiy lider (yetakchi)ning ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi liderlardan farqi nimada?
2. Lider (rahbar)ning jamiyatda o'z rolini bajarish uchun qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?
3. Siz qaysi tasnifdagi lider (yetakchi)lari bilasiz?
4. Xarizma nima va qanday yetakchilarni xarizmaga oid yetakchilar deb hisoblaydilar?
5. Nima uchun siyosiy elita jamiyatdagi boshqa tur elitalardan farq qiladi?
6. Siyosiy fanda qachon elita so'zi paydo bo'lgan va kim uni siyosiy muomalaga kiritdi?
7. Siyosiy elitaning qanday tasnifini siz bilasiz?

8. Hozirgi dunyoda siyosiy yetakching xalqaro global muammolarni bartaraf etishdagi roli qanday?
9. Rahbar shaxsning yuksak xususiyatlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qanday izoxlaydi?
10. Populizm nima va u qanday namoyon bo'ladi?

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. . –T.: "O'zbekiston", 2009. 4-12 - b.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.–T.: "O'zbekiston", 2005, 3- 30 - b.
3. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tuzimini takomillashtirish – ustuvor vazifa. . –T.: "O'zbekitson", 2007. 1-48 - b.
4. Karimov I.A. jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: "O'zbekiston", 2009. 4-6 - b.
5. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. –T.: TDIU, 2006. 88-93 - b.
6. Aliev B. Boboev A. Politologiya. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2006. 140-156 - b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. – M.: Infra-m, 2007. – C. 77-112.
8. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. –M.: Prospekt, 2008. – C. 57-75.
9. Odilqoriev X.T. Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. "O'qituvchi" nashriyoti. –T.: 2008, 170-186 b.
10. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: "Fan". 2009, 264-297-b.

9-MAVZU: SIYOSAT VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR.

9.1. Siyosat va millatlararo munosabatlar

Millatlararo munosabatlar siyosatning eng asosiy sohalaridan hisoblanadi. Hozirgi er shari aholisini asosini xilma-xil millatlar tashkil etgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyat va qiziqishlarga ega. Xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni ularni tartibga solish davlat milliy siyosatining mohiyatini tashkil etadi. U ko'pmillatli davlatlarda yanada keng miqyosli va ahamiyatli hisoblanadi. Milliy siyosat – tamoyillar, normalar, qoidalar yo'g'indisi bo'lib uning yordamida milliy munosabatlarni boshqarish amalga oshiriladi. Milliy siyosat davlat tomonidan amalga oshirilar ekan demak xalq va millatlar o'rtasidagi munosabatlar siyosiy va yuridik hujjatlar orqali tartibga solinadi.

Etnoslar muammosi bilan ko'p fanlar shug'ullanadi: etnografiya (aholishunoslik), etnoantropologiya (alohida irq va etnoslarga tegishli individlarni tavsiflash), etnosatsiologiya, etnopolitlogiya va boshqalar. Etnopolitologiya rivojlangan xalqaro fan hisoblanadi. Ko'plab buyuk mutafakkirlar (T.Gobbe, O.Bauer, R.Shpringer, K.Kautskiy, M.Veber, N.Berdyaev) uni tadqiq etishda o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar. Ularning har biri milliy rivojlanish va millatlararo munosabatlarning alohida tomonlarini tadqiq qilib siyosiy jarayonlarda milliy jihatlarning ulkan ahamiyatini qayd qilganlar. Olimlar bevosita o'z e'tiborlarini millat xodisasiga: uning kelib chiqishi, mohiyati, tadjiriy rivojlanishi kabilarga qaratganlar. Turli ilmiy yondashuvlar millatni tasniflash yo'lida cheksiz tortishuvlarga sabab bo'ldi.

Fanda millat tushunchasiga yagona yondashuv mavjud emas. Psixologik nazariya vakillari unda umumiy taqdirga ega bo'lgan kishilarning madaniy psixologik birligini ko'radilar. Hozirgi davrda Rossiya tadqiqotchilari millatni davlat birligi bilan boylaydilar, keng ma'noda siyosat tushunchasi sifatida talqin qiladilar. Bunga ko'ra millat hudud va til, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotning umumiyligi bilan harakatlanadigan bir davlat fuqarolarining yig'indisidir.

Insoniyat tarixan ko'p sonli etnoslarga bo'lingan. Kishilarning barcha tarixiy birliklari etnos tushunchasida ifodalanadi. Etnos – bir tilda gaplashadigan, o'zining

kelib chiqishi birligini tan oladigan, o’zining turmush tarzi va urf-odatlariga ega bo’lgan kishilar guruhi sanaladi.

9.1-chizma



Millat, elat, etnik va demografik guruhlar etnosning asosiy ko’rinishlaridir.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida etnoslar urug’, qabila, elat va millat ko’rinishda namoyon bo’lganlar. Har bir etnoslarning ijtimoiy shakllari o’ziga xos xususiyatga ega, ammo ularning har biri ma’lum tarixiy sharoitlarda, ma’lum territoriyada madaniyatga, tilga, psixologik umumiyatga ega odamlarning barqaror umumiy uyushmasi sifatida namoyon bo’ladi.

Millat eng yirik etnik forma sifatida butun jamiyat hayoti va burjua huquqning keskin integratsiyalashuvida yuz bergan. Industrial jamiyatning vujudga kelishi bilan shakllangan.

XIX-XX asr davomida yangi millat va elatlarning kuchli shakllanishi va rivojlanishi jarayoni yuz berdi.

Hozir dunyoda mingdan ortiq etnoslar mavjud bo’lib, ularda taxminan 270 tasini tarkibida 1 mln. dan ortiq kishi mavjud Rossiyada 100 dar ortiq etnoslar yashaydi. AQSh da undan ham ko’p. Garvard entsiklopediyasida Amerikadagi etnoslar ro’yxati 106 ta deb berilgan, ammo unda 170 hind qabilalari bir guruhga kiritilgan, Yaqin Sharqdan chiqqanlar (suriyalik, misrlik, iordaniya, palastin va h.k.) “arablar” deb ko’rsatilgan. Albatta bunda aholini etnik tarkibini aniqlash soddalashtirilgan.

Dunyodagi ko’pchilik mamlakatlar ko’p millatli, bu turli xarakterdagi millatlararo munosabatlarni yuzaga kelishi uchun ob’ektiv asos hisoblanadi. Chunki har qanday millat va elat o’ziga xos qiziqishlari, extiyojlari xattoki o’zining extirosli taraqqiyotiga ega.

9.2-chizma

Kishilar birligining shakllari

Urug’-qabila birligi. U inson hayvonot dunyosidan ajralib chiqqahdan keyin ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan. Urug’ o’zida qon-qardoshlik aloqalari bilan bog’langan guruhdan iborat.

Urug’chilik sharoitida qabilalar – birp necha urug’larning birlashmalaridan paydo bo’ldi. Qabilaga o’z territoriyasiga, yeriga ega bo’lgan, rengash boshchilik qilgan. Qabilaning o’z nomi, tili, urf-odatlari bo’lgan.

Xususiy mulk va sinflarning vujudga kelishi bilan asta-sekin urug’-qabila birligi, yangi, yuqoriroq shakdagi birlik – elat vujudga relgan. U tili va kelib chiqishi jihatidan qon-qardosh bo’lgan bir territoriyada yashagan qabilalarning birkashuvi natijasida vujudga keldi.

Millat kishilarning iqtisodiy aloqalari, tili, madaniyati va xarakteri, xususiyatlarining umumiyligi, shakllanishi jarayonida paydo bo’luvchi kishilar umumiyligining tarixiy shaklidir.

Millat – kishilarning eng yirik ijtimoiy-etnik birligi bo’lib, odatda bir necha 100 mingdan bir necha million kishini tashkil etadi.

Milliy guruhlar: **t**arixiy taraqqiyot jarayonida o’z milliy birligidan ajralib, boshqa hududlarga borib yashagan xalq milliy guruhdir.

Etnik guruhlar: bir-biri bilan aloqada bo’ladigan bir necha ming yoki bir necha yuz kishidan iborat kishlarning kam sonли birlashmasi. (O’zbekistonda 258 dan ortiq ingushlar yashaydi).

Shuningdek, hozirgi davrdagi millat va elatlar ko’p sonli oz sonli, kuchli, ojiz, hukmron – tobe, qadimgi yosh, rivojlangan taraqqiyot jihatdan orqada qolgan, o’z davlatchiligiga ega va unga ega bo’ladigan ko’rinishlarda namoyon bo’ladi. Ular o’rtasidagi bunday farq va ijtimoiy holati etnoslarning millatlararo munosabatlarda keskin siyosiy muammolarni keltirib chiqardi. Uning asosiy

elementi – bu tenglik yoki tobelik, muammosi iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasidagi tengsizlik muammosi, millat nizo va adovat. Bunday har bir muammoni hal etish o'ta murakkab siyosiy jarayon hisoblanadi.

So'ngi asrlar davomida ayniqsa XX asrda milliy munosabatlar tobora siyosiylashib bordi. Bu davlatning milllatni shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi rolini oshib borish bilan izohlanadi. Ular ichida milllatlarni o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy va internattsional manfaatlarni hisobga olish, milliy madaniyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, milliy madaniyat vakolatxonalarini ochish, ularni kadrlar bilan ta'minlash va boshqalarda hokimiyat tuzilmalarining faoliyati kuchaydi.

9.2. Milliy munosabatlarda o'zaro uyg'unlik, siyosiy barqarorlik omili.

Millatlarning o'zaro munosabatlarida asosiy qoida – ularning siyosiy va huquqiy jihatdan teng ekanligini tan olishdir. Buyuk va yirik millatlarning o'z soni va imkoniyatlariga ishonib, kichik millatlarga do'q-po'pisa qilib, qurol kuchi bilan zabt etish va bo'ysundirish niyatlari keyingi vaqtda Vetnam, Jazoir, Avg'oniston misollarida asossizligi va amalga oshmasligi isbotlandi. Sobiq Ittifoqning mamlakatda eng ko'p sonli millatga imtiyozlar tug'dirib, boshqa millatlarni mohiyatan kamsitish siyosat to'la ravishda o'zini fosh qildi va o'n besh mustaqil davlatga parchalanib ketishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi.

Demak, millatlarning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligini tan olish hozirgi zamon siyosatining muqarrar va zarur qonun-qoidasi bo'lishi shart.

Davlatlar o'rtasidagi tenglik va o'zaro hurmat, hamkorlikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar mamlakatlar va xalqlarni bir-biriga yaqinlashuvida asosiy omildir. Bunday hamkorlik ijtimoiy taraqqiyotning, millatlar gullab-yashnashining zaruriy zaminidir.

Insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyoti asosan uch narsada mujassamlashgan: Umuminmoniy jahon tsivilizatsiyasi, bozor iqtisodiyoti va millatlar. Umuminsoniy jahon tsivilizatsiyasi jamiyat taraqqiyotining zamini muhiti va asosidir; u shuning uchun ham doimiy harakatda va rivojlanishdaki, bozor iqtisodiyoti va munosabatlariga suyanadiki, shu munosabatlar asosida shakllanadi; bozor

munosabatlarini amalga oshirib, hayotiy omilga aylantiradigan xaqiqiy amaliy kuch millatlardir. Bu uch omil – tsivilizatsiya, bozor iqtisodi va millatlar, bir-birlari bilan chambarchas va uzviy bog'langan: Shunday ekan, hozirgi zamon insoniyat hayotini, jamiyat taraqqiyotini taxmin etmoq uchun millatlarning ravnaqi, gullab-yashnashi barchaning yuksak orzusidir.

Milliy taraqqiyotni amalga oshiruvchi ikki tendentsiya mavjud bo'lib, millatlar hayotida umumiy tomonlarning ko'rinishini, shu bilan birga, milliy o'ziga xoslikning saqlanishi va takomillashuvini ta'minlaydi. Bu jarayon umumsotsiologik qonuniyat bo'lib, u jamiyat barcha sohalarining taraqqiyoti oqibatida millatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlar kuchayishi bilan bog'liqdir. Bu ikki tamoyil bir vaqtning o'zida doimiy amal qiladi. Millatlarning ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi o'zaro munosabatlari davomida ular uchun umumiy bo'lgan qadriyatlar shakllanadi. Ishlab chiqarish, fan, texnika, turmush tarzi va boshqa sohalarda millatlar bir-birini boyitadi va natijada, yaqinlashadi. Millat o'zining tarixi, ma'naviyati milliy an'analarini zamon talablariga mos holda boyitib boradi, umuminsoniy qadriyatlar ham o'ziga xos shaklda takomillashadi. Shunday qilib o'zaro yaqinlashuv jarayoni millatning yo'q bo'lishini aslo bildirmaydi, balki taraqqiyot uchun imkoniyatlarni va ularning amalga oshishini ifodalaydi.

Davlatlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarga rahna soluvchi turli qarashlar, oqimlar mavjud: Millatparastlik – millatlarning tengligini inkor etib, o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish, unga imtiyozlar berishga intilish, uning manfaatlarini boshqa millatlar manfaatlaridan afzal qo'yish, o'z millatiga sajda qilib unga hamdu sanolar o'qish, o'z millatini ko'klarga ko'tarib, unga kamchiliklari va tarixan tashkil topgan nuqsonlarini sezmaslik va ko'rmaslikni anglatadi. Millatparastlik millatning o'sishi, gullab-yashnashi uchun eng ko'p qiyinchiliklar tug'diruvchi omillardan biridir.

Millatchilik – o'z millatining manfaatlarini boshqa millatlar xaq-huquqlaridan yuqori qo'yib hal qilishga intiluvchi siyosiy oqim.

Milliy biqiqlik – o’z millatini o’zga millatlardan uzoqlashtirish, uning o’ziga xosligini himoya etishni tor tushunib, milliy xudbinlikni joriy qilish, o’z millatining o’zga millatlar bilan erkin aloqada bo’lishiga putur etkazish anglanadi.

Milliy baqiqlik hozirgi zamondagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’naviy aloqalarning mohiyatini tushunmaslik va uni yuzaki talqin etishining maxsulidir. Hozirgi zamon taraqqiyoti shundaki, millatlar, mintaqalar, mamlakatlar va xalqlar o’zaro turli munosabatlarga kirishib, har tomonlama yaqinlashmasdan rivojlana olmaydilar. Ana shunday yaqinlashish va boshqa mamlakatlar hamda xalqlarning eng yaxshi yutuqlarini o’zlashtirish har bir millat gullab-yashnashining zaruriy shartidir. Barcha rivojlangan davlatlar va millatlar shu yo’ldan bormoqdalar.

Bunday qarashlarga qarshi kurashning eng samarali yo’li – bu millatparvarlik barcha millatlarga barobar hurmat bilan qarash, demakdir. O’z millatini boshqa millatlardan afzal ko’rib, unga imtiyozlar berishni talab qilish yoki aksincha, o’z millatiga, uning tili va madaniyatga befarq qarash millatparvarlik qoidalariga ziddir. Shu bilan birga, millatparvarlik barcha millatlarni, ularning farq va tafovutlarini hisobga olmay turib tenglashtirishni inkor etadi.

Barcha davlatlarda milliy siyosat o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lish uning gumanistik, umuminsoniy nuqtai nazardan yondashuv tamoyillarini inkor qilmasligi kerak. Aks holda milliy masalani muvaffaqiyatli hal qilib bo’lmaydi. Aniq mamlakatlar siyosatida, ular ijtimoiy rivojlanishining qaysi bosqichlarida bo’lishdan qat’iy nazar, bu umuminsoniy tamoyillar milliy masalani hal qilishni bir ko’rinish sifatida namoyon bo’lishi lozim. Bu tamoyillarning asosiylari quyidagilar:

1. Milliy etnik va millatlararo umuminsoniy manfaatlarning doimiy uyg’unligini ta’minlash, millat va millatlararo munosabatlarning eng optimal shakllarini topish.

2. Millatlarni o’z taqdirini o’zlari belgilashlari huquqini, erkin demokratik saylov asosida ijtimoiy tuzumni tanlab, mustaqil davlat tuzish huquqini so’zsiz tan olish.

3. Milliy mustaqillik sharoitida inson huquqlarini tan olish. Bu milliy mansublikka ko’ra fuqarolarning notengligini mustahkamlovchi huquqiy norma va qonunlar qabul qilinishiga yo’l qo’ymaslik barcha millatlarning madaniy an’ana va manfaatlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratish, milliy masalani hal qilishda zo’rlikning har qanday shaklini inkor qilish demakdir.

4. Kishilarning millatlararo muloqatiga va milliy xissiyotlarga tegishini barcha jarayonlariga alohida e’tibor berish, millatchilik va shovinizmning har qanday shakllariga yo’l bermaslik.

9.3. Milliy siyosat va milliy davlat uyushmalari.

Davlat jamiyatining amaliy faoliyat jarayonlari jamiyatning muayyan siyosiy tashkil etilishi-uyushtirilishi yo’nalishiga bog’liq ravishda sodir bo’ladi. SHu jihatdan davlat tuzilmalari uch xil-unitar (yaxlit), federativ, konfederativ (hamjihatlik) ko’rinishlari siyosiy birlikni anglatadi.

Unitar davlat tuzilmasida mamlakat aholisining aksariyat qismi jamiyat hayotining barcha jabhalarida asosan maqsad-manfaat birligini ifoda etishlari tufayli yagona siyosiy-huquqiy asosda amal qiladigan davlat hokimiyati vujudga keladi va mazkur mamlakat jamiyatini yaxlit birlashtirib turuvchi aqidalarga suyangan holda uni siyosiy boshqaradi. Hozirgi kunda mana shunday unitar davlat turi sifatida Frantsiya, Italiya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya, Portugaliya, Ukraina, Armaniston, Turkmaniston, Qozog’iston, Qirg’iziston, Yaponiya va h.k. mamlakatlarni ko’rsatib o’tish mumkin.

Federativ davlat tuzilmasi ma’lum darajada davlat mustaqilligini yuridik (de-yure) saqlab qolgan bir necha davlatlar uyushmasi bo’lib, unda yagona fuqarolik, yagona pul-moliya tizimi, yagona mudofa vositalari, yagona diplomatiya asosida ichki davlat hokimiyati qism-bo’laklarining nisbatan mustaqil maqomga ega bo’lishiga yo’l qo’yiladi. Hatto, ko’pchilik federativ davlatlar konstitutsiyalarida uyushma a’zolari umumxalq irodasi (referendum) vositasida federatsiyadan ajralib chiqib, mustaqil bo’lishlari huquqi ham yozib qo’yilgan. Masalan, Sobiq Sovet Ittifoqida amal qilgan barcha konstitutsiyalarda ittifoqchi jumxurriyatlarning ajralib chiqish huquqlari aks ettirilgan edi. Federativ davlat turi

hozirgi kunda AQSh, Kanada, Hindiston, Nigeriya, Rossiya, Avstraliya, Pokiston, Olmoniya, Niderlandiya, Belgiya, Gurjiston, Ozarbayjon, Braziliya, Meksika va h.k. mamlakatlarda amal qilib turibdi.

O'zbekiston jumxuriyatining davlat siyosiy uyushmasi turi bir tomondan uning tarkibiga Qoraqalpog'iston jumxuriyati kirganligi uchun federativ asosni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, o'zbek davlatchiligining barcha huquqiy asoslariga ko'ra unitar davlat sifatida namoyon bo'ladi.

Konfederativ davlat tuzilmasi uning tarkibiga kirgan davlatlarning o'z suverenitetini to'la saqlagan holda davlat hokimiyati va boshqarish tizimlarini mustaqil amal qoldirish jarayonlarini boshqa konfederatsiya a'zolari faoliyatlari bilan bamaslahat, mutanosib tarzda uyg'unlashtirib turishni anglatadi. Konfederatsiya a'zolari aniq bir maqsadga yo'nalishlarida o'z davlat hokimiyatlari faoliyatlarini uyg'unlashtirib turadigan maxsus birlashgan davlat organlari (ko'pincha, harbiy va tashqi siyosat sohalarida) tuzib ishga soladilar. Agar maxsus vujudga keltirilgan birlashma, konfederativ organ faoliyati u yoki bu konferentsiya a'zosini qoniqtirmasa, u qabul qilingan qarorlarini ijro etmasligi mumkin. SHveytsariya Konfederatsiyasi nomi bilan ataladigan davlat uyushmasi konfederativ davlat tuzilmasining hozirgi kundagi birdan-bir namunasi hisoblanadi.

9.4. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar

Qabilalararo va millatlararo g'animlik asrlar mobaynida davom etib kelmoqda. Insoniyatning ijtimoiy tarixida xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga doir bu muammo shu qadar murakkabki, undan murakkabroq muammoni o'zi yo'qdir. Bunday chigal muammolarni dunyoning biron joyida uchratmaysiz. Ekspluatatorlik kuchlarning uzoq yillar hukmronligi mobaynida millatlararo munosabatlarga shu qadar ko'p qayg'u-alam, nafrat va adolat ko'shiladiki, uni uzoq vaqtgacha hal etib bo'lmaydigandek ko'rinadi.

Ana shu kuchlarning tarafdorlari millatlararo adovat uchun mas'uliyatni zimmalaridan soqit qilishga intilib ongli ravishda o'zlarining sinfiy manfaatlarini ko'zlab ana shunday noto'g'ri tasavvurlarni ommalashtirdilar, tarqatdilar va

mehnatkashlarning ongiga singdirdilar. Shu boisdan ko’p millatlilik qadimdan to’xtovsiz davom etib, tinkani quritadigan millatlararo janjal va majarolarga mahkum etilgan jamiyat bilan davlatning zaifligi hamda yashay olmasligining nishonasi deb hisoblanib kelingan. Masalan, ko’p millatli Avstriya-Vengriya monarxiyasini odatda “qurama” deb atalgani tasodif emas. Bu monarxiya zamon sinoviga bardosh berolmay, birinchi jahon urushi yakunida barbod bo’lgan edi.

Barcha zamonlar va xalqlarning eng yaxshi fanzandlari chinakam ijtimoiy uyg’unlik jamiyati to’g’risida, do’stlik va qardoshlik davlati haqida, Alisher Navoiy aytganidek, xalqlar nizolarni unutib, urug’ oilaga birlashadigan kelgusi zamonlar to’g’risida orzu qilishgan edi. Ammo bu orzular uzoq vaqtgacha ro’yobga chiqmay qolaverdi, chunki o’sha paytdagi jamiyatning ekspluatatorlik tabiati, uni rivojlantirishning ob’ektiv tendentsilari va ziddiyatlari milliy antagonizmlarni yanada keskinlashtirishga muqarrar ravishda olib keldi.

Milliy masala har xil tarixiy davrlarda va turli mamlakatlarda turlicha o’z ifodasini topadi. Rivojlanib borayotgan kapitalizm davrida uning mazmuni har bir millatni jipslashtirish uchun, suveren milliy davlatlarni barpo etish uchun, milliy zulmga va tengsizlikka qarshi kurashdan iborat bo’lib qoladi. Buyuk frantsuz burjua revolyutsiyasining “ozodlik” va “tenglik” degan shiorlari bilan bir qatorda “qardoshlik” va “suverenitet” degan shiorlari ham bor edi. Ammo kapitalizm sharoitida ularni ro’yobga chiqarishning, millatlarning chinakam erkinligi va tengligiga erishishning iloji bo’lmaydi.

Kapitalizm milliy masalani kengaytirib, keskinlashtirib yubordi. Imperializm esa uni milliy-mustamlaka masalasiga aylantiradi.

Ammo mohiyat e’tibori bilan qaraganda bu progressiv jarayon imperializm davrida antagonistik shakllarda sodir bo’lib, xalqlarning huquqlari va erkinliklarini, ularning o’zlariga aziz bo’lgan madaniyati, an’analari, qadriyatlarini poymol qiladi.

Tarix – bu ko’p millatli burjua davlatlarning bir xalq ikkinchi xalqdan ajralib chiqishi asosida parchalanishi hamda aholisining tarkibi ozmi-ko’pmi bir xildagi millatdan iborat mustaqil milliy davlatlarning tashkil topishidir. Afsuski, bunday

iborani sotsializmga tadbiqan qo’llashga to’g’ri kelmoqda, sababi, milliy masalaga doir markscha-lenincha nazariyaning “buyuk kuchiy” va “haqqoniyligi” amalda isbotlanmadi. Buning misoli bo’lib Yugoslaviya, Chexoslavakiya, sobiq SSSR hisoblanadi federativ tuzilmalar zaminida mustaqil milliy davlatlar vujudga keldi.

Oktyabr inqilobidan keyingi dastlabki yillarda milliy masala sohasida ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo’lsada, ammo ko’p o’tmay bu sohada salbiy jarayonlar ustunlik qila boshladi.

Bunday holatning yuzaga kelishining zamini bitta, u ham bo’lsa ma’muriy-buyruqbozlik usulining g’alabasi tufayli markscha-lenincha milliy siyosatning qo’pol ravishda buzilganligi, uni talqin etishda hayotdan uzilganlik, buyuk millatchilik tendentsiyalari bo’ldi.

Stalincha qatag’onlik va turg’unlik yillarida milliy siyosatni amalga oshirishda katta kamchiliklar va xatoliklarga yo’l qo’yildi. Milliy masalani talqin etishda hayotdan uzilishga yo’l qo’yildi. Ko’p yillar davomida mamlakatda milliy masala uzil-kesil hal etildi, degan tasavvur bilan yashaldi. Bu hayotimizning jadallik bilan baynalminallashtirish to’g’risidagi yuzaki tasavvurni vujudga keltirdi.

30-yillarning boshlaridan boshlab mamlakatda rahbarlik qilishning ma’muriy, buyruqbozlik usullari g’alaba qildi. Huddi shu davrdan boshlab milliy siyosat printsiplari buzila boshladi. Buning yaqqol isboti Sovet O’zbekistonni ishchi-dehqon huqumatining 1924 yil 31 dekabrda o’zbek tiliga davlat maqomini berish to’g’risidagi qabul qilingan 48-sonli maxsus qonunning bajarilmaganida ko’rish mumkin.

Milliy siyosatning buzilishi oqibatida O’zbekistonda ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga noto’g’ri yondashuvlar paydo bo’ldi. Jumxuriyatimizga asosan xom-ashyo bazasi deb qaraldi, uning iqtisodiyotini yoppasiga yalpi rivojlantirishga e’tibor berilmadi. Milliy masalada va u bilan bog’liq bo’lgan masalalarda yo’l qo’yilgan xato va kamchiliklar respublikamizda ham millatlar o’rtasida nizolarning kelib chiqishiga, ma’naviy va siyosiy iqlimning yomonlashuviga sabab bo’ldi. Uning aniq ifodasi bo’lib 1989 yilgi Farg’ona,

Qo’qon, 1990 yilgi Buka, Parkent fojialari timsolida yaqqol ko’rish mumkin. Bu hunuk, noxush voqealar zamirida turg’unlik yillari qabohatlari, adolatsizliklari, ijtimoiy tengsizlik holatlari yuzaga keltirgan hamda jumxuriyat xalqining taqdiri bilan uzviy bog’langan juda ko’plab dolzarb muammolar, jumboqlar yotadi. Biz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy hayotimizda ko’pdan yig’ilib qolgan bu muammo va masalalarni oqilona tarzda qadam-baqadam hal etib bormasdan turib, ilgariga tomon komil ishonch bilan ijobiy siljish qila olmaymiz.

Respublikaning muhim xususiyatlaridan biri – milliy tarkibining o’ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Hozir O’zbekiston aholisi 2008 yilda 26,5 mln.ga etdi, 139 millat vakili qayd etildi. O’zbeklar umum aholining 80 foizini tashkil etadi.

O’zbekiston fuqarolari, o’zlarining nasl-nasibi, irqi, millatidan va boshqa holatlaridan qati’y nazar, teng huquqqa egadir. Konstitutsiyamiz O’zbekiston fuqarosi deb hisoblangan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va milliy an’analarini hurmat qilishini kafolatlaydi.

O’zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g’oyat rang-barangligi milliy o’zligini anglash va ma’naviy qayta tiklanishining kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni Yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo’lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo’shilishi uchun qulay sharoitlar vujudga keltiradi.

Yangilanish va demokratiyaning yorqin timsoli – bu jumhuriyatimizning Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinganligi bo’ldi. O’zbekiston jumhuriyati Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi tomonidan 1990 yil iyunda yaqdillik bilan qabul qilingan bu tarixiy hujjatda bir ovozdan O’zbekiston davlat mustaqilligi e’lon qilindi.

Xalqning hoxish-irodasi bilan mustaqil suveren davlat deb e’lon qilingan O’zbekiston Respublikasi mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishni, o’zining barcha fuqarolari manfaatlarini himoya qilishni, odamlarga huquq va erkinliklar kafolatini berishni xalqning farovonligini oshirib borishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ydi.

O’n ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1991 yil 31 avgustda qabul qilgan O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi qonunining 15-moddasida O’zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari, millatidan, elatidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e’tiqodidan qat’iy nazar bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar. Respublika konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo’ladilar deyiladi.

Jumhuriyat siyosiy mustaqilligining katta yutuqlaridan biri, bu ham bo’lsa o’zbek tiliga davlat tili maqomining berilganligi bo’ldi.

O’zbekiston xalq deputatlari Oliy Kengashining 1989 yil 21 oktyabrda Davlat tili to’g’risidagi qabul qilgan qonuni asosida o’zbek tilining davlat tili sifatida qonunlashtirilishi jumhuriyat ijtimoiy hayotida katta tarixiy voqea bo’lib, u o’zbek xalqining mustaqil millat tarzidagi tabiiy-qonuniy huquqini tiklash va hayotga qaytirishda olg’a tashlangan muhim qadam bo’ldi.

Davlat tili haqidagi qonun jumhuriyat aholisining mutlaq ko’pchiligini (80 foizga yaqin) tashkil etuvchi o’zbek xalqining tili O’zbekiston hududida mustaqil davlat tili sifatida to’la-to’kis amal qilishini tayin qilib, barcha mehnat jamoalari, o’quv yurtlari, vazirliklar, korxonalar va boshqa davlat muassasalarida ish yuritishni rus tilidan asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich o’zbek tiliga o’tkaza borishni ko’zda tutadi. Bunday tadbirning hayotga tadbiq etilishi jumhuriyatimiz siyosiy mustaqilligini yanda qaror toptirishga va uning madaniy-ma’rifiy hayoti ravnaqiga yordam beradi.

Shu bilan birga o’zbek xalqining qadim-qadimdan avaylab saqlab, uning necha-necha avlodlarining ma’naviy mulkiga aylanib kelgan, biroq stalinizm qatag’onlari va turg’unlik yillarida e’tiborsizlik va befarqliklar natijasida kamsitilib, bug’ilib, rivojlanishdan to’xtab qolayotgan milliy an’analari, betakror urf-odatlari, diniy rasm-rusumlari va boshqa ma’naviy qadriyatlarini tiklash, ularning erkin amal qilishi va ravnaqiga keng yo’l ochib berish ham oshkoralik va demokratik jarayon bilan uzviy bog’liqdir. Bu borada ham jumhuriyat voqeligida dastlabki xayrli ishlar qilinayotganligi quvonarli holdir.

O’zbek xalqining asriy tarixiy obidalari, madaniy yodkorliklarini saqlash va ta’mirlashga davlat ahamiyati berilayotganligi, islom qadriyatlari qayta baholanayotganligi, milliy xalq bayrami Navro’zning umumxalq bayrami sifatida keng nishonlana boshlanganligi, ming yillik tariximiz bitilgan eski o’zbek yozuvini keng o’rganishga yo’l ochilganligi – bular xalqimizning ongi teranlashib, uning o’zligini anglash darajasi ko’tarilib, o’z qadrini rostlab, mustaqillik sari odim tashlab borayotganligi yorqin shahodatdir.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng o’z davlat siyosatini erkin ravishda ishlab chiqishga erishdi. Bular quyidagi yo’nalishlarda o’z ifodasini topdi:

- Jumhuriyatda millatlararo va ijtimoiy inoqlikka erishish yo’lida barcha jamoatchilik va siyosiy kuchlarni jipslashtirish, ijtimoiy, siyosiy vaziyatning barqarorligini saqlash va mustahkamlash;
- Real suveren milliy davlatni, siyosiy hokimiyatning demokratik tashkiloti asosini, ko’pfirqalik va fikrlar xilma-xilligini umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish;
- Ijtimoiy yo’naltirilgan va mulkning turli xil shakllariga asoslangan samarali bozor iqtisodiyotini yaratish;
- Fuqarolarning yuksak darajada farovonligiga, har jihatdan ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy himoyalanishiga erishish va h.k.

Mustaqillik shabodasidan erkin nafas olayotgan respublika mehnatkashlarining jamiyatni yangilash yo’lidagi erkin va ijodiy mehnati o’z natijalarini bermoqda. Qisqa davr ichida shu qadar ko’p niyatlarni ro’yobga chiqarishga, iqtisodiy, ijtimoiy sohada, siyosatda, eng muhimi – aholi tafakkurida shu qadar tub o’zgarishlarni amalga oshirishga erishildiki, so’ngi bir necha o’n yilliklar davomida bularni hayolga keltirib ham, orzu qilib ham bo’lmas edi. Erkinlikka: tanlash erkinligiga, faoliyat erkinligiga erishildi. Uning noyob, had-hisobsiz tabiiy boyliklari hamda salohiyatini butun aholining manfaatlari va respublika farovonligi yo’lida mustaqil tasarruf etish huquqi, o’z taqdirini o’zi belgilash, o’zbekistonliklarning bir necha avlodlarining tarixiy istiqboli uchun mas’ul bo’lish huquqi qo’lga kiritildi. Totalitar tizim va mafkuraviy diktatdan,

yarim mustamlaka iqtisodiy qaramligidan yuqori samarador bozor iqtisodiyotiga ega bo’lgan demokratik huquqiy jamiyat qurish sari qat’iy va orqaga qaytmas qadam tashlandi.

9.3-chizma

Millat arabcha – “xalq” demakdir

Kishilarning yagona tilda gaplashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqisodiy hayot kechirish, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo’lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birlik.

Millat tarifi

Til, ma’naviyat, milliy o’zlikni anglash ruhiyari, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar asosida muayyan hududa yashovchi kishilarning birligiga aytiladi.

Milliy masala

Mazlum va ekspluatasiya qilinayotgan xalqlarni ozod qilish to’g’risidagi, milliy zulmni tugatish va xalqlarning o’z taqdirini o’zi belgilash to’g’risidagi, millatlar, elatlarning yuridiк, so’ngra esa amaldagi tengligini qo’lga кiritish to’g’risidagi, millatlararo adovatni va xalqlar o’rtasidagi ishonchsizlikni yo’qotish haqidagi masala sifatida ko’p millatli davlatlarda vujudga keladi.

9.4-chizma



9.4-chizma



Davlatimiz qabul qilgan barcha hujjatlarda umuminsoniylik tamoyili to'liq o'z aksini topgan. O'zbekistonda tashkil topgan milliy madaniy markazlar shu tamoyilni izchil amalga oshirish jarayonidir.

9.5-chizma

O’zbekiston xalqi qanday millatga mansubligidan qat’iy nazar ularning maqsadlari, taqdirlar, yo’llari (ozod, farovon, erkin jamiyat) bir bo’lganligi bois, hamkorlik, o’zaro yordam, o’zaro bir-birini boyitish asosida taraqqiy etadilar. Milliy taraqqiyotga to’siq bo’ladigan tartiblar, qoidalar, qonunlar barxam topgan. Millatlarning erkin rivojlanishi uchun ob’ektiv sharoitlar mavjud. Hech bir millatning qadriyatlariga taxdid qiluvchi harakatlarga zamin yo’q. O’zbekiston har qanday millatga insoniyatning va mamlakatimizning boyligi deb qaraydi va milliy siyosatni shu asosda olib bormoqda.

Qisqacha xulosa.

Milliy munosabatlar tushunchasi bilan milliy siyosat tushunchasi o’zaro bog’liq dialektik birlikdagi mutanosib kategoriyalardir. Milliy munosabatlar shakllanib amal qilayotgan davlat doirasidagina hokimiyatning milliy siyosati asoslari yaratiladi va amalga oshiriladi. Shuning uchun tabiiyki, milliy siyosat – milliy munosabatlar oqimini davlat hokimiyati rejalashtirilgan holda boshqarishni anglatadi.

Jahon xaritasida bitta millatdan tashkil topgan davlatni uchratib bo’lmaydi, demak milliy masalani muvozanatli tarzda, mutanosib holda hal qilish asosan ko’pmillatli davlat uyushmasi doirasida amalga oshiriladi.

Jahon taraqqiyoti ilgarilab borgani sari millatlar va xalqlari o’rtasidagi har tomonlama xususiyatga ega bo’lgan aloqalar rivojlanib borishi moyilligi kengroq va chuqurroq o’rin egallay boshlaydi. Mazkur moyillik er yuzida keng ko’lamda sodir bo’layotgan ilmiy-texnik inqilobning rivojlanishi, davlatlar va xalqlar o’rtasidagi o’zaro aloqadorlikning kengaya borishi xalqaro munosabatlarda esa Yangicha siyosiy tafakkur aqidalarining qaror topishi jarayonlari bilan chambarchas birlikda rivojlanib borishi xususiyatiga egadir.

Tayanch so’zlar.

Urug’-qabila munosabatlari, etnos, elat, millat, etnik guruh, etnografik guruh, milliy guruh, milliy munosabatlar, milily masala, milliy siyosat, milliy o’zlikni anglash, millatlarning o’z taqdirini o’zi belgilash huquqi, unitar, federativ, konfedkrativ davlat huquqiy shakllari.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Urug’-qabila, elat, millatning asosiy belgilari va mohiyatini tushuntirib bering?
2. Milliy masalaning kelib chiqishi va uni hal qilishga bo’lgan yondashuvlarni misollar yordamida tushuntirib bering?
3. Milliy siyosatning ko’pmillatli davlatlarda o’ziga xos va umumiy xususiyatlari qanday?
4. Sobiq Ittifoq davrida milliy siyosatning mohiyati, oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Siyosatda aholining etnik guruhlari qanday rol o’ynaydi?
6. Millatga ta’rif bering?
7. Milliy davlat tuzilmasi shakllari haqida nimalarni bilasiz?
8. Milliy madaniy markazlarning asosiy faoliyat yo’nalishi qanday?
9. Mustaqil O’zbekistonda olib borilayotgan milliy siyosatning insonparvarlik mohiyatini ko’rsatib bering?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2009. 5-12 - b.
2. Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. –T.: “O’zbekiston”, 2005. T. 13. 133-222 - b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 110-119 - b.
4. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar, Politologiya. O’quv qo’llanma. –T.: TDIU, 2006. 58-59 - b.
5. Aliev B. Boboev A. va boshqalar. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. –T.: TDIU, 2006.94-98 - b.
6. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. M.INFRA. –M.: 2007. 364-375 b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. Prospekt. –M.: 2008. 239-263 b.
8. Odilqoriev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. “O’qituvchi”. – T.: 2008. 260 - b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 298-340-b.

III BO’LIM. SIYOSIY ONG, MADANIYAT VA MAFKURALAR

10-MAVZU: SIYOSIY ONG

10.1. Siyosiy ong tushunchasi. Uning harakat mehanizmi

Siyosiy ong – ijtimoiy ongning asosiy formalaridan biridir. U davlat va jamiyat siyosiy tashkilotining paydo bo’lish bilan yuzaga keladi. Qadimgi grek mutafakkirlari Platon va Aristotel jamiyat uchun davlat tuzilmalari hamda xulq atvor tizimi siyosiy makonda zarur ekanligini ta’kidlaganlar.

Siyosiy ong – bu ijtimoiy ong sohasi bo’lib, u sotsial xissiyot, tasavvurlar, qarashlarning yig’indisini, aniq siyosiy munosabatlarni, shuningdek, uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Siyosiy ongning mazmuni siyosiy faoliyat shaklida namoyon bo’ladi, u siyosiy tuzilma bilan chatishgan holda, uning amal qilishining tarkibiy qismini ifodalaydi.

Siyosiy ongning mazmuni amal qilayotgan siyosiy munosabatlar va hokimiyat, shuningdek, siyosiy voqelikdagi xissiy va abetrakt tasavvurlar yig’indisidir.

Siyosiy ongning muhim jihati – uning aniq tarixiy xarakterga ega ekanligidir. Birinchi navbatda jamiyatda hukmronlik qilayotgan ijtimoiy guruhning tasavvurlari va qadriyatlari umumlashadi.

Siyosiy ongning o’ziga xos tomoni – undagi jo’shqinlik, o’zgaruvchanlik bo’lib, siyosiy borliqning o’ziga xosligi bilan belgilanadi.

Tez o’zgaruvchan siyosiy ong voqeligida aks etishning uch vositasini ajratib ko’rsatish mumkin.

1) Bilish tizimi, uning amal qilish qoidalari, shuningdek, muammo va qarama-qarshiliklar:

2) Xis-tuyg’uli, ya’ni siyosiy voqelikni ijobiy yoki salbiy xis-xayajon, sezgida aks etish;

3) Baholi – siyosiy harakatning maqsadi, uning natijalari va oqibatlarini mulohaza etish va fikrlash.

Ushbu siyosiy ong darajasini tasnifi amerika politologlari G.Almond va S.Verbaga tegishli.

Har bir xalqning, har qanday sotsial birlik siyosiy ongi unga xos bo'lgan mentalitet asosida shakllanadi.

Siyosiy ong jamiyatning ob'ektiv tarzda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy strukturasi va unga xos bo'lgan siyosiy faoliyatning turlarini, ularga muvofiq keladigan siyosiy tashkilotlar va muassasalarini aks ettiradi.

Siyosiy ong ijtimoiy mavjudot va mohiyat bo'lgan inson aql-zakovatining, ma'noviy-ahloqiy faolligining oliy darajasini anglatadi. Insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, siyosiy ruhiy yo'nalishi, siyosiy xulq-atvori siyosiy mafkurasi uning ongida shakllanib, bir qolipga tushadi so'ng ular insonning siyosiy xatti-harakatlariga aylanib, o'z ifodasini topadi, uning amaliy faoliyati ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Ob'ektiv voqelik kishi ongiga ta'sir ko'rsatib unda turli tasavvurlar, g'oyalar xosil qiladi hamda unda ong mazmunini vujudga keltiradi.

Insonning siyosiy ongi jamiyat ishlab chiqqan va odamlar tomonidan o'zlashtirgan xissiy va qadriyatli yo'nalishiga xos asosiy muammolar hamda siyosiy jarayonlar oqimiga, munosabat vositasida namoyon bo'ladi. Siyosiy ong tarkibida ilmiy, siyosiy, falsafiy, ahloqiy, estetik, diniy qadriyatlar ham muhim o'rin tutadi.

Siyosiy ong – bu kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to'g'risidagi bilimlar, tasavvurlar, e'tiqodlar, o'zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig'indisidan iborat.

Siyosiy ong – siyosiy borliqning sub'ektiv aks etishidir. U siyosiy voqelik qanday bo'lsa, shunday xolisona tarzda aks ettirishdir. Biroq, siyosiy ong siyosiy voqelikni mehanik tarzda aks ettirmaydi. U siyosiy voqelikning ichiga kirib, undan ilgarilab ketuvchi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zgarishi va rivojlanishini aks ettiradi.

Siyosiy ong – jamiyatning siyosiy hayoti va uning barcha sohalariga katta ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy xodisadir. Shningdek, alohida olingan kishilarning

ham, jamiyat ijtimoiy-siyosiy birlashmalarining ham xulq-atvori va faoliyatining xarakteri ko’p jihatdan siyosiy ongning darajasiga bog’liq.

Siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi manbalar asosiy omil bo’lib xizmat qiladi:

Birinchi manba – insonning oilaviy muhitidir. Siyosiy g’oyalar va xissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to’g’ri keluvchi ijtimoiy-ruhiy qarashlar – siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi.

Ikkinchi manba – bu keng ma’nodagi axborotdir. U insonga ham muomala orqali, ham ommaviy axborot vositalari orqali kirib boradi.

Uchinchi manba – bu individning shaxsiy tajribasidir. Bu shaxsiy tajriba olingan bilimni rad qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta’sir ko’rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar insonga siyosat dunyosini tahlil etishga va unga nisbatan munosabatini belgilab olishga imkon beruvchi bilimlar yig’indisini tashkil etadi.

Siyosiy ong ijtimoiy ongning boshqa shakllari kabi bir qator funktsiyalarni bajaradi. Bu funktsiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy hayot to’g’risida bilish – axborot berish. Kishilar ertami yoki kechmi, xoxlaydimi yoki yo’qmi ammo muqarrar ravishda siyosat dunyosiga duch keladi. U kishilarning hayoti va taqdiriga davlat, partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari orqali ta’sir ko’rsatadi. Siyosat kishilarga siyosiy axborot ko’rinishida kirib boradi.

Siyosiy ong kishilarga siyosiy bilimlar va axborotlarni o’zlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy hayotda o’z o’rnini belgilashga va unda to’ri mo’ljalni olishga yordam beradi.

2. Siyosiy baholash. Siyosiy ong sotsial-siyosiy voqelikni nafaqat biladi, izoxlaydi, balki uni baholaydi. Kishilar u yoki bu xodisalar, voqealarni anglash jarayonida ularga o’z munosabatlarini bildiradilar. Aynan siyosiy voqelikni baholash asosida kishilar o’zlarining siyosiy qarashlarini shakllantiradilar.

3. Siyosiy-ijtimoy yo’naltirish. Siyosiy ong kishilarga o’zlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat burchlariga, majburiyatlariga, balki muayyan huquqlar, erkinlarlar va siyosiy manfaatlarga ega bo’lgan fuqarolar erkinliklarini anglashga yordam beradi. Bu bilan siyosiy ong o’zining yo’naltiruvchilik funktsiyasi orqali kishilarning ijtimoiy hayotda ishtirok etishlari, siyosiy partiyalarga, tashkilotlarga o’zlarining fikrlari bilan birlashmalari zarurligini uyg’otadi.

4. Siyosiy hayot va manfaatlarni tartibga solish. Siyosiy ong voqelikni idrok etish asosida, hamda u tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy g’oyalar negizida kishilarning siyosiy-ijtimoiy xulq-atvorlarini, faoliyatini tartibga soladi.

Politologiya nuqtai nazaridan yondoshilganda siyosiy ong insonlar ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ahloqiy hayotlari davomida ularning turli guruhlari tub maqsad-manfaatlari hamda tasavvur-qarashlarining siyosiy hayot vositasida aks ettirilishidir. Demak siyosiy ong bilan siyosiy hayot mutanosibligi va dialektik birligi jamiyat hayotida katta ta’sir kuchiga ega bo’lib, davlat hokimiyatining ichki va tashqi siyosat yuritishida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, siyosiy ong sotsial sub’ektlarning ijtimoiy hayotning asosiy sohasi haqidagi bilimlar, tasavvurlar va baholashlarining yig’indisidan iboratdir. U bir qator funktsiyalarni: bilish, baholash, yo’naltirish, tartibga solish kabi funktsiyalarni bajarish bilan jamiyat hayotida muhim rol o’ynaydi, uni harakatga keltiradi, o’zgartiradi.

10.2. Siyosiy ongning darajasi, o’zaro farqi, o’z-o’zini anglash jarayoni

Siyosiy ongni shakllanishda kishi tomonidan o’z-o’zini yoki o’zligini anglash xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. O’z-o’zini anglash – xalq o’zining xaqiqiy mavjud sub’ekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarning ifodalovchisi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda extiyojlar umumiyligini tushunib etishi jarayonida shakllanadi.

Demak, o’z-o’zini anglash inson ongli faoliyatining eng oliy ko’rinishlaridan biri hisoblanar ekan.

O’z-o’zini anglash kishilarda siyosiy ongning shakllanishiga faol ta’sir ko’rsatadi va ularning ijtimoiy etuklik darajasini belgilaydi.

O’z-o’zini anglash xususiyatlarini shakllanishida individni o’rab turuvchi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, madaniy muhitning ta’siri muhim ahamiyatga ega. Ana shu muhit ta’sirida insonning o’z-o’zini anglash qobiliyati o’sha boradi.

O’z-o’zini anglash bevosita moddiy kuch sifatida millat sha’ni, qadr-qimmati, obro’-e’tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki uning moddiy va ma’naviy manfaatlariga zid harakatlar va holatlarda namoyon bo’ladi. Masalan, o’z mustaqiligimiz uchun kurashda, sho’rolar tuzumi sharoitida o’zligimizni saqlab qolish uchun bo’lgan harakatlarda namyon bo’ldi.

O’z-o’zini anglash millatlar uchun siyosiy onglilikning oshishigagina emas, balki amaliy natijalarga ham olib keladi. Bunday natijalardan eng muhimi – milliy mustaqillik va ozodlikdir. O’z-o’zini anglash jahon tarixida millat ozodlik harakatlarining kuchayishiga, buning natijasida imperiyalarning siyosiy jihatdan tushkunlikka uchrashiga, so’ngra esa ularning parchalanib ketishiga olib keldi. Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya kabi imperiya davlatlarining o’z mustamlakalaridan maxrum bo’lishiga, Sobiq Sovet imperiyasi o’rnida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bunga yorqin misol bo’la oladi.

Mustaqillikni qo’lga kiritgan O’zbekistonda milliy o’zligini anglash ikki yo’nalishda: sobiq sho’rolar davrida toptalgan urf-odatlarimiz, qadr-qimmatimiz, qadriyatlarimizni tiklash va ma’naviy merosimizni o’zlashtirishga bo’lgan harakatlarda hamda yangi adolatli demokratik huquqiy ustivorlikka asoslangan jamiyat qurish harakatlarida namoyon bo’lmoqda.

O’z-o’zini anglash faqat ma’lum hududda sodir bo’ladigan ijtimoiy jarayonlargagina emas, balki boshqa hududlardagi ijtimoiy jarayonlarga ham ta’sir qiladi. O’z-o’zini anglash bir vaqtning o’zida ham bevosita munosabatda turuvchi xodisalarni va ayni paytda bilvosita munosabatda bo’luvchi xodisalarni ham o’zida aks ettiradi. Xuddi shu ma’noda er kurrasining u yoki bu hududida sodir bo’ladigan xodisalar faqat mahalliy ahamiyatga ega bo’lmay, balki umuminsoniy tarixiy-siyosiy ahamiyatga ham egadir. Bu xususiyatni kishilar tomonidan anglanishi ular siyosiy ongining o’sishiga olib keladi. Ularning global darajada fikrlash qobiliyatini o’stiradi.

Siyosiy ong o’zining mazmuni va maqsad, yo’nalishlari jihatidan hozirgi kunda uch asosiy shakllarida mavjud bo’ladi:

1. Alohida shaxs siyosiy ongi;

2. Ijtimoiy guruh siyosiy ongi;

3. Ommaviy siyosiy ong.

Ayni vaqtda mazkur shakllarga bo’linish siyosiy ong amal qilishi bosqichlari va darajalarini ham anglatadi. Chunki alohida shaxs siyosiy ongining mohiyatli qirralari ijtimoiy guruh siyosiy ongli asoslarini, ijtimoiy guruhlar har birining siyosiy ongi butun jamiyat miqyosida shakllanib qaror topgan ommaviy-siyosiy ong shaklini vujudga keltiradi.

Birinchi shakldagi siyosiy ong mazmunini har bir shaxs xususiyati va sifati tashkil etadi.

Shaxs siyosiy ongining amal qilish jarayonlarini boshqarish mehanizmlarini tahlil etilganda ularning ikki yo’nalishda sodir bo’lishi namoyon bo’ladi:

1. Siyosiy talab-extiyojlar; qadriyatlar, xis-tuyg’ular siyosiy ong vaj-sabablari yo’nilishida amal qiladi;

2. Siyosiy bilimlar, siyosiy axborotga ega bo’ladi. Siyosatga qiziqishning vujudga kelishi, siyosiy e’tiqodlarning shakllanishi kabi jarayonlar siyosiy ongning bilish-anglash yo’nilishini tashkil etadi.

Ijtimoiy guruh siyosiy ongi u yoki bu darajada shakllangan va ijtimoiy uyushgan katta, o’rta, kichik ijtimoiy guruhlar onglarining mujassamashgan ifodasidir. Ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlam darajalaridagi siyosiy ong bir tomondan ijtimoiy-milliy, katta muhit doirasida va ikkinchi tomondan siyosiy elita, harbiylar, hukmron siyosiy partiya rahbariyati, tazyiq guruhlari kabi kichik muhit doirasida namoyon bo’ladi.

Ommaviy siyosiy ong jamiyatda sodir bo’layotgan siyosiy voqea-xodisalarga bo’lgan ommaviy munosabat zaminida vujudga kelib, dolzarb siyosiy mazmunga ega bo’lgan, o’ta siyosiy muhim oqibatlarga olib kelishi kutilayotgan siyosiy jarayonlarga nisbatan ommaviy munosabatda o’z ifodasini topadi.

Ommaviy siyosiy (madaniyat) ong aniq tarixiy va o’zgaruvchan xarakterga ega. U tez-tez ko’tarilish va pasayish davrlarini o’z boshidan kechiradi.

Ijtimoiy ongning siyosiy turkumi, o’z navbatida yana bir qator ko’rinishlarga bo’linadi, ya’ni g’oyaviy-ijtimoiy, ruhiy ilmiy, amaliy, nazariy, tajribali siyosiy ong turlari mavjud bo’lib, ular siyosiy hayot jarayonlarida u yoki bu darajada namoyon bo’lish xususiyatiga egadir.

Shunday qilib, yakka odam (shaxs), ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlam va butun jamiyat siyosiy ongining bir-biriga uzviy bog’liq bo’lib siyosiy hayot voqea va xodisalari orqali namoyon bo’ladi, bir-birini boyitish tabiatiga ega.

Ijtimoy ongning siyosiy turkumi o’z navbatida yana bir qator ko’rinishlarga bo’linadi ya’ni g’oyaviy-ijtimoiy, ruhiy, ilmiy, amaliy, nazariy, tajribali-siyosiy ong turlari mavjud (shakllari) bo’lib, ular siyosiy hayot jarayonlarida u yoki bu darajada namoyon bo’lish xususiyatiga ega.

Siyosiy ong darajalariga kundalik-amaliy siyosiy ong va g’oyaviy-siyosiy ong kiradi. Kundalik siyosiy ong kishilarning amaliy faoliyati, ijtimoiy tajribasi orqali va ularni bevosita qurshab turgan muhitning ta’siri natijasida stixiyali tarzda shakllanadi. Unda oqilonalik va xis-tuyg’u, sof, ya’ni turmush tajribasi va an’analar, bir zumlik, o’tkinchi kayfiyat va barqaror yo’l-yo’riqlar nazariy jihatdan ishlanmagan va bir-biri bilan o’zaro bog’lanmagan bo’ladi. Kundalik amaliy siyosiy ong ko’p hollarda barqaror bo’lmaydi. Chunki u xis-tuyg’u va o’zgarib turuvchi bevosita tajribaga bog’liq bo’lgani sababli omonat bo’ladi. Undagi barqaror tomonlar fikrning o’zgarib, moslashib borishga xalaqit beradi. Bir ijtimoiy guruh vakillarining iqtisodiy axvolida umummiylik bo’lgani uchun ularning siyosiy ongida ham umummiylik bo’ladi. Hokimiyatga munosabati kundalik hayotning minglab dalillarida namoyon bo’ladi. Unda aql-zakovatni umumlashtirish, tahlil qilish faoliyati namoyon bo’lmaydi, uning tarixiy istiqbol, nazariy formulalari va falsafiy kategoriyalari bo’lmaydi.

Kundalik-amaliy siyosiy ong ob’ektiv iqtisodiy voqelikka to’g’ridan-to’g’ri bog’liq bo’lgani uchun uning kundalik aniq mazmunida muayyan ijtimoiy guruhning nazariy-siyosiy mafkurasining kurtaklari bo’ladi. Nazariy mafkura

kundalik ongning mazmunini tanqidiy tahlil qilib, aniq, tarixan va ijtimoiy jihatdan asoslab berilgan siyosiy dasturni ishlab chiqadi. Mafkura mavjud kayfiyatlarni passiv o'rganish emas, balki strategik va taktik tizimdir, u ijtimoiy ongga aktiv ta'sir qilishga qaratilgan.

Siyosiy mafkura ijtimoiy ongga ta'sir qilish uchun g'oyat katta imkoniyatlarga ega. Chunki u faqat qarashlar, g'oyalarning tizimidangina iborat emas, balki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, davlat hokimiyati kabi muassasalardan iborat g'oyaviy ta'sir ko'rsatish vositalariga ham ega.

Har bir mafkuraning o'z tashkilotiga, targ'ibotining o'ziga xos turiga, ommaga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish tamoyillari bo'ladi. Ammo ommaviy axborot vositalari va keng demokratik oshkoralik mavjud bo'lgan sharoitda hukmron mafkuraning omma ongini muayyan izga solib borish ta'siri kamayadi. Rasmiy mafkurani kundalik siyosiy ong bilan moslab olib borishga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, siyosiy ong murakkab va ko'p qirrali xodisa. U nafaqat siyosiy voqelikni aks ettiradi, balki uni ijod qiladi, o'zgartiradi.

10.3. Siyosiy ongda umumdavlat manfaati va siyosiy ongga ehtiyojnig oshib borishi

Ijtimoiy hayotning barcha shakllari orasida siyosiy ong alohida o'rin tutadi. Chunki unda ijtimoiy tabaqalar va guruhlarning iqtisodiy manfaatlari o'zining mujassam holdagi aksini topadi. U hokimiyat uchun kurashga va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda siyosiy ong etakchi o'rin tutadi, u iqtisodiy bazisga yaqin bo'lib, sub'ektlarning moddiy va siyosiy manfaatlarni ifoda etadi.

Siyosiy ong ijtimoiy hayotda birlashtiruvchi ahamiyatga ega, chunki u ijtimoiy ongning qolgan barcha shakllariga singib ketgan. Siyosiy ong jamiyat hayotining umumiy sohasi sifatida tabaqalar, davlat va siyosatning paydo bo'lishi, ya'ni jamiyatning siyosiy tizimi vujudga kelishi bilan btr vaqtda shakllanadi. Siyosiy ong jamiyatda baholash, tartibga solish, bilish va bashorat qilish funktsiyalariga ehtiyoj oshib boradi. Siyosiy manfaatlar davlat hokimiyati uchun kurashda toqnashadi. Shunday paytda davlat hokimiyatining tuzilishi siyosiy

tafakkurning asosiy muammosiga bog'liq. Davlat uchun siyosiy kurash parlament munozaralari va iqtisodiy talablar qo'yish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, davlat to'ntarishlari hamda ijtimoiy inqiloblar kabi har xil shakllarga yuz berishi mumkin.

Siyosiy ongning quyidagi darajalari farqlanadi:

Oddiy – amaliy siyosiy ong odamlarning hayot faoliyatida, ularning tajribasi asosida o'zg'o'zidan vujudga keladi.

G'oyaviyg'nazariy siyosiy ong siyosiy voqelikni to'liq va teran aks ettirishi, qarashlarni bashorat qilish va tizimga solishga qodirligi bilan ajralib turadi. Siyosiy mafkura – siyosiy voqelikni muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa, sinf, millatning manfaati va ehtiyojlari nuqtai nazaridan idrok etishga oid g'oyalar, tasavvurlar, qarashlar, nazariy fikrning umumlashtirilgan tizimidir.

Siyosiy mafkura quyidagi funtsiyalarni bajaradi:

1. Ommaviy siyosiy ongga ta'sir o'tkazish va uning siyosiy hayotda mo'ljal olishi uchun zarur bo'lgan mezon va andozalar tizimini shakllantirish.

2. Ijtimoiy – siyosiy tashkilotlar va guruhlarning manfaatini e'tiborga olib, ularning harakat dasturlari asoslarini shakllantirish.

3. Mafkurada taklif etilayotgan siyosiy yo'lning mazmunini aks ettiruvchi ijobiy obrazni shakllantirish.

4. Fuqaralar keng ommasining siyosiy xulqg'atvorini asoslab (motivasiya qilib) berish.

Barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlar butun xalqimizning quyidagi umumiy manfaatlarini ifodalaydi:

1) Mamlakat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhatlar daxlsizligi.

2) Yurt tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informatsion tahdidlardan muhofaza etilishi.

3) Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash.

4) Har bir oila va butun xalqning faravonligi.

5) Jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o’zinig’o’zi boshqarish printsiplarining amal qilishi.

Milliy istiqlol mafkurasi quyidagi asosiy vazifalarini bajaradi:

1. Mustaqil dunyo qarash va erkin tafakkurni shakllantirish.

2. Milliy o’zlikni anglash.

3. Ko’p millatli xalqimiz ongida “O’zbekiston – yagona Vatan” tuyhusini shakllantirish.

4. Erkin fikrli, siyosiy faol insonni tarbiyalash.

5. Tarixiy xotiraga sadoqat.

6. Milliy tabiyatimizga xos bunyodkor fazilatlarni rivojlantirish.

7. Umummilliy birlik muhitini yaratish.

8. Milliy qadriyatlarni rivojlantirish.

9. Milliy ixtixor va hururni tarbiyalash.

Siyosiy mintalitet. Uning ta’riflari quyidagicha: Siyosiy mintalitet – ma’lum ijtimoiy tabaqalarga xos tasavvurlar, fikrlash tarzi va e’tiqodlar majmui. Siyosiy mintalitet – ham alohida ijtimoiy tabaqa, ham uning sub’ektlari darajasida mavjud mavqelikning faol ishtirok etilishini nazarda tutadigan qarashlar majmui.

Siyosiy mintalitetg’hokimiyat munosabatlari jamoa ongida aks etishning o’ziga xos mahsuli.

Siyosiy mintalitet siyosiy ongga yaqin. N.P.Polivaevaning fikricha, “Siyosiy ong – faqat ilmiy – nazariy bilimlar emas, kundalik hayotni anglab etish jarayonida shakllangan tasavvur hamdur”. Siyosiy mintalitet tajriba va kundalik hayot bilan bevosita bog’liq bo’lib, quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1) Siyosiy voqelik haqidagi tasavvurlar.

2) Ongli va ong ta’sirisiz shakllangan siyosiy qarashlar.

Siyosiy qarashlarning turlari:

a) Mafkurviy (ma’lum qarashlar tizimiga yo’naltirilgan);

b) Partiyaviy (siyosiy maydondagi ma’lum pozitsiyaga yo’naltirilgan);

v) Shahsiy (siyosiy xulqg’atvor nolrmalari asosidagi siyosiy rahbar).

3) Siyosiy vaziyatga alohida yo’sinda munosabat bildirishga itixiyali moyillik.

O’zbekiston jamiyatining siyosiy mintalitetida davlat hokimiyatning obrazi etakchilik qiladi. Paternalizm O’zbekiston jamiyatining siyosiy mintalitetida asosiy qadriyat sifatida shakllanadi.

Davlat hokimiyatining nufuzli e’tirofi, unga kuch va hukmronlik timsoli deb qarash O’zbekiston jamiyatining siyosiy mintalitetiga xos. O’zbekiston siyosiy mintalitetida davlat katta oilaga tenglashtiriladi. O’zbekiston siyosiy mintatitetida davlat hokimiyati qonunga tenglashtiriladi.

Huquqiy ong aslida, jamiyatda mavjud huquqi berilgan baho bulib, u amaldagi huquqga tanqidiy munosabatni aks ettiradi hamda huquq sohasida, undagi o’zgarishlarga nisbatan ma’lum umidlar va istaklarni ifoda etadi, nimani qonuniy nimani hayri qonuniy deb hisoblash mumkinligini aniklaydi.

Siyosiy ongga ommaviy axborot vositalarining to’rtta omilli ta’siri mavjud:

1. Shaxsing hayotiy tajribasi (shu jumladan, shaxs hayotining ijtimoiyg’iqtisodiy sharoitlari).

2. Shaxsning tajribasini u a’zo bo’lgan jamoa tajribasigacha kengaytiruvchi shaxslararo aloqalar.

3. Turli ijtimoiy buyruqlarning tajribasini tarqatuvchi jamiyat institutlari (masjid, maktab, partiyalar, ijtimoiyg’siyosiy birlashmalar).

4. Har kimga inson hayotining barcha yo’nalishlarida turli xalqlar, omma va shaxslarning tajribasidan foydalanish imkonini beruvchi ommaviy axborot vositalari.

10.4. Siyosiy ong shakllanishining asosiy omillari. Demokratik siyosiy ong

Siyosiy ong qanday shakllanadi. U avvalo insonda muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy shart-sharoitlar, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlar, siyosiy hayotni idrok etishga qaratilgan urf-odat, an’analar negizida shakllanadi. Bunday shart-sharoit bo’lmasa insonda siyosiy ong shakllanmaydi. Siyosiy ongning shakllanishi murakkab jarayon. Bu avvalo, ijtimoiy-siyosiy shart-

sharoit – demokratik tartibotning mavjudligiga bog'liq, agar u bo'lmasa Yuksak siyosiy ong shakllanmaydi. Qaerdakim avtoritar, ma'muriy-buyruqbozlik tizim bo'lsa, u siyosiy ongni rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Demokratik ong kishilarning ozodlik, erkinlik, ijtimoiy adolat, fikrlar xilma-xilligi, oshkoralik va muloxazalar erkinligi haqidagi xis-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari, nazariyalarning majmuidir. Demokratik ong ham yangi xodisa, ammo chuqur tarixiy ildizlarga ega. Xalqning ozodlik, erkinlik, adolat, oshkoralik, muloxazalarining xilma-xilligi haqidagi o'ziga xos intilishlari, qarashlari udumlari asosida bunday ongning tarixiy zaminlari bor.

Demokratik ong huquqiy, demokratik, insonparvar davlat, ijtimoiy adolatga asoslangan jamiyat qurish jarayonida shakllanadi. U davlat tomonidan o'z fuqarolariga demokratik huquqlar, erkinliklarni berishi, oshkoralik, fikrlar, mulohazalar xilma-xilligi uchun shart-sharoitni barpo qilishi, bularni poymol qilganlarni qat'iy jazolashi orqali vujudga keladi. Demokratik ong siyosiy, huquqiy, ahloqiy, falsafiy onglar vositasi bilan tarbiya orqali ham shakllanadi. Kishilarda demokratik ongni tarbiyalashda televidenie, radio, gazeta, jurnallarning roli kattadir. Bu jarayonda ijtimoiy tashkilotlar, muassasalarning faol ishtirok etishlari mumkin.

Demokratik ong jamiyat, kishilarning hayoti, faoliyati, taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Demokratik ong shakllangan rivojlangan mamlakatlarda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish yuqori darajada bo'ladi, moddiy va ma'naviy boyliklar ko'plab barpo etiladi: kishilarning xilma-xil extiyojlari qondirilib boriladi, Yuksak qadriyatlar mavjud bo'ladi, kishilar erkin yashaydilar, ishlaydilar, chinakam oshkoralik, fikrlar, qarashlar xilma-xilligi xukm suradi.

Siyosiy ongning shakllanishi faqat demokratik siyosiy tazimning mavjudligi bilan belgilanib qolmaydi. U jamiyat iqtisodiyotining darajasiga, xalqning moddiy farovonligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik jamiyatining bilimdon, malakali, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan boshqaruv kadrlari korpusining shakllanishi uchun zarur baza hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqning farovonligiga erishuvi – siyosiy ong shakllanishining asosiy shartlaridan biridir.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishiga ko’p jihatdan bog’liqdir. Sababi, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan qashshoq, savodsiz bo’lgan inson jamiyat anglagan siyosatdan tashqarida bo’ladi. Insonda ma’lumotchilik darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon bo’ladi. Inson qanchalik ma’lumotli bo’lsa, unga siyosiy bahs – munozaralarda ishtirok etish extimoli shunchalik yuqori bo’ladi.

“Ma’naviyat – insonni ruxan poklanish, qalban uyg’onishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.[1]

Individ qanchalik ma’lumotli bo’lsa, u muayyan jamoat tashkilotlarining faol a’zosi bo’lishi, o’zini o’rab turgan ijtimoiy-siyosiy muhitga ishonch bildirishi extimoli shunchalik yuqori bo’ladi.

Shunday qilib, siyosiy ong muayyan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy omillar, shart-sharotlar negizida shakllanadi va inson fazilatlarining ochilishiga yordam beradi.

Qisqacha xulosalar.

Siyosiy ong ijtimoiy ong shakllanishining oliy darajadagi ko’rinishidir. Uni qanday anglamoq kerak, siyosiy ong jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga ta’sir etib turadi. Shu nuqtai nazardan siyosiy ong mavjud siyosiy tuzum va siyosiy asosning ma’lum tarixiy muddatda saqlanishiga yoki tarixiy jarayon va uning extiyojlari asosida o’zgarishga bevosita aloqadordir. Siyosiy ong jamiyatda hukmron davlat siyosatini alohida yoki ommaviy shaklda aks etadi. Bu siyosiy ongning dialektik tabiatidan dalolat beradi, ya’ni siyosiy ong, metodologik jihatdan yakkalik, alohidalik va maxsuslik dialektikasi asosida mavjud siyosiy xodisalarga shaxsiy va ommaviy ongning munosabatlarini ifodalaydi.

[1] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. ─T:. “Ma’naviyat”, 2008, 19 b.

Siyosiy ong jamiyatning iqtisodiy bazasiga yaqin turadi, sinflar, ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini bevosita aks ettiradi, jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi.

Tayanch so'zlar.

Siyosiy ong, manbalari, funktsiyalari, siyosiy ongning darajalari, siyosiy ongning shakllari, elitar siyosiy ong, oddiy siyosiy ong, guruhiy siyosiy ong, ommaviy siyosiy ong, siyosiy ongning shakllanish omillari, o'z-o'zini anglash, siyosiy ong turlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Siyosiy ongning tarkibiy qasmlarini ko'rsating?
2. Siyosiy ong qanday jarayonlarni aks ettiradi?
3. Siyosiy ongning funktsiyalari qaysilar?
4. Siyosiy ongning namoyon bo'lish shakllari.
5. Siyosiy ongning shakllanishi qanday omillarga bog'liq?
6. Milliy o'zlikni anglash qanday ko'rinshlarda o'z ifodasini topmoqda?
7. Sharqxona siyosiy ong haqida gapirish mumkinmi?
8. Siyosiy boshqarish sohasidagi o'zgarishlar jamiyatimiz siyosiy ongiga qanday ta'sir qilmoqda?
9. Siyosiy ongning tarkibiga nimalar kiradi?
10. Siyosiy ongni yuksaltirish omillari nimada deb bilasiz?

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2009. 7-13 b.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. –T.: "O'zbekiston", 2003. 3-51, 214-247 b.
3. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. –T.: "O'zbekiston", 2005, 156-223 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008, 18-bob.

5. Aliev B. Hoshimov T. Politologiya. O’quv qo’llanma. –T.: TDIU, 2006, 184-195 b.
6. Aliev B. Boboev A. va boshqalar. “Politologiya” fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. –T.: TDIU, 2006. 132-139 b.
7. Mualliflar jamoasi Politologiya. Darslik. –M.: Prospekt. 2008.429-442 b.
8. Odilqoriev X.T. Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: “O’qituvchi”, 2008. 321-332 - b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 366-391-b.

11-Mavzu: Siyosiy madaniyat

11.1. Siyosiy madaniyat tushunchasi. Siyosiy madaniyat tizimi va asosiy elementlari

Mustaqil davlat taraqqiyoti uchun zarur bo’lgan omillaridan biri siyosiy madaniyat. Siyosiy madaniyat insonning umum bilim darajasi, dunyoqarashi, axloq-odobi bilan uzviy bog’liqdir. Siyosiy madaniyat o’z xolicha jamiyatdan tashqarida, yoki umummadaniyatdan uzilgan holda bo’la olmaydi. Siyosiy madaniyat, bu odamlar va jamoalar, sinflar va siyosiy firqalarning aniq maqsadga ongli intilish, maqsad va mohiyatini chuqur tushunishi, ehtirosga berilmay istiqlol yo’lidan borishni ta’minlovchi muhim omildir. Siyosiy madaniyat jamiyat, davlat va odamlar o’rtasidagi odob-axloq, qadriyatlar va qoidalar asosidagi munosabatlar ko’rinishi hamdir. Bunda davlat siyosatini bilish, qonunchilik asosida o’z munosabati siyosiy madaniyatning holati va darajasi ko’p narsalarga bog’liq: aholi ishlab chiqilgan siyosiy yo’lni qanday qabul qiladi, uni ixtiyoriy ravishda qabul qiladimi yoki majbur etish orqali qabul qiladimi, uning orzu-umidlarini aks ettiradimi yoki unga nimaga, kimga taqlidada munosabatda bo’ladimi, yoki to’la befarqlik va darajasining etukligi va xarakterini hisobga olish aholining siyosiy-boshqaruv qarorlariga munosabatni bilib olishga va so’ng esa shu qarorlarni amalga oshirish uchun choralar topishga imkon beradi.

Siyosiy madaniyat haqida gapirganda, birinchi navbatda, siyosiy ongning darajasi, siyosiy mafkuraning mohiyati, siyosiy ruhiyatning sifat mazmuni hamda

siyosiy xulq-atvorning murakkab tarkibini teran ravishda tahlil qilish kerak bo'ladi, Chunki ular o'rtasidagi dialektik birlik siyosiy madaniyat amaliyotining mushtarak qonuniyati mazmunini tashkil etadi.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik vujudga kelib, sinfiy jamiyat tashkil topganda keyin shakllana boshlaydi va amal qiladi. Lekin u to'la tan olinmagan holda, ob'ektiv zaruriyat sifatida amal qilar edi, Chunki uning tub tabiatini inson va insoniyat umumiy madaniyati iqtisodiyotdan, siyosiy jarayonlardan, ijtimoiy munosabatlardan, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlardan ajratib anglab bo'lmaydi.

Siyosiy madaniyat termini ancha keyin paydo bo'ldi. Uni ilmiy muammalaga XVIII asrda nemis faylasufi I.Gerder olib kirgan degan qarashlar mavjud. Hozirgi zamon politologiyasida "Siyosiy madaniyat" tushunchasi amerikalik nazariyotchi H.Fayer o'zining 1956 yilda yozgan "Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi" kitobida tilga oladi. Keyinchalik G.Almond va S.Verba besh mamlakat – AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika va Italiya siyosiy jarayonlarini tahlil qilib o'zlarining "Fuqarolik madaniyati" (1963) qitobini yozadilar.

"Siyosiy madaniyat" tushunchasini talqin qilishda turlicha yondashuvlar mavjud unga 30 dan ortiq ta'rif berilganligi, uning murakkab va etarli darajada o'rganilmaganligidan dalolat beradi.

Siyosiy madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatlar bilan bir qatorda o'ziga xos mustaqil madaniyat turidir. Uning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, o'zining faoliyat sohasining alohidaligi (siyosiy sohasi, siyosiy hokimiyatning amal qilishi) va ushbu madaniyat sohasini xarakterlovchi elementlarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. (Siyosiy tasavvur va qadriyatlar, siyosiy ko'rsatma va xulq-atvor). Siyosiy madaniyatni jamiyat siyosiy hayoti bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olish uning o'ziga xos xarakterini va chegarasini aniqlashga yordam berali, bu o'ziga xoslikni to'g'ri baholamaslik esa siyosiy madaniyat mazmunini siyqalashtiradi.

Siyosiy madaniyat qachon paydo bo’lgan? U jamiyat siyosiy hayotiga qanday ta’sir ko’rsatadi?

Siyosiy madaniyat sotsial voqelik sifatida sinflar va davlatning paydo bo’lishi bilan yuzaga kelgan. Ammo siyosiy hayot madaniyati sinflarning yuzaga kelishidan avval Qadimgi Sharqda, Qadimgi Gretsiya va Rimda shakllangan. O’sha vaqtdayoq mutafakkirlar etuk siyosiy ijtimoiy tuzumning xulq-atvor, siyosiy hayotni boshqarish san’ati bilimlarni paydo bo’lishi va ulardan jamiyat hayoti amaliyotida foydalanishga siyosiy madaniyatni yuzaga kelganligi sifatida qarash kerak. Aflotun, Arastularning ozodlik, davlat va huquq haqidagi ajoyib fikrlari hozir ham dolzarb hisoblanadi. Siyosiy madaniyatning vujudga kelish jarayoni tarixini ochib berishda O’rta Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiylarning insonparvarlik, erkin fikr va ozod nafas olish, tinchlik va osoyishtalik, ilm va adolat, aqlli, irodali va fanni sevuvchi bo’lishi kabi qarashlari qimmatlidir. Burjua revolyutsiyalari davri siyosiy ta’limoti sifatida V.Makiavelli, I.Monteske, J.Russolarning hokimiyatni taqsimlash nazariyasi, demokratik revolyutsiya, fuqarolik jamiyati va davlat haqidagi g’oyalari ham taqsinga loyiq.

Har qanday jamiyatning siyosiy hayotini anglash, uning siyosiy madaniyatini har taraflama o’rganish orqaligina erishiladi. Faqat shu orqaligina siyosiy tizimning manbai, xarakteri va o’ziga xos xususiyatlarini, jamiyatda hukmronlik qilayotgan siyosiy tartibot, ijtimoiy guruhlarning xatti-harakati va siyosiy ongi, siyosiy jarayonlarning yo’nalishi va harakati haqida ma’lumotga ega bo’lish mumkin.

Siyosiy madaniyat odamlarning xulq-atvoriga va turli tashkilotlarning faoliyatiga ta’sir ko’rsatadi, ularning ichki va tashqi xodisalarni idrok etish, siyosiy tizim va tartibotlarga, hukmron guruh va alohida siyosiy rahbarlar faoliyatiga, shaxsning jamiyat siyosiy hayotida tutgan o’rniga baho berishda asosiy mezon hisoblanadi. U siyosiy yo’lni ishlab chiqish, aniq siyosiy-boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ro’yobga chiqarish uchun keng istiqbol yo’llarini ochib beradi.

Siyosiy madaniyatning hozirgi vaqtda ilmiy muomalada mavjud bo’lgan quyidagi talqinlarini keltirib o’tish mumkin:

1. Siyosiy madaniyat bu – o’ziga siyosiy ma’rifatni, siyosiy ongliligini hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni ham qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir.

2. Siyosiy madaniyat bu – o’z ichiga ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo’lgan elementlarni qamrab olgan jamiyat ma’naviy madaniyatining bir qismidir.

3. Siyosiy madaniyat – konkret ijtimoiy birlik yoki shaxsga tegishli bo’lgan siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor yig’indisidir.

4. Siyosiy madaniyat – tarixan qaror topgan siyosiy munosabatlar tizimida ijtimoiy sub’ektning o’z siyosiy bilimlari, qadriyatlaridan kelib chiqqan holda mo’ljallangan niyatlarni, hamda o’ziga xos siyosiy xulq-atvorini namoyon qilishi, amalga oshirishidir.

Siyosiy madaniyatning yuqorida keltirilgan umumiy talqinlaridan kelib chiqib unga quyidagi taxrifni berish mumkin:

Siyosiy madaniyat bu – siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo’lgan munosabat, uni idrok etishdagi siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir. SHuningdek, siyosiy institutlarning xarakteri va faoliyat tartibining hamda jamiyat siyosiy hayoti barcha jabhalarining barkamol holatidir.

Ammo ushbu ta’rif siyosiy madaniyat mazmunini to’laligicha ochib berolmaydi. Buning uchun uning asosiy tarkibiy qasmlarini (komponentlarini) kiritish kerak.

11.1-chizma



1. Siyosiy ong: a) mafkuraviy, g’oyaviy qismlari; b) ruhiy qismlaridan iboratdir.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismi bo’lib, siyosiy ong elementi, avvalo, jamiyatda hukmron bo’lgan, yoki birorta, ijtimoiy guruhga xos bo’lgan jamiyat siyosiy hayotining turli jihatlariga singib ketgan qarashlar hisoblanadi. Bular siyosiy tizim va uning alohida institutlari: siyosiy tartibot, hokimiyat mehanizmi va boshqaruv, qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish, hokimiyatning vakolatli egasi, siyosiy hayotda qatnashuvning samaradorligi va bilimdonligi.

Siyosiy ong siyosiy madaniyatga tasavvurlar asosida kiritilganligini nazarda tutmoq kerak.

2. Siyosiy qadriyatlar: a) milliy-madaniy qadriyatlari; b) tarixiy xotirasi va an’analari; v) Milliy davlatchilikni amalga oshirish; o’z milliy qadriyatlaridan kelib chiqib siyosiy mo’ljalari.

Siyosiy qadriyatning mazmuni va yo’nalganligi siyosiy voqelikning shaxs, guruh, jamiyat qadriyatlari tuzilmasidagi o’rni bilan bog’liq.

Ko’pchilik chet el tadqiqotchilari amerikaliklarning siyosatga: siyosiy faoliyatga qiziqishlari past darajada siyosiy hayotga sust munosabatda ekanliklarini ta’kidlaydilar. Ularning ko’pchiligi o’zlarining fuqarolik faolliklarini saylovlarda qatnashish bilangina cheklaydilar. AQShning ikkita yirik firqasi: demokratlar va

respublikachilar fuqarolardan a’zolik ba’dali evaziga hech narsa olishga qodir emaslar: majlislarda qatnashish, a’zolik ba’dalini to’lash yoki o’ziga xos vazifani bajarishni talab eta olmaydilar. Shu tufayli partiya tashkilotlarining xalq ommasini o’z tomoniga og’dirib olish sohadagi qilgan harakatlari ko’pincha natijasiz yakunlanadi.

Bu holat G’arbiy Yevropa mamlakatlarida ko’plab kuzatiladi. Kuzatishlarga qaraganda faqat 10 foiz Gollandiyaliklar va 25 foiz Avstiyaliliklar siyosat bilan qiziqishlarini aytganlar.

3. Siyosiy ko’rsatma: Siyosiy ko’rsatma bu sub’ektning siyosiy voqelikka munosabati. Bu siyosiy bilimni qabul qilish yoki qilmaslik, siyosiy faoliyatning turli jihatlariga bo’lgan munosabat.

4. Siyosiy xulq-atvor: a) Siyosiy vaziyat; jarayondagi xatti-harakat, faoliyat yo’nalishi, b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat uslubining namunalari, turlari xususiyatlari.

Namunali xulq-atvorni shakllantirishda siyosiy an’analar katta rol o’ynaydi. An’analarda jamiyat maqsadlari va manfaatlariga javob beradigan, uni asosiy yo’l-yo’riq sifatida e’tirof etib, mustahkamlaydigan o’tmish siyosiy tajribalari jamlangan.

Jamiyat siyosiy madaniyatning ko’zgusi bo’lib jamiyat siyosiy –madaniy taraqqiyotining yakuni bo’lgan siyosiy tizimning tashkilot tuzilmasi, siyosiy tartiboti hisoblanadi. Ular jamiyat siyosiy etukligining ko’rsatkichidir.

Xullas, siyosiy tasavvur, qimmatdorlik, yo’l-yo’riq va xulq-atvor bir butun holda siyosiy madaniyat mazmunini ochib beradi.

Siyosiy madaniyatning o’ziga xos elementi bo’lib siyosiy belgilar, ramzlar (simvol) hisoblanib, ular o’zida jo’shqilikni aks ettirgan bo’lib, keskin jalb etish xususiyatiga ega. Masalan, natsistlar boshlig’i Gitler o’z maqsadlarini ro’yobga chiqarish uchun siyosiy belgilardan ustalik bilan foydalangan. Angliya siyosiy belgilaridan biri (siyosiy madaniyati belgilaridan) bu monarhiyadir. U Britaniya fuqarolarining birligi, vatanparvarlik hissiyotlarini o’zida aks ettiruvchi, xalqni birlashtirish manbai deb hisoblanadi.

Jamiyatda hukmron bo’lgan siyosiy madaniyat tarixiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy, shuningdek, siyosiy tuzilmada hukmron mavqega ega bo’lgan sinfning manfaatlariga moslashadi.

Sobiq sovetlar hokimiyati davrida hukmron tabaqa aholining siyosiy madaniyati va xulq-atvoriga avtoritar-patriarhal madaniyatni singdiradi.

Siyosiy hayotning barqarorligi siyosiy madaniyat va jamiyat siyosiy sistemasi o’rtasida o’zaro uyg’unlik bo’lishini talab etadi. Agarda o’zaro uyg’unlik bo’lmasa u holda turli ijtimoiy guruhlar o’rtasida siyosiy loqaydlik, tartibot maqsad va ideallariga nisbatan bepavorlik, hattoki siyosiy adolatsizlik yuzaga keladi.

Sharqiy Yevropa davlatlarida, sobiq SSSRda siyosiy tartibotlarning mag’lubiyatga uchrashi bunga misol hisoblanadi.

Yuqoridagilarni xulosa qilib, siyosiy madaniyatning keng ma’nodagi ta’rifini beramiz: siyosiy madaniyat o’z mazmuni va mohiyatiga ko’ra odamlar hayotiy faoliyatining sinfiy, ijtimoiy xosilasi, ularning siyosiy bunyodkorligi, faoliyati hisoblanib, sinflar, qatlamlar va milliy tuzilmalar, guruhlar va birliklar tomonidan o’zgartirish jarayonini aks ettiradi.

Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy hayotida muhim funktsiyani bajaradi. Sinfiy va milliy manfaatlarni ro’yobga chiqarishni siyosiy jihatdan ta’minlash belgilovchi funktsiya hisoblanadi.

Bu funktsiyaning mazmuni turlicha ma’noga ega. Uning mazmuni ijtimoiy-siyosiy formatsiyaning rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab o’zgaradi. Uni amalga oshirish formalari ham turlichadir.

Ikkinchidan, siyosiy madaniyat sinflar: ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, milliy va milliy tuzilmalar manfaatlari yo’lida siyosiy munosabatlarni qayta o’zgartirish va o’zlashtirish funktsiyasi. Bu funktsiyani amalda tadbiq etish bilimlarini ijodiy qo’llash, jamiyat siyosiy hayotini, siyosiy firqalar, davlat hokimiyati organlari va bog’liq. Hozirgi kun vaziyatidan kelib chiqib, siyosiy madaniyatga ob’ektiv ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini inkor etgan sub’ektiv valyuntarizm qanchalik ziyon etkazganligini ko’rish mumkin. Mustaqillikni ko’lga kiritgandan keyin

respublikada katta o’zgarishlar ro’y bermoqda. Siyosiy tizim hokimiyatni tashkil etishdagi o’zgarishlar, demokratiyalash, yangi huquqiy davlatni tuzishdagi xatti-harakatlar, siyosiy madaniyatni boyitadi.

Uchinchidan – siyosiy madaniyatni normativ tartibga soluvchi funktsiya, bunday funktsiya barqaror siyosiy tizim, siyosiy tashkilotlar bo’lishini ta’minlaydi. U bevosita siyosiy normalar, oliy maqsadlar yordamida amalga oshiriladi. Siyosiy madaniyat jamiyatda barqarorlikni qaror topishiga ko’maklashadi.

To’rtinchidan – tarbiyaviy funktsiya. Bu funktsiya siyosiy madaniyatda markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Yuksak maqsadlar, qadriyatlar, normalar asosida shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish uning mohiyatini tashkil etadi. Bizning jamiyatimizda bu funktsiya insonparvar, demokratik jamiyatga xos bo’lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. U siyosiy faollikni, fuqarolik mas’uliyatini tarbiyalaydi, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko’nikmalarini shakllantiradi.

Beshinchidan – aloqa funktsiyasi. Siyosiy madaniyat fuqaroning siyosiy tizim va boshqa jamiyat a’zolari bilan aloqasi formasi sifatida namoyon bo’ladi. Siyosiy madaniyat fuqaroning g’oyaviy-siyosiy aloqasini ta’minlashga qaratilgan va turli avlodlar siyosiy tajribalarining davomiyligi, jamiyat barcha a’zolarining jamiyatni anglash vazifalarini amalga oshirishda birgalikdagi hamkorligi masalalarini nazarda tutadi.

Bu funtsiyani amalga oshirishning muhim vositasi bo’lib, ta’lim, tarbiya tizimi, ommaviy-axborot vositalari, madaniy-oqartuv muassasalari, adabiyot va san’at hisoblanadi. Bu funktsiyani rivojlantirishning shart-sharoiti – oshkoralikdir. Oshkoraliksiz demokratiya, ommaning siyosiy ijodkorligi, ularning boshqaruvda ishtirok etish haqida gap bo’lishi mumkin emas.

Va nihoyat oltinchidan siyosiy madaniyat oldindan aytib berishlik funktsiyasini bajaradi. Ma’lum tarixiy tajriba, sinflar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, millatlar, umuman jamiyat siyosiy hayoti haqida ma’lum bilimlarga ega bo’lish aniq. Ijtimoiy-siyosiy sharoitda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni oldindan aytib berish uchun imkoniyat beradi.

Jamiyat siyosiy madaniyati va shaxsning siyosiy madaniyati tushunchalari mavjud. Bular qanday tushunchalar? – Jamiyat siyosiy madaniyati turmush madaniyati, jamiyat hamma tuzilmalarining hayotiy faoliyatining ko'zgusi bo'lib, ijtimoiy rivojlanish sub'ektida hamma siyosiy madaniyatlarni umumlashmasi hisoblanadi. U o'tmishdagi barcha progressiv, shuningdek, inqirozli xodisalarni ham, aytaylik, buyuk davlatchilik, millatchilik, boy-feodallarcha ruhiyat, hokimiyatga sig'inish kabilarni meros qilib olishi mumkin. Bunga sobiq ittifoq tarixidan ko'p misollar keltirish mumkin. Shaxsning siyosiy madaniyati jamiyat jami tuzilmasining yoki ijtimoiy hayotning ta'siri ostida shakllanadi.

Shaxsning siyosiy madaniyati siyosiy ong, shuningdek, an'analar, printsiplar, siyosiy faoliyat zaminida, shaxsiy va fuqarolik xatti-harakatida, sinflar, sotsial qatlam va guruhlar, millatlar va milliy tuzilmalar darajasida namoyon bo'ladi. G'oyalar qanchalik anglab etilgan bo'lsa, shunchalar e'tiqodning o'zi mustahkam bo'ladi. Jamiyat hayotining hamma sohalarini tubdan yangilash xalqning katta siyosiy faolligini, yuqori siyosiy madaniyatni namoyish etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, siyosiy madaniyat hamma vaqt ham barcha jamiyatlarda bitta mazmunda, bir tur yoki ko'rinishda amal qilmaydi. Uning hilma-xilligi va turli ko'rinishda namoyon bo'lishi xususiyatlari siyosatshunos olimlar G.Almond va S.Verba tomonidan atroflicha, chuqur tahlil etib berilgan.

Ularning ta'kidlashlaricha siyosiy madaniyatning **ibtidoiy, fuqarolik va faollik turlari mavjud** bo'lib ular ommaviy, guruhiy, alohida yakka ko'rinishlar va shakllarda namoyon bo'ladilar.

Siyosiy madaniyatning ibtidoiy (boshlang'ich) turi ibtidoiy jamoadan quldorlik tuzumiga o'tish davrida shakllangan bo'lib tarixiy vorislik aqidalari sifatida hozirgi madaniyat tarkibida ham o'rin egallaydi, Chunki inson maqsad-manfaatlarining umumiyligi, tabiat kuchlari oldida uning ojizligi hali ham ma'lum darajada saqlanib qolayotganligi o'sha davrda ob'ektiv zaruriyat sifatida vujudga kelgan birgalikda mehnat qilish, birgalikda himoyalash va sig'inish o'z ifodasini topgan.

Siyosiy madaniyatning fuqarolik turi uning eng ommaviy, keng tarqalgan, har bir ijtimoiy-siyosiy tuzum doirasida amal qiladigan asosiy turi bo'lib rasmiy siyosiy munosabatlar jarayonini qamrab olgan.

Fuqaro siyosiy madaniyati umumjamiyat va umuminsoniy siyosiy madaniyatning tarkibiy qismidir, lekin ayni vaqtda u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Bu xususiyatlar shaxsning fuqarolik ruhiyasi, burchi, huquqlari, maqsad-manfaatlari bilan chirmashib ketadi.

G.Almond va S.Verba siyosiy madaniyat faollik turining birinchi navbatdagi sub'ektlari sifatida siyosiy hokimiyat egalari bo'lgan kishilar, ulardan keyin esa jamiyat siyosiy sistemasi tarkibiga kiradigan barcha siyosiy partiyalar, ijtimoiy-jamoat tashkilotlari, demokratik harakatlar boshliqlari, siyosiy elitalar, liderlarni ta'riflaydilar.

Faol siyosiy madaniyatning tub mohiyati jamiyat istiqbolini oldindan ko'ra bilish, uni ilmiy metodologik tahlil qila bilishdir. Kelajak siyosiy hayot yo'nalishlarini o'tmishdagi siyosiy munosabatlar tarixiy tajribasi va saboqlarini oqilona xisobga olgan holda, sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar oqimini ob'ektiv va chuqur ilmiy-nazariy tahlil qilish asosida rivojlantirish bilan birga istiqbol maqsadlarini aniq ifodalash yuksak darajada amal qiladigan siyosiy madaniyatning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Siyosiy madaniyat turli ko'lamda va teranlikda, xilma-xil tabiatga mansub holda namoyon bo'lish xususiyatga ega. Uning shaxs, ijtimoiy guruh yoki omma siyosiy madaniyatlari doirasida amal qilish shakllari ma'lum bo'lib, ular o'z nisbiy mustaqilligiga ega.

Siyosiy madaniyatning alohida, yakka tarzda namoyon bo'lish jarayoni u yoki bu jamiyatda muayyan siyosiy maqom va mavqega ega bo'lgan ayrim shaxslar faoliyatlarida o'z ifodasini topadi. Har bir shaxs o'zining qaysi siyosiy partiya safiga kirib qanday tarzda qatnashishini o'zi belgilaydi.

Guruhiy siyosiy madaniyat muayyan bir ijtimoiy guruh tub maqsad-manfaatlari, talab-ihtiyojlarining aniq ifodasi sifatida namoyon bo'ladi va amal qiladi.

Guruh siyosiy madaniyati siyosiy partiyalar va ijtimoiy jamoat tashkilotlari harakat dasturlari hamda nizomlari vositasida muayyan bir maqsad tomon yo'naltiriladi va boshqariladi.

Siyosiy madaniyatning ommaviy shakli guruhiy siyosiy madaniyatning namoyon bo'lishiga nisbatan kamroq, oldindan rejalashtirmagan holda, jamiyat siyosiy hayotning keskin pallalarida namoyon bo'ladi va amal qiladi. Siyosiy hokimiyat yoki uning siyosiy faoliyat yo'nalishlari keskin o'zgargan paytlarda, masalan, narx-navo oshirilishi munosabati bilan xalq chiqishlari mana shu shakldagi ommaviy siyosiy madaniyat amal qilishga olib keladi.

11.2. Siyosiy madaniyatning modellari: liberal va sharqxona.

Har bir siyosiy madaniyatda o'zgacha o'ziga xos qiyofa bergan u yoki bu xususiyatlar va tasniflar yig'indisini ajratish mumkin. Siyosiy madaniyatda milliy, mintaqaviy, diniy, etnik va boshqa o'ziga xosliklar bor. Biroq barchasi uchun umumiy bo'lgan belgilar ham bor. Madaniyatning universal muhim unsurlari va umum dunyoqarashlik yo'nalishlariga asoslanib, siyosiy madaniyatning asosiy modellarini ajratish mumkin.

Milliy madaniyat, ijtimoiy-tarixiy, geografik, diniy va boshqa unsurlar siyosiy madaniyatning mutanosib modelini ajratish zarurligini taqazo qiladi.

Siyosiy madaniyatning quyidagi modellari mavjud:

- Totalitar-avtoritar modeli.
- Liberal-demokratik modeli.
- Sharqxona siyosiy madaniyat modeli.

Totalitar-avtoritar modelga asoslangan mamlakatlarda o'z mafkurasi va g'oyalarini xalqqa majburan singdirish, boshqacha fikrlashga nisbatan umumiy murosasizlik, ihtiyoriy birlashmalarning yo'qligi, mojarolarni hal qilishda kuchga tayanish, kuchli davlat hokimiyatiga sig'inish, ichki va tashki dushmanlarni izlash va ularga xalq nafratini ko'zg'atish ushbu modelga xos xususiyatdir.

Liberal-demokratik modelga xos jihatlar: Plyurolistik qarashlarning mavjudligi, siyosiy nizolarning tinch yo'l bilan hal qilinishi, mavjud siyosiy tizimini tan olinishi, xalqning davlatni boshqarishdagi keng ishtiroki kabilardir..

Sharqxona siyosiy madaniyat modeliga tegishli xususiyat: qanday? Jamiyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, insoniyatning ilk o'tmishi, birinchi moddiy va ma'naviy madaniyat maskanlari Sharqda shakllangan va insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin tayyorlab bergan.

Sharq xalqlarining bosiqligi, har qanday keskin vaziyatda ham masala va muammolarni tinchlik, muboxasa, muzokara, munozara yo'li bilan hal qilish, borini avaylab asrash, yo'g'ini esa yaratish, hayotning negizi va zamini izchil kundalik mehnat ekanligini tan olish va unga rioya qilish, avlodlarning o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'zda tutib, ota-ona hamda farzandlarga alohida mehribonlik bildirish, hayotning o'tkinchi ekanligini bilib mol-dunyo eg'ish, yoki shon-shuxratga, yuksak lavozimlarga erishgan bilan inson zoti osmonga ustun bo'lolmaydi deb hamma vaqt o'zini tiya bilish, bundan o'ziga xos xislat va xususiyatlar Sharq va sharqxonalikni ifodalashga yordam beradi.

Sharq birinchi bo'lib inson qanchalik sabr-toqatli, irodali, o'tkir zexnli, jismonan baquvvat va ruxan egilmas bo'lishini insoniyatga namoyon etdi.

Prezident I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" – asarlarida ta'kidlaganlaridek, - "qaerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun etarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha erda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi".[1]

Yangi tarix davridan boshlab, ya'ni XVI asrdan G'arb mamlakatlari va xalqlari insoniyatning oldi qatoriga chiqa boshladilar. Lekin G'arb Sharqning tajribasi zaminiga suyanib qoloqlik va qashshoqlik olamidan qutilib chiqa oldi. Ana shu sababli Sharq G'arbning diqqatini o'ziga jalb etgan.

Ana shu aytib o'tilgan xususiyatlar sharqxona siyosiy madaniyat modelining asosini tashkil etadi.

Siyosiy madaniyatni vazifali asoslariga ko'ra o'rinlarga ajratish mumkin. G.Almond va S.Verba "Fuqarolar madaniyati" kitobida siyosiy madaniyatning uch o'rnini ajratib ko'rsatganlar.

[1] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat". 2008, 28-29 b.

1. Patriarxal (an’anaviy) siyosiy madaniyat u aholining siyosiy tizimdan uzilganligi, ixtisoslashgan siyosiy rollar mavjud emasligi, dohiylar ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham diniy vazifalarni bajarishi, aholining manfaatli yo’nalishlarida tabaqalashtirilmasligi, hududiy va ijtimoiy-madaniy ayniylashtirishning ustunligi bilan tasniflanadi.

2. “Tabaolik” siyosiy madaniyati passiv siyosiy xulq-atvor, hukmron qadriyatlarga tayanish, siyosiy tizimga tegishli boqimandalikga xosdir.

3. Ishtirokchilik siyosiy madaniyati. Unga individlarning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi, siyosiy savodxonlik, funktsional tabaqalashganlikga xosdir.

Bu modellar real hayotda sof ko’rinishda juda kam uchratadi.

11.3. Mustaqillik va milliy siyosiy madaniyatni qayta tiklash zaruriyati va uning siyosiy ahamiyati.

Mustaqil davlat taraqqiyoti uchun zarur bo’lgan omillardan biri siyosiy madaniyatdir. Siyosiy madaniyat ancha murakkab xodisa. Chunki siyosiy madaniyat ma’lum darajadagi siyosiy ilmni, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish (jarayoni) qobiliyatini, qatiy siyosiy e’tiqodni, o’zini tuta bilish, boshqara olish va o’zgalar manfaatini ustun qo’ya bilish qobiliyati kabi xususiyatlarni o’z ichiga oladi. Siyosiy madaniyatni ifodalovchi bu belgilar juda qo’l keladi. Masalan, hozirgi demokratiya jarayonida huquqiy jamiyatga o’tish davri uchun ham odamlar, xalqning siyosiy madaniyati darkor. Hozirgi milliy uyg’onish va umuminsoniy qadriyatlarning tiklanishi davrida ham yaxshini yomondan, kerakligini keraksizdan ajratib olish ommaning siyosiy madaniyatga bog’liq.

Bizning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatimizda amal qilishi lozim bo’lgan siyosiy madaniyat turlari, ko’rinishlari, shakllari bo’sh erda emas, balki o’zbek xalqining ko’p asrlik davri davomida yaratgan, ulkan va nodir ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni asos qilib olgan holda qaror topmoqda. Prezident I.A.Karimov o’zining “O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li” asarida uqtirib o’tganidek, - “hozirgi kunda shakllanib qaror topayotgan yangi demokratik mazmunli siyosiy madaniyat, avvalo jumhuriyat aholisining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an’analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi, chuqur

ildizlari o’tmishdagi an’anaviy jamoatchilik turmush tarziga borib taqaladigan ma’naviy-madaniyat asoslari, O’zbekiston xalqiga xos xususiyatdir: kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar haqida g’amho’rlik, ochiq ko’ngillik, odamlarning millatidan qat’iy nazar, ular bilan o’zaro xayrihohlik munosabatlarida muloqat qilishi, har bir fuqaro siyosiy ongida va siyosiy madaniyatida keng o’rin egallagan, boshqalar kulfatlariga hamdardlik va o’zaro yordam tuyg’usi o’zbek xalqi asrlar davomida amalga oshirib kelayotgan siyosiy munosabatlar me’yorini ko’rsatadi”[1].

O’zbeklar siyosiy madaniyatiga xos belgilardan yana biri – bu o’z diyoriga, o’z Vataniga bo’lgan cheksiz va chuqur mehr-muhabbat, uning tinchligi, xavfsizligi, ravnaqi yo’lida fidokorona mehnat qilish ruxining kuchliligi, ilm fanga, bilimlarga, ma’naviyat-ma’rifatga doimiy chanqoqligidir.

Keyingi yillarda xalqimizning o’zligini anglashi, mustaqil, erkin davlat, demokratik jamiyat qurishga bo’lgan xoxish-irodasi nechog’li kuchli ekanini mamlakatimiz sotsial-iqtisodiy va siyosiy hayotda bo’layotgan o’zgarishlar to’liq tasdiqlamoqda.

Shunday bo’lsada, Prezident I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to’qqizinchi sessiyasida so’zlagan ma’ruzasida ta’kidlaganidek, - “aholining siyosiy faolligi ham zamon talablari darajasida emasligini, hamon sust ekanini qayta-qayta aytishiga to’g’ri kelmoqda. Siyosiy madaniyatni yuksaltirish kerak”, - deydi Prezidentimiz. Odamlar hokimiyat qarorlari qanday qabul qilinishini, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganini bilishlari, bu qarorlarni tayyorlash va amalga oshirishda faol ishtirok etishlari zarur. Boshqacha qilib aytganda, “jamiyat markazda va joylarda saylangan hokimiyat o’z taqdirini qay tarzda hal etayotgani, ularning istiqbolini qay tarzda belgilayotganidan xabardor bo’lib turishi kerak”.[2]

Hozirgi tub o’zgarishlar jarayonida, mulkchilik munosabatlari o’zgarayotgan ishbilarmonlik, tadbirkorlik, kichik korxonalar, turli bank va jamg’arma jamoalari keng tarmoq otib borayotgan bir vaqtda to’g’ri so’zlik, o’z so’zi ustidan chiqish

[1] Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. –T:. “O’zbekiston”, 1992. 7-bet.
[2] Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”. -T.: “O’zbekiston”, 1999. 20-21-betlar.

kabi ma’naviy va siyosiy madaniyat omillari nihoyatda zarur. Masalan, chet ellarda odamlar orasida, ayniqsa, siyosatdonlar, biznesmenlar, olimlar va huquqshunoslar doirasida qog’ozbozlik emas, so’zga ishonish katta rol o’ynaydi. O’z faoliyatida so’zi ustidan chiqmagan, ishi bilan so’zi bir bo’lmagan odam jamoatchilik ichida mutaxassis sifatida mavqesini tushiradi. Demak siyosiy madaniyatni oshirishda, jahon tajribasining yaxshi tomonlarini o’zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik e’lon qilingandan keyin o’tgan muddat davomida fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o’zaro munosabatlarida ham, siyosiy muloqat tarzlarida hali juda muhim ijobiy o’zgarishlar sodir etilib, ular keyingi yillarda o’tkazilgan prezdentlik saylovlari, Konstitutsiyaning umumxalq muhokamasi, Oliy Majlisga bo’lib o’tgan saylovlar, ikki palatali parlament, prezident muddatini 5 yildan 7 yilga o’zgartirish bilan bog’liq referendum va shu kabi yirik siyosiy hayot voqea-xodisalarida namoyon bo’ldi, barcha fuqarolar siyosiy faolliklarida Yangi jamiyat siyosiy madaniyatining nisbatan yuksak darajasi va sifati o’z ifodasini topdi.

Ommaviy yoki guruhiy siyosiy madaniyat darz ketayotgan pallalarda davlat hokimiyatining mas’ul rahbarlari – boshqaruvchi siyosiy elita etarli darajada sovuqqonlik, xushyorlik namunalarini ko’rsatib, juda ko’p sodir bo’lishi ehtmol bo’lgan mojaro-to’qnashuvlarning oldini olishga muvaffaq bo’ldilar va bu bilan o’zlarining siyosiy madaniyatlari darajasi omma siyosiy madaniyat darajasidan ancha yuqori ekanligini hayot tajribasi sinovlaridan o’tqazdilar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yangi jamiyatga xos qonunlar, qarashlar, normalar hayotimizga kirib qela boshladi. Shu bilan birga sharqxona madaniyat, milliy merosimizga tayanish ham yangilanayotgan siyosiy madaniyatimizda samarali o’rinni egallamoqda.

11.2-chizma



Siyosiy madaniyatni o’zgartirishdagi qiyinchiliklar respublika aholisining madaniy-tarixiy mintalitetini o’zgartirish zarurligi bilan bog’liq. Demokratik institutlar, demokratiya amaliyoti ildiz otgan sari O’zbekistonda siyosiy madaniyat Yangilana va takomillasha boradi.

Qadimdan ma’lumki, davlat hokimiyatining vujudga kelishi bilan uni kim yoki kimlar boshqarishni masalasi ko’ndalang bo’lib qoladi. Davlat hokimiyati tashkil topishi jarayonida uni boshqaradigan odamlar guruhi ham shakllana boradi. Demak, bu ikki jarayon davlat hokimiyatining tug’ilishi hamda uni amalga oshiradigan ijtimoiy-siyosiy guruhning shakllanishi, bir-biri bilan dialektik uzviy bog’liqlikda yonma-yon, barobar sodir bo’ladi.

Demak, millat hokimiyatining vujudga kelishi uni amalga oshiradigan mutaxassis kadrlar korpusi shakllanishi zaruriyatini tug’diradi. O’z navbatida, mazkur zaruriyat tufayli tayyorlangan kadrlar davlat hokimiyatini izchil va omilkorlik bilan amal qilish dinamikasini ta’minladi.

Davlat hokimiyatining amal qilish ko’lami kengayib, jamiyatni boshqarish jarayonlari murakkablashib va chuqurlashib borgani sari bu ishlarga mutassadi bo’lib qolgan odamlarni tayyorlash, tanlash, joy-joyiga qo’yish, bir joydan ikkinchi joyga ko’chirish, quyi mansablardan yuqori mansablarga ko’tarish kabi chora-

tadbirlar majmuasi kadrlar siyosati sifatida shakllana boradi yoki boshqacha aytganda, kadrlar masalasi bilan shug’ullanish va uni hal qilish rejalarini amalga oshirish davlat hokimiyati kadrlar siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Kadrlar masalasi va uni hal qilish, borasidagi siyosat har qanday davlat hokimiyatining, iqtisodiy-xo’jalik, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, mafkuraviy, mudofa-muhofaza, hayot sohalarining uyg’un va mustaqil ravishda ishlab turishini doimiy ta’minlashdan iboratdir.

Uning asosiy mazmunini kadrlar tayyorlash tizimini vujudga keltirish, ularga eng zamonaviy boshqarish mahoratini o’rgatish, eng ilg’or boshqarish tajribalarini ayriboshlash vositasida ommalashtirish, jamiyatni boshqarish san’atini takomillashtirib borish haqida qayg’urish, kadrlar qayta o’qishlari va malaka oshirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish, tajribali va yoshi ulug’ kadrlar bilan yonma-yon yosh iste’dodli kadrlarni chiniqtirish kabi chora-tadbirlar tashkil etadi.

Ana shu mazmundagi vazifalarning uzoq muddatga mo’ljallangan majmuasi kadrlar siyosatidagi strategik yo’nalish, ularni amalga oshirish vositalari, usullari, uslublarini qo’llash esa kadrlar siyosatidagi taktik yo’nalish bo’lib xizmat qiladi.

Yangicha fikrlovchi kishilarni tayyorlamasdan, tarbiya qilmasdan o’z oldimizga qo’ygan vazifa va maqsadlarni ro’yobga chiqara olmaymiz. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti qiyinchiliklari har qadamda o’z ta’sirini ko’rsatayotgan, mustaqil davlatlarning ko’pchiligida ta’lim tizimini isloh qilish u yoqda tursin, balki, mavjud ta’lim-tarbiyaning o’zida beqarorlik va qiyinchiliklar sezilib turgan bir davrda O’zbekiston o’z ko’lami va ahamiyati, mazmun va mohiyati jihatidan beqiyos va echimi juda katta moddiy sarf-xarajatlar bilan bog’liq bo’lgan g’oyat ulkan muammo kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishga qaror qilindi. Xo’sh, uning bosh maqsadi, sababi v vazifalari, zaruriyat va mohiyati nimalarda edi?

Prezidentimiz “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida aytganidek, “Umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli tafakkuri har xil “ilmlar”dan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga

voris bo’lgan insonlargina fuqarolik jamiyat barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo’ladi”[1]. Demak, ta’lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida o’zgartirmasdan turib, ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, tafakkurni o’zgartirmasdan turib esa ozod va obod Vatanni, huquqiy, demokratik davlatni, fuqarolik jamiyatini qurib bo’lmaydi. Chunki, huquqiy, demokratik davlat barpo etishdek buyuk maqsad va ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohatlarimiz samarasi, taqdiri avvalombor, zamon talablariga to’la javob beradigan yuqori, har tomonlama malakali, ma’naviy barkamol kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog’liq ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Mamlakatimizning mustaqillik yo’lidagi birinchi qadamlaridanoq boy-madaniyatimizni tiklash, uni yanada rivojlantirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish muammosi qo’yilganining maqsadi va sababi ham ana shundadir.

O’zbekiston davlat hokimiyati ishlab chiqib, amalga oshirilayotgan kadrlar siyosatida erkinlik, ijodkorlik, tashabbusrolik, yaratuvchilik muhitini vujudga keltirish ko’zda tutilgan bo’lib, unda barcha mutaxassis kadrlarni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy axloqiy muammolarning samarador echimini ishlab topishga, ro’y-rost fikrlashuvga undaydigan demokratik shart-sharoitlar yaratib berish mo’ljallanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov “O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li” asarida kadrlar siyosati xususida fikr yuritib quyidagilarni yozgan edi. “... bozorning o’zgaruvchan sharoitlarida mehnat qilishga layoqatli bo’lgan o’zimizning yuqori malakali mahalliy kadrlarimiz O’zbekiston mustaqilligini tasavvur qilish qiyin”.[2]

O’zbekiston ham boshqa mamlakatlarda bo’lgani kabi jamiyat ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko’tarilishi bilan bog’liq bo’lgan murakkab davrda kadrlar masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi.

[1] Karimov I.A. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga hizmat etish”. “Tafakkur” jurnali, bosh muxarriri savollariga javoblar. 1998 yil 2-son.
[2] Karimov I.A. O’zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-T.: “O’zbekiston”,T.1. 1996, 76-bet.

Chunki, jamiyatni idora etishning Yangi munosabatlari mehanizmi va usullari tamomila boshqacha tus olgan holda o’ziga xos murakkablashib boradi. Ana shunday sharoitda kadrlar siyosati yana ham muhim ahamiyat kasb etib, jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biriga aylanadi. Bu dolzarb muammoni har jihatdan puxta va mukammal holda oqilona hal etish har qanday davlatning, u qaysi ijtimoiy-siyosiy tizimda bo’lishdan qat’iy nazar, eng zaruriy va mas’uliyatli vazifalardan biriga aylanishi ob’ektiv qonuniyatdir. Chunki, hayot oqimini, jamiyatning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishidagi yo’lini belgilab olish va amaliy hayotga to’g’ri yo’naltirish har tomonlama bilimdonlikni, katta hayotiy tajribani taqozo etadi. SHuning uchun ham Yuksak aqliy kamolotga erishgan, etuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, tanlash va ulardan to’g’ri, o’z o’rnida bilib foydalanish har qanday davlatning yutug’ini ta’minlovchi, rivojiga-rivoj qo’shuvchi bosh omil hisoblanadi.

Mustaqil O’zbekiston davlatini rivojlantirish jarayoni kadrlar siyosatida munosib o’rin egallashi uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar resspublika iqtisodiyotini har tomonlama taraqqiy ettirishlari, ularning intensiv omillardan oqilona foydalanishlari, xalq xo’jaligini boshqarishda iqtisodiy usul va vositalarni joriy etishlari, ya’ni ishlab chiqaruvchilarning moddiy va ma’naviy manfaatdorliklarini birinchi o’ringa qo’yishlari kerak. Ayni vaqtda ilm-fan yutuqlari, Yangi texnika va texnologiyalarga asosiy e’tiborni qaratib, ishlab chiqarishda amaliy hamkorlikini vujudga keltirish, har qanday Yangi tashabbusni ilmiy asoslarga qo’ya bilish, olimlar va muhandislar jamiyatni Yangilashda hamkorlik asosida astoydil ishtirok etishlarini ta’minlash zarur.

Bu vazifani ado etish ayni ilm fan va texnika-texnologiya mutaxassis kadrlar ham tayyorlab berishni ta’minlaydi. Barqarorlikni saqlab qolish imkoniyatlarini izlash va ishbilarmonlarni qo’llab-quvvatlash sohasida Respublikada olib borilayotgan ishlar, 1997 yilda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunlar va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi hujjatlarning qabul qilinishi va ularni hayotga tatbiq

etish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlarda o’z aksini topmoqda, bular yaqin kelajakda o’z samaralarini bera boshlaydi.[1]

XX asr oxirida sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan intellektual davlatlar o’rtasidagi iqtisodiy musobaqa fan-texnika va texnologiyalar va pirovard-natijada ta’lim sohasiga ko’chdi. Chunki, raqobatbardosh kadrlarni etishtirmay turib, raqobatga qodir iqtisodiyot bo’lishi mumkin emas.

Bu borada O’zbekiston Respublikasida kasbiy ta’lim “Milliy dastur” asosida shunday harakatlanmog’i kerakki, u mamlakatimiz va xorijda fan-texnika, texnologiya hamda iqtisodiyot sohalarida bo’lajak taraqqiyotni hisobga olgan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlay oladigan bo’lmog’i darkor. Har tomonlama etuk kadrlarning yangi avlodi istiqbolga monand vazifalar qo’yish va ularni echishga qodir, yuqori saviyada fikrlash madaniyatga ega, siyosiy-ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy axborotlar dunyosida mustaqil o’z yo’lini topa oladigan bo’lishi kerak.

Milliy dastur bunday talablarga mos keladigan kadrlarni tayyorlash uchun yangi modelni – kadrlar tayyorlashning O’zbekiston modelini nazarda tutadi. Bu modelning asosini quyidagilar tashkil etadi.

- shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti bo’lib, ta’limiy xizmatlarning iste’molchisi va yaratuvchisidir (o’quvchi-o’qituvchi tandemi);

- uzluksiz ta’lim – malakali kadrlar tayyorlash tizimining o’quv-ilmiy ishlab chiqarish va tarbiyaviy bazasidir;

- davlat va jamiyat – malakali kadrlar tayyorlash va ularga bo’lgan zaruriyatning asosiy kafolatchisi;

- fan – yuqori malakali kadrlarni etishtiruvchi va iste’molchisi;

- iqtisodiyot kadrlarga asosiy buyurtmachi bo’lib, tayyorlangan mutaxassislarning sifatiga baho beradi, shunga yarasha kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlaydi.

Mazkur model uch qutbga ega. Birinchi qutb – shaxs uzluksiz ta’lim tizimida bilimlarni iste’mol qilish va yaratish borasida o’zining fuqarolik burchini

[1] Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to’plami. –T.: “Sharq”, 2001, 3-52-betlar.

to’la-to’kis amalga oshiruvchi inson. Ikkinchi qutb – davlat va jamiyat, shaxsning fuqarolik burchlari samarali amalga oshirilishida va iqtisodiyot tarmoqdarini malakali kadrlar bilan ta’minlash bo’yicha milliy vazifalarni hal qiladi. Uchinchi qutb iqtisodiyot bo’lib, u davlat byudjeti yoki kontkrakt asosida o’zi uchun zarur bo’lgan kadrlar etishtirishni moddiy-texnika bazasi va moliya bilan ta’minlaydi.

Milliy dastur kadrlar tayyorlash tizimining ana shu uchala qutbini o’zaro qutbiy uzviy birlashtirishni ta’minlovchi barcha shart-sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy psixologiya va boshqa shart-sharoitlar yaratilishini ko’zlaydi.

Kasbkorlik va ijtimoiy ma’noda o’qituvchining shaxsiga alohida e’tibor talab etadi. Prezident I.A.Karimov O’zyuekiston Respublikasi Oliy Majlis I chaqiriq IX sessiyasida so’zlagan nutqida ta’kidlaganidek, o’qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag’batlantirish, o’z ishi, kasbidan mamnun bo’lishini ta’minlash lozim[1]. Bu vazifalarning hal qilinishiga Milliy dasturning “Qishloq maktabining taraqqiyoti”, “Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash”, “Ilmiy va pedagogik kadrlar”, “Ijtimoiy muxofaza” nomli maqsadi dasturlari yo’naltirilmoqda.

Milliy dasturda ikkinchi qutb bo’lgan davlat va jamiyatga alohida o’rin ajratiladi. Davlat va jamiyat raqobatbardosh mahsulot yarata oladigan va xizmatlar ko’rsata ish qobiliyatiga ega malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz rivojlantirish va takomillashtirish kafolatini oladi. Chunonchi:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va malaka oshirish huquqining amalda bajarilishini;
- kafolatli ta’limning himoya qilinishini;
- davlat ta’lim muassasalarining moliyaviy ta’minlanishini;
- o’qish, yashash va dam olish shart-sharoitlarini ta’minlash borasidagi vazifalarni echishda o’zini-o’zi boshqaruvning ortib borishini;
- o’quvchilar hamda pedagogik kadrlarning ijtimoiy muhofazasini;
- jismonan salomatligi cheklangan shaxslarning kasbiy ta’lim olishini;

[1] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida.– T.: “O’zbekiston”, T.6. 1998, 328-bet.

- o’qituvchilar, ota-onalar va o’quvchilarga konsul’tatsiyalar berish, psixologik-pedagogik, ijtimoiy va tibbiy yordam ko’rsatish va maslahatlar berish markazlari ko’paytirilishini kafolatlaydi.

Dastlabki ikki qutb, shaxs, davlat va jamiyat qutblari orasini to’ldiruvchi uchinchi qutb iqtisodiyot hisoblanadi. Bir jihatdan, iqtisod kadrlar tayyorlash tizimi uchun tayanch bo’lsa, ikkinchi tomondan iqtisod o’ziga zarur va malakali kadrlarning iste’molchisidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi har bir shaxs hamda davlat va jamiyat manfaatlari, iqtisodiy holat va raqobatbardoshlik bilan bog’liq bo’lgan bir qator muammolarni echishga yo’naltirilgan.

Prezident I.A.Karimov “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida” gapirar ekan, uni “Mustaqilligimizning, bugungi va ertangi hayotimizning kafolati hisoblanadi”[1], - degan edi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari, mustahkam ilmiy asosga tayanadi.

Birinchidan, Milliy dastur negizida tizimli yondashuv yotadi. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimining samarali ishlashiga ta’sir ko’rsatuvchi o’zaro bog’langan barcha omillar ko’rib chiqiladi. Quyidagi yo’nalishlarni qamrab olgan o’n to’rtta maqsadli yo’nalish tizimli yondashuv natijasi hisoblanadi.

1. Ta’lim-tarbiya yo’nalishi:

- kadrlar tayyorlash sifati va kadrlar raqobatbardoshliligi;
- ma’naviyat va ma’rifat;
- professional ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;
- iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar;
- ilmiy pedagogik kadrlar;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- qishloq maktablarini rivojlantirish.

2. Informatsion yo’nalish:

- axborot texnologiyasi va ta’limini informatizatsiyalash;

[1] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida.– T.: “O’zbekiston”, T.6. 1998, 346-bet.

- o’quv jarayonni axborotlar bilan ta’minlash va XXI asr kutubxonasi;
- oliy professional ta’lim holatini baholash va kadrlar tayyorlashni bashorat qilish tizimi.

3. Ijtimoiy yo’nalish:

- bolalar va o’quvchi yoshlar salomatligi muhofazasi;
- maxsus ta’lim (alohida nuqsonli bolalar tarbiyasi va ta’limi);
- ijtimoiy himoya.

Ikkinchidan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasini hal qilish professional ta’limning hamma bosqich va tabaqalari uchun xalqaro modellar va me’yorlar asosida yaratiladigan, ilmiy asoslangan, ilg’or ta’lim standartlari kompleksiga tayanadi.

Uchinchidan, Milliy dasturda ko’zlangan rejalarni amalga oshirish negizida, o’zbek modelining eng asosiy tamoyili islohatlarni bosqichma-bosqich o’tkazish printsipi yotadi.

Birinchi bosqichda (1991-2001 yillar) amaldagi kadrlar tayyorlash tizimi salohiyatlarini saqlagan holda bor tizimning rivojlanishi uchun huquqiy me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlarni yaratish bilan bog’liq bo’lgan vazifalar ijrosi ta’minlanadi.

Ikkinchi bosqichda (2001-2005 yillar) – rejalashtirilgan masalalar bo’yicha Milliy dastur to’la amalga oshirilmoqda.

Uchinchi bosqichda (2005 yildan keyingi yillar) – XXI asr raqobatbardosh kadrlarini tayyorlashning yalpi tizimini taraqqiy ettirish va takomillashtirish nazarda tutiladi.

Milliy dasturning birinchi bosqichini ishlab chiqish va uning amalda bajarilishi mustaqillik yillarida erishilgan intellektual va moddiy, ilmiy-metodik, me’yoriy va huquqiy potentsiallari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ta’lim va fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalaridagi yutuqlarga tayanadi.

Kadrlar tayyorlash tizimida professional-texnik ta’limni, ayniqsa, qishloq mintaqalarida qayta tashkil qilish boshlangan. Qishloqlarda hozir zamonaviy kasb-hunar maktablari va litseylar, biznes-maktablar shakllanmoqda.

Oliy ta’lim sohasida markazdan belgilash o’rniga kadrlar tayyorlashning mintaqiviy va demokratik printsiplariga amal qilish siyosati o’tkazilmoqda, oliy o’quv yurtlari ko’paymoqda, universitetlar safi kengaydi. Respublika ehtiyojlariga javob bera oladigan ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklar klassifikatori ishlab chiqildi. Oliy maktabda ko’p bosqichli o’qish tizimiga o’tildi, bilimning Yangi sohalarida kadrlar tayyorlash boshlandi.

Reyting tizimi va test usuli asosida abiturient va talabalarning bilimdonligini xolisona baholash usullari joriy qilindi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Yangi talablarga muvofiq ravishda aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlashga keng yo’l ochilgan. Oliy attestatsiya xay’ati faoliyat ko’rsatayapti.

Iqtidorli o’quvchi yoshlarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha maqsadli davlat siyosati amalga oshirilayapti. Maxsus fondlar yaratildi va qobiliyatli yoshlarni xorijdagi yetakchi o’quv va ilmiy markazlarida o’qitish tashkil qilindi. Aspirant va talabalar uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi, buyuk allomalar nomi bilan atalgan stipendiyalar joriy qilingan.

O’quv-ta’lim va fan sohalarida xalqaro aloqalar kengaymoqda. Bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqin munosabatlar o’rnatilmoqda. Ta’lim sohalarida hukumatlararo bitimlar tuzilgan.

Ta’lim jarayonining maxmuniga oid muammolar sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarilmoqda. O’quv rejalari va o’quv dasturlariga o’sib kelayotgan avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, odamiylik elementlari kirib bormoqda. Gumanitar, iqtisodiy-ijtimoiy fanlar turkumi butunlay yangidan ko’rib chiqilmoqda. Ta’limning barcha tabaqalariga ma’naviyat, iqtisod va huquq asoslarini o’rganish kiritilmoqda, chet tillarini o’rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Yuqoridagi kabi o’zgarishlar va yutuqlar kadrlar tayyorlash bo’yicha Milliy dastur uchun baza bo’lib xizmat qilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining yangi o’zbek modeli quyidagi tuzulmalardan iborat:

- umumiy ta’lim;
- maktabgacha ta’lim;
- boshlang’ich ta’lim (I-IV-sinflar);
- umumiy o’rta ta’lim (I-IX-sinflar);
- uch yillik o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi.

Umumiy ta’lim tizimida o’qitish olti-etti yoshdan boshlanadi[1]. Umumiy ta’lim majburiy hisoblanadi.

Maktabdan tashqari ta’lim uzluksiz ta’limning ajralmas qismidir. U o’quvchi yoshlarning iste’dodi va qobiliyatini o’stirishga yo’naltirilgani bois ularning xohishlari, istak va qiziqishlariga qarab dars soatlari va predmetlari belgilanadi.

Oliy professional ta’lim, odatda, o’n sakkiz yoshdan boshlanadi va o’qish muddati davlat ta’lim standartlari doirasida kamida to’rt yil davom etadi. Oliy professional ta’lim bakalavrlik va magistraturadan iborat.

Oliy maktabdan keyingi ta’lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan bo’lib, shaxsning kasb-korligi bo’yicha ta’limiy, ma’naviy va ma’rifiy qiziqishlari qondiriladi. Oliy maktabdan keyingi ta’lim oliy o’quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura va h.k.) amalga oshiriladi.

Ta’lim tizimini isloh etish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy iqlim keskin o’zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi, inson jamiyatdagi o’rnini ongli ravishda o’zi belgilaydi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “jamiyat yangilash, erkin demokratik davlatni shakllantirish, taraqqiyot va ravnaq yo’lidagi barcha sa’y-harakatlarimizni biz aynan ana shu tamoyil asosida tashkil etishimiz kerak”.

[1] Oliy ta’li. Me’yoriy hujjatlar to’plami. – T.: “Sharq”, 2001, 7-bet.

11.4. Siyosiy madaniyatning yuksalishi va fuqarolik jamiyati

Siyosiy madaniyatning yuksalishi faqatgina sub'ektiv holatning o'zi bilangina bog'liq bo'lmaydi. Siyosiy madaniyatning shakllanishida odamlarning jamiyatdagi siyosiy reallik bilan hamkorlik qilishi va ularning siyosiy jarayonlarga qo'shilishi muhim o'rin tutadi. Masalan, siyosiy jarayonlarda bir qator siyosiy institutlar ishtirok qiladi. Jumladan, jamiyat siyosiy tizimi bilan ijtimoiy hayotning turli sohalari hamkorlik qiladi. Ularning har biri o'z navbvtida siyosiy madaniyatni shakllantirishda u yoki bu darajada ishtirok qiladi hamda mazkur jarayonning yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu o'rinda dalat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fan va ta'lim tizimining ma'lum maqsadi yo'naltirilgan siyosiy ta'limg'tarbiya, ma'rifat, ma'daniy va mafkuraviy ishlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bularning barchasi mamlakatda o'ziga xos siyosiy madaniyat modelining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashishi uning siyosiy o'sishi, siyosat dunyosiga kirishi va hokimiyat munosabatlariga qo'shilishi jarayonidir.

Politologiyada ijtimoiylashish deganda, insonning ayni siyosiy tizimga moslashish hamda ma'lum siyosiy funksiyalar va rollarni bajarish uchun zarur xislatlarning shakllanishiga yordam beruvchi siyosiy madaniyat normalari va an'analarini o'zlashtirish jarayoni tushiniladi. Inson tomonidan xulqg'atvorning rol vamaqom talablari, madaniy qadriyatlar va intilishlarning o'zlashtirilishi unda ushbu siyosiy tizimga moslashish va muayyan funktsiyalarni bajarish imkonini beruvchi sifatlarning shakllanishi siyosiy ijtimoiylashuv, deb ataladi.

Siyosiy ijtimoiylashuv jarayonini tushunish bo'yicha quyidagi yondoshuvlar mavjud:

4. Siyosiy ijtimoiylashuvning klassik nazariyasini XX asr 20-yillarida Chikagolik olim D.Istan tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda ijtimoiylashuv – insonni siyosat sohasida bajarilishi lozim bo'lgan rollarga o'rgatish jarayoni sifatida talqin qilgan. L.Koen, R.Lipton, T.Parsons kabi olimlar ham diqqatlarini insonning siyosiy tizim va uning institutlari bilan o'zaro ta'siriga qaratadilar.

5. Olimlardan M.Xabermas va K.Lumanlar siyosiy siyosiy ijtimoiylashuvni inson tomonidan o’zi uchun yangi qadriyatlarni o’zlashtirishda deb biladilar. Siyosiy ong va inson xulq-atvori shakllanishining shaxsiy-ichki va psixologik mexanizmlarini ilgari suradi.

6. Psixoanaliz oqimidagi olimlardan Z.Erikson, E.Frommlar siyosiy faoliyatning ongsiz motivlari (siyosiy norozilik shakllariga, madaniyatga qarshi xulqg’atvor) diqqatini qaratib, siyosiy ijtimoiylashuvni inson his-tuyg’ulari va tasavvurlarini siyosatlashtirishning yashirin jarayoni tarzida tushunadilar.

7. Ko’pgina olimlar siyosiy ijtimoiylashuvning eng muhim funktsiyasi shaxsning siyosiy makonda to’g’ri yo’l topa olishiga va u erda muayyan hokimlik funktsiyalarini bajara olish qobiliyatiga erishishda deb fikrlaydilar. Ushbu xolatda ijtimoiylashuv ikki tomonlama yaxlit jarayonni aks ettiradi: 1) muayyan me’yorlar, qadriyatlar, rollarni qay darajada o’zlashtirgani qayd etiladi; 2) uning hokimiyatga ta’siri va siyosiy xul-g’atvorning u yoki bu shakllarida namoyon qilganda bu an’ana va tasavvurlarni qanday qilib tanlab o’zlashtirganini namoyish etadi.

Siyosat dunyosiga tabiiy ravishda bolaning kirib kelishi uchun siyosiy axborot, o’qituvchi obrusini namunali bo’lishi lozim.

Siyosiy ijtimoiylashuvning asosiy turlari u yoki bu siyosiy tizimlarda madaniy an’analar va me’yorlarni uzatishdagi fvrqlar shunga muvofiq siyosiy ijtimoiylashuv turlarini ajratib ko’rsatish imkonini beradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- siyosiy ijtimoiylashuvning barkamol turi, inson va hokimiyat institutlarining psixologik normal o’zaro ta’siri, individning huquq-tartibotga, davlatga oqilona va hurmat bilan munosabatda bo’lishni, o’z fuqarolik burchlarini anglaganligi;

- ustunlik, gegemonlik turi, insonning «o’ziniki»dan boshqa har qanday sotsial va siyosiy tizimlarga salbiy munosabatini ko’rsatadi;

- plyuralistik turi, inson bashqa fuqarolar bilan teng huquqliligini, ularning huquq va erkinliklarini tan olish, o’z siyosiy mayllarini o’zgartira olish va yangi qadriyatlarni qabul qila olish qobiliyatiga egaligi;

- ixtilofli tur, guruhlararo kura shva o’zaro bog’liq manfaatlarning qaramag’qarshi turishi asosida shakllanadi va shu tufayli siyosiy ishtirok maqsadini o’z guruhiga nisbatan –oyalikni saqlab qolish va siyosiy raqiblar bilan kurashda uni qo’llab-quvvatlashdan iborat, deb biladi.

Siyosiy ijtimoiylashuvning ushbu turlari insondagi u yoki bu xususiyatgar va sifat shakllanishi hokimiyatdagi hukmron (rasmiy) siyosiy madaniyat (ya’ni, bu – vertikal ijtimoiylashuv turi) me’yorlar va qadriyatlarni ifodalovchi ustun tuzilmalar va institutlarga bog’liqligini aks ettiradi. Hokimiyat bilan muayyan o’zaro ta’sirga barqaror yo’nalganlik bilan bir qatorda jamiyatda turli guruhlar, uyushmalar va fuqarolarning ittifoqlari, me’yorlari va qadriyatlari ta’sir ko’rsatuvchi siyosiy xulq-atvorning xilma-xil modellari ham shakllanadi (masalan, hukmron tartibotga keskin muxolifatda bo’lgan partiyalar). Gorizantal siyosiy ijtimoiylashuvning bunday turlari xususiy tabiatga ega.

Shaxsiy siyosiy ijtimoiylashtirishning vazifalari:

- jamiyat siyosiy tizimi, uning normalari, qadriyatlari va munosabatlarini takomillashtirish jarayoniga shaxsni keng jalb etish;

- siyosiy madaniyat normalarida o’z aksini topgan siyosiy tajribani yangi avlodlarga o’tkazish;

- shaxsiy faoliyat hisobiga yangi siyosiy bilimlar olish, yangi siyosiy tajribani o’zlashtirish;

Siyosiy ijtimoiylashish – siyosat sari bir tomonlama, izchil yuksalish emas. Bunda kimdir faol, kimdir passiv bo’ladi, kimdir esa siyosatdan kuzoqroqda bo’lishni ma’qul ko’radi.

Siyosiy ijtimoiylashishning shartlari va omillari qo’yidagilardan iborat:

1) shaxs xislatlarining shakllanish jarayoniga bilvosita ta’sir ko’rsatuchi tashqi ob’ektiv shartlar va omillar (tarixiy va iqtisodiy vaziyat);

2) keng ijtimoiy muhit (ijtimoiy siyosiy ong va jamiyatni uyushtirish);

3) bevosita ijtimoiy-siyosiy muhit (shaxsni qurshagan muhit);

4) shaxsning biogenetik va psixologik xususiyatlari;

5) tabiiy-jug’rofiy sharoitlar;

6) ijtimoiy ahvol (shaxsning maqomi).

Qisqacha xulosa.

Har qanday jamiyatning siyosiy hayotini anglash uning siyosiy madaniyatini anglash, siyosiy madaniyatini har taraflama o'rganish orqali erishiladi. Faqat shu orqaligina siyosiy tizimning manbai, xarakteri va o'ziga xos xususiyatlarini, jamiyatda hukmronlik qilayotgan siyosiy tashkilot, ijtimoiy guruhlarning xatti-harakati, siyosiy jarayonlarning yo'nalishi va xarakteri haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Siyosiy madaniyat odamlarning xulq-atvoriga va turli tashkilotlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, uning ichki va tashqi xodisalarni idrok etish, siyosiy tizim va tartibotlarga, hukmron guruh va alohida siyosiy rahbarlar faoliyatiga, shaxsning jamiyat siyosiy hayotida tutgan o'rniga baho berishda asosiy mezon hisoblanadi. U siyosiy yo'lni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish uchun keng istiqbol yo'llarini ochib beradi.

Tayanch so'zlar.

Madaniyat, siyosiy madaniyat, madaniy siyosat, siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlari, siyosiy madaniyat elementlari, siyosiy madaniyat turlari, mintaqavmy siyosiy madaniyat, umuminsoniy siyosiy madaniyat, milliy siyosiy madaniyat, siyosiy madaniyat modellari, ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Siyosiy madaniyat nima?
2. Siyosiy madaniyat qachon paydo bo'lgan?
3. Har qanday jamiyatda qarshi madaniyat elementlari bo'ladi. Buni qanday tushunmoq kerak?
4. Qanday siyosiy madaniyat barqaror siyosiy tizimni ta'minlaydi?
5. Siyosiy madaniyatli shaxs deb qanday kishilarga aytamiz, sizningcha ular qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak?
6. Davlatda, uyushgan jamiyatda kadrlarga nisbatan olib boriladigan muayyan siyosat har doim birday bo'ladimi, agar bo'lsa sababi nimada?

7. Kadrlarning jamiyatdagi roli, o’rni va vazifalarini Yangitdan mushohada qilish jarayoni boshlandi. Bu nima degani?
8. Hozirgi kunda xodimlarga qo’yilgan talab qanday?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2009. 3-35-betlar.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va Yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: “O’zbekiston”, 2005, 3-30 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”. 2008, 18-19 b.
4. Aliev B Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O’quv qo’llanma. TDYUI. 2006, 196-210 b.
5. Aliev B. Boboev A. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. –T.: TDIU, 2006, 104-114 b.
6. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. M.INFO –M.: 2007. 252-271 b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. –M.:.Prospekt. 2008, 429-442 b.
8. Odilqoriev X.T. Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. “O’qituvchi” nashriyoti. –T.: 2008, 321-332 b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 392-437-b.

12-MAVZU: MAFKURA VA SIYOSAT.

12.1. Siyosat va mafkura tushunchasi, siyosatda mafkuraviy manfaatlar turli xilligi, kurashi va monandligi.

Hozirgi insoniyat taraqqiyoti bosqichida mafkura, xususan siyosiy mafkuraning o'rni va ahamiyati haqidagi masala eng dolzarb, ziddiyatli bo'lib, g'oyat extirosli, qarama-qarshi munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Siyosiy mafkura jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy tizim tuzilishi, turli ijtimoiy kuchlar va guruhlarning o'rni va roli to'g'risidagi g'oyalar, uning hokimiyatga ega bo'lishi, undan foydalanish yo'llari, mehanizmlari to'g'risidagi qarashlarni amalga oshirishga bo'lgan ishonch, maqsadlar yo'lidagi faoliyatdir.

Mafkura umuman siyosiy mafkura xususan, jamiyat hayotida ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlik tartibotlari o'rnatila boshlashi bilan uzviy bog'liq tarzda shakllana boshlaydi va takomillashib jamiyat hayotida faol amal qila boshlaydi. Mafkura birinchi navbatda, hukmron ijtimoiy guruhlarning tengsizlik va adolatsizlik tartiblarini g'oyaviy-siyosiy oqlash hamda ularni himoya qilish quroli sifatida shakllanib, undan keyin tengsizlik va adolatsizlik oqibatlaridan jabrlanayotgan jamiyat ko'pchiligining o'rnatilgan tartib-qoidalarga qarshi ko'tarilayotgan kurashini ifoda etuvchi g'oyaviy-siyosiy qurol sifatida qaror topadi.

Mafkurada ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, qatlamlar manfaatlari va qarashlari aks ettiriladi.

Mafkura atamasi yunoncha ideya va logos so'zlarining birikmasidan tashkil topgan, g'oyalar haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi.

Mafkura iborasi birinchi marta o'tgan asrning boshlarida (ya'ni XIX asr boshlarida) chop etilgan to'rt jildli "Mafkuraning tarkibiy qismlari" nomli frantsuz faylasufi va iqtisodchi olimi Desyut de Trasi asarida ilmiy muaomalaga kiritilgan bo'lib, e'tiqod, siyosat, ahloq, huquq va boshqa hayot sohalarining asoslarini ta'minlaydigan g'oyalar haqidagi ilmiy ta'limot yo'nalishi sifatida bayon qilingan.

Siyosiy mafkura hokimiyatning siyosiy munosabatlari mehanizmi to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar, tasavvurlarning ilmiy-nazariy va dunyoqarash-

metodologik mushtarakligi ekanligini ta’kidlash kerak. Siyosiy mafkuraning g’oyaviy yo’nalganligi mavjud siyosiy hokimiyatni saqlab qolish, uni mustahkamlash, yoki hukmronlik qilayotgan ijtimoiy guruhlarning siyosiy hukmronligini cheklash, zaiflashtirish, imkoniyat tug’ilgan taqdirda uni ag’darib tashlash o’z siyosiy hokimiyatini o’rnatish tomon harakat qilishning g’oyaviy-mafkuraviy asosini tashkil qiladi.

Siyosiy mafkuraning g’oyaviy yo’nalganligi muqarrar tarzda ilmiy-nazariy asoslanishga muhtoj bo’ladi. Siyosiy hokimiyat egasi bo’lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar ham, unga da’vogar bo’lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar ham avvalo o’z maqsad intilishlarini g’oyaviy-siyosiy jihatdan asoslash, ularning huquqiy va ahloqiy tabiatini namoyish etish uchun kurashadilar.

Siyosiy mafkura merosiylik va vorisiylik qonun-qoidalariga amal qiladi. Oldingi jamiyatlarda shakllanib, amal qilib kelgan siyosiy-g’oyaviy ta’limotlarning hayotchan qismlari yangi jamiyat tarkibiga ham o’tib uning rasmiy va norasmiy siyosiy mafkuralariga singdiriladi.

Masalan, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat, insonparvarlik, vatanparvarlik, inson huquqlari, demokratiya kabi umuminsoniy qadriyatlar mehnatkash ijtimoiy guruhlarning asriy orzu-umidlari sifatida to’la qondirilishiga qadar ular siyosiy mafkurasining asosini tashkil etib qolaveradi, faqat bir jamiyatdan ikkinchisi o’tib borgan sari mazmunan boyib, rivojlanib boraveradi.

Siyosiy mafkura ijtimoiy hayotda muayyan funktsiyalarni bajaradi. Bular:

1. Mo’ljallash. Bu funktsiya shunda ifodalanadiki, mafkura jamiyat, ijtimoiy ravnaq, shaxs hokimiyat haqidagi fundamental tasavvurlarni o’ziga qamrab olib, u inson faoliyatining ma’no-mazmunini va mo’ljalini ko’rsatib beradi.

2. Safarbar etish. Fozil jamiyat g’oyasini taklif etib uni amalga oshirish uchun jamiyatni, ijtimoiy guruhlarni safarbar qiladi.

3. Birlashtirish. Siyosiy mafkura jamiyatni birlashtiruvchi omil bo’lib yuzaga chiqadi.

4. Yumshatish. Siyosiy mafkura jamiyat, guruhlar, individ extiyojlari va ularni qondirishning imkoniyatlari o’rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.

5. Muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalash va ximoyalash. Buning ma’nosi shuki, siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh manfaatlari asosida vujudga keladi va ularni boshqa guruhlar manfaatlari bilan o’zaro munosabatda sog’lom raqobat, murosa yoki kelishuv, ayriv hollarda ihtilofda bo’lishi mumkin. Mafkuraning funktsiyasi – aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, qishilar mo’ljal qiladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir.

Umuman mafkura, xususan siyosiy mafkura ham ijtimoiy ong mahsuli sifatida ilmiy yoki g’ayri ilmiy, haqiqiy yoki xato belgilari bilan baholanishi zarur. Ilmiy mafkura haqidagi ta’limot ishlab chiqishi munosabati bilan siyosiy mafkura yaxlit va tugal bir mazmunga ega bo’ladi. Ilmiy mazmundagi siyosiy mafkura ayni vaqtda uning haqiqiy bo’lishini, g’ayriilmiy siyosiy mafkura esa ayni bir vaqtning o’zida uning xato bo’lishini ham anglatadi.

Qarama-qarshi manfaatlar mavjud bo’lgan jamiyatlarda siyosiy mafkura inqilobiy yoki reaktsion, taraqqiyparvar yoki turg’un (konservativ), keskin (radikal) yoki murosachi (liberal), baynalminal yoki millatchi ruhdagi mafkuralar sifatida baholanadi.

G’oyalar ko’rinishi **2.1-chizma**



Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari

12.2-chizma



12.2. Siyosiy mafkuraning xilma-xilligi va deidolizatsiya (mafkurasizlantirish).

Siyosiy mafkura zamon va makondan tashqarida bo'lgan mavxum ruxiy xodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq – aniq ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan ma'naviy xodisadir. Har bir tarixiy davr o'ziga xos, o'ziga mos mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Bundan hozirgi zamon ham mustasno emas.

Hozirgi davrda eng yirik va keng tarqalgan mafkuraviy oqimlardan biri – liberalizm. Bu atama lotincha **"liberalis"** so'zidan olingan bo'lib **"erkin"** degan ma'noni anglatadi.

Liberalizmning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, ham jamiyat oldida mas'uliyati barcha kishilarning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish huquqini tan olishligi kabi printsiplar tashkil etadi.

Mafkuraning har qanday ko'rinishi o'zgarmasdan qola olmasligi kabi liberalizm ham o'zgarmasdan qolmadi. U ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri ostida XX asrning 30-yillarida **neoliberializmga** o'sib o'tdi. Neoliberallar siyosiy

dasturining negizini boshqaruvchi va boshqarilayotganlarning o’zaro kelishuvi, siyosiy qarorlarni qabul qilish amaliyotini demokratiyalash tashkil etadi.

Taraqqiyot natijasida konservatizim ham muhim o’zgarishlarga yuz tutdi. Ular ham liberallar singari bozor, raqobat erkinligi ta’minlanishi, iqtisodiyotga davlatning aralishishini cheklashni talab qildilar.

XX asrning 70-yillarida konservatizimning tarixida Yangi bosqich – **neokonservatizim** boshlandi.

Davlatning ijtimoiy vazifalarini cheklash neokonservatizim g’oyaviy-siyosiy ko’rsatmalarini belgilovchi alomatidir. Neokonservatizim shaxsning ijtimoiy faolligini tan olib, vazifali ta’limotlarning insonparvar g’oyalarini birlashtirdi.

Hozirgi zamonning eng ta’sirli mafkuraviy oqimlaridan biri – sotsial-demokratiyadir. Ular jamiyatni evolyutsion yo’l bilan o’zgartirish, davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga aralashishni, daromadlarni yo’qsillar foydasiga taqsimlashni yoqlaydilar.

12.3-chizma



Bu g’oyalar XX asr ijtimoiy ongiga juda katta ta’sir ko’rsatdi, biroq demokratik sotsializm modellarining amalga oshmaganligi “umumiy farovonlik” davlatni ro’yobga chiqarish bilan bog’liq qiyinchiliklar, “real sotsializm”ning barbod bo’lish: sotsial demokratiyaning jahondagi ta’siriga putur etkazdi.

Mafkura turlari

12.4-chizma



Milliy mafkuralar maqsadi

12.5-chizma



Shuni ta’kidlash lozimki jamiyat siyosiy hayotida amal qilayotgan barcha turdagi va ko’rinishdagi siyosiy mafkuralar tarkibiga u yoki bu darajada buddizm hamda ularning xilma-xil mazxablari ta’siri singdirilgandir. Aytish mumkinki, har bir ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlam o’zining tub manfaatlariga zid kelmaydigan diniy aqidalarni o’zining siyosiy mafkurasi mazmuni bilan bog’laydi va shunday tarzda amal qildiradi. O’zbekiston ham o’z xususiyatlaridan kelib chiqib islomdagi barcha umuminsoniy qadriyatlarni o’zining siyosiy mafkurasi bilan bog’laydi.

Jahon tarixini umumlashgan tarzda bir pillapoya ko’rinishida tasavvur qilsak, uning har bir zimmasini insoniyat oldida yangi imkoniyatlar va istiqbollar eshigini ochib beruvchi taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Bu tarix mazmunini esa ko’p jihatdan turli ijtimoiy tabaqalar, siyosiy oqimlar, xalqlar va millatlar, alohida davlatlar va ijtimoiy tuzumlarning xilma-xil maqsad va manfaatlarini o’zida aks ettiruvchi g’oyalar va mafkuralarning amaliyoti belgilaydi. Tarixiy jarayon tabiatidan kelib chiqadigan mazkur xususiyatning dialektikasi insoniyat uchun doimiy bo’lgan “ezgulik” va “yovuzlik” o’rtasidagi abadiy kurash deb atalmish muxtasar ta’rifda o’z aksini topgan.

“Ezgulik” taraqqiyotga intiluvchi kuchlarni, insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini, ijtimoiy adolat printsiplari yoki “Avesto”da bayon qilingan “ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu ish”ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o’zida mujassam etadi. “Yovuzlik” esa tarixiy reaktsiya, taraqqiyot g’ildiragini orqaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi. Insoniyatning, jumladan, O’zbekistonning keyingi yuz yillik solnomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo’rlik, kulfat urug’larini sochish va qon to’kilishiga sabab bo’lgan buzg’unchi g’oyalar va mafkuralarning halokatli ta’smiri bilan bog’liq qayg’uli sahifalar ko’p. Bu g’oyalar o’zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko’ramiz. Lekin mohiyat hamisha o’zgarmay qolavergan. Ya’ni, ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, a’nana va urf-odatlarini kuch bilan o’zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo’ysundirish va mafkuraviy asoratga solishga,

o’zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot mafkuraviy tasavvurlarni tiqishtirishga qaratilgan. Buzg’unchi g’oyalar va mafkuralarning amalga oshirilishi millatlar va xalqlar azaliy madaniyatining emirilishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo’lgan, ko’plab xalqlarni o’z yo’lini o’zi tanlash huquqidan mahrum etgan.

G’oyalar va mustabid mafkuralar tarixida sobiq kommunistik ta’limot alohida o’rin tutadi. U tashqi jihatdan adolat idealini o’zida mujassam etgan olijanob intilishlarni asos qilib olgandek ko’rinsa-da, oxir-oqibatda mustabid jamiyatni shakllantirish mafkurasiga aylanadi.

Bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida ildizlari sotsialistik g’oyadan suv ichgan mustabid g’oya va mafkuraning boshqa shakli fashizm paydo bo’ldi. Sobiq sotsialist B.Mussolini Italiyada fashistlar harakatining asoschisi bo’ldi. Germaniyada milliy sotsialistik partiya tuzgan A.Gitler esa fashizmning “ma’naviy ota”siga aylandi. Fashizm II-Jahon urushi olovini yoqdi, 50 mln.dan ortiq kishining qirilib ketishiga sabab bo’ldi. Bizning mamlakat ham motam libosiga o’raldi. Ikkinchi Jahon urushi jabhalarida kurashgan O’zbekiston jangchilardan 263005 nafari halok bo’ldi, 132670 kishi dom-daraksiz ketdi, 60452 kishi nogiron bo’ldi.

Kommunizm va fashizm mafkuralari o’rtasida ko’plab o’xshash jihatlar mavjud. Ayni paytda jiddiy tafovutlar ham ko’zga tashlanadi. Asosiy farqlardan biri, bu millat omilining turlicha baholashidir. Agar kommunistik ta’limot, xalqlarning milliy-etnik o’ziga xosliklarini yo’qotish, “proletar baynalminalligi” shiori bilan maydonga chiqqan bo’lsa, fashizm bir hukmron millatning “irqiy-etnik sofligi”ni mutlaqlashtirishni targ’ib-tashviq etadi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

“Rasizm” so’zi “rasa” (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada “insoniyat nasli”ni turli irqiy guruhlar, jumladan, “oq”, “qora” va “sariq” irqqa ajratish uchun qo’llana boshladi. Irqchilik ta’limoti “oq tanli”larning afzalligi, ularning azaldan “oliy irq” etib tayinlangani, boshqa irqlarning esa “oq”larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha

taraqqiyotning quyi pog’onalarida turishini “asoslab” beradi. Uning asosiy g’oyasi o’zining “iloxiy” tabiatiga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko’ra ajralib turuvchi kishilarga tazyiq o’tkazish, ularni haqoratlash, urish va o’ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo’ldi. Ijtimoiy hukmronlik shakllaridan birining mafkurasi bo’lar ekan, u buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, “tanlangan” xalqlarning milliy afzalligi g’oyalari bilan chambarchas bog’lanib ketdi.

Irqchilik – ko’p qiyofali. Masalan, o’zini oliy irq hisoblagan ingliz, ispan, frantsuz bosqinchilari o’rta asrlar va ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Amerika, Avstriya, Afrika va Osiyoda yerli xalqlarni ko’plab qirib tashladilar. Janubiy Afrika Respublikasi tomonidan XX asrda uzoq yillar mobaynida o’tkazib kelingan irqiy ayirmachilik siyosati – shavqatsiz irqiy tahkirlash va kamsitishlarda o’z ifodasini topdi. 1865 yilda AQShda tuzilgan “Ku-kluks-klan” terroristik tashkiloti ham o’zining oshkora irqchilik yo’nalishidagi faoliyati bilan ajralib turdi. Negrlarning fuqarolik huquqlariga qarshi kurash va ularni mamlakatdan chiqarib yuborish uning asosiy g’oyasi hisoblanadi.

Yana bir yozuv g’oya-terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda. Jamiyatga doimiy qo’rquv, fitna-g’alamaslik muhitini vujudga keltirish, zo’rovonlik yo’li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunoh kishilar, jumladan, bolalarning halok bo’lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o’ldirish va portlashlar bu mudhish g’oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Siyosiy terrorizm XIX asrdayoq vujudga kelgan edi. Lekin u XX yuz yillikda keng quloch yozdi. G’arbiy Germaniyadagi “qizil armiya” va Italiyadagi “qizil brigada” guruhlari, Ispaniyadagi banklar tashkiloti, Olsterdagi “Inqilobiy-haloskorlik armiyasi”, Perudagi “Porloq hayot” kabi birlashmalar zamonaviy siyosiy terroristlarning avlodi edi. Keyingi yillarda dunyoning o’nlab mamlakatlarida, jumladan, bizning yosh davlatimiz chegarasiga yaqin davlatlar hududlarida ham terrorizm o’choqlari paydo bo’ldi.

Ikki tizim amal qilgan yaqin o’tishida shiddatli g’oyaviy-mafkuraviy kurash sodir bo’lib turgan. Mana shu kurashning asosiy yo’nalishlarini ikki oqim

mafkurasizlantirish (deidolizatsiya) va mafkuralashtirish (ideologizatsiya) tashkil etgan.

Mafkuralashtirish – bu keng omma, jamoatchilik uchun ma’qul va majburiy tarzda “Yangi mafkura” yaratib, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni va to’qnashuvlarni shu vosita yordamida bir yo’la hal qilish demakdir.

Demak, g’oyaviy-siyosiy kurash jarayonlarining ikki asosiy yo’nalishda – mafkurasizlantirish va mafkuralashtirish tamoyillarda ifoda topgan ekan.

Rivojlangan mamlakatlarning “Sotsializm” dunyosiga qarama-qarshi turgani sharoitida ulardagi ijtimoiy-siyosiy tafakkuri olamida XX asrning o’rtalaridan boshlab mafkurasizlashtirish oqimining keng o’rin egallab, g’oyaviy kurash sohasida yoyila boshlaganligi ma’lum. Mazkur oqim zaminida yotgan asosiy maqsad yo’nalish g’oyaviy kurashda “ob’ektivlik”ni qalqon qilib olib mafkuraning partiyaviyligi aqidasini butunlay inkor etish tashkil qilar edi.

Mafkurasizlashtirish, shu jumladan ishchilar sinfi siyosiy mafkurasini ham inkor etish monopolistik burjuaziya tub manfaatlarini himoya qilishga mo’ljallangan edi.

XX asrning 50-60 yillarida rivodlangan mamlakatlarning bir qator siyosatshunos va sotsiolog olimlari, shu jumladan S.M.Lipeet, E.Shile, R.Aron, D.Byoll, K.Popper mafkurasizlashtirishni marksizm ta’minotiga va umuman, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning so’l va o’ta so’l oqimlariga qarshi qaratilgan sotsiologik hamda siyosatshunoslik ta’minotlari sifatida ishlab chiqdilar va keng tarkib qila boshladilar. Mazkur mafkurasizlashtirish ta’limotining aso maqsadini bir tomondan, monopolistik guruh mafkurasini partiyasiz, siyosatsiz “toza fan” sifatida targ’ib qilib, ikkinchi tomondan, har qanday mafkuraning g’ayri ilmiy tabiatga ega ekanligini isbotlamoqchi bo’ladilar.

Mafkurasizlashtirish maslakdoshlari o’zlarining shu tarzdagi fikr-mulohazalarini isbotlashga urinib, yana bir dalil keltiradilar: ilmiy-texnika inqilob keng va chuqur amal qilish natijasida go’yo o’tgan asrdan meros bo’lib o’tgan va qotib qolgan g’oyaviy mafkuraviy aqidalar o’rniga ob’ektiv tabiatli, “betaraf” ilm-

fan va din-e’tiqod kelgan bo’lib, yangi vaziyat va yangi shart-sharoit mafkurasizlashtirishni taqazo etayotgan emish.

Mafkurasizlashtirish ta’minoti keyingi yillarda “industrial jamiyat” va ikki tuzumning qo’milib ketishi (“konvergentsiya”) haqidagi tamoyillar bilan uyg’unlashtirish sifatida talqin etila boshlandi.

Ikki tomonlama – ham ilmiy-metodologik ham siyosiy hayot amaliyoti tomonidan mafkurasizlashtirish ta’minoti jiddiy zarbaga uchrashi natijasida uning oldingi ijodkorlari va qatiy targ’ibotchilari bu sohadagi o’z mavqelarini bir oz bo’ysuntirishga, uning ayrim tomonlarini qayta ko’rib chiqishga hamda tanqidiy mulohazalarning birmunchasini tan olishga majbur bo’ldilar. Lekin mafkurasizlantirish uchun kurash zaiflangan holda bo’lsada, xamon davom etmoqda, mafkurasizlantirish ta’limotiga moyillik esa ham monopolistik guruhlar tub manfaatlarini himoya qilishga astoydil bel bog’lagan politolog va sotsiolog olimlar, targ’ibotchilar doirasida kuchli tarzda mavjuddir.

12.3. Globallashuv jarayonida jamiyat mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, g’oyaviy munosabatlar

Globallashuv (globolizatsiya) – lotincha “global” so’zidan olingan bo’lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv”deb tarjima qilish mumkin[1]. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi (taniqli amerikalik olim R.Robertson 1985 yilda fanga kiritgan). Insoniyat taraqqiyoti ayni payitda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon ming yillar davom etgan. Globallashuvning ikki tomonini ko’rishimiz mumkin: ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotning yaqinlashtirishni tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, ko’pgina mayda, qaloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo’ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy

[1] Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т.: “Шарқ”, 2006. 70-бет.

madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o’z-o’zidan ijtimoiy-iqtisodiy hayotdan chetda qoladi.

Har bir sohada globallashuv bo’lgani kabi mafkura sohasida ham globallashuv mavjuddir.

Biron-bir hudud yoki mamlkatda paydo bo’layotgan g’oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzot ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

Bunday vaziyatda o’z mustaqil fikriga, sobit e’tiqodiga, mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo’lmagan odam goh oshkora, goh pinhona ko’rinishda namoyon bo’layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. YAponiyada paydo bo’lgan “AUM Sinrikyo” kabi zararli oqimlar turli mamlakatlardagi minglab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong-shuuridan mahrum qilib, zombiga aylantirib qo’ygani bu fikrning dalilidir[1].

Keng miqiyosli integratsiya va globallashuv jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanini e’tirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy ta’sir o’tkazish vositasi ekanini ham unutmaslik darkor.

Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi- o’z millatining raqobatbardoshligini ko’tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatda salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir. Buning uchun mustaqil O’zbekistonning har bir fuvarosi, birinchi navbatda, hozirgi kun amaliyoti talab qilayotgan to’rt sifatga ega bo’lishi shart:

1) Zamonaviy mutaxassis bo’lishi;
2) o’zbek-davlat tili, rus tili va ingliz tillarini mukammal bilishi;
3) doimo o’z bilim doirasini yangilab borishi;
4) tadbirkor-tashabbuskor bo’lishi kerak.

[1] Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. 23-бет.
.

Dunyoning siyosiy iqtisodiy, madaniy qiyofasi bo'lgani kabi, mafkuraviy manzarasi ham mavjud. Dunyoning mafkuraviy manzarasideganda odamlarning qalbi va ongini egallash uchun olib borilayotgan kurash qaerda, qanday kechayotgani, bu yo'lda qaysi joyda qanday usul va vositalar qo'llanilayotgani tushuniladi. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Mafkuraviy poligon deb, odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan g'oya va mafkurani mablag', zamonaviy texnik vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma'naviy tashviqot qurollarini ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o'z foydasi yo'lida boshqarib turadigan g'oyaviy markazga aytiladi. Ularning ta'sirida radio, televidenie, gazeta-jurnal, internet, umuman hamma axborot tarmoqlari mavjud.

Jahon maydonlaridagi mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar:

1. Siyosiy (buyuk davlatchilik shovinizmi).
2. Diniy (diniy ekchtrimistik, aqidaparastlik, panislomizm).
3. Badiiy (G'arb turmush tarzini salbiy tomonlarini – zo'oavonlik, yovuzlik va boshqa axloqsizlikni targ'ib qiluvchi).

Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralarning shakllari:

1) Buyuk davlatchilik mafkurasi.
2) Diniy ekstrimistik mafkuralar.
3) Pansovetizm mafkurasi.
4) Panislomizm mafkurasi.
5) G'arb turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
6) Amerikacha turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
7) Turli diniy sektalarning g'oyalarini targ'ib qiluvchi mafkuralar.

Jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz harakat olib borayotgan bunday paytda faqat kuchli milliy mafkuragina jamiyatni ana shu tazyiqlardan muhofaza qila oladi.

12.4. Mustaqillik va milliy mafkuraga bo’lgan ehtiyoj.

O’zbekistonning mustaqil suveren davlat maqomiga ega bo’lganligi, jamiyatda yuz bergan demokratik jarayonlar, xurfikrlilikka intilish xalqning milliy ongi mutassil oshib borishi mavjud hodisalarga yangicha tafakkur bilan qarashni taqazo qilardi. Jumladan, O’zbekiston butunlay yangi tarixiy sharoitlarda butunlay yangicha qarashlarni, munosabatlarni qaror topgandagina respublika o’zining to’la siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligiga erishgandagina belgilashi mumkinligini ancha oldin tushungan va bu borada o’zining qat’iy qaroriga kelgan edi. Binobarin, xalqni yangi yo’ldan boshlab borish, uning qarashlari va orzu-maqsadlarini bir yo’nalishga burib, kuchlarni uyg’unlashtirish uchun yagona g’oyaviy qurol zarur edi. O’zbekiston uchun buyuk tarixiy voqea, milliy mafkura shakllanishida yangi davr boshlanishi edi. Bu xol tabiiy sur’atda kishilarning siyosiy ongi oshishiga olib keladi. Odamlar jamiyatda yuz bergan o’zgarishlar shiddati oldida birmuncha gangib qolishdi. Ana shunday paytda umumxalq, umumdavlat mos keladigan eng maqbul yo’lni tanlash, bunnig uchun esa mafkuraviy yakkaxokimlikka barxam bergan holda aholining barcha tabaqalari qatlamlarini, talab-extiyojlarini ma’naviy-ruxiy chanqoqligini qondira oladigan etuk va barkamol g’oyani yaratish zarur edi.

Masalaning yana bir boshqa tomoni ham bor edi. Bu bevosita uzoq yillar mobaynida hukmron bo’lgan g’oya va aqidalardan xalos bo’lish, uning bir yoqlama, xavoyi, balandparvoz da’vatlaridan voz kechish kabi og’ir, vaqt talab etadigan jarayon bilan bog’liq. Endi tafakkur tarzi, qarashlarni tubdan o’zgartirish uchun eng avvalo, o’sha davrning bosh mafkurachisi sobiq kommunistik partiya g’oyalaridan voz kechish, qolaversa, butunlay yangi, zamon talablari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan mafkurani ishga solish lozim edi.

Shu bois respublikada mafkuraviy aqidalarga va bir qolipdagi safsatabozlikka bo’ysunadigan, inson, xalq, jamiyat manfaatlariga putur etkazayotgan siyosiy, mafkuraviy va davlat tuzilmalaridan dadil voz kechila boshlandi. Demokratiyaning asosiy xususiyati – adolat va qonunning ustivorligini

ta’minlashga qaratilgann choralar ko’rildi. Mamlakat va xalq manfaatlari yo’lida birlashgan, kuchlarni uyg’unlashtirish, barcha imkoniyatlardan extiroslarga berilmay, aqil-idrok bilan foydalanish yo’li bilan tutildi.

Milliy istiqlol, milliy taklanish mafkurasini yaratish va hayotga tatbiq etish O’zbekiston uchun muhim masalaga aylandi.

O’zbekiston istiqlol mafkurasining jamiyat barcha hayot jabhalarida keng va chuqur tarzda amal qiilsh uchun birinchi navbatda barcha fuqarolar siyosiy ongiga, siyosiy ruxiyatiga xaqiqiy, fidokorona mehnat qilish zarurligi ruhini singdirib yuborish lozim. Siyosiy mafkuraning istiqlol xizmatidagi ahamiyati shundan iboratki, u yuksak ravnaq toptirish vositasida O’zbekiston milliy mustaqilligini yanada mustahkamlaydi va uni jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqib olishi yo’llarini ko’rsatib beradi.

Istiqlol mafkurasida inson bilishi lozim bo’lgan yetakchi tamoyillardan biri sifatida shakllanishi inson huquqlari va burch-vazifalarining xamoxang tarzda ifoda topishini hamda namoyon bo’lishini anglatadi.

“Vatanni sevish – iymondandir” – deydi ulug’larimiz. Vatanga chin e’tiqod istiqlol mafkurasining bosh mezonlaridan birini tashkil etishi tabiiy bir xoldir. Vatanni sevish, uni gullab yashnayotgan vatandoshlarni ham sevish, yoshi ulug’larga hurmat-exirom ko’rsatish, kichiklarga mehr-shavqatli bo’lish, boshqacha qilib aytganimizda, insoniy fazilatlarga ega bo’lish demakdir. Mana shu tarzda insonparvarlik, vatanparvarlik ruxi bilan uyg’unlashib istiqlol mafkurasining tub mohiyatini tashkil etadi va boyitadi.

Har bir mafkuraning, ayniqsa, istiqlol maqsadlari sari yo’naltirilgan istiqlol mafkurasining o’zak-mag’zini ilmiy dunyoqarash tashkil etadi.

Hozirgi davrda O’zbekistonda sovetga dog’ma va stereo o’rinlardan qutilishini ta’minlaydigan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishga xizmat qiladigan siyosiy mafkura qaror topmoqda. O’zbekiston milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o’tmish va kelajagini bir-biri bilan bog’laydigan hayotimiz yo’nalishini belgilaydigan mafkuradir.

Biz ijtimoiy-siyosiy jarayonlar odamlar hayotini keskin tarzda bir o’zandan ikkinchi o’zanga burib yuborgan, hayotimiz butunlay boshqacha tus olgan va turmushimiz o’zgacha mazmun kasb etgan murakkab ruhiy-ma’naviy holatni boshdan kechiryapmiz. Yillar mobaynida qotib qolgan ongimiz uyg’onmoqda.

Mustaqillik, xurriyat degan so’zlar butun jozibasi bilan birga beqiyos qudratini, buyuk o’zgartiruvchilik mo’jizasini ko’rsatmoqda. U dunyoqarashimizni tubdan o’zgartirib, fikrimiz, tafaakkurimizni boyitmoqda. Voqealar rivojini butun mohiyati bilan anglashni, dunyog’a kengroq va tirakroq nazar bilan qarashni, sho’ro tuzumidan boshqa adolatni tuzumlar ham borligini, boshqacha yashash ham mumkin ekanligini, kommunistik mafkuradan bo’lak hayot lazzatini, inson qadru-qimmatini ximoya qiladigan o’zga g’oyalar ham mavjudligini ko’rsatib berdi. Zotan mustaqillikning buyuk mohiyati, beqiyos qadriyati ana shunda.

Mustaqillik inson imkoniyatlarini tobora kengaytirib, uning yaratuvchilik iqtidorini va bunyodkorlik qobiliyatini yanada kuchaytirmoqda. Endi odamlar real voqelikka, o’z hayotini kutilmagan butunlay yangi izga solishga extiyoj sezilmoqda. Ular yashash huquqi, o’z oilasi dahlsizligi va istiqbol xususida ko’proq o’ylaydigan bo’lib qolishdi. Ayni paytda istiqlolning mazmun-mohiyatini kundan-kunga chuqurroq anglay boshlashdi.

To’g’ri, hayotimiz biz orzu qilgandek mukammal emas. Hali turmushning hal etilmagan muammolari ko’p. Yulg’ichilik, fribgarlik, poraxo’rlik, xizmat vazifasini suiste’mol qilish, to’rachilik, manmanlik, xibru-xavo, mansab kasaliga o’tkir va yuqumliligicha qolmoqda. Biroq bular mustaqillikning, omma va jamiyatning mushtarak ravnaqi bilan qonuning ustivorlik kuchi ortishi bilan bartaraf etib boriladigan illatlardir.

Ma’naviy olamizdagi o’zgarishlar barcha yangilanishlarning asosidir. Zero, Vatan, millat tushunchalari tobora chuqurlashmoqda. Biz endi yashab turgan zaminimiz, fuqaroligimiz jihatidan dahldor bo’lgan mamlakatimiz, milliy ravnaqimiz va istiqbolimiz xususida jiddiyroq o’ylaydigan bo’ldik. Har qanday moddiy manfaatdorlik, har qanday iqtisodiy taraqqiyot bevosita ma’naviy yetuklik, ma’naviy barkamollik tuyg’ulari bilan bog’liq holdagina rivoj topishi

mumkinligini yaqqol ko’ryapmiz. Milliy ravnaq hamma vaqt aqliy imkoniyatning beqiyos kuchiga, ong va tafakkur rivojiga muxtoj ekanligini, unda tayanish va suyanish lozimligini chuqur anglay boshladik.

Ayni vaqtda O’zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari, uning taraqqiyot yo’llari xususida o’zimizda ham, xorijda ham ko’p gapirilmoqda. Mamlakatimizda milliy barqarorlik, millatlararo munosabatlarining mutanosibligi, iqtisodiy jarayonlarning bir me’yorda rivojlanishi, ishlab chiqarishning tobora takomillashib borayotganligi mamlakat ma’naviy-siyosiy muhitining sog’lomligi, xalq orzu-umidlari bilan davlat siyosatining uyg’unligi natijasi ekanligi jahon siyosatdonlari tomonidan tan olinmoqda. Ana shunday muhitni vujudga keltirish, mamlakatda barqaror taraqqiyotga erishish – bu bevosita davlat siyosatining xalq talab va extiyojlarini, ruxiy va ma’naviy holatini nechog’lik hisobga olinganligi bilan belgilanadi.

O’zining yetakchi siyosiy mafkurasi bo’lmagan jamiyat boshi berk ko’chaga kiirb qolgan odamga o’hshaydi. Milliy ozodlik bilan milliy ravnaq topish, har tomonlama gullab yashnash tamoyili milliy istiqlol tamoyilining asosiy mazmunini tashkil etishini bugungi kunda barcha taraqqiyparvar kuchlar e’tirof etayotgan xaqiqatdir.

Milliy istiqlol tushunchasi to’la milliy mustaqillik, davlat suvereniteti kategoriyalariga nisbatan ancha keng qamrovli tushuncha bo’lib, ulardan tashqari yana mazkur mamlakatning har tomonlama kamolotga erishishi zarurligini ham aks ettiradi. Istiqlol tushunchasi mustaqil mamlakatlar, davlatlar, xalqlar taraqqiyot darajasiga ko’tarilib, ular qatoridan teng va o’ziga munosib o’rin egallash maqsad-manfaatlarini ham ro’yobga chiqarish uchun sayii-harakat va kurash ma’nosini anglatadi.

O’zbekiston istiqlol mafkurasining tub mohiyatini chin insonparvarlik aqidasi tashkil etadi. Ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat aqidalariga og’ishmay va izchil amal qilish, insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy o’zligini anglash, umumbashariyat manfaatlari va qadriyatlari ustivorligi aqidasiga amal qilish hozir shakllanib amal qilayotgan O’zbekiston istiqlol mafkurasining asosiy mazmunini

tashkil etadi, zero mazkur tamoyillarning barchasi mustaqil O'zbekiston davlat hokimiyatining amaliyot dasturida Prezident I.A.Karimovning asarlari, risolalari, nutqlarida o'zining to'la ifodasini topgandir.

"Hech shubxasiz, - deydi Yurtboshimiz, - yurtimizda erkin, adolatli, farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas".[1]

Qisqacha xulosa.

Zo'ravonlik bilan o'rnatilgan g'oyalar utopik, hayotiy g'oyalar real hayot talablariga javob bermaydigan, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid, siyosiy ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonlikka asoslangan g'oyadir.

Lekin tarixiy xaqiqat shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarimizning turli andozalari va ularnig loyihalari asosida yaratilgan demokratiyaga qarshi tuzumlarning pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrardir.

Biroq, hozirda g'oyaviy kurash tobora yangilash yangi qiyofaga kirmoqda. Ko'p sinvolar, azobu uqubatlar xatolar, fojialar, qatag'onlarni boshdan kechirgan asrimiz poyoniga etib yangi asr birinchi choragida turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazxab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda.

Ana shu sababdan ham mustaqil O'zbekistonda hozirgi davrda millat, jamiyat, jamiyatni birlashtiruvchi bayrog'i bo'lgan milliy g'oya va mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda.

[1].Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. 125-b.

Tayanch tushunchalar.

Mafkura, siyosiy mafkura, siyosiy mafkura funktsiyalari, liberalizm, neoliberalizm, konservatizim, neokonservatizim, sotsial-demokratiya, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi, globallshuv jarayoni, geosiyosat, mafkuraviy poligon, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy immunitet.

Nazorat va muxokama uchun savollar.

1. Mafkura tushunchasining qanday talqinlari bor?
2. Siyosiy mafkurasiz davlat mavjud bo'ladimi?
3. Qanday siyosiy mafkuralarni bilasiz?
4. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi va globallashuv jarayonlari mohiyati qanday?
5. Hozirgi davrda geopolitik maqsadlarning namoyon bo'lish sabablari?
6. Geosiyosat tushunchasining mohiyati, mazmuni nimadan iborat?
7. Jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urunishlar?
8. Mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy immunitet so'zlari qanday ma'nolarni anglatadi?
9. Markaziy Osiyoda yot va begona g'oyalar, ularga qarshi kurash zaruriyati.
10. Milliy mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol mafkurasi tushunchalari o'rtasida qanday farq bor?

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2009, 30-35 - b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.–T.: "O'zbekiston", 1997. 19-33 - b.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar. –T.: "O'zbekiston", 2000.

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”. 2008, 11-18 - b.
5. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya o’quv qo’llanma. –T.: TDIU. 2006, 211-228 - b.
6. Aliev B. Boboev A. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. – T.: TDIU. 2006, 104-115 - b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik.-M.:INFRA-M.,2007.287-301 -b.
8. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik.- M.:Prospekt, 2008. 457-471-b.
9. X.T.Odilqoriev. D.X.Razzaqov. Siyosatshunoslik. “O’qituvchi” nashriyoti. –T.: 2008. 170-186 - b.
10. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 438-473-b.

IV. BO’LIM. XALQARO TIZIMLAR VA UMUMBASHARIY TARAQQIYOTNING SIYOSIY MUAMMOLARI.

13-Mavzu: Xalqaro tizim va xalqaro siyosat.

13.1. “Xalqaro tizim” va “xalqaro siyosat” tushunchasi hamda uning bir butun muvozanatni saqlash manfaatlari.

Davlatlar va xalqlar o’rtasidagi munosabatlar siyosat va siyosiy faoliyatnnig natijalariga bog’liq. Binobarin, siyosatning o’zgarishi bilan xalqaro munosabatlarda ham muhim sifat o’zgarishlari ro’y beradi.

Davlatlar siyosiy faoliyati orqali xalqaro munosabatlarning borishiga biror darajada ta’sir ko’rsatadilar va shunga muvofiq tarzda bu munosabatlar turli darajada rivojlanadi. Garchi, alohida bir davlat olib boradigan tashqi siyosatining o’zgarishi xalqaro munosabatlarning batamol o’zgarishiga olib kelmasa-da, biroq uning ayrim jihatlariga o’zining ta’sirini ko’rsatadi.

O’tmishda xalqaro siyosatda ba’zi davlatlar (AQSh) o’z manfaatlaridan kelib chiqib xalqaro vakanlarni mustaqil xal qilishga harakat qilib kelgan bo’lsalar, endilikda vaziyat tubdan o’zgardi. Hozirda uning o’rnini yangicha jahon tartiblarini xalqaro huquq normalariga, barcha mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olishga qaratilgan, xalqlarning o’z siyosiy yo’lini o’zlari erkin tanlashlari, xalqaro muammolarni birgalikda bartaraf etish siyosati egalladi. Shuningdek, hozirgi davr, jahon taraqqiyoti intellektual (aql-zakovat) kuch-qudratidan omilkor va samarador ravishda foydalanishni taqazo etadi. Demak, fan va texnika, yangi texnologiyalar sohalarida ham o’zaro manfaatdor ruhda keng hamkorlik qilish maqsadga muvofiq keladi. Mehnat umumdorligini bir necha bor oshirishga, mahsulot tan narxini kamaytirishga, uning sifatini yaxshilashga mo’ljal qilingan fan-texnika yutuqlarini bevosita ishlab chiqirishga joriy qilib, ulkan samaralarga erishish uchun xalqaro miqyosda hamkorlik qilish hozir biz yashab turgan kompyuter asri, yangi texnologiyalar asri talabidir.

Xalqaro munosabatlarda siyosatning yetakchilik rolini xalqaro tashkilotlar va harakatlarning faoliyati orqali ham namoyon bo’ladi. Ular xalqaro

munosabatlarga shunday ta’sir ko’rsatadiki, buning natijasida muayyan sharoitlarda vujudga kelgan o’zaro munosabatlar u yoki bu darajada o’zgarishi mumkin.

Siyosat xalqaro munosabatlarning umumlashgan ifodasi bo’lganligi uchun ham davlatlar va xalqlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning o’zgarishi siyosatning o’zgarishida to’la namoyon bo’ladi. Davlatlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning butun tarixi siyosat va siyosiy faoliyat rivojlanishining tarixi hamdir.

Xalqaro tizim haqida so’z boro ekan, avvalo, dunyoda yuz berayotgan o’zgarishlarga ikki tomonlama yondashish, ya’ni bir tomondan dunyoda yuz berayotgan o’zgarish va jarayonlar hayotga beqarorlik baxsh etsa, tartibga moyillik tizimi shakllanadi. Bu xodisaga ob’ektiv bir voqelik sifatida qarash lozim. Demak, bunga xalqaro siyosatga, xalqaro hamjamiyatga xos bo’lgan jarayon sifatida qarash lozim.

13.1-chizma



1. Xalqlar (umum insoniyat) – irqidan, millatidan, sinfiy mansubligidan, qaerda yashashidan qat’iy nazar hamma uchun bir hildagi tushuncha.

2. Davlat (davlatlar) – iqtisodiy jihatdan hukmronlik qiluvchi sinfning siyosiy tashkiloti bo’lib, bu tashkilotning maqsadi mavjud tartibni qo’riqlash va boshqa sinflarning qarshiligini bostirishdan iborat. Davlatlar – turli tartibotlarga asoslangan xalqaro hamjamiyatdir.

3. Xalqaro tashkilotlar – mustaqil davlatlar yoki milliy jamityalar (assotsiatsiyalar)ning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishishlari uchun tuzilgan birlashmalari, mamlakatlar o’rtasida ko’p tomonlama hamkorlik qilishning eng muhim turlaridan biri. Xalqaro tashkilotlarning umumiy hususiyati har bir davlat chegarasidan chetga chiqadi.

4. Siyosiy tashkilotlar – davlat, partiyalar va siyosat bilan o’zaro ta’sirda bo’luvchi, rasmiy yoki norasmiy barcha tashkilotlar kiradi. Tashkilotlar siyosiy tizimida (xalqaro tizimda) muhim rol o’ynaydi, chunki u ma’lum maqsad, tartiblar asosida uyushgan kishilar guruhidir.

5. Siyosiy harakatlar – ma’lum siyosiy manfaatlarni, maqsadlarni amalga oshirishga yo’naltirilgan ijtimoiy faoliyat hisoblanadi. Siyosiy harakatlar alohida mamlakatlarga xos bo’lgan xodisa emas. Har qanday mamlakatda ham kishilar o’zlarining maqsad va manfaatlari yo’lida kurashadilar. Ularning bu kurashi qanday shaklda bo’lishidan qat’iy nazar, u siyosiy xususiyatga ega bo’ladi.

Xalqaro siyosat va munosabatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bog’liq bo’lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqlarning talab va extiyojlari, davlat manfaatlari xalqaro normalar va qadriyatlar bilan bog’liq bo’ladi.

Xalqaro siyosat – xalqaro siyosat sub’ektlarining xalqaro me’yorlar, normalar, qadriyatlar asosida o’zaro munosabatlarni saqlab qolish vazifalarini, takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

Xalqaro siyosat tushunchasining paydo bo’lishini er yuzida tobora ko’proq mamlakatlar va xalqlarning feodalizmdan kapitalizmga o’tishi jarayoni bilan bog’lash mumkin.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropada Napaleon Bonopart olib borgan urush siyosati aslida feodal tartiblardan kapitalistik tartibga o’tish, yangi xalqaro munosabatlar tartib-qoidalarini o’rnatish davlatlar tashqi siyosat yo’nalishlarini mushtarak jahon siyosatiga aylantirish edi.

13.2-chizma



Napaleon boshlagan urush Yevropa qit’asiga yoyilib undan tashqari Afrika va Amerika qit’alariga ham yoyilib, birinchi marta unga qarshi xalqaro miqyosida uyushgan qarshilik harakati vujudga keldi. G’olib davlatlar **Venada Kongress chaqirib** urushdan keyingi Yevropa taqdiriga tegishli hujjatlar qabul qildilar.

Vena Kongressi 1814 yil 1 oktyabrdan 1915 yil 9 iyungacha davom etib, oxigi kuni 9 iyunda “Yakunlovchi axd”ni qabul qildilar. (U 121-modda va 17 ilovadan iborat).

Xalqaro munosabatlarning xalqaro siyosati 2 bosqichi birinchi jahon urushi va uning nixoyasida qabul qilingan. “Versal (Parij) tinchlik bitimi” va Versal anjumanida “Millatlar ittifoqi”da ta’sis etildi. (50 mamlakat a’zo).

Millatlar ittifoqi va uning doimiy organlari birinchi marta xalqaro munosabatlarning jahon tizimi oqimida amal qildirish mehanizmini ishlab chiqish va ikkinchi jahon urushi boshlanguncha qadar davlatlar tashqi siyosati amaliyotida dastur sifatida kiritilishiga harakat qilib, ularni boshqarib turishga intiladi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi Millatlar Ittifoqi o'z burch-vazifalarini o'tab bo'lganligini, uning faoliyatidagi ziddiyatli va zaif jihatlarini ochib berdi hamda jahon siyosatining boshqarilishida yangi xalqaro tashkilotlar zarur ekanligini ko'rsatib berdi.

Xalqaro siyosatning uchinchi bosqichi uch buyuk davlat rahbarlarining (AQSh-Ruzvelt, Cherchil-Angliya, Stalin-SSSR) Texron, Qirim (Yalta), Potedam (Berlin) anjumanlari xalqaro munosabatlar oqimini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

1945 yil 7 iyul-1 avgust Potedosh anjumanida 1945 yil 25 aprelda AQShning San-Fransisko shahrida BMT anjumanini chaqirib, uning Nizomini qabul qilishga kelishib olindi. BMTning ta'sis anjumani 23 iyun 1945 yil San-Fransiskoda ochilib, uning nizomi 50 ta davlat vakillari tomonidan imzolandi. U 1945 yil 24 oktyabrda kuchga kirdi.

BMTning Nizomida Davlat mustaqilligini hurmat qilish, tinch-totuv yashash aqidalariga rioya qilish, davlatni o'ziga yuklatilgan xalqaro burch va vazifalarini og'ishmay ado etish, nizolarni tinch yo'l bilan xal etish kabi qoidalar belgilab berilgan.

Demak, xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlarda ishtirok etayotgan davlatlar, sub'ektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro me'yorlar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarini saqlab turishga qaratilgan faoliyatlaridir.

13.2. Davlatlar tashqi siyosati va diplomatik munosabatlar.

Siyosatni amalga oshirish ikki yo'nalishda, ya'ni ichki va tashqi siyosatda o'z ifodasini topadi. Bu har ikki yo'nalish har bir suveren mamlakatlarga xos bo'lgan qonuniyatdir.

Davlatlarning milliy manfaatlari ularning tashqi siyosatida o'z ifodasini topgan bo'lib, u yoki bu mamlakat siyosiy tuzumi, davlat tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tabiatini namoyon etishga xizmat qiladi.

Ichki siyosat omilkorligi va samaradorligi mazkur mamlakatning barcha hayot jabxalarida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy barqarorlik, osoyishtalik, mo''tadillik vaziyatlarini ta'minlay olishida o'z ifodasini topadi. Birinchi navbatda, iqtisodiy barqarorlikka erishish belgilovchi ahamiyat kasb etadi, nafaqat mazkur jamiyatni boshqarayotgan davlat hokimiyati tizimlarining xalqaro munosabatlar maydoniga dadil chiqa olish imkoniyatini oshiradi, balki ishonch, o'zaro manfaat ruhida har tomonlama aloqalar o'rnatishda zarur shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

Tashqi siyosat–davlatning mamlakat tashqarisida, davlatlararo munosabatlarda o'zining milliy va umumbashariy maqsadlari, xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Tashqi siyosat tushunchasi ko'p hollarda diplomatiya tushunchasi bilan mushtaraklashib, ayrim hollarda xatto bir-biri bilan chatishma holida ham inikos etiladi.

Tashqi siyosat quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

1. Davlatlarning ichki ko'rinishida (Tashqi ishlar vazirligi) amalga oshiradi. Ammo birinchi navbatda shuni ta'kidlash ma'lumki, oliy darajadagi organlar mavjud, bular:

Tashqi aloqalarni amalga oshiruvchi konstitutsion organlar – parlament, davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i, hukumat – tashqi aloqalarni olib borishga umumiy rahbarlik qiladilar, tashqi aloqalarni tashkil etadilar va tartibga soladilar. Ko'pchilik mamlakatlarning konstitutsiyalarida, parlament urush va tinchlik masalalarini xal etish, mamlakat hududiga o'zgarishlar kiritish xalqaro

shartnomalarni tasdiqlash yoki bekor qilish, bevosita xalqaro munosbatlarda ishtirok etish va hokazolar bo'yicha vakolatlarga ega.

Davlat boshlig'i xalqaro munosabatlarda davlatning oliy vakili sifatida ishtirok etadi. Odatda u maxsus vakolatlarsiz ham boshqa davlatlarning boshliqlari bilan uchrashadi, ular bilan muzokaralar olib beradi, xalqaro shartnoma va bitimlarni imzolaydi, rasmiy ravishda elchi va vakillarni tayinlaydi va vazifasidan bo'shatadi, chet davlatlar elchi va boshqa vakillarining ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi.

Hukumat boshlig'i va butun hukumat tashqi aloqa organlari hisoblanib, davlatning tashqi siyosatda tutgan yo'liga umumiy rahbarlik qiladi, uni amalga oshiradi, hukumat tashqi siyosat, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish sohasidagi asosiy yo'nalishni belgilaydi hamda tegishli takliflarni ko'rib chiqadi, tasdiqlash uchun parlament va davlat boshlig'iga taqdim etadi, tashqi aloqaga doir qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlaydi, nazorat qiladi.

Tashqi ishlar vazirligi davlatning tashqi ishlari bo'yicha ixtisoslashgan organi hisoblanadi, u bevosita va har kuni tegishli davlatning diplomatik faoliyatini amalga oshiradi, chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va delegatsiyalari bilan aloqada bo'ladi, ular bilan muzokaralar olib boradi, bitimlarning loyixalarini tayyorlaydi, davlatning xalqaro tashkilotlarga a'zoligidan kelib chiquvchi xizmat va aloqalarni amalga oshiradi, xalqaro diplomatik tadbir va uchrashuvlarda ishtirok etadi va hokazo.

Boshqa ba'zi-bir mamlakatlarda mazkur vazirlik o'zgacha nomlanadi: Masalan, Angliyada u – Forin-Offis, AQShda – davlat deportamenti, Argentina va Frantsiyada – Tashqi munosabatlar vazirligi, Shvettsiyada – siyosiy departament va hokazo, ammo ular qaysi nomda atalishidan qat'iy nazar, uning burch-vazifasi o'z davlati diplomatiyasi faoliyatini boshqarishni tashkil etadi.

2. Tashqi ko'rinishda tashqi siyosatni amalga oshirish vositasi diplomatiyadir.

Diplomatiya – davlat, hukumat boshliqlari va maxsus tashqi aloqa organlarining, davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini, shuningdek, chet

ellarda davlatning huquq va manfaatlarini himoyalashni amalga oshirishga qaratilgan rasmiy faoliyati. Diplomatiya – tashqi siyosatning, davlat xalqaro faoliyatining ajralmas qismi.

Diplomatiyada diplomatik vakolatxonalarining ikki shakli bo'lib, 1) doimiy diplomatik vakolatxonalar (elchilar, maxsus vakolatxonalar, miskiya) ko'rinishida bo'ladi; 2) muvaqqat vakolatxonalaridir.

Diplomatik munosabatlar o'rnatish, olib borish va ularni takomillashtirishning xalqaro huquq doirasida shakllanib amal qiladigan vosita-usullari mavjud bo'lib, ular orasida bevosita faoliyatni elchi bajaradi.

Elchi – hozir mustaqil davlatlarning boshqa mustaqil davlatlarda faoliyat olib boradigan vakilidir. Elchi lavozim eng oliy diplomatik lavozim hisoblanib, uning vakolatlari darajasini aniq belgilab qo'yish maqsadida elchi so'zidan oldin **"Favqulodda va muxtor"** atamalarini qo'shib aytiladi. "Favqulodda va muxtor" elchi lavozimiga tayinlash marosimi shu qadar masuliyatli xodisa hisoblanadiki – uni faqat davlat boshlig'igina yoki podsho tayinlaydilar.

U yoki bu sabablarga ko'ra (dam olish, betoblik, o'z davlati tomonidan maslahatlashgani chaqirib olganlik) elchi o'z vazifasini ado eta olmasa, o'rniga **"Muvaqqat ishlar vakili"** tayinlanadi va unga vaqtincha elchixona faoliyatini boshqarib turish vazifasi yuklatiladi. U elchiga nisbatan cheklangan huquq doirasida ish yuritish hamda kundalik diplomatik aloqalarni davom ettirish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Odatda yirik davlat elchixonasi quyidagi tuzilishga ega bo'ladi: Siyosat masalalari bo'yicha guruh; ichki siyosat masalalari bo'yicha guruh; matbuot bo'limi; konsullik bo'limi; xo'jalik bo'limi; elchixona kotibiyati; harbiy va harbiy dengiz attashesining mahkamasi.

O'zlariga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun elchixona hodimlari diplomatik imtiyozlar va daxlsizlik huquqlaridan foydalanadilar, elchixona egallab turgan joy esa daxlsiz hudud sifatida amal qiladi.

Agar elchixona o'zi joylashgan davlat miqyosida uni yuborgan davlat manfaatlarini muhofaza (etsa) qilish diplomatik aloqalarini olib borsa, mazkur

mamlakat hududida joylashgan iqtisodiy, savdo-tijorat, ilmiy-texnik, madaniy-ma’naviy jihatlardan muhim markazlari (shahar, tumanlari)da ochiladigan vakolatxona (konsullik) mana shu markaz doirasida o’z davlatining manfaatlarini yo’lida diplomatik burch-vazifalarni bajarib turadigan va uni rasmiy tayinlangan **konsul** boshqaradi.

Odatda u yoki bu davlatning bir necha yirik markazlarida konsulxonalar ochilsa, ular boshliqlarining biri **Bosh konsul** maqomiga ega bo’ladi.

Elchi va konsul lavozimlaridan keyin o’z martabasi darajasi jihatidan **“Diplomatik vakil”** lavozimi turadi. Vakil xorijiy davlatlarda ham xalqaro tashkilotlar yoki markazlarda ham doimiy yoki muvaqqat maqomda amaliy faoliyat olib boradi. Ayrim vaziyatlarda esa vakil o’zining tayinlangan lavozimi ahamiyati jihatidan elchi darajasidagi vazifalarni bajarishi mumkin. Masalan: BMTning Xavfsizlik Kengashi doimiy a’zolari bo’lgan AQSh, Angliya, Xitoy, Rossiya va Frantsiya.

Davlatlararo diplomatik munosabatlarning muhim belgilovchi shakllaridan biri **“Nota”**lar ayirboshlash amaliyotidir. Nota so’zi aslida “yozma belgi” ma’nosida tushuniladi. Notalar berish muhim xalqaro yoki o’zaro masalalari yuzasidan rasmiy murojatnomasini anglatadi.

Shuningdek notalar va boshqa rasmiy diplomatik hujjatlar **“Memorandum, Estalik xati”** yozma belgi bildirish ham bo’lishi mumkin.

Diplomatik aloqalar natijalarini rasmiylashtiradigan hujjatlarni tashqi siyosat tilida **“Bitm”** deb ataydilar.

Xalqaro siyosiy munosabatlar amaliyotida tayinlangan elchining boshqa davlat boshlig’iga o’zining **“ishonch yorlig’ini”** topshirishi shart. SHundan keyingina elchi va uning hodimlari **“Diplomatik daxlsizlik”** huquqiga ega bo’lgan holda o’z faoliyatini olib boradi.

Agar elchixona hodimlari o’z burchlarini mazkur davlatda xukm surayotgan tartiblar, qonun-qoidalar doirasidan chiqmasdan ado etib tursalar, ularni **“ma’qul shaxs” (persona grata)** sifatida baholab faoliyatini qo’llab-quvvatlaydilar.

Bordiyu ulardan birortasi, yoki biror guruhi o’zlari turgan mamlakat qonun-qoidalariga xilof xatti-harakatlar bilan qo’lga tushsalar yoki shu tarzda bayonotlar e’lon qilsalar, ular **“Noma’lum shaxs” (persona non grata)** sifatida diplomatik daxlsizlik huquqidan maxrum etilib, belgilangan muddatda mamlakatdan chiqarilib yuboriladilar.

Diplomatik vakolatxonalar ikki asosiy tur – **elchixonalar va maxsus vakolatxona (missiya)**lar ko’rinishida faoliyat olib borishlari mumkin. Ular o’rtasidagi farq, asosan diplomatik munosabatlarga kirishayotgan tomonlar yoki ularning biri egallab turgan geosiyosiy va geostrategik mavqega bog’liq.

Birinchi marta elchixonalar instituti XVII-XVIII asrlarda paydo bo’lgan. Hozirgi kunda elchixonalarning huquqiy holatini aniqlovchi xalqaro huquqiy qoidalar “Diplomatik aloqalar haqidagi 1961 yil Vena konferentsiyasi”da jamlangan.

13.3. Xalqaro tartibda tizim yaratuvchi, tizim parchalovchi jarayonlar va tendentsiyalar.

Xalqaro tizimda va xalqaro siyosatda organi ravishda bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ikki xil umumiy qonuniyatlar mavjud:

1. Bir xalqaro tizimga xos bo’lgan tendentsiyalar va ulardan kelib chiqadigan ijobiy yokt salbiy natijalar ikkinchi bir tizimga u yoki bu darajada xos bo’ladi yoki xalqaro siyosat tufayli unga ta’sir ko’rsatadi.

2. Xalqaro tizimdagi mintaqaviy, iqlimiy, tsivilizatsion va qadriyatlarga xos bo’lgan munosabatlar bilan bog’liq bu jihatlar ham bu jarayonda shunchaki passiv ta’sir etmasdan, unga ma’lum ma’noda ta’sir kuchini o’tkazish salohiyatiga, imkoniyatiga ega bo’lishi mumkin.

Ushbu umumiy qonuniyatning harakat mexanizimini kuzatish uchun mavjud xalqaro tizimning zamon va makon nuqtai nazaridan hozirgi holatini olib ko’raylik. Albatta, bu uning bugungi holatiga nisbatan aytiladigan fikr va mulohazalar oxirgi haqiqat degan fikrni bildirmaydi. Zotan, xalqaro tizim, birinchidan, muttasil takomillashib borsa, ikkinchidan, unga to’xtovsiz o’zgarish holati xosdir. Lekin har holda uning bugungi holatiga munosabat bildirish, bugungi

parametr va tendentsiyalarning ayrimlarini kelajakda ham nazarda tutish lozimligi alohida ahamiyatga ega.

Ta’kidlangandek, xalqaro tartibot tizim sifatida bir-biriga qarama-qarshi ikki jarayon ta’siri ostida shakllanadi. Ulardan biri tizim parchalovchi vazifasini bajarsa, ikkinchisi tizim yaratuvchilik, ya’ni mustahkamlashga xizmat qilishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

1) Ayrim siyosiy guruhlar, kuchlar va davlatlar tomonidan xalqaro tartibot taqdiriga, uning bag’rida sodir bo’layotgan turli-tuman salbiy siljishi jarayonlariga nisbatan befarqlik, mensimaslikning hamda o’z xavfsizligini xalqaro xavfsizlik manfaatlariga qarshi qo’yish kayfiyatining kuchayib borishi.

2) Xalqaro siyosatning nufuzli ishtirokchilari tomonidan turli mintaqalarda mavjud va tobora adovat olayotgan mojaroli hodisalarga ko’ra befarqlikka nisbatan ayrim mamlakatlar, millatlarning muqobil reaktsiya oqibatida paydo bo’layotgan salbiy jarayonlar.

3) Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, millatchilik, separatizm va uyushgan jinoyatchilik singari xavfli jarayonlarning kuchayishi, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarning talab darajasida emsligi.

4) Xatarli o’zgarishlar, jarayonlar va noinsoniy rejalarning oldini olishga qaratilgan xalqaro siyosiy institutlarning taqchilligi, mavjudlarining ham uslubiy va hodisalarga zudlik bilan e’tibor qaratish zarurati nuqtai nazaridan davr talabidan intilish.

5) Xalqaro tartibotda noqonuniy, nopok yo’l bilan hukmronlikni yakka-yolg’iz qo’lga kiritishga intilish.

6) Uzoq yillar davomida dunyoda tinchlikni saqlash ishiga samarali xizmat qilib kelayotgan xalqaro tashkilot va vositalargi ayrim qudratli davlatlar tomonidan o’z izmiga bo’ysindirishga bo’lgan moyillikning zo’rayishi.

7) Bir guruh davlatlar qadriyatlarni sayyoramizda istiqomat qilayotgan boshqa xalqlarning yashash tarzi va mentalitetidan ustun deb hisoblash va bu borada amaliy ishlarning kuchayib borishi.

8) Turli - tuman xalqaro, mintaqaviy muammolarni ro'kach qilgani holda, o'z harbiy salohiyatini butun dunyo oldida namoyish qilishga bo'lgan intilish ko'lamining kengayib borishi.

Tajriba va kuzatishlar ko'rsatibturibdiki, yuqorida o'z aksini topgan asosiy salbiy jihatlarga o'laroq muqobil, ya'ni umidbaxsh jarayonlar ham mavjud. **Umumiy ma'noda ular quyidagilardan iborat:**

1) nufuzli siyosiy va ilmiy amaliy doiralar hamda xalqaro jamoatchilikda dunyo xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyot manfaatlariga tubdan zid bo'lgan jarayonlarning tahdidli tus olayotganligidan tashvishlanish ya'ni ular to'g'risida haq so'zni aytishga bo'lgan azmu-qarorning mustahkamlanishi;

2) xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va banditizm bilan kurashning dolzarb siyosiy va amaliy vazifasi ekanligining deyarli dunyodagi barcha davlatlar tomonidan anglab etilayotgani;

3) ayrim davlatlar tomonidan o'z xususiy manfaatlarini ta'minlash maqsadida xususiy muhofaza chora-tadbirlarni ishlab chiqarishga intilish, milliy xavfsizligini boshqa davlatlar, qolaversa sayyoramizning xavfsizlikka rahna solish hisobiga ta'minlanishiga erishishga intilish hamda konkret muqobil chora-tadbirlar ishlab chiqishdan voz kechish jarayonining boshlanishi;

4) qurollanish poygasining qaytadan, yangi asosda yo'lga qo'yilish xavfining oshib borayotganligi hamda xavfsizlik "riski"ning zo'rayishiga nisbatan aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishga intilishning oshib borishi;

5) mintaqaviy xavfsizlikdan xalqaro xavfsizlik sari o'tish zarurligini anglab etish;

6) xalqaro hamkorlikning xavfsizlik, barqarorlik, taraqqiyot va o'zaro ishonchni mutahkamlashning birdan-bir samarali yo'li ekanligini tan olishga erishishish g'ham bu borada aniq amaliy tadbirlarning ko'rilayotganligi.

XXI asrda ham demokratik davlatlarinng o'zaro tinch munosabatlaridagi qonuniyat buzilmasada, unda hozir dunyoda ro'y berayotgan demokratiyaning kengayishi dunyo global xududining ham kengayishini anglatadi. Ehtimol, yangi

shakllanayotgan xalqaror munosabatlar tizimining Vestfal tizimidan birinchi va asosiy farqi aynan ana shundadir.

Global miqyosda demokratiya va avtoritarizm o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi amerikalik tadqiqotchi F.Fukuyamaning demokratiya g'alabasini ovoza qilishga hamda shu ma'noda tarixiy formatsiyalar o'rtasidagi kurash sifatida "tarixning yakunlanganligi" to'g'risida e'lon qilishga asos bo'lib xizmat qildi. Biroq, demokratiyaning keng miqyosda yoyilib borayotganligi uning to'liq g'alabasi degan emas. Kommunizm biroz o'zgartirilgan ko'rinishda bo'lsada, Xitoy, Vetnam, SHimoliy Koreya, Laos, Kubada saqlanib qolindi, uning izlarini sobiq Ittifoqning ayrim davlatlarida, Serbiyada sezish mumkin.

Hoirgi kunda dunyoda avtoritar tuzumdagi bir qancha davlatlar mavjud. Bular orasida alohida o'rinni ekstremistik mazmundagi "islomiy" mamlakatlar – Eron, Sudan, Afg'oniston egallaydi. "Islom fundamentalizmi" nomi bilan ataluvchi islom ekstremizmi xalqaro siyosiy harakati dunyo siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazish uchun imkon bermoqda.

G'arb demokratiyasini inkor etuvchi hamda zo'ravonlikka yo'l qo'yuvchi ushbu mafkuraviy oqim so'ngi yillarda Yaqin Sharqning ko'pgina mamlakatlari aholisi va musulmon aholisi ko'p bo'lgan boshqa davlatlarda keng tarqalgan.

Demokratik davlatlar bilan g'hamkorlik qilishga intilayotgan kommunistik tuzumdagi davlatlardan farqli o'laroq, islom siyosiy ekstremizmi Saudiya Arabistoni, Fors ko'rfazi mamlakatlari, Pokiston, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligiga katta xavf tug'dirmoqda.

Albatta, xalqaro munosabatlarning kelgisidagi rivojini tadqiq etishda demokratiya o'rtasidagi munosabatlar qonuniyatlarini, demokratiyaning avtoritar tuzimlarga ta'sirini yaxshilab tahlil qilish lozim.

13.4. Yangi jahon tartiboti: buguni va istiqboli.

Insoniyat jamiyati taraqqiyoti g’oyasi, uning ijtimoiy rivojlantirish bosqichi tomon yanada yuqorilab borish ijtimoiy ongda bir necha yuz yillar oldin tarkib topgan. Taraqqiyot ob’ektiv qonuniyat bo’lib, uning asosida ishlab chiqirish kuchlarini rivojlantirish, avvalo uning asosida hisoblangan inson yotadi.

Taraqqiyot xaqiqiy voqelik ekanligini insoniyatning ming yillik tarixi isbotladi. Jamiyat o’zining eng ilk bosqichida u nimani aks ettirgan? Ozchilikni tashkil etgan odamlarning dastlabki guruhlari o’zlariga faoliyat olib borganlar. Keyinchalik, mehnat qurollarining takomillashuvi, tajribaning ortishi, o’zi va tabiat haqidagi bilimlarni o’zlashtirish tufayli, inson o’z kelajagining mustaqil ijodkori bo’lishi uchun sharoit yaratdi. Bu yo’l murakkab va ziddiyatli bo’lgan. Bosilgan har bir qadam murakkab kechgan. Kelajak tomon harakat o’z ichiga inqirozli va turg’unlik deb atalgan bir necha o’nlab yillarni olgan. Rivojlanish bir tekisda bormagan. Ayni bir bosqichda ayrim xalqlar, taraqqiyotida oldinga ketgan bo’lsalar, boshqalarda bu taraqqiyot sekinlashgan. Umuman aytganda, taraqqiyot insoniyatni tarixiy narvon bosqichidan yuqoriga ko’targan.

Ta’kidlab o’tilgandek, ijtimoiy taraqqiyot asosida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi yotadi. Insoniyatning butun tarixi bu uning takomillashishi tarixidir. Oddiy tosh mehnat qurollari bronza, keyinchalik esa temir qurollari bilan almashgan. Iste’mol mahsulotlari bilan ta’minlash vositasi bo’lgan ovchilik va to’plovchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan almashdi. Tabiatbdan tortish kuchi sifatida keng foydalanish, keyinchalik tabiiy energiya-bug’, elektr quvvati va hokazolar asosida harakat qiluvchi mexanik moslamalar insonning jismoniy intilishlarini ancha engillashtirdi. Bilim doirasining doim o’sib borishi va insoning bilimga bo’lgan qobiliyati to’plangan axborotlarni uzatish tizimini takomillashtirish zaruriyatini uyg’otdi. So’ng, ta’lim tizimi, kitob bosish, ko’p yillar o’tgandan so’ng esa zamonaviy ommaviy aloqa yo’li vositalari keldi.

Shubxasiz juda sekinlik bilan bo’lsada odamlarning o’zlari o’zgarganlar. Hali ham XX asrning oxirida er yuzining ba’zi qismida yashayotgan odamlar guruhi o’z o’tmish ajdodlarining bilimi, qobiliyati va turmush tarzidan uzoqqa

ketmaganlar. Shunga qaramay, sayyoramizda yashagan, yashayotgan o’tmishda va hozirgi aholini solishtirsak, ular o’rtasidagi masofa ulkan ekanligi ko’zga tashlanadi.

Shuningdek, faqat ishlab chiqaruvchi kuchlarning o’zi rivojlanmaydi. Ketma-ket uning orqasida ijtimoiy munosabatlar ham o’zgara boradi. Ijtimoiy jarayon shunday ifodalanganki, odamlar o’rtasidagi munosabatlarni yanada takomillashish tomon rivojlangan. Urug’ jamoa tuzumi jamiyat taraqqiyotining ibtidoiy bosqichini aks ettirgan bo’lib, u o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan – quldorlikka o’rin bo’shatdi; quldorlik feodalizmga, feodalizm esa kapitalizm bilan almashadi. O’zgaruvchan jamiyat ijtimoiy tashkiloti bilan o’zaro chuqur aloqada siyosiy tizimida rivojlanish yuz berdi. Ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvi, siyosiy usqurma sohasi faoliyatining kengayishi, fuqarolik jamiyati bilan xilma-xil aloqalarning rivojlanish, uning oldiga yangidan-yangi va tobora murakkab vazifalarni qo’ydi. Uni hal etish maqsadida siyosiy faoliyatga keng kishilar guruhi jalb etildi, siyosiy tizimda demokratiyalash jarayoni yuz berdi. “Demokratiya” degan tushunchaning o’zi qadimgi dunyoda yuzaga kelgan. U avtokratik mustabid boshqaruv usulidan farq qilgan holda erkin ozchilikni tashkil etgan mulkdorlar guruhini jamiyat siyosiy muammolarni xal etishda qatnashishini anglatgan. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonida “demokratiya” tushunchasining mazmuni o’zgargan. Feodal jamiyati demokratiyasi rasm-rusumlarining darajasi haqida gapirganda – feodal jamiyati hukmron sinfi – dvoryanlarining siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini nazarda tutiladi.

XVII-XIX asrlardagi burjua revolyutsiyalari burjua demokratiyasiga yo’l ochib, u dastlab mulkdorlar uchun demokratiya hisoblangan bo’lsa, keyinchalik mehnatkashlarning uzoq yillar davomidagi matonatli kurash natijasida u keng xarakterni kasb etgan.

Siyosiy tizimdagi rivojlanish doimo ijtimoiy tuzum taraqqiyoti yo’lidan bormagan. Quldorlik demokratiyasi feodal avtokratiyasi bilan almashish mumkin bo’lgan, feodal tuzumi ag’darib tashlash esa ba’zan burjua ijtimoiy tuzumiga suyangan mustabid tartibotni o’rnatishga olib kelgan. Shunga qaramay

demokratiya me’yorlarining mustahkamlanishi va kengayishi kabi jarayon o’ziga yo’l ochib borgan.

Madaniyat sohasida taraqqiyot esa ancha murakkab ko’chgan. Keng ma’noda aytiladigan bo’lsa madaniyati – jamiyatning, xalqning, ijtimoiy guruhning moddiy va ma’naviy, intelektual (aqliy) va xis-tuyg’ularining umumlashtirishdir. San’at va adabiyotdan bo’lak u turmush tarzini, qadriyatlar va urf-odatlarni ham o’z ichiga oladi. Madaniyat odamning uni o’rab turgan dunyoda yuz berayotgan jarayonlarni anglashga, o’zi va o’ziga o’xshaganlarni tahlil etish uchun bo’lgan qobiliyatni aks ettiradi. Aynan ana shu uni insoniy, idrokli, tanqidiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Madaniyat orqali inson o’zini anglaydi, o’zining yutuqlariga realistik baho beradi, yashash mazmunini tinimsiz izlaydi va uni aks ettiruvchi asarlarni yaratdi. Madaniyatni taraqqiy ettirish nuqtai-nazaridan ikkita asosiy tarkibiy bo’lakni ajratib ko’rsatish mumkin. Birinchisi – ishlab chiqarish bosqichlari, ijtimoiy munosabatlar va siyosiy tizim, ular bilan birgalikda yoki yonma-yon rivojlanish. Ikkinchisi – nisbatan mustaqillikni o’zida yuqori darajada aks ettirgan adabiyot va san’at.

Adabiyot va san’atning yuqori darajaga erishuvi vaqti va uning vujudga kelishining ijtimoiy sharoitlari bilan qat’iy chegaralanmagan. Mashxur Fidiya va Praksitelning asarlari, Gomer poemasi, Alisher Navoiyning poetik asarlari, mashxur tibbiyotshunos Abu ali Ibn Sino, rassom Leonardo do Vinchi, Rafael, Bexzod asarlari keyingi davrlarda boshqa ijtimoiy tizimlarda yaratiladigan sifat jihatdan afzal bo’lsa borki, ulardan aslo qolishmaydi. San’at sohasidagi taraqqiyot yomondan yaxshiga tomon rivojlanish emas. Uning mazmuni boshqada – badiiy obrazlarning rang-barang tasviri yangilikka tomon rivojlanishga, alohida turli qatlamlari qalbiga kirib borish madaniyatining demokratiyatlashuvi va insonparvarlashuvi bilan xarakterlangan.

Insoniyatning taraqqiyot yo’lidan rivojlanishi qanday sodir bo’lmoqda? Atrof-muhit bilan muloqatda o’zining mavjudligi muammolarini hal etishda (jonsiz tabiat va biosfera bilan) inson, aqlli mavjudot sifatida mehnat qurollarini va o’zini takomillashtiradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari dialektikasiga muvofiq har bir tarixiy davrdagi g’oya va amaliyot taraqqiyoti o’zining spetsifik, aniq-tarixiy mazmuni bilan boyitilib ushbu davr ijtimoiy asosida ziddiyatini belgilaydi. Bunday ziddiyatni bartaraf etish (shubxasiz, agar jamiyat turg’unlik holatida bo’lmasa) tarixiy jarayonning asosiy yo’nalishini belgilaydi.

Asosiy ziddiyatlar bilan bir qatorda jamiyatda asosiy bo’lmagan boshqa ziddiyatlar ham jamlanadi. Uning mavjud jamiyat uchun keskinligi ayrim holatlarda og’ir ko’chishi mumkin. Uning sababi shuki, borliqning har bir kesimida jamiyatda hozirgi zamon, kelajak va o’tmishi bir vaqtda mavjud bo’ladi. Insoniyat oldinga qadam tashlagan sari har bir aniq bosqichda tarixiy meros jamlanadi. U jamiyatda qaror topgan ijtimoiy tuzilmaga ham, siyosiy kuchlarning joylashuviga ham qadriyatlar tizimiga ham o’z tamg’asini bosadi. SHu jihatdan asosiy bo’lgan ziddiyatlarni asosiyga nisbatan bartaraf etishga bo’lgan extiyoj qarama-qarshilik, hozirgi zamon va o’tmish o’rtasidagi to’qnashuvlar orqali siqib chiqarilishi holatiga duch kelishi mumkin.

Tabiiy, bu mavjud jamiyatdagi asosiy, belgilovchi ziddiyatning yo’li, shakli va darajasiga ta’sir etishi mumkin va ta’sir etadi ham.

Dunyoviy demokratik tartib – insoniyatning azaliy orzusi. Ko’plab loyiha va falsafiy asarlar unga bag’ishlangan. Bunday tartibotning u yoki bu elementlarini sotsial revolyutsiyalar o’z bayroqlariga shior qilib olganlar. 1776 yilda qabul qilingan Amerika Deklaratsiyasi xalqning o’z taqdirini o’zi belgilash va mustabid hukumatni ag’darib tashlash huquqini tasdiqladi. Frantsiya revolyutsiyasi 1789 yilda inson va fuqaro huquqi haqida tarixiy Deklaratsiyani qabul qildi, Konstitutsion yo’l bilan “har qanday xalq ozodligiga nisbatan” qurolli kuch ishlatmaslikni mustahkamladi.

1917 yilda Rossiyada qabul qilingan tinchlik haqidagi Dekretda adolatli, demokratik tinchlik kontseptsiyasi mukammal o’z aksini topgan. Dekret jahon urushini tinch yo’l bilan bartaraf etishga bag’ishlangan. Unda bosib olishga qaratilgan urushlar “insoniyatga qarshi katta jinoyat” deb e’lon qilingan.

Dunyo turli sharoitlarda yashovchi xalqlar uchun adolatli bo’lishi, u xalqaro miqyosida ham, milliy jihatdan ham demokratik bo’lishi kerak. U dunyodagi hamma xalqlar yoki millatlar vakillarining ishtirokida o’rnatiladi. Uning shartlari butun dunyo xalqlari vakillarining vakolatli anjumani tomonidan qat’iy tasdiqlanishi zarur.

Ayniqsa davlatlarni xalqaro va ichki nuqtai nazardan demokratiyalashning zarurligi demokratiyaga qarshi davlatlar tomonidan boshlab yuborilgan ikkinchi jahon urushidan keyin muhim ahamiyat kasb etdi. Bunday sharoitda xalqaro demokratik tartibot g’oyasi cheklangan doirada bo’lsada BMT Ustavida o’z aksini topdi. Kelajak avlodni urush girdobidan holi etish markaziy masala deb belgilab qo’yildi. Shunisi muhimki, bu masala inson huquqlari, katta va kichik millatlar keng huquqliligini o’rnatish bilan bog’liq ekanligi e’tirof etildi. Shuning o’zidayoq mamlakat ichida va xalqaro maydonda urush va demokratiya o’rtasidagi aloqa yaqqol ko’zga tashlanib turibdi. BMT Ustavi faqat maqsadnigina emas, balki xalqaro demokratik tartibotning asosiy printsiplarini belgiladi.

Ustav qabul qilinganidan so’ng boshlangan “sovuq urush” bu maqsad va printsiplarni amalga oshirishda jiddiy to’siq bo’lib qoldi. SHunga qaramay bunday vaziyatda ham demokratik institutlar va tamoyillarning rivojlanish jarayoni to’xtab qolgani yo’q. Davlatlar o’rtasidagi munosabatlarning markazi sifatida BMTning muassasa tizimi rivojlanishida davom etdi. Inson huquqlari institutining tashkil etilishi noyob ahamiyatga ega bo’ldi. Inson erkinliklari va huquqlarining o’ziga xos xalqaro majmuasi yaratildi. Rossiya va sobiq sotsialistik davlatlar tomonidan bu qonun to’plamining qabul qilinishi ularning ijtimoiy-siyosiy tuzumida, uni demokratiyalashda o’zgarishlarga olib keldi.

“Sovuq urush”ning tugashi bilan yangicha dunyo demokratik tartibotning qaror topishi zarurligini talab etuvchi omillar namoyon bo’la boshladi. Hamma tabiiy va ijtimoiy muammolar ko’pchilik davlatlarning birgalikdagi intilishlari orqali hal etilishi mumkin bo’ldi.

Tarixiy tajriba tasdiqlaganidek, hattoki ko’pchilik bo’lmagan davlatlar o’rtasida o’zaro munosabatlarni o’rnatish osonlik bilan ko’chmagan. Davlatlar soni

200ga yetgan davrda vazifa yanada murakkablashdi. Bunday vaziyatda demokratiyaning zaruriy sharti bo'lib qat'iy tartib, intizomlik va ularning javobgarligi shubxasiz muhim hisoblanadi. Yangi jahon tartiboti asosida avvalom bor huquqning ustivorligi, davlatlar tomonidan ozodlik va adolatlilikni tan olish, ayniqsa ojizlar huquqlarini hurmat qilish ahamiyat kasb etadi.

Demokratizim tamoyillarining mazmunini aniqlash – bu ishning bir tomoni. Uni amalga oshirish uchun ham murakkab vazifa. Demokratiya niqobi ostida qonunga xilof harakatlarni qilish uchun intilish borasida ko'pgina urinishlar bo'lgan. Reygannnig harbiy siyosatini (doktrinasini) esga olish kifoya. Ushbu siyosatga asoslangan holda AQSh ma'muriyati uningcha demokratik bo'lmagan davlatlar va hukumatlarga qarshi bir tomonlama kuch ishlatish huquqini o'ziga o'zlashtirgan. Ana shunday xatti-harakat Grenada, Panama, Nikaraguaga nisbatan bo'lgan edi. Xalqaro hamjamiyatning unga bo'lgan munosabati taqsinga loyiq. AQShning Nikaraguaga nisbatan tutgan siyosati xalqaro sud tomonidan qoralangan edi. Bu voqea – mislsiz hodisa.

Demokratizim printsiplarining qaror topishi dunyo tartibotini rivojlantirishga yangi bosqich hisoblanadi. Printsipning xaqqoniyligi ma'lum mehanizmi yuzaga keltirishni yana bir bor demokratik asoslarda, ishonchli huquq tartibotga va davlatlarning kollektiv javobgarligiga asoslanishi kerak. Dunyoning biror qismida yuz bergan salbiy hodisa uni falokat yoqasiga olib kelishi mumkin. U demokratik tartibot bilan chiqisha olmaydi, shuning uchun siyosiy, iqtisodiy, milliy, irqiy xudbinlikka to'siq qo'yish kerak.

Hamma narsani qilish mumkin, deb hisoblangan tamoyil o'rniga endilikda javobgarlik, avvalom bor urush muammosini xal etishda hammaning va har bir kishining javobgarligi, har bir davlatning xavfsizligini ta'minlash uchun javobgarlik tamoyili o'rin almashmoqda.

Xalqaro hamjamiyatning va alohida olingan har bir davlatning dunyo hamjamiyati oldidigi javobgarligi oshmoqda. Bu dunyo xalqlari siyosiy ongining o'sganligidan dalolatdir. Shunga qaramay ommaviy axborot vositalari huquqiy bilimlarni o'z matbuot sahifalarida, radio, televidenie orqali keng tashviqot

qilishlari zarur. Xalqaro huquqning o'n yilligi munosabati bilan BMT Bosh Assambleyasi qabul qilgan rezolyutsiyada asosiy vazifa qilib xalqaro huquqiy bilimlarni tarqatish lozimligi belgilandi.

Shunday qilib, insoniyat oldida uning omon qolishi va progressiv rivojlanishini ta'minlashga qodir bo'lgan yangi jahon tartibotini yaratish kabi tarixiy vazifa ko'ndalang turibdi.

U adolatlilik tamoyiliga va demokratiyaga davlatning ijtimoiy-siyosiy tizimlari tamoyillariga asoslangan tartibot bo'lishi mumkin. Tarixiy tajriba, demokratiya ham xalqaro, ham milliy tizimlarni rivojlantirishni to'g'ri yo'li ekanligi haqida extiroslar qoldirmaydi.

Jahon xalqlari ya'ni ming yillikka qadam qo'ydilar. "Ular o'z kelajagining porloq istiqbolli bo'lishini istaydilar. Jahon miqyosidagi mafkuraviy qarama-qarshiliklarning ag'dar-to'ntarlari o'tmishida qolyapti. Xalqlarning tinchligi, hamkorligi, o'zaro xavfsizligidan boshqa yo'l yo'q ekaniga qat'iy ishonch ortib boryapti. O'zbekiston jahon hamjamiyatining mushtarak manfaatlari bilan uzviy bog'liq holda uning zamonaviy rivojlanish darajasiga xos bo'lgan chuqur demokratik jarayonlar o'zanida ustivor milliy maqsadlarga erishish sari bormoqda. O'zbek xalqini insoniyatning yagona oilasida oson bo'lmagan, ammo buyuk kelajak ketayotganligiga uning ishonchi komil".[1]

Qisqacha xulosa.

Xalqaro tizim va uning tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlar ma'rifiylik tomon yuz tutmoqda. Hozirgi xalqaro munosabatlar, ularning rivojlanishidagi ma'lum ziddiyatlarga qaramasdan o'zaro bog'liqlik, yaxlit dunyo haqidagi mushtarak qarashlar xalqaro siyosatda toboro yetakchi o'rinni egallab bormoqda.

Davlatlar paydo bo'libdiki ular o'z siyosatini ichki va tashqi sohalarda amalga oshiradi. ichki va tashqi siyosat umumiy va alohidalik xususiyatga ega. Har qanday mamlakat ichki siyosati tashqi siyosatda o'z ifodasini topadi. Ichki siyosatning samaradorligi siyosiy hokimiyatning qanday kuchlar tomonidan amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

[1] Karimov I.A.."Bizdan ozod va obod vatan qolsin". -T.: "O'zbekiston", 1994, 149 b.

Xalqaro siyosatning shaklalnishi hamda amal qilishi jarayonlarida xalqaro tashkilotlarning o’rni va ahamiyati kattadir.

Biz yashab turgan hozirgi davrda xalqaro siyosat mohiyatini umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlar ustunligi belgilayotgan sharoitda ularning ahamiyatini yanada ortib borishi ob’ektiv qonuniyat kuchiga ega bo’lib borayotganligidan dalolat beradi.

Tayanch so’zlar.

Xalqaro munosabatlar, xalqaro tuzim, xalqaro siyosat, ichki siyosat, davlatlarning tashqi siyosati, diplomatiya, xalqaro tashkilotlar, O’zbekiston xalqaro munosabatlar sub’ekti.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Hozirgi xalqaro munosabatlarning mohiyati va mazmuni qanday?
2. Siyosat va siyosiy faoliyat, siyosiy munosabatlarning tashkil topishi va rivojlanishida qanday rol o’ynaydi?
3. Siyosiy tizim nima?
4. Xalqaro siyosatning vujudga kelish tarixi qanday?
5. Jahon siyosatining ajralmas bo’lak, qismlari qaysilar?
6. Nima uchun ichki siyosat – tashqi siyosatning pofdevori hisoblanadi?
7. Davlatlarning tashqi siyosati: mohiyati, vazifalari qanday?
8. XXI asr jahon davlatlari tashqi siyosatidagi asosiy yo’nalishlar.
9. Diplomatiya – tashqi siyosatni amalga oshirish vositasi ekanligi.
10. Siyosiy munosabatlarda xalqaro tashkilotlarning o’rni va roli qanday?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:“O’zbekiston”, 2009. 6-b.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: “O’zbekiston”, 1997. 3-19, 296-324 - b.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezident I. Karimovning BMT Bosh Assemblyasida so’zlagan nutqi – fidokor, 2000, 12 sentyayur.

4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. -T.: “O’zbekiston”. 2009, 4-40 b.
5. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politlogiya. O’quv qo’llanma. -T.: TDYUI, 2006, 229-244 - b.
6. Aliev B. Boboev A. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. -T.: TDIU, 2006, 161-165- b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik.-M.:INFRA-M. 2007. 274-289 - b.
8. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. -M.: Prospekt, 2008. 513-522 - b.
9. X.T.Odilqoriev, D.X.Razzaqov. Siyosatshunoslik. “O’qituvchi” nashriyoti. 2008, 259-278 - b.
10. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 474-498-b.

14-MAVZU: XALQARO TERRORIZM.

14.1. Hozirgi zamon taraqqiyoti va terrorizm hamda xalqaro terrorizmning insoniyat hayotiga tahdidi, uning klassik va zamonaviy ko’rinishlari.

Terrorizmning –tarixi uzun. Insoniyat tarixi kabi u doim sivilizatsiya va taraqqiyotning kushandasi sifatida maydonga chiqqan. Zamonlar o’tgan sayin tobora qabixlashib, tobora makkorona tus olib borgan.

Terrorizm – lotin tilida “qo’rquv”, “daxshat” ma’nolarini ifodalaydi.

Oddiygina aytganda, terror – insonlarda qo’rquv uyg’otish, ularni daxshatga solish orqali birorbir maqsadga erishishni anglatadi.

U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g’oyaviy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo’lishi mumkin. Ta’qib, zo’ravonlik, qo’poruvchilik va qotillik terrorchilikning har qanday kurinishi uchun umumiy xususiyat bo’lib, u gumanizm, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun terrorizm qanday “bayroq” ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. Iqtisodiy manfaatlarni ko’zlovchi va moddiy

boyliklarni o’zlashtirishni maqsab qilib olgan terrorchilik harakatlari keng tarqalgan. Unda raqiblarini yoki ularning yaqinlarini jismoniy yo’q qilish, o’g’irlarb ketish, zo’ravonlik, tajovuz bilan qo’rqitib, o’z hukmini o’tkazishga urinish, boyliklarini o’zlashtirib olish usullaridan keng foydalaniladi. Terrorizm kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida sodir bo’lgan va bo’ladigan noyob xodisadir. Masalan, diniy mazmundagi terrorchilik (Zardushtning o’ldirilishi), siyosiy terrorizm Sezerning o’ldirilishi va hokazolar shular jumlasidandir. Hukmron millatning manfaatlarigina hisobga olinib, qolgan barcha kichik etnik guruhlarning milliy extiyojlari inobatga olinmasdan o’tkaziladigan tazyiq siyosati milliy terrorizmni keltirib chiqarsa, muayyan sinflarning manfaatlari va irodasi qonun darajasiga ko’tarilib, boshqa har qanday ijtimoiy guruhlar manfaatlari inkor etiladigan jamiyatlardagi siyosat esa sinfiy terror siyosatining alohida ko’rinishi sifatida namoyon bo’ladi. Terrorizm qanday bayroq ko’tarib chiqmasin, qanday shiorlar bilan niqoblanmasin, uning reaktsion, jinoyatkorona mohiyatini farqlab olish, yovuz niyatni ochib tashlash ongli, xurfikrli insonning, har bir vatanparvar fuqaroning burchidir.

Terrorizm o’ta salbiy ijtimoiy xodisa sifatida u yoki bu ko’rinishda qadim-qadimdan ma’lum. Qizig’i shundaki, o’z oldiga qo’yilgan maqsadlarga erishish mumkin emasligini hisobga olgan terroristlar tarixning barcha davrlarida qaysi mintaqa yoki mamlakat hududida faoliyat ko’rsatiladigan qat’iy nazar har doim xalq ommasining ayrim qatlam va guruhlarini “yo’ldan urish”, turli yo’llar bilan ular qalbiga yo’l topish taktikasiga amal qilib kelganlar. Terrorchilik o’ta salbiy ijtimoiy xodisa sifatida necha asrlar davomida faoliyat yuritib kelayotgan bo’lsa, har doim xalq nomidan chiqarish, uning manfaatlarini aks ettiruvchi “haqqoniy xalqparvar” harakat deb o’zini ta’riflash amaliyoti uning barcha ko’rinishlariga xos xususiyat bo’lib qolaveradi.

Terrorizmnig bugungi holatiga keladigan bo’lsak shuni alohida ta’kidlash lozimki, o’zining bir necha asrlar davomida sinovdan o’tgan aholining ayrim qismi ongini zaharlash yo’li bilan hokimiyatni qo’lga kiritish amaliyotiga sodiq qolgan holda davrlar o’tishi bilan uning o’z kurash shakli, usullari va vositalarini ustalik

bilan o’zlashtirib kelganligini guvohi bo’lamiz. Masalan, bir zamonlar terrorchilar planetamizning turli joylarida alohida-alohida, ya’ni bir-biridan tamoman ajralgan holda harakat qilgan bo’lsalar, bugungi XXI asr boshlarida ular o’z “faoliyatini” mintaqaviy, xattoki sayyoraviy darajada muvofiqlashtirish imkoniyatini qo’lga kiritilayotganligini kuzatish mumkin.

Terrorizmning o’ta xavfi xalqaro siyosiy xodisaga aylanayotganligi to’g’risida so’z borar ekan, uning asosiy sabablari quyidagi ob’ektiv umumsayyoraviy ijtimoiy siljishlar bilan belgilanayotganligini guvohi bo’lamiz: avvalo asosiy sabablardan biri XX asrning oxirgi o’n yilligida deyarli butun dunyoda terror yo’li bilan aholini tushkunlikda saqlash, uning ustidan hukmronlik qilish amaliyotiga betamol zid bo’lgan demokratiyaning keng yoyilib borishi, ya’ni aksariyat mamlakatlarda siyosiy hokimiyat xalq xohish-irodasining ifodasi bo’lgan tamoyilni ustivorlik kasb etayotganligi bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi asosiy sabab siyosat, iqtisod, ijtimoiy soha va madaniyatning turli jabhalarida odamlarning ongi, dunyoqarashi va tafakkuriga hamda mo’ljal va rejalarga salbiy ta’sir qiluvchi, xatto uning izdan chiqaruvchi jarayonlari kuchayishi o’z siyosiy maqsadlarini amalga oshirishning eng jirkanch yo’llarini ahtarib yurgan guruhlar, shuningdek, birinchi navbatda terrorchi guruhlar uchun noyob “siyosiy-ruhiy makon” yaratilishiga borib taqaladi.

Yana qaytaramiz, terrorizm – bugungi kunda paydo bo’lgan xodisa emas. Biroq o’tmishda sodir etilgan terrorchilik harakatlarini hozirgi terror bilan solishtirib bo’lmaydi. Avvalo, o’tmishda terror bir kishiga qaratilgan va uni amalga oshirish nixoyatda murakkab bo’lgan. Bunda ko’pincha qirollar, monarxlarga suiqasd uyushtirilgan. Masalan, 1605 yilda Gay Foks ismli terrorchi Britaniya qiroli Jeyms va parlamentni yo’q qilish uchun portlovchi modda bilan to’ldirilgan 29 ta bochkani er ostiga ko’mgan. Bugungi kunning “Gay Foks”lari esa kichkinagina hamyoniga sig’adigan portlovchi bilan cheklanadilar. Afsuski portlovchi moddani tayyorlash usullarini Internet sahifalaridan osongina topish mumkin. Tan olish kerak, biz yashayotgan dunyoda bu kabi ma’lumotni yovuz kuchlar qo’liga tushushidan asrash imkoniyatlari murakkab.

Dushmanni yengish uchun yaxshilab o’rganish kerak. Shunday ekan, terrorizmni butkul tugatish uchun uning jirkanch basharasini ochib tashlash lozim.

Terror tobora shafqatsiz va dahshatli tus olib bormoqda. Bunda terrorchilar “Maqsad vositalarni oqlaydi” matniga amal qiladilar. Ma’lumotlarga ko’ra terror qanchalik dahshatli tusga ega bo’lsa, yovuz kuchlar uni shunchalik yuqori baholaydilar. Ikkinchidan, ilgari terror raqibi yoki dushmanini jismonan yo’q qilishga qaratilgan bo’lsa, bugun terror odam tanlamayapti. Uchinchidan, terror nihoyatda yashirin, katta tayyorgarlik bilan amalga oshirilayotganligi va bunda zamonaviy texnikadan keng foydalanilayotganligi uning xavfini yanada oshirmoqda. Va nihoyat, terrorizmga qarshi kurash tufayli terrorchilik harakatlarining soni kamaygan bo’lsada, ularda qurbon bo’layotgan insonlarning soni tobora ortib bormoqda.

Lekin terrorizmning ko’pchilik e’tibor bermaydigan bir jihati bor. Uning asl maqsadi faqatgina katta moddiy zarar etkazish emas. Bu maqsadga erishish vositasi, xolos. Terrordan ko’zlangan maqsad mutlaqo boshqa – 100-1000 kishini qonini to’kish evaziga millionlab insonlarning yuragiga vaxima solish, ularda qo’rquv uyg’otish va oxir-oqibat jamiyatda parokandalik tug’dirishdir. Demak, o’lim – ular uchun vosita, maqsad esa kuchli ta’sir qilishdir.

Terrordan foydalanish qo’rqoqlik belgisi. Chunki ochiq raqobat sharoitida qonuniy kurash yo’li bilan muvaffaqiyat qozonishiga ko’zi etmagan, o’z kuchiga ishonmagan, ojiz kimsalargina terrordan qurol sifatida foydalanadilar. Terrorni amalga oshirgan va bu yo’lda jonini qurbon qilgan kimsalar o’zlarini qaxramon deb biladilar. Aslida esa ular terrorni uyushtiruvchi gazandalarning o’yiniga jon tikib yuborilgan qo’g’irchoq ekanliklarini bilmaydilar.

Terrorizmning xavfli siyosiy xodisaga aylanayotganligining asosiy sabablari nimada?

1. Terrorizmga zid bo’lgan demokratiyaning keng yoyilib borishi, siyosiy hokimiyat xalq xoxish-irodasining ifodasi degan tamoyilni ustivorlik kasb etganligi bilan bog’liq.

2. Siyosat, iqtisod, ijtimoiy soha va ma’naviyatning turli jabhalarida odamlarning ongi, dunyoqarash va tafakkuri o’sishi ularning jirkanch yo’llarni axtarib yurgan terrorchi guruhlar uchun goyob yo’llarni yaratishga majbur etadi.

Zamon o’zgarib umumbashariy siyosiy va mafkuraviy kurashning an’anaviy shakllari ish bermay qolgandan so’ng, terrorizm endilikda boshqa yo’llarni ahtarib topmoqda. Bugungi kunda barcha terrorchilarni diniy qarashlari, mafkuraviy moyilligi va tafakkuridan qat’iy nazar, ularni asosan ikki jihati, u ham bo’lsa behisob pul va hokimiyatga intilish qiziqtiradigan bo’lib qoyadi.

Zamonaviy xalqaro terrorizmning eng hatarli xususiyatlaridan biri uning takomillashgan qurol aslaha va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va ko’lamining oshib borayotganlidir.

14.1-chizma

Terrorizmning ko’rinichlari



Eng zamonaviy banklarda o’zining o’ta mahfiy xisob raqamlarini olgan, odamzodni xarob qiladigan narkotiklarni qo’lga kiritgan va uni ishlab chiqarish texnologiyasini o’zlashtirgan, u diniy aqidalardan o’ta ustamonlik bilan foydalanadi.

14.2. Xalqaro terrorizmga barham berishning huquqiy va siyosiy me’yorlar tizimini shakllantirish

Prezident I.A.Karimov o’zining “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida va undan keyingi turli darajalarda qilgan chiqishlarida terrorizmga qarshi kurash insoniyat oldida turgan dolzarb masala ekanligiga e’tiborni qaratib, terrorni uning manbalari, bazalari, qurol-yarog’ keltirish yo’llari, ta’minot usullari, narkotiklarni tarqatish, so’qmoqlaridan maxrum qilish, bularni bartaraf etish uchun terrorga qarshi xalqaro markaz tuzish singari qimmatli fikrlarni ilgari suradi.

2001 yil 11 sentyabr AQShga qilingan hujumdan so’ng dunyoning 100 dan ortiq davlatlari terrorning har qanday ko’rinishini tag-tomiri bilan sug’irib tashlashga bel bog’ladilar.

Jumladan, 11 sentyabr qonli terrorchilikdan keyin AQSh Xalqaro hamjamiyatga murojat qilib, har bir mamlakatdan terrorga munosabatini bildirishni va uni e’lon qilishni so’radi. Ushbu masala “Siz yo biz bilan, yoki biz bilan emassiz” degan qat’iy, xatto ultimatum tarzda qo’yildi. Bunga xalqaro hamjamiyatning mutloq aksariyat ko’pchiligini tashkil etgan mamlakatlar ijobiy javob berdilar.

Shunday qilib, terrorizm balosiga chek qo’yishga qaratilgan bunday umumdunyo yakdilligi bugungi xalqaro hamjamiyat faoliyatining bosh yo’nalishiga, nufuzli tashkilotlarning haqiqiy tashvishiga aylandi.

Aslida 11 sentyabrda o’tkazilgan, biroq fojiali terrorchilik harakati tufayli biroz orqaga surilgan BMT Bosh Assambleyasining majlisida ushbu muammo kun tartibiga qo’yildi, unda xalqaro hamjamiyatning terrorizmga qarshi harakatlari ma’qullandi, bu haqda maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Yevropa davlatlari ham bu muammoni o’z tashvishlari deb qabul qildi. Terrorizmga qarshi barcha harakatlarda qatnashishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Terrorizmga qarshi kurashning asosiy jabhalaridan birini Diplamatik front deb atash mumkin bo’lib qoldi.

Diplomatik degani – faqatgina siyosiy choralar bilan cheklanmaydi, balki siyosiy mehanizmlar vositasida barcha omillarni harakatga keltirishni nazarda tutadi.

Terrorizm o’z-o’zidan faoliyat ko’rsatmaydi. Uning iqtisodiy bazasi G’arb davlatlari iqtisodiyotiga singib ketgan.

Ikkinchi – Narkobiznesdir. Bular terrorizmning moliyaviy tayanchlaridir.

Xalqaro hamjamiyat Afg’onistondagi siyosiy kuchlarga murojat etib, murosaga kelishga qaratilgan davlatlar bilan chiqmoqdalar.

Diplomatik aloqaga ega bo’lgan uch davlatdan ikkitasi Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni podshoxligi tolibonlar bilan aloqalarni rasman bekor qildi.

Nufuzli mintaqaviy va xalqaro tizimlar dunyodagi barcha terrorchilarga munosabatini yanada oydinlashtirdi.

NATO o’zining yarim asrdan ko’proq davom etgan tarixida ilk marta Vashington Shartnomasining birinchi moddasini kuchga kiritdi. Unga ko’ra, ushbu tashkilot a’zolaridan biriga urush e’lon qilinishi barcha a’zo davlatlarga urush e’lon qilish ma’nosida ko’rildi va shunga yarasha choralar ko’riladi.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkiloti kabi bundan oldin siyosiy masalalarni hech qachon muhokama qilmagan iqtisodiy tuzilma ham Shanxayda o’tgan oxirgi yig’ilishda xalqaro terrorizm masalasini ko’rib chiqib uni qoralovchi hujjat qabul qildi.

11 sentyabr voqealari sodir bo’lguncha AQSh va G’arbning boshqa mamlakatlarida faoliyat ko’rsatib kelgan. 40 dan ortiq yirik iqtisodiy, moliyaviy va tijorat muassasalarning banklaridagi hisob raqamlar muzlatib qo’yildi.

O’zbekiston ham mustaqillikni ilk kunlaridan boshlaboq terrorizm va narkobiznesga qarshi kurash sohalarida hamkorlikka doir ma’lumotlarni markazlashtiruvchi yagona axborot tizimini yaratish zarurat ekanligi sa’y-harakatlarni birlashtirib narkobiznes va terrorizmga, mintaqaviy va jahon hamkorligi jarayonlari rivojiga halaqit beradigan barcha illatlarga qarshi kurash

lozim va nihoyat “Terrorizmga qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish lozim” degan davat bilan chiqdi.

Terrorizmning har qanday ko’rinishlarini oldini olish vazifasi qator huquqiy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo etadi. Jumladan:

1) Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy norozilikni keltirib chiqarmasligi, ya’ni adolatsizliklarga olib bormasligi kerak.

2) Inson resurslaridan oqilona foydalanish, bozor munosabatlarini rivojlantirish, chet el investitsiyalari xajmini oshirish hisobiga qo’shimcha ishchi joylarini yaratish.

3) Ijro hokimiyatini isloh qilish, uning har bir bo’g’in va darajasida ijtimoiy mas’uliyatini oshirish.

4) Aksilterror davlat kontseptsiyasini ishlab chiqish va unda mintaqaviy milliy va diniy taxdid omillarini hisobga olish.

5) Xalqaro terrorizmga qarshi ikkiyoqlama va ko’p tomonlama davlatlararo shartnomalar yaratish va o’zaro xamkorlikni kuchaytirish.

14.3. Diniy fundamentalizm va xalqaro terrorizm. Terrorizmga qarshi kurashda milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg’unligi.

Diniy fundamentalizm nima? Nasroniy dinida Injilning sof holiga qaytarish. Islom dinidagi fundamental g’oyalarga qaytish ma’nolarini anglatadi.

“Fundamentalizm” nima, qaerdan paydo bo’ldi, degan o’rinli savol tug’iladi. Uni tushunmoq uchun ushbu atamani diniy va siyosatshunoslik nuqtai nazaridan ko’rib chiqish kerak bo’ladi.

Hozirgi “Fundamentalizm” deganda, ko’pchilik Islom fundamentalizmini nazarda tutadilar. Aslida “fundamentalizm” XX asrda “Xristian Modernizmi”ning rivojiga qarshi vujudga kelgan o’ziga xos xristian oqimiga berilgan nomdir. Mazkur modernizm turli sohalarda aks ta’sir ko’rsatib AQShda ayniqsa shiddatli tus oldi. 1909 yilda bir guruh amerika islohatchilari Fundamentlar (asoslar): “Haqiqatga shaxodat keltirish” nomli risolani nashr etib xristian dinining fundamental (asoskor) nazariyalarini tashkil etishini izohlab berishdi. Bibliyani

tom ma’noda mutloq to’g’riligi va xaloskorligi haqidagi qarash mazkur yo’nalishining mag’zini tashkil etdi. 1920 yillarda avj olgan bahslar davomida mavqeni qo’llab-quvvatlovchilar “Fundamentalistlar” deb ataldi. Keyinchalik hind va yaxudiy fundamentalistlari haqida gapirildi. 1970 yillarga kelib G’arbda olimlar va jamoatchilik turli jamiyatlarda bu atamani Islom davlatlaridagi diniy tiklanish va jonlanish harakatlariga nisbatan keng qo’llay boshladi. XX asrning so’ngi choragida islomiy qayta jonlantirish jarayoniga aloqador shaxslar va harakatlar ham shu so’z bilan ataldi.

Fundamentalizm – har bir dinning poydevori, ya’ni diniy kitoblari va payg’ambarlari hayotiga taklidan yashashga da’vat bo’lsa, ikkinchi tomondan mazkur oliyjanob da’vatlar niqobi ostida ayrim din harakatlari va dindorlar hokimiyat tepasiga intiladi va bu yo’lda qon to’kish, odamlarni xonavayron qilish, bolani otasidan, onani oiladan ajratishdan ham tap tortmaydi.

Ayrim din arboblarining hokimiyatga intilishi insoniyat tarixida Yangilik emas.

Muhammad payg’ambar ham diniy ham dunyoviy rahbar bo’lgan va ilk islom davrida diniy va dunyoviy hokimiyat orasida nizo kelib chiqishining sababini bilmagan.

Undan keyin payg’ambarlar yo’q bo’lgani sababli uning o’rinbosarlari halifalar uning ishini davom ettirgan. Halifalar faqat diniy rahbar bo’libgina qolmay, dunyoviy rahbar ham bo’lganlar.

Payg’ambar vafotidan 25 yil o’tgach imonni soflash maqsadida qo’zg’olonlar bo’lib hukumatni egallagan Muoviya o’zini “Islomda birinchi podshox” deb e’lon qildi.

945 yildan keyin halifaga faqat diniy nufuz qoldirildi, hukmronlik esa Sulton qo’liga o’tdi. Sulton atamasi dunyoviy rahbar ma’nosini kasb etdi.

Diniy-ruhiy rahbar esa – Imom bo’lib qoldi. Halifa va Sulton o’rtasida hukmronlik uchun kurash olib borildi. Ularning qaysi biri kuchli bo’lsa hokimiyat o’shanga o’tgan. Ularning kurashiga mo’g’ullar xotima berdi.

Hozirgi zamonda Islom fundamentalizmning tarafdorlari va tahnamolari ko’plab bahslar tug’dirmoqda.

Terrorchilik xurujlari biron-bir davlatda milliy manfaatlar etarli darajada inobatga olinmay o’tkaziladigan siyosat natijasida milliy extiyojlari qondirilmagan etnik guruhlar tomonidan mavjud siyosiy tuzumga bo’lgan munosabatlarda sodir bo’lidigan ijtimoiy xodisa. Alohida olingan davlatda, mazkur davlatga o’z nomini bergan millat yoki etnik birliklar tomonidan boshqa kam sonli etnik guruhlarga o’z irodasini tazyiq orqali o’tkazishga urunish “Milliy terror siyosati” sifatida baholanadi. Ana shunday terror (zo’ravonlik) siyosatiga qarshi boshqa kam sonli millatlar tomonidan o’z milliy qardriyatlarini saqlab qolishga bo’lgan intilish mavjud siyosatga nisbatan norzilik kayfiyatini tug’diradi. Bu esa, ilmiy atama bilan ifodalansa, agressiv (ashaddiy) millatchilik tuyg’usini shakllantiradi. Diniy ekstremizm – faqatgina muayyan diniy manfaatlarni astoydil himoya qilib, boshqa har qanday manfaatlar va mafkuralarni inkor etuvchi, tor doiradagi manfaatlarni ifodalovchi g’oyalar bilan ish ko’radigan tashkilotlar yoki mutaassib kishining mafkurasi. Ana shu mafkuraga asoslangan harakatlar Shimoliy Irlandiya, Bosniya va Gertsegovina, Kosova va Yaqin Sharq mojarolarida yaqqol namoyon bo’lmoqda. Diniy ekstremizmning kuchayishini ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarining butun dunyoda e’tirof etilishi tufayli diniy dunyoqarash dunyoni anglashning yagona shakli sifatida butunlay chetga surib qo’yilishidan dahshatga tushuvchi o’ta mutaassib dindorlar ashaddiy harakatlarining faolligi bilan tushuntirish mumkin. Demak ong ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlovchi yagona kuch sifatidagi mavqeini endilikda dunyoviylikka berishga majbur bo’lmoqda. Bu esa diniy ekstremistik xurujlarning yanada jonlantirishiga sasabchi bo’lmoqda. Diniy ekstremizmning yanada ashaddiylashuvi esa o’z navbatida terrorizmni keltirib chiqaruvchi asosiy manbaga aylanmoqda. Xalqaro jinoyatchi guruhlar bilan terrorizmning manfaatlaridagi mushtaraklik shundaki, ular barcha mamlakat va xalqaro tashkilotlarda qonundan tashqari (noqununiy) deb e’lon qilingan. Terrorchilar o’zlariga zarur bo’lgan portlovchi moddalar yoki zamonaviy qurol-aslahalarni

aynan xalqaro jinoyatchi guruhlar vositachiligida qo'lga kiritadi. Shuning uchun ular o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashga majburdirlar. Keyingi paytda narkobiznes bilan xalqaro jinoyatchi guruhlar qo'shilib, xalqaro sindikatlarga birlashib harakat qilmoqdalar. Chunki, narkobiznes bilan shug'ullanuvchi jinoyatchilarning millati ham, e'tiqodi ham yo'q bo'lib, ular uchun yagona iloxiy qudrat pul, valyuta hisoblanadi. Hozirgi paytda eng daromadli "biznes" hisoblangan narkobiznes juda katta sarmoya manbaiga aylanib ulgurdi. Shuning uchun xalqaro terrorchilarning ham asosiy daromad manbaiga aylangan narkobiznech bor erda, albatta, terrorchi guruhlarning yashashi va faoliyati uchun shart-sharoit tug'iladi.

Terrorizmning diniy ekstremizm bilan bugungi kunda chirmashib ketish jarayoni kechmoqda. Bu yovuz kuchlar ekstremizm va xalqaro terrorizm bugungi kunda biri mafkuraviy tazyiq bo'lsa, ikkinchisi mafkura va siyosiy mo'ljallarni ro'yobga chiqarish, amalga oshirishning shakli hamda vositasi sifatida bir-birini to'ldirmoqda. Zotan terrorizm oshkora noinsoniy ko'rgazma, uslub, xulq-atvor, xatti-harakat va faoliyatdan iborat jarayon, tizim sifatida diniy ekstremizmdan ko'ra yashirinroq, ikkinchi bor tayanchga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bashariyat osoyishtaligiga xavf solib turgan "Xalqaro terrorizm" deb atalishi siyosiy va qolaversa, olam barqarorligiga qaratilgan jinoiy xodisa to'g'risida to'xtalib, "o'zgalar qonuni to'kish xisobiga mo'may daromad omilni istochilar yo'q bo'lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borga o'xshaydi. Bu toifaga kiruvchi "bizneschilar" uchun qon va nopok siyosiy ko'rishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro xoinlarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligi"[1]ni alohida ta'kidlab o'tgan edi.

[1] Karimov I.A.. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -T.: "O'zbekiston", 2000. 28-29 - b.

Zamon o’zgarib umumbashariy, siyosiy va mafkuraviy kurashning noan’anaviy shakllari ish bermay qolgandan so’ng, terrorizm endilikda boshqa yo’llarni ahtarib topmoqda.

Mohiyatdan, amaliyotga demokratiya va erkin iqtisodiy munosabatlar tizimiga, raqobatga qarshilik xususiyati, vatanfurushlik xalqaro terrorchilar safiga turli, batamon bir-biriga o’xshaydigan diniy maslax, millat tsivilizatsion moyillikka mansub, ammo pul va hokimiyat yo’lida intilgan kimsalarni olib kirmoqda.

Mustaqilligimizga rahna solishi mumkin bo’lgan turli kuch va oqimlar mavjudligi bugun hammamizga ayon. Istiqlolga erishganimizdan beri mamlakatimiz har xil shakldagi turli taxdidlarni ham boshidan kechirdi. 1991 yil dekabrda Namanganda, 1999 yil 19 fevralda Toshkentda ro’y bergan fojiali voqealar, o’sha yili Yangiobodda, 2000-2001 yillarda Surxandaryoning Sarimosiyo va Uzun tumanlarida sarxadlarimizga qilingan tajovuz va xurujlar 2004 yil 28 mart, 1 aprel kunlari Toshkent shahri, Buxoro viloyatida bo’lgan terrorchilik harakati misolida yaqqol namoyon bo’lishi, bu unchalik uzoq tarix emas. 1999 yil 16 fevral kuni Prezident I.Karimov “Men ey odamzod, ogox bo’linglar, ogox bo’linglar, ogox bo’linglar, deb doim kuyib-yonib da’vat etaman. Bu gap extimol ba’zi birovlar uchun ortiqchaday tuyular. Lekin men ogoxlik, ogox bo’lish haqida gapirganimda bugungiga o’xshash voqealarni nazarda tutaman”[1] degan edi.

Har qanday qudratli davlat o’z ichki muammolarini o’zi hal qila oladi. Lekin, umumbashariy muammolar qatoridagi narkobiznes o’zidan daxshatliroq boshqa umumbashariy illatlarni ham etaklab kelmoqda. Bugungi kunda narkobiznesning xalqaro terrorchilik bilan bog’lanib ketgani hech kimga sir emas. Bu esa oilada, maqolada, butun jamiyatda xushyorlikni oshirishni talab qilmoqda. Keng ma’noda ana shunday illatlarni davlatlararo hamkorlik asosida izchillik bilan bartaraf qilish zamon talabi bo’lib qoldi.

[1] Karimov I.A. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz”. -T.: “O’zbekiston”, 2000, 7-b.

Davlatimiz rahbari umumiy xavfga qarshi kurashda tinchliksevar kuchlarni birlashtirish zarurligi haqida “ekstremizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilikka va xalqaro terrorizmga qarshi yangi kurash olib borilmas ekan, maqsadga erishib bo’lmaydi. Ayniqsa, yakka-yolg’iz, tarqoq holda va noizchil usullar bilan kurash olib borish istiqbolsiz ekani tobora ravshanlashmoqda”[1] deb qat’iy ta’kidlagan edi. Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1999 yil noyabr oyida Istanbulda bo’lgan sammitida Prezidentimiz terrorchilikka qarshi davlatlararo miqyosidagi kurashni muvofiqlashtiruvchi xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifni ilgari surgan edi, biroq, sammit ishtirokchilari terrorizmga qarshi xalqaro markaz tuzish masalasiga jiddiy e’tibor bermagan edi. Keyinchalik bu fikr qanchalik vaqtida aytilganiga butun dunyo ishonch xosil qildi, xalqaro terrorizm taxdidi tobora kuchayib bordi. O’zbekiston tashabbusi bilan terrorchilikka qarshi bir qator davlatlar uyusha boshladilar.

2000 yil 20-21 aprel kunlari Toshkentda Makaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatning davlatlararo kengashi bo’lib o’tdi. Unda O’zbekiston, Qozog’iston, Qirg’iziston va Tojikiston rahbarlari mintaqaviy xavfsizlik va mamlakatlararo munosabatlarga doir masalalarni muhokama qildilar hamda “Terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqa davlatlariga taxdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to’g’risida”gi Shartnomani imzoladilar. Bu Markaziy Osiyodagi mavjud vaziyatdan kelib chiqqan muhim va oqilona qadam edi.

Endilikda terrorchilik, aqidaparastlik, narkobiznes kabi umuminsoniyat uchun yot bo’lgan yaramas illatlarni va uning kirdikorlarini deyarli butun dunyo tushunib etdi. 2000 yil 21 iyunda Moskvada bo’lib o’tgan MDH davlat rahbarlarining sammitida jinoyatchilik, terrorchilik va ekstremizmning turli ko’rinishlariga qarshi birgalikda kurashish masalasi muhokama qilindi. 2001 yil 14-15 iyun kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlarining sammitida terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi

[1] “Halq so’zi”, 2001 yil 20 iyun

“Shanxay konventsiyasi” imzolandi. Ayni paytda barcha davlatlar chegara bilmaydigan bu muammolarni xal qilish maqsadida jipslashmoqda.

2004 yil 17 iyun Toshkentda SHHTga a’zo davlatlar rahbarlarininng sammiti bo’ldi. Unda O’zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati nafaqat O’zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Unda terrorchilarning bazilarini yo’qotish, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta’kidlandi.

Ayniqsa, 2001 yil 11 sentyabr kuni xalqaro terroristik kuchlarning Nyu-York va Vashington shaharlarida sodir etgan mudxish xujumlaridan keyin dunyodagi yetakchi davlatlar AQSh boshchiligida koalitsiya tuzib, bu yovuz dushmanga qarshi ayovsiz kurashga kirishdilar. O’zbekiston hukumati birinchilardan bo’lib AQShda sodir etilgan terrorchilik harakatlarini qoraladi va AQSh boshchiligida tashkil etilgan aksilterror kaolitsiyani qo’llab-quvvatladi. SHu maqsadda Afg’onistonda tinchlik o’rnatish, terrorizm balosini tag-tomiri bilan qo’porib tashlash ishiga xissa qo’shish maqsadida o’z aerodromlaridan birini mazkur koalitsiya qurolli kuchlari ixtiyoriga berdi. Afg’onistondagi aksilterror operatsiyaning birinchi bosqichida “Tolibon” va “Al-Qoida” kuchlariga zarba berildi. Aksilterror operatsiyasining keyingi bosqichi shubxa ostiga olingan terrorchilarni qidirishdan iborat bo’ldi. Bunda ekstremizm, terrorizmga qarshi kurash uchun xalqaro sammitlar va boshqa xalqaro kelishuvlarda ishtirok etgan davlatlar bir-biriga o’zaro yordam qo’lini cho’zmoqda va u o’z natijalarini bermoqda.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O’zbekiston o’zining so’zida qat’iy turgan davlatlardan hisoblanganligini hayot to’la tasdiqladi. Terrorizmning kuchayib borishi, kamikadze guruhlarining tayyorlanishi eng qudratli harbiy-sanoat majmualariga ega davlatlarning ham xavfsizligiga rahna sola boshlagan edi. Terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlar yakdil fikr bildirgan bo’lsalar-da amaliy faoliyatda ayrim davlatlar qat’iyatsizlik qilgan bo’lsalar, ayrimlari ochiqdan-ochiq o’zining siyosiy manfaatlari yo’lidagi tor maqsadlarni ko’zladilar.

Holbuki Avg’onistonda olib borilayotgan urush aslida, terrorizmni tag-tomiri bilan qo’porib tashlashga qaratilgan uzoq muddatli kompleks siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi.

14.2-chizma



Terrorizmni bartaraf etish faqat kuch ishlitish yo’li bilangina emas, shuningdek boshqa omillarni ham e’tiborga olishni nazarda tutadi.

Bular:

1. Taraqqiyparvar insoniyatni mushtarak manfaatlar asosida jipslashtirish.
2. Umuminsoniy manfaatlar ustivorligini tan olish.
3. Ilmiy bilimlarga asoslanish.
4. Jamiyat taraqqiyot yo’lini aniq belgilab olish.

14.4. Diniy aqidaparastlik va xalqaro terrorizmning O’zbekistonga tahdidi.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida: o’qish, mehnat qilish, ilmiy, siyosiy faoliyat, diniy e’tiqod va boshqalarda odamlar ma’lum qoidalarga tayanib harakat qiladilar. Qoida voqealikdagi biror hodisani o’rganish, bilish uchun yiroq bo’lsa, aqida ana shu yo’riqning mutlaqlashtirilishidir. Faqat cheklangan sohada ko’l kelishi mumkin bo’lgan qoidalar qo’llanilishi mumkin bo’lgan sohani suniy tarzda kengaytirish esa bir qator sabablar tufayli amalga oshirildi.

Fan tarixi turli davrlarda mavjud extiyoj va imkoniyatlar ta’sirida fanning u yoki bu sohasi tez rivojlanganligidan guvoxlik beradi. Masalan, XVII-XVIII

asrlarda mehanika, XIX asr boshlarida biologiya, XIX asr oxirida fizika fanlari tez rivojlangan. Bu fanlar qo'lga kiritgan yutuqlardan ortiqcha ilhomlanib kelgan ba'zi olimlar shu yutuqlarni fan va ijtimoiy hayotning turli sohalariga tadbiq qilmoqchi bo'ldilar. Masalan, mehanikada qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlar ba'zi olimlarda olamdagi barcha xodisalarni, jumladan biologik va ijtimoiy xodislarni ham mehanika fani yutuqlari asosida izohlash mumkin, degan xulosaga olib keldi. Xattoki, odamni ham ular bir mehanizm sifatida tavsiflay boshladilar.

Biologik sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, xususan, Darvin ta'limotining kashf etilishi, ba'zi olimlarda biologik qonunlari universal xususiyatga ega, degan tasavvurni keltirib chiqardi. Ular ijtimoiy hayot xodisalarini ham evolyutsiya nazariyasi yordamida izohlash mumkin, deya boshladilar. Bu esa mohiyat-e'tibori bilan mutlaqo noto'g'ri nazariya edi.

Sho'rolar davrida ijtimoiy fanlar sohasida Marks va Lenin ta'limotining yakka hukmron bo'lishi ham falsafiy aqidaparastlikning ashaddiy ko'rinishlaridan biridir. Bu davrda Marks va Lenin ta'limotiga ozroq bo'lsa ham mos kelmaydigan nazariyalarning barchasi g'ayri ilmiy bo'lib hisoblangan. Oqibatda, alohida nazariyalargina emas, fanning butun boshliq yo'nilishlari ham inkor etib kelindi. Sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, kibernetika, genetika singari zamonaviy fan sohalari uzoq vaqt tan olinmadi. Bu esa sho'ralarning nafaqat nazariy sohalariga, balki amaliyot va iqtisodiyotga ham salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Diniy aqidaparastlik esa u yoki bu dindagi muayyan qoidalarnigina e'tirof etib, boshqalarini inkor qilish, ularni o'rinli va o'rinsiz qo'llashga intilishdir. Barcha dinlarda ham aqidaparastlar turli mazxab va yo'nalishlar orasida tanglik, nizodir va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lishgan.

Islom dinida ham turli oqim va yo'nalishlar doirasida aqidaparast guruhlar bo'lgan. Shu bilan birga, ba'zi diniy oqimlar ham bo'lganki, ularning ta'minoti to'laligicha aqidaparastlik negiziga qurilgan. Ba'zi oqimlarda esa aqidaparastlik ustunlik xususiyatiga ega. Ana shunday oqimlardan biri vahhobiylikdir.

Islomdagi aqidaparastlik bu din olamga yoyila boshlagan dastlabki asrlardayoq paydo bo'la boshlagan edi. Ammo bu oqim bir necha asrdan keyin

uyushgan bir kuch sifatida maydonga chiqdi. XVIII asrdan boshlab esa aqidaparastlikning ko’rinishlaridan bo’lgan vahhobiylik oqimi tarqala boshladi. XX asrning so’nggi choragida bu oqim bir qator mamlakatlarda, jumladan, MDHga a’zo davlatlarda ham barqarorlikka taxdid sola boshladi.

Nima uchun aqidaparastlar ma’naviyatga qarshi bu qadar qattiq kurash olib boradilar? Ma’lumki ma’naviy qashshoqlik iqtisodiy-qashshoqliklikdan ham daxshatliroqdir. Miyasidan dunyoviy, umuminsoniy qadriyatlar mutlaqo chiqirib tashlangan, ularning o’rniga faqat aqidaparastlik g’oyalari qo’yilgan insonlar ma’noviy lyumperlarga aylanadilar. Ma’naviy jihatdan qashshoq bu odamlar esa jamiyatda notinchlik, beqarorlik keltirib chiqaradilar. Har qanday jamiyatda ekstremistik va terroristik kuchlar, asosan qashshoqlarga tayanadi. Marksizm jamiyatni turli silkinishlarga giriftor qiluvchi yo’qsil va qashshoqlarni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili deb e’lon qildi. Bu tabiiy xol edi. Jamiyatni silkinishlar, inqiloblar orqali o’zgartirishni maqsad qilib qo’ygan ta’limot uchun yo’qsil va qashshoqlardan boshqa tayanch bo’lishi mumkin emas. Shuning uchun sovet tuzumi davrida ozgina eri va bir dona xo’kizi bor dehqonlar ham sotsializmga dushman unsurlar sifatida quloq qilingan edilar.

Aqidaparstlar odamlarni ma’naviy qashshoq ijrochilar – zombilarga aylantirmoqchi ekanlar, jamiyatdagi sog’lom kuchlar ma’naviy qashshoqlar moddiy qashshoqlardan xavfli ekanini unutmasliklari kerak.

Taajjublanarlisi va achinarlisi shundaki, o’zbeklar singari ulkan ma’naviy merosga ega bo’lgan xalq orasidan ma’naviy lyumperlar chiqib qolmoqda.buni faqat sog’lom kuchlar xushyorlikni yo’qotgani, beg’amlikka berilgani va aqidaparastlar xurujiga qarshi uyushib javob bermagani bilan izoxlash mumkin.

Keyingi yillarda diniy aqidaparastlikning jonlanishi, chet eldagi aqidaparast ekstremistik kuchlarning mamlakatimizga ta’sir o’tkazishga urunishlari aholining muayyan qatlamlari, ayniqsa yoshlarni ma’naviy jihatdan ham muhofaza qilish zarurligini ko’rsatmoqda. Ma’naviy muhafazaning moddiy muhofazadan farqi shundaki, yoshlar ongida bo’shliq paydo bo’lishiga yo’l qo’ymaslik, uni

hayotbahsh ma’naviy merosimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan kurashish lozimligi haqidagi ma’no-iboralari negizida xuddi shu mazmun yotadi.

Xulosa qailib atyganda, faqatgina chinakam ma’rifatli inson odam qadrini, millat qadriyatlarini, bir so’z bilan aytganda, o’zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o’ziga munosib o’rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashishi mumkin. Faqat mana shunday barkamol insongina noilmiy, g’oyalardan xoli bo’lishi mumkin.

Ha, Suqrot yuz marta haq: “Dunyodagi barcha adashishlarning asosiy sababi ilmsizlikdir”.

Ilmsizlik – mutiylikka, mutiylik esa jaholatga olib boradi.

Qisqacha xulosa.

Terrorchilik harakatlari oqibatida aynan olingan u yoki bu davlatga etkazilgan ma’naviy va moddiy talofatlar sanog’ining adog’iga etib bo’lmaydi. Moddiy talofatlar-ku mayli, vaqti-soati kelib, ularning o’rni qoplanar, vayron etilgan imoratlar joyida, ehtimol, ulardanda go’zalroq va mahobatliroq binolar qad ko’tarar. Biroq etkazilgan ma’naviy ziyonning izlari xalqlar xotirasida abadul abad muhrlanib qolishi aniq. Terrorchilik degan illat tag-tomiri bilan sug’urib tashlanmas ekan, bu achchiq qismat olamdagi har bir inson yoki xalqning boshiga tushishi mumkinligini butun jahon ahli teran anglamoqda. Shuning uchun ham xalqaro hamjamiyat terrorchilarning bazalarini er bilan yakson qilib, kulini ko’kka sovirishga, boshqacha aytganda, butun dunyoga xavf solib turgan jaxolat boshog’ini batamon quritishga qat’iy azm qildi. Tarixning guvoxlik berishiga ko’pchilik tomonidan bir tan bo’lib amalga oshirilgan tadbir, shubxasiz, xaq ishdir va tabiiydirki, har qanday qiyinchiliklaru to’siqlarni engib o’tib, pirovard natijada, albatta zafar bilan yakunlanadi.

Tayanch so’zlar.

Terrorizm, fanatizim, jaxolat, narkobiznes, fundamentalizm, ekstremizm, aqidaparastlik, xalqaro terrorizm, terrorizmga qarshi kurashuvchi xalqaro markaz, aksilterror.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

Terrorizm nima va u qanday ma’noni anglatadi?

1. Terrorizmning bugungi mohiyatini tashkil etuvchi tamoyillar qaysilar?
2. Terrorizm bugungi kunda paydo bo’lgan xodisami yoki o’tmishda ham bo’lganmi?
3. Terrordan ko’zlangan asosiy maqsad nima?
4. Diniy fundamentalizm nima, uning asl maqsadi qanday?
5. Diniy fundamentalizm va xalqaro terrorizm o’rtasida qanday o’xshashlik bor?
6. Terrorchi kim? Uni kimningdir yovuz niyatini bajaradigan ijrochi kimsa desa bo’ladimi?
7. Narkobiznes terrorchilar moliyaviy ta’minotining manbai bo’la odadimi?
8. Terrorizmga barham berishning yo’llari, vositalari, usullari qanday?
9. O’zbekiston Prezidenti Islom Karimov Terrorizmga qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish taklifining ahamiyati nimada?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2009. 30-35 - b.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O’zbekiston”, 1997. 33-79 - b.
3. Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi – T.: 2005, 13-T. 433 - b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”. 2008, 128-159 - b.

5. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O’quv qo’llanma. –T.: TDIU, 2006, 258-274 b.
6. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. -M.: INFRA-M. 2007. 287-301 b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya Darslik. - M.: Prospekt. 2008. 457-471 - b.
8. Odilqoriev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.:“O’qituvchi”, 2008. 286-298 - b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 550-586- b.

15-MAVZU: MINTAQAVIY MOJAROLAR VA SIYOSIY ECHIMLAR.

15.1. Mintaqaviy mojarolarda sotsial, diniy, etnik muammolar, ular o’rtasidagi ziddiyatlar.

Insoniyat tsivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa, har jihatdan bir-biriga bog’liq bo’lgan hozirgi dunyo voqeligi shundan dalolat beradika, alohida olingan bir davlatdagi hech bir mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib ketmaydi. Bir qancha sabablarga ko’ra bunday mojaro nazorat qilib bo’lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami-kechmi qo’shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlari bilan bir qatorda muammolarni ko’ndalang qo’yadi. Hatto mintaqadaga vaziyatni beqarorlashtirish darajasiga borib etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mojaroning yashirin va oshkora tarzda kengayish tanglikni yanada chuqurlashtiradi. Chunki tanglik chiqqan hududda o’z manfaatlarini ta’minlashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi.

Xo’sh mintaqaviy mojarolarni keltirib chiqaradigan sotsial, diniy, etnik muammolar qaysilar?

1. Bir tizimdan boshqa tizimga o’tgan yosh mamlakatlarda mavjud bo’ladigan ijtimoiy muammolar: o’tish davridagi islohotlarning qiyinchiliklari, aholining ob’ektiv tabaqalashuv jarayoni va mulkdorlik belgisi bo’yicha tabiiy tafovutlar bo’lsa.

2. Mintaqadagi davlatlarning mustaqilligini qaror toptirish va mustahkamlash davrida islom omili va uning xilma-xil ko'rinishlari faollashuvi, ayniqsa, din shu jumladan islom dini asoslariga qarama-qarshi diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisa – jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarib, barqarorlik va xavfsizlikka taxdid solmoqda.

3. Etnik va millatlararo munosabatlar polietnik davlatlar xavfsizligining muhim omili ekanligi.

Sayyoramizda 1600 dan ortiq etnik guruh yashaydi. Ammo ularning ko'pchiligi o'z milliy davlatchiligiga ega emas. Dunyo siyosiy xaritasida 200 dan ortiq davlatlar bo'lib, ular ikki turga: Polietnik (ko'p elatli) va monoetnik (bir elatli) davlatlarga bo'linadi. Hozirgi zamonda xal qilinishi mushkul muammolardan biri shu masalaga, etnik o'zligini anglashning o'sib borishiga borib taqaladi. Dunyoda yashayotgan etnoslarning ko'pchiligi o'z milliy davlatchiligiga ega emas.

Polietnik mamlakatlarda o'z davlatiga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda yashovchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ya'ni siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlik ko'pincha ana shu munosabatlarda etnik va millatlararo ziddiyatlar bo'lib kelgan. Bu etnik izchilik o'zligini anglash, alohida davlat qurish mayillari bilan bog'liq kechadi.

Jahon tajribasi polietnik davlatlar xavfsizligida va taraqqiyotida millatlararo munosabatlarning ijobiy va salbiy rol o'ynaganini ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda ko'p elatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirishda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda, fuqarolik jamiyatini qurishda ijobiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Ayrim mamlakatlarda esa ko'p elatchilik omili mamlakatni orqaga uloqtirib tashlagan, ijtimoiy-siyosiy falokatlarni keltirib chiqargan. Ko'p elatlilik xatto butun-butun mamlakatlaning tinchligi, barqarorligiga putur etkazgan.

Markaziy Osiyo mintaqisida millatlararo munosabatlarga bo'layotgan xavfning ildizlari hali tugatilgan emas.

- Tashqi migratsiya jarayonlari barqarorlashgan bo'lsada, u bilan bog'liq dalillar buzib talqin qilinmoqda;

- Respublika hukumati tomonidan olib borilayotgan ishlar noxolis baholangan holda, Orolbo'yi muammosiga, milliy tus berishga harakat qilinmoqda;

- O'zbekistonning go'yoki qo'shni davlatlarga hududiy da'volari mavjudligi haqida gapirilmoqda;

- Milliy g'oya masalasi faqat o'zbeklarning g'oyasi sifatida talqin etilmoqda;

- Go'yoki, milliy tillarda axborot maydonining qisqarib borayotgani haqida gapirilmoqda.

"Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi er yuzidagi madaniy va genetik fondining, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i kerak"[1].

15.2. Mintaqaviy muammolarning ko'rinishlari.

Fuqarolar urushi, separatizim, millatlararo to'qnashuv.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy baxslar xalqaro munosabatlar tizimida dunyo geostrategik kuchlar muvozanatining o'zgarishiga va ko'p qutbli kuchlar markazining paydo bo'lishiga olib keldi. Geosiyosiy muvozanatning o'zgarishi xalqaro munosabatlarda Yangi tizimning shakllanishi jahonda yuz berayotgan globalizatsiya va integratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari kundan-kunga milliy, mintaqaviy va xalqaro tus olib bormoqda. Bu jarayonda esa mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda uni rivojlantirish har bir davlatning tashqi siyosatida ustivor masalaga aylanmoqda. Dunyo xaritasida qator yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi va ularning umumjahon xalqaro munosabatlar tizimiga kirib kelishi bu jarayonlarni yanada jonlantirdi.

[1] Karimov I.A.. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
-T.: "O'zbekiston", 1997. 73-74 - b.

Bugungi kunda dunyo siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqish tobora kuchaymoqda. Bunday vaziyat esa mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashni talab etadi. Mintaqaning geosiyosiy va geostrategik holati dunyoning qator yetakchi kuch markazlarining e’tibori va manfaatlarining kuchayishiga sabab bo’lmoqda. Natijada dunyoning kuchli davlatlari o’rtasida Markaziy Osiyo mintaqasida o’z ta’sir doiralarini kengaytirish borasidagi siyosiy o’yinlar yuz bermoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, - “yorqin namoyoni bo’lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo’lgan ayrim siyosiy kuchlarning g’arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilmoqda”.[1]

Yalpi xavfsizlikka taxdid solayotgan mintaqaviy mojarolarning turkum omillariga quyidagalarni kiritish mumkin:

Ikchi omillar: Mafkura va ma’naviyatda yuzaga kelgan bo’shliq hamda uning turli diniy va ekstremistik g’oyalar bilan to’ldirilishi; aholili ko’pchiligini qamrab olgan qashshoqlik va ishsizlik sonining ko’payishi; mintaqadagi ba’zi davlatlarning o’zini-o’zi himoya qila olmasligi; korruptsiya, poraxo’rlikning kuchayishi; mintaqadagi hududiy toza ichimlik suvi borasidagi muammolar.

Tashqi omillar: Markaziy Osiyo mintaqasining dunyodagi mojaroli nuqtalariga yaqin joylashishi (Shimoliy Kavkaz, Afg’oniston, Kashmir). Ba’zi bir siyosiy kuchlar tomonidan mintaqadagi vaziyatning barqarorlashuviga bo’lgan manfaat va ta’sir; 2001 yilning 11 sentyabridan boshlab, mintaqa mamlakatlari Osiyo davlatlari uchun ham Yevropa davlatlari uchun ham muhim geosiyosiy ahamiyat kasb etadi.

Biz hozir faqat Markaziy Osiyo mintaqasidagi turkum omillar to’g’risida so’z yuritdik, ammo mintaqaviy muammo joy tanlamaydi, chegara bilmaydi. Demak mintaqaviy mojarolar dunyoning rivojlangan mintaqalariga ham, rivojlanayotgan mintaqalariga ham xos tus oladi.

[1] Karimov I.A.Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini his etishdir. -T.: “O’zbekiston”, 2008. 5 b.

Dunyoda yangi tartiblarni shakllantirish jarayoni mintaqalar darajasidagi va mintaqalar ichidagi eskidan saqlanib kelayotgan, zimdan tutab yotgan har xil tarixiy, etnik, siyosiy, diniy va boshqa sabablarga ega bo'lgan mojarolarning keskinlashuvi bilan birga yuz beradi.

Mintaqaviy mojaroni faqat taraflarning qurolli qarama-qarshiligi, shu jumladan tinch aholi o'rtasida ko'plab qurbonlarga olib keladigan qarama-qarshiligi deb hisoblamaslik kerak. u muayyan jamiyat va qo'shni davlatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan qarama-qarshiliklar hamdir.

Demak, mintaqaviy mojarolar kelib chiqishining ikki sababi mavjud.

Mintaqaviy mojarolar sabablari

15.1-chizma



15.2-chizma

Mintaqaviy mojarolarning uch asosiy ko'rinishlari.



Fuqarolik urushlari siyosiy jihatdan eng samarasiz hisoblanadi. Yaxlit bir millat makonda ro’y berishiga qaramasdan, fuqaroviy urushning ijtimoiy tayanchlari bir millatga mansub turli-tuman urug’-aymoqlardan shakllanadi. Shu tufayli u ma’lum siyosiy makonda vujudga kelgan bo’lsa, keyinchalik u qo’shni hududlarga yoyilishi mumkin.

Millatlararo harbiy-siyosiy to’qnashuvlar: Mintaqaviy mojarolarning bu shaklida eng ko’p qon to’kilishi, millionlab qochoqlarning o’z yurtini tark etishga sabab bo’lishi mumkin. Buning noxush tomoni shundaki, voqealar shunchalar chigallashib ketadiki, unda qaysi tomon yutadi va aksincha yutqazadi degan savolning o’zi insonni o’ylantirib qo’yadi. Buni sobiq Yugoslaviya federativ davlatining parchalanishi oqibatida yuzaga kelgan milliy muammolar, aniqrog’i Kosovo masalasida Serb va Kosova albanlari o’rtasida yuzaga kelgan ziddiyat va to’qnashuvlar misolida kuzatish mumkin.

Separatizim (fr. va lot. alohida ajralib chiqish, alohida bo’lib olish) – Ichki Konstitutsiyaviy me’yorlar hamda xalqaro-huquqiy hujjatlarga zid holda bir guruh siyosatlashgan shaxslar tomonidan tarixan bir millat istiqomat qilib kelgan hududni alohida davlat deb e’lon qilishga olib kelish (M: Efiopiya, Rossiya – “Ichkeriya Respublikasi”, Indoneziya – “Sharqiy timor”, Iroq – “Qurdiston Respublikasi”, va h.k.)

Mintaqaviy mojarolar ustida so’z borar ekan u mintaqa xalqlarini qanday musibatli oqibatlarga olib kelishi mumkin: Mintaqaviy mojarolar qanday ko’rinishda bo’lmasin uning oqibatlari o’ta ayyanchilidir. Prezident I.Karimov tabiri bilan aytganda “Urush jamiyat va davlatning holatiga xalokatli ta’sir ko’rsatadi. Bu – urushning tabiiy yo’ldoshi bo’lgan iqtisodiy vayronagarchilikdangina emas, balki millatning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi boshqa sohalarda ham namoyon bo’ladi. Qanday bo’lmasin, vatandoshlar o’rtasida nifoqni avj oldirish, o’z uylarini tashlab ketishga majbur bo’lgan qochoqlar oqimi, jamiyatda jinoyatchi unsurlarning ko’payishi, urushni pul topishning yagona manbaiga aylantirish, millatning genofondiga putur etkazish,

yosh avlodni hatto boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatidan ham maxrum qilish"ga[1] olib keladi.

BMT ma'lumotnomasida qayd etilishicha hozirgi kunda dunyoda 50 milliondan ortiq qochoq bor. Boshqa mamlakatlarda boshpana topgan 13 mln. dan ortiq kishi ro'yxatga olingan. Fuqarolar urushi tufayli 30 mln. odam o'z yashab turgan joylarini tashlab, boshqa mamlakatlarga qochoq sifatida ketishga majbur bo'lgan.

Mintaqaviy mojarolarning yana bir xavfli tomoni shundaki, ular bir mamlakat doirasidan chiqib ketishi va boshqa mamlakatlarga ham yoyilishi mumkin.

Mintaqadagi har bir davlat etnik jihatdan rang-barang bo'lgani sababli, har qanday tanglik keskinlashib, qo'shni mamlakatlar fuqarolari o'rtasidagi totuvlik va barqarorlikka putur etkazadi. Ayrim buzg'unchi guruhlarning ziddiyatlar olovini yoqishga va chegaradosh davlatlar aholisi orasidagi kam sonli etnik guruhlar milliy tuyg'ularini uyg'otish orqali uni qo'shni mamlakatlarga ko'chirilishga urinish katta tashvish tug'diradi.

Separatizim yagona, bir butun davlatni ikkiga ajralishi tufayli ko'plab murakkab iqtisodiy, siyosiy, milliy, oilaviy muammolarni keltirib chiqaradi, uni uzoq yillar davomida bartaraf etishga to'g'ri keladi.

15.3. Mintaqaviy va xalqaro mojarolarning yechimi uslubi va mexanizmida siyosiy yo'lning afzalligi

Mintaqaviy mojarolar echimiga kuch ishlatishdan kelib chiqish amaliyotidan voz kechish, unga siyosiy yondashuvning afzalligini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq. Lekin, siyosiy echim-echimlar orasida eng mushkul bo'lganligi bois, betinim variantlarni izlash, topilgan variantlarni esa torozu pallasiga birma-bir qo'yish orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston nafaqat chegaradosh mamlakatlardagi, shuningdek dunyodagi harbiy-siyosiy mojarolarni tinch siyosiy yo'l bilan xal qilishga va ularni oldini

[1] Karimov I.A.. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
-T.: "O'zbekiston", 1997. 22-b.

olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvvatlabgina qolmay, bu borada amaliy takliflarni ilgari surmoqda. Afg'onistondagi terroristlar harakati nafaqat Markaziy Osiyo davlatlariga, balki butun insoniyatga xavf solayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan mahalliy uchrashuv va xalqaro nufuzli tashkilotlar minbarlaridan ko'p marta takrorlandi.

Jumladan, 1993 yilning 4 martida O'zbekiston rahbari MDH xorijiy rahbarlar xalqaro uyushmasi a'zolari bilan bo'lib o'tgan matbuot anjumanida barchaning diqqat e'tiborini Afg'oniston va Tojikiston fojialariga, terrorizm bilan bog'liq o'tkir muammolarga qaratdi. "Navbatdagi vaxshiylikka qarshi jamoatchilik fikrini vujudga keltiring", - deb da'vat etdi.

1993 yilning 28 sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida BMT ning tinchlikparvarlik faoliyatini, ayniqsa, mojarolar chiqadigan joylarda tinchlik o'rnatish faoliyatini yanada kuchaytirishga chaqirdi.

BMT ning 50 yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning 1995 yilning 24 oktyabridagi maxsus tantanali majlisda Prezident I.Karimov nutq so'zlab, Afg'onistonnnig ichki ishlariga tashqi kuchlarning aralashuvini ta'qiqlashni taklif edi.

1999 yilning 18 noyabrida EXHT ning Istanbul Sammitida Prezidentimiz nutq so'zlab, xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin tarzda kun tartibiga qo'ydi.

2000 yil 8 sentyabrda BMT Bosh Asamblyasining "Ming yillik sammiti"da O'zbekiston raxbari jahon hamjamiyatini XXI asr vabosiga qarshi hamkorlik kurashiga chaqiradi.

2001 yil 11 sentyabr kuni AQSh ning Nyu York va Vashington shaharlarida terrorchilarning navbatdagi g'arazli maqsadlari amalga oshirildi. Natijada misli ko'rilmagan talofat ko'rildi. AQSh hukumati jahon aholisini terrorizmga qarshi kurashga chaqirdi. O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurashga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

2008 yil NATO Yevroatlantika Hamkorlik kengashi (SEAP) ning Buxarestda bo'lib o'tgan sammitida Afg'onistondagi vaziyatni yumshatish maqsadida NATO ishtirokida 6+2 muloqot guruhini 6+3 guruhiga aylantirish taklifi bilan chiqdi.

O'zbekistonning mojarolarni siyosiy yo'l bilan bartaraf etish borasidagi tashabbusi mojarolarni oldini olish va keyinchalik uni bartaraf etishning birdan bir uslubi siyosiy muloqat va muzokara shakli ekanligini bugun hech kim shubha ostiga ola olmaydi.

15.4. Markaziy Osiyoning yagona geosiyosiy makon ekanligi.

"Geosiyosat" tushunchasi o'zida ("geo" – "er", "siyosat" esa – "davlat" va "ijtimoiy ish") ma'nolarini anglatadi. "Geosiyosat" atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko'rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning mantfaatlari tizimi, unga bo'lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo'lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o'z ifodasini topadi.

"Geosiyosat" uzoq tarixga ega bo'lsada, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R.Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosiy fanlarda keng qo'llanilmoqda. Geosiyosat ko'p qirrali tushuncha sifatida turli mantfaatlarni o'zida mujassam etadi. Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko'proq mafkuraviy siyosat bilan hamoxanglikda namoyon bo'layotganligini alohida ta'kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish geosiyosatning eng ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish orqali, ularning faoliyatini o'z ta'siriga, ya'ni manfaatlariga yo'naltirilgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko'zlagan holda amalga oshishini aniq bilish qiyin va murakkabdir. Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq bo'lib qolganligini alohida ta'kidlaganlar.

Yadro poligonlarini qaerda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yo'nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo, yovuz, yot mafkuraviy maqsadlarni qaerda va qanday yo'llar bilan va qaysi insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo'lmaydi. Bugun "ikki qutbli mafkura" o'rtasidagi kurashga barham berilgan bo'lsada, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to'xtab qolgani yo'q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urunishlar turli yo'llar bilan sodir bo'lmoqda. Masalan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona g'oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug' maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi qo'yishga urunishlar bo'lganligining guvohimiz. Bunday harakatlarni ular o'zlarini "do'st", "millatdosh", "vatandosh", "dindosh" etib ko'rsatish niqobi bilan amalga oshirishga urunishdilar. Natijada, haqiqiy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli xil oqimlar yoshlarimiz ongini egallashga harakat qildi.

Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday tarzda bo'lib olishga urunishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan, hamda turli xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida sog'lom mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamoqdalar.

Milliy istiqlol g'oyasini chuqur egallash orqaligina bunday mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlarning mohiyatini to'g'ri tushunish va oldini olish mumkin. Mafkuraviy jarayonlar fikr, g'oya, mafkura, tizim sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. Ular ayrim insonlar ongini egallab olish orqali o'ziga xos ta'sir ko'rsatish maydonini yaratadi. Bu maydon ichida turli xalqlar, insonlar faoliyati mujassamlashadi.

Ma'rifiy rivojlanish va dunyo xalqlari rivoji shuni taqozo etadiki, geosiyosat ham ma'lum bir maqsadlarni ko'zlar ekan, u faqat insoniyat orzu qilib kelgan

tinchlik va barqarorlikka, mamlakatlar va xalqlar ravnaqiga, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida mujassam etib, hozirgi geosiyosiy maqsadlarning bosh mezoniga aylanib borishi lozim. U nosog'lom mafkura va g'oyalarni boshqa xalqlar ongiga, qalbiga singdirib, mafkuraviy jihatdan dunyoni bo'lib olishga emas, o'zaro manfaatli hamkorlikka, dunyoviy muammolarni o'zaro hamjihatlik bilan xal etishga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda, geosiyosatga yangicha yondashuv yangi asrda yangicha yondashuv yangi asrda yangicha ma'no va ahamiyat kasb etadi va dunyo taraqqiyotiga xizmat qiladi. XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o'zgarib ketdi. Ushbu vaziyatning mohiyati quyidagidan iborat:

Birinchidan, sobiq sho'rolar hukmronligi sharoitida kommunistik mafkura mintaqa xalqlari azaldan qon-qardosh bo'lishlariga qaramasdan ularni zo'rma-zo'raki "birlashtirib" turgan edi. U mintaqa xalqlari ongiga zo'ravonlik bilan yagona "Yagona Vatan" va sovet xalqi – yangi tarixiy birlik degan soxta tushunchalarni singdirishga zo'r berib urinar edi. Mintaqa xalqlari bundan qanchalik norozi bo'lmasin, o'zlarining tarixiy va ma'naviy yaqinligiga intilmasin, ammo bu intilishlarga nisbatan mafkuraviy tayziq benixoya kuchli edi.

Mintaqadagi sobiq ittifoqdosh respublikalar o'zlarining mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan bu mafkura barbod bo'ldi. Mustaqilligini qo'lga kiritgan mintaqa mamlakatlarining har biri oldida o'zlarining ichki hayoti va istiqlolini mustahkamlash, barqarorlikni ta'minlash va o'zlari uchun maqbul ulkan taraqqiyot yo'lini belgilab olishdek juda murakkab vazifalar yuzaga keldi. Bu jarayonning mintaqa mamlakatlarining o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirib turishga xizmat qiladigan ma'naviy-mafkuraviy omillar shakllanishiga ta'sir o'tkazish tabiiydir.

Ikkinchidan, mintaqadagi mamlakatlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan bo'lishiga qaramasdan, 1991 yilgacha sobiq markaz xali o'z hukmronligini qaytadan tiklashga moyil edi. Shuning uchun ham mintaqa mamlakatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish kabi

siyosatni davom ettirdi. Bu o’z navbatida, o’sha davrda ma’lum darajada mintaqa xalqlarining o’zaro munosabatlariga ham muayyan ta’sir ko’rsatdi.

Uchinchidan, mustaqillikni qo’lga kiritgan mintaqamiz mamlakatlarini o’z ta’sir doirasiga o’tkazish uchun yana boshqa bir qator mamlakatlar ham harakatni boshlab yubordilar. Ularning ko’pchiligi tashqaridan beg’araz ko’rsatayotganday bo’lib ko’rinsalarda, aslida har bir ko’rsatayotgan “yordamlari” evaziga mintaqa o’z mavqeini mustahkamlashga harakat qildilar. Aslida bunday harakatlarning bo’lishi tabiiy xoldek ko’rinadi. Ammo, bu harakatlarda ham mintaqa davlatlari va xalqlarini bir-biriga qarama-qarshi qo’yishga intilishlar yo’q emas. Demak, ana shu intilishlar ham mintaqa mamlakatlarining mustaqillik sharoitida yuzaga kelgan muammolarni o’zaro yaqdillik bilan xal qilishga xizmat qiladigan omilning yuzaga kelishiga o’zining ta’sirini o’tkazadi.

To’rtinchidan, mintaqada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi yangi ma’naviy-mafkuraviy vaziyatni yumshatish ehtiyoji ham oshib bordi. Prezident Islom Karimov ta’kidlagani kabi: “SSSR parchalanib ketganidan keyin bizning irodamiz yoki intilishimizga bog’liq bo’lmagan holda O’zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida Afg’oniston va Tojikistonda so’nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo’lgan ikkita tanglik o’chog’i alanga olib turibdi”.

O’zbekistonning Afg’onistondagi front yaqinidagi davlatga aylanib qolishi faqat mamlakatmiz uchungina emas, balki butun mintaqadagi barcha mamlakatlar uchun ham katta xavf-xatarni vujudga keltirdi.

Beshinchidan, O’zbekiston o’zining iqtisodiy salohiyati, xom-ashyo resurslarga boyligi, ishchi kuchi va demokratik imkoniyatlari bilangina emas, ko’p jihatdan geopolitik joylashuviga ko’ra ham, mintaqada yetakchi o’rinda turganligi bilan ham, ajralib turadi. Shuning uchun ham O’zbekistonga nisbatan bo’ladigan har qanday xavf-xatar, albatta, butun mintaqaga ta’sir qiladi. Shu ma’noda ham turli siyosiy kuchlar va harakatlar Afg’onistondagi urush olovini kuchaytirish va mintaqadagi vaziyatni murakkablashtirish hamda mintaqa davlatlarini unga jalb qilishning turli yo’llarini va uslublarini ishga solishga urunib keldilar. Vaziyat shu

darajada murakkablashadi, qo’shni mamlakatlarni bir-birining ichki ishlariga “aralashuvida” ayblab pirovard natijada qardosh xalqlar o’rtasidagi azaliy do’stlik xavf ostida qoldi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar tizimida Afg’onistonda davom etayotgan fuqarolar urushi ham alohida o’rin egallab turibdi. “Yigirma yildan buyon davom etib kelayotgan harbiy mojarolar oqibatida umuminsoniy tsivilizatsiyadan uzilib qolgan Afg’oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurol-yaroq va giyoxvand moddalarning noqonuniy savdosi o’chog’i bo’lib qoldi. Bu esa turli zararli g’oyalarning terrorchilik, taxdid va tahlil yo’li bilan butun mintaqaga yoyilish xavfini tug’dirmoqda”.[1]

Shuning uchun ham Prezidentimiz bu xavfning oldini olish zarurligiga jahon hamjamiyatining e’tiborini qaratmoqda.

2000 yilning sentyabr oyida ham BMT Bosh Assambleyasi “Ming yillik sammiti”da Prezidentimiz mintaqaviy xavfsizligini ta’minlash bilan bog’liq bo’lgan xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqaror xavfsizlikni ta’minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e’tibor qaratdi. Bu masalalarni o’ta murakkab tus olayotganligini asoslab berdi.

Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo’lgan ishonch – e’tiqodni mustahkamlash yo’lida xavf-xatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo’lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqa xalqlari uchun hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Mintaqa xalqlari uchun o’ta muhim ahamiyatga ega bo’lgan bu jarayonni to’g’ri anglab etgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000 yilning o’zida bir necha bor uchrashdilar va xavfsizlikni ta’minlash hamda o’zaro iqtisodiy integratsiyalashuvning dolzarb masalalarini muhokama qildilar. Jumladan, 2000 yil aprel oyida Toshkentda, 2001 yil avgust oyida Bishkekda va oktyabr oyida yana Toshkentda, 2001 yil yanvarida Ostonada bo’lib o’tgan

[1].Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: “O’zbekiston”, 1997. 21- b.

uchrashuvlarda mintaqada xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, oktyabr oyida Toshkentda bo’lib o’tgan uchrashuvda “Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo’yicha hamkorlikning ustuvor yo’nalishlari” to’g’risidagi o’ta muhim hujjat shular jumlasidandir.

2004 iyunida Toshkentda ochilgan SHHTning aksilterror tuzilmasi terrorizm diniy ekstremizm va seperatizim kabi taxdidlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining bu uchrashuvlari umumiy xavfsizlikni ta’minlash, mintaqa xalqlarining o’zaro do’stligini mustahkamlash va mavjud iqtisodiy muammolarni xal etish imkonini beradi. Shu ma’noda O’zbekiston Prezidenti tomonidan olg’a surilgan “Turkiston – umumiy uyimiz” g’oyasining amalaiy ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim. Shuning bilan birga Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash zarur. Ularning bu yo’ldagi sa’y-harakatlari, imkoniyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish ayniqsa muhimdir”.[1]

O’zbekiston ilgari surayotgan Afg’onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo’l bilan xal etishga qaratilgan “olti qo’shuv ikki” guruhi faoliyatini yo’lga qo’yish, terrorchilikka qarshi xalqaro kurash markazini tashkil qilish borasidagi tashabbuslar, mintaqa mamlakatlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borilayotgan sa’y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Prezidenti NATO (Yevroatlantika hamkorlik kengashi (SEAP)ning Buxarestda bo’lib o’tgan sammitida Afg’onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo’yicha takliflari ya’ni 6+1 muloqat guruhini Afhonistondagi mavjud vaziyatni hisobga olgan holda va NATO ning ishtirok etishini nazarda

[1]. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
-T.: “O’zbekiston”, 1997. 26 - b.

tutib, 6+3 guruhiga aylantirish tashabbusini muhokama etish maqsadida 2008 yil 29 aprelda Toshkentda (20 dan ortiq) davlatlar vakillari ishtirokida seminar o'tkazildi.

Umuman, Afg'onistonda davom etayotgan harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal qilish g'oyasi Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan dastlabki qadam bo'lib qoldi. Albatta ana shu ijobiy harakatni davom ettirish, unga manfaatdor bo'lgan davlatlarni faollashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Xullas, bugungi kunda mintaqada xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni xal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istiqbolini ham belgilab beradi. Shuning bilan birga bu mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qon-qarindoshligi, hamkorligi va ma'naviy-ruxiy yaqinligini mustahkamlashda o'ta muhim amaliy ahamiyatga molik masaladir.

Qisqacha xulosalar.

Mintaqaviy mojaro tinchlik, barqarorlikka raxna soluvchi xavf-xatardir. Mintaqaviy mojaro bir-biriga chegaradosh bir nechta mamlakatlarning u yoki bunisida xal qilinmagan xodisadir. Bu muammo mahalliy xarakterni kasb etmay balki xalqaro darajadagi xodisadir.

Mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishning eng qulay va samarali yo'li siyosiy ya'ni muzokaralar bilan echishga bog'liqdir.

Eng afzali mojaroli vaziyatning bevosita taxdidga aylanishidan ilgari uning oldini olish, uzoq muddatga tinchlantirishga doir tegishli choralarning ishlab chiqishi va amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Mintaqaviy mojarolarni xal etishda jahon hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar birgalikda kuch-g'ayratlarni sariflashlari kerak.

Tayanch so'zlar.

Mintaqa, mintaqaviy mojaro, mintaqaviy mojarolar turlari, shakllari, yo'nalishlari, ko'rinishlari, fuqarolik urushi, millatlararo harbiy siyosiy to'qnashuvlar, separatizim, mintaqaviy mojarolarning omillari, mintaqaviy mojarolar kelib chiqishi sabablari, mintaqaviy muammolarni bartaraf etish yo'llari.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Mintaqaviy mojarolar qanday holatlarda yuzaga keladi deb o'ylaysiz? Uning sabablari qaysilar!
2. Mintaqaviy mojarolar rivojlanayotgan mamlakatlarda sodir bo'ladimi yoki rivojlangan mamlakatlarga ham xosmi?
3. Mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishning eng maqbul yo'li qaysi?
4. Mintaqaviy mojarolar qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin?
5. Mintaqaviy muammolarni bartaraf etishda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning roli qanday?
6. Markaziy Osiyo yagona geosiyosiy makon ekanligini qanday izoxlash mumkin?
7. I.Karimovning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash haqidagi qarashlari.
8. I.Karimovning ushbu mavzuga bag'ishlangan qaysi asarini bilasiz?
9. Bugungi kunda geopolitik maqsadlar qanday shakllarda namoyon bo'lmoqda?
10. I. Karimovning Afg'onistonga tegishli 6+2 guruhini 6+3 guruhiga aylantirish tashabbusi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2009. 33-34 - b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: "O'zbekiston", 1997, 3-32 - b.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. -T.: "O'zbekiston", 2007. 6-8 - b.
4. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. -T.: "O'zbekiston". 2008, 5-6 - b.
5. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2006, 98-113 - b.

6. Aliev B. Boboev A. Politologiya fani bo'yicha ta'lim tehnologiyasi. -T.: TDIU, 2006, 161-171- b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Prospekt. -M.: 2008, 513-522 - b.
8. Odilqoriev X.T. Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. "O'qituvchi" nashriyoti. -T.: 2008, 170-186 - b.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: "Fan". 2009, 587-616- b.

16-MAVZU: XALQARO XAVFSIZLIK: BARQARORLIK VA TARAQQIYOT.

16.1. Xalqaro xavfsizlik, xalqaro barqarorlik va xalqaro taraqqiyot, ularning uzviy bog'liqligi.

Insoniyat XXI asrga qadam qo'ydi. Bu asr o'tgan asrlardan tubdan farq qiladi.

Agar uning ijobiy tomoniga nazar tashlasak quyidagilarda ko'rasiz:

a) Batamom yangi davlatlar jahon siyosat maydoniga kirib keldi, er yuzi xalqlarining yashash tarzi, uslubi va sotsial mo'ljallarida yangilanish sodir bo'ldi.

b) Dunyoviy demokratik tartibot insoniyatning kundalik amaliy faoliyatiga aylanib bormoqda.

v) Davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlar ustivorligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni tinch yo'l bilan xal qilish sohasida birgalikdagi hamkorlik asosiy tamoyiliga aylanib bormoqda.

g) Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi mehanizm yaratildi.

d) Xalqaro xavfsizlikning keng qamrovli tizimi (harbiy, siyosat, iqtisodiy, gumanitar sohalarda) amal qildi.

e) Texnologik revolyutsiyaga bog'liq holda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishida qudratli sakrash yuz berdi.

j) Hozirgi dunyoning bir butunligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Insoniyat o'zini jahon hamjamiyatining yagona bo'g'ini ekanligini anglab etmoqda.

Uning ikkinchi tomoni shundaki, totalitar tuzum emirilgandan keyin dunyoning qutblarga bo'linishi barxam topdi. "Sovuq urush" xavfi orqaga chekindi. Lekin dunyo shu tufayli xavfsizroq, barqarorroq bo'lib qolmadi. "Mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi – bularning hammasi dunyo xali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligidan dalolat beradi".[1]

Xavfsizlikka taxdid solayotgan muammolar qaysilar degan savol tug'iladi.

- Yalpi xavfsizlikka asosiy taxdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlat ichidagi jangari separatizim;
- Terrorizm va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan noqonuniy savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy poymol etish;
- Yadroviy xavfsizlik va ekologik muammolar;
- Mintaqaviy mojarolar.

Ular xalqaro xavfsizlik tizimini zaiflashtirib qolmasdan, balki umumjahon barqarorligi va taraqqiyotiga jiddiy xavf solinmoqda.

Xalqaro xavfsizlik tizimiga ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

Tizimni buzuvchi sub'ektiv omillar: o'z milliy manfaatlarini boshqalarning milliy manfaatlariga qarshi qo'yish, o'zgalarni mensimaslik, gegemonizm, imperiyaviy tafakkur. O'z sotsial tizimini barchadan ustun hisoblab, boshqalarni esa uni qabul qilishga majburlash singari jarayonlar bo'lsa, ikkinchisi, tizim buzar ob'ektiv omillar: eskidan insoniyatga meros qolib, bugungi kunda yanada daxshatliroq tus olgan dunyoning moddiy, harbiy, siyosiy salohiyatiga ko'ra qutblarga ajralish amaliyoti, diniy, milliy, etnik va tsivilizatsiyali ziddiyatlar va yadroviy vasvasadir.

Yuqorida sanab o'tilgan taxdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon bo'lsada, insoniyatda bir xil tashvish tug'diradi. Chunki bu muammolarning ko'pchiligini yalpi tamoyillar va ulkan voqea-hodisalar keltirib

[1] Karimov I.A.. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
-T.: "O'zbekiston", 1997. 6-b.

chiqaradi. Shu sababli ushbu muammolarni yakka tarzda emas, xalqaro hamkorlik doirasida hal etish mumkin.

“Ko’pincha ular kutilmaganda ro’y bermoqda. Juda katta qurbonlar kulfatlarga sabab bo’lmoqda. Eng fojialisi – insonlar qurbon bo’lmoqda. Beqaror, adovatli vaziyat vujudga kelmoqda. Ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot jarayonlari sekinlashmoqda. Bu esa aholida ertangi kunga ishonchsizlik, o’z hayotidan, qarindosh-urug’lari va yaqin kishilarining hayotida xavotir xissini uyg’otmoqda”.[1]

Demak xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyot degan ana shu oddiy so’zlar zamirida chuqur ma’no-mazmun bor ekan.

Hozirgi kunda umumiy xavfsizlikni ta’min etmay turib davlatlar o’z xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga erisha olmaydi.

Xavfsizlik – uzluksiz holatdir, xadsiz – hududsizdir. Xavfsizlik ta’minlangan joyda barqarorlik bo’ladi, demak taraqqiyot uchun keng ufqlar ochiladi.

Barqarorlik – tinchlik, osoyishtalik va ijobiy mehnat muhiti qat’iy, uzil-kesil hamda mustahkam o’rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy shartidir. Insoniyatning shu kunlargacha kechirgan tarixi – barqarorlik va beqarorlikdan (ya’ni sinfiy, harbiy, qabilaviy va guruhiy qarashlar, to’knashuvlar, shafqatsiz urushlar sahifalaridan) tarkib topgan. Beqarorlik natijasida barqarorlik davrida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar nobud qilingan, jamiyat taraqqiyoti sustlashgan.

Bunday jarayonlar kishilar ongiga chuqur singib ketgan bo’lsada insoniyat tarixi, xususan, oxirgi besh asr davomida jamiyatni ilmli asosda boshqarish imkoniyatlarini izlash va topishni taqazo etdi. Bu yo’nalishdagi qarashlar Tomas Morning (1478-1535) “Utopiya”, Sharl Lui Montesake (1689-1755)ning “Rimliklar buyukligi va inqirozi sabablari to’g’risida”, Tomas Jerffersonninng (1743-1826) “AQSh mustaqilligi bayonoti” asarlarida o’z ifodasini topgan.

Xalqaro xavfsizlikning yangi tizimi qanday, u qanday umumtizimiy maqsad va vazifalarni o’z ichiga oladi?

[1]Karimov I.A.. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: “O’zbekiston”, 1997. 15- b.

Bular: 1) Dunyodagi barcha katta-kichik davlatlar bir-birlari bilan hamkorlikda yashashga majbur ekanliklari; 2) Har bir davlatning barqarorligi va rivojlanishidan manfaatdor ekanligi; 3) Ularning har biri xalqaro tizimni mustahkamlashga xizmat qilishi yo'lida bir-birlarining oldida mas'uldir; 4) Xalqaro munosabatlarda o'zaro yordam va hamkorlikning kengayib borishi; 5) Jahon tsivilizatsiyasining kelajagi uchun mas'uliyatni xis etish; 6) Xalqaro xavfsizlik g'oyalarini ommaviylashtirishda hamkorlikni kengaytirish; 7) Jahon xo'jalik hayoti yagona birlik sifatida shakllanib borayotgan sharoitda biron-bir davlat undan ajralgan holda ravnaq topa olmaydi; 8) Jahon siyosatining tobora uyg'unlashib, murakkablashib, yagona umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlar yo'nalishiga kirib borishi va h.k.

Do'stlik va hamkorlik – xavfsizlik, barqarorlik va sobitqadam rivojlanish degan so'zlar ramzidir. Chunki, aynan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Sayyoramizda jug'rofiy-siyosiy muvozanatning ajralmas sharti bo'lib qoladi. Bu har bir insonga kelajakka dadil va ishonch bilan qarash huquqini beradi.[1]

Xulosa shuki, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va saqlashning bosh mezoni bu xavfsizlikni umumbashariy tizimga aylantirishdan iboratdir.

Xavfsizlikni va barqarorlashgan dunyoni barpo etish hozirda jahonda yuz berayotgan ob'ektiv iqtisodiy hamda siyosiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Taraqqiyotni to'xtatish mumkin emas, demak, goho bir mamlakatda, goho ikkinchi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bo'lishi muqarrar. Dunyoning biron bir mamlakatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, albatta tashqi siyosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatlar bo'shliqda yashamaydilar. U qo'shni davlatlar bilan, dunyo bozori bilan turlicha aloqalar orqali bog'langan. Ko'pincha harbiy ittifoqlarga a'zolar yoki ichki xayrihoxdirlar. Davlatlar ko'pincha o'zlariga o'xshash ijtimoiy tartibotga ega mamlakatlarga

[1] Karimov I.A.. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik, shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: "O'zbekiston", 1997.16 - b.

nisbatan birdam bo’ladilar. SHuning uchun ichki tartibning o’zgarishiga olib keladi.

Bu esa, o’z navbatida, ma’lum sharoitlarda tashqi siyosat muvozanatining buzilishiga olib kelishi tufayli xalqaro siyosatda keskin vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ikki sistema mavjud bo’lgan yaqin o’tmishida shunday holatlar tez-tez bo’lib turgan. Voqealarga aralashish yuzaga kelgan ixtiloflarga keskinlik bag’ishlaydi, uning uzoq muddatli bo’lishini ta’minlab bartaraf etishni qiyinlashtiradi, ayrim olingan mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlarning xalqaro kuchlar joylashuviga barqaror bo’lmagan ta’sirini bartaraf etishni kuch ishlatish yo’li bilan emas, balki xalqaro maydonda qabul qilingan huquqiy normalar, majburiyatlar orqali xal etilishi mumkin.

Sivilizatsiyali munosabatlarni bir mamlakat ichki ishlarga aralashmasligi, kurashuvchi tomonlarni gij-gijlatmasligi, ularga moddiy va harbiy yordam ko’rsatishini, qurolli kuchlarni tashkil etishni qat’iy man etishini nazarda tutadi.

Qandaydir bir mamlakatdagi voqealarning borishiga baho berishda, ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda nima qilish kerak? Bunday muammolar davlatlar va xalqaro tashkilotlar say-harakatlari orqali bartaraf qilinishi kerak.

Shubha yo’qki, mamlakatlar o’rtasidagi munosabatlar qanchalik tartibga solingan bo’lsa, davlatlar o’rtasidagi o’zaro ishonch samarali bo’lsa ixtiloflarning oldini olish shunchalar oson bo’ladi.

16.2. Xalqaro xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning roli

Xalqaro siyosatning ajralmas yo’ldoshlari, tarkibiy qismlari sifatida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar amal qiladilar. Ular xalqaro siyosatning yo’nalishlarini belgilab berishda, uning amal qilishi va davom etishida pirovardida, umuminsoniy maqsad-manfaatlar yo’lida xizmat qilishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlarning har biri xalqaro siyosatda o’zlarining faoliyat maqsadlari yo’nalishlariga qarab, er yuzi taraqqiyotidagi egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga

qarab ahamiyat kasb etadilar. Ular turli tarixiy vaqtda va turli shart-sharoitlarda vujudga kelgan yoki tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda ularning umumiy soni hamda faoliyat samaradorliklari ortib borayotganligini alohida e'tirof etish zarur.

Xalqaro munosabatlar tarixida Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, uni mustahkamlash hamda davlatlararo tinch-totuv hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarida ta'sis etilgan suveren davlatlarning ixtiyoriy uyushmasi tarzidagi xalqaro tashkilotdir.

BMT Xavfsizlik Kengashiga AQSh, Rossiya, Xitoy, Angliya, Fransiya doimiy a'zolik maqomiga ega, qolgan o'n bir davlat navbat bilan turli qit'a va hududlardan saylanib turiladigan a'zolar sifatida kiradilar.

Xavfsizlik kengashi er yuzida mustahkam tinchlikni o'rnatish, xalqaro xavfsizlikni barqaror etish, insoniyat hayotidan urushlarni chiqarib tashlash va har qanday qurolli to'qnashuvlarning oldini olish kabi xalqaro siyosatning juda muhim muammolari bilan shug'ullanadi.

Xavfsizlik Kengashi er yuzining qaysi burchagida bo'lmasin, to'qnashuv va nizolarning oldini olish choralarini ko'radi, urush va tinchlik muammolarini muhokama etib, tegishli qarorlar chiqaradi, ularni izchil xal qiladi, favqulotda holatlarni bartaraf etishga o'z xissasini qo'shadi. Uning umuminsoniy manfaatlar yo'lidagi bunday oliyjanob faoliyati bilan BMTning eng muhim tarkibiy qismi xalqaro siyosatning tobora oqil, insonparvar, demokratik ruxdagi tinchlik va hamkorlik siyosatiga aylanib borishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Xavfsizlik Kengashi o'tgan 63 yil vaqt davomida qanchadan-qancha jahon alangasiga aylanib ketishi mumkin bo'lgan hududiy urushlar (Quriya urushi, Karib inqirozi, Kipr mojarosi, Livan fuqarolar urushi, Angola, Namibiya, Mozambik mojarolari, Afg'on urushi, Hindiston-Pokiston urushlari, Bolqon urushi, Kosovo masalasi)ni darxol to'xtatish, bema'ni qon to'kishlarning oldini olish, qurol va kuch ishlatmaslik, barcha mojarolarni siyosiy munozara hamda muzokaralar vasitalari yordamida xal qilish mehanizmiga aylanib, insoniyat hayotini qirg'in-barot urushlar xavfidan samarali muhofaza etib kelmoqda.

BMT o’ziga xos xalqaro tashkilot bo’lib, jahon siyosatinig barcha muhim sohalarini o’z faoliyatida uyg’un tarzda mujassamlashtirgan. Mana shu ma’noda u xalqaro tashkilotlarning butun bir tizimini anglatadi.

BMT tizimiga bir qator mustaqil xalqaro tashkilotlar kiradi, bular: Atom energiyasi bo’yicha xalqaro vakillik (MAGATE), Xalq ta’limi, fan va madaniyat masalalari bilan shug’ullanuvchi tashkilot (YUNESKO), Xalqaro bolalarni himoya qilish tashkiloti (YUNISEF), Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro juyali 16 ta xalqaro tashkilotlar iqtisodiy, ijtimoiy hayot, madaniyat, ta’lim, fan, sog’liqni saqlash sohalari bo’yicha faoliyat olib boradilar. Ularning hammasi dunyo xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilgani holda, oxir-oqibat xalqaro maydonda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

BMTning insoniyat istiqboli yo’lidagi faoliyati o’zining yangi bosqichga ko’tarilganligini e’tirof etish bilan birga shaklan mustaqil, aslida BMT bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotgan va amal qilayotgan xalqaro tashkilotlarning xavfsizlikka qo’shayotgan salmoqli ulushini aytib o’tish lozim.

Bular: Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Yevropa ittifoqi, Afrika birligi tashkiloti (ABT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Shanxay Hamkorlik tashkiloti (SHHT), Yevropa-Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (EvrAzES) va h.k.

Bu tashkilotlarning maqsadi a’zo mamlakatlarning bir-biriga o’zaro ishonchi, do’stlik va qo’shnichilikni mustahkamlash, ular o’rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi hamkorlikni rag’batlantirishdan iborat. Shuningdek, butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi kuchayganligi munosabati bilan ularga qarshi keskin kurash olib borish maqsadini ko’zlagan.

Demak, hozir biz yashab turgan davr taraqqiyotining ob’ektiv xususiyatlari shundan iboratki, termoyadro, ekologik falokatlar, terrorizm xavfini boshqa dunyo miqyosidagi muammolarni izchil, tez, og’ishmay, faqat birgalikda bartaraf etish, bir-biriga qarama-qarshi siyosatidan o’zaro har tomonlama hamkorlik siyosatiga

o’tib, jahon xo’jalik hayoti oqimiga qo’shilib ketish zarurligi jahon tsivilizatsiyasini, insoniyat hayot-mamotini saqlab qolish uchun birgalikda, hamjihatlikda kurashish zarurligi darajasida, hozirgi davr – qat’iy talabi sifatida amal qilmoqda.

16.3. O’zbekiston milliy xavfsizlik strategiyasining asosiy parametrlari, ichki va tashqi omillari

Mustaqillik e’lon qilingan kundan boshlab, Vatan xavfsizligini mustahkamlash, hududiy butunligini saqlash davlatimizning diqqat-e’tiborida bo’ldi. Milliy xavfsizlik, avvalo, mamlakatning mudofa qobiliyatiga bog’liq. SHu boisdan mamlakatning mudofa qobiliyatini mustahkamlash choralari ko’rildi. 1991 yil sentyabrda O’zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tuzildi. O’zbekistonning o’z qurolli kuchlari tashkil etildi.

O’zbekiston Qurolli Kuchlari quruqlikdagi qo’shinlar, harbiy havo kuchlari, havo xujumidan mudofa qo’shinlari, maxsus va muhandislik qurilish qo’shinlari hamda milliy gvardiyadan iborat.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq O’zbekiston Prezidenti mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy bosh qo’mondoni hisoblanadi.

O’tgan yillarda mamlakatimizda yuqori malakali ofitser kadrlar tayyolash tizimi yaratildi. Toshkent umumqo’shin komandirlari, Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar, Chirchiq tankchi komandir-muhandislar, Toshkent aloqa-elektronika institutida tashkil etilgan maxsus fakultet qurolli kuchlarimizga turli mutahassisliklar bo’yicha yuqori malakali komandirlar tayyorlab bermoqda.

Toshkentda Oliy qo’mondonlar tayyorlovchi harbiy akademiya faoliyat ko’rsatmoqda. Harbiy akademiya zamonaviy harbiy bilimlarni egallagan, jahon harbiy ilmiy va jangovar tayyorgarligining ilg’or tajribalarini o’zlashtirgan oliy qo’mondonlarini tayyorlab chiqarmoqda.

Mustaqillik yillarida qurolli kuchlarimizni zamonaviy harbiy texnikalar, qurol-yarog’lar bilan ta’minlash darajasi tobora o’sib bormoqda.

O’zbekiston 1995 yil iyul oyida NATOning “Tinchlik yo’lida hamkorlik” dasturiga qo’shildi. Bu dastur tomonidan AQShda, Qozog’iston va O’zbekistonda uyushtirilgan harbiy mashqlarda O’zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan:

- Shimoliy Karolinadagi Kemp Lejyun dengiz piyodalari poligonida O’zbekistonlik askarlar NATOning “Tinchlik yo’lida hamkorlik” dasturida 16 ishtirokchi mamlakat armiyalari vakillari hamkorligida o’tkazilayotgan mashqlarda qatnashdilar;

- O’zbekistonlik desantchilar mamlakatimiz hududida amerikaliklar bilan hamkorlikda o’tkazilgan “Ultrabalans– 96” tajriba mashqlarida yuksak mahoratlarini namoyish etdilar;

- Toshkent, Chirchiq, Samarqand harbiy bilim yurtlari kursantlarining terma vzvodi 1997 yil may-iyun oylarida Norvegiyada o’tkazilgan “Kooperativ bankers – 97” mashqlarida ishtirok etdilar;

- Luizana shtatidagi Ford Polk harbiy bazasida 1997 yil iyun-iyul oylarida O’zbekistonlik askarlar ishtirokida “Kooperativ nagget–97” hamkorlik mashqlari bo’lib o’tdi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, tinchlik yo’lidagi bu hamkorlik dasturida ishtrokimizdan ko’zlangan maqsad o’z mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlardan baxramand bo’lish, malakali harbiy kadrlar tayyorlashdagi imkoniyatlarimizni kengaytirish, qurolli kuchlarimizning zamonaviy harbiy mahoratini oshirib borishdan iborat.

Haqiqatda nima sababdan harbiy kuchlarimizning mahoratini oshirishga va zamonaviylashtirishga e’tiborini kuchaytirmoqdamiz? Sababi, O’zbekiston o’zining jug’rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo’lga qo’yilmagan mintaqada joylashgan.

O’zbekiston amalda Fors ko’rfazi, Kaspiy dengizi havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim xalqaning strategik markazidir. Bu yarim xalqa

atrofida yaqin yillarda Yevrosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zahiralari mavjud.

Buning ustiga, biz Rossiya, Xitoy va Hindiston, Sharq va G'arb mamlakatlarining bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismimiz. XXI asr qiyofasini belgilab beradigan bu kuch markazlari ana shu mintaqada o'z manfaatlarini izlaydi. Evrosiyo markazlari tutashgan erda joylashgan bizning hududimizdan, islom dunyosining Turkiya, Pokiston, Eron va Saudiya Arabistoni kabi qudratli mamlakatlari ham, yuqoridagi kuchlar kabi, o'z manfaatlarini izlaydi.

Yana bir taxdid manbai shu bilan bog'liqki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Ustiga-ustak yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh. Bu davlatlarda xorijdagi eng ko'p sonli millatdoshlarimiz istiqomat qilib turganligini hisobga olish ham kerak.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida quyidagilarga to'xtalib o'tdi:

Birinchi – mintaqaviy mojarolar. O'zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida – Afg'oniston va Tojikistonda so'nggi yillarda yuz bergan, millionlab insonlar hayotiga zomin bo'lgan ikkita tanglik o'chog'ining mavjudligi.

20 yildan ortiq vaqt davomida urush harakatlari olib borilgan va xanuzgacha tanglik davo etayotgan Afg'onistondagi tanglikning chuqurligi va keskinligini, uning mintaqaviy va dunyo miqyosidagi jug'rofiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini e'tiborga olib, bu fojeani ko'lami va xavfi jihatidan hozirgi dunyoning eng katta mintaqaviy mojarolari jumlasiga kiritish mumkin.

Tojikistondagi o’tgan asrning 90 yillaridagi beqarorligi ham butun Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqarorlik holatiga, jumladan, O’zbekistonning milliy xavfsizligiga salbiy ta’sir ko’rsatdi.

Vaziyatning rivojlanishi natijasida qurolli yoki boshqacha tarzdagi qo’poruvchilik faoliyati ataylab yoki beixtiyor qo’shni davlatlar hududiga o’tishi mumkinligi jiddiy e’tiborni talab qiladi. Masalan, 1997 yil 10 yanvar kuni Tojikistonning Tursunzoda shahridagi hukumat va muxolifat o’rtasidagi to’qnashuvlar natijasida Surxondaryo hududiga ikkita snaryad tushib, fuqarolarimizdan 4 nafarini jaroxatlagan, ulardan biri halok bo’lgan.

Ikkinchi – diniy ekstremizm va fundamentalizm. XX asrning oxiri diniy qadriyatlarning uyg’onish davri bo’ldi. Mana shu uyg’onish bilan birga, dinni niqob qilib o’zlarining g’arazli manfaatlari yo’lida foydalanuvchi oqimlar – Vahobiylik, “Xizbut-taxrir”, “Musulmon birodarlari” kabi harakatlardir. Ular 1999 yilda Yangiobodda, 2000 yilda Sariosiyo va Uzun tumanlariga bostirib kirib, mamlakatimiz tinchligini buzishga urindilar.

Uchinchi – buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik. 1991 yil yangi davr boshlangan tarixiy nuqta bo’ldi. Shu yili totalitar tuzumning sobiq qurbonlari o’z mamlakatlarining ozod bo’lishiga erishdilar va milliy davlat sifatida qayta tiklanish imkoniyatini qo’lga kiritdilar. Ruslar va rusiyzabon harakatlarga, O’rta Osiyodagi Rossiyaga ergashuvchi muxolif kuchlarga yordam berish uchun Rossiya Federatsiyasi davlat va xususiy tuzilmalarining tazyiq o’tkazish imkoniyatlarini ishga solishimiz kerak, deydilar. Shu tariqa Rossiya – O’rta Osiyo mamlakatlarini katta-katta masalalarda unga yon berishga undaydi.

To’rtinchi – etnik va millatlararo ziddiyatlar. Ma’lumki, mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o’rtasida hech qanday nifoq chiqishiga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Aks holda davlatning va mintaqaning xavfsizligiga taxdid tug’ilishi mumkin. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, 1999 yil 16 fevral voqealari O’zbekiston mustaqilligiga xavf-xatar borligini aniq namoyon qildi. Bunday qo’poruvchilikdan maqsad – mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar va millatlararo totuvlikni izdan chiqarishga urinishdir.

Navbatdagi taxdidlarga Yurtboshimiz “koruptsiya va jinoyatchilik”, “mahalliychilik va urug’-aymoqchilik munosabatlari” va “ekololik muammolar”ni ta’kidlab o’tdi.

Xavfsizlik masalalariga Prezidentimiz bir qancha nufuzli anjumanlarda takror va takror to’xtalib, bir necha amaliy takliflarni bildirdi. Jumladan:

1. 1992 yilning 13 oktyabrida, Toshkentda Prezident I.A.Karimov va Afg’oniston Islom davlati rahbari Burhoniddin Rabboniy tomonidan ikki tomonlama diplomatik munosabatlar o’rnatish, havo yo’llari ochish to’g’risida hujjatlar imzolandi.

2. 1993 yilning 18 iyunida Shveytsariyadagi “Forum fond” xalqaro iqtisodiy tashkiloti IV sessiyasida so’zlagan nutqida I.A.Karimov Afg’onistonda barqarorlikning ta’minlanishi Tojikistonda barqarorlik o’rnatilishining asosiy omili ekanligini ta’kidlab, O’zbekiston mintaqada ashaddiy fundamentalizmga asoslangan har qanday doktrinalarni tarqatishga qat’iyan qarshi turishini ma’lum qildi.

3. 1993 yilning iyulida Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotiga a’zo bo’lgan davlatlar rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvidagi nutqida Prezidentimiz iqtisodiy hamkorlikka to’siq va g’ov bo’lib turgan asosiy masala – Afg’onistondagi notinch va beqaror vaziyatga e’tiborni qaratib, muxolif kuchlarni yarashtirish, afg’on xalqini tezroq tinch mehnatga jalb etish birgalikda harakat qilish, shu maqsadda Afg’onistondagi muholif kuchlar, manfaatdor xalqaro tashkilotlar, BMT vakillarini Toshkent shahrida muzokaralar uchun yig’ilishga taklif qildi.

4. 1995 yilning 12 martida Kopengagenda o’tgan xalqaro konferentsiyada Yurtboshimiz Afg’oniston va Tojikistondagi vaziyatga jahon hamjamiyati diqqat-e’tiborini yana bir marta qaratib, bu mamlakatlarda o’n millionlab odamlar ochlik, qashshoqlik, vayronagarchilik sharoitida yashamoqda. Bunday sharoit ijtimoiy portlash omili bo’lib, u faqat Markaziy Osiyo mintaqasida emas, balki butun dunyodagi xavfsizlik va barqarorlikni larzaga solishga qodirdir, deb uqtirdi.

Bulardan tashqari 1995 yil 28 avgustda Bishkekda o’tgan turkiy tilli davlatlar rahbarlari uchrashuvida, o’sha yilning 15 sentyabrda Toshkentda o’tgan

Markaziy Osiyo xavfsizlik va hamkorlik masalalariga doir seminar kengashda, 1998 yil 21 sentyabrda Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan tashkil topgani, “6+2” guruhining 1999 yil 19-20 iyulda BMT bosh kotibining Afg’oniston bo’yicha maxsus elchisi ishtirokidagi uchrashuvida, 2001 yil 14 iyundagi Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlarining sammitida mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish taklifini ilgari surdi.

Prezident I.Karimov Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va milliy xavfsizlikni ta’minlashning kafolati sifatida quyidagi shart-sharoitlarni ko’rsatib o’tadi.

Birinchi. O’zbekiston jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida o’z o’rnini topishi kerak. buning uchun respublikaning dunyo hamjamiyatiga qarshi sur’atlarini tezlashtirish va ularning faoliyatida faol ishtirok etishi kerak. Xalqaro tashkilotlar iqtisodiyotni qayta qurish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash garovidir.

BMTni O’zbekiston kelajakda yalpi tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydigan kuchli tashkilotga aynanishini tarafdori. Bu milliy, mintaqaviy va jahonshumul muammolarni xal qilishdagi dunyo davlatlari sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirishda uning ahamiyatini kuchaytirishdan mafaatdor.

Bundan buyon ham O’zbekistonning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tuzilmalaridagi ishtirokini kengaytiradi. Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda bu tashkilot imkoniyatlaridan, uning Shimoliy Atlantika hamkorlik kengashi, Yevropa Ittifoqi, Yevropa Kengashi, NATO va boshqa tashkilotlar bilan aloqalaridan keng foydalanishni nazarda tutadi. O’zbekiston Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Osiyodagi tayanchi bo’la olishligini e’lon qildi.

Ko’shilmaslik harakati, islom Konferentsiyasi tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish tinchlikni saqlashning birdan-bir garovidir.

Ikkinchi. Milliy xavfsizlikka erishishda davlatlararo bitimlar tizimini barpo etish muhim yo’nalish hisoblanadi. O’zbekiston qanchalik ko’p mamlakatlar bilan

do’stona amaliy muloqat va hamkorlik munosabatlarini o’rnatsa, uning xavfsizligi shunchalik ko’p kafolatlanadi.

Uchinchi. Imzolangan davlatlararo bitimlarga so’zsiz amal qilish – xavfsizlik kafolati va shartidir.

Imzolangan hujjatlarga so’zsiz rioya qilish inson huquqlari, kam sonli millatlar huquqlari, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, tinch-totuv yashash tamoyillari singari sohalar, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. Bu holat Yangi mustaqil davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda xam o’ta muhim rol o’ynaydi. Hamdo’stlik barpo etilgandan buyon o’tgan vaqt ichida turli muammolar yuzasidan bir necha yuz bitim va shartnomalar qabul qilindi. Afsuski ularning aksariyati qog’ozda qolib ketdi.

To’rtinchi. Tashqi siyosatni mafkuradan to’la xoli etish xavfsizlikni ta’minlashning muhim kafolatidir. O’zbekiston shu paytgacha dunyoning barcha mamlakatlari, qit’alari va mintaqalari bilan o’z munosabatlarini, bu mamlakatlarning usturmasi qanday bo’lishidan qat’iy nazar, faqat xalqaro huquqning barcha tan olgan holda va mezonlari asosida qurib kelmoqda.

Ma’lumki g’oyaviy muxoliflik o’tmishda davlatlararo munosabatlarga soya solib, davlatlarning bir-biriga qarshi ikki guruhga bo’linishiga sabab bo’ldi. Dunyoni xalokat yoqasiga olib keldi.

Beshinchi. O’zbekiston Ko’shilmaslik harakatiga a’zo bo’lgani sababli hech qanday blokka qo’shilmaydi. O’zbekiston buni milliy xavfsizlikning muhim kafolati deb qaraydi. SHu bilan birgalikda harbiy bloklar bilan hamkorlik qilish tinchlik ishiga, mamlakatlar va xalqlarning xavfsizligi maqsadlariga xizmat qilsa, O’zbekiston doimo muloqotda tayyor. Shu o’rinda O’zbekiston 1994 yilning iyulida NATOning kollektiv xavfsizlikning ta’minlanishga qaratilgan “Tinchlik yo’lida hamkorlik loyihasini” imzoladi.

Oltinchi. O’zbekistonning MDH tarkibida kolletiv tizimdagi hamkorligi ishtiroki mintaqada barqarorlik va tinchlikning muhim kafolatidir. Davlatlarning imkoniyatlari va sa’y-harakatlarini xavfsizlikni ta’minlash yo’lida birlashtirish muhim ahamiyatga ega. U birinchidan, kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok

etuvchilar o’rtasida keskinlik yo’qligidan dalolat bersa, ikkinchidan, ularning birlashishga intilishlarini namoyish etadi. MDH mamlakatlari o’rtasida tuzilgan xavfsizlik to’g’risidagi shartnomalardan dastlabkisi 1992 yil may oyida Tshkentda imzolangan edi.

Yettinchi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o’zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. O’zbekiston Prezidentining O’sh viloyatida bo’lgan chog’ida, Bishkekdagi rasmiy uchrashuvda Markaziy Osiyo xalqlari o’rtasidagi yaxshi qo’shnichilik va tinchlik a’nanalarini mustahkamlash, osoyishtalikni barqarorlashtirish borasidagi faoliyati yuqori baholanib, uni “Ruxoniyat” ma’naviy tiklanish xalqaro Assotsiatsiyasi kengashi “Xalqlar o’rtasidagi tinchlik va totuvlik uchun” mukofoti bilan taqdirlaganligi buning isbotidir.

2002 yil 28 fevral 1 mart kunlari Qozog’istonning Almati shahrida o’tkazilgan sammitida “MO hamkorligi” zimmasiga (terror, uyuushgan jamoatchilik) xavfsizlikni ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda bahamjihat ish ko’rish to’la huquq beriladi.

Sakkizinchi. Hozirgi kunda davlat barqarorligini ta’minlash jamiyatning ijtimoiy-ruxiy, ma’naviy va ahloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanadi. Davlat mustaqilligi va qudratli uning jahon jamoatchiligi oldidagi ma’naviy-ahloqiy qiyofasi va nufuzi bilan ham belgilanadi. Demak millatimizning, xalqimizning ma’naviy jihatdan uyg’onish mustaqilligimiz, milliy xavfsizligimiz garovidir. Ushbu muhim ishda biz Sharqning buyuk ma’naviy ta’minotidan. Xalqlarni tinch hayot kechirishga chaqiruvchi islom falsafasidan keng foydalanish lozim.

Davlat xavfsizligini ta’min etishning asosi – yoshlardir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yoshlar bizdan afzalroq qiladigan bo’lishlari lozim. Ular jahon umumbashariy yutuqlari egallashi, tariximizni, madaniyatimizni, buyuk allomalarimiz qoldirgan merosni chuqur bilmog’i kerak. bugun zo’r umidlar bilan ko’rayotgan yangi jamiyatimizning mazmun-mohiyati ham ana shunda.

1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”ning 17-moddasida shunday deyilgan: “O’zbekiston Rempublikasi xalqaro munosabatlarning to’la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligini, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo’l bilan xal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi”.

O’zbekiston tashqi siyosatning yana bir yo’nalishi va muhim tomoni bu harbiy siyosatdir. 1995 yili, 6 iyulda Oliy Majlisi O’zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini qabul qildi. Bu doktrinada mamlakatni tashqi tinchliksevar siyosatiga hamohang va monand keladigan qoidalar o’z asosini topdi. Bu qoidalari O’zbekiston Respublikasi mudofa siyosatining asosini tashkil etdi. Bu siyosat “Mustaqillik deklaratsiyasi”, “O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to’g’risida”gi Qonun, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining BMT, MDH va boshqa Xalqaro tashkilotlarning a’zosi sifatidagi majburiyatlariga asoslanadi.

O’zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda siyosiy kuchlarning yangicha joylashuvidagi hozirgi holatini hisobga olib, davlat xavfsizligini puxta ta’minlash hayotiy zarurat ekanligini e’tirof etdi. Shu munosabat bilan doktrinaning umumiy qoidasida O’zbekistonning printsiplari belgilab olindi. Bular:

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning suverenitetini va mustaqilligini, shuningdek davlatlararo shakllangan chegaralarning yaxlitligi va o’zgarmasligini hurmat qilish;
- o’z fuqarolarining hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish vazifasini o’z zimmasiga olish, o’zini-o’zi mudofa qilishdan iborat ajralmas huquqini amalga oshirish, davlatning zarur darajada kafolatlangan harbiy qudratga va mudofa qobiliyatiga ega bo’lishini ta’minlash va boshqalar.

Doktorinaning siyosiy jihatlari ham O’zbekiston tinchliksevar davlat ekanligini yana bir bor isbotladi. Bu jihatlar quyidagi holatlarni o’z ichiga oladi:

- jahondagi bironta ham davlatni o’zining dushmani deb hisoblamaydi, ularning birontasiga ham hududiy yoki boshqa da’vosi yo’q;

- xalqaro muammolarni, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy ziddiyatlarni urush yo’li bilan xal etishga qat’iyan qarshi chiqadi;

- jahon hamjamiyati davlatlari o’rtasida harbiy mojarolar chiqishining oldini olish, urush xavfini bartaraf etish diplomatiyasidan foydalanishga faol ishtirok etish, ziddiyatlar keskinlashib ketishining oldini olishga kuch-g’ayrat sarflanishi o’z tashqi siyosatining asosiy vazifasi deb hisoblaydi;

- bironta ham mamlakatga qarshi birinchi bo’lib harbiy harakatlarni boshlamaydi;

- yadro qurolisiz yashash printsiplariga amal qiladi, yadro qurolini joylashtirmaydi, ishlab chiqarmaydi va sotib olmaydi;

- Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari yuzasidan BMTning doimiy seminarini chaqirish;

- Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurollaridan xoli hudud deb e’lon qilinishi;

- kimyoviy, bakteriologik va boshqa turdagi yalpi qirg’in qurollarining hamma erda yo’q qilinishi, O’zbekiston Respublikasining kimyoviy qurollarni ta’qiqlash to’g’risidagi konventsiyaga va bakteriologik qurollarni ta’qiqlash muammolari yuzasidan muzokaralarga qo’shilishi;

- odamlar ruhiyatiga xalokatli ta’sir qiladigan vositalar, tektonik va boshqa turdagi qurollar ishlab chiqarilishini ta’qiqlashni va insoniyatning tinchliksevarlik manfaatiga xizmat qiladigan va kollektiv xavfsizligini ta’minlashga omil bo’lishi mumkin bo’ladigan, printsipial, muhim boshqa qator qoidalarni O’zbekiston tashqi siyosatining strategik ustivor yo’nalishlari, deb belgiladi va jahon hamjamiyati davlatlarini ham, har qanday urushlarning oldini olishga imkon beruvchi yuqoridagi holatlarga rioya qilishga chaqiradi.

O’zbekiston Respublikasining asosiy harbiy strategik vaziyatlarida ikki holat hisobga olindi;

- tinchlik davrida – davlatning mudofa qobiliyatini respublika daxlsizligi ta’minlanishini kafolatlashga qodir darajada saqlab turishdan, uning severenitetiga va hududiy yaxlitligiga qarshi qilinishi mumkin bo’lgan ig’vogarlik va tajovuzlarning oldini olishdan, qurolli kuchlarning xujamlari va mustaqil tarzda ham umumiy xavfsizlik to’g’risidagi shartnomalar qatnashchisi bo’lgan davlatlar qurolli kuchlari bilan o’zaro hamkorlikda bartaraf etish uchun doimo tayyor turishini ta’minlash;

- urush chiqqan taqdirda – tajovuzni o’z kuchlari bilan kafolatli tarzda bartaraf etish, shuningdek, tuzilgan shartnomalarga muvofiq MDH tarkibidagi davlatlarning qo’shma harbiy kuch-qudrati bilan tajovuzkorlarga qat’iyan talofat etkazishdan hamda uni urushni davom ettirish imkoniyatidan muxrum etishdan iborat bo’lishini belgilaydi.

Qurolli kuchlarning harbiy qudrati janovar qobiliyatini orttiruvchi hamma omillar va imkoniyatlar ishga solinishi doktrinada ko’zda tutiladi:

- xilma-xil qo’shin turlari uchun ofitser kadrlar tayyorlash tizimining barpo etilishi;

- qurolli kuchlarni zamonaviy jangovor texnika qurol-yarog’larning eng so’nggi namunalari bilan qurollantirish;

- harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida harbiy fanning so’nggi yutuqlarini, jangovor harakatlar olib borish tajribasini, shu jumladan chet el tajribasini ham hisobga olgan holda amalga oshirish va boshqa qator chora-tadbirlar belgilandi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, vaziyat “bizdan mavjud va potentsial xavf-xatarlarning oldini olish, chegaralarimiz daxlsizligini va hududimiz yaxlitligini ta’minlashga qodir bo’lgan xavfsizlik tizimini barpo etishni talab qilmoqda”. Qurolli kuchlarni, chegara va ichki qo’shinlarimizni davlat siyosatiga monand holda takomillashtirish, bosqichma-bosqich isloh qilish ishi davlatimiz siyosatining ustivor yo’nalishlari darajasiga ko’tarilmoqda.

Bugungi kunda qurolli kuchlarning barcha qo’yi va yuqori tarkiblarini qamrab olgan boshqaruv tuzilmalarini ilg’or mamlakatlar amaliyoti darajasiga olib chiqish ustida jiddiy ishlar amalga oshirmoqda. Vatanimiz sarhadlarining oldinga

chiziqlarida turganligini e’tiborga olgan holda, chegara qo’shinlarini isloh qilish, uning boshqaruv tuzilmasiga jiddiy o’zgartirish kiritish ishlari boshlab yuborildi.

Armiyamizni isloh qilish jarayonida qurolli kuchlarimizda ma’naviy-ahloqiy tarbiya tuzilmasini butunlay qayta qurish, uning asoslarida askarlarimiz ongida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg’usini chuqur ildiz orttirish bilan bog’liq ishlar alohida ahamiyat kasb etishi lozim. 2009 yil 14 yanvarda Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 17 yillik tantanalari nishonlagan harbiylarimiz har doim Vatan sarhadlarini ximoya qilishga tayyordirlar.

16.4. Mamlakatimiz xavfsizligida “Markaziy Osiyo omili”ning ustuvorligi

Markaziy Osiyo – Osiyo qit’asining mintaqaviy hududi bo’lib, bunda beshta mustaqil davlatlar – O’zbekiston, Qozog’iston, Qirg’iston, Tojikiston va Turkmaniston joylashgan. Bulardan O’zbekiston davlati Osiyo va Evropa xalqlari o’zaro aloqalari va hamkorligining insoniyat tarixida eng qadimgi va birinchi savdo yo’li – Buyuk Ipak yo’lining markaziy tayanch nuqtalaridan birida joylashgan. SHu boisdan ham mamlakatimiz xavfsizligini ta’minlashda Markaziy Osiyo omili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon O’zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik концерциyasida ham o’z ifodasini topgna bo’lib, uning zaruriy sabablarini quyidagi holatlar bilan sanab o’tish mumkin:

1) Er yuzida insonning yashashiga bevosita xavf-xatarning kuchayishi – yalpi yadro urushi, ekologik inqiroz, biogenetik naslning buzilishi xavfi.

2) Eng yangi texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish qobiliyati va ularni himoya qilish ahamiyatining oshib borishi.

3) Bizni o’rab turgan va manfaatlari bizga mos kelmaydigan mamlakatlar mavjudligi sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik umumiy tarkibining yo’qligi.

4) Musulmon dunyosidagi ayrim kuchli mamlakatlar manfaatlarining nomutanosibligi tufayli mintaqamizda to’qnashuvlarni keltirib chiqarish mumkinligi.

O’zbekiston jahon hamjamiyatida o’zining munosib o’rnini egallashi, o’z davlatchiligini barpo etishi, shunday murakkab va notinch dunyoda o’z mustaqilligini mustahkamlab borishi kerak. Shu munosabat bilan ushbu mintaqada barqarorlik va davlat xavfsizligi kafolatlarini aniqlash va ta’minlash g’oyat muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz fikricha, ular quyidagilardan iborat:

1. O’zbekiston jahon hamjamiyatida, davlatlararo xavfsizlik tizimida (EXHT, BMT) o’z o’rnini topishi kerak va u shunga erishmoqda.

2. Samarali siyosiy makonni vujudga keltiradigan mustahkam davlatlararo bitimlar tizimini yaratish va unga sa’y-harakatlar bilan erishmoqda.

3. Erishilgan xalqaro bitimlarga og’ishmay amal qilish.

4. Tashqi siyosatni mafkuralashtirishdan to’la voz kechish.

5. Qo’shilmaslik harakatining a’zosi sifatida O’zbekistonning har qanday bloklarda qatnashmasligi.

6. O’zbekistonning MDH, Yevroosiyo kollektiv xavfsizligi tizimida ishtirok etishi.

7. Yaqin qo’shnilarimiz: Markaziy Osiyo davlatlari bilan mustahkam va har tomonlama integraцiyalashuvni yanada chuqurlashtirish va uni modernizaцiyalash.

8. Armiyamiz, Qurolli Kuchlarimiz, harbiy doktrinamizga egaligimiz.

9. Jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, ma’naviy-axloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanish[1].

Markaziy Osiyo mintaqasida asosiy o’rinni egallayodigan O’zbekistondagi milliy xavfsizlik nimani anglatadi? Bu xavfsizlikni qanday tushunamiz?

Birinchidan, O’zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillarni to’la qo’llab-quvvatlaydi. Xavfsizlik – uzluksiz holatdir, hadsiz-hududsizdir.

Ikkinchidan, “Sovuq urush” barham topgandan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solip kelmoqda. Har qanday mintaqaning hal qilinmagan muammolari

[1] Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. 46-53-бетлар

dunyo zanjiri reakцiyasini keltirib chiqarishi vaziyatning beqarorlashuvi jug'rofiy-siyosiy muvozanatni buzishi mumkin.

Uchinchidan, O'zbekiston o'zining jug'rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. O'zbekiston amalda fors ko'rfazi, Kaspiy dengiz havzasi va Tarim havzasining neft' va gazga juda boy konlari joylashgan yarim xalqaning strategik markazidir. YA'ni, bu yarim xalqa atrofida Evroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zahairalari mavjud. Buning ustiga O'zbekiston Rossiya, Xitoy va Hindistonning, SHarq va G'arb mamlakatlarining bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismidir.

To'rtinchidan, mintaqaviy nizolar ko'pincha terrorizm va zo'rovonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbasi bo'lib kelmoqda.

Beshinchidan, xalqaro munosabatlar amaliyotida har bir mustaqil davlatning milliy manfaatlarigamuvofiq, o'z mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida bo'lishi lozim. Xalqaro tuzim, kollektiv xavfsizlik shartnomalarida qatnashish huquqini o'zlari belgilashi lozim.

Oltinchidan, ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e'tiborni talab qiladi.

Prezident Islom Karimov Markaziy Osiyo muammolari haqida gapirar ekan, "Dunyo qariyib yuz yil davomida unutib qo'ygan jug'rofiy siyosiy mkon bugungi kunda o'zining yangi sifatini ko'rsatmoqda va bu siyosiy sharoitda kutilmagan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ayni payitda bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini jalb etayotgan Markaziy Osiyo ularning tashqi siyosat yo'li strategiyasini shakllantirishda muhim va hal qiluvchi unsur bo'lib kelmaqda", degan edi.

Siyosatshunos olim N.Jo'raev fikricha, Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, uning siyosiy-jug'rofiy o'rni, iqtisodiy va ma'naviy imkoniyatlari jahon hamjamiyatini istiqbolga yangicha munosabatlar bilan

qarashga, dunyo ahlini o’ziga ham, olamga ham ziyrakroq nazar tashlashga majbur etmoqda. Biz yashayotgan dunyo torgina emas, juda murakkab ekanligini idrok qilmasdan turib, bu muammolarni hal qilish ancha qiyin[1].

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganining dastlabki kunlaridanoq Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga a’zo davlatlar bilan harbiy sohada hamkorlikka muhim ahamiyat bera boshladi. “O’zbekiston, - degan edi I.A.Karimov, - ayni shu sababli mintaqada va sobiq Ittifoq hududida kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish tashabbuskorlaridan biri bo’ldi. MDH mamlakatlari o’rtasida tuzilgan kollektiv xavfsizlik to’g’risidagi shartnomalarning dastlabkilaridan biri 1992 yil may oyida aynan Toshkentda imzolangani ham tasodif emas”[2].

O’zbekistonning mudofaa va barqarorlik концерциyasi mamlakatni, mustaqillikni himoya qilish, davlatning hududiy yaxlitligini ta’minlash singari tamoyillar bilan dunyoda tinchlikni saqlashda, dunyo mojarolarini hal etishda o’ziga xos yondoshuvi borligini ko’rsatadi.

Mamlakatimiz xavfsizligini ta’minlashda “Markaziy Osiyo omili”ning ustuvorligi yana shundaki, O’zbekiston davlatining mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarda bevosita qatnashayotganligi, mintaqada milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida SHHT, MDH kabi tashkilotlarda ishtiroki bilan bog’liq. 2004 yil 17 yanvardan boshlab SHHTning Mintaqviy aksilterror tuzilmasining bo’limi Toshkentda faoliyat yuritmoqda.

Qisqacha xulosa.

Xalqaro xavsizlik tizimini barpo etishnig eng samarali yo’li bu siyosiy-iqtisodiy, harbiy, gumanitar sohalarda yagona, umum xususiyatni kasb etgan yo’lni ishlab chiqilganligidir.

Bular: **Harbiy sohada**: Yadroviy davlatlar bir-biriga qarshi, yoki uchinchi davlatlarga qarshi urush olib borishdan voz kechish;

[1] Жўраев Н. Тарих фалсафаси. – Т.: “Маънавият”, 1999. 92-бет.
[2] Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. 50-бет.

Kosmosda qurollanish poygasiga yo’l qo’ymaslik, bircha yadroviy qurollarni qisqartirish va to’la yo’q qilish, kimyoviy qurollarni cheklash va tugatish, ommaviy qirg’in keltiruvchi boshqa vositalardan voz kechish;

Davlatlar harbiy imkoniyatlari darajasini qisqartirish ustidan qat’iy nazorat o’rnatish;

Harbiy guruhlarni tarqatish, ularni kengayishi va yangilarini tashkil etishga yo’l qo’ymaslik;

Harbiy byudjetlarni proportsional va muvofiq holda qisqartirish.

Siyosiy sohada: Xalqaro amaliyotda har bir xalqning o’z taraqqiyot shakl va yo’llarini erkin tanlash huquqini hurmat qilish;

Xalqaro tinchlik va mintaqaviy ixtiloflarni adolatli siyosiy bartaraf etish;

Davlatlar o’rtasidagi ishonchni mustahkamlash, xujum qilmaslikning tegishli kafolatini yaratish, chegaralarning daxlsizligini ta’minlash maqsadida kompleks tadbirlarni belgilash;

Xalqaro terrorizmni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish.

Iqtisodiy sohada: Davlatlar xavfsizligini ta’minlash uchun Yangi iqtisodiy tartibni o’rnatish;

Jahon hamjamiyati harbiy soha uchun ajratilgan sarf-xarajatlarni qisqartirish orqali tushgan mablag’ni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sarflash.

Gumanitar sohada: Tinchlik g’oyalarini, qurollanish, xalqaro xavfsizlik, axborotning ta’sirchan quvvatini oshirish, xalqlar hayoti bilan tanishtirish yo’lida munosabatlarni rivojlantirish;

Jinoyat, irqchilik, fashizm va boshqa har qanday irqiy, milliy va diniy cheklanishlarni va odamlarni shu asosda kamsitilishlariga yo’l qo’ymaslik.

O’zbekiston Respublikasi o’z tashqi siyosatida ushbu tamoyillarga amal qilgan holda xalqaro va milliy xavfsizlikni ta’minlash yo’lida faol qatnashib kelmoqda.

Tayanch so’zlar.

Xavfsizlik, milily xavfsizlik, xalqaro xavfsizlik, tizim, tartibot, barqarorlik, taraqqiyot, milliy xavfsizlik strategiyasi, “Harbiy doktrina”, mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar va xavfsizlik.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Xalqaro xavfsizlik, barqarorlik, taraqqiyot so’zlari qanday umumiy tushunchani anglatadi?
2. An’anaviy xavfsizlik bilan mintaqaviy xavfsizlik, xavfsizlikning xususiyati nimada?
3. Xavfsizlikka taxdid soluvchi muammolar qaysilar?
4. Xavfsizlikni ta’minlashning yo’llari qanday?
5. Hozirgi dunyoning bir butunligini ta’minlovchi omillar qaysilar?
6. Xalqaro xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning roli qanday?
7. O’zbekistonning milliy xavfsizlik strategiyasi: uning yo’nalishi va ahamiyati nimada?
8. O’zbekiston Respublikasi mudofa siyosatining asosini nima tashkil etadi?
9. Xalqaro va mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishining eng maqul yo’li qaysi?
10. Aytingchi, nima qilsak turli xavf-xatarlarning oldini olgan bo’lamiz?

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “O’zbekiston”, 2009. 5-6, 33-34 - b.
2. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o’z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog’liq. -T.: “O’zbekiston”, 2004. 336-349, 383-394 - b.
3. Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. -T.: “O’zbekiston”, 2005. T. 13.133-122, 306-439 - b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. - T.: “O’zbekiston”, 2009.

4-12- b.

5. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O’quv qo’llanma. -T.: TDIU. 2006, 290-300 - b.
6. Aliev B. Boboev A. Politologiya fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. -T.: TDIU, 2006, 144-150 b.
7. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. -M.: Infra-M, 2007. 274-283 b.
8. Mualliflar jamoasi. Politologiya. Darslik. - M.: “Prospekt” 2008. 536-553 b.
9. Odilqoriev X.T.,Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik.“O’qituvchi”, 2008. 278 b.
10. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 617-653- b.

XULOSA O’RNIDA

SIYOSIY RIVOJLANISH VA ZAMONIYLASHUV JARAYONLARI

Jahondagi barcha mamlakatlar bir-biridan siyosiy tuzumi, boshqaruv shakllari, siyosiy institutlari, aholisining mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari, davlat va jamiyatda yuzaga keladigan rang-barang extiyojlarni qondirishning samarali yo’llari topilganligi, muammolarni xal qilishda oqilona usullardan foydalanishi va boshqa ko’plab mezonlar bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ular rivojlanishning o’zlariga xos va mos yo’lni tanlaydilar. Shu jihatdan olib qaraganda mamlakatlarning rivojlanish va zamonaviylashuv yo’lini tanlashida ham o’ziga xos usullar, imkoniyatlar va to’siqlar mavjud bo’ladi.

Politologiya fanida zamonaviylashuvning asosiy uchta: klassik andozasi, kechikuvchi va jonsiz (noorganik) andoza va jadallashgan andoza mavjud deya tan olinadi. Birinchi andoza, ya’ni klassik xaotik andozaga G’arbiy Yevropa davlatlari, Avstraliya, Kanada va AQShni misol tariqasida ko’rsatish mumkin. Bu mamlakatlarda siyosiy tizim va institutlarning sifat o’zgarishlari birinchi galda jamiyatda davtlabki zamoniylashuviy elementlar vujudga kelishdayoq boshlangan edi.

Ushbu davlatlarda siyosiy zamonaviylashuv jarayonlarining yuzaga kelishi va amalga oshib borishda boshqarish organlari yoki hokimiyat emas, balki, jamiyat va unda tashkil topgan yangi institutlar va qadriyatlarning ta’siri katta bo’ldi. Buni shunday izohlash mumkinki, jamiyatda o’rta hollarning ko’payishi va ular siyosiy faolligining kun sayin oshib borishi, bugungi kunda mavjud bo’lgan zamonaviy institutlarning ilk ko’rinishlari yuzaga kela boshladi. XVII asrda Shimoliy Yevropada zamonaviy xarakterga ega bo’lgan sotsial institutlarning bir vaqtning o’zida vujudga kelganligini kuzatish mumkin. Bular 1) Parlament, 2) Mustaqil sud, 3) Akademiya va universitet fanlari, 4) Moliyaviy institutlar, 5) Kelajak ommaviy kommunikatsiya tizimini ta’minlaydigan kitob chop qilish kabilardir. Bunday imkoniyatlar va omillarning paydo bo’lishi esa jamiyatning va fuqarolarning faollashuviga ta’sir ko’rsata boshlaganligini kuzatish mumkin. Misol sifatida Angliya, Frantsiya, Italiya, Germaniya kabi davlatlarni keltirish mumkin. Bu

davlatlarda siyosiy xarakterdagi tashkilotlarning, kasaba uyushmalarining yoki partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat siyosiy hayotiga oid muhim qarorlar qabul qilishda kuzatsa bo'ladi.

Bu mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotning ilgarilab borishi uchun asos bo'lgan yangidan-yangi institutlar yuzaga kelishining ham muhim asoschilari ham hisoblanar edilar. Institutlarning ichida eng muhimlaridan biri bu – xususiy mulkchilik instituti hisoblandi. Endi mazkur institutlarning faoliyatini tartibga solish uchun huquqiy va qonuniy asoslar zarurati yuzaga keldi. Ushbu qonunlarni va huquqiy asoslarni yaratish uchun esa fuqarolarning irodasini ifodalaydigan siyosiy tashkilotlarning qarashlarini hisobga olish zarur edi. Mana shu jarayonlarning o'zi bevosita siyosiy sohadagi taraqqiyotni, rivojlanishni va eng asosiysi zamonaviylashuvni ta'minlab berar edi. Shuning uchun ham bugungi kunda rivojlangan G'arb davlatlaridagn mavjud siyosiy zamonaviylashuvni klassik xaotik deyishga asos shuki, bu jamiyatlarda xususiy mulkchilik institutining rivojlanishi, uning kafolatini bera oladigan huquqiy holatning vujudga kelishi va buning samarasi o'laroq, jamiyat va shaxs hayotiga davlatning va hokimiyatning aralashuvini cheklaydigan mehanizmlarning evolyutsion yo'l bilan yaratilganligidir. Buning asosida siyosiy tizim orqali o'z manfaatlarini rang-barang ijtimoiy munosabatlar ham shakllana bordi. O'z-o'zidan ma'lumki siyosiy tizimda ham bu harakat va intilishlarga mos holda isloxatlar amalga oshirildi. Aynan hokimiyatlar bo'linishi, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlarning paydo bo'lishini G'arbiy Yevropa siyosiy zamonaviylashuvining eng katta yutuqlaridan biri sifatida qarash mumkin.

Siyosiy zamonaviylashuvning ikkinchi andozazi kechikuvchi va noorganik andoza bo'lib, bunga Ispaniya va Portugaliyani, Lotin Amerikasining ba'zi bir davlatlari, Yaponiya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu modelning klassik modeldan farqi shundaki, mazkur mamlakatlarda zamonaviylashuv jarayonlari bir muncha kechroq, ya'ni XVIII-XIX asrlarda boshlangan va ulardan modernga o'tishning ba'zi – bir shart-sharoitlari, rivojlangan bozor va iqtisodiy munosabatlar, fuqarolik jamiyat elementlari, huquqiy me'yorlarning etilmaganligi

kabilarning yo’qligi va hokimiyatlarning avtoritar xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turar edi.

Zamonaviylashuvning bunday andozasiga ega bo’lgan mamlakatlarda odatda, boshqaruv apparati, byuroktarik xarakterga ega bo’lish bilan birga bosqichlarni sakrab o’tish, isloxatlarni amalga oshirishda mantiqsizlik holatlari bilan chegaralanar edi. Bu esa Janubiy Yevropa (Ispaniya va Portugaliya) davlatlarida bir necha qonuniyatlarni yuzaga keltirish imkonini yaratdi.

Birinchidan, zamonaviy jamiyatga o’tish fundamental siyosiy masalalarni: davlat institutlarining shakllanishi, konstitutsiyaning ishlab chiqilishi, milliy-davlatchilik tuzilishining umumiy tamoyillarini belgilab olinishi kabilarni xal qilish boshlandi.

Ikkinchidan, iqtisodiy zamonaviylashuv masalalari kechiktirilar va siyosiy muammolar hal qilingandan so’ngina echilar edi.

Uchinchidan, zamonaviylashuvning ketma-ketligi va suratlari avtoritar siyosiy tartibotlar tomonidan tartibga solib borilar edi.

To’rtinchidan, avtoritar tartibotning qo’lida resurslarning to’planishi bir vaqtning o’zida informatsion texnologiyalarga o’tish, parlament demokratiyasini tuzish va huquqiy davlat qurish kabilarni muvaffaqiyatni xal qildi.

Umuman olganda, zamonaviylashuv jarayonlarida siyosatning ustanlik qilishi bir qancha sabablar asosida amalga oshiriladi. Ushbu jamiyatlarda zamonaviy jamiyatga o’tish hozirgi rivojlangan mamlakatlardan bir qancha vaqt keyin boshlanadi va uning kechikuvchi xarakteri bir vaqtning o’zida ko’plab muammolarni keltirib chiqarishga sabab bo’ladi.

Siyosiy zamonaviylashuvning uchinchi va o’ziga xos andozalaridan biri, bu – jadallashgan modeldir. Zamonaviylashuvning ushbu andozasida asosan jamiyatning iqtisodiy sohasiga ko’proq e’tibor qaratildi, hamda ishlab chiqirishning o’sishi, mamlakat eksport saloxiyatining oshishi mamlakatga ko’plab xorij investitsiyasining jalb qilinishi va buning natijasi o’laroq, aholining har tomonlama saviyasi oshadi.

Bunday mamlakatlar safiga Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini kiritish mumkin. Ular tajribasining o'ziga xos tomoni shundaki, ular dastlab cheklangan demokratiya asosida avtoritar tartiblar bilan jamiyatni nazorat qilar va siyosiy extiroslarni asosan iqtisodiy muvaffaqiyatli qadamlar xal qilishga harakat qilar, buning natijasi o'laroq insonlarning turmush tarzi yuksalishi barobarida jamiyatda barqarorlik saqlanar va asta-sekinlik bilan jamiyat siyosiy hayotida demokratiya sari real harakatlar kuzatilardi.

Demak, shunday xulosaga kelish mumkin: zamonaviylashuvni va demokratlashuvning ma'lum bir andozasi mavjud emas. Ba'zi bir Afrika va Osiyo davlatlariga G'arb zamonaviylashuvini olib kirishga bo'lgan intilishlar o'zini oqlamaganligi va jamiyatdagi mavjud qarashlar ularni qabul qilmasligi zamonaviylashuv yoki demokratlashtirishning universal qoidalari mavjud degan qarashlarni yo'qqa chiqardi, hamda Prezident I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, har bir jamiyatning o'ziga xos turmush tarzi va rivojlanish yo'li mavjudligi amalda isbotlanib kelmoqda.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi taraqqiyoti o'zining milliy xususiyatini saqlagan holda jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi jarayoni borayotganligi, uning hozirgi zamon jamiyat tizimi andozalariga muvofiq erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati barop etish yo'lida rivojlanayotganligini qayd etmoq zarur.

Prezidentimiz Islom Karimov Toshktent shahrining 2200 yilligi tantanaliridagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: - "Bugun jahonda, yaqin va uzoq atrofimizda bo'layotgan keskinlashuv holatlari umuman, butun dunyoda saqlanayotgan xavf-xatar va qarama- qarshiliklar, shular qatorida, avvalo, xalqaro maydonda davom etayotgan moliyaviy inqirozning o'zi bizni yanada sezgir, hushyor va ogoh bo'lishiga va o'z vaqtida tegishli xulosalarni chiqarishga da'vat etadi"[1].

[1]Karimov I.A. Tarixi boy, buguni go'zal, kelajagi buyuk shahar. (Toshktent shahrining 2200 yilligi tantanaliridagi ma'ruza). "Xalq so'zi" 2009 yil 2 sentabr.

G L O S S A R I Y

Avangard turdagi partiyalar (Marksga, Lenincha) – ular aniq tashkiliy tuzilmalari bo'lgan, ijtimoiy hayotning hamma sohalarini qamrab olgan, davlat tuzilmasiga kirgan, tashkil topish va faoliyati markazlashgan prinцipga asoslangan, a'zolik badaliga ega bo'lgan, revolyuцionerlar partiyasi.

Avtoritar ong – yangilik va ijodiulikdan mahrum bo'lgan bir qolipdagi tafakkur tarzi. Avtoritar ong ijodiy ongga zid bo'lib, fikr-mulohaza yuritish va uni isbotlashda faqat bir tavouilga tayanadi.

"Avesto" – eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida, Xorazm vohasida yaratilgan. "Avesto" – "Hayot yo'riqnomasi" deb nomlangan kitob, zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo'lgan. "Avesto" dastlabki siyosiy ta'limotlar yuzaga kelishida bizga boy ma'lumotlar beradi. Masalan, odamlar o'rtasida mehrg'oqibat tuyg'ularini mustahkamlashga oid fikrlar yoritilgan.

Avtoritar boshqaruv – davlatning eng yuqori bo'g'inidagi siyosiy hokimiyatni yakka shaxsning qo'lida marakazlashuvi (avtokratiya – yakka shaxs tomonidan boshqarish) yoki jamiyatdagi eng obro'li tor doiradagi guruh tomonidan (oligarxiya – ozchilik tomonidan boshqarish) boshqarishni anglatadi.

Anarxiya – (yunoncha "anarchia" – boshboshdoqlik) – davlatda yoki jamiyatning boshqarishda yagona rahbarning, hamma uchun majburiy qonun-qoidalar, odob- ahloq me'yorlarining yo'qligi, hokimiyatga davogar turli siyosiy kuchlarning o'zaro kurashi kuchayishi oqibatida yuzaga keladigan holat.

Aristokratiya – ozchilik hokimiyati, barkamol yoki zo'rlik asosida qurilgan bo'lishi mumkin.

Arxaik turdagi partiyalar - (Amerika turi): aniq tashkiliy tuzilmaning yo'qligi, faoliyatining doimiy emasligi (saylovlar davrida), tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan, parlament faoliyatiga qaratilgan islohatchilar partiyasi.

Aqidaparastlik – kishilarning qalbi va ongiga mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e'tiqod darajasiga ko'tarilgan dunyoqarash shakllaridan biri.

Barqarorlik – tinchlik, osoyishtalik va ijobiy mehnat muhiti qat'iy, uzilg'kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday

bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy shartidir. Insoniyatning shu kunlargacha kechirgan tarixi – barqarorlik va beqarorlikdan (ya'ni sinfiy, xarbiy, qabilaviy va guruhiy qarashlar, to'knashuvlar, shafqatsiz urushlar sahifalaridan) tarkib topgan. Beqarorlik natijasida barqarorlik davrida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar nobud qilingan, jamiyat taraqqiyoti sustlashgan. Barqarorlik – 1) jamiyat hayotining osoyishtaligi; 2) ijtimoiy tuzum elementlarining jamiyat uyg'unligi; 3) jamiyatdagi ijtimoiy birliklar (millat, din, qatlam va boshqalar) vakillarining hamkorligi va hamjihatligi

Bosh konsul – odatda u yoki bu davlatning bir necha yirik markazlarida konsulxonalar ochilsa, ular boshliqlarining biriga beriladigan maqom.

BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) – 1945 yilda tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tuzilgan eng nufuzli tashkilot.

BMTning Xavfsizlik Kengashi – er yuzining qaysi burchagida bo'lmasin, to'qnashuv va nizolarning oldini olish choralarini ko'radi, urush va tinchlik muammolarini muhokama etib, tegishli qarorlar chiqaradi, ularni izchil xal qiladi, favqulotda holatlarni bartaraf etishga o'z xissasini qo'shadi. Uning umuminsoniy manfaatlar yo'lidagi bunday oliyjanob faoliyati bilan BMTning eng muhim tarkibiy qismi xalqaro siyosatning tobora oqil, insonparvar, demokratik ruxdagi tinchlik va hamkorlik siyosatiga aylanib borishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Buyuk jamoa – dunyodagi barcha xalqlarning birlashuvi.

Gandizm – Sharq xalqlarini uyg'onishga da'vat etadigan ta'limot, ozodlik uchun kurashda kuch ishlatmaslik tamoyiliga asoslanadi.

Geopolitika – (yunoncha Geo – Yer va Politike – davlatni boshqarish san'ati, geosiyosat) – davlatlar tashqi siyosatini amalga oshirishga geografik omillarga alohida urg'u berish. "Geosiyosat" atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko'rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning mantfaatlari tizimi, unga bo'lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo'lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o'z ifodasini topadi.

Globallashuv (globolizatsiya) – lotincha “global” so’zidan olingan bo’lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv”deb tarjima qilish mumkin[1]. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Insoniyat taraqqiyoti ayni payitda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish jarayonidir.

Davlat – o’ta maxsus vazifalarni щal etishni, shuningdek, jamiyat tabiatidan kelib chiqadigan umumiy ishlarni bajarishni ta’minlovchi, tarixan tarkib topgan jamiyat uyushishining mumkin bыlgan yagona umumiy, universal shaklidir.

Demokratiya – (qadimgi yunon tilida “demos” – xalq va “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiya ma’nosini anglatadi. Bu hukumat shakli, bu hayot yo’li, bu maqsad yoki ideal, ya’ni eng yuksak orzu va siyosiy falsafa. Bu termin hukumatning demokratik shakliga ega mamlakat uchun ham tegishlidir.

Demokratiyaning zarur shartlaridan biri – bu davlat tuzumini konstituцiyaviy rasmiylashtirilgan bo’lishi, demokratiyaning ramzi hisoblangan va hayotga joriy etilgan yozma konstituцiyaning mavjudligi hisoblanadi.

Demokratiya shakllari – vakillik demokratiyasi – davlat va jamoat ishlarida vakillari orqali ishtirok etish. Bevosita demokratiya – har bir fuqaro davlatni boshqarishda shaxsan ishtirok etishi, qonun loyihalarida, referdum, fuqarolar yig’inlarida yoki davlat organlariga takliflar kiritish.

Demokratiyaning asosiy xususiyatlari barcha demokratik davlatlar uchun bir xildir.

1. Erkin saylovlar. 2. Siyosiy partiyalar mavjudligi. 3. Davlatning nazorat etilishi. 4. Konstituцion hukumat. 5. Xususiy tashkilotlar.

Demokratik ong – kishilarning ozodlik, erkinlik, ijtimoiy adolat, fikrlar xilmag’xilligi, oshkoralik va muloxazalar erkinligi haqidagi xisg’tuyg’ulari, qarashlari, g’oyalari, nazariyalarning majmuidir. Demokratik ong ham yangi xodisa, ammo chuqur tarixiy ildizlarga ega. Xalqning ozodlik, erkinlik, adolat, oshkoralik, muloxazalarining xilmag’xilligi haqidagi o’ziga xos intilishlari, qarashlari udumlari asosida bunday ongning tarixiy zaminlari bor.

[1] Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т.: “Шарқ”, 2006. 70-бет.

Demokratik tamoyillar – xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning asosiy tamoyillaridir. Bular hokimiyat va boshqaruv organlari chiqargan qarorlardan xalqning xabardorligi; ushbu qarorlar bajarilishi ustidan xalqning nazorati, qonun va qarorlarni qabul qilishda xalqning ishtiroki tamoyilidir.

Demokratik parlamentarizm–parlamentning faoliyatini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish tushuniladi. Buning uchun parlament keng demokratik saylovlar asosida tashkil etilishi kerak.

Diniy ekstremizm–ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va maktabi ostida mutasaddilar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Diniy aqidaparastlik–siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakatlar va qarashlardan iborat.“Xizbut taxrir al–islomiya” tashkiloti asosiy maqsadi: tinch, osoyishta davlatda fuqarolar urushini vujudga keltirish, mamlakat iqtisodiy faoliyatini izdan chiqarish, millatlararo va dinlararo nizolarni qo'zg'ash, mamlakatga qurol aslaha va narkotik moddalarini olib kirib, fuqarolarning hayotiga rahna solish va pirovard natijada mavjud konstituцiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, hokimiyatni egallashdan iborat.

Diplomatiya – davlat, xukumat boshliqlari va maxsus tashqi aloqa organlarining, davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini, shuningdek, chet ellarda davlatning huquq va manfaatlarini himoyalashni amalga oshirishga qaratilgan rasmiy faoliyati. Diplomatiya – tashqi siyosatning, davlat xalqaro faoliyatining ajralmas qismi.

Jadid – arabchadan olingan bo'lib, “yangi usul” deb nomlanadi. Jadidchilik (XIX asr 80g'yillaridan boshlangan) maktabdan, maorifdan boshlangan, so'ng matbuot, teatr, siyosatga o'tgan.

Jamiyat siyosiy tizimi – bu davlatni boshqarish dastagi bo'lib, uning yordamida ma'lum bir sinf, ijtimoiy guruhg'qatlam, millatning manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida siyosiy hokimiyat amalga oshiriladi. U davlat muassasalari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar, ularning jamiyat bilan qaror

topgan faoliyat mexanizmlari, o’zaro ta’siri va aloqasi haqidagi murakkab munosabatlar majmuasidir.

Jamiyat siyosiy hayoti – bu davlat hokimiyati, uning funkцiyalari, institutlari, amalga oshirish usullariga taalluqli bo’lgan jamiyat soцial hayotining o’ziga xos tomondir. U turli sinflar, ijtimoiy guruhlar, partiyalar va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati va manfaatlarini o’z ichiga oladi. Siyosiy hayot ko’p o’lchovli, jo’shqin hamda soцial makon va zamonda keskin o’zgarib turuvchi siyosiy munosabatlar, institutlar va odamlarning siyosiy ongini rivojlanishi bilan bog’liq murakkab jarayondir.

Islom fundamentalizmi – hozirgi islomdagi uch oqimdan (tradiцionalizm va modernizm bilan birga) biri. Uning asosiy konцepцiyasi islomning fundamental prinцiplariga, ya’ni islom dinidagi dastlabki fundamental g’oyalarga qaytish demakdir.

Islom tradiцionalizmi – hozirgi islomdagi uch oqimdan (fundamentalim va modernizm) biri. Islom tradiцionalizmi tarafdorlari o’rta asr aqidalariga izchil amal qilib, dinni har qanday isloh qilishlariga qarshi chiqadilar.

Islom ekstremizmi – musulmon mamlakatlari jamiyati hayotida va xukumat siyosatida g’arbdagi kuchli davlatlar ta’siriga va mustaqillikni yo’qotish xavfiga qarshi qadimgi islom g’oyalari va ideallarini qayta tiklash uchun harakat qilayotgan diniy siyosiy guruhlar. Eng ta’sirli eksterimistik guruhlardan biri “Musulmon brodarlari” (“Al–ixvon al–muslimin”) uyushmasidir.

Islom modernizmi –hozirgi islomdagi uch oqimdan (tradiцionalizm va fundamentalizm bilan birga) biri. Islom diniy va ijtimoiy ta’limotini yangi zamon sharoitlariga muvofiqlashtirish, islom dinining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy muammolariga ta’lluqli aqidalarni yangicha taqdim etish, xo’jalik hayotini tartibga solish va islom prinцiplari asosida yangi taraqqiyot modellarini, yo’llarini ishlab chiqish.

“Ishonch yorlig’i” – xalqaro siyosiy munosabatlar amaliyotida tayinlangan elchining boshqa davlat boshlig’i tomonidan topshirishi shart bo’lgan yorlig’.

SHundan keyingina elchi va uning hodimlari “Diplomatik daxlsizlik” huquqiga ega bo’lgan holda o’z faoliyatini olib boradi.

“Elita” – lotinchadan olingan bo’lib – “eng yaxshi”, “saralangan”, “tanlangan” degan ma’nolarni anglatib, u har qanday ijtimoiy tuzilmaning hokimiyatni monopoliya qilishga qobil bo’lgan yuqori qismi, imtiyoz qatlami, boshqaruvchi ozchilik demakdir.

Yetakchilarning yig’ma obrazlari:

1. Etakchi bayroqdorlar voqelikni shaxsan idrok etishi, ommani jalb etishi bilan ajralib turadi.

2. Xizmatchi etakchi. O’z tarafdorlari va saylovchilarning manfaatlarini ifoda etishga intiladi, ular nomidan ish ko’radi.

3. Savdogar etakchi. O’zining g’oya va rejalarini chiroyli qilib ko’rsatadi, afzalligiga ishontiradi, sotib olishga jalb etadi.

4. O’t uchiruvchi etakchi. Eng dolzarb ijtimoiy muammolar, davrning muhim talablarini mo’ljalga oladi.

Kengash – bu yaqin ishonchli odamlar bilan muhim davlat ishlari yuzasidan qilinadigan maslahat, yig’ilish.

Kichik jamoa – alohida bir shahar davlatining birlashtiruvchi jamoa.

Konfederativ davlat – bu davlat tuzilmasi uning tarkibiga kirgan davlatlarning o’z suverenitetini to’la saqlagan holda davlat hokimiyati va boshqarish tizimlarini mustaqil amal qildirish jarayonlarini boshqa konfederaцiya a’zolari faoliyatlari bilan bamaslahat, mutanosib tarzda uyg’unlashtirib turishni anglatadi.

“Liberalg’ demokratik” modeli – fuqarolar siyosiy huquq va erkinliklarini ro’yobga chiqarishga yo’naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Lider – rahbar, raxnamo, yo’lboshchi degan ma’nolarni anglatadi.

Madaniyat – arabcha shaharga oid, farovon maskan, taraqqiyot o’chog’i – tabiat va o’zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o’ziga xos shaklini ifodalovchi tushuncha.

Mafkura – (arabcha – fikrlar, nuqtai nazarlar va e’tiqodlar tizimi) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.

Mafkura yakkahokimligi – muayyan davlat yoki davlatlarda yagona mfkuraning to’la hukmronligi. Mazkur hodisa ba’zi jamiyatlar va tuzumlarga xosdir ammo odatda vaqtincha davom etadi.

Mashvarat – mashoyix, ulamo, fuzalo, vuzaro va boshqaarkoni davlatni to’plab qilinadigan yig’ilish.

Monarx – hukmdor huquq suverenitetining yagona mutlaf manbai.

Milliy terror siyosati – alohida olingan davlatda, mazkur davlatga o’z nomini bergan millat yoki etnik birliklar tomonidan boshqa kam sonli etnik guruhlarga o’z irodasini tayziq orqali o’tkazishga urunish.

Milliy istiqlol mafkurasi – xalqning o’zgalarga tobe bo’lmay, erkin va ozod yashash, o’zinig’o’zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzug’umidlari, qarashlari, g’oyalari majmui, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g’oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish.

Millatlararo harbiyg’siyosiy to’qnashuvlar – mintaqaviy mojarolarning bu shaklida eng ko’p qon to’kilishi, millionlab qochoqlarning o’z yurtini tark etishga sabab bo’lishi mumkin. Buning noxush tomoni shundaki, voqealar shunchalar chigallashib ketadiki, unda qaysi tomon yutadi va aksincha yutqazadi degan savolning o’zi insonni o’ylantirib qo’yadi. Buni sobiq YUgoslaviya federativ davlatining parchalanishi oqibatida yuzaga kelgan milliy muammolar, aniqrog’i Kosovo masalasida Serb va Kosova albanlari o’rtasida yuzaga kelgan ziddiyat va to’qnashuvlar misolida kuzatish mumkin.

Millataro totuvlik – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri, muayyan xudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

Milliy munosabatlarni barqarorlashtirishning siyosiy yo'llari:

Birinchidan, davlat siyosatida barcha millatlarning extiyojlarini hisobga olish.

Ikkinchidan, qabul qilingan qonun va qarorlarda hamma millatlarning tengligi, boyliklardan teng foydalanish kabilar o'z ifodasini topadi.

Millat – til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, urfg'odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil sub'ekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishlarning etnik birligi.

Millatchilik – o'z millatining manfaatlarini boshqa millatlar xaq huquqlaridan yuqori qo'yib hal qilishga intiluvchi siyosiy oqim.

Milliy biqiqlik – o'z millatini o'zga millatlardan uzoqlashtirish, uning o'ziga xosligini himoya etishni tor tushunib, milliy hudbinlikni joriy qilish, o'z millatining o'zga millatlar bilan erkin aloqada bo'lishiga putur etkazish anglanadi.

Mojaro – bir millatga mansub bo'lgan turli guruhlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, har xil millatga mansub bo'lgan millatlar o'rtasidagi nizolar yoki bir guruh siyosatlashgan shaxslar tomonidan tarixan bir millat istiqomat qilib kelgan hududni alohida davlat deb e'lon qilish qaratilgan harakatlardir. Mintaqaviy mojaroni faqat taraflarning qurolli qaramag'qarshiligi, shu jumladan tinch aholi o'rtasida ko'plab qurbonlarga olib keladigan qaramag'qarshiligi deb hisoblamaslik kerak. u muayyan jamiyat va qo'shni davlatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan qaramag'qarshiliklar hamdir.

Monarxiya – bir kishi hokimiyati, qonuniy va noqonuniy (tiraniya) bo'lishi kerak. Boshqaruv ham nasildan nasilga o'tadi.

"Muvaqqat ishlar vakili" g' u yoki bu sabablarga ko'ra (dam olish, betoblik, o'z davlati tomonidan maslahatlashgani chaqirib olganlik) elchi o'z vazifasini ado eta olmasa, o'rniga tayinlanadi va unga vaqtincha elchixona faoliyatini boshqarib turish vazifasi yuklatilgan vakil. U elchiga nisbatan cheklangan huquq doirasida ish yuritish hamda kundalik diplomatik aloqalarni davom ettirish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Mustaqillik – (arabchadang’ tobe emaslik, ixtiyori o’zidalik, qaram emaslik) – erkin va ozod ravishda, boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish.Mustaqillik barcha jabhalarda munosabatlarni me’yorg’mezonga soladi, har qanday kamsitish, tobelikni inkor etadi. Mustaqillik – o’zaro hurmat, birg’birlarini qadrlash, milliy va bashariy qadriyatlarga tayanib ish ko’rish, keng dunyoqarash va erein tafakkurga tayanib yashash, fikirlash, o’z hayotini o’zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi.

Muxolifat–rasmiy hokimiyat bilan g’oyaviy va amaliy jihatdan raqobatlasha oladigan, amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatiyamizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi tariqasida maydonga chiqa oladigan bo’lishi kerak demakdir.

Ong–aqlg’tafakkurni ifoda etadigan asosiy falsafiy kategoriyalardan biri. Ong voqelikni, ya’ni borliqdagi barcha narsa va hodisalarni aks ettirishning yuksak, faqat odamga xos shakli.

Ommaviy madaniyat – madaniyatning murakkab, hammavaqt bir xil talqin qilinmaydigan o’ziga xos shakli. Ommaviy madaniyatni G’arb madaniyati bilan bog’liq hodisa deb tushinish, shuningdek, uni g’oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan.

“Partiya” – so’zi lotincha, “pars” – “qism”, “guruh” so’zlaridan kelib chiqqan bo’lib, u yoki bu jamiyatda mavjud bo’lgan ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, katlamlarning bir qismini, odatda ularning ilg’or va eng faol qismini birlashtiradigan siyosiy tashkilotni anglatadi.

Partiyalar shakllanishining uch yo’li: “YUqoridan” shakllanish yo’li parlament guruhlari siyosiy elita, partiya byurokratlari faoliyatlari asosida amalga oshirilishi mumkin. “Quyidan” shakllanish ijtimoiy harakatlar yoki aniq mafkura, etakchi tarafdorlarining birlashuvlari asosida bo’lishi mumkin. Partiya shakklanishining “aralash” usuli elitar guruhlar va oddiy fuqarolarning birgalikdagi harakatlari asosida ro’yobga chiqadi bilan.

Parlament turidagi partiyalar: (Evropa turi) ijtimoiy tuzumni o'zgartirmay harakat qilib keluvchi, tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan, parlament faoliyatiga qaratilgan, islohatchilar partiyasi.

Politologiya – yunoncha ***politika*** – davlat, ***logos*** – tushuncha, ta'limot tushunchalarining birligidan tashkil topgan bo'lib, u siyosat, siyosiy munosabatlarni o'rganuvchi ilmiy bilimlar sohasi demakdir.

Politologiya fan sifatida XX asr o'rtalarida tashkillashgan bo'lsada, siyosiy g'oyalar tarixi bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Politologiya mustaqil ilmiy fan sifatida rasmiy jihatdan 1948 yilda YUNESKO ekspertlari tomonidan siyosiy fanlarning ob'ekti, predmeti, tuzilishi va vazifalarini belgilab bergan maxsus xujjatni qabul qilinishi bilan e'tirof etildi.

Politologiya predmeti – jamiyat siyosiy tizimining shakllanishi, uning amal qilishi va rivojlanishi, shaxs, ijtimoiy guruhlar, millat va elatlar, xalqlar va davlatlar to'g'risidagi fandir. YAxlit ijtimoiy hodisa sifatida siyosatning mohiyatini yoritish politologiyaning predmetidir.

Politologiyaning ob'ekti – jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy institutlar va turli guruhlar tashkil qiladi.

Politologiya qonuniyatlari – bu fan qonunlari uch guruhga bo'linadi. Birinchisi, davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy hayotida amal qiluvchi qonunlar. Ikkinchisi, xalqaro munosabatlarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniyg'ma'rifiy aloqalar bilan bog'liq qonunlar. Uchinchi guruh qonunini – shartli ravishda siyosiyg'psixologik deb atash mumkin. U shaxs bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi.

Politologiya fanining asosiy kategoriyalari.

Siyosiy hokimiyat, jamiyat siyosiy sistemasi, davlat va davlatlashtirilmagan birlashmalar, siyosiy partiyalar, siyosiy tartibot, siyosiy munosabatlar, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, demokratiyalashtirish, xalqaro siyosiy muammolar va boshqalar.

Paroxial (patriarxal) siyosiy madaniyat – aholining siyosiy tizimdan butkul o'zilib qolganligi, u haqida hech qanday bilimga egaemasligi bilan ajralib turadi.

Respublika (lotincha “res”–ish, faoliyat va publikus – jamoatchilik, xal=, Respublisa – umumxalq ishi, jamoatchilik faoliyati) – davlatni boshqarilishining asosiy shakllaridan biri. Boshqarishning respublika shakli o’rnatilgan mamlakatlarda davlat щokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib =ыyiladi.

Referendum (lotincha “referendum” – e’lon qilinishi lozim bo’lgan xabar) – jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo’llaniladigan tadbirlardan biri, ba’zi muhim masalalarni umumxalq so’roviga, xalq muhokamasiga qo’yib hal etish. Referendumni davlatning oliy organi o’tkazadi. Referendum – jamiyatni demokratik asosda boshqarishni ta’min etishga erishish uchun olibborilgan ko’pasrlik kurashda erishilgan yutuqlaridan biri.

Saylov tizimi – huquqiy me’yorlarda mustahkamlab qo’yilgan, shuningdek, davlat va jamiyat institutlari faoliyatlari tajribasida shakllangan vakillik organlari yoki ayrim rahbarlik vakilini saylashni o’tkazish va tashkil etishga doir tartibotdir. Saylovlar tizimi – siyosiy tizimning tarkibiy qismidir.

Separatizim (fr. va lot. alohida ajralib chiqish, alohida bo’lib olish) – ichki konstituцiyaviy me’yorlar hamda xalqarog’huquqiy xujjatlarga zid holda bir guruh siyosatlashgan shaxslar tomonidan tarixan bir millat istiqomat qilib kelgan hududni alohida davlat deb e’lon qilishga olib kelish.

Sinergetik - birlikda, hamkorlikda, hamoxang harakatda.

Siyosat - (yunoncha politik – davlatni boshqarish san’ati) – davlat va jamiyatni idora etish vositasi. Siyosat o’z tabiati maqsadi va amalga oshirish uslublariga, manfaatlarni ifoda etish darajasi bilan farqlanadi. Milliy siyosat, demokratik siyosat, totalitar siyosat, xolis siyosat yoki noxolis siyosat kabi qator ko’rinishlarda namoyon bo’ladi.

Siyosatshunoslik – siyosiy hokimiyat va uning amal qilish qonuniyatlari, kategoriyalari, tushunchalari, siyosiy hayot oqimi, boshqaruvchilar bilan boshqariladigan o’rtasidagi siyosiy munosabatlar, beto’xtov sodir bo’ladigan siyosiy jarayonlar mohiyati, mazmuni, asosiy yo’nalishlari, jamiyatni siyosiy boshqarish mahorati, ichki va tashqi siyosat yuritishning nazariy va amaliy asoslari

haqidagi fan va bilim sohasi. Demak, siyosatshunoslik – siyosat, siyosiy jarayonlar, siyosiy faoliyat va siyosiy hokimiyatni o'rganuvchi fandir.

Siyosiy hokimiyat – bu alohida sinf, katta ijtimoiy guruh yoki mavjud jamiyatning ko'pchiligining o'z ifodasini boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarga o'tkazish qobiliyati va imkoniyati bo'lib, odamlarning faoliyatlariga, xulqg'atvoriga o'z obro'si, xulqi, zo'ravonligi vositalarida ta'sir o'tkazishni anglatadi.

Siyosiy hokimiyatning ikki asosiy ko'rinishi: birinchisi, avtoritarizm – totalitarizmga yaqin bo'lib, oliy hokimiyatni egallagan bir kishi yoki guruh faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. Totalitarizmdan farqi shundaki, mamlakatdagi o'tmish ijtimoiy tartiblarni yo'q qilinishi, jahon inqilobini amalga oshirishni maqsad qilib qo'ymaydi. Siyosiy hayotdan boshqa sohalarda kishilarning erkin faoliyatiga ma'lum darajada yo'l qo'yadi. Ikkinchisi, demokratik boshqaruv tarzi – xalq hokimiyatining manbai bo'lgan keng fuqaro huquqlarini ta'minlagan jamiyatning siyosiy davlat tuzilishidir.

Siyosiy yechim – mojarolarni sarfg'xarajat va xavfsizlikni ta'minlash nuqtaig'nazaridan eng qulay va samarali yo'l, siiyosiy, ya'ni muzokaralar yo'li bilan echimga borishdir.

Siyosiy vaziyat – ijtimoiyg'siyosiy kuchlarning joylashishi va o'zaro munosabatini, shuningdek, bevosita siyosat sub'ektlarining ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan siyosiy munosabatlar holatini ifodalovchi omillar, sharsharoit natijalari va holati majmuidir.

Siyosiy mafkura – u yoki bu ijtimoiy guruhning maqsadlari, orzu intilishlari va manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchihokimiyatdan foydalanishning muayyan vazifalariga yo'naltirilgan, tizimlashgan g'oyalar, qarashlar yig'indisi.

Siyosiy partiya – ijtimoiy sinf, tabaqa va guruhlarning tub manfaatlarini o'z faoliyatida ifoda etuvchi, ularni muayyan maqsad – manfaatlarini himoya qilish uchun kurashga qaratilgan siyosiy tashkilotdir Siyosiy partiyalar–demokratik hokimiyatning eng muhim qismi hisoblanadi. Raqobatchi partiyalar saylovlarni ta'sirli va g'oyatda qiziqarli qilib o'tazadilar. Ular bunga saylovchilarga turli xil

g’oya va dunyoqarashlarga ega nomzodlar orasidan keraklisini tanlab olishlariga imkon yaratish orqali erishadilar.

Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim turi,jamiyat a’zolari, millat, ijtiomiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaro davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o’z xatti harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyatidir.

Siyosiy madaniyatning fuqarolik turi uning eng ommaviy, keng tarqalgan, har bir ijtimoiyg’siyosiy tuzum doirasida amal qiladigan asosiy turi bo’lib rasmiy siyosiy munosabatlar jarayonini qamrab olgan.

Siyosiy ko’rsatma: Siyosiy ko’rsatma bu sub’ektning siyosiy voqelikka munosabati. Bu siyosiy bilimni qabul qilish yoki qilmaslik, siyosiy faoliyatning turli jihatlariga bo’lgan munosabat.

Siyosiy submadaniyat – boshqa ijtimoiy ob’ektlar hamda, umuman, millatdan farq qiluvchi ijtimoiy tabaqalar va guruhlar uchun xos bo’lgan siyosiy qarashlar va xulqg’atvor modellarining tizimlari tushuniladi.

Siyosiy yetakchi (lider) – mamlakat taraqqiyotida muhim rol o’ynaydigan, siyosiy jarayonlarga va vaziyatlarga ta’sir ko’rsata oladigan jamiyatning, muayyan ijtimoiy guruhning, tashkilotning obro’li shaxsidir.

Siyosiy yetakchini uch turi – (Robert Takker ta’limoti bo’yicha):
Konservatorlar, reformatorlar, inqilobchilar.

Siyosiy xulqg’atvor: a) Siyosiy vaziyat; jarayondagi xattig’harakat, faoliyat yo’nalishi, b) ijtimoiyg’siyosiy faoliyat uslubining namunalari, turlari xususiyatlari.

Siyosiy elita–jamiyatda ozchilikni tashkil qiluvchi, ichki tabaqalangan, bir xil bo’lmagan, biroq nisbiy uyushgan, ijtimoiy muassasalarda rahbarlik o’rinlarini egallovchi va jamiyatda hukmronlik qarorlari qabul qilinishiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi, kqproq yoki kamroq darajada etakchilik sifatlariga ega bo’lgan va boshqaruvchilik vazifasini bajarishga tayyorlangan shaxslar guruhi yig’indisidir.

Siyosiy madaniyat tiplarii: – a) An’annnaviy siyosiy madaniyat, b) YUqori tabaqa siyosiy madaniyati.

Siyosiy madaniyat modellari: - a) “Totalitarg’avtoritar” modeli,

b) “Liberalg’ demokratik” modeli, v) “SHarqona”siyosiy madaniyat modeli.

Siyosiy ong – bu ijtimoiy ong sohasi bo’lib, u soцial xissiyot, tasavvurlar, qarashlarning yig’indisini, aniq siyosiy munosabatlarni, shuningdek, uning tarkibiy qismini tashkil etadi. Siyosiy ong – bu kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to’g’risidagi bilimlar, tasavvurlar, e’tiqodlar, o’zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig’indisidan iborat.

Siyosiy ongning shakllanishi manbalari:

Birinchi manba **–** insonning oilaviy muhitidir. Siyosiy g’oyalar va xissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to’g’ri keluvchi ijtimoiyg’ruhiy qarashlar – siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi.

Ikkinchi manba **–** bu keng ma’nodagi axborotdir. U insonga ham muomala orqali, ham ommaviy axborot vositalari orqali kirib boradi.

Uchinchi manba **–** bu individning shaxsiy tajribasidir. Bu shaxsiy tajriba olingan bilimni rad qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta’sir ko’rsatadi.

Siyosiy ong funkцiyalari: Siyosiy hayot to’g’risida bilish – axborot berish, siyosiy baholash, siyosiyg’ijtimoy yo’naltirish, siyosiy hayot va manfaatlarni tartibga solish.

Siyosiy ong shakllari:

1- alohida shaxs siyosiy ongi. 2- ijtimoiy guruh siyosiy ongi. 3- ommaviy siyosiy ong.

Siyosiy tizimning funkцiyalari. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: a) Jamiyatni integraцiyalash, uning tuzilmalarini tashkil etgan turli tarkibiy qismlari o’zaro aloqa va birlikni ta’minlash. b) Siyosiy jarayonlarni tartibga solish.

Siyosiy tartibot – siyosiy tizimni amal qilish va rivojlanishni ta’minlovchi sharoitlar majmuasi: a) uning asosiy vazifasi va qadriyatlarini izchillik bilan

amalga oshirilishi. b) boshqaruv tizimi bo’laklarining uyg’unlikdagi harakati. v) xavfsizlik barcha jihatlarining samarali kafolati va saqlab turishning vositalari: harbiy, huquqiy, ekologik, texnologik, iqtisodiy. g) favqulodda vaziyatda jamiyatni yuqori darajadagi mustaqilligini ta’minlash.

Siyosiy munosabatlar – bu jamiyatning siyosiy hayoti va uning siyosiy jarayonlarida uzluksiz harakatda bo’lgan siyosat sub’etlari va ularning ob’ektiga qiladigan ta’sirini ifoda qiluvchi harakatlarning umumiy ifodasi yoki ularning birligidir.

Siyosat shakli – bu turg’unlik, barqarorlikni ta’minlovchi va odamlarning siyosiy xulqg’atvorini tartibga solishga imkoniyat beradigan, uning tashkiliy tuzilma, institutlaridir.

Siyosiy jarayon – siyosiy hayotning muhim tarkibiy qismi, barcha siyosat sub’ektlari faoliyatining yig’indisidir. Siyosiy jarayonlar – jamiyat siyosiy hayotining barcha sohalarida ro’y beradigan voqeag’xodisalar va o’zgarishlarning birligidan iborat. Bu birlik siyosiy munosabatlar va ularning borishini ham o’zida ifoda etadi. Davlatlarning ichki hayoti va xalqaro siyosiy munosabatlarning kechishi va siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Siyosiy jarayonning bosh manbai va yetakchi kuchi xalq ommasining onli faoliyatidir. Agar kishilar jamiyatning siyosiy hayotida faol ishtirok etmasalar siyosiy jarayonning kechishi sustlashadi, siyosiy tashkilotning har qanday faoliyati o’zining samarali natijalarini bermaydi.

O’zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayon siyosiy munosabatlar sub’ektlari barcha faoliyatining yig’indisi, siyosiy tizimni shakllanishi, o’zgarishi, yangilanishi kabi jarayonlarni o’z ichiga olgan holda chuqurlashib bormoqda. Aholining siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy jarayonlarga jo’shqinlikni bahshida etish, jamiyatda ko’p partiyaviylik tizimini shakllantirish va uning faoliyatini chuqurlashtirish bilan ham belgilanadi.

Siyosiy tizimning tarkibi avvalo siyosiy hokimiyatning faoliyat ko’rsatishi bilan bog’liq bo’lgan siyosiy tashkilotlar, muassasalar kiradi. Ularning siyosiy

hayotga, hokimiyatni amalga oshirishga jalb etilganligiga qarab uch turdagi tashkilotga ajratish mumkin:

1. Asosiy siyosiy tashkilotlar.

2.Asosiy bo'lmagan siyosiy tashkilotlar.

3.Siyosiy bo'lmagan tashkilotlar.

Siyosiy ongni shakllantirish - siyosiy ruhiyat sohasini o'zgartirish va rivojlantirishda etakchi rolni siyosiy mafkura egallaydi. Siyosiy mafkura ijtimoiy birliklarning haqiqiy ehtiyojlarini aks ettiradi, ularning ijtimoiy rivojlanishida tutgan o'rni va rolini asoslaydi.

Siyosiy boshqaruvning asosiy tamoyillari:

1. Ob'ektivlik va sub'ektivlik tamoyili. U jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun ob'ektiv ehtiyoj bo'ladi.

2. Asosiy zveno tomoyili. Jamiyat hayotidagi muammolardan asosiysisini belgilab oladi va ketmag'ketlik asosida bajaradi.

3. Hududiy tarmoq tamoyili. Siyosiy boshqarishda hududiyg'tarmoq talablariga qat'iy amal qiladi.

4. Ma'suliyatni his qilish tamoyili. Siyosiy boshqaruvda rahbar kadrlar va keng jamoatchilik oldiga qo'yilgan vazifaga o'ta ma'suliyat bilan yondashuv.

5. Vorislik tomoyili. Siyosiy boshqarish jarayonida bo'ladigan o'zgarishlarda uzviylik bo'lishi taqozo etiladi.

Siyosiy partiyalarning asosiy funkцiyalari:

1. Nazariy: Jamiyat istiqbolini tahlil etish va nazariy jihatdan baholash.

2. G'oyaviy: Ommaning dunyoqarashini, ahloqiy qadriyatlarini ximoya qilish.

3. Siyosiy: hokimiyat uchun kurash, davlatning ichki va tashqi siyosiy yo'lini ishlab chiqish.

4. Tashkiliy: dasturiy ko'rsatma va qarorlarni amalga oshirish, saylov yo'lini ishlab chiqish va amalga oshirish; saylov kompaniyasini o'tkazish; saylanadigan lavozimlar uchun nomzodlarni tanlash.

Stalincha qatag'onlik – XX asr 30g'yillari va turg'unlik yillarida milliy siyosatni amalga oshirishda katta kamchiliklar va xatoliklarga yo'l qo'yildi. Milliy

masalani talqin etishda hayotdan uzilishga yo’l qo’yildi. Ko’p yillar davomida mamlakatda milliy masala uzilg’kesil hal etildi, degan tasavvur bilan yashaldi. Bu hayotimizning jadallik bilan baynalminallashtirish to’g’risidagi yuzaki tasavvurni vujudga keltirdi.

Suverenitet (fransuzcha – oliy hokimiyat) – davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to’la mustaqilligi. Davlat suvereniteti haqidagi g’oya XVI asrda fransuz olimi Jan Boden tomonidan ilgari surilgan. U suveren bo’lmagan davlatni davlat deb hisoblamagan.

Terrorizm – lotin tilida “qo’rquv”, “daxshat” ma’nolarini ifodalaydi. Oddiygina aytganda, terror – insonlarda qo’rquv uyg’otish, ularni daxshatga solish orqali birorbir maqsadga erishishni anglatadi. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g’oyaviy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo’lishi mumkin.

Terrordan ko’zlangan maqsad – 100g’1000 kishini qonini to’kish evaziga millionlab insonlarning yuragiga vaxima solish, ularda qo’rquv uyg’otish va oxirg’oqibat jamiyatda parokandalik tug’dirishdir. Demak, o’lim – ular uchun vosita, maqsad esa kuchli ta’sir qilishdir.

“Totalitar-avtoritar” modeli – shaxsning individual jihatlari sun’iy ravishda buziladi, davlat manfaatlari ustun, siyosiy hayot bir qolipda qoladi.

Unitar davlat – bu davlat tuzilmasida mamlakat aholisining aksariyat qismi jamiyat hayotining barcha jabhalarida asosan maqsadg’manfaat birligini ifoda etishlari tufayli yagona siyosiyg’huquqiy asosda amal qiladigan davlat hokimiyati vujudga keladi va mazkur mamlakat jamiyatini yaxlit birlashtirib turuvchi aqidalarga suyangan holda uni siyosiy boshqaradi.

Federativ davlat – bu davlat tuzilmasi ma’lum darajada davlat mustaqilligini yuridik (deg’yure) saqlab qolgan bir necha davlatlar uyushmasi bo’lib, unda yagona fuqarolik, yagona pulg’moliya tizimi, yagona mudofa vositalari, yagona diplomatiya asosida ichki davlat hokimiyati qismg’bo’laklarining nisbatan mustaqil maqomga ega bo’lishiga yo’l qo’yiladi.

Fundamentalizm – har bir dinning poydevori, ya’ni diniy kitoblari va payg’ambarlari hayotiga taqlidan yashashga da’vat bo’lsa, ikkinchi tomondan

mazkur oliyjanob da’vatlar niqobi ostida ayrim din harakatlari va dindorlar hokimiyat tepasiga intiladi va bu yo’lda qon to’kish, odamlarni xonavayron qilish, bolani otasidan, onani oiladan ajratishdan ham tap tortmaydi.

Fuqarolik urushlari – siyosiy jihatdan eng samarasiz hisoblanadi. YAxlit bir millat makonda ro’y berishiga qaramasdan, fuqaroviy urushning ijtimoiy tayanchlari bir millatga mansub turlig’tuman urug’g’aymoqlardan shakllanadi. SHu tufayli u ma’lum siyosiy makonda vujudga kelgan bo’lsa, keyinchalik u qo’shni hududlarga yoyilishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati – jamiyat taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida davlat hokimiyati organlari bajarib kelgan talay vazifalarning jamoan tashkilotlari zimmasiga o’tishi, davlat faoliyati ustidan ijtimoiy nazorat o’rnatilishi.

Fuqaro siyosiy madaniyati – umumjamiyat va umuminsoniy siyosiy madaniyatning tarkibiy qismidir, lekin ayni vaqtda u o’ziga xos xususiyatlarga ham ega bo’ladi. Bu xususiyatlar shaxsning fuqarolik ruhiyati, burchi, huquqlari, maqsadg’manfaatlari bilan chirmashib ketadi.

Xavfsizlik – uzluksiz holatdir, xadsiz – hududsizdir. Xavfsizlik ta’minlangan joyda barqarorlik bo’ladi, demak taraqqiyot uchun keng ufqlar ochiladi.

Xalqaro tizim – xalqlar, davlatlar, xalqaro tashkilotlar, nodavlat, nohukumat muassasalari, xalqaro xarakterdagi siyosiy, ixtisoslashgan, iqtisodiy, mintaqaviy, harbiy, milliy, madaniyg’ma’rifiy, diniy uyushmalar, birlashmalar, harakatlar, siyosiy partiyalar, dunyo ommaviy axborot vositalari singari tashkilotlar majmuini ifodalovchi umumijtimoiy tushuncha**.**

Xalqaro tashkilotlar – ularning har biri xalqaro siyosatda o’zlarining faoliyat maqsadlari yo’nalishlariga qarab, er yuzi taraqqiyotidagi egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiyg’amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro munosabatlar – xalqlar, davlatlar, iqtisodiy, siyosiy tashkilotlar o’rtasidagi, xalqaro darajadagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy, harbiy va boshqa sohalardagi aloqalar majmuidir.

Xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlar sub’ektlarining xalqaro me’yoriy, normalar, qadriyatlar asosida o’zaro munosabatlarni saqlab turishga, takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

Xalqaro hamjamiyatning asosiy sub’ektlari – xalqlar, davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardir

Xarizmatik hokimiyatning 3 belgisi. 1-“Buyuk” yetakchining shaxsiga asoslanish, 2- omma va yetakchi o’rtasidagi intensiv xisg’tuyg’uga asoslangan aloqaning mavjudligi, 3- yetakchi hokimiyatning urfg’odatlar bilan aloqasi bo’lmasligi.

“Sharqona”siyosiy madaniyat modeli – ko’pgina asrlar davomida shakllangan bo’lib, adolat va insof masalasi hal qiluvchi o’rinni egallaydi. Unda tinchlik va barqarorlik, siyosiy erkinlik me’yor darajasida, bag’rikenglik, xalqaro totuvlik va ishonchga kuchli moyillik mavjuddir.

“Elita” – lotinchadan olingan bo’lib – “eng yaxshi”, “saralangan”, “tanlangan” degan ma’nolarni anglatib, u har qanday ijtimoiy tuzilmaning hokimiyatni monopoliya qilishga qobil bo’lgan yuqori qismi, imtiyoz qatlami, boshqaruvchi ozchilik demakdir.

Elchi – hozir mustaqil davlatlarning boshqa mustaqil davlatlarda faoliyat olib boradigan vakilidir. Elchi lavozim eng oliy diplomatik lavozim hisoblanib, uning vakolatlari darajasini aniq belgilab qo’yish maqsadida elchi so’zidan oldin “Favqulodda va muxtor” atamalarini qo’shib aytiladi. “Favqulodda va muxtor” elchi lavozimiga tayinlash marosimi shu qadar masuliyatli xodisa hisoblanadiki – uni faqat davlat boshlig’igina tayinlaydi.

Yadrosiz zona – qurol-yaroqlarni cheklash, yadroviy nizo chiqish xavfini kamaytirish, mazkur zonaga kiradigan mamlakatlar xavfsizligini mustahkamlash va 1968 yilda imzolangan yadro quroli tarqatmaslik haqidagi shartnomaning hayotga tatbiq etishga ko’maklashish vositasidir.

O’zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining mohiyati – xalq hokimiyatchiligining amalga oshirilish, hokimiyatning xalq manfaatlariga bo’ysundirilganligi bilan bevosita bog’liqdir. Zero, uning ijtimoiy bazasini xalq

tashkil etadi. Mamlakatimiz siyosiy tizimining maqsadi O’zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish; demokratik huquqiy davlatchilikni barpo etish; ijtimoiy siyosiy barqarorlikni, millatlar o’rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni ta’minlashdan iborat. O’zbekiston Respublikasining siyosiy tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi: O’zbekistonda davlat mustaqilligini mustahkamlash; mamlakatdagi siyosiy kuchlarni yuqoridagi maqsadlar yo’lida birlashtirish; jamiyatga siyosiy rahbarlikni amalga oshirish; unda demokratik prinцiplarni qaror toptirish; bozor iqtisodiyoti munosabatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish; milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va shu asosda yangi avlodni – komil insonni tarbiyalash.

O’rta jamoa – bir xalq yoki millatning birlashtiruvchi jamoa.

Qo’shma ittifoqli partiya sistemalari. Masalan, GFR umumfederativg’xristian – demokratik partiya hamda xristiang’ijtimoiy uyushma partiyasi hamkorligida o’z ifodasini topgandir.

Qonun – ob’ektiv olamdagi narsa va hodisalar o’rtasidagi aloqadorlikning shakli, biror bir narsaning zaruriy ravishda paydo bo’lishini ifodalobchi qoida.

G’oyaviy bo’shliq – umrini o’tab bo’lgan g’oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g’oya, ilg’or bir fikrning shakllanishiga ehtiyoj tug’iladi. Bu zarurat teran anglab etilmagan holda esa g’oyaviy vakuum – bushliq yuzaga keladi. Lekinn tabiatda vakuum – bushliq bo’lmagani kabi, mafkura sohasida ham bo’shliqqa yshl qo’yib bo’lmaydi.

Hokimiyatning asosi – bu uning tayanchi, boshqaruv manbalari bo’lib uning yordamida qo’yilgan maqsadga erishish yo’lida ob’ektga ta’sir ko’rsatadi.

Hokimiyat manbalari – bu xaqiqiy va yashirin imkoniyatlar bo’lib ular hokimiyatni mustahkamlash yo’lida foydalaniladi yoki foydalanishi mumkin.

Hokimiyatning 3 tarkibiy qismi – sub’ekti, ob’ekti, vositalari. Hokimiyat sub’ektlarining (individ, guruh, ijtimoiy qatlam va shu kabi) kishilar faoliyati, xulqi, harakatiga ta’sir qilish layoqati bo’lgan xolati. Bunda sub’ekt o’z irodasini ob’ektga singdiradi, zo’rlik yoki ixtiyoriylik vositalari orqali faoliyatga, harakatga undaydi.

Hokimiyatning legitimlik printsiplari – omma hokimiyatni ma’lum bir ishonch asosida qabul qilishiga legitimlik deyiladi. Ular siyosiy hokimiyatni tan olib, bo’ysunishini asoslovchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan sabablardir. Legitimlik prinцipining manbalari qadimdan mavjud an’analarda, amaldagi qonunchilikda yoki xukmdorlarning katta avtoritetida bo’lishi mumkin. (Izoh. Legitim biror huquq va vakolatning qonuniy ekanligini e’tirof etish, tasdiqlash).

Huquqiy davlat – huquqning hukmroniligi va qonunning ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo’linishi, sudning mustaqilligi, inson huquqlari va erkinliklari ta’minlanadigan, huquqni muxofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo’lgan xaqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir.

“6+2” guruhi – (1997g’2001 yillar). BMT kotibiyati binosida 1997 yili O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan tuzilgan. Bu guruh Afg’onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo’l bilan hal etishga qaratilgan edi. Bunga a’zolar Afg’oniston, Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O’zbekiston + AQSH va Rossiya kirgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O’zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2009.

2. O’zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi qonuni. 1996 yil 26 dekabr.

3. O’zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonuni. 1998 yil 28 aprel.

4. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to’g’risida”gi qonuni (1999 yil aprel).

5. O’zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida”gi qonuni. 2000 yil 26 may.

6. O’zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida”gi qonuni. 2000 yil 15 dekabr.

7. O’zbekiston Respublikasi “Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi to’g’rsida”gi qonuni (2002 yil 12 dekabr).

8. O’zbekiston Respublikasi “Oliy Majlisining Senati to’g’risida”gi qonuni (2002 yil 12 dekabr).

9. “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to’g’risida”gi qonuni (2004 yil 30 aprel).

10. O’zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to’g’risida”gi qonuni (2007 yil 11 aprel).

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma’ruzalari.

1. Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O’zbekiston” 1996. T .1.

2. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. “O’zbekiston”, 1997.

3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. –T.: “O’zbekiston”, 1998. T.6.

4. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: “O’zbekiston”, 1999.

5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.–T.: “O’zbekiston”, 2000. T.8.

6. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashish kerak. –T.: “O’zbekiston”, 2002. T.10.

7. Karimov I.A. Biz tanlagan yo’l – demokratik va ma’rifat dunyo bilan hamkorlik yo’li. –T.: “O’zbekiston”, 2003. T.11.

8. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o’z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog’liq. –T.: “O’zbekiston”, 2004. T.12.

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. –T.: “O’zbekiston”, 2005.

10. Karimov I.A. O’zbek xalqa hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. –T.: “O’zbekiston”, 2005. T.13.

11. Karimov I.A. Inson va uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. –T.: “O’zbekiston”, 2006. T.14.

12. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustivor vazifamizdir. –T.: “O’zbekiston”, 2007.

13. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to’liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini kurash – farovon hayotimiz garovidir.
–T.: “O’zbekiston”, 2007.

14. Karimov I.A. O’zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo’li. –T.: “O’zbekiston”, 2007.

15. Karimov I.A. O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 17 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi. “Xalq so’zi”, 2008 yil 1 sentyabr.

16. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. –T.: “O’zbekiston”, 2008.

17.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: “O’zbekiston”, 2009.

18.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. –T.: “O’zbekiston”, 2009.

19.Karimov I.A. O’zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. -T.: “O’zbekiston”, 2009. 32b.

20.Karimov I.A.Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O’zbekiston”, 2010. 78b.

21.Karimov I.A. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. -T.: “O’zbekiston”, 2010. 80 b.

3. Darsliklar

1. Латниева В.В. Основы сотциологии и политологии. Учебник. Т. Гардарика, 2005,
2. Политология. Учебник. – М.: Юрайт-Издат, 2006.
3. Василенка И.А. Политология. Учебник. –М.: Гардирики. 2006.

5.Смирнов Г.Н. и друг. Политология. Учебник. М. 2006.

6.Муаллифлар жамоаси. Политология. –М.: ИНФРА-М. 2007.

7.Муаллифлар жамоаси. Политология. –М.: ИНФРА-М. 2008.

8.Политология. Учебник. –М.: Юрайт-Издат. 2008.

9. X.T.Odilqoriev. D.X.Razzaqov. Siyosatshunoslik. “O’qituvchi” nashriyoti. T. 2008, 278 b.

10.Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009, 662 b.

4. O’quv uslubiy qo’llanmalar.

1. Politologiya. O’quv qo’llanma. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. “O’AJBNT” markazi. 2002.

2. Solov’ev V.P., Pugachev V.P. Siyosatshunoslikka kirish. O’quv qo’llanma. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2004.

3. Pugachev V.P., Solov’ev A.I. Politologiyaga kirish. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2004.

4. Aliev B. va boshqalar. Politologiya fanidan o’quv-uslubiy qo’llanma. –T.: TDIU. 2005.

5. Mualliflar jamoasi. Uchebno metodicheskie posobie po Politologii. –T.: TDIU, 2005.

6. Aliev B. Hoshimov T. va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma. TDYUI. –T.: 2006.

7. Aliev B. va boshqalar. Politologiya fanidan o'quv-uslubiy modul. –T.: TDIU. "Fan va texnologiyalar nashriyoti". 2006.

8. Hoshimov T va boshqalar. Mualliflar jamoasi Politologiya fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida) –T.: TDIU. 2006.

9. Aliev B., Boboev A. "Politologiya" fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. –T.: TDIU. 2006.

5. Monografiyalar.

1. Nizomulmulk. Siyosatnoma. –T.: "Adolat", 1997.

2. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. –T.: "Sharq", 1998.

3. Dal' R.O. O demokratii. M.ASPEKT PRESS, 2000.

4. Aflotun qonunlari. Rus tilidan Urfan otajon tarjimasi. –T.: "Yangi asr avlodi". 2002.

5. Дюверже М. Политические партии М. 2002.

6. Islomov Z. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. –T.: TDYUI. 2002.

7. Jo'raev S. Fuqarolik faoliyati: nazariya va amaliyot –T.: ToshDSHI, 2003.

8. Ergashev I. Siyosat falsafasi. –T.: "Akademiya", 2004.

9. Xolbekov A.J., Matiboev T.B.. Ijtimoiy adolat va demokratiya: barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.: "Yangi asr avlodi", 2004.

10. Jalalova G.F. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning siyosiy jihatlari. –T.: "Fan va texnologiya", 2004.

11.Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajribalar. –T.: "Yangi asr avlodi", 2006.

6. Xalqaro va xorijiy me’yoriy hujjatlar.

1. Bag’rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. –T.: YUNESKO, 1995.
2. Европейская партия о metsном самоуправлении – Бриссеес: TACTC сервисес дасл Туропеан Сомиссиен, 1995.
3. Избирательные ситемы и наблюдение за выборами. Краткий обзор. Фонд фридриха науманна. Московское бюро. М. 1995.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Asosiy omillar. –T.: BMTning O’zbekistondagi vakolatxonasi, 2001.
5. Парижеская хартия для новой Европы, 21 ноября 1990 год. Вармаво6 БДИПГ ОБСЕ, 2001.
6. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. . “O’zbekiston”, T. 2009.

7. Internet saydlari.

1. www.ref.uz
2. www.ziyo.edu.uz
3. www.perfarmanee.edu.uz
4. www.ee.edu.uz
5. www.gov.uz
6. www.google.uz
7. www.yandex.ru
8. www.referat.ru

MUNDARIJA

KIRISH----------4

I BO'LIM. POLITOLOGIYA FANI, SIYOSIY TA'LIMOTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1-mavzu. POLITOLOGIYANING SIYOSIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI----------8

1.1. Politologiya fani predmeti, maqsadi va vazifasi----------8

1.2. Politologiya fani, qonun va tushuncha, kategoriyalari, hamda uning uslublari----------13

1.3. Politologiyaning boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan o'zaro munosabati-----22

1.4. Mustaqillik va O'zbekistonda politologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi.----------25

2-mavzu. SIYOSIY QARASHLAR VA TA'LIMOTLAR: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI----------31

2.1. Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda siyosiy qarashlar.----------31

2.2. O'rta asr (Sharq uyg'onish davri) siyosiy qarashlari.----------40

2.3. XVI-XIX asrlarda G'arb siyosiy qarashlari----------47

2.4. XIX asr va yangi davrdagi siyosiy qarashlar.----------57

II BO'LIM. SIYOSIY INSTITUTLAR VA SIYOSIY JARAYONLAR

3-mavzu. SIYOSIY HAYOT VA JARAYONLAR.----------68

3.1. "Siyosiy hayot", "siyosat" tushunchalari hamda siyosat davlatni boshqarish san'ati ekanligi.----------68

3.2. Siyosiy jarayon tushunchasi, xususiyati va mazmuni. Unda siyosiy institutlarining ishtiroki. ----------74

3.3. Siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayon-i----------79

3.4. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlarning o'ziga xosligi.----------82

4-mavzu: SIYOSIY TIZIM----------87

4.1. Siyosiy tizim tushunchasi. Siyosiy tizim elementlari----------87

4.2. Siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlari----------94

4.3. Jahondagi davlat hokimiyatini idora etish shakllari: monarxiya, respublika va ularning ko'rinishlari.----------99
4.4. Davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ularning munosabatlari---------- ---102
5-mavzu. DEMOKRATIYA. DEMOKRATIYANING ASOSIY KONTSEPTSIYALARI----------107
5.1. "Demokratiya" tushunchasi. Demokratiya va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.---107
5.2. Demokratiya shakllari va uni e'tirof etish tamoyillari---------- -113
5.3.Saylov – davlat hokimiyatini demokratik asosda shakllantirish vositasi va jahon tajribasi.----------117
5.4. O'zbekistonda parlament tuzilishi. Bir palatali va ikki palatali parlament tajribasi.----------121
6-mavzu. SIYOSIY HOKIMIYAT.----------131
6.1. "Hokimiyat", "siyosiy hokimiyat" tushunchalari va uning sub'ektlari-------131
6.2. Davlat hokimiyati – idora etishning o'ziga xos vositasi va uning shakllari--139
6.3. Siyosiy hokimiyatning siyosiy va ijtimoiy institutlar bilan munosabatlari --141
6.4. Davlatning tuzilishi shakllari, printsiplari va uni shakllantirish yo'llari------143
7-mavzu. SIYOSIY HAYOT VA KO'PPARTIYAVIYLIK.----------152
7.1. Siyosiy hayot va ko'ppartiyaviylik omili. "Ko'ppartiyaviylik" tushunchasi.151
7.2. Siyosiy hayotni erkinlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rni va roli.--------158
7.3. O'zbekistonda siyosiy partiyalar tizimi. Partiyalarninng siyosiy maqsadlari----------161
7.4. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati, nodavlat, jamoat tashkilotlari bilan munosabati----------166
8-mavzu. SIYOSIY ELITA VA SIYOSIY YETAKCHI (LIDER).----------171
8.1. Siyosiy elita. Siyosiy yetakchi tushunchasi hamda siyosiy boshqarish va siyosiy rahbarlik----------171
8.2. Siyosiy yetakching ko'rinishlari va unga yondashuvning xilma-xilligi.------177
8.3. Siyosiy yetakchi ma'suliyati, vazifalari va boshqarishning asosiy tamoyillari----------180
8.4. Siyosiy yetakchi va mamlakat istiqboli.----------185

9-mavzu. SIYOSAT VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR----------189
9.1. Siyosat va millatlararo munosabatlar.----------189
9.2. Milliy munosabatlarda o'zaro uyg'unlik, siyosiy barqarorlik omili----------192
9.3. Milliy siyosat va milliy davlat uyushmalari---------- ---195
9.4. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar.----------196
III BO'LIM. SIYOSIY ONG, MADANIYAT VA MAFKURALAR
10-mavzu. SIYOSIY ONG. ---------- --207
10.1. Siyosiy ong tushunchasi. Uning harakat mehanizmi.----------207
10.2. Siyosiy ongning darajasi, o'zaro farqi, o'z-o'zini anglash jarayoni.---------210
10.3. Siyosiy ongda umumdavlat manfaati va siyosiy ongga ehtiyojnig oshib borishi----------214
10.4. Siyosiy ong shakllanishining asosiy omillari. Demokratik siyosiy ong-----217
11-mavzu. SIYOSIY MADANIYAT----------221
11.1. Siyosiy madaniyat tushunchasi. Siyosiy madaniyat tizimi va asosiy elementlari.----------221
11.2. Siyosiy madaniyatning modellari: liberal va sharqxona.----------231
11.3. Mustaqillik va milliy siyosiy madaniyatni qayta tiklash zaruriyati va uning siyosiy ahamiyati- ----------233
11.4.Siyosiy madaniyatning yuksalishi va fuqarolik jamiyat--i----------246
12-mavzu. MAFKURA VA SIYOSAT.----------251
12.1. Siyosat va mafkura tushunchasi, siyosatda mafkuraviy manfaatlar turli xilligi, kurashi va monandligi----------251
12.2. Siyosiy mafkuraning xilma-xilligi va deidolizatsiya (mafkurasizlantirish).254
12.3. Globallashuv jarayonida jamiyat mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy munosabatlar.----------261
12.4. Mustaqillik va milliy mafkuraga bo'lgan extiyoj.----------264
IV BO'LIM. XALQARO TIZIMLAR VA UMUMBASHARIY TARAQQIYOTNING SIYOSIY MUAMMOLARI
13-mavzu. XALQARO TIZIM VA XALQARO SIYOSAT----------271
13.1. "Xalqaro tizim" va "xalqaro siyosat" tushunchasi hamda uning bir

butun muvozanatni saqlash manfaatlari----------271
13.2. Davlatlar tashqi siyosati va diplomatik munosabatlar.----------276
13.3. Xalqaro tartibda tizim yaratuvchi, tizim parchalovchi jarayonlar va tendentsiyalar----------280
13.4. Yangi jahon tartiboti: buguni va istiqboli.----------284
14-mavzu. XALQARO TERRORIZM.----------292
14.1. Hozirgi zamon taraqqiyoti va terrorizm hamda xalqaro terrorizmning insoniyat hayotiga taxdidi, uning klassik va zamonaviy ko'rinishlari.---------292
14.2. Xalqaro terrorizmga barxam berishning huquqiy va siyosiy me'yorlar tizimini shakllantirish.----------297
14.3. Diniy fundamentalizm va xalqaro terrorizm. Terrorizmga qarshi kurashda milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligi.----------299
14.4. Diniy aqidaparastlik va xalqaro terrorizmning O'zbekistonga tahdidi.------306
15-mavzu. MINTAQAVIY MOJAROLAR VA SIYOSIY ECHIMLAR.-----311
15.1. Mintaqaviy mojarolarda sotsial, diniy, etnik muammolar, ular o'rtasidagi ziddiyatlar.----------311
15.2. Mintaqaviy muammolarning ko'rinishlari. Fuqarolar urushi, separatizim, millatlararo to'qnashuv.----------313
15.3. Mintaqaviy va xalqaro mojarolarning echimi uslubi va mehanizmida siyosiy yo'lning afzalligi.----------317
15.4. Markaziy osiyoning yagona geosiyosiy makon ekanligi.---------- 319
16-mavzu. XALQARO XAVFSIZLIK: BARQARORLIK VA TARAQQIYOT----------327
16.1. Xalqaro xavfsizlik, xalqaro barqarorlik va xalqaro taraqqiyot, ularning uzviy bog'liqligi.----------327
16.2. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning roli.---------- 331
16.3. O'zbekiston milliy xavfsizlik strategiyasining asosiy parametrlari, ichki va tashqi omillari----------334
16.4. Mamlakatimiz xavfsizligida "Markaziy Osiyo omili"ning ustuvorligi-----345

XULOSA O’RNIDA----------352
GLOSSARIY----------356
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR----------379

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ…….....….4

ГЛАВА I. ПОЛИТОЛОГИЯ, ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ИДЕЙ

1-тема: Место и роль политологии в системе политических наук.....8

1.1.Предмет, цели и задачи политологии.....**.....**8

1.2. Законы и понятия, категории и методы политологии ...…….....13

1.3. Взаымосвязь Политологии с другими общественно-гуманитарными науками …… ……22

1.4. Независимость и формирование, развитие политологии в Узбекистане……..25

2-Тема: Политические мысли и учения: формирование и развитие…...31

2.1. Политические мысли древнего мира и средневековья…….....31

2.2. Политические мысли средневековья (период Восточного Ренессанса)...40

2.3. Политические взглади XVI- XIX веков в Западоевропеских странах.....47

2.4. Политические взглади XIX века и навого времени……...…56

ГЛАВА II. ПОЛИТИЧЕСКИЕ ИНСТИТУТЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

3-тема: Политическая жизнь и процессы…….....……..68

3.1. Понятие «политической жизни», «политики» и политика как искусство управления государством…….....…….....68

3.2. Понятие политического процесса, его сущность и значение. Участие в нем политических институтов…….....…..... . ..74

3.3. Порядок принятия политических решений……..79

3.4. Особенности политических процессов в Узбекистане…….....….....82

4-тема: Политическая система…….....87

4.1. Понятие политической системы. Элементы политической системы…...87

4.2. Политическая система и её составные части…….....

4.3. Исторические формы управления государственной власти: монархия, республика и их типы…….....99

4.4. Государственные и негосударственные организации и их взаимоотношения ….....102
5-тема: Демократия. Основные концепции демократии…….....107
5.1. Понятие «демократии». Демократия и социально-политические процессы.....107
5.2. Формы демократии и принципы его признания…….....113
5.3. Выборы – как средство формирования государственной власти на демократической основе и мировой опыт…….....117
5.4. Устройство парламента в Узбекистане. Опыт однопалатного и двухпалатного парламента…….....121
6-тема: Политическая власть…….....…131
6.1. Понятие «власти», «политической власти» и их субъекты…….....131
6.2. Государственная власть – как своеобразное средство управления и её типы…….....…139
6.3. Взаимосвязь политической власти с другими общественно-политическими организациями……..141
6.4. Формы, принципы строения государства и пути его формирования …143
7-тема: Политическая жизнь и многопартийность.....152
7.1. Политическая жизнь и фактор многопартийности. Понятие «многопартийности».....152
7.2. Место и роль политических партий в либерализации политической жизни…….....158
7.3. Система политических партий в Узбекистане. Политические цели партий…….....161
7.4. Взаимоотношения политических партий с государственной властью, негосудрственными и общественными организациями……...166
8-тема: Политическая элита и политический лидер…..…171
8.1. Политическая элита. Понятие политического лидера, политического управления и политического руководства…….....171
8.2. Виды политического лидера и разнообразие подходов к нему…….....177

8.3. Ответственность политического лидера, его полномочия и основные принципи управления……..……180
8.4. Политический лидер и будущее страны…….....185
9-тема: Политика и межнациональные отношения…….....189
9.1. Политика и межнациональные отношения…….....189
9.2. Взаимная гармония, фактор политической стабильности в межнациональных отношениях. …….....192
9.3. Национальная политика и национальные государственные объединения….....195
9.4. Межнациональные отношения в Узбекистане…….....196
ГЛАВА III. ПОЛИТИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ, КУЛЬТУРА И ИДЕОЛОГИЯ
10-тема: Политическое сознание…….....207
10.1. Понятие политического сознания. Механизм его движения……....207
10.2. Уровень политического сознания их различие, процесс самосознания ……..210
10.3. Государственные интересы в политическом сознание и возрастание её роли……214
10.4. Основные факторы формирования политического сознания. Демократическое политическое сознание…….....217
11-тема: Политическая культура…….....220
11.1. Понятие политической культуры. Система и основные элементы политической культуры…….....…….220
11.2. Либеральная и восточная модели политической культуры….....231
11.3. Независимость и необходимость восстановления национальной политической культуры и её политическое значение…….....233
11.4. Возрастание политической культуры и гражданское общество ……..246
12-тема: Идеология и политика.....251
12.1. Понятие «идеологии и политики», разнообразие идеологических интересов в политике, их борьба и соответствие.....251

12.2. Разнообразие политической идеологии и деидеологизация.....254
12.3. Национальная идеология в процессе глобаллизации: общественно-политические и идеологические отношения.....261
12.4. Независимость и потребность в национальной идеологии.....264
ГЛАВА IV. МЕЖДУНАРОДНЫЕ СИСТЕМЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ
13-тема: Международная система и международная политика.....…..271
13.1. Понятие «международной системы» и «международной политики» и их интересы в сохранении целостности стабильности…….....…271
13.2. Внешняя политика государств и дипломатические отношения.....276
13.3. Созидательные и разрушительные тенденции в международном правопорядке……280
13.4. Новый мировой порядок: сегодня и в будущем…….....284
14-тема: Международный терроризм…….....292
14.1. Современное развитие и терроризм, угроза международного терроризма жизни человечества, его классические и современные виды….....…292
14.2.Формирование правовых и политических систем мер предотвращения международного терроризма…….....297
14.3. Религиозный фундаментализм и международный терроризм. Гармония общечеловеческих и национальных интересов в борьбе против терроризма.....299
14.4. Угроза религиозного фундаментализма и международного терроризма Узбекистану…….....306
15-тема: Региональные конфликты и политические решения……...311
15.1. Социальные, религиозные, этнические проблемы в региональных конфликтах, противоречия между ними…….....311
15.2. Виды региональных конфликтов. Гражданская война, сепаратизм, межнациональные конфликты…….....313
15.3. Преимущество политического пути, методов и механизмов решения региональных и международных конфликтов…….....317

15.4. Центральная Азия как единое геополитическое пространство……....319
16-тема: Международная безопасность: стабильность и развитие…….327
16.1. Международная безопасность, международная стабильность и международное развитие, их взаимосвязанность…….....327
16.2. Роль международных и региональных организаций в обеспечении международной безопасности…….....…331
16.3. Основные параметры, внутренние и внешние факторы стратегии национальной безопасности Узбекистана…….....334
16.4. Нацилнальная безопастность и приоритеты «Центральноазиатского» региона……..345
ЗАКЛЮЧЕНИЕ…….....352
ГЛОССАРИЙ…….356
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА….....379

CONTENTS

INTRODUCTION…….....4

PART I. POLITOLOGY; CONSTRUCTION AND DEVELOPMENT OF POLITICAL IDEAS

Topic #1. ROLE OF POLITOLOGY IN THE SYSTEM OF POLITICAL SCIENCES …….....……....8

1.1 Purposes and functions of politology…….....…….8

1.2 Law and notions, categories and methods of politology …….....13

1.3 Interrelation of politology with other humanitarian sciences…….....…22

1.4 Independence and, construction and development of politology in Uzbekistan …….....……25

Topic #2. CONSTRUCTION AND DEVELOPMENT OF POLITICAL VIEWS AND SCIENCES……...…….....……..31

2.1 Ancient world and political views in Middle Ages…….....……..31

2.2 Political views in Middle Ages (Rise of the East)…….....…40

2.3 XVI- XIX centuries political views in Western European.. ....…….....47

2.4 Political views of XIX century and new epoch.....……..56

PART II. POLITICAL INSTITUTIONS AND POLITICAL PROCESSES

Topic #3. POLITICAL LIFE AND PROCESSES …….....…68

3.1 Notions of "Political life", "politics" and the art of politics' ability to control a country…… …….....…….…68

3.2 Notion of political process, its properties and meanings. Participation of political institutions……..…….....……74

3.3 The order of making political decisions…….....…..79

3.4 Unique political processes in Uzbekistan…….....82

Topic #4. POLITICAL REGIME…….....87

4.1 Notion of Political Regime. Elements of Political Regime…….....87

4.2 Political Regime and its components…….....……...94

4.3 Methods of government control: monarchy, republic and their categories ... .99

4.4 Government and non-government organizations, and their Associations.....102
Topic #5. DEMOCRACY. MAIN CONCEPTS OF DEMOCRACY….....107
5.1 Notion of “Democracy.” Democracy and socio-political processes.....107
5.2 Types of democracy and techniques of notifying it…….....…113
5.3 Elections – establishing the state government in democratic concepts, and world’s experience …….....…….117
5.4 Structure of Parliament in Uzbekistan. Experience of single chamber and double chamber parliament …….....…….....121
Topic #6. POLITICAL GOVERNMENT…….....…137
6.1 Notions of “Government” and “Political government” and its Subjects…….137
6.2 State Government is a distinct standard of controlling and its structures.....139
6.3 Interrelation of political power with other social political organizations....…141
6.4 Structures and principles of constructing a government, and ways of development ……..……..143
Topic #7. POLITICAL LIFE AND MULTIPLE PARTIES…….....152
7.1 Basics of political life and multiple parties. Notion of “multiple parties”…152
7.2 Parts and roles of political parties in freeing the political life …….....158
7.3 System of political parties in Uzbekistan. Political mission of parties….....161
7.4 Interrelation of political parties with state power, non-state and social organizations..... ……166
Topic #8. POLITICAL ELITE AND POLITICAL LEADER…….....171
8.1 Political elite. Notion of political leader; political control and political chief……. . 171
8.2 Appearances of a political leader and diversity of acknowledging ....……177
8.3 Liability of political leader, the responsibilities and basic principles of management.....……180
8.4 Political leader and country’s development …….....…..185
Topic #9. POLITICS AND INTERCULTURAL RELATIONSHIPS.....189
9.1 Politics and intercultural relationships …….....…..189

9.2 Mutual interrelations in national relationships, basis of political stability. Preventing “racism” from being involved in politics ….....….192
9.3 Politics and national political associations …….....……..195
9.4 Intercultural relationships in Uzbekistan …….....……...196
PART III. POLITICAL INTELLIGENCE, CULTURE AND NATIONAL BELIEFS
Topic #10. POLITICAL INTELLIGENCE…….....….207
10.1 Notion of political intelligence. Its mechanism of motion …….....207
10.2 Level, difference, and understanding process of political Intelligence.....210
10.3 National interests in political consciousness and growth of its role.....…214
10.4 Main basics of developing political intelligence. Democratic political intelligence …….....…..217
Topic #11. POLITICAL CULTURE……..…….....220
11.1 Notion of political culture. Political culture system and its main elements..220
11.2 Models of political culture: liberal and Eastern…….....231
11.3 Politicfl cultire growth and social community…….233
11.4 Independence, and the need of restoration national political culture and its.246
Topic #12. NATIONAL BELIEFS AND POLITICS …….....….251
12.1 Concept of politics and national beliefs, variety of national benefits in politics …….....…251
12.2 Diversity of national beliefs and deidolism …….....….254
12.3 National ideology in the process globalization: social political and ideological relations…….……261
12.4 Independence and need for national beliefs…….....….264
PART IV. INTERNATIONAL SYSTEMS AND POLITICAL PROBLEMS OF WORLDWIDE DEVELOPMENT
Topic #13. INTERNATIONAL SYSTEM AND INTERNATIONAL POLITICS…….....271
13.1 Notion of “international system” and “international politics” and its benefits of staying stable …….....…….271

13.2 Foreign affairs of countries and diplomatic relationships …….....276
13.3 Creative and devastating tendencies of international regulation……..…..280
13.4 New world's rules: today and development…….....….284
Topic #14. INTERNATIONAL TERRORISM …….....292
14.1 Nowadays' development and terrorism, and threats of terrorism to humanity, its classic and modern types …….....……...292
14.2 Developing judicial and political system of norms to destroy international terrorism…….....……..297
14.3 Religious fundamentalism and international terrorism. National and worldwide interrelations in fighting against international terrorism ….....299
14.4 Threats of religious traditionalism and international terrorism to Uzbekistan…….306
Topic.15. REGIONAL PROBLEMS AND POLITICAL RESOLUTIONS..311
15.1 Social, religious, ethnic problems in regional problems and conflicts among them.....311
15.2 Types of regional problems. Civil war, separatism, and international conflicts.....313
15.3 Preference of political way in method and mechanism of solving regional and international conflicts 317
15.4 Central Asia is one geopolitical area.....319
Topic #16. INTERNATIONAL SECURITY: STABILITY AND DEVELOPMENT.....327
16.1 International security, international stability, and international development; their relativity.....327
16.2 Role of international and regional organizations in sustaining international security 331
16.3 Main parameters of Uzbekistan's strategy of national security, internal and external manners 334
16.4 National security and Central Asian region priorities ……..….345

CONCLUSION.....352
GLOSSARIY...……..…..356
USED MATERIALS.....379